

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAHALLA VA OILANI QO'LLAB-QUVVATLASH VAZIRLIGI

"MAHALLA VA OILA" ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI



OILA INSTITUTINI MUSTAHKAMLASHNING DOLZARB MASALALARI: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi

АКТУАЛЬНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ УКРЕПЛЕНИЯ ИНСТИТУТА СЕМЬИ: НАЦИОНАЛЬНЫЙ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ

международная научно-практическая конференция

CURRENT TRENDS IN STRENGTHENING THE FAMILY: NATIONAL AND INTERNATIONAL EXPERIENCE

International scientific-practice conference

2021-yil 18-may

"Mahalla va oila nashriyoti"
Toshkent – 2021

UO'K: 316.3-055.2

KBK: 60.56

B 12

Oila institutini mustahkamlashning dolzARB masalalari: milliy va xorijiy tajriba [Matn]: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. – Toshkent: “Mahalla va oila nashriyoti”, 2021. – 336 b.

Tahrir hay'ati:

**N.Egamberdiyeva, A.Musurmonova, X.Abduramanov, G.Tuychiyeva,
D.Alimjanova, S.Xojayev, X.Saydvaliyeva**

Mas'ul muharrirlar:

F.Babashev, B.Mavlonov

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagи “Jamiyatda ijtimoiyma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishslash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-sonli farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Makhkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 820-sonli qarori va “**Xalqaro oila kuni**” munosabati bilan **2021-yilning 18-may kuni** O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot institutida **“Oila institutini mustahkamlashning dolzARB masalalari: milliy va xorijiy tajriba”** mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazildi.

В соответствии с Указом Президента Республики Узбекистан «О мерах по оздоровлению социально-духовной атмосферы в обществе, дальнейшей поддержке института махалли, а также поднятию на новый уровень системы работы с семьями и женщинами» (№ 5938 от 18 февраля 2020 года) и Постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему развитию института семьи и подготовки молодежи к семейной жизни» (№ 820 от 31 декабря 2020 года), а также принимая во внимание, что 15 мая – Международный день семьи, научно-исследовательский институт «Махалли и семьи» планирует 18 мая 2021 года проведение международной научно-практической конференции на тему: «Актуальные направления укрепления института семьи: национальный и зарубежный опыт».

The conference on “**Current trends in strengthening the family: national and international experience**” will be organized by Makhalla and Family Scientific Research Institute under the Ministry of Support of Makhalla and Family of the Republic of Uzbekistan on May 18, 2021 in connection with the International Family Day.

This conference will be organized in accordance with the Decree of President of the Republic of Uzbekistan ‘On measures of further development of the social and spiritual atmosphere in society, support of makhalla institute and to raise the system of work with families and women to a new level’ dated February 18, 2020 and the Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan ‘On measures for further development of the institute of family and preparing youth for family life’ dated December 31, 2020.

Mazkur to‘plam materiallaridan foydalanilganda mualliflik huquqini e‘tiborga olgan holda konferensiya to‘plamiga havola berilishi shart.

To‘plamga kiritilgan ma‘ruzalar materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashli sifatida talqin qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti Ilmiy kengashining 2021-yil 7-apreldagi 4-sonli majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

BIRINCHI SHO‘BA:

YANGI O‘ZBEKISTONDA OILA
INSTITUTINI RIVOJLANTIRISH
VA XOTIN-QIZLARNI IJTIMOIY
QO‘LLAB-QUVVATLASHNING
MAZMUN VA MOHIYATI

Narbayeva Tanzila Kamalovna,
Oliy Majlis Senatining raisi,
sotsiologiya fanlari doktori

OILAVIY ZO'RAVONLIKNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA UNI BARTARAF ETISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Maqolada keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasida xotin-qizlar va oilani qo'llab-quvvatlash sohasida olib borilayotgan ulkan islohotlar hamda oilaviy zo'ravonlikning kelib chiqish sabablari va uni bartaraf etishning innovatsion mexanizmlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: islohot, oila, xotin-qizlar, oilaviy zo'ravonlik, tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy, ijtimoiy, munosabat.

Аннотация. В статье раскрываются огромные реформы, проведенные в Республике Узбекистан за последние годы в сфере поддержки женщин и семьи, а также причины домашнего насилия и инновационные механизмы его устранения.

Ключевые слова: реформа, семья, женщины, домашнее насилие, естественное, экономическое, правовое, духовное, социальное, отношение.

Annotation. The article reveals the huge reforms have been carried out in the Republic of Uzbekistan in recent years in the field of support for women and the family, as well as the causes of domestic violence and innovative mechanisms for its elimination.

Key words: reform, family, women, domestic violence, natural, economic, legal, spiritual, social, attitude.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining 4.2. "Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish" bandida belgilab berilgan ustuvor vazifalar, xususan, xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish, gender tengligini ta'minlash, davlat boshqaruvidagi ishtirokini oshirish, og'ir ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga moddiy, psixologik, tibbiy yordam ko'rsatish, ularni uy-joy va ish bilan ta'minlash, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, oilada ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash¹ borasida amalga oshirilayotgan ishlar natijasida xotin-qizlarni ijtimoiy-himoya qilish masalasi yangi bosqichga ko'tarildi. Yangi O'zbekistonni yaratish yo'lida keng ko'lamli innovatsion faoliyat va bunyodkorlik, yaratuvchanlik harakatining asoschisi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Biz bu yil xotin-qizlar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko'taramiz"².

Zero, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun yangi ish o'rinnari yaratish, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo'naliishiga aylandi. Davlat organlari, fuqarolik jamiyatni vakillari faoliyatini muvofiqlashtirishni ta'minlash maqsadida Respublika xotin-qizlar jamoatchilik Kengashi o'z ishini boshladi. Kengash tarkibiga hayotiy tajribaga ega yurtdoshlarimiz, deputat va senator ayollar, olim va professorlar hamda jamoatchilik vakillari kiritildi. Kengash xotin-qizlarning turmush sharoitlarini yaxshilash, ularga kerakli bilim va ko'nikmalarini o'qitish, shuningdek, o'z biznesini boshlashlari uchun zarur mablag' bilan ta'minlash orqali aholi, ayniqsa, ayollar va qizlarning turmush darajasi yaxshilanishiga erishish maqsadida tashkil qilindi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ayollar huquqlarini himoya qilish va ularning imkoniyatlarini kengaytirish sohasida 20 ga yaqin huquqiy hujjatlar qabul qilinganligi, 2030-yilgacha bo'lgan davrda gender tengligiga erishish strategiyasi ishlab chiqilgani, unga muvofiq barcha yangi qonun loyihibalarini gender nuqtayi nazaridan tahlil qilish bo'yicha maxsus protseduralar kiritildi. O'zbekistonda davlat boshqaruvidagi ayollar soni, ularning jamoat ishlarida ishtirok etishi va qarorlar qabul qilish darajasi oshib bormoqda. Mas'ul va

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ти Фармони. – Тошкент, "Адолат", 2018. Б.22-23.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 январда Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига Мурожаатномаси. / <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>

boshqaruv lavozimlarida ayollarning vakolatlari 26,6 foizga yetdi. Yangi parlamentdagi ayollar soni ikki baravar ko‘paydi. Hozirgi vaqtida bunday ko‘rsatkich bo‘yicha O‘zbekiston parlamenti dunyo davlatlarining 190 ta qonun chiqaruvchi organlari orasida 37-o‘rinni egallab turibdi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ana shunday ulkan islohotlarning pirovard maqsadlaridan biri oila, uning tinchligi, faovonligi va baxtli bo‘lishi bilan bog‘liq.

Agar jamiyat ijtimoiy munosabatlar yig‘indisi bo‘lsa, undagi har bir oila tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma’naviy munosabatlarga asoslangan ijtimoiy birlik natijasida vujudga keladi. Oilaviy munosabatlar esa jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy, ma’naviy munosabatlari bilan belgilanadi. Jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar oilaning mustahkamligi va barqaror rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Xuddi shuningdek, jamiyatdagi tinchlik va xotirjamlik, undagi ma’naviy muhit barqarorligi ko‘p jihatdan har bir oiladagi munosabatlarda o‘zaro muhabbat va hurmat, hamjihatlikka bevosita bog‘liqdir.

Jadidchilik harakatining ulug‘ namoyondasi Fitrat o‘zining “Oila” asarida: “Millat taqdiri mana shu millat vakillari yashagan oilaning holatiga bog‘liqdir... Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo‘ladi”, – deb yozadi³. Bu jarayonda davlat har bir oilaning ijtimoiy himoyalaniши, moddiy jihatdan ta’milanishi, tinch va farovon hayot kechirishi uchun yetarli sharoitlarga ega bo‘lishidan manfaatdor bo‘lib, ularning farovonligi kafolatlanishiga ko‘maklashayotgani muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mamlakatimizning 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan jadal taraqqiyotini ifodalagan “Harakatlar strategiya”siga binoan, mazkur yo‘nalishdagi amaliy ishlar keng qamrovli tus olib, bu jarayon yanada jadal sur‘atda davom ettirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega” deb qayd etilgan. Konstitutsiyaning mazkur normasi asosida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Oila kodeksi”ning 2-moddasi talabiga ko‘ra, “oilaviy munosabatlarda ayol va erkak teng huquqli bo‘lib, oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarining o‘zaro kelishuv yo‘li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g‘amxo‘rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a‘zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustunligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi”.

Dunyo miqyosida global muammolardan biri bo‘lib kelayotgan oilaviy zo‘ravonlik masalasiga xalqaro hamjamiyatlar tomonidan berilayotgan yuksak e’tiborga qaramasdan, oilalarda bunday salbiy holatlarning kamaymayotgani mazkur holatning alohida tadqiq etiladigan dolzarb mauammolar sirasida qolib kelayotganligi va uni ilmiy tadqiq etishni faollashtirish zaruratini belgilaydi.

Oilaviy zo‘ravonlikning mavjudligi muammo sifatida oilaning iqtisodiy, ma’naviy jihatlari bilangina belgilanmaydi. Shuni alohida qayd etish lozimki, keyingi yillarda bizning mamlakatimizda bu muammo tor oilaviy doiradan chiqib, davlat miqyosida hal etiladigan muhim sotsiologik jarayon sifatida tadqiq etilmoqda. Shu kunga qadar mavjud bo‘lgan bu muammoni hal etishga xalaqit beradigan omillar, birinchi navbatda milliy mentalitet xususiyatlari bilan bog‘liqdir.

2021-yil 19-may kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zo‘rlik ishlatishdan jabr ko‘rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5116-sonli Qarori qabul qilindi. Qaror bilan ayollarni reabilitatsiya va moslashtirish bo‘yicha 29 ta Respublika va hududiy namunali markazlar tashkil etildi. Markazlarning asosiy vazifalaridan biri tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan, o‘z joniga suiqasd qilgan yoki o‘z joniga qasd qilishga moyilligi bo‘lgan xotin-qizlarga anonim tarzda shoshilinch tibbiy, psixologik, ijtimoiy, pedagogik, huquqiy va boshqa yordam ko‘rsatish hisoblanadi.

Respublika va hududiy reabilitatsiya va moslashtiruv markazlarida zo‘ravonlikdan aziyat chekkan fuqarolarga yordam ko‘rsatilmoqda. Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender masalalari qo‘mitasi, Bosh prokuratura, IIV, Oliy ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi va Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi ushbu masalaga oid profilaktika ishlarini olib bormoqda.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra⁴, dunyodagi har uchinchi ayolga hayoti davomida o‘z umr yo‘ldoshi tomonidan jismoni yuz qilishga o‘tkaziladi. Turmush qurgan ayollarning 30 foizi hamrohi tomonidan zo‘ravonlik holatlariga duch keladi. Ayollar o‘limining muayyan qismi ularning turmush

³ Абдурауф Фитрат. Оила. – Тошкент: Маънавият, 1998. Б.8.

⁴ Violence against women. Key facts. World Health Organization, <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/violence-against-women>

o‘rtog‘i tomonidan amalga oshiriladi va zo‘ravonlikka duch kelgan ayollarning 42 foizigina muammo haqida ochiq so‘zlaydi.

Mamlakatimizning turli hududlarida o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar natijalari asosida dunyo turmush tarzida ko‘p uchraydigan maishiy zo‘ravonlikning axloqiy va iqtisodiy zo‘ravonlik usullari O‘zbekistonda ham kuzatilib, uni keng jamoatchilik e’tiboriga chiqarib, ijtimoiy maqbul yechimlarga kelish zaruratini dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo‘yadi.

Zo‘ravonlikka qarshi kurashda huquqiy mexanizmlar ta’siri kuchli bo‘lishi bilan birga, zo‘ravonlik qurbonlari tomonidan ham ularni zo‘ravonlikdan himoya qilish uchun qonun ishlashiga yordam berilishi maqsadga muvofiq. Aksar hollarda, zo‘ravonlik qurbonlari bunday holatlarni sir tutishga harakat qilishadi. Shunday ekan, ularni zo‘ravonlik faktini tan olish, zo‘ravonlikdan normal hayotgacha bo‘lgan qadamlarga o‘rgatish kerak. Bunda eng asosiy bo‘g‘in odamlar va atrof-muhit bo‘ladi, ya’ni jamoatchilikning faolligi muhim o‘rin tutadi.

Sotsiologik tadqiqot natijalari asosida xulosa qilish mumkinki, bir marta zo‘ravonlik holatini sodir etgan shaxs, bu holatni yana takrorlashi ehtimoli yuqori bo‘ladi. Zo‘ravonlikka imkon berishning barcha ko‘rinishlaridan ogoh bo‘lish va oldini olish juda zarurdir. Oilaviy zo‘ravonlikdan aziyat chekayotgan ayol, hatto ba’zi sabablarga ko‘ra yordamdan voz kechayotgan ayol ham jamiyatning ijtimoiy yordamiga muhtoj bo‘ladi.

Oilaviy zo‘ravonlikdan eng ko‘p aziyat chekadigan oila a’zolari bolalardir. Ular zo‘ravonlikning to‘g‘ridan to‘g‘ri qurboni bo‘lishi bilan birga, onaga nisbatan qo‘llanayotgan xatti-harakatlarning ma’lum qismini o‘zlashtirishi xavfi ham bor. Bunday oilada bolaning reallikni qabul qilishi buziladi, zero, u uchun haqorat va kaltaklar asta-sekin normal holatga aylanib boradi. Katta bo‘lgach uning o‘zi ham ana shunday zo‘ravonlik xatti-harakatlarini qo‘llashi mumkin yoki shunchaki bunday “yuk”ni ko‘tara olmay ko‘pincha o‘z joniga qasd qilishi mumkin.

Zo‘ravonlikdan o‘zini himoya qilish har bir ayolning huquqidir. Zo‘ravonlikni hech qanday sharoitda oqlab bo‘lmaydi, chunki u insonning asosiy huquqlariga (hayoti, sog‘ligi, sha’ni, qadr-qimmati, erkinligi) daxl qiladi. Zo‘ravonlik faqat jismoniy kuch ishlatish bilan emas, ruhiy, axloqiy, iqtisodiy va maishiy bosim ko‘rinishlarida namoyon bo‘lishi va oilaning har qanday a’zosiga nisbatan qo‘llanishi mumkin. Haqoratlash, majburlash, zo‘rlash, iqtisodiy cheklar qo‘yish, muntazam ruhiy qyinoqqa solish kabi holatlar ham zo‘ravonlik sifatida baholanadi.

Oilaviy zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan ayollarning muammolarini hal qilish bo‘yicha hududlardagi Mahalla va oilani qo‘llab quvvatlash boshqarmalari va bo‘limlari, sog‘liqni saqlash, ichki ishlar, prokuratura organlari va boshqa daxldor tashkilotlar bilan izchil hamkorlikda faoliyat yuritilmoqda. Muammolarning hal qilinishi O‘zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta’minlash masalalari bo‘yicha komissiyasi nazoratida turibdi.

Oilaviy zo‘ravonlik faqat bir mamlakat va millatga xos illat emas, u bilan butun dunyo kurashib keladi. Shuning uchun ta’rifni xalqaro manbalardan keltiramiz.

Dunyoda zo‘ravonlikka qarshi kurash ramzi sifatida siyohrang tasma olingan. “Ishonch telefon”lari uchun maxfiy so‘zlar quyidagicha bo‘lishi mumkin: “Mening buyurtmamga siyohrang tasmani ham qo‘shing” yoki “Men buyurtma bergandim, unga siyohrang tasma qo‘shishni iltimos qilgandim”. Operator ayol kishi yordam so‘rab murojaat qilayotganini tushunadi va darhol xabarni zo‘ravonlikka qarshi kurashayotgan markazlarga beradi.

Bunday sxemalar ko‘pgina xorijiy mamlakatlarda amalda keng qo‘llaniladi, ba’zilarida esa davlat idoralari tizimida va tizimli nazorat doirasida ishlaydi. Masalan, Ispaniyada, hattoki yordam so‘rab dorixonalarga murojaat qilish mumkin: buning uchun sotuvchidan “19 raqamli niqob bormi?” deb so‘rash kerak. Bu maxfiy so‘z bo‘lib, uni eshitgan farmatsevt ichki ishlar bilan bog‘lanib, xabarni yetkazadi. Xuddi shunday tizim Fransiya, Germaniya, Italiya, Norvegiya va Argentinada mavjud.

Polshada esa politsiyachilar zo‘ravonlik qurbonlarining ariza yozishiga yo‘l qo‘yishmaydi, shu sababli mamlakatda mazkur yo‘nalishda fuqarolik tashabbuslari rivojlanmoqda. Masalan, maktab o‘quvchisi kosmetika do‘koni ostida, oilaviy zo‘ravonlikdan jabrlanganlar uchun markaz ochgan. Unda, masalan, “ko‘kargan va qizargan joylarni davolovchi surtma”ga buyurtma berish mumkin. Buyurtma asosida sotuvchi jabrlanuvchining holati bilan qiziqadi va zarur bo‘lsa politsiya chaqiradi.

2020-yilning boshlanishida butun dunyo bo‘ylab shiddat bilan tarqalgan koronavirus epidemiyasi mana, oradan yarim yil o‘tib, barcha davlatlarning iqtisodiy-ijtimoiy hayotiga ijobiydan ko‘ra ko‘proq salbiy jihatdan ta’sir etganini ekspert-mutaxassislarining mustaqil izlanishlari, o‘tkazilgan tadqiqotlar, pandemiyaning tarqalish ko‘rsatkichlari yaqqol namoyon etmoqda.

Xususan, karantin davrida jahondagi 3 milliardga yaqin aholining “o‘zini o‘zi yakkalash” rejimida butun oila a’zolari bilan uyida qolgani, o‘z navbatida, turli oilaviy muammolar, mojaro va nizolarning avj olishiga ham sabab bo‘ldi.

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 2020-yilning birinchi choragida Xitoyda oilaviy zo‘ravonlikka uchragan fuqarolarning murojaatlari 3 barobarga oshgan. Fransiyada esa cheklovlar belgilangan kunning birinchi haftasidayoq bunday shikoyatlar 30 foizga ko‘paygan. Buyuk Britaniyada oiladagi zo‘ravonlik holatlari 125 foizga ortib ketgani kuzatilgan. Qozog‘iston Respublikasida joriy yilning birgina mart oyida “Ishonch telefonlari”ga 16 310 ta qo‘ng‘iroq bo‘lgan⁵.

“Reuters” agentligi e‘lon qilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, oilaviy zo‘ravonlik natijalari bo‘yicha Hindiston, Afg‘oniston, Suriya, Somali, Saudiya Arabistoni, Pokiston, Kongo Demokratik respublikasi, Ummon, Nigeriya va AQSh davlatlari birinchi o‘ntalikdan o‘rin egallagan. Yevropa ittifoqi miqyosida esa Latviya, Daniya, Albaniya, Finlyandiya, Buyuk Britaniya, Shvetsiya, Norvegiya, Fransiya davlatlari “yetakchilik”ni qo‘ldan bermay kelishmoqda. Umuman, Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma‘lumotiga ko‘ra, bugun dunyo bo‘ylab, har uchinchi ayol jismoniy va jinsiy zo‘ravonlikka duchor bo‘lmoqda.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, mamlakatimizda zo‘ravonlikning har qanday shakllariga qarshi kurash masalalari “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun va boshqa tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Jumladan, bu sohada sodir etilgan qilmishlarning turi va og‘irlashtiruvchi holatlariga qarab, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi birinchi bo‘limining (shaxsga qarshi jinoyatlar) bir qancha moddalarida jinoiy javobgarlik belgilangan. Oilaviy zo‘ravonlikning kelib chiqish sabablarining har biri o‘ziga xosdir. Shu bilan birga ular bir qator umumiylikka ham egadir.

Azaldan xalqimizda ayollarning, ayniqsa, kelinlarning sabr-toqatlari bo‘lishi lozimligi, uyning gapini ko‘chaga olib chiqmaslik, o‘z dardini birovga dasturxon qilmaslik milliy qadriyat, axloq va odob ziynati hisoblangan. Shuning uchun ham ko‘pgina ayollarimiz oila a’zolari tomonidan kamsitilib, eri tomonidan haqoratlansa ham, oilada kuch ishlatalishdan aziyat cheksa yoki kaltaklansa ham oilasini saqlab qolish uchun sabr-toqat bilan yashashga harakat qilishadi. Lekin bunday chidamlilik oqibati har doim ham yaxshi bo‘lavermaydi.

Bunday muammolarning mavjudligi mamlakatimizda gender masalalarini rivojlantirishga, ayollarimizning ijtimoiy-siyisy faolligiga alohida e’tibor berishimiz lozimligini anglatadi. Chunki ijtimoiy siyosiy faol ayol bunday vaziyatlarda qanday harakat qilish lozimligini, o‘z huquqlarini yaxshi biladi.

Bizda shu kunga qadar ko‘proq qizlarni oila qurishga tayyorlashga e’tibor qaratilgan. Ammo oilaviy hayotga yigitlarni tayyorlash ishlari hozirgacha e’tibordan chetda qolib keldi. Endilikda yigitlarni ham “Oila dorilfununlari”da oila qurishga tayyorlash, shuningdek, qaynonalar bilan ham faol ish olib borish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunida xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilab berilgan bo‘lib, ular:

- 1) xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish sohasidagi gender siyosatini, davlat dasturlarini hamda strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- 2) jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikka doir murosasizlik muhitini yaratish;
- 3) xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilinishini ta‘minlash;
- 4) jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonuniylikni mustahkamlash;
- 5) xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish, ularni aniqlash, ularga chek qo‘yish uchun samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni yaratish;
- 6) xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik sodir etilishiga olib keladigan sabablar hamda shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko‘rish;

⁵ <https://www.minjust.uz/uz/press-center/news/99071/>.

7) tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish maqsadida davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institatlari hamkorligini ta‘minlashdan iboratdir.

Ko‘pgina xorijiy davlatlarda zo‘ravonlik oilada sodir etilsa, jinoyatni og‘irlashtiruvchi holat sifatida qabul qilinadi. O‘zbekistonda esa oiladagi zo‘ravonlik yetarlicha baholanmaydi, e’tiborga olinmaydi. Aslida, qonun oldida oilaviy rishtalar qandayligidan qat’i nazar, barcha teng huquqlidir. Ko‘chadagi begona insonni haqoratlash yoki unga tan jarohati yetkazish qanday javobgarlikka tortilsa, oiladagi shaxsga nisbatan zo‘ravonlik ham shunday jazolanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining normalarini yanada chuqur o‘rganib, ijtimoiy hayotdagि aniq misollardan xulosa chiqargan holda Oila kodeksini takomillashtirish zarurati mayjudligiga e’tiborni kuchaytirish lozim. Buning sabablaridan biri Oila kodeksi normalarida oilaviy munosabatlar birlikda, ya’ni bitta oilaning huquqiy munosabatlardagi ishtiroti yechimini topgan, aynan bitta oilani tashkil etish va ularning o‘zaro munosabatlari bilan bog‘liq qoidalalar, tartib taomillar yetarlicha ifodalangan. Albatta, bu holatni ijobjiy deb hisoblaymiz. Ammo yuqorida qayd etilganidek, bir hovlida yoki tom ostida bir necha oilalar birgalikda yashayotgan, ayniqla, qaynona, qaynota va boshqalar bilan umrguzaronlik qilgan bir necha oilalarning o‘zaro munosabatlarini tartibga soluvchi aniq va tiniq qoidalarni ishlab chiqib, qonun hujjatlarida aks ettirishimiz kerak. Birgina misol, bir necha yillardan buyon farzandlari bilan turar joysiz qolayotgan onalarga qay tarzda, qaysi qonun bilan turar joy ajratilishi lozim, degan savolga javob topa olmaymiz. Fikrimizcha, Oila kodeksida keng ma’nodagi oila a’zolarining huquq va majburiyatlarini aks ettishi zarur. Qonun hujjatlarining yanada to‘liq va bekam-u ko‘st bo‘lishi esa birga yashovchi oiladagilarning nafaqat turar joyga bo‘lgan huquqlari, balki Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan boshqa barcha huquqlarini himoya qilishni kafolatlaydi⁶.

Mazkur holatlardan kelib chiqqan holda Oila kodeksini takomillashtirish zarurati yanada dolzarblashadi. Ana shu holatlar asosida quyidagi innovatsion yechimlarni hayotga joriy etish zarur deb hisoblaymiz:

- oilaviy zo‘ravonlikning oldini olishda ayolning intellektual, ma’naviy va huquqiy jihatdan yuqori madaniyatini uzlusiz shakllantirishda xotin-qizlarga xos bo‘lgan immanent xususiyatlariga tayanish;
- besh muhim tashabbusni oila muhitida teran singdirish va oiladagi har bir insonni mazkur yangilanish jarayoniga bog‘lash;
- bir hovlida yoki tom ostida bir necha oilalar birgalikda yashayotgan, ayniqla, qaynona, qaynota va boshqalar bilan umr guzaronlik qilgan bir necha oilalarning o‘zaro munosabatlarini tartibga soluvchi aniq va tiniq qoidalarni ishlab chiqib, qonun hujjatlarida aks ettirish;
- bir necha yillardan buyon farzandlari bilan doimiy turar joysiz qolayotgan onalarga qay tarzda, qaysi qonun bilan turar joy ajratilishining huquqiy asoslarini kuchaytirish;
- Oila kodeksini takomillashtirish va oila a’zolarining huquq va majburiyatlarini to‘liq aks ettirish; bunday yondashuv birga yashovchi oiladagilarning nafaqat turar joyga bo‘lgan huquqlari, balki Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan boshqa barcha huquqlarini himoya qilishni kafolatlaydi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, yurtimizda oila instituti zamonaviy davlatchilikka mos tarzda rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlar, jumladan, qonunlar va qonun hujjatlarini yaratilgan. Hozirda amalga oshirilayotgan islohotlar davomida oilaga oid qonunchilik bazasini jahondagi rivojlangan davlatlarning qonunchilik tajribasi tahlili asosida jamiyatimizga mos va xos jihatlarini hisobga olib, yanada takomillashtirish, ertangi kunimizga mustahkam zamin yaratish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш ва оила институтини мустаҳкамлаш сонасидағи фаолиятни тубдан тақомиллаштириши чора-тадбирлари тўғ‘рисида”ги ПФ-5325-сонли Фармони. <http://lex.uz/docs/3546742>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ижтимоий реабилитация қилиши ва мослаштириши, шунингдек, оиласий-майсий зўрлик ишлатишнинг олдини олии тизимини тақомиллаштириши чора-тадбирлари тўғ‘рисида”ги ПК-3827-сонли Қарори. <http://lex.uz/docs/3804821>

⁶ <https://lex.uz/docs/4494709>

Шин Агриппина Васильевна ,
Министр дошкольного образования
Республики Узбекистан

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ПАРТНЕРСТВА С СЕМЬЕЙ СИСТЕМЫ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Annotatsiya. Maqolada oilaning ijtimoiy institut sifatida maktabgacha ta'lim tizimi bilan hamkorligi xususiyatlari, uning bu jarayonlardagi hal qiluvchi roli to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: oila, hamkorlik, ijtimoiy institut, ijtimoiylashuv

Аннотация. В статье рассматривается роль семьи, ее ключевая роль как социального института и взаимодействие с дошкольными образовательными организациями.

Ключевые слова: семья, партнерство, социальный институт, социализация.

Annotation. The article reveals the role of the family, its main role as a social institution and interaction with preschool educational organizations.

Key words: family, partnership, social institution, socialization.

Узбекистан остается страной, которая в условиях трудного переходного периода, несмотря на ограниченность средств, возвела заботу об укреплении семьи, женщин, создании всех необходимых условий для здорового и счастливого материнства и детства в ранг государственной политики.

На это нацелены государственные программы, успешно осуществляемые в последние годы в стране. Особое внимание Президентом страны Шавкатом Мирзиёевым уделяется вопросам повышения роли семьи в развитии общества. Эта мысль звучит почти во всех выступлениях главы государства, где неотложной задачей указано «укрепление основ семьи, создание спокойной, дружной и благоприятной атмосферы, наполнение конкретным содержанием духовно-просветительской работы».

Семья занимает важнейшее место в социальных связях человека. История развития общества – это история развития семьи как социального института, который эволюционирует и претерпевает существенные изменения вместе с обществом. Сегодня семья – ведущий социально-культурный институт, призванный быть действенным инструментом гуманизации и консолидации общества, социализации личности, преодоления межнациональных конфликтов, достижения гражданского согласия, толерантного взаимодействия в поликультурном социуме [1].

В системе дошкольного образования Республики Узбекистан в настоящее время осуществляют свою деятельность 18 254 дошкольные образовательные организации, где воспитывается 1 699 566 детей в возрасте от 3 до 7 лет.

По данным на 2020 год Госкомстата Республики Узбекистан насчитывается более 8 727 351 семей, в среднем, в каждой семье имеется более одного ребенка и отношение к детям не только со стороны родителей, но и государства особое. Это послужило развитию модели дошкольного образования как – семейный детский сад, которых насчитывается в стране более 10 тысяч, где получают дошкольное образование и воспитание более 247 000 детей. Данная модель поддерживается государством – это оплата труда, оказание методической поддержки, таким образом имеется хороший потенциал семей в воспитании и образовании детей.

Семья неразрывно связана с образованием. Именно семья является традиционно главным институтом воспитания. То, что ребёнок в детские годы приобретает в семье, он сохраняет в течение всей последующей жизни. Важность семьи как института воспитания обусловлена тем, что в ней ребёнок находится в течение значительной части своей жизни, и по длительности своего воздействия на личность ни один из институтов воспитания не может сравниться с семьёй. В ней закладываются основы личности ребёнка, и к поступлению в школу он уже более чем наполовину сформирован как личность. Семья является мощным фактором в формирования личности, развития в ней общечеловеческих и индивидуализированных качеств, ибо в семье ребенок впервые усваивает нормы

поведения, отношений и чувств, к себе и другому. Семья обеспечивает первоначальное воспитание, физическую, психологическую и в целом социальную защиту и поддержку детей.

В современных условиях глобализации мы не должны забывать об истинных, фундаментальных ценностях, которые составляют основу любого государства и общества. Именно в семье подрастающее поколение получает духовно-нравственное воспитание, учится быть ответственным и небезразличным. Становится очевидной актуальность инициатив Президента Узбекистана в сфере поддержки женщин и укрепления семьи.

Задачами семейного законодательства Республики Узбекистан являются укрепление семьи, построение семейных отношений на чувствах взаимной любви, доверия и взаимного уважения, сотрудничества, взаимопомощи и ответственности перед семьей всех ее членов, недопустимость произвольного вмешательства кого-либо в дела семьи, обеспечение беспрепятственного осуществления членами семьи своих прав и их защиты [2].

Семья и дошкольная образовательная организация – два важных института социализации детей. Их воспитательные функции различны, но для всестороннего развития ребёнка необходимо их взаимодействие. Дошкольная образовательная организация играет важную роль в развитии ребёнка. Здесь он получает образование, приобретает умения взаимодействовать с другими детьми и взрослыми, организовывать собственную деятельность. Однако, насколько эффективно ребёнок будет овладевать этими навыками, зависит от отношения семьи к дошкольной образовательной организации. Гармоничное развитие дошкольников без активного участия его родителей в образовательном процессе вряд ли возможно. Роль семьи в воспитании и развитии ребёнка также нельзя недооценивать. Главной особенностью семейного воспитания признаётся особый эмоциональный микроклимат, благодаря которому у ребёнка формируется отношение к себе, что определяет его чувство самоценности. Другая важная роль семейного воспитания – влияние на ценностные ориентации, мировоззрение ребёнка в целом, его поведение в разных сферах общественной жизни. Известно также, что именно родители их личностные качества во многом определяют результативность воспитательной функции семьи.

Важность семейного воспитания в процессе развития детей определяет важность взаимодействия семьи и дошкольной образовательной организации. Однако на это взаимодействие влияет ряд факторов, прежде всего то, что родители и педагогический коллектив ожидают друг от друга, насколько едины и последовательны они в процессе воспитания и обучения детей.

Цели воспитания детей в дошкольной образовательной организации и в семье должны быть едины: и педагог, и родители хотят видеть своего ребёнка трудолюбивым, обладающим навыками доступного им труда, с уважением относиться к труду людей, проявляющим бережное отношение к результатам труда, оказывающим помощь взрослым в семье.

В системе дошкольного образования Узбекистана работа с семьями дошкольников организуется на основе таких принципов как: параллельность и взаимодополнение воздействия дошкольной образовательной организации и семьи на детей; организация совместной деятельности взрослых и детей, данные принципы следует понимать, как единство требований, приёмов и методов.

Первичным звеном непрерывной образовательной системы является сфера дошкольного образования, имеющая важнейшее значение в формировании здоровой и всесторонне развитой личности ребенка, подготовке его для учебы в школе. В этой связи был принят Закон Республики Узбекистан «О дошкольном образовании и воспитании» [3], в котором определены основные направления государственной политики в области дошкольного образования и участие граждан, органов самоуправления граждан и других социальных институтов в области дошкольного образования и воспитания, следовательно на уровне государства закреплено право участия каждой семьи в образовании и воспитании детей как социального института.

В Узбекистане традиционная семья считается одной из главных ценностей в жизни по данным Государственного комитета по статистике, ежегодно в Республике Узбекистан рождается более 700 000 детей, это позволяет сделать вывод, что в стране на государственном уровне семье уделяется первостепенное внимание и привлечение ее в образовательных целях.

Вместе с тем, в странах Европы происходит процесс в сторону автономизации семьи, что неизбежно повлекло за собой снижение рождаемости, рост числа разводов и увеличение числа одиноких людей.

Как показывает международный опыт таких стран как: Россия, США, Великобритания, Франция, Япония где имеется четкое понимание того, что семья – едва ли не основной источник нравственного и эстетического формирования, эмоциональной культуры и физического здоровья детей и что образовательные организации должны решать задачи воспитания совместно с семьей. Проводниками такого сотрудничества должны стать как традиционные структуры (родительские комитеты, наблюдательные советы), так и новые органы учебных заведений.

Семья – главный источник социализации, нравственного становления личности, считают в этой связи японские ученые Т. Эндо и Н. Накаучи.

Как показало исследование в Узбекистане 60,2% считают, что роль родителей в воспитании детей в первую очередь заключается в том, чтобы привить ребенку национальные традиционные ценности, приложить все усилия, чтобы ребенок вырос хорошим человеком, 77,8% считают, что воспитанием детей должны заниматься в равной степени оба родителя (мать и отец) [4], именно поэтому с наибольшей степенью возрастает роль партнерства с образовательными организациями.

Актуальной в настоящее время является необходимость построения партнёрства дошкольных образовательных организаций с семьями и местным сообществом. Исследования и опыт показывают, что прочные партнёрские отношения между педагогами, семьями и членами сообщества вносят позитивный вклад в развитие и обучение детей. Именно партнёрство подразумевает, что обе стороны имеют права и обязанности, видят друг друга компетентными и ценят друг друга как партнёра. Партнёрство требует, чтобы педагоги признавали и ценили ценности, образ жизни и характеристики семей и сообществ, с которыми они работают, и ценили многочисленные и важные способы, которыми они способствуют обучению и развитию детей. Педагоги, работающие с детьми дошкольного возраста, расширяют возможности обучения детей, опираясь на знания семей о своих детях и на то, чему дети учатся в своих семьях и сообществах [5].

В последние два года, после принятия постановлений Президента и правительства Узбекистана по совершенствованию деятельности системы дошкольного образования, начала развиваться и внедряться новая философия взаимодействия семьи и дошкольной образовательной организации. В основе её лежит идея о том, что за обучение, воспитание и развитие детей несут ответственность родители, а все остальные социальные институты призваны поддерживать и дополнять эту деятельность.

Семья, дошкольная образовательная организация и местное сообщество составляют на определённом этапе основную образовательно-воспитательную и развивающую микросреду – образовательное пространство. Но только в сочетании друг с другом они создают оптимальные условия для вхождения маленького человека в большой мир. Идея взаимосвязи общественного и семейного воспитания нашла своё отражение в ряде нормативно–правовых документов, в том числе в «Концепции развития системы дошкольного образования Республики Узбекистан до 2030 года» [6].

Среди ценностей, созданных человечеством за тысячелетия, семья является одной из не проходящих. Ни одна нация, ни один народ не сумел обойтись без семьи. Любое государство рассматривает семью как важнейшую составляющую общества. Именно в период кризисов возрастает роль семьи и значение как важного буфера между индивидом и социальными переменами. Будучи одним из древнейших институтом общества, семья в той или иной форме сумела выжить в условиях всех известных исторических цивилизаций и культур. Она проявила себя как весьма функциональная система, обладающая высокой способностью к адаптации в самой различной обстановке.

В современном Узбекистане дети и молодые люди до 30 лет составляют 60 % населения. Через 15–20 лет они станут крупнейшей рабочей силой, которая когда-либо была в Узбекистане, предоставляя уникальную возможность вывести страну на новый уровень социально-экономического развития (Отчет ЮНИСЕФ Узбекистана, 2020) [7] Именно поэтому необходимо эффективное взаимодействие всех учреждений и организаций, их координация и сотрудничество по вопросу укрепления института семьи, развития традиционных семейных ценностей, так как воспитание гармонично развитого поколения затрагивает все аспекты жизни нашего общества. Для достижения консолидации общества предстоит активная работа по обсуждению актуальных вопросов укрепления семьи, выдвижению интересных и действенных предложений по защите прав женщин, детей и других членов семьи, вопросов воспитания детей.

Сегодня Узбекистан вышел на качественно новый уровень развития общества, где одним из главных направлений является укрепление института семьи. Нет сомнений в том, что укрепление позиций по вопросам традиционной семьи, в международном сообществе позволит обеспечить долгосрочные результаты, важные для каждого из нас.

Список использованной литературы:

1. Борисенков В.П. Гукаленко О.В. Институт семьи и семейная политика в современной России: проблемы, тенденции и перспективы. Интернет журнал “Науковедение” выпуск 5 (24) сентябрь-октябрь 2014//<http://naukovedenie.ru>
2. Семейный кодекс Республики Узбекистан. Постановление Олий Мажлис РУ № 608-I от 30.04.1998 г.
3. Закон Республики Узбекистан // О дошкольном образовании и воспитании // № ЗРУ-595 от 16.12.2019 г.
4. Убайдуллаева Р.А. //ж. Социологические исследования // № 10 88- 98// 2011 г. <http://www.demoscope.ru/weekly/2012/0493/analit03.php>
5. Шин А.В., Мирзиёева Ш.Ш., Грошева И.В., Назарова В.А., У.Микаилова, Абдуназарова Н.Ф., Закиров А.А., Исхакова М.Р., Умирзакова Н.Р. //Партнерство с семьями и местным сообществом // с. 9 // Ташкент // 2020.
6. Постановление Президента Республики Узбекистан// Об утверждении Концепции развития системы дошкольного образования Республики Узбекистан до 2030 г. // № ПП-4312 от 08.05.2019 г.
7. Отчет Международного детского фонда ООН (ЮНИСЕФ) в Узбекистане//Молодежь Узбекистана: вызовы и перспективы// 2020 г.



Shotursunova Nodira Nosirovna

*Oliy Majlis Senati
xotin-qizlar va gender tenglik masalalari
qo'mitasi kotibiyati bosh maslahatchisi*

AYOLGA HURMAT – OILAGA, JAMIYAT KELAJAGIGA E'TIBOR IFODASI

Annotatsiya. Maqola jamiyatda gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy faolligini oshirish kabi masala va muammolarga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: gender tenglik, gender strategiya, migratsiya.

Аннотация. В статье рассмотрены такие вопросы и проблемы, как обеспечение гендерного равенства в обществе, повышение социально-политической и экономической активности женщин.

Ключевые слова: гендерное равенство, гендерная стратегия, миграция.

Annotation. The article focuses on the issues and problems such as ensuring gender equality in society, enhancing the socio-political and economic activity of women.

Key words: gender equality, gender strategy, migration.

Gender tengligi, ya'ni erkaklar va ayollar teng huquqliligi – bu nafaqat insonning asosiy huquqlaridan biri, balki tinchlik, farovonlik va barqaror taraqqiyotga erishishning zarur negizidir.

Shu o'rinda, raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak. Bugungi kunda xotin-qizlar mamlakatimizdagi band aholining taxminan **45,4 foizni** tashkil etadi. Ammo yurtimiz xotin-qizlarining aksariyati faqat sog'liqni saqlash va ta'lif kabi ijtimoiy sohalarda mehnat qiladi. Yuqori daromadli jabhalar, xususan, qurilish, transport

va kommunikatsiya, axborot texnologiyalari, sanoat ishlab chiqarish kabi yo‘nalishlarda ayollar ozchilikni tashkil etadi. Natijada xotin-qizlar erkaklardan **30-40 foizga kamroq daromad topadi**.

Xo‘sh, shu o‘rinda savol tug‘iladi. Gender tenglik mamlakatimizning barcha sohalarda rivoji uchun qay darajada ahamiyatli?

Gender teng imkoniyatlar ta’minlansagina, biz o‘zimiz ega bulgan beba ho resurs – inson kapitalidan to‘laqonli foydalana olamiz. Aynan shu boisdan, hozirda gender tengligini ta’minlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan.

Ayni paytda Gender tenglik indeksida mamlakatimiz **188 ta davlat orasida 57-o‘rinni egallab turibdi**. Bu ko‘rsatkichni yurtimizda xotin-qizlar ta’lim olishi va iqtisodiy faolligi yuqori darajada ekanligi bilan izohlash mumkin.

Umuman, mamlakatimizda xotin-qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning tashabbuslarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida juda keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Bu jarayonga davlat va jamoat tashkilotlarining birdek jalb qilinishidan maqsad har bir ayol, har bir qizning taqdirini ijobjiy tomonga o‘zgartirish, hayotda munosib o‘rnini topish uchun zarur sharoitlarni yaratishdir.

Davlatimiz rahbari o‘zining har bir chiqishida bu mavzuga alohida e’tibor qaratadi. “**Ayolga bo‘lgan hurmat-e’tibor – bu, avvalo, oilaga, jamiyat kelajagiga bo‘lgan hurmat-e’tibor ifodasidir**”, – deydi yurtboshimiz. Yer yuzidagi har qaysi jamiyatning madaniy darajasi uning ayollarga nisbatan munosabati bilan belgilanishi haqidagi fikr ham bejiz aytilmagan.

Aynan **President Shavkat Mirziyoyev** tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar samarasi o‘laroq, kam ta’minlangan, boquvchisini yo‘qotgan, nogironligi bo‘lgan ayollarimizni zamonaviy uy-joylar bilan ta’minlash bo‘yicha yangi tizim yaratildi. Ana shu tizim asosida yuzlab, minglab nafar xotin-qizlar nafaqat uy-joyga, balki ish o‘rinlariga ham ega bo‘ldilar.

Bundan tashqari, ayollar bandligini ta’minlash, jamiyatda ularning bor salohiyatini ro‘yobga chiqarish masalasi – besh muhim tashabbusning asosiy yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Umuman olganda, davlat miqyosida qabul qilingan har qanday dastur yoki ish rejasи borki, ularning asosiy bandlari aynan xotin-qizlarimizning huquqlarini himoya qilish, ro‘yobga chiqarish, orzu-havaslariga qanot bo‘lishga xizmat qilmoqda.

Shu ma’noda, mamlakatda **gender tenglikni** ta’minlash borasida ham so‘nggi ikki yilda juda katta qadam tashlandi. Sohaning xalqaro standartlarini o‘z ichiga olgan jiddiy qonunlar qabul qilindi. “**Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunlar shular jumlasidan bo‘lib, ularda gender tenglikka erishish sohasidagi tizimni takomillashtirish yuzasidan bir qator amaliy tadbirlarni belgilab berildi.**

Natijalar o‘zini uzoq kuttirgani yo‘q. 2019-yilning oxirida bo‘lib o‘tgan Parlamentga saylovlar natijalariga ko‘ra, xotin-qizlarning Oliy Majlisdagi ulushi 32 foizni tashkil etdi. Demak, shu orqali ayollarning qonunlar qabul qilinishida ishtiroki yanada kuchaydi. Bu yo‘nalishda yana bir yutug‘imiz xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirishga qaratilayotgan ishlar ularga nisbatan avvalgi, eskirgan stereotiplarni o‘zgarishiga yordam berayotganligidir.

Oliy Majlis Senatida Xotin-qizlar va gender tengligi masalalari qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi gender tenglikni ta’minlash masalalari bo‘yicha komissiyasining faoliyati tashkil etilgani ham masalaning naqadar ahamiyatli ekanini ko‘rsatib turibdi.

Qo‘mita ham komissiya tashabbusi bilan sohadagi huquqiy bo‘shliqlarni aniqlash, qabul qilingan qonunlarning joylarda samarali ishlashini yanada yaxshilash maqsadida ko‘plab tadbirlar yo‘lga qo‘yildi.

Bundan tashqari, gender masalalari bo‘yicha davlat boshqaruv organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, xalqaro ekspertlar vakillaridan iborat ishchi guruh tomonidan O‘zbekiston Respublikasining 2020-2030-yillarda gender tenglikni ta’minlash strategiyasi loyihasi ishlab chiqildi.

Ushbu strategiyani qabul qilishda ishchi guruh a‘zolari oldiga sohadagi kamchilik va muammolarni aniqlash, mavjud holatni tahlil qilish, xalqaro va milliy qonunchilikdagi normativ huquqiy bazani o‘rganish kabi bir qator vazifalar belgilandi. Ishchi guruh faoliyatini muvofiqlashtirish va monitoring qilish maqsadida muntazam ravishda seminar-treninglar tashkil etildi.

Mazkur jarayonda O‘zbekiston Respublikasida erkaklar va xotin-qizlar teng huquqlari hamda imkoniyatlarini ta’minlash bo‘yicha milliy harakatlar rejali, strategiya va davlat dasturi loyihasi ishlab

chiqish yuzasidan ishchi guruh a'zolari, ekspertlar va xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari masu'lllari ham faol ishtirok etdi.

Ishchi guruh a'zolari sohalararo kichik guruhlarga ajratildi. Har bir jamoa zimmasiga mavjud huquqiy baza, xotin-qizlar huquqlarini amalga oshirish mexanizmlari, gender tenglikni takomillashtirish yuzasidan alohida vazifalar yuklandi.

Takliflarning amaliyotga qay darajada samarali joriy qilinishi, amaldagi vaziyatni yaxshi tomonqa o'zgartirish yo'llari atroficha muhokama etildi. **Strategiya loyihasining imkon qadar mukammal, ixcham va mobil tarzda ishlab chiqilishiga e'tibor qaratildi.**

Gender strategiyasini amalga oshirishda mamlakatimiz o'z zimmasiga olgan milliy va xalqaro majburiyatlar (**Pekin Deklaratsiyasi va Harakatlar rejasি, Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiya, Barqaror rivojlanish maqsadlari va boshqalar**)ning ham to'laqonli ijrosini ta'minlashga ko'maklashadi.

Unda ijtimoiy-siyosiy hayot, bandlik, mehnat migratsiyasida gender tenglikni ta'minlash, zo'ravonlikning oldini olish va odam savdosi masalalari, gender rejalashtirish va byudjetlashtirish masalalari kabilar ham batafsil inobatga olingan.

Bu vazifalarning har biri mutaxassislardan masalaga chuqur kirib borish, faktlar va raqamlar bilan ishslash, milliy mentalitetimizdan kelib chiqqan holda, sohaga xalqaro hamjamiatning talablarini uyg'unlashtirish talabini qo'yidiki, Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasi huzuridagi Ishchi guruh a'zolari har bir bandni batafsil ishlab chiqdi.

Olib borilgan keng ko'lamli izlanishlar, tadqiqotlar, tor doiradagi samarali muzokaralardan so'ng ilk marotaba O'zbekiston Respublikasining 2020-2030-yillarga bag'ishlangan gender tenglikni ta'minlash strategiyasi loyihasining dastlabki namunasi tayyor holga keltirildi.

Gender strategiyasi hozirgi jamiyatimizda nimani o'zgartiradi? Xotin-qizlarga nisbatan munosabat qay darajada yuksaladi? Bandlik, mehnat migratsiyasida gender tenglikni ta'minlash, gender rejalashtirish va byudjetlashtirish tushunchalarini hamma birdek tushunadimi? Afsuski, bu tushunchalar ko'pchiligidan uchun begona.

Birgina gender migratsiyasi misolida aytadigan bo'lsak, migratsiyani boshqarish masalalari O'zbekiston uchun alohida ahamiyatga ega. Respublikamizning 2018-yili noyabrida Xalqaro migratsiya tashkiloti (XMT) ga kirishi xalqaro, shu jumladan, migratsiya sohasida ham, mehnat standartlarini implementatsiya tarafdori bo'lishining isboti bo'ldi.

Gender nuqtayi nazaridan, migrant xotin-qizlarning o'ziga xos muammolari bor. Avvalo, ularning daromadlari tahlili shuni ko'rsatdiki, migrant xotin-qizlar erkaklarga qaraganda kam pul topadilar.

Eng yomoni, migratsiya xotin-qizlarga salbiy psixologik ta'sir ko'rsatadi. Migrant xotin-qizlar erkaklarga qaraganda, jamiyat va oilasiga qaytishi, oilaviy munosabatlarning yomonlashuv va buzilishi kabi muammolarga ko'proq to'qnashadilar. Erkaklarning uzoq muddatli migratsiyasi ham oilaning parchalanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Shunday vaziyatda Gender strategiyasi bir qator aniq maqsadlarni ilgari suradi. Misol uchun, ichki va tashqi mehnat migratsiyasini majmuaviy tahlil qilib, shu asosda me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish vazifasi belgilanmoqda.

Xorijdagи mehnat migrantlari, ayniqsa, ayollarni, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va huquqlarini himoyalashni ta'minlash bo'yicha majmuaviy chora-tadbirlarni yo'lga qo'yish maqsad qilingan. Xorijda oilaviy ishga joylashtirish, ya'ni bir oila a'zolari bo'lgan erkaklar va ayollarni bitta ishga joylashtirishning tashkiliy tomonlari o'rganiladi.

Bundan tashqari, mamlakatlar o'rtasida samarali o'zaro harakatlanishni qo'llab-quvvatlash, mazkur yo'nalishda davlat va xususiy bandlik agentliklari orqali xorijda ishga joylashishning afzalliklari to'g'risidagi keng qamrovli tadbirlar va axborot-targ'ibot kompaniyalarini o'tkazish strategiyada belgilangan muhim tadbirlardan sanaladi.

Yana bir masala. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va mehnat bozoriga kirib kelayotgan xotin-qizlarni iqtisodiy faoliy bilan qamrab olish uchun ishbilarmonlik, investitsion muhitni yaxshilashga alohida e'tibor berilmoqda.

Strategiyaga ko'ra, xotin-qizlarning iqtisodiy resurslardan, shu jumladan, ko'char va ko'chmas mulk, yer, moliyaviy kreditlar, jamoatchilik jamg'armalari, shuningdek, erkin tanlangan tadbirkorlik faoliyati turlaridan teng foydalanish huquqi qo'llab-quvvatlanadi.

Mamlakatning chekka va uzoq qishloq hududlardagi xotin-qizlarni munosib ish bilan ta'minlash bo'yicha dasturlar yanada takomillashtiriladi. Ayollarning bandlik va mehnat bozoridan foydalanish huquqini kengaytirish uchun maktabgacha va boshlang'ich maktab ta'limining hammabopligrini oshirishga e'tibor qaratiladi.

Ularning moliyaviy bilim va malakalarni rivojlantirish hamda kengaytirish, moliyaviy institutlarning barcha xizmatlaridan foydalanish imkonini yaratish, shu jumladan, banklar va kreditlar bilan ishslash ko'nikmalarini oshirish, imtiyozli kreditlarni joriy etish ustida ish olib boriladi.

Yuqorida tilga olingan tadbirlar strategiyaning ayrim yo'naliishdagi muhim vazifalari, xolos. Ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarda xotin-qizlar va erkaklarning teng huquq va imkoniyatlarga nisbatan to'siqlar va tafovutlarni bartaraf qilish, shuningdek, haqiqiy va yuridik gender tenglikka erishishga imkon beradi. Bu esa mamlakatdagi barcha fuqarolarning turmush sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shunisi ham muhimki, gender strategiyani amalga oshirish O'zbekistonning inson huquqlarini ta'minlash sohasidagi strategik maqsadlar kontekstida qabul qilingan milliy va xalqaro majburiyatlar (**Pekin Deklaratsiyasi va Harakatlar rejasi, Xotinqizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiya, Barqaror rivojlanish maqsadlari va boshqalar**)ni bajarishga ko'maklashadi.

Albatta, jamiyatda gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy faolligini oshirish kabi murakkab masalalar birgina davlat hamda jamoat tuzilmalari zimmasiga yuklatilgan vazifa emas. Bu jarayonda fuqarolar, ya'ni siz-u biz, barcha opa-singillarimizning faol ishtirokini kuchaytirish muhim. Strategiya bu boradagi maqsadli vazifalarimizni umumlashtirib, o'zaro uyg'unlashtirishga imkon beradi.



Egamberdiyeva Nodira Melibayevna,

*"Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti direktori,
pedagogika fanlari doktori, professor;*

Mamanova Nigora Kadirovna,

*Chilonzor tumanidagi 188-umumta'lim
maksiyati psixologi*

BAXTLILIK DARAJASINI ANIQLASH – ZAMONAVIY KISHILIK JAMIYATINING RIVOJLANISH KO'RSATKICHI SIFATIDA

Annotatsiya. Baxt – ijtimoiy vogelikning ko'plab jihatlarini o'zida birlashtirgan ijtimoiy-madaniy hodisa bo'lib, ularning har biri shaxs uchun ham, butun jamiyat uchun ham muhim. Maqolada "baxt" tushunchasi, ya'ni hayotdan qoniqsanlik darajasining oila va jamiyat hayotiga ta'siri va tutgan o'rni misollar bilan ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: baxtlilik darajasi, baxt iqtisodiyoti, quvonch, oltin standart.

Аннотация. Счастье – это социокультурное явление, объединяющее в себе многие аспекты социальной реальности, каждый из которых важен как для человека, так и для общества в целом. В статье приводятся научные примеры концепции «счастье», то есть влияние уровня удовлетворенности жизнью на жизнь семьи и общества.

Ключевые слова: уровень счастья, экономика счастья, радость, золотой стандарт.

Annotation. Happiness is a sociocultural phenomenon that combines many aspects of social reality, each of which is important both for a person and for society as a whole. The article provides scientific examples of the concept of happiness, that is, the impact of the level of life satisfaction on the life of the family and society.

Key words: the level of happiness, the economy of happiness, joy, the gold standard.

Baxt ijtimoiy borliqning alohida olingen shaxs va umumiy ma'noda jamiyat uchun muhim bo'lgan turli aspektlarini o'zida birlashtiruvchi ijtimoiy-madaniy fenomen bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda butun jahon bo'ylab baxt tushunchasini ilmiy metodlar vositasida tahlil qilishga bo'lgan intilish kuchli intellektual harakat ko'rinishiga kirdi. Muammoning dolzarbligi tadqiq etilayotgan tushuncha davlat boshqaruvining samaradorligini belgilab beruvchi mezonlardan biri sifatida xizmat qilishi, qolaversa, jamiyat tomonidan qo'yilgan, har bir insonning baxtli bo'lishiga intilishi, aholining ijtimoiy salomatligini va hayot sifatini yaxshilashga bo'lgan ehtiyoji bilan shartlashgan talab sifatida gavdalanishi vositasida belgilanadi. Hatto, bugungi kunda iqtisodiyotda baxt iqtisodiyoti kabi yo'naliш shakllanib kelmoqda. Ushbu yo'naliш aksariyat holda iqtisodiy va ijtimoiy baholashning an'anaviy mantig'ini inkor etib, asosiy urg'uni subyektiv farovonlikka beradi, qolaversa, aynan subyektiv farovonlik vositasida odamlarning obyektiv yashash sharoitlariga baho beradi. Ayni paytda, iqtisodiyotning o'zi esa, sof gumanistik asnoda jamiyatning va uning alohida a'zosining farovonligini ta'minlovchi vosita (instrument) sifatida xizmat qiladi⁷.

Uzoq o'tmishda, 1968-yilda Amerika Qo'shma Shtatlari bo'lajak prezidenti Robert Kennedy o'zining saylov oldi nutqida shunday degan edi: "Bizning yalpi milliy mahsulotimiz o'z ichiga havoning ifloslanishi, tamaki mahsulotlari reklamasi, avtohalokatlar natijasida zarar ko'rgan odamlarni olib ketayotgan tez yordam mashinalarini ham oladi. U hatto eshiklardagi qulflarni va ularni buzib ochishga muvaffaq bo'lganlar uchun qamoqxonalarini inobatga oladi. Xaotik tarzda davom etayotgan urbanizatsiya jarayoni ta'sirida sekvoya o'rmonlarining, tengi yo'q tabiat olamining yo'q qilinishi ham shu yalpi milliy mahsulot ko'rsatkichida o'z aksini topadi. Ammo u farzandlarimizning salomatligini va ta'lim sifatini o'z ichiga olmaydi, ularning quvonchi yoki o'ylardan oladigan zavqini aks ettirmaydi. Unda hech qachon she'riyat go'zalligi yoki oilalarning mustahkamligi, siyosiy muzokalarining va umuman olganda, siyosat arboblariningadolatliligi o'z aksini topmaydi. Bu ko'rsatkich na aqlni, na mardlikni va na donolikni o'lchab berolmaydi. Unda hech qachon rahm-shafqat yoki yurtga sadoqat kabi fazilatlar o'z aksini topmaydi. Oddiy qilib aytganda, yalpi milliy mahsulot yashash uchun haqiqatda arziydigan narsalardan boshqa hammasini o'lchay oladi xolos"⁸.

Gollandiyalik sotsiolog olim **Rut Vinxoven** baxt tushunchasining davlat siyosatining ustuvor yo'naliши, barcha sa'y-harakatlar maqsadi sifatida yangidan paydo bo'lishiga katta hissa qo'shgan. Uning fikriga ko'ra, insonlar, ya'ni u yoki bu jamiyat a'zolari o'zida namoyon qiladigan **baxtlilik darajasi, salomatlik darajasi** hamda **moddiy farovonlik darajalari** bilan bir qatorda mazkur jamiyatning odamlar yashashi uchun naqadar layoqatliligi va qulayligini belgilab beradi. Uning bu sohadagi izlanishlari baxt jamiyatdagi rivojlanish darajasini o'lchab beruvchi ishonchli o'ichov birligi sifatida xizmat qila olishini isbotladi⁹. Hozirgi paytda Vinxoven – xalqaro baxtlilik ma'lumotlari bazasining asoschisi, rahbari. Qolaversa, "Journal of Happiness Studies" – Baxtni tadqiq etish jurnalining asoschisi va bosh muharriri bo'lib faoliyat yuritmoqda. Baxtlilik darajasini aniqlashga doir tadqiqotlarning "otasi" sifatida aynan shu olim tan olinadi.

London iqtisodiyot maktabining professori R.Leyardning fikriga ko'ra, insonlarning baxtga bo'lgan intilishi davlat tomonidan qabul qilinayotgan barcha siyosiy qarorlari uchun oltin standart sifatida xizmat qilishi kerak¹⁰. Undan tashqari, mazkur olimning qarashlariga ko'ra, fuqarolarning baxti hukumat o'zi uchun belgilovchi rivojlanish yo'naliшining yagona samarador ko'rsatkichi bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Boylikni ortirish mumkin, ammo kishilik jamiyatining baxtlilik darajasini oshirish maqsadida xolos.

Bu borada sotsiolog va iqtisodchi olimlarning psixolog olimlar bilan fikrlari hamohang. Amerikalik psixolog olim M.Seligman qarashlariga ko'ra, biz hozirda "Hayotdan qoniqqanlik iqtisodiyoti" zamонига kirib kelmoqdamiz. Xususan, tadbirkorlik faoliyatining muvaffaqiyati, shu faoliyatni yuritayotgan tadbirkorning hayot mazmuni va shaxslararo munosabatlariga to'g'ridan to'g'ri bog'liq bo'lib¹¹, mamlakat hukumatining siyosati umumiy farovonlikni oshirishga yo'nalgan bo'lishi va shu siyosatning samaradorligini aynan shu farovonlik ko'rsatkichlari belgilashi mumkinligi kabi qarashlar yuqoridagi sotsiolog, iqtisodchi hamda psixolog olimlarning bu borada fikrlari umumiy mazmunga egaligining isbotidir.

⁷ Попова, С.М. Измерения прогресса / С.М. Попова, С.М. Шахрай, А.А. Яник. – М.: Наука, 2010.

⁸ Фокс, Д. Чем измерить счастье? Экономисты ищут более точную альтернативу ВВП / Д. Фокс // Harvard Business Review. – № 3, 2012. – С. 58-63.

⁹ 2nd OECD World Forum – Istanbul 2007 [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.oecd.org/site/worldforum06/ishappinessmeasurableandwhatdothosemeanforpolicy.htm>

¹⁰ Лэйард, Р. Счастье: уроки новой науки / Р. Лэйард. – М.: Изд-во Ин-та Гайдара, 2011.

¹¹ Селигман, М. Путь к процветанию: новое понимание счастья и благополучия / М. Селигман. – М.: Манин, Иванов и Фербер, 2013.

Ko‘plab tadqiqotlar shuni isbotladiki, moddiy farovonlik qay darajada yuqori bo‘lsa, baxtlilik darajasi ham shu qadar yuqori bo‘ladi. Bu asnoda biz mamlakatlarni bir-biri bilan solishtiramizmi yoki bitta davlatning turli hududalari orasidagi tafovutlarga razm solamizmi xuddi shu omil o‘z aksini topadi. Ammo ta‘kidlash joizki, hayotdan qoniqqanlik darajasi har doim ham moddiy farovonlik bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq bo‘lmaydi. Buning isboti sifatida taniqli **Isterlin paradoksi** xizmat qilishi mumkin. Mazkur ijtimoiy-iqtisodiy hodisa Amerikalik iqtisodchi, demograf olim Richard Isterlin nomiga Isterlin paradoksi deb atalgan. Bu olim o‘zining tadqiqotlari natijasida aniqlagan ma’lumotlarga ko‘ra, aholining kishi boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlari o‘sishi faqat ma’lum miqdorgacha baxtlilik darajasi o‘sishiga olib keladi xolos, undan ortiq miqdorga emas¹². Bu yerda “gedonistik g‘ildirak” tamoyili ishga tushadi: “Ehtiyojlar darajasi daromadlar bilan birga o‘sib boradi, asosiy ehtiyojlar qondirilganidan so‘ng, farovonlik uchun daromadning absolyut emas, balki nisbiy darajasi muhim ahamiyatga ega bo‘ladi”. R.Leyardning fikriga ko‘ra, bu miqdorni yalpi ichki mahsulot bir yilda aholi jon boshiga 20 000 dollarni tashkil etganda kuzatish mumkin. Bu ko‘rsatkichni egallab bo‘lgan mamlakatlarda hayotdan qoniqqanlik darajasi o‘sishdan to‘xtashi kuzatiladi, ayrim paytlarda bu ko‘rsatkich pasaya boshlaydi ham. Mazkur paradoksga nisbatan fanda hali ham qiziqish so‘nmagan. 2003-yilda R.Vinxoven va M.Xedjerti Isterlin paradoksini inkor etuvchi tadqiqotlarni e’lon qildilar¹³. 2008-yilda B.Stivenson hamda J.Volfaters absolyut daromadning o‘sishi o‘z-o‘ziga baxtlilik nuqtayi nazaridan baho berishning o‘sishi bilan bevosita bog‘liq ekanini aniqlashdi. E.Diner ham keng ko‘lamli tadqiqot o‘tkazishga muvaffaq bo‘ldi va uning natijasi o‘laroq, daromadlar o‘sishi baxtlilik darajasining o‘sishiga olib keladi, agar ehtiyojlar darajasi daromadlarga nisbatan sekinroq o‘sishni namoyish qilsa, degan xulosaga keldi. Ammo, 2010-yilda Isterlin o‘zining yangi tadqiqot natijalarini nashr qildi, mazkur tadqiqot 37 ta mamlakatni o‘z ichiga qamrab olib, bundan avval Isterlin paradoksinи e’lon qilishga sabab bo‘lgan natijalarini qo‘llab quvvatlaydi¹⁴. Shunga muvofiq, fan doirasida baxtlilik darajasi hamda moddiy farovonlik orasidagi o‘zaro aloqa masalasi ochiqligicha qolmoqda.

Iqtisodiy omillarining o‘zi baxtlilik darajasini aniqlashga yetarli emasligi, qolaversa, ularining hayotdan qoniqqanlik darajasi bilan o‘zaro aloqadorligining noaniqligi bir qator misollar vositasida ko‘rsatiladi. Xususan, g‘arb mamlakatlarining aholisi bundan 40 yil avvalgi daromadlariga nisbatan hozirgi daromadlari o‘rtacha 4 barovar oshgan, ammo shunga qaramay, mazkur mamlakat aholisining subyektiv farovonlik darajasi deyarli o‘zgarishsiz qolgan. Amerikalik badavlat aholi qatlamining 37 foizida esa baxtlilik hissi o‘rtacha darajadan ham past holatni qayd etmoqda¹⁵. M.Argayl ta‘kidlashicha, olimlar hali ham nima sababdan kishilik jamiyatining rivojlanish tarixidagi o‘rtacha daromad ko‘rsatkichlaridagi buyuk o‘zgarishlar hayotdan qoniqish va baxtlilik hissiga o‘z ta’sirini o‘tkazmaganini, aniqrog‘i ularning o‘sishiga turtki bo‘limganini bilmaydilar. Uning taxminiga ko‘ra, mazkur holat ehtiyojlar darajasining ortishi bilan shartlashadi: “avvallari odamlar o‘z velosipedlari bo‘lishini orzu qilishgan bo‘lsa, endi ularga ikkita avtomobil kerak¹⁶”.

Mazkur holat har qaysi mamlakat miqyosida aholi o‘rtasida baxtlilik indeksini o‘lchash imkonini beruvchi, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ayni paytda, etnopsixologik xususiyatlarni inobatga oluvchi hamda milliy-ma’naviy, diniy qadriyatlarimizni o‘zida to‘liq aks ettiruvchi mezonlar to‘plamini yaratishga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytiradi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Попова, С.М. Измерения прогресса / С.М. Попова, С.М. Шахрай, А.А. Яник. – М.: Наука, 2010.
2. Фокс, Д. Чем измерить счастье? Экономисты ищут более точную альтернативу ВВП / Д. Фокс // Harvard Business Review. – 2012. – № 3. – С. 58-63.
3. 2nd OECD World Forum – Istanbul 2007 [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.oecd.org/site/worldforum06/ishappinessmeasurableandwhatdothosemeanforpolicy.htm>
4. Лэйард, Р. Счастье: уроки новой науки / Р. Лэйард. – М.: Изд-во Ин-та Гайдара, 2011.

¹² Easterlin, R.A. Does Economic Growth Improve the Human Lot? Some Empirical Evidence / R.A. Easterlin. – 1974.

¹³ Hagerty, M.R. Wealth and Happiness Revisited Growing wealth of nations does go with greater happiness / M.R. Hagerty, R. Veenhoven // Social Indicators Research. – 2003. – Vol. 64. – P. 1-27.

¹⁴ Easterlin, R.A. The happiness-income paradox revisited [Электронный ресурс] / R.A. Easterlin. – Режим доступа: <http://www.pnas.org/content/107/52/22463>

¹⁵ Diener E., Suh E. Measuring Quality of Life: Economic, Social, and Subjective Indicators. Social Indicators Research, vol. 40, no. 1, 2.

¹⁶ Argyle M. Psikhologiya schast’ya [The Psychology of Happiness]. Saint Petersburg: Piter, 2003.

5. Селигман, М. Путь к процветанию: новое понимание счастья и благополучия / М. Селигман. – М.: Манн, Иванов и Фербер, 2013
6. Easterlin, R.A. Does Economic Growth Improve the Human Lot? Some Empirical Evidence / R.A. Easterlin. – 1974.
7. Hagerty, M.R. Wealth and Happiness Revisited Growing wealth of nations does go with greater happiness / M.R. Hagerty, R. Veenhoven // Social Indicators Research. – 2003. – Vol. 64. – P. 1-27
8. Easterlin, R.A. The happiness-income paradox revisited [Электронный ресурс] / R.A. Easterlin. – Режим доступа: <http://www.pnas.org/content/107/52/22463>
9. Diener E., Suh E. Measuring Quality of Life: Economic, Social, and Subjective Indicators. Social Indicators Research, vol. 40, no. 1, 2.
10. Argyle M. Psikhologiya schast'ya [The Psychology of Happiness]. Saint Petersburg: Piter, 2003.

Мамедова Гульнара,
начальник управления комитета
по вопросам семьи, женщин
и детей Азербайджана

РАЗВИТИЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЕМЕЙНОЙ ПОЛИТИКИ В АЗЕРБАЙДЖАНЕ: СОВРЕМЕННАЯ АЗЕРБАЙДЖАНСКАЯ СЕМЬЯ И НАЦИОНАЛЬНО-НРАВСТВЕННЫЕ ЦЕННОСТИ

Annotation. Mazkur maqolada muallif xalqi boy oilaviy qadriyat tizimiga ega bo 'lgan Ozarbayjon tarixiga o'z e'tiborini qaratadi. Boshqa Sharq xalqlaridagi kabi Ozarbayjon oilsida ham tarbiya katta yoshdagilarga hurmat, avlodlar o'rta sidagi turg'un aloqalar kabi tamoyillar bilan ajralib turadi.

Kalit so'zlar: Ozarbayjon oilaviy an'analari, oilaviy siyosat, milliy axloqiy qadriyatlar, Ozarbayjonning oila masalalariga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar.

Аннотация. Автор обращает свое внимание на историю Азербайджана, народ которого имеет богатую систему семейных ценностей. Воспитание в азербайджанской семье, как и у других восточных народов, отличается такими принципами как уважение к старшим, тесная связь между поколениями.

Ключевые слова: семейные традиции Азербайджана, семейная политика, национальные нравственные ценности, нормативно-правовые акты Азербайджана относительно вопросов семьи.

Annotation. In this article, the author focuses her attention on the history of Azerbaijan, where people have a rich family system. In the Azerbaijani family, as in other Eastern nations, upbringing is based on the principles of respect for the elderly and stable intergenerational ties.

Key words: family traditions of Azerbaijan, family policy, national moral values, normative legal acts of Azerbaijan on family issues.

Как известно, Азербайджан является страной с богатой историей и традициями, сохранившимися и по сей день.

Стратегия воспитания в азербайджанской семье традиционно направлена на воспитание у подрастающего поколения чувства патриотизма и верности своей Родине, уважения к родителям, старшему поколению, формирование морально-нравственных и этических ценностей.

Именно в семье ребенок с самого рождения получает основные знания о жизненных ценностях, нравственных нормах, традициях, манерах поведения в обществе. Атмосфера, складывающаяся в семье, влияет не только на индивидуальность ребенка, но и на отношение его к окружающему миру. Традиционная азербайджанская семья всегда воспринимается, как основная модель семьи, в которой между несколькими поколениями устанавливаются тесные связи.

Одним из приоритетных направлений государственной стратегии Азербайджана является семейная политика, где особое внимание уделяется роли семьи в обществе, защите и укреплению национально-нравственных ценностей и передаче их будущему поколению, психологической подготовке молодежи к будущей семейной жизни, защите здоровья семьи, созданию оптимальных условий для развития и воспитания детей в семье.

Правительством были разработаны и принятые ряд государственных программ и законов, направленных на повышение благосостояния семей:

- Закон Азербайджанской Республики об обеспечении гендерного равенства;
- Закон Азербайджанской Республики о борьбе с бытовым насилием;
- Закон Азербайджанской Республики об изменении брачного возраста в Семейном Кодексе;
- План действий Азербайджанской Республики по борьбе с торговлей людьми;
- Программа, принятая Кабинетом Министров Азербайджанской Республики по социальной реабилитации и реинтеграции в общество детей-жертв торговли людьми;
- Национальная Программа деятельности по повышению эффективности защиты прав и свобод человека.

Одной из задач правительства Азербайджана является, защита репродуктивного здоровья населения и здоровья матери и ребёнка. В этом направлении были приняты ниже перечисленные документы:

- Государственная Программа по улучшению здоровья матери и ребенка;
- Государственная Программа по проведению обязательной диспансеризации детей;
- Государственная Программа по борьбе с Талассемией на 2015-2020 гг.;
- Государственная Стратегия по борьбе с неинфекционными болезнями в Азербайджанской Республике на 2015-2020 гг.;
- Государственная Программа по борьбе с ВИЧ/СПИД-ом;
- План действий на 2020-2025 года, направленный на предотвращение абортов по половому признаку;

Принятие закона об «Обязательном медицинском обследовании для лиц вступающих в брак» оказало положительное влияние на репродуктивное здоровье семей. Добрачное медицинское обследование имеет большое значение для предотвращения таких заболеваний как, талассемия и гемофилия.

Принятые «Правила просвещения молодежи о негативных последствиях ранних браков и родственных браков в целях осведомленности молодежи о важности семьи и брака, а также ее защиты и укрепления» и Закон Азербайджанской Республики об «Изменении брачного возраста в Семейном Кодексе» еще раз показали, что мы готовы бороться со всеми негативными элементами, которые, так или иначе влияют на развитие и сохранение, как института семьи, так и безопасности нашего общества.

Безусловно, необходимо отметить работу государства с лицами с ограниченными возможностями. Закон «О развитии инклюзивного образования людей с ограниченными возможностями», который является одним из важных шагов в направлении их адаптации и реинтеграции в общество.

С целью усиления социальной защиты малообеспеченных семей, развития государственной системы по оказанию адресной социальной помощи, программ занятости и развития семейного бизнеса были принятые важные документы, такие как, Концепция Развития «Азербайджан 2020: взгляды на будущее» и «Азербайджан 2030: Национальный Приоритет социально-экономического развития».

Как известно, наши земли были освобождены от оккупации. Наряду с восстановительными работами на освобождённых от оккупации землях, государство так же, усиливает работу по социальной защите семей погибших военнослужащих, участников Отечественной войны, шахидов и инвалидов Карабахской войны, а также мирных жителей, пострадавших в результате армянского террора.

Указом Азербайджанской Республики Ильхамом Алиевым был подготовлен и принят проект программы под названием «Великое возвращение». В рамках этой программы планируется возвращение более 350 000 семей вынужденных переселенцев на свои исконные земли, которые были оккупированы армянской стороной в 90-х годах XX века. Меры по возвращению беженцев

в родные края в рамках программы «Великое возвращение» предпринимаются непосредственно по распоряжению и под личным контролем президента Азербайджанской Республики.

Особую роль и место в реализации государственной семейной политики принадлежит Государственному Комитету по Проблемам Семьи, Женщин и Детей.

Работа Комитета основывается на реализации Государственных Программ, проведении регулярных просветительских мероприятий среди населения по вопросам воспитания молодого поколения в национальном духе, репродуктивного здоровья, а также оказании юридической и психологической помощи жертвам насилия. При местных органах исполнительной власти (мэрии городов и районов) функционируют мониторинговые группы «Гендерного насилия и насилия в отношении детей». А так же реализуется проект Твининга «Безопасность жертв бытового насилия в Азербайджане».

Учитывая воздействие информационных технологий на молодое поколение, нами наряду с регулярной просветительской работой по подготовке молодёжи к браку были созданы социальные страницы в сетях, где молодые люди могли бы получать ответы на интересующие их вопросы о браке, семье и семейных ценностях.

В тоже время систематически в СМИ печатаются материалы, посвященные семейной жизни, особенностям семейных отношений, пропагандирует воспитание детей в позитивном психологическом климате среди молодежи и их родителей, проводятся социальные опросы по таким темам, как семейные ценности, «семья – ребенок – школа», а также «родители – дети». Эти опросы позволяют нам более точно выбрать аудиторию и тему для наших мероприятий.

Начиная с 2008-го года Комитет ежегодно в регионах страны проводит мероприятия посвященные «Международному дню семьи». В мероприятиях принимают участия семьи со всех регионов страны по следующим номинациям, «Национальная кухня», «Умелые руки», «Творческая семья», «Образцовая семья». Также, проводятся конференции и мероприятия целью которых является сохранение национально-духовных ценностей и исторических традиций этнических групп и малочисленных наций.

С 2009-го года проводится кинофестиваль «Азербайджанская семья». Основной задачей фестиваля является, воспитание молодого поколения в национально-нравственном духе, а также бережное отношение к институту семьи, традициям и духовным ценностям посредством кинематографии. Стоит так же отметить, что на протяжении 11 лет в кинофестивале приняли участие 345 режиссеров предоставивших 386 работ, из которых 42 были предоставлены иностранными режиссерами из таких стран, как Турция, Узбекистан, Белоруссия, Украина, Россия, Болгария, Германия, Венгрия, Швеция, Киргизия, Марокко, Иран и Франция. Эти работы используются в просветительских целях и демонстрируются населению.

Указом Президента Азербайджанской Республики 2020 год был объявлен «Годом волонтеров». В связи с этим Госкомитет реализовал проект «Семейный волонтер», целью которого является пропаганда национальных и духовных ценностей, здорового образа жизни, а также модель крепкой и успешной семьи. Волонтеры, посещали малоимущие семьи и оказывали им социальную и психологическую помощь.

Сегодня нами реализуется проект «Узнаем наши семьи», целью которого является пропаганда среди молодежи национальных и семейных ценностей, повышение уровня их осведомленности перед вступлением в брак. В рамках проекта проводятся онлайн встречи с образцовыми семьями, пользующимися уважением в обществе.

В целях повышения благосостояния семей готовится новый проект под названием «Национальная семейная стратегия». Мы тесно работаем с соответствующими государственными и неправительственными организациями.

Проводимая работа в области семейной политики, безусловно, дает свой положительный результат. В результате проведенных социальных опросов среди населения мы можем точно сказать, что основная часть населения Азербайджана отмечает семью, как главную ценность.

Сегодня современный мир столкнулся с рядом глобальных проблем, и многие вопросы ищут свои решения. Нас всех очень беспокоит эскалация вооруженных конфликтов в разных точках земного

шара, техногенные катастрофы, глобальные климатические изменения, эпидемии и пандемии – все это является нашей реальностью, реальностью XXI века.

Эти глобальные изменения в той или иной форме оказывают свое влияние и на развитие семьи.

Мир глобализуется, культуры и цивилизации сближаются. Мы точно понимаем, что в такое время каждая страна должна не только соответствовать современным требованиям, но и на ряду с этим должна сохранить и развивать свои исторические традиции и культуру. Но ни одна страна, ни одно государство, замыкаясь в себе, не интегрируясь в международное сообщество, не сможет достичь какого-либо успеха.

Поэтому, опираясь на мировой опыт, мы придаём большое значение любому международному сотрудничеству в области демократических, правовых и светских ценностей.



Мелентьев Даниил Вячеславович,

Аспирант I года обучения, факультет гуманитарных наук,

Школа исторических наук, Национальный

исследовательский университет

«Высшая школа экономики»

(НИУ ВШЭ), Москва.

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ИНСТИТУТА СЕМЬИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПОИСК БАЛАНСА МЕЖДУ ГЕНДЕРНЫМ РАВЕНСТВОМ И НАЦИОНАЛНЫМИ ЦЕННОСТЯМИ

Annotatsiya. Ushbu maqola zamonaviy O'zbekistonda gender modernizatsiyasi masalalariga bag'ishlangan. Tadqiqot oila institutining ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyasiga, shuningdek, mamlakat madaniy hayoti bilan bevosita bog'liq bo'lgan ta'lim sohasiga ham yo'naltirilgan. Muallif fikriga ko'ra, O'zbekistonda gender modernizatsiyasining o'ziga xos muammolaridan biri nikohning tomonlar tengligi asosida qurilishiga bo'lgan ishonchsizlikning mavjudligidir. Bu yerda g'arbiy feminizm g'oyalarining an'anaviy oila institutiga ko'rsatayotgan ta'sirini ham inobatga olish zarur. Muallif tomonidan nikoh qurishdan avval qizlarning shaxsiy fikriga qulq solish, oilada iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, oila institutini ma'naviy-axloqiy jihatdan takomillashtirish yuzasidan amaliy takliflari ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: gender tadqiqotlari, feminizm, modernizatsiya, oila, O'zbekiston

Аннотация. Настоящая статья посвящена вопросам гендерной модернизации в современном Узбекистане. Фокус исследования направлен на анализ трансформации института семьи в социально-экономическом контексте, а также сфере образования, которая непосредственно связана с культурным пространством страны. Основной проблемой гендерной модернизации и формирования современной семьи является интеграция западных ценностей феминизма в патриархальное общественное сознание современного Узбекистана, где продолжают доминировать стереотипы о невозможности существования равноправного партнерства в браке. В работе представлены практические варианты решения, по мнению автора, наиболее актуальных задач, связанные с учетом личного мнения девушек при вступлении в брак, корреляции дохода и стабильности семьи, а также размышления о возможных путях морального обновления института семьи.

Ключевые слова: гендерные исследования, феминизм, модернизация, семья, Узбекистан.

Annotation. This article is devoted to the problem of gender modernisation in contemporary Uzbekistan. The study focuses on the socio-economic transformation of the family institution, as well as education, which is directly related to the cultural life of the country. According to the author, one of the specific problems of gender modernization in Uzbekistan is the lack of confidence in the equality of marriage. It is also important to consider the impact of Western feminism on the traditional family. The author puts forward practical

proposals to listen to the personal views of girls before marriage, to ensure economic stability in the family, to improve the institution of the family spiritually and morally.

Key words: gender studies, feminism, modernization, family, Uzbekistan.

Политическая и интеллектуальная элита Узбекистана уже несколько лет демонстрирует мировому сообществу, что страна готова и может проводить широкомасштабные либеральные реформы, быть открытой новым идеям и технологическим инновациям. Позитивные изменения в экономике и социальной сфере затронули все слои населения, однако, культурное пространство республики с 2016 года существенно не изменилось¹⁷. Вместе с тем, оживились средства массовой информации (СМИ), которые начали свободно размещать материалы, посвященные острой и ранее «закрытой» для публичного обсуждения теме – семья и гендерное равенство.

Сегодня реализация программы гендерной модернизации экзистенциальная социокультурная задача для Узбекистана. Ее успешное решение станет серьезным шагом к укреплению культурного доминирования страны в центрально-азиатском регионе. Гендерная модернизация, в моем понимании, означает либерализацию, которая неизбежно отразится на отношении молодежи к браку, свадьбе и семье. Молодежь должна сознательно делать шаг в сторону этих ключевых для жизни каждого событий, а не под социально-политическим давлением.

Цель настоящей статьи – разработка практических рекомендаций по достижению гендерного равенства в семье. Для Узбекистана это представляет актуальную проблему, которая заключается в поиске баланса между применением секулярной гендерной теории на практике и национальными (по сути религиозными) ценностями. Как объединить светские идеи европейского либерального феминизма¹⁸ с консервативным мировоззрением узбекистанцев? Какими методами можно продвигать идеи современной семьи, выстроенной на принципах гендерного равенства? Какие новые качества должен приобрести институт семьи в Узбекистане?

«Сначала было слово»

Необходимо подчеркнуть, что семья – фундаментальный социальный институт, который неразрывно связан с экономикой, политикой, культурой. По моему мнению, семья должна являться институтом, в рамках которого женщина имеет равные права и свободы с мужчиной, а также возможность самореализации не только биологически (как мать), но профессионально и духовно. На сегодняшний день, семья в Узбекистане – это институт эксплуатации и угнетения женщины¹⁹. Подавляющее большинство семей в Узбекистане традиционные (81%)²⁰, в которых сохраняются патриархальные гендерные роли – мужчина «добытчик», женщина «хранительница домашнего очага», мужчина аккумулирует в своих руках семейных бюджет, женщина не участвует в его распределении.

Вступая в брак, девушки зачастую плохо подготовлены: не знают свои права, заведомо принимают возможность унижений и побоев от мужчины как должное, а возражение мужу или его родственникам рассматриваются как «страшный грех», который грозит немедленным разводом, а родственникам жены порицанием со стороны соседей по махалле²¹. Усугубляют правовую дискриминацию девушек шариатские браки, которые не регистрируются через ЗАГС и проведены с целью вступления в отношения со второй или третьей женой. После расторжения шариатских браков женщины чаще всего остаются без полагающегося имущества, а государство не в силах помочь, поскольку брак заключен добровольно. Практика шариатских браков распространена в Узбекистане несмотря на то, что не имеет правового статуса и несет за собой массу ограничений²².

¹⁷ Узбекистан находится на низких позициях в мировых рейтингах гендерного равенства см.: Каримова Д.М. Гендерное равноправие в семье: стереотипы и факты // Общество, гендер и семья в Центральной Азии. №3, 2020. – С. 53–65.

¹⁸ О либеральном феминизме см.: Брайсон В. Политическая теория феминизма / пер. с англ. О. Липовской, Т. Липовской. – М.: Идея-пресс, 2001. – С. 304.

¹⁹ О разных формациях семей в Узбекистане см.: Ташмухамедова Д., Каримова Д., Мавлонов Б. Современная семья в Узбекистане (по результатам социологических исследований). – Ташкент: Yurist-media markazi, 2019. – С. 73.

²⁰ Там же. – С. 77.

²¹ Одна из последних вопиющих историй см.: Молодая женщина найдена повешенной в Хорезме [<https://www.gazeta.uz/ru/2021/04/11/incident/>] доступ от 29.04.2021. А также ряд других страшных случаев: В Ташкенте мужчина издевался над женой на протяжении 14 лет [<https://anhor.uz/news/23236>] доступ от 29.04.2021; В Самарканде мужчина избил до потери сознания невесту [<https://upl.uz/incidents/11360-news.html>] доступ от 29.04. 2021.

²² Ташмухамедова Д., Каримова Д. Молодая семья в Узбекистане (по результатам социологических исследований). – Ташкент: Yurist-media markazi, 2019. – С. 73.

В государстве, которое позиционирует себя как светское, патриархальные обычаи²³ обесценивают институт семьи, делают его не результатом романтических чувств и обоюдного согласия мужчины и женщины, а навязанным союзом, который выгоден родителям и родственникам, поскольку сохраняется калым²⁴. При этом в большинстве случаев не учитываются нравственные качества мужчины, тождественность взглядов на жизнь (мировоззрение/идеология), психологическое состояние девушки. Не принимая во внимание вышеперечисленные характеристики женщина (и мужчина) обрекают друг друга на взаимные страдания, чтобы удовлетворить социальную (не индивидуальную!) потребность в создании семьи. Без эмпатии и мужчина, и женщина сталкиваются с «плохим» стрессом²⁵, а также отсутствие эмоциональной близости ведет к появлению романов и неверности (особенно этим страдают мужчины, женщины терпят), что отнюдь не ведет к укреплению института семьи.

Сегодня, большинство узбекистанок в каком-то смысле субалтерны, т.е. люди которые не могут самостоятельно говорить, их угнетает абстрактная социокультурная конструкция – «менталитет»: он запрещает девушкам обсуждать с родителями собственную позицию. Поэтому главным лейтмотивом моей статьи является идея, что девушек необходимо научить не бояться говорить, высказывать мнение, в первую очередь, своим родителям и мужьям о том, что они чувствуют, чего хотят. Тогда появится независимая и сильная узбекистанка, которая самостоятельно и обдуманно принимает решения, особенно, как и с кем она хочет создавать семью.

Семья и экономика

Экономическое неблагополучие влияет на появление социальных девиаций и разрушает институт семьи: во-первых, среди женщин развивается сфера интимных услуг (проституция), как наиболее легкий способ заработка в короткий срок, во-вторых, продажа собственных детей, которая очень популярна среди узбекистанок, количество «сделок» растет с каждым годом²⁶. Поэтому необходимо обратить внимание на следующие проблемы и возможные пути их решения.

Одной из главных преград для построения крепкой семьи, где женщина уверена в себе и будущем детей, является материальная необеспеченность, которая связана с высоким уровнем безработицы. Эта проблема уже находится в фокусе государственных структур и постепенно решается, преимущественно через создание текстильных предприятий. На начальном этапе гендерной модернизации данная стратегия поддержки малообеспеченных семей является эффективным в снижении уровня женской безработицы. Однако, однообразие трудовой деятельности создает гендерную сегрегацию и стереотипы, например, «женщина – значит швея». Необходимо расширять спектр специализаций предприятий, чтобы женщины с иными навыками и знаниями, например, бухгалтера, парикмахеры, менеджеры были также востребованы.

Важно открывать бесплатные государственные курсы повышения квалификации, которые будут способствовать смене рода деятельности, соответственно и повышению заработной платы. При этом, следует контролировать соблюдение трудового законодательства о равной оплате за аналогичную работу мужчине и женщине. Также, должны строго исполняться законодательные постановления о защите женщины при беременности: ее не должны увольнять сразу по выходу в декретный отпуск. Понимая издержки предпринимателей/бизнеса, будет нeliшним обязать работницу по трудовому

²³ Кстати, проблема «патриархальных брачных обычаем» вызывает серьезное недовольство киргизских девушек и международный резонанс см.: Кармазин И. Невесты нарасхват: почему в Киргизии продолжают похищать девушек. Убийство невесты в Бишкеке спровоцировало акции протеста [<https://iz.ru/1149264/igor-karmazin/nevesty-naraskhvats-pochemu-v-kirgizii-prodolzhaiut-pokhishchat-devushek>] доступ от 29.04.2021.

²⁴ Калым – это отдельная большая проблема для светского государства, которое стремится модернизироваться. Вопросы калыма остается нерешенным уже более ста лет, если считать с момента появления в 1920 году советских женотделов в Туркестане/Узбекистане. С точки зрения феминизма (особенно марксистского толка), позиционирование брака как экономически выгодного дела и женщины как товара/вещи, абсолютно не приемлемо, поскольку это аморально, безнравственно, ведет к разчеловечиванию и частнособственническим отношениям в семье со стороны мужчины.

²⁵ Об этом см.: Фишер Х. Почему мы любим. Природа и химия романтической любви / пер. с англ. Е. Милицкой. М.: Альпина нон-фикшн, 2019. – 414 с.

²⁶ Куанова М. Безысходность на фоне высокого спроса. Кто, почему и за сколько продаёт детей в Узбекистане [<https://mediazona.ca/article/2020/11/12/spros>] доступ от 29.04.2021; Мамедова С. Дорогой ребёнок. Почему в Узбекистане родители продают своих детей [<https://school.cabar.asia/ru/articles/dorogoj-rebjonok-pochemu-v-uzbekistane-roditeli-prodajut-svoih-detej/>] доступ от 29.04.2021.

договору не увольняться по окончанию срока декретного отпуска и ухода за ребенком, например, стоит прописать пункт, что женщина должна отработать минимум год на прежней должности²⁷.

Однако, на мой взгляд, главной причиной разводов и разрушения института семьи является трудовая миграция²⁸. Долгое нахождение супругов на расстоянии друг от друга может порождать сомнения в верности, обоюдное отчуждение в следствии занятости на тяжелой работе, неуверенность во взаимности чувств. Миграционный вопрос сейчас решить невозможно по многим причинам, к тому же надо учитывая, что большой процент дохода Узбекистана составляют денежные переводы мигрантов. Здесь встает дилемма между государственным интересами и благополучием/устойчивостью семей. Создав комфортные экономические условия, когда ни мужчина, ни женщина не будут испытывать материальной нужды, соответственно отпадет надобность в трудовой миграции, которая стала неотъемлемой частью жизни многих граждан нашей страны²⁹, только тогда появится возможность обезопасить институт семьи от разрушения.

Семья и образование

Не смотря на множество реформ в сфере образования остается никак не затронутым вопрос влияния учебных заведений на мировоззрение молодежи. В средней и высшей школе наблюдается полное отсутствие предмета/курса, посвященного гендерной истории и этике, в рамках которого лектор объяснял бы молодому поколению, что современная семья должна строиться на принципах взаимности,уважительном отношении супругов друг к другу, учете потребностей партнера (чаще всего, конечно, не берутся во внимание потребности женщины!).

Этот курс/предмет должен быть направлен именно на изменение восприятия молодыми парнями девушек, т.е. не исключительно как будущих жен и матерей, а как равноправных членов общества, с которыми следует считаться. Этот же курс, может ликвидировать стереотипное мышление, что, например, «наука не женское дело», «место женщины дома с детьми» и т.д. Таким образом, еще в момент формирования личности предмет по гендерной истории и этике сформирует мысль, что унижения природы и достоинства женщин, подавление их воли (т.е. абыузивные отношения) недопустимы в современном общественном сознании в Узбекистане.

С другой стороны, следует ввести в программу старшей школы и вузах предмет «сексуальное воспитание/просвещение». Цель этого предмета объяснить, что секс ценность сам по себе, а не только имеет функции воспроизведения потомства. Кроме того, этот предмет должен рассказывать о венерических заболеваниях, особенностях женской анатомии и наконец, объяснить, что девственность не единственная ценность, которую женщина готова обменять на брак, зачатие и семью³⁰. Женщина сама по себе является уникальной, ее природа, внешность, морально-нравственные качества³¹.

Также необходимо повышать привлекательность получения высшего образования девушками. Окончание вуза может стать «страховкой» для тех, чей брак оказался неудачным, семья распалась, а дети остались на попечении женщины. В такой ситуации, при наличии образования женщина сможет устроиться на работу и обеспечивать детей. Если брак оказался удачным, а семья остается крепкой то, высшее образование женщины не помешает, а даст возможность материальной независимости, позволит приносить дополнительный доход в семейный бюджет. Для увеличения женского контингента в узбекских вузах следует проводить политику бесплатного квотирования, выделяя определенное количество мест для поступления именно девушек. В свою очередь, задачей СМИ и масс-медиа должна

²⁷ О дискриминации и угнетении женщин в капиталистической системе см.: Годси К. Почему у женщин при социализме секс лучше. Аргументы в пользу экономической независимости / пер. с англ. Н. Колпаковой. М.: Альпина нон-фикшн, 2020. – С. 57–80.

²⁸ Дополнительную информацию см.: Сафарова Н.Н. Оценка влияния социально-экономических факторов на уровень разводов в Узбекистане // Общество, гендер и семья в Центральной Азии. №2, 2020. – С. 23–35.

²⁹ При этом понятно, что размер заработной платы в Узбекистане должен существенно подняться, иначе в трудоустройстве на родине не будет никакой смысла и привлекательности, граждане все равно выберут трудовую миграцию.

³⁰ Вульф Н. Вагина. Новая история женской сексуальности / пер. с англ. М. Рыбаковой. – М.: Альпина нон-фикшн, 2020. – С. 253.

³¹ Вульф Н. Миф о красоте. Стереотипы против женщин / пер. с англ. А. Графовой, Т. Графовой. – М.: Альпина нон-фикшн, 2021. – С. 576.

стать всесторонняя агитация и пропаганда важности получения девушками высшего образования: грамотность должна стать обязательным качеством каждой узбекистанки.

Заключение

Модернизация института семьи возможна благодаря улучшению материального благосостояния семей. Экономическое благополучие приведет к либеральному отношению старшего поколения к браку и институту семьи. При этом важно, чтобы девочка/женщина могла полностью себя материально обеспечивать, что придаст ей уверенности и будет способствовать снижения стрессовой ситуации по причине отсутствия денег на свою повседневную жизнь и потребности детей. Высшее образование должно являться дополнительным вспомогательным ресурсом, благодаря которому женщина сможет реализовывать свой научный и творческий потенциал, чувствовать себя нужной не только как мать, но и как гражданин, способный быть полезной обществу и государству.

Введение предметов – гендерная история и этика, а также «сексуальное просвещение» позволяют молодежи гораздо осмысленнее подходить к семейной жизни, воспитают в мужчинах уважение к личному пространству женщин, их убеждениям, стремлениям, природе. Дополнительно, следует размещать медийные баннеры с вопросами, которые заставят молодежь задуматься о важности семьи и брака; снимать социальные ролики порицающие жестокость и насилие в семье. Технический прогресс не избавил женщин от страданий, вероятно, сейчас стоит делать ставку на науку и просвещение, а также на влияние масс-медиа? Страна нуждается в морально и физически здоровых семьях, где нет места ссорам из-за денег и ревности по причине отъезда на заработки, где нет унижений и убийств по надуманным мотивам, где царит любовь и взаимопонимание.

Список литературы и электронных ресурсов:

1. Брайсон В. Политическая теория феминизма / пер. с англ. О. Липовской, Т. Липовской. – М.: Идея-пресс, 2001. – 304 с.
2. Вульф Н. Вагина. Новая история женской сексуальности / пер. с англ. М. Рыбаковой. – М.: Альпина нон-фикшин, 2020. – 554 с.
3. Вульф Н. Миf о красоте. Стереотипы против женщин / пер. с англ. А. Графовой, Т. Графовой. – М.: Альпина нон-фикшин, 2021. – 576 с.
4. Годси К. Почему у женщин при социализме секс лучше. Аргументы в пользу экономической независимости / пер. с англ. Н. Колтаковой. – М.: Альпина нон-фикшин, 2020. – С. 57–80.
5. Каримова Д.М. Гендерное равноправие в семье: стереотипы и факты // Общество, гендер и семья в Центральной Азии. №3. 2020. – С. 53–65.
6. Сафарова Н.Н. Оценка влияния социально-экономических факторов на уровень разводов в Узбекистане // Общество, гендер и семья в Центральной Азии. №2, 2020. – С. 23–35.
7. Таимухамедова Д., Каримова Д., Мавлонов Б. Современная семья в Узбекистане (по результатам социологических исследований). – Ташкент: Yurist-media markazi, 2019. – 127 с.
8. Таимухамедова Д., Каримова Д. Молодая семья в Узбекистане (по результатам социологических исследований). – Ташкент: Yurist-media markazi, 2019. – 128 с.
9. Фишер Х. Почему мы любим. Природа и химия романтической любви / пер. с англ. Е. Милицкой. – М.: Альпина нон-фикшин, 2019. – 414 с.
10. В Ташкенте мужчина издевался над женой на протяжении 14 лет [<https://anhor.uz/news/23236>] доступ от 29.04.2021.
11. В Самарканде жених избил до потери сознания невесту [<https://upl.uz/incidents/11360-news.html>] доступ от 29.04. 2021.
12. Кармазин И. Невесты нарасхват: почему в Киргизии продолжают похищать девушек. Убийство невесты в Бишкеке спровоцировало акции протеста [<https://iz.ru/1149264/igor-karmazin/nevesty-naraskhvat-pochetni-v-kirgizii-prodolzhaiut-pokhishchat-devushek>] доступ от 29.04.2021.
13. Куанова М. Безысходность на фоне высокого спроса. Кто, почему и за сколько продает детей в Узбекистане [<https://mediazona.ca/article/2020/11/12/spros>] доступ от 29.04.2021.

14. Мамедова С. Дорогой ребёнок. Почему в Узбекистане родители продают своих детей [<https://school.cabar.asia/ru/articles/dorogoj-rebjonok-pochemu-v-uzbekistane-roditeli-prodajut-svoih-detej/>] доступ от 29.04.2021.
15. Молодая женщина найдена повешенной в Хорезме [<https://www.gazeta.uz/ru/2021/04/11/incident/>] доступ от 29.04.2021.



Shoumarov G‘ayrat Baxramovich,
Psixologiya fanlari doktori, professor
Xalq ta’limi vaziri maslahatchisi

O‘ZBEKISTONDA OILANING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Annotatsiya. Muallif moddiy farovonlikka nimalar evaziga erishishimiz ustida ham ilmiy asosda fikr yuritishimiz maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Oila farovonligini ta’minalash uchun o‘zga davlatlar tajribasini o‘rganish, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni yo‘qotmasdan erishish lozim degan xulosaga keladi.

Kalit so‘zlar: oila, moddiy farovonlik, qariyalar qismati, mehr-oqibat, ajrimlar, ijtimoiy yetimlar.

Аннотация. Автор считает, что целесообразно подумать с точки зрения науки над вопросом, как добиться материального благополучия. А также приходит к выводу, что необходимо достичь семейного благополучия путем изучения опыта других стран, не теряя при этом национальные и общечеловеческие ценности.

Ключевые слова: семья, материальное благополучие, судьба пристарелых, добро, разводы, социальные сироты.

Annotation. The author believes that it is advisable to think from the point of view of science over the question of how to achieve material well-being. He comes to the conclusion that it is necessary to achieve family well-being by studying the experience of other countries, without losing national and universal values.

Key words: family, material well-being, the fate of the elderly, good, divorces, social orphans

Muammoning dunyo bo‘yicha dolzarbliji. Barcha davlatlar, rivojlangan davlatlar qatoridan o‘rin olishga, o‘zi xohlagandek baxtli yashash sharoitini yaratishga harakat qiladi. O‘zbekiston ham shu yo‘lda ildam qadam bosishga harakat qilmoqda.

Shu bilan birga, ushbu uzoq yillar davomida o‘tadigan yo‘lda nimani qo‘lga kiritib, nimani yo‘qotib qo‘yishimiz, ya’ni moddiy farovonlikka nimalar evaziga erishishimiz ustida ham ilmiy asosda fikr yuritishimiz maqsadga muvofiq deb o‘ylayman. Bu fikr yo‘ldan qaytarishga yoki yo‘nalishni o‘zgartirishga undash emas, balki maqsadimizga erishishda o‘zga davlatlar tajribasini o‘rganish, ular qilgan xatoni takrorlamaslik, ko‘zlagan maqsadga inson uchun eng qimmatli bo‘lgan narsalarni yo‘qotib qo‘ymasdan erishish, belgilangan manzilga o‘zligimizni, umuminsoniy va milliy qadriyatlarimizni yo‘qotmasdan yetishimiz ustida o‘ylashimiz lozim.

Qisqa muddatli – atigi 30 yillik mustaqillik davrida ko‘p narsaga erishish bilan birga eng qimmatli narsalarni yo‘qotib qo‘yidik.

1. Urush yillarida ayrim o‘zbek oilalalari o‘z farzandlarining nasibasini yarim qilsa ham, evakuatsiya qilingan minglab yetim bolalarni o‘z bag‘riga olib, o‘z oilalariga olib ketgan. Bugun esa shu xalqning farzandlari o‘z hamyurtlarini, o‘z jigarlarini ochiqchasiga (hayvon sotgandek) sotmoqda. Oradan atiga 70-75 yil o‘tdi, atigi ikki avlod o‘zgardi.

2. Mahalliy xalq oilasida tarixan uchramagan hol – ayollar, shu jumladan, yosh kelinlarning arzimagan pul uchun mardikor bozoriga chiqishi.

3. Ona o‘z farzandlarini, farzandlar o‘z ota-onasini o‘ldirishlari.

4. 1994-yil qariyalar uyida **3,7%** i o‘zbeklar, **67,9 %** rusiy zabonlar, qolgan qismini esa boshqa millat vakillari tashkil qilgan. Bugungi kunga kelib qariyalar uylarida **50%** dan ortig‘ini o‘zbeklar tashkil qilmoqda. Achinarli jihatni, ularning farzandlari oliy ma‘lumotli, moddiy jihatdan yaxshi ta’minlanganlar hisoblanadi. Bu esa avlodlar o‘rtasida hissiy yaqinlik, emotsiyal bog‘liqlikning zaiflashib ketayotganligini ko‘rsatadi.

5. Xorij davlatlarida turli sohalarda xizmat qilayotgan mahalliy millat ayollari dunyoda yetakchi o‘rinlardan birini egallab turibdi.

6. Vafolilik, eriga vafodorlik, nomusini saqlash, sharm-hayo o‘zimizga xos, mahalliy millatimizga xos bo‘lgan milliy xususiyatlardan edi. Bugungi kunda 15-16 yoshdan jinsiy hayotni boshlash, chet el davlatlarida ishlayotgan ayollar sonining ortishi nimadan dalolat beradi?

7. Milliy g‘urur to‘g‘risida ilmiy ishlar yozamiz, kadrlar tayyorlaymiz, kitoblar chop etamiz. Shu bilan birga, o‘zimizning “tadbirkor” vatandoshlarimiz o‘z vatandoshlarini chet elga oborib sotib kelmoqda. Mahalliy aholi o‘z ayolini Rossiyaga ishga jo‘natmoqda. Ota o‘z qizini, aka o‘z singlisini zo‘rlamoqda. Shumi milliy g‘urur? Milliy g‘ururni ushbu vatandoshlarimiz Kavkaz xalqlaridan o‘rganish kerak.

8. Nikohdan tashqari munosabatlar haqida xabar topgan ayrim erkaklar ayollarni vahshiyarcha o‘ldiradilar va o‘zlaricha buni erkaklik g‘ururi deb biladilar. Vaholanki, shu holatning yuzaga kelishida aksariyat holda qotil erkakning o‘zi aybdor bo‘lib chiqadi. O‘zining erkaklik vazifasini bajara olmasa, alamini xotinidan oladi. Alamini ojiza ayoldan oladi.

9. Oiladagi ajrimlar soni ortib bormoqda.

10. Ijtimoiy yetimlar, ota-onasi hayot, ammo qamalgan, ota-onalik huquqididan mahrum qilinganlarning farzandlarini soni o‘sib bormoqda.

Yuqoridagi hodisalarining yuzaga kelishiga nima sabab bo‘lmoqda?

1. Jamiyatning o‘tish davri.

2. Oilalarning iqtisodiy, moliyaviy holati og‘ir.

3. Mustaqillik davrida shaxs sifatida shakllangan yoshlarning hayot haqidagi tasavvurining o‘ziga xos xususiyatlari.

4. Iqtisodiy-moliyaviy qadriyatlar ma’naviy qadriyatlarni qiymatsizlantirganligi.

5. Oila o‘zining an‘anaviy vazifalarini, ayniqsa, tarbiya funksiyasini deyarlik bajarmayotganligi, tarbiyani iqtisodiy ta’minot bilan adashtirayotganligi va almashtirayotganligi.

6. Ta’lim mazmunida axloqiy tarbiyaning oqsashi va urg‘uning aqliy tarbiyaga berilishi.

7. Oila va ta’lim muassasasidagi yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlamayotganligi.

8. Aholi, xalq va ayniqsa, yoshlar uchun doimo namuna vazifasini o‘tab kelgan turli bosqichdagi rahbarlar xalqqa bir narsani gapirib, amalda namuna bo‘la olmayotganligini natijasida jamiyatda pul hukmronlik qilayotganligi. Korrupsiya “muomola madaniyati” ga aylanganligi, yoshlarni shu ruhda ulg‘ayayotganligi va yoshlarni o‘z ota-onalarining so‘zlarini emas, amaldagi faoliyatini takrorlamoqda.


9. Jamiyatda qarindosh-urug‘chilik, tanish-bilishlik, mahalliychilik, ta’magirlilik hamda poraxo‘rlikning aql-zakovat, iqtidor, bilim va tajribadan ustunligi.

Yuqoridagilarning barchasi oila institutiga ta’sir qilmay qolmaydi. Bu bilan biz oilan moddiy ta’minotining ahamiyatini pasaytirmoqchi emasmiz. Oilani moddiy ta’minlanganlik saviyasi shu oilada voyaga yetayotgan bolaning har tamonlama shakllanishiga sharoit yaratadi. Shu bilan birga, moddiy ta’minlanganlik hayotdagi asosiy maqsadi emas, balki maqsadga yetishishdagi yaxshi omil vazifasi ekanligini bolalarga yoshlikdan tushuntirishimiz lozim. Oila institutini mustahkamlash uchun nimalar qilishimiz kerak? Ularni quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin:

Birinchidan, yuqoridagi ko‘rsatilgan muammolarning qayerdan ozuqa olayotganligini aniqlab, har biri uchun alohida tavsiya ishlab chiqish.

Masalan, individni dunyoga keltiradigan, uni shaxs sifatida shakllantiradigan, uni tarbiyalaydigan, oilaviy hayotga tayyorlaydigan – oila. Demak, oila ikki ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Bir oila yaxshi tarbiyalasla, ikkinchisi teskarisini qiladi. Tarbiyalaydigan ham, buzadigan ham oiladir. Oilada ishlatilmayotgan yoki unutilgan bilimlarni tiklab, yoshlarni shular bilan qurollantsak katta muvaffaqiyatga erishamiz. O‘zbekistonda o‘z joniga qasd qilish natijasida har yili 2 ming ortiq odam olamdan o‘tmoxda.

Ikkinchidan, ta’lim-tarbiya muassasasi yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlamayapti.



Bularning barchasi ilgaridan mavjud bo'lgan, yangilik emas. Ammo ular maqsadli ishlamayapti. Demak, ushbu potensialdan samarali foydalanish uchun har biridan maqsadli foydalanish yo'llarini ishlab chiqish lozim.

Bundan ikki yil oldin barcha viloyat markazlarda “Oilanning innovatsion markazlari” tuzilib, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha o'qishlar tashkil etilib, juda samarali faoliyat boshlagan edi. Bu markazlarga Prezidentimiz shaxsan o'zlari tashrif buyurib, ochilishlarida qatnashib, faoliyatini ma'qullagan edi.

Keyinchalik yangi vazirlik – “Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash” vazirligi tashkil etilib, uning huzurida yangi “Mahalla va oila ilmiy-tadqiqot instituti”ning yuzaga kelishi va unda barcha shart-sharoitlar yaratilishi hukumat rahbarlarining ushbu masalaga bo'lgan katta e'tiboridan dalolat beradi.

Institutda kuchli olimlardan iborat yangi jamoa tuzilib, ilm-fanga e'tiborning kuchaytirilishi va eng muhimmi, ilm-fanning amaliyotga yo'nalganligining ishlashiga urg'u berilishi katta yutuqdir.

O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bo'yicha o'tish davrining murakkab bosqichini boshdan kechirmoqda. Psixologiya tili bilan aytganda, obrazli o'xshatish joiz bo'lsa, o'smirlik davrini boshdan kechirmoqda.

O'zini katta yoshdagi odamlarday his etadigan, o'zini har bir narsaga aqli yetadigan deb hisoblaydigan, kattalarning maslahatini qabul qilmaydigan, aslida esa bolalikdan uzoqqa ketmaydigan, yurak keskin o'sib, qon-tomirlarining o'sishi ortda qolayotgan, xulqida o'jarlik, qo'pollik, o'z biladiganidan qolmaslik va atrofidagi o'ziga o'xshagan tengdoshlarini to'liq ta'sirida bo'lgan yosh davridir. Shaxs shakllanishida har bir inson ushbu bosqichni boshdan o'tkazadi. Bu shaxsda murakkab davr hisoblanadi. O'zbekiston ham aynan murakkab davrda.

Yuqoridagilardan kelib kelib chiqqan holda oila institutini mustahkamlash O'zbekistonda bitta vazirlikning qo'lidan kelmaydi. Chunki muammolarning iqtisodiy, ijtimoiy, ma'muriy, ma'naviy, siyosiy, hududiy, milliy, madaniy va boshqa omillari hamda ulardan ozuqa olayotgan ildizlar bor.

Shu sababli O'zbekistonda oila institutini mustahkamlash bo'yicha 2022-2035-yillarga mo'ljallangan 15 yillik davlat dasturi ishlab chiqish kerak.

Nurmatova Mukarram Ahmedovna,
O'zbekiston Respublikasi
Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash
vazirligi boshqarma boshlig'i, f.f.d., prof.

OILALARNI MUSTAHKAMLASHDA YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH MARKAZLARINING O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada yosh oilalarni mustahkamlashda ijtimoiy islohotlarning o'rni ilmiy tahlil etilgan. Shuningdek, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlarining faoliyati tadqiq etilib, tegishli takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yosh oila, markaz, oilaviy-huquqiy munosabatlar, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, oilaviy munosabatlar.

Аннотация. В статье дается научный анализ роли социальных реформ в укреплении молодых семей. А также освещается деятельность центров, занимающихся молодыми семьями и делает соответствующие рекомендации.

Ключевые слова: молодая семья, центр, семейно-правовые отношения, духовно-нравственные ценности, семейные отношения.

Annotation. This article provides a scientific analysis of the role of social reforms in strengthening young families. Also, the activities of the centers of preparing young people for family life were studied and relevant proposals were developed.

Key words: young family, center, family legally relations, spiritual and moral values, family relations.

Oilaning tarixiy ildizlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, yurtimizda oila azaldan muqaddas dargoh sifatida yuksak qadrlanib kelinadi. Uni asrash, bu aziz maskanning buzilishiga yo'l qo'ymaslik jamiyatimizning doimiy diqqat-e'tiborida bo'lib kelgan va bu qadriyat bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Ayniqsa, uning rivojlanish tarixi yana bir ijtimoiy institut – mahalla bilan chambarchas bog'liq ekanligi bizning tarixiy ildizlarimizni o'zida aks ettiradi. Boshqacha aytganda, oiladagi sog'lom muhit mahalla, shuningdek, mamlakatimizdagi sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirishda asosiy o'rin tutadi.

Darhaqiqat, mahalla va oila necha million aholiga ega xalqimiz hayotida muhim ahamiyat kasb etuvchi jamiyatimizning eng asosiy bo'g'inlari hisoblanadi. Shu maqsadda bugungi kunda mahalla tizimida olib borilayotgan islohotlar negizida ham jamiyatimizda yashayotgan har bir oilaning mustahkamligi, undagi barcha a'zolarning baxtli yashashini ta'minlash kabi ezgu maqsad mujassamdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 18-fevraldagagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan oilaviy qadriyatlar va oila instituti rivojlanishning yangi bosqichiga qadam qo'ydi.

Yurtboshimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi oldiga qo'yilgan asosiy vazifalardan biri oila institutining tarixiy ildizlarini yuzaga chiqarish, oilaviy qadriyatlarni rivojlanirishdan iborat. Shu ma'noda o'tgan davr mobaynida davlatimiz tomonidan yurtimizdagi oilalar, ayniqsa, katta hayotostonasiga endi qadam qo'yayotgan yosh oilalar mustahkamligi, ularning jamiyatning bir bo'lagi sifatida mustaqil shakllanib borishi uchun ko'plab amaliy ishlar olib borilmoqda.

Xususan:

– oila institutini mustahkamlash bo'yicha, eng avvalo, "Sog'lom oila – sog'lom jamiyat" g'oyasini hayotga tatbiq etishga yo'naltirilgan yagona davlat siyosatini olib borish, notinch va muammoli oilalarga manzilli ko'maklashishni tashkil etish belgilandi;

– oilalarni mustahkamlash, yoshlarni oilaga tayyorlash, ajralish yoqasiga kelib qolgan oilalar muammolarini manzilli aniqlab, aniq diagnozlar orqali bartaraf qilish bo'yicha mahallalarda "Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasi" tashkil etildi;

— Vazirlar Mahkamasining 2020-yilda 10-iyunda 367-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi.

Zero, oilalarning mustahkamligi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, milliy xavfsizligini, uning ravnaqi, taraqqiyotini belgilovchi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Mamlakatimizda oila – yurt tayanchi, uning ishonchli kelajagi, millat sharafini yuksaklarga ko‘taradigan mehr-muruvvat, hayotbaxsh harorat, madaniyat va ma’naviyat o‘chog‘i hisoblanadi. Oila jamiyatning tub negizi bo‘lib, eng asosiy tarbiya makonidir.

Keyingi yillarda mamlakatimizda oilalar mustahkamligini ta’minalash, ayniqsa, oilaviy ajralishlarni oldini olish va yoshlarni oilaga tayyorlash borasidagi ishlarni tamomila yangi bosqichga ko‘tarish muhim yo‘nalishlardan biri sifatida qarab kelinmoqda. Zotan, oilada qadriyatlar ulug‘lanib tarbiyalanayotgan oilalar farzandlari mustahkam oila buniyodkorlari va jamiyatimiz egalaridir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 31-dekabrdagi 820-sonli qarori asosida tuman (shahar) mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limlari huzurida tashkil etilishi rejalashtirilayotgan Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlari sohadagi mazkur ish uslubini yangi bosqichga olib chiqishi bilan yanada ahamiyatlidir.

Bu markazlari faoliyati qaysi jihatlari bilan oilalar mustahkamligiga yordam beradi?

Aytish mumkinki, bugungi kunda oilaviy ajralishlarning asosiy sababi tomonlarning o‘z huquqlarini to‘la anglamasligi, oila byudjetining to‘g‘ri shakllantirmasligi oqibatida paydo bo‘layotgan turli iqtisodiy muammolar natijasida yuzaga kelmoqda, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shuningdek, yangi oila qurayotgan ko‘plab yoshlarimiz orasida oilaviy qadriyatlar, reproduktiv salomatlikni asrash borasidagi bilimlarining yetishmasligi ko‘plab ko‘ngilsiz holatlarni keltirib chiqarmoqda.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlari mohiyatan zamonaviy oilaning namunali shaklini yaratish g‘oyasini o‘z oldiga maqsad qilgan bo‘lib, nikohlanuvchi yoshlar ongiga bugungi kun uchun juda muhim bo‘lgan ko‘plab hayotiy tamoyillarni singdirib boradi.

Yuqorida nomi keltirib o‘tilgan qaror asosida bu markazlarga fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish organlariga nikohni qayd etish uchun murojaat qilgan hamda mazkur o‘quv mashg‘ulotlariga qatnashish uchun roziliqi olingan o‘ttiz yoshdan oshmagan fuqarolar jalb etiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, markazlardagi o‘quv jarayonlari ixtiyorilik asosida va eng muhimi bepul tarzda olib boriladi. Shuningdek, qarorda o‘ttiz yoshdan oshgan nikohlanuvchi, muqaddam nikoh tuzgan shaxslar, ajralish yoqasiga kelib qolgan oilalar a’zolari ham alohida dastur asosida markazlarda ixtiyoriy o‘qishlari mumkinligi belgilab o‘tilgan.

Markazlar faoliyatini samarali tashkil etish, mashg‘ulotlarning sifatlari o‘tishini nazorat qilish Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi hamda uning hududiy bo‘limmalari tomonidan olib boriladi. Shuningdek, vazirlik huzuridagi “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularga oiladagi nizoli holatlarni hal qilishning huquqiy va psixologik asoslarini o‘rgatish, shuningdek, oilaviy ajralishlarning oldini olishdagi muhim jihatlarni o‘z ichiga olgan o‘z takliflari bilan markazlar faoliyatiga doimiy ko‘mak berib boradi. Shu bilan birga, bu boradagi xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qilgan holda, o‘quv jarayonlari uchun mos metodik qo‘llanmalar ishlab chiqishni ta’minlaydi.

Ta‘kidlash lozimki, mazkur markazlar sohada yangi va o‘ziga xos zamonaviy tendensiya hosil qilishi bilan bugungi kun talablariga to‘la javob bera oladi. Dars jarayonlarining zamonaviy shakl va uslubga egaligi, markazlarning ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalar bilan jihozlanganligi, eng muhimi, o‘quv mashg‘ulotlarining malakali mutaxassislar tomonidan olib borilishi ish samaradorligini bir necha barobar oshirib borishiga munosib zamin yaratadi. Ayni vaqtida o‘quv jarayonlariga yetakchi ta’lim hamda ilmiy-tadqiqot muassasalarida ish olib borayotgan malakali mutaxassislarini jalb qilish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Markazlarda tahsil olishning shartlari juda oddiy. Nikohlanuvchi yoshlar bu haqida FHDY organlari xodimlari tomonidan o‘rnatilgan tartibda ogohlantiriladi hamda yoshlarimiz o‘z istaklari asosida bu markazlarda bilim va hayotiy tajribalarini oshirishlari mumkin. O‘quv mashg‘ulotlarining rejalarini har oyda Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligining hududiy bo‘limmalari rasmiy veb-saytlarida e’lon qilib boriladi.

Mashg‘ulotlar 4 kun davomida, jami 16 soatdan kam bo‘Imagan muddatda olib boriladi. 45 daqiqa davom etadigan har bir dars jarayonida katta hayot ostonasida turgan yoshlarimizga oilaviy-huquqiy

munosabatlarni to‘g‘ri tashkil etish, oilaviy turmush psixologiyasi, reproduktiv salomatlik asoslari, iqtisod va oila byudjetini yuritish, namunali ota-onalik shartlari, oilada ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini shakllantirib borish kabi ko‘plab muhim va hayotiy tamoyillar ma’ruza, taqdimot, interfaol seminar, amaliy mashg‘ulotlar asosida o‘rgatib boriladi. O‘ylaymanki, bu zarur bilim va ko‘nikmalar hech bir insonni bee’tibor qoldirmaydi.

O‘quv mashg‘ulotlarida to‘liq ishtirok etgan tinglovchilarga mutasaddi tashkilotlar vakillari tomonidan tantanali ravishda maxsus sertifikatlar topshiriladi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, oilalarni mustahkamlash, oilaviy qadriyatlarini saqlash va oilalardagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish borasida quyidagi ishlarni kuchaytirish maqsadga muvofiq.

1) mahallalarda yarashtirilgan oilalarning keyingi hayotidan doimo xabardor bo‘lish maqsadida monitoring ishlarni tizimli yo‘lga qo‘yish;

2) oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash komissiyalari faoliyatiga tegishli mutaxassis va mutasaddi vakillarni, boshqalarga tarbiyaviy ta’sir o‘tkaza oladigan faollarni jalb qilish;

3) noqonuniy nikohlarning oldini olish maqsadida aholi, ayniqsa xotin-qizlar o‘rtasida huquqiy madaniyatni oshirishga qaratilgan targ‘ibot-tashviqot ishlarni olib borish;

4) FHDY va sud organlari bilan nikoh va ajralish masalalarida mahallalar o‘rtasida hamkorlik o‘rnatalishini ta’minalash;

5) mahallalarda yoshlarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash, oilalarni mustahkamlash, namunali oilalarning hayotiy tajribasini keng targ‘ib etish;

6) oilaviy qadriyatlarini mustahkamlashga qaratilgan tadbirlarni tashkil etishda odatdagи tartiblardan ochish, ularni jonli va hayotiy misollar asosida o‘tkazish;

7) oilaviy qadriyatlar sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan olimlarni mazkur ishlarga jalb qilish;

8) har bir viloyatning faqat o‘sha hududga xos bo‘lgan an‘analaridan kelib chiqib, qadimdan shakllangan oilaviy qadriyatlar xususida turkum ko‘rsatuvalar, eshittirishlar, maqolalar tayyorlab borish va OAV orqali keng yoritish (bunda, o‘sha hududlardagi pir-u badavlat, qadimiy qadriyatlarini saqlab, avloddan avlodga meros qilib kelayotgan oilalar, iqtidorli farzandlar tarbiyalayotgan, yurt taraqqiyotiga katta hissa qo‘sib kelayotgan bobo-buvilar, ota-onalar, farzandlar faoliyatiga alohida e’tibor qaratish lozim);

9) er-xotinlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turuvchi normalarni, er-xotinning, ota-onalik farzandlarning ma’naviy va huquqiy majburiyatlarini joriy etish.

Jamoldinova Odinaxon Rasulovna,
O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirining
ma'nnaviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish,
davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya
etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha
maslahatchisi, pedagogika fanlari doktori

XOTIN-QIZLARGA NISBATAN TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKKA QARSHI KURASHISH MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning turmush sharoitlarini yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar mohiyati, ayollar va erkaklarning gender tengligini ta'minlashning huquqiy asoslari mustahkamlanganligi xususida so'z boradi. Jamiyatda xotin-qizlarning o'rni va mavqeyini oshirishda ularning o'z huquqlarini yaxshi bilishi, huquqiy madaniyatga ega bo'lishi, o'zlariga nisbatan turli tazyiq va zo'ravonliklarga qarshi kurashishda faol bo'lishining eng muhim omillar ekanligi ta'kidlanadi. Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik ishlatalishining asosiy sabablarini aniqlash, ularning oldini olish va bartaraf etishning samarali mexanizmlari tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: oila, xotin-qizlar, ijtimoiy faollilik, gender tenglik, tazyiq va zo'ravonlik, gender haqidagi stereotiplar.

Аннотация. В данной статье рассматривается суть проводимых в нашей стране реформ по повышению социальной активности женщин, улучшению их жилищных условий, укреплению нормативно-правовой базы для обеспечения гендерного равенства между женщинами и мужчинами. Подчеркивается, что наиболее важными факторами повышения роли и статуса женщин в обществе являются их осведомленность о своих правах, правовой культуре, активное участие в борьбе с различными формами притеснения и насилия в отношении них. Рекомендуются эффективные механизмы выявления, предотвращения и устранения коренных причин насилия в отношении женщин.

Ключевые слова: семья, женщины, социальная активность, гендерное равенство, угнетение и насилие, гендерные стереотипы.

Annotation. This article discusses the essence of the ongoing reforms in our country to increase the social activity of women, improve their living conditions, the strengthening of the legal framework to ensure gender equality between women and men. It is emphasized that the most important factors in enhancing the role and status of women in society are their awareness of their rights, legal culture, active participation in the fight against various forms of oppression and violence against them. Effective mechanisms for identifying, preventing, and eliminating the root causes of violence against women are recommended.


Key words: family, women, social activity, gender equality, oppression and violence, gender stereotypes.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalish bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar tizimida gender masalalari, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning turmush sharoitlarini yaxshilash borasida tizimli ishlar olib borilmoqda.

BMTning "Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi konvensiyasi, Xalqaro mehnat tashkilotining "Onalikni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Mehnat va mashg'ulotlar sohasidagi kamsitishlar to'g'risida"gi konvensiyalariga O'zbekiston MDH davlatlari orasida birinchilar qatorida qo'shilganligini hamda O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlari to'g'risida"gi (2019), "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi (2019) qonunlarining qabul qilinishi bilan gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha milliy qonunchilikning takomillashganligini alohida ta'kidlash o'rini.


Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy sohadagi islohotlarning natijadorligi xotin-qizlarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik va yaratilayotgan qulay shart-sharoitlarga bevosita bog'liq.

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikka qarshi kurashish borasidagi o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnoma ishtirok etgan 7 823 nafar respondentlarning 77,8 foizini xotin-qizlar, 22,2 foizi erkaklar tashkil etdi. (1-diagramma)



Respondentlarning **18 foizi** o'rta ma'lumotli, **17,1 foizi** o'rta-maxsus hamda **64,9 foizi** oliv ma'lumotlilar ekanligi ma'lum bo'ldi. (2-diagramma).

2-Diagramma
Respondentlarning ma'lumoti bo'yicha ko'rsatkichlar



So'rovda ishtirok etgan respondentlarning **5 763 tasi** hayot davomida zo'ravonlikka uchramaganini ma'lum qilgan bo'lsada **409 nafari turlicha** zo'ravonliklarga, aksariyat holatlarda **hissiy va jismoniy** zo'ravonliklarga duch kelganligini bildirgan.

Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik ishlatilishining asosiy sababi **gender haqidagi stereotiplardir**.

Shuni ta'kidlash kerakki, jamiyatda gender tenglik hosil qilishda erkaklarni jalb qilish oson ish emas. Chunki aksariyat erkaklar qizlar va ayollar ustidan doimiy nazorat o'rnatishni oddiy holat deb hisoblaydi.

So'rovnoma ishtirok etganlar tomonidan zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlarga nisbatan tazyiqning asosiy sabablari sifatida **ikki shaxs orasidagi o'zaro kelishmovchilik, ikki kishi o'rtasidagi munosabatlarga uchinchchi shaxsning aralashuviga kabilar ko'rsatiladi**.

Huquqiy asos mavjudligiga qaramay, ko'plab qizlar va ayollar gender tenglik bilan bog'liq kamsitishlarga duch kelmoqda. Oilada zo'ravonlik ro'y bergan holatlarda ayollar ko'pincha jinoyat haqida xabar berishdan qo'rqadi. Ular xabar bergen taqdirda ham huquqni qo'llovchi idoralar ko'pincha jinoiy yoki ma'muriy ish qo'zg'atmaydi, ko'p hollarda yarashtirishga harakat qilishadi. Bu esa zo'ravonlikning qayta-qayta sodir etilishiga sabab bo'lmoqda.

Respondentlarning bergen javoblaridan ko'rindiki, tazyiq va zo'ravonliklarga uchraganlarning **20 foizida** qo'rquv, **32 foizida** nafrat, **35 foizida** g'azab, **6 foizida** tushkunlik hamda **7 foizida** rahm-shafqat hissi shakllanadi.

Afsuski, oilada xotin-qizlarga nisbatan turli zo'ravonlik yoki tazyiq o'tkazilganda huquqni muhofaza qiluvchi organ yoki tegishli tashkilotlarga murojaat qilmaslik holatlari ham uchrab turadi. Bunday holatda

xotin-qizlar o‘zlariga nisbatan qilingan zo‘ravonlikni ichlariga yutishga majbur bo‘lmoqda. Bu esa insonning psixologik zo‘riqishi, jismonan va ma’nan ezilishiga olib keladi.

So‘rovda ishtirok etgan **5 314 nafar** yoshlar hayoti davomida, do‘stlar, sinfdoshlar, tengdoshlar yoki qarindoshlar bilan zo‘ravonlik tajribasi haqida o‘rtoqlashmaslik, zo‘ravonlik yoki tazyiq oqibatlarini oshkora qilmaslik haqida fikr bildirishgan. Bu esa ularning qanchalik jiddiy oqibatlarga olib kelishi to‘g‘risida yuqorida qayd etib o‘tilgan.

Shu bois tadqiqotda ishtirok etgan talabalarning **96 foizi (6 107 nafar)** zo‘ravonliklarga murosasiz munosabatda bo‘lishini, **4 foizi (246 nafar)** esa “zo‘rovonlikka chidash mumkin” deb javob berishgan.

Demak, biz xotin-qizlar o‘rtasida har qanday zo‘ravonlik sodir etilsa ham chora ko‘rmasdan ko‘nikib yashash mumkin degan fikrni chiqarib tashlashga qaratilgan tushuntirish ishlarini olib borishimiz lozim.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, zo‘ravonlik va kamsitishlarga barham berish masalasida tizimli yondashuvga erishishda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish lozim:

birinchidan, ayollarni zo‘ravonlik va tazyiqlardan asrash, ularga huquqiy hamda psixologik yordam ko‘rsatishda mahallaning rolini yanada oshirish;

ikkinchidan, joylarda faoliyat ko‘rsatayotgan bepul “yuridik klinika”lar sonini oshirish hamda unda ayollar va qizlarning muammolarini o‘rganish, ularni hal etishga e’tibor qaratishning huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

uchinchidan, tazyiq va zo‘ravonlik va boshqa salbiy demografik tendensiyalar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish va uning yechimini topish bo‘yicha davlat grantlarining ko‘lamini kengaytirish;

to‘rtinchidan, oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan fanlar mazmuniga xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikka qarshi gender tenglik masalalarini kiritish;

beshinchidan, xotin-qizlarning bandligini, zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardoshliligini oshirishga qaratilgan samarali mexanizmlarni aniqlash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғ‘рисида”ги Қонуни. – 2019 йил 2 сентябрь.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Хотин-қизларни тазиик ва зўравонликдан ҳимоя қилиши тўғ‘рисида”ги қонуни. 2019 йил 2 сентябрь.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга йўллаган Мурожаатномаси // Халқ сўзи, 2021 йил 29 декабрь.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасиниянада ривожлантириши бўйича Наракатлар стратегияси тўғ‘рисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони// ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017.
5. Namazov B., Egamberdiyeva N., Mirsolieva M. O‘qituvchilarni tayyorlashda gender yondashuv masalalari (Gender mainstreaming in teacher education in Asia-Pacific). O‘quv qo‘llanma. –T., 2018.
6. Вазирлик, идора ва ташкилотларда хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятларни таъминлаши масалалари бўйича маслаҳат кенгашиларини ташкил этиши ҳамда уларнинг фаoliyatini юзасидан тавсиялар. – Тошкент, 2020. 6 б.
7. О.Жамолдинова, М.Мирсолиева, К.Рисқулова. Педагогик таълимда гендер ёндашуви масалалари// Мактабгача таълимда давлат ва нодавлат секторни ривожлантириши: янги шакллари ва таълим мазмuni мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. – Тошкент, 2020. –Б. 99-101.

Aburahimova Farida Yuldashevna,
pedagogika fanlar nomzodi, dotsent

XOTIN-QIZLARNI IJTIMOIY MUHOFAZA QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Annotatsiya. Muallif jamiyatimizda gender tenglikni ta'minlash, ayollar va erkaklarning teng mehnat qilish sharoitlariga ega bo'lishiga doir dolzarb masalalarga e'tibor qaratadi. Ayollarni rahbarlik lavozimlarga tayyorlash, tavsiya etish va tayinlash, ularning jamiyat hayotidagi rolini oshirish, tashqi va ichki migratsiyada xotin-qizlar muammolariga e'tiborni kuchaytirish zarurligi asoslanadi. Shuningdek, ayollarni turli tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilishning huquqiy asoslarini shakllantirish yuzasidan tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: gender tengligi, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, ayollar faolligi, xotin-qizlar va rahbarlik lavozimlari, kadrlar zaxirasi, tashqi va ichki migratsiya, tazyiq va zo'ravonliklar, huquqiy asoslar.

Аннотация. Автор акцентирует внимание на актуальных вопросах обеспечения гендерного равенства в нашем обществе, равных условий труда для женщин и мужчин. Обоснована необходимость подготовки, рекомендации и назначения женщин на руководящие должности, повышения их роли в обществе и уделения большего внимания проблемам женщин во внешней и внутренней миграции. Также даны рекомендации по формированию правовой базы для защиты женщин от различных форм притеснения и насилия.

Ключевые слова: гендерское равенство, социально-политическая жизнь, активность женщин, женщины и руководящие должности, кадровый запас, внешняя и внутренняя миграция, притеснения и насилия.

Annotation. The author focuses on topical issues of ensuring gender equality in our society, equal working conditions for women and men. The necessity of training, recommending and appointing women to leadership positions, increasing their role in society and paying more attention to the problems of women in external and internal migration will be substantiated. Recommendations were also made to establish a legal framework to protect women from various forms of oppression and violence.

Key words: gender equality, socio-political life, women's activity, women and leadership positions, human resources, external and internal migration, oppression and violence.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqida jamiyatimizning turli sohalarida erishilgan muhim yutuqlar va istiqboldagi vazifalar xususida to'xtalib, jumladan, ayollarning mehnat va turmush sharoitini yaxshilash, gender tenglikni ta'minlash borasidagi ishlar ham izchil davom ettirilayotganini alohida takidladi.

So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bu omil ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotning muhim negizidir. Shu bois keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida bu boradagi ishlarni xalqaro andozalar asosida tashkil etishga e'tibor qaratilmoqda. 2020-yilda insoniyat boshiga tushgan misli ko'rilmagan, ayniqsa, COVID-19 sinovlari, ko'pgina muammolar qatorida dunyoda oilaviy zo'ravonlik masalalarini o'tkirlashtirib, uni eng dolzarb muammolar qatoriga chiqardi.

Ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi yil mobaynida jahon miqyosida uy sharoitida zo'ravonlik holatlari 40-50 foizga ko'paygan. Bunday vaziyatda esa xotin-qizlar eng zaif bo'g'inga aylanadilar. Shuni hisobga olgan holda mutasaddi tuzilmalar O'zbekiston Respublikasining Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasi hamda Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va Gender tenglik masalalari qo'mitasi tomonidan tegishli vazirliklar bilan birgalikda tezkor choralar ko'rildi. Xususan, zo'ravonlikdan jabr chekkan ayollar uchun ishonch telefoni (1146 raqami), maxsus telegramm kanali tashkil etildi. Ular orqali ijtimoiy, psixologik, huquqiy yordam ko'rsatilmoqda, zo'ravonlikdan aziyat chekkanlarga "Himoya orderlari" rasmiylashtirilmoqda. Qonunga binoan, joriy etilgan "Himoya orderi" xotin-qizlarga berildi.

Xotin-qizlarning huquqiy-manfaatlari mehnat munosabatlarda ham himoya qilinmoqda. Jumladan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonunga muvofiq davlat organlarida gender tenglikni ta'minlash bo'yicha maslahat kengashlari faoliyat olib bormoqda.

Mehnat jamoasi rahbarining ijtimoiy masalalarga mas’ul o‘rribosari ushbu kengashni boshqaradi. Kengashning asosiy vazifasi barcha bo‘limlar, hududiy tuzilmalar yuqoridan pastiga qadar ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlar yaratilishini ta’minlab berishdan iborat. Oylik ish haqlarini belgilash, lavozimlarga tavsiya qilishda ayollar va erkaklarga teng qarash, har bir korxona va tashkilotda tayyorlanadigan rezerv kadrlar bazasiga xotin-qizlarning ham nomzodlarini kiritib, ularni xizmat vazifasida rahbarlik lavozimlariga tayyorlash kabi masalalarini tizimli tahlil etib boradi, xulosalar beradi. Ayni chog‘da joylarda xotin-qizlar uchun yaratilgan shart-sharoitlarni ham o‘rganadi. Bular, albatta, ibratli o‘zgarishlar. Bu borada xayrli ishlarni izchil davom ettirish, xususan, jamiyatimizda ko‘p muhokama qilinayotgan dolzarb mavzu – gender tengsizlik masalasining oqilona yechimini topish bugungi kunning eng muhim vazifasidir.

Aslida gender tenglik, ya’ni erkaklar va xotin-qizlar tengligi insonning asosiy huquqlaridan biri hisoblanadi. Mutaxassislar fikricha, faqat erkaklardan iborat jamoaga nisbatan 50/50 foiz erkak va ayollardan iborat mehnat jamoalari, ayniqsa, **agar ular aqliy mehnat bilan band bo‘lsa**, bir necha bor yuqoriroq natija ko‘rsatadi. Qolaversa, gender tenglik mamlakatning demokratik taraqqiyot darajasini ko‘rsatuvchi indikator hisoblanadi. Demak, rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo‘shilish, yurtimizga tobora ko‘proq investitsiyalar jalg qilish uchun ham shu indikatorga yetarlicha e’tibor berilishi kerak.

Bu borada doimiy, ko‘lamdor va salmoqli natjalarga erishish uchun hujjat, oddiy til bilan aytganda, **dasturulamal kerak**. Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimizda aynan shu hujjat 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan. O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi loyihasi ishlab chiqilib, tasdiqlandi.

Ushbu tarixiy hujjat Konstitutsiya, “**Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun, 2017-2021-yillarda** O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning **beshta ustuvor** yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan rivojlantirishning ustuvor vazifalari hamda **2030-yilgacha** bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsadlar va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan. **Unda gender tenglikni ta’minalashning** asosiy tamoyillari qotorida qonunchilik, demokratiya, ochiqchilik va oshkoraliq prinsiplari belgilangan. Irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeiyidan qat’i nazar, xotin-qizlar va erkaklar haqiqiy tengligini ta’minalashga qaratilgan.

Ta’kidlash joizki, bugungi kunda turli darajadagi davlat va jamoat tizimlarida, shu jumladan, vazirlik va idoralar, mahalliy ijroiya hokimiyati organlarida 1500 nafardan ortiq xotin-qizlar rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritmoqda. Davlat boshqaruvida xotin-qizlar ishtirokini oshirish maqsadida 6 mingdan ziyod faol xotin-qizlardan iborat kadrlar zaxirasi shakllantirildi. Hozirgi kunda ularni turli rahbarlik lavozimlariga tayinlash bo‘yicha tizimli o‘quvlar tashkil etilmoqda. Ichki ishlarni vazirligi tizimida 16 nafar ayol rahbarlik, 6 nafar ayol hokimlik lavozimini egalladi. Turli darajadagi davlat mukofoti sovrindori bo‘lgan xotin-qizlar soni 2 ming 224 nafarga yetdi. Bugungi kunga qadar 577 nafar ayol “Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi. 400 nafarga yaqin 35 yoshgacha bo‘lgan qizlar Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo‘lishdi. O‘zbekiston tarixida birinchi marta milliy parlamentda xotin-qizlar, soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetdi. Mamlakatimiz parlamenti xotin-qizlar soni bo‘yicha dunyodagi 190 ta milliy parlament o‘rtasida 37-o‘ringa ko‘tarildi. Yurtimizda tadbirkor va fermer xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish va qo‘llab-quvvatlash borasida qo‘srimcha kafolatlar berildi. Birinchi marta Oliy Majlis Senati raisi lavozimida ayol kishi faoliyat ko‘rsatmoqda.

Katta kompaniyalar va nodavlat tashkilotlar xodimlarining umumiy sonidagi xotin-qizlar ulushida deyarli to‘liq gender tenglik ta’milangan bo‘lib, 2019-yilda ko‘rsatkichlar 49,5 foizga yetdi.

Shuningdek, mamlakatimizda mavjud bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari 20 foizdan ortig‘iga xotin-qizlar rahbarlik qilmoqda. Shu bilan birga, strategiyada ta’kidlab o‘tilganidek, BMT ning Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar qabul qilingan. Bu yo‘nalishdagi navbatdagi maqsad gender tenglikni ta’minalash hamda barcha xotin-qizlarning huquqiy imkoniyatlarini kengaytirishdir.

Bu esa, o‘z navbatida, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va boshqa choralarni qamrab oladi. Ushbu vazifalarni bajarish uchun barcha davlat organlari va tashkilotlari, muassasalari, shuningdek, davlat ahamiyatidagi jamoat tashkilotlari mas’uldir.

Xotin-qizlarning davlat va jamiyat qurilishidagi ishtirokini kengaytirishga ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda e’tiborni kuchaytirish talab etiladi. Jumladan, xotin-qizlarning erkaklar

bilan teng darajada davlat va jamiyat boshqaruviga oid dolzARB masalalar yuzasidan **qarorlar qabul qilishda** ishtirokini kengaytirishni ta'minlash lozim. Ular hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga doir ishlarga yetarli darajada jalb etilmayapti. **Birgina sud-huquq tizimidagi** xotin-qizlar ishtirokiga e'tibor qaratsak, hozirgi kunda mamlakatimizda jami ishlab turgan **1 ming 206 nafar** sudyadan **1 ming 50 nafari** erkak bo'lib, ayol sudyalar atigi **156 nafarni, yani 12,9 foizni tashkil qiladi**. Oliy sudda faoliyat yuritayotgan **jami 62 nafar sudyadan 15 nafari** ayoldir. Bu raqam **24,2 foizga** teng.

Davlat organlari va tashkilotlarida xotin-qizlar va erkaklar ishining sifatini baholash, lavozimda o'sish masalalari bo'yicha teng imkoniyatlarni yaratishga qaratilgan gender tenglikni ta'minlash **mezonlari mavjud emas**.

Xotin-qizlarning davlat hokimiyati va boshqaruvidagi faoliyati to'g'risida jamiyatda shakllangan salbiy qarashlar esa ularning siyosiy jarayonlarda o'z g'oyalarini ilgari surishiga to'sqinlik qilmoqda. **Aksariyat hollarda** xotin-qizlarga iqtisodiy ahamiyatga ega bo'limgan va haq to'lanmaydigan uy xo'jaligi ishlari yuklatilmoqda.

Tashqi va ichki migratsiyaning gender jihatlari va uning xotin-qizlar va erkaklarga ta'siri bo'yicha tadqiqotlar yetarli emas. Mazkur sohada aholi uchun yaratilgan imkoniyatlar, xotin-qizlarning huquqlari va mehnat migrantlarini himoya qilish mexanizmlari to'g'risida targ'ibot-tashviqot ishlari talab darajasida tashkil qilinmayapti.

Gender tenglik ayollar va erkaklar, qizlar va o'g'il bolalar uchun teng huquq, mas'uliyat, imkoniyat qadriyat va natijalardir. **Gender tenglik faqat ayollarga taalluqli masala bo'lmasdan, u erkaklar huquq va majburiyatlarini ham anglatadi**. Gender tenglik ayollarning ham, erkaklarning ham manfaatlari, ehtiyojlari va ustuvorliklari hisobga olinganini ko'rsatadi.

O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida birinchilardan bo'lib xotin-qizlarga erkaklar bilan teng huquqlar berilishi borasida qator tadbirlarni amalga oshirdi. 1995-yilda O'zbekiston xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida (CEDAW) ratifikatsiya qildi. Uning qator moddalari milliy qonunchilikka kiritildi.

O'zbekistonda xotin-qizlarni e'zozlash, ularning jamiyatdagi rolini oshirish, davlat siyosatining muhim yo'nalişlaridan biriga aylandi. Xususan, 2019-yilda qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonun shular jumlasidan. Ayollar uchun ko'plab ijtimoiy imtiyozlar joriy qilindi. Ana shunday chora-tadbirlar tufayli ayollarimiz bugungi kungi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning, davlat va jamiyatda kechayotgan hayotbaxsh o'zgarishlarning faol ishtirokchisiga aylandi.

Mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar esa xotin-qizlarning bu boradagi sa'y-harakatlarini kengaytirish, jamiyatda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa o'mida quyidagi takliflarni tavsiya etishni joiz deb bildik:

1. Respublikamiz aholisi, ayniqsa, xotin-qizlar o'rtasida huquqiy savodxonlikni oshirish maqsadida Respublika ma'naviy va ma'rifiy markazi huzuridagi "**Ma'rifat**" targ'ibotchilarini jamiyatni hamda 2019-yilda Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita qoshida tashkil etilgan **Targ'ibotchilar guruhi** a'zolari hamkorligini yo'lga qo'yish zarur.

2. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi "**Xotin-qizlarga nisbatan tayziq va zo'ravonlikning oldini olish to'g'risida**"gi qonunlarni aynan zo'ravonliklarga duch kelayotgan yoki duch kelish ehtimoli bo'lgan xotin-qizlar o'rtasida tushunarli, sodda va misollar yordamida keng tushuntirish. Ayniqsa, oxirgi 3-4 yil ichida xotin-qizlar, oila onalik va bolalikning qonuniy manfaatlarni himoya qilish bo'yicha 24 ta qonunlar, farmon va qarorlar qabul qilindi. Ushbu mavzuda kichik bukletchalar tayyorlab, muammoli oilalarga tarqatish maqsadiga muvofiq.

3. Qonun hamda Nizomga binoan Gender tengligi bo'yicha barcha korxona va tashkilotlar, mehnat jamoalarida tashkil etilgan "**Maslahat kengashlari**" ishini "qo'zdan amaliyotga" tamoyili bo'yicha faollashtirish zarur. Oilaviy zo'ravonlikkha uchragan xotin-qizlarga tajribali psixologlarni, huquqshunoslarni, oilashunos olimlarni, targ'ibotchilarini, hoji ona, hoji otalarni, otinoyilarni va imom-xatiblarni biriktirish zarur.

5. Aholi o‘rtasida “**Himoya orderi**” targ‘ibotchi ishlarini yanada faollashtirish. Bu ishlarga mahalla faollarini, targ‘ibotchi guruh a’zolarini hamda mahalliy kengash deputatlarini ham keng jalg etish, OAVda, jumladan, televide niye orqali ta’sirchan roliklar tayyorlab, efiriga uzatish maqsadga muvofiqdir.

6. Tayziq va zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlarga yordam beruvchi Respublikamiz markazlarining moddiy ta’mintoni yaxshilash va xodimlari malakasini oshirish ham bugungi kun talabidir.



Alimjanova Dilbar Magribjanovna,
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot institutining
Xalqaro aloqalar bo‘limi boshlig‘i

Kuldasheva Gulbahor Davlyatovna,
Toshkent tibbiyot akademiyasi,
psixologiya fanlari nomzodi

BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA OILA, MAHALLA VA TA’LIM MUASSASALARI HAMKORLIGINING AHAMIYATI

Annotatsiya. Maqolada kelajak avlod tarbiyasida oila, mahalla va ta’lim muassasalarining o‘rnini haqida fikr yuritiladi. Unda farzand tarbiyasida birinchi navbatda oilaning roli, so‘ng mактабдаги о‘қитувчиларнинг faoliyati hamda yoshlarning tarbiyasiga ta’sir etuvchi omillar ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: oila, tarbiya, mahalla, hamkorlik, meros, qadriyat, avlod, mas’uliyat.

Аннотация. В статье рассматривается роль семьи, махалли и образовательных учреждений в воспитании подрастающего поколения. В ней в первую очередь раскрывается роль семьи в воспитании детей, затем деятельность учителей в школе и факторы, влияющие на воспитание молодежи.

Ключевые слова: семья, воспитание, махалля, сотрудничество, наследие, ценности, поколение, ответственность.

Annotation. The article discusses the role of family, community and educational institutions in educating the rising generation. It highlights the role of the family in the upbringing of children, followed by the activities of school teachers and the factors influencing the upbringing of young people.

Key words: family, upbringing, makhalla, cooperation, heritage, values, generation, responsibility.

Ma’lumki, yosh avlod tarbiyasi har qanday zamon va makonlarda, har qanday jamiyat uchun ham eng ustuvor vazifalardan biri bo‘lib kelgan.

Ayniqsa, bugungi shiddatli globallashuv davrida xalqimizning tarbiya borasidagi o‘ziga xos milliy qadriyatlarga asoslangan azaliy an’analari mentalitetimizga zid bo‘lgan g‘oya va qarashlar soyasida qolib ketayotgani tashvishlanarli holdir.

Shu bois ham aholisining 60 foizdan ortig‘ini yoshlar tashkil etuvchi mamlakatimizda keyingi vaqtarda yoshlarga oid davlat siyosati izchil va tizimli ravishda davom ettirilmoqda. Xususan, farzandlarimizning orzu-umidlari, ezgu maqsadlarini ro‘yobga chiqarish yo‘lida davlatimiz tomonidan barcha tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar, imkoniyat va imtiyozlar yaratilib, bugungi yangilanishlar jarayonida ularning hal qiluvchi kuch sifatida maydonga chiqishlariga jiddiy e’tibor qaratib kelinmoqda.

Shu ma’noda, Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Prezidentlik lavozimiga kirishganidan so‘ng birinchi bo‘lib imzolagan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunda ham yosh avlodning munosib tarbiyalanishi uchun barcha qulay shart-sharoitlarni yaratish, yurtimizning kelgusi taraqqiyotida yoshlarning intellektual salohiyatidan unumli foydalanishni nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar belgilab qo‘yildi.

Shuningdek, Prezidentimiz tomonidan beshta muhim tashabbusning ilgari surilishi, 30-iyun sanasini mamlakatda “Yoshlar kuni” deb e’lon qilinishi, o‘tgan uch yilning o‘zida yoshlarga oid 50 dan ortiq Qonun

va qonunosti hujjatlarining qabul qilingani, Senatda va Qonunchilik palatasida “Yoshlar parlamentlari” faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi, Yoshlar ishlari agentligi tashkil etilgani yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini ta’minlab kelmoqda.

Ma’lumki, har qanday davlatning jadal taraqqiy etishi, barcha sohalarda salmoqli yutuqlarga erishishi, xalqining farovon bo‘lishi yoshlarga yaratib beriladigan imkoniyat va qulayliklar bilan chambarchas bog‘liq. Ya’ni mamlakat taraqqiyotiga kiritiladigan eng yuqori samarali investitsiya bu – yoshlar ta’lim-tarbiyasiga tikilgan investitsiya ekani tarix isbotlagan haqiqatdir.

Shu ma’noda, yangi O‘zbekistonning uchinchi Renessansga dadil qadam qo‘yishi zamonaviy innovatsion bilimlarni egallagan, har tomonlama yetuk va barkamol, inson kapitali sohibi bo‘lgan yosh avlodning ertangi kuchli intellektual salohiyati, iqtidori va qobiliyatiga bog‘liq. Binobarin, tadqiqotlarga ko‘ra, shaxsning 3 yoshidan 22 yoshigacha bo‘lgan davrida unga kiritilgan investitsiya kelgusida 19-22 barobar ko‘p foyda berar ekan.

Shu bois ham, bugun zamon talabiga mos, islohotlar shiddatiga javob bera oladigan, vatanparvar, fidoyi yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

Prezidentimizning 2020-yil 2-dekabr kuni Parlamentga yo‘llagan Murojaatnomasida qayd etilganidek, endilikda mamlakatimizda bola tug‘ilganidan boshlab, 30 yoshgacha bo‘lgan davrda uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o‘rin topishi uchun ko‘mak beradigan, yaxlit va uzlucksiz tizim yaratiladi.

Buning uchun, birinchi navbatda, farzandlarimizga bog‘cha, maktab va oliy o‘quv yurtida sifatlari ta’lim-tarbiya berishni yo‘lga qo‘yish, ularning jismoniy va ma’naviy sog‘lom, vatanparvar insonlar bo‘lib ulg‘ayishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etish zarur. Shuningdek, yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo‘lgan insonlar etib voyaga yetkazishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Buyuk ma’rifatparvar bobolarimiz Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat va boshqalar ta’kidlashganidek, tarbiya, avvalo, oiladan boshlanadi. Darhaqiqat, har tomonlama yetuk, barkamol va komil shaxsmi tarbiyalashda oilaning o‘rni va ahamiyati beqiyos. Tarbiyaning asosiy o‘chog‘i hisoblangan oila millat davomiyligini saqlash, milliy qadriyatlar rivojini ta’minlaydigan yangi avlodni dunyoga keltirib, uni ma’nan va jismonan sog‘lom qilib tarbiyalaydigan muqaddas maskandir. Ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-madaniy muhit sog‘lom qaror topgan oilada bolaning ongi yaxshilik, ezgulik, mehr-oqibat, odamiylik, or-nomus, g‘urur, samimiyat, to‘g‘riso‘zlik kabi fazilatlar bilan to‘lib, jamiyatga kerakli inson sifatida voyaga yetadi.

Albatta, yoshlar tarbiyasida azaliy qadriyatlarimizdan biri hisoblangan mahalla institutining ahamiyati ham katta. “Mahalla – ham ota, ham ona”, “Bir bolaga yetti mahalla ota-on” qabilidagi qadimiy maqollardan ham bilish mumkinki, o‘zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik kabi xalqimizga xos urf-odat va an’analalar aynan mahalla muhitida rivojlangan. Bu omillar, o‘z navbatida, yosh avlodning ong-u tafakkurini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Demak, farzand ta’lim-tarbiyasida mahallaning o‘rnini hech narsa bilan tenglashtirib bo‘lmaydi.

Binobarin, xalqimizning tinchligi va farovonligini ta’minlash, oilalarda sog‘lom ma’naviy muhitni yaratish, yoshlarga oid davlat siyosatini yanada samarali amalga oshirish, o‘sib kelayotgan farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan, yurt taqdiriga daxldorlik hissi bilan yashaydigan yetuk shaxslar sifatida shakllantirish, ayniqsa, yoshlarda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashda mahallaning o‘rni g‘oyat muhimdir.

Mahalla – jamoatchi-tarbiyachi sifatida ham yoshlar tarbiyasida ushbu pedagogik jarayonga xos barcha sifatlarga ega bo‘lgan maskanlardan biri. Bugungi kunda “Oila – mahalla – ta’lim muassasasi” jamoatchilik tuzilmasi orqali shakllanayotgan yangicha dunyoqarash bilan o‘sib kelayotgan yoshlarda o‘z Vataniga sadoqatni, milliy qadriyat va an’analarga bo‘lgan muhabbat, o‘z oilasi va yaqinlariga mehribonlik, tanlagan yo‘li, kasbi, maslagi va e’tiqodiga sodiqlikni tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi.

Zero, mahalla, eng avvalo, sog‘lom ijtimoiy muhitdir. Bu yerda kuchli ta’sirga ega bo‘lgan jamoatchilik fikri mayjud bo‘lib, u aholining xulq-atvori, o‘zaro munosabatlarniadolat, bag‘rikenglik, insonparvarlik kabi ma’naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi. Mahallalarda fuqarolarning hayotiy tajribasi, keng jamoatchilikning sa’y-harakatlari bilan yoshlar o‘rtasida mafkuraviy-tarbiyaviy ishlarni samarali yo‘lga qo‘yish uchun katta imkoniyatlarn mavjud. Ayniqsa, milliy qadriyatlarini e’zozlash, mehr-oqibat, el-yurt sha’ni uchun kurash kabi fazilatlarning kamol topishida mahallaning o‘rni beqiyos.

Shulardan kelib chiqib, ayni davrda yosh avlod ta'lim-tarbiyasida umuminsoniy, milliy, ma'naviy qadriyatlar ustuvorligiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Bu yosh avlodga boy tarixiy, milliy, ma'naviy merosni singdirish hamda asrlar davomida shakllangan xalq pedagogikasi an'analari asosida ta'lim-tarbiya berish demakdir. Ota-bobolarimiz farzandlariga ilm o'rgatish barobarida, avloddan avlodga o'tib kelayotgan milliy, ma'naviy, axloqiy qadriyatlarni ham ular ongiga singdirib borishgan.

Bugungi ta'lim-tarbiya masalalarida xalqimizda o'zligini anglash, milliylik va milliy qadriyatlarga sodiqlikni saqlashning psixologik asoslarini tadqiq qilish muhimdir. Buning uchun, avvalo, "psixologik ta'sir" orqali kishilarda yuqorida sanab o'tilgan fazilatlar shakllanishining mohiyatiga e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Kishilik jamiyatining hamma davrlarida ham bola tarbiysi, barkamol avlod orzusiga eng dolzarb masala sifatida qaralgan. Xususan, pedagogika tarixining guvohlik berishicha, bu davrga kelib, nisbatan to'q oilalar o'z farzandlarini o'qitish, munosib tarbiyalash masalasiga ancha jiddiy yondasha boshlaganlar. Ya'ni bolalarini tarbiyalash va o'qitish uchun maxsus tarbiyachi-pedagoglarni yollaganlar.

Taraqqiyotning ma'lum bosqichlarida ta'lim va tarbiyaning ijtimoiylashib borishi natijasida bolalarga ta'lim-tarbiya berishga mo'ljallangan alohida muassasalar, ya'ni maktablar shakllana boshlagan.

Ana shu davrlardan boshlab ta'lim-tarbiya masalasining asosiy yuki maktablarning zimmasiga tusha boshlagan. Taraqqiyotning tezlashuvi natijasida dastlab G'arb davlatlarida, so'ngra esa dunyoning boshqa hududlarida xotin-qizlarning ijtimoiy mehnatga keng jalb etilishi natijasida bola tarbiysi ko'proq ta'lim-tarbiya muassasalarining zimmasiga o'ta boshladi. Natijada, muayyan davrlarga kelib, ta'lim-tarbiya masalasiga faqat mактабning ishi sifatida qarala boshlandi. Ayrim oilalarda ijtimoiy mehnat bilan doimiy band bo'lib qolgan ota-onalar o'z bolalarining ta'lim-tarbiyasi uchun mutlaqo vaqt ajrata olmaydigan darajaga yetdilar. Oila bilan mактаб o'rtasidagi aloqalar tobora zaiflasha bordi. Oila, mahalla va mактаб o'rtasidagi hamkorlik iplari ingichkalasha bordi, hatto uzildi.

Demak, oldimizda intellektual boy, ma'naviy va jismonan sog'lom avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va mактаб hamkorligini to'g'ri va samarali yo'lga qo'yishdek jiddiy muammo turibdi.

Bu o'rinda, **birimchi navbatda**, pedagog-psixologlar oilalarga, ayniqsa, ta'lim-tarbiya faqat mактабning ishi, degan tor tushunchaga ega oilalargacha kirib borishi va ota-onanlarni hamkorlikda ishlashga chorlashlari lozim.

Ikkinchidan, keyingi paytlarda axloqiy buzuqlik, zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm kabi yot va buzg'unchi g'oyalarni Internet orqali yoshlar ongiga singdirishga urinish kuchayib bormoqda. Yigit-qizlarimizni ularning ta'siridan asrash uchun mahallalarda bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni atroficha tahlil qila oladigan mutaxassislarini jalb etgan holda o'quv mashg'ulotlari tashkil etib borish kerak.

Uchinchidan, mahalladagi ma'naviy-ma'rifiy muhitni sog'lomlashtirish va takomillashtirish ishlariga jiddiy yondashish foydadan xoli emas. Shu yo'l bilan notinch oilalardagi holatni yaxshilash, farzandlar tarbiyasida ko'zga tashlanayotgan noxush holatlarning oldini olish mumkin.

To'rtinchidan, daxldor tashkilotlar hamkorligida yoshlar muammolarini o'rganishga qaratilgan ijtimoiy tadqiqotlar, so'rovlar o'tkazib borishni tizimli yo'lga qo'yib olish zarur. Tadqiqot yakunlari bo'yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilib, unda yoshlarning muammolarini yechishga, orzularini amalga oshirishga, bandligini ta'minlashga, bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etishga qaratilgan vazifalar qamrab olinishi lozim.

Beshinchidan, mahallalarda, ta'lim muassasalarida ibratli xonadon vakillari, urush va mehnat faxriylari, yozuvchi va shoirlar ishtirokida uchrashuv va davra suhbatlarini muntazam ravishda o'tkazib turish zarur. Ushbu tadbirlar qanchalik ko'paysa, ko'zlangan maqsadlarga tezroq yetish imkoniyati shunchalik ortadi.

Xulosa o'rnida aytganda, yoshlar ta'lim-tarbiyaga jiddiy e'tibor qaratmasak, ertaga kech bo'lishi, tuzatib bo'lmas darajadagi oqibatlarga olib kelishi mumkin. Zero, taniqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir", degan so'zleri oradan bir asr o'tib ham o'z dolzarbligini yo'qotmaganini unutmaslik lozim.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Адилходжаева С. Благополучие махалли – залог стабильности государства // Демократиии ва инсон нуқуқлари. – Тошкент, 2003. – №3. – Б.107-108.
2. <https://strategy.uz/>

Musurmonova Aynisa,
*The Deputy Director of the Research Institute
“Mahalla and Family” under the Ministry of
Mahalla and Family Support of the
Republic of Uzbekistan,
Doctor of science, Professor*

THE MODERN FAMILY AND ITS SPIRITUAL AND MORAL FOUNDATIONS

Annotation. *The article reflects the scientific and theoretical views on the modern family and its peculiarities, its priorities, components of the competence of modern Uzbek family members, principles, sources, effective forms and methods, adverse effects and their consequences, as well as conclusions and recommendations for improvement have been developed.*

Key words: *modern family, factors, priorities, spiritual and moral foundations, modern family model, competence of family members, spiritual and moral values, spiritual environment, principles, priorities, resources, spiritual and moral criteria, innovative educational technologies.*

Annotatsiya. *Maqolada zamonaviy oilaga, uning xususiyatlari, ustuvor yo‘nalishlari, tarkibi, tamoyillari, manbalari, faoliyatining samarali shakl va metodlari, bugungi o‘zbek oilasi a’zolarining kompetensiyalari oid ilmi-nazariy qarashlar o‘z aksini topgan hamda oilaga ko‘rsatiladigan salbiy ta’sirlarning oldini olish, oila farovonligi ta’minalash yuzasidan tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *zamonaviy oila, omillar, ustuvorliklar, ma’naviy-axloqiy asoslar, oilaning zamonaviy modeli, oila a’zolari kompetensiyasi, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, ma’naviy muhit, prinsiplar, resurslar, ma’naviy-axloqiy mezonlar, innovatsion ta’lim texnologiyalari.*

Аннотация. В статье отражены научно-теоретические взгляды на современную семью и ее особенности, приоритеты, компоненты и компетенции современных узбекских членов семьи, принципы, источники, эффективные формы и методы, неблагоприятные воздействия и их последствия, а также выводы и разработаны рекомендации по улучшению.

Ключевые слова: современная семья, факторы, приоритеты, духовно-нравственные основы, современная модель семьи, компетентность членов семьи, духовно-нравственные ценности, духовная среда, принципы, ресурсы, духовно-нравственные критерии, инновационные образовательные технологии.

The family is the foundation of society, the key castle of human happiness. Therefore, today the strengthening of the family in our country has become one of the priorities of state policy. Its social and spiritual harmony is the basis of the welfare of the state and society. Indeed, the well-being and prosperity of society and the state depend on the modernity of families and the strength of its spiritual and moral foundation. Therefore, in the context of radical reforms in our country, special attention is paid to the legal, socio-economic and spiritual protection of family interests.

Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 18, 2020 No PF-5938 «On measures to improve the socio-spiritual environment in society, further support the institution of the community and bring the system of work with families and women to a new level» its socio-economic and spiritual foundations serve as a methodological basis for increasing efficiency.

The main goal of improving the institution of the family in our country is to build a modern family. What kind of family is a modern family? First of all, it is necessary to find an answer to this question.

In our view, a family is a modern family that fully reflects the components of competence, contributes to the development of the state and society with its peace, prosperity and stability on the basis of universal and national spiritual and moral values, modern best practices, happiness index requirements.

A family is a modern family, which is formed in accordance with the requirements of the society in which it is built.

Today, the modern family must meet the following principles: building a family on the basis of mutual love, biological compatibility; reproductive and sexual maturity; dedication, initiative and creativity for the economic and social well-being, stability of the family and society; commitment to national family values; have the skills and abilities to create a healthy spiritual environment; adherence to the criteria of communicative competence; have a family business culture; «Protect your child, your home, your homeland like the apple of your eye!» devotion to the motto; To be vaccinated with the «honesty vaccine» and to adhere to the idea of «anti-ignorance-enlightenment»; family, hard work; adherence to international, interethnic harmony.

Researches also shows that the modern family has a unique pattern, and it is natural that it should be multifaceted and comprehensive in form and content. The rapid beginning of the «Third Renaissance» in Uzbekistan is the basis for the rapid formation of modern families. Of course, it has its own specific template, which includes **the following priorities** in the content:

- the family is under the protection of society and the state, its legal basis;
- economic well-being of the family;
- social stability of the family;
- moral and spiritual formation of the family;
- being complete family;
- educationally satisfactory level of the family;
- demographic stability of the family;
- spiritual and physical health of the family.

Prospective brides and grooms need to prepare for modern family life on the basis of these priorities. The youth in building a modern family based on such conceptual ideas as «**Healthy family – healthy society**», «**Family – society and state protection**», «**Prosperous family – the basis of a prosperous society**», «**Family – the hearth of spirituality**», «**Family – the mirror of society**» knowledge of the priorities of the components, the gradual formation of skills in the age. Therefore, in order to prevent conflicts, contradictions, pressure, unrest and divorces in the mahallas of the **Republic, Commissions for strengthening family values** are functioning.

The rapid beginning of the «Third Renaissance» in Uzbekistan is the basis for the rapid formation of modern families. In this process, the peoples of the world are increasingly interested in the Uzbek family, and the Uzbek people are interested in learning from the experience of the families of the peoples of the world.

Indeed, the attitudes and behaviors of different nations and peoples around the world towards marriage and its strengthening vary, and they can have their positive or negative impact on the families of other nations.

At the same time, there is a possibility that some of the cases in which their family life has become normal will have a negative impact on the formation of our modern families, which can be categorized as follows:

- the superficiality of the relationship to the fact that the family is a sacred fortress;
- extreme freedom in relationships between boys and girls, marriage, family life, divorce, non-reliance on parental opinion;
- not to consider marriage as a high value (most families live on the basis of civil or sharia marriage);
- starting of sexual intercourse very early in adolescence;
- lack of commitment of young girls to virginity;
- open access to free sexual relations and special conditions for them;
- the emergence of the habit of comparative imitation of the traditions of other peoples, nations, not in terms of national values in relation to marriage;
- independent decision-making by the couple without mutual consent in making a decision on this or that issue;
- a sharp departure from oriental morality in the performance of duties and responsibilities of dress, parenting, lifestyle, childbearing, kinship;
- each person in the family lives an individual life for himself;
- neglect of same-sex marriage;
- impairment of the spiritual and moral foundations of families;
- group sex;
- marrying young people unprepared for family life, etc.

Indeed, the main criterion for building a modern family free from such negative influences is that it is built on a spiritual and moral foundation. Only research and life experience show that he/she can be strong and happy.

The spiritual and moral foundations of the modern family are universal and national values. Because, on the basis of further development of the spiritual and moral foundations of the family, preservation and strengthening of its ancient values, the spiritual perfection of society is achieved. The establishment of a broad spiritual environment in the family, resistance to various harmful influences that are completely alien to our national mentality, further enhances the role and importance of the family in society. Its main sources are:

- views on the family in the legacy of Eastern and Western great scientists;
- samples of folklore;
- national and universal material and spiritual values;
- legal and normative documents on improving the spirituality of the family (laws adopted by the Oliy Majlis, ratified international legal acts, decrees, resolutions and orders of the President of the Republic of Uzbekistan, resolutions of the Cabinet of Ministers, normative acts of ministries and departments, scientific and methodological works, etc.);
- works of literature and art;
- media materials, TV and radio programs and broadcasts;
- advanced international and national life experience.

Based on these sources, the following **spiritual and moral criteria** of the modern family will be improved: family sanctity, family law culture, family life psychology, family economy and budget, strengthening spiritual and moral values, household secrets, family hygiene, reproductive health and sexual education, health follow the rules of lifestyle (dress, diet, personal hygiene, physical health), to follow the rules of daily life, to behave in any situation, to be humble, patient, tidy, moderate, polite, to speak in a polite manner, to be free from various immoralities, to have faith, conscious discipline, a sense of national pride, behavior, love of rules of conduct, love of national family values, adherence to the culture of home economics, respect for adults and respect for children, love for literature and art, respect for different national customs, traditions, language, religion and culture, tolerance, work culture, healthy spiritual environment, dress code, communication culture, modern home rules of morality of ladies, strengthening of spiritual and moral values, socio-spiritual aspects of parenting, early marriage, early childbirth, divorces, causes and harmful consequences of family conflict, violence and oppression, child rearing and its peculiarities, negative consequences of orphan hood, sharia marriage, so.on.

Thus, the purpose of spiritual and moral education is to consciously demonstrate the universal and national moral values of the individual in everyday life, in practical activities, in accordance with modern spiritual criteria, through their actions and behavior.

These criteria include whether the spiritual environment is healthy or unhealthy; calm or restless; complete or incomplete; needy; low-income, lost breadwinner; have different nationalities, religious beliefs, social status; educated, working-class and other categories of families will be improved based on their specific characteristics. Of course, the organizational competence of parents, neighborhood citizens' assembly officials and other officials plays an important role in it.

Taking into account the above, the organization of spiritual and educational work in families individually, in groups, collectively, in public, youth, parents, educators, social needs, requirements of society, the nature of the educational institution, the spiritual and cultural interests of the region, taking into account the geographical location as well as the demographic situation.

Conclusion. Thus, the widespread use of **innovative educational technologies** in improving the modern family and its spiritual and moral foundations is suitable. Including the use of multimedia resources, educational and fiction, electronic information and communication technologies, special TV and radio columns and reports, social projects, popular science, art and cartoons and documentaries, e-learning resources, special interactive web projects, audiovisual and other tools it will be beneficial to the prosperity.

The diversity of parenting methods used plays an important role in ensuring the effectiveness of modern family formation. The use of question and answer, small group work, storytelling, roundtables, discussion, cluster, brainstorming and **other methods**, depending on the purpose, content, theme and nature of the spiritual and educational work, gives positive results.

In particular, it plays an important role in the study of public opinion, monitoring the results of education, improving its content, the correct choice of forms and methods of work. Determining the methodological basis of this study; defining the content and principles; selection of effective methods; it is necessary to clearly define the ways of analysis, conclusions, recommendations.

Significant results will be achieved on priority issues such as the development of the modern family, internal relations in the family, interpersonal relationships, rich cultural heritage and traditional family values, conducting fundamental, applied and innovative research, strengthening their spiritual and moral foundations, preparing young people for family life.

The list of used literature:

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 18, 2020 No PF-5938 «On measures to improve the socio-spiritual environment in society, further support the institution of the community and bring the system of work with families and women to a new level.»
2. Law of the Republic of Uzbekistan «On protection of reproductive health of citizens», adopted on February 28, 2019.
3. Musurmanova O. Family is the basis of society: Monograph /O.Musurmanova.-Tashkent: Youth Publishing House, 2019.-252 p.
4. Virtuous generation. Trilogy of continuous spiritual education. Section 3. [Text]: A guide to the spiritual upbringing of children aged 7-18. / Authors: A.Kadirov, M.Quronov, O.Musurmanova and others.- Tashkent: Muharrir Publishing House. 20019.-256 p. (January 2020)
5. Musurmanova A. The scientific and pedagogical foundation of training social activeness of youth. Fledu.pdf. Scientific-methodical electronic journal «Foreign languages in Uzbekistan». Tashkent, 2017, № 3. 168-172 R.
6. Mycypurmanova A. Family reading as a factor of spiritual and moral development of the child The Way of Science. International scientific journal (ISSN 2311-2158) 2018. № 1 (47). 70-72 P.
7. Mycypurmanova A. Improving Mechanisms of interaction between Family institutions and Educational institutions in Developing Spiritual Culture of Adolescents at Social and Right Risk Groups Eastern European scientific journal (ISSN 2199-7977) Ausgabe 2-2018.62-67 P.
- Musurmanova A. Improvement of the pedagogical mechanisms of the family and educational institutions in the development of the spiritual culture of adolescents of social and legal risk groups. «Problems of pedagogy» scientific-methodical magazine. № 1 (33) February Moscow-2018 5-7 R.

Xoliqova Mohira Kundibayevna,
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot
instituti bo‘lim boshlig‘i,
falsafa doktori, dotsent

OILA MEDIATSIYASINING G‘ARB DAVLATLARIDA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Annotatsiya. Ushbu maqola ijtimoiy nizolarni samarali hal qilishning mediativ usullarining G‘arb mamlakatlarida rivojlanish tendensiyalari va mediatsiyani oilaviy nizolarga tatbiq etishning ahamiyatiga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: mediatsiya, oila, shaxs, ma’naviy muhit, oilaviy nizolar, prevensiya.

Аннотация. В статье рассматриваются тенденции развития методов медиации для эффективного разрешения социальных конфликтов в западных странах и важность применения медиации в семейных конфликтах.

Ключевые слова: медиация, семья, личность, духовная среда, семейные конфликты, профилактика.

Annotation. The article discusses trends of development of mediation methods for the effective resolution of social conflicts in Western countries and the importance of using mediation in family conflicts.

Key words: mediation, family, personality, spiritual environment, family conflicts, prevention.

Mediatsiya - nizolarning oldini olish, boshqarish
va hal qilishning eng samarali usullaridan biri.

Pan Gi Mun

Yer yuzida nizolar bor ekan, yarashtiruv institutlari ham mavjud bo‘lgan. Zamonaviy huquqiy-demokratik davlat sharoitida nizolarni adolatli hal qilishning samarali usullari va tartib-taomillarini rivojlantirish dolzarb masala hisoblanadi.

Ijtimoiy institut sifatida mediatsiya jamiyatning barcha sohalarida shaxslararo munosabatlarni tartibga soluvchi funksiyani bajaradi. Ushbu munosabatlar qanchalik yaqin va emotsiyal bo‘lsa, nizolarni hal qilishda va qulay ijtimoiy muhit yaratishda vositachilikning istiqbollari shunchalik kengdir. Mediativ yondashuvning imkoniyatlari juda keng. Sohaga oid tadqiqotlar mediatsiya yordamida yuzaga keladigan nizolarning 80% dan ortig‘i muvaffaqiyatli hal etilayotganini ko‘rsatadi.³²

Ma’lumki, eng yaqin shaxslararo munosabatlar oilada rivojlanadi.

Oila – shaxs ma’naviyati, dunyoqarashi, e’tiqodi, fe’l-atvori va tabiat shakllanadigan muqaddas ma’naviy maskan. Oila ilk hayotiy tasavvurlar, yaxshilik va yomonlik haqidagi axloqiy mezonlar, iyemon-e’tiqod, mehr-oqibat, or-nomus, oliyanoblik, muhabbat, mas’uliyat, vatanparvarlik, insonparvarlik, ma’rifatparvarlik, sabr-qanoat, mehnatsevarlik kabi yuksak tushunchalarning poydevori bo‘lib xizmat qiladi. Oila ajdoddlardan meros bo‘lib asrlar mobaynida saqlanib kelayotgan milliy qadriyatlar, kattalarga hurmat ko‘rsatish, ularning oldida odob saqlash, duosini olish, kichiklarga muruvvat kabi ota-bobolarimizdan meros qadriyatlar, sharqona odob, muqaddas an’analarni keyinga avlodlarga yetkazib beruvchi kuchli tarbiya omilidir. Oila va oilaviy munosabatlar jamiyat hayotida ijtimoiy munosabatlarning vujudga kelishi va rivojlanishida asosiy o‘rinni egallaydi.

Har qanday jamiyat va sivilizatsiyalar oilaviy ijtimoiy munosabatlar atrofida shakllangan va rivoj topgan. Umuman davlat va jamiyatning ravnaqi va bir vaqtning o‘zida inqirozi ham bevosita oilaviy munosabatlarning holatiga bog‘liq. Oila va oilaviy munosabatlar barqarorligini ta’minlash har qanday davlatning strategik manfaati sifatida milliy xavfsizlikning asosiy yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

³² Шамликашвили Ц.А. Основы медиации как процедуры урегулирования споров. М.: Межрегиональный центр управленического и политического консультирования, 2013.

Bugungi kunning ulkan ijtimoiy hodisasi bo‘lgan globallashuv hamda postindustrial “axborot jamiyati” (E.Giddens³³, P.Druker³⁴) kontekstida insoniyat xavfsizligi hamda davlatlarning milliy manfaatlarini ta’minlashga xatar soluvchi ma’naviy tahdidilar hamda buning natijasida katta ma’naviy yo‘qotishlar yuz berayotgani, millatlarning asriy qadriyatları va yashash tarzi izdan chiqayotganini kuzatish mumkin. YUNESKOning “XXI asr ta’limi” bo‘yicha xalqaro qo‘mitasi dasturida insoniyat oldida turgan eng muhim vazifalar qatorida *birgalikda yashashni o‘rganish hamda shaxs sifatida noyob, yagona, takrorlanmas bo‘lishni o‘rganish* kabilar alohida ta’kidlab o‘tilgani bejiz emas.³⁵

Iqtisodiy, ijtimoiy, g‘oyaviy, ma’naviy-axloqiy omillar ta’sirida oilaviy qadriyatlar ham xavf ostida qolmoqda. 2018-yil yakunlari bo‘yicha ajrimlar holati foiz hisobida Rossiya Federatsiyasida 65%, Shvetsiyada 64%, Ukrainada 63%, Chexiyada 61%, Belgiyada 56%, Litvada 55%, Moldovada 52%, AQShda 49%, Vengriyada 46%, Kanadada 45%, Norvegiyada 43% dan ortiq, Gollandiyada 41%, Shvetsiyada 40% ga yetgan. 2019-yil yakuni bo‘yicha ba’zi G‘arb mamlakatlarida tuzilgan nikohlarning bekor qilinish holati **40% dan 67%** gacha bo‘lgan ko‘rsatkichni tashkil etadi va bu oila instituti inqirozi va ijtimoiy xavfsizlikka jiddiy tahdid sifatida baholanmoqda.

Oilaviy munosabatlar an’anaviy mustahkam bo‘lgan Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlarida ham ajralishlar soni tobora ko‘payib bormoqda. Mamlakatimizda ham oilaviy ajrimlarning oldini olish bo‘yicha muntazam chora-tadbirlar amalga oshirilishiga qaramasdan ajrimlar sonining oshayotgani kishini tashvishga soladi. Oilaviy nizolarning ortishi, ajralishlar sonining ko‘payib borayotganligi va jiddiy ijtimoiy oqibatlarini hisobga olib zamonaviy jamiyatlar ularning oldini olish va konstruktiv yechim topishga alohida e’tibor qaratmoqda.

Bu borada ko‘plab davlatlar oilaviy mediatsiyani oilaviy nizolarni hal etishda samarali usul sifatida rivojlantirishga harakat qilmoqdalar.

Oilaviy mediatsiya oilaviy nizolarni tinchlik yo‘li bilan hal etish, ajrimlarning oldini olish, oilada yuzaga kelayotgan muammolarni yechish va oila barqarorligini ta’minlashga ahamiyat qaratish zaruriyati sifatida paydo bo‘ldi. Oilaviy mediatsiya mediatsiyaning eng keng tarqalgan turi va barcha turdag'i oilaviy nizolar va kelishmovchiliklarni hal qilishning eng samarali usuli sifatida tan olingan. Oilaviy mediatsiya tushunchasi nizo tomonlari (er-xotin, farzandlar, qarindoshlar) o‘rtasidagi oilaviy nizolar (ziddiyat, mojaro, kelishmovchilik)ni hal qilishda qo‘llaniladi.

Oilaviy mediatsiya ijtimoiy hodisa sifatida qonunlar va sud oila a’zolari o‘rtasidagi nizoni samarali hal qila olmasligini anglashdan kelib chiqadi, chunki har qanday huquqiy nizoning negizida shaxsiy nizolar yotadi, uni bartaraf etish uchun axloq va hamkorlik tamoyillari tazyiq va hukmdan ko‘ra ko‘proq mos keladi. Insonlar sud hukmini ijob etishi mumkin, lekin ularni kechirishga yoki yarashishga majbur qilib bo‘lmaydi. Nazoning yechimi o‘zaro hurmat, bir-birini tushunish, tan olish, tomonlarning istaklari va manfaatlarini hurmat qilishga bog‘liq. Oilaviy munosabatlar deganda barcha munosabatlar (er-xotin o‘rtasidagi munosabatlar, ota-onalar va ularning farzandlari, qarindoshlar va h.k.) tushuniladi. Oilaviy munosabatlarning xilma-xilligiga qaramasdan ular umumiy xususiyatlarga ega:

- tomonlar o‘rtasidagi kuchli hissiy aloqa;
- boshqa shaxslarni oilaviy nizolarga aralashtirmaslikka intilish;
- tomonlarning chuqur shaxsiy kechinmalari;
- nazoning yuqori emotsiyonalligi;
- nizo oqibatlarining ishtirokchilarning, ayniqsa, farzandlarning shaxsiy hayotiga ta’siri.

Oilaviy mediatsiya oilaviy hayotga oid ko‘plab quyidagi masalalarni qamrab oladi, uning yordami bilan oilaviy munosabatlarda yuzaga keladigan nizolarning aksariyatini hal qilishga erishish mumkin:

- er-xotin o‘rtasidagi nizolar (nikoh shartnomasini tuzish, nikohni bekor qilish, dunyoqarashlar to‘qnashushi, otalikni aniqlash, farzand asrab olish, vasiylilik, aliment to‘lash, ota-ona, keksa qarindoshlariga g‘amxo‘rlik qilish, meros huquqi va h.k.);
- ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi nizolar (ota-onalik huquqidan mahrum qilish);
- yaqin qarindoshlar (aka-uka, opa-singillar, qarindoshlar o‘rtasidagi nizolar).

³³ Гидденс Э. Ускользающий мир. Как глобализация меняет нашу жизнь. – М.: Весь мир, 2004.

³⁴ Drucker P.F. The Future of Industrial Man. Piscataway: Transaction Publishers, Rutgers The State University, 2009.

³⁵ Образование: сокрытое сокровище (Learning: The Treasure Within). Издательство ЮНЕСКО, 1996.

Tadqiqotchilar oilaviy nizolarda tomonlar xotirjamlik va ratsional yondashuvga tayyor emasliklari, kuchli ehtiroslarga berilgan, chuqr tushkunlikda va psixologik inqiroz holatida bo‘lishlari bois mediatordan tegishli tajriba, malaka talab etilishini ta‘kidlaydilar. Bunda mediatorning maxsus bilim va kompetensiyalarga ega bo‘lishi, kommunikativ metodlarni bilishi, professionalizmi katta ahamiyatga ega.

Ma’lumki, oilaviy masalalar yuzasidan dastlabki yarashtiruv xizmatlari 1939-yilda AQShning Kaliforniya shtatida paydo bo‘ldi. XX asrning o‘rtalaridan boshlab AQShda nizolarni alternativ yo‘llar bilan yechishga bo‘lgan talab keskin oshib ketdi. Tadqiqotchilarning fikricha, bu davrda ijtimoiy nizolarning o‘sisi tufayli sudlarga bo‘lgan murojaatlar soni keskin oshdi va o‘z-o‘zidan sudgacha bo‘lgan davrda nizolarni hal etishning yangi institatlarni tashkil qilish zaruriyati vujudga keldi.

Amerikalik sotsiolog, psixolog Morton Doych tomonidan insonning nizoli tabiatini to‘g‘risida nazariya ilgari surildi va nizolarni yechishda uchinchi tomonidan oqilonona foydalanish texnologiyasi taklif etildi. Huquqshunoslar tomonidan nazariy jihatdan asoslangan vositachilik jarayoni va uni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha “aybsiz ajralish” tamoyili asosida ijtimoiy institutlar ixtisoslashib bordi.

Dastlabki xususiy mediatsiya xizmatiga 1974-yil AQShning Atlanta shahrida advokat va oilaviy konsultant **Jim Kugler** (Coogler) tomonidan asos solindi. Kuglerning 1978-yilda yozilgan “Ajrimda tizimlashtirilgan mediatsiya” (Structured Mediation in Divorce Settlement) nomli kitobi ta’sirida nizolarni hal etishda uchinchi taraf, ya’ni vositachilar yordamidan foydalanish amaliyoti ommalashdi. 1975-yilda Kugler “Oilaviy mediatsiya assotsiatsiyasi”ni (*Family Mediation Association*) tuzdi.

Xorijiy davlatlar amaliyotida oilaviy mediatsiya nikohni bekor qilishda yuzaga keladigan nizolarni tartibga solish, bolalarni ajrimdan so‘ng yashash joylarini aniqlash, bola bilan muloqot qilish tartibini o‘rnatish, alohida yashayotgan ota-onalarning bola tarbiyasida ishtirok etishi, aliment miqdorini aniqlash, umumiyligi bo‘lish va boshqa masalalarga nisbatan qo‘llaniladi.

Oilaviy mediatsiya sohasida yirik tadqiqotlar olib borgan Buyuk Britaniyalik tadqiqotchi Liza Parkinsonning fikricha, oilaviy mediatsiya ajralish yoki nikohni tugatish holatlariga nisbatan qo‘llanilib, tomonlarning ota-onalik maqomlarini saqlab qolishi va majburiyatlarini bajarishida yordam beradi.³⁶ Shuning uchun AQShda “ajralishda mediatsiya” tushunchasi shakllangan. Zamonaviy adabiyotlarda “oilaviy mediatsiya” tushunchasi nafaqat ajrashayotgan tomonlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklarga, balki oilaviy munosabatlarni rasmiylashtirish bosqichida, nikoh shartnomasi tuzish yoki birgalikdagi turmushi davomida yuzaga keluvchi bir qator masalalarni yechishda ham keng qo‘llanadi.

Texnologik kesimda oilaviy mediatsiyaning klassik mediatsiyadan farqli ravishda samaraliligi tan olingan *narrativ, ekotizimli, transformativ, provokatsion, qayta tiklovchi* modellari mavjud.

Mediatsiyaning klassik modeli, asosan, tomonlarga muzokaralar tashkil etishda yordam ko‘rsatish nazariyasiga asoslangan bo‘lib, mediatorning missiyasi tomonlarni o‘zaro foydali shartnomaga olib kelishdan iborat. Ammo ajralishga oid nizolarda tomonlar xotirjam, ratsional tafakkur asosida muzokaralar olib borishga tayyor emas va kuchli ehtiroslarga berilgan, chuqr tushkunlik va ruhiy inqiroz holatida bo‘ladi. Buning natijasida mediatsiyaning yuqorida keltirilgan modellari paydo bo‘la boshladi.

Provokatsion model nizoning chuqr eskalatsiya bosqichida, mediatsiya yordamida yechish imkoniyati deyarli bo‘lmasligi va sud yordamidan foydalanish tavsiya etilgan oilalar bilan ishslash imkoniyatini beradi. Bu usulda dastlab tomonlar nizoning eng yuqori bosqichigacha olib boriladi va keyin metafora, ibratli hikoyalar orqali urush holatidan tinchlikka o‘tiladi.

Ekotizimli model bolalarni tarbiyalash bilan bog‘liq bo‘lgan nizolarni bartaraf etishda samarali hisoblanadi va oilaning yaxlit tizim sifatida manfaatlariga mos uzoq muddatli kelishuvlar ishlab chiqishga qaratilgan. Bunda mediatorning asosiy maqsadi ekodastur, ya’ni oila a’zolari va farzandlarning manfaatini hisobga olgan holda oilaning keng qamrovli sxemasini ishlab chiqishdan iborat.

Texnologik jihatdan oilaviy mediatsiyada maxsus kommunikativ tehnologiyalar, jumladan, empatiya, psixologik yordam, konsultatsiya va oilaviy terapiya kabi metodlardan foydalanadi.

Xalqaro miqyosda oilaviy mediatsiya masalalarini mustaqil tartibga soluvchi hujjat sifatida Yevropa Kengashining “Oilaviy nizolarda mediatsiya to‘g‘risida”gi Rec №(98)1-sonli tavsiyalarini keltirish mumkin. Mazkur tavsiyalarda ajralish jarayonida bolalar manfaatlarini ta‘minlash tamoyili aks etgan. Tamoyilga ko‘ra, mediator tomonidan ajrashayotgan ota-onalarga bolalar manfaatlariga alohida e’tibor qaratish va bolalar kelajagi uchun qayg‘urish kerakligi eslatiladi.

³⁶ Лиза Паркинсон. Семейная медиация. 2-е изд. М.: МЦУПК, 2016.

Bugungi kunda ko‘plab davlatlarning milliy qonunchiligidagi oilaviy nizolarni tartibga solishda mediatsiya texnologiyasi sudlar tomonidan majburiy amaliyot sifatida belgilangan. Xususan, **Australiya, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Kanada, Fransiya, Bolgariya** kabi davlatlarda oilaviy munosabatlarni tartibga solishda mediatsiyani majburiy qilib belgilash huquqiy amaliyoti mavjud.

Buyuk Britaniyada 1996-yilda qabul qilingan “Oila to‘g‘risida”gi qonunda advokat oilaviy nizolar bo‘yicha yuridik yordam so‘rab murojaat etgan mijozlarni Mediation Information and Assessment Meetings deb nomlanuvchi dastlabki axborot-baholovchi bosqichdan o‘tish uchun mediatorga yuborishi majburiy etib belgilangan. Oilaviy mediatsiyaga ijtimoiy soha xodimlari, oilaviy konsultantlar, oilaviy psixologlar, psixiatrlar jalb qilingan.

AQShda mediatorlar, asosan, oilaviy sud raisiga bo‘ysunuvchi ijtimoiy soha vakillari hisoblanadi. Faqat yuridik jihatdan murakkab masalalarda (aliment undirish, umumiylar bo‘lish) jarayonga yuristlar jalb qilinadi.

Huquqiy amaliyotda oilaviy mediatsyaning o‘ziga xos yo‘nalishi sifatida ko-mediatsiya rivojlangan. Unda mediatsiya ikki mediator tomonidan olib boriladi va ularning biri psixolog, psixoterapevt, ikkinchisi esa huquqshunos (yurist, advokat, notarius) bo‘lishi belgilangan. Shuningdek, ko-mediatsiyani olib borishda gender tengligiga rioya qilish tartibi ham keng tarqalgan.

Oilaviy mediatsyaning moliyaviy aspektlari ham e’tiborga molik.

Xususan, Avstriyada mediatsiya xarajatlari davlat tomonidan moliyalashtirilishi oilaviy mediatsiyaga nisbatan qo‘llanadi.

Fransiyada oilaviy mediatsiya sohasidagi xizmatlarga haq to‘lashda xarajatlarning milliy shkalasi o‘rnatalgan.

Avstraliyada oilaviy munosabatlar bo‘yicha markazlar faoliyati federal byudjet hisobidan moliyalashtiriladi. Davlat tomonidan Oila markazlari (**Family Relationship Centre**) kabi jamoat tashkilotlariga moliyaviy ko‘mak ko‘rsatiladi.

Buyuk Britaniyada sudlar qoshidagi mediatsyaning dastlabki sessiyalari bepul hisoblanadi. Agar tomonlar dastlabki bosqichlarda kelishuvga erisha olmasa, keyingi bosqichlar xarajatlari ular tomonidan qoplanadi. Shu bilan birga, oilaviy munosabatlarni tartibga solishda xususiy mediatorlar xizmatidan foydalanish amaliyotda keng tarqalgan.

Shunday qilib, mediatsiya vaqtini, moliyaviy, emotsiional resurslarni tejash, milliy mentalitet va qadriyatlarni hisobga olgan holda nizolarni tinch va barqaror yo‘llar orqali yechishga qulay shart-sharoitlar yaratishning zamonaviy vositasi hisoblanadi. Ajrimlarni kamaytirish, tomonlar, ayniqsa, bolalar manfaatlarini to‘la hisobga olgan holda tashkil etishda bu institutning ahamiyati dolzarb bo‘lib bormoqda.

Mamlakatimizda mediatsiya yosh va endi rivojlanib kelayotgan ijtimoiy institut hisoblanadi. Uning imkoniyatlarini ijtimoiy sohalarga, xususan, mahalla va oila tizimiga keng tatbiq etish oilaviy nizolar, ajrimlar kabi muammolarning oldini olish va samarali hal etishning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Гидденс Э. Ускользающий мир. Как глобализация меняет нашу жизнь. –М.: Весь мир, 2004.
2. Drucker P.F. The Future of Industrial Man. Piscataway: Transaction Publishers, Rutgers The State University, 2009.
3. Образование: скрытое сокровище (Learning: The Treasure Within). Издательство ЮНЕСКО, 1996.
4. Лиза Паркинсон. Семейная медиация. 2-е изд. – М.: МЦУПК, 2016.
5. Шамликашвили Ц.А. Основы медиации как процедуры урегулирования споров. – М.: Межрегиональный центр управленческого и политического консультирования, 2013.

Xakimova M.F.,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Innovatsion ta’lim” kafedrasи mudiri,
p.f.d., professor

Mamatqulova M.M.,

Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti tayanch doktoranti

OILA MUSTAHKAMLIGINI TA’MINLASHDA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada mualliflar tomonidan mamlakatimizda xotin-qizlarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, ijtimoiy-siyosiy faolliklarini oshirish taqozo etilayotgani va xotin-qizlar faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator masalalarga alohida e’tibor berib kelinayotganligi, jumladan, xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeyini, ijtimoiy-siyosiy faolliklarini oshirish, ularning davlat boshqaruvidagi ishtirokini ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator masalalarga alohida e’tibor berish zarurligi borasida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: oila, xotin-qizlar, ijtimoiy muhit, jamiyat, inson huquqlari, ma’rifat, tarbiya.

Аннотация. В данной статье авторы подчеркивают необходимость повышения роли женщин в развитии общества, общественной и политической деятельности в нашей стране. Уделяется особое внимание ряду вопросов, связанных с деятельностью женщин, в том числе повышению их статуса в обществе, общественно-политической деятельности, проблемам, связанных с обеспечением их участия в государственном управлении.

Ключевые слова: семья, женщины, социальная среда, общество, права человека, просвещение, воспитание.

Annotation. In this article, the author emphasizes the need for increasing the role of women in the development of society, social and political activity in our country. Special attention paid to a number of issues related to the activities of women, including raising the status of women in society, social and political activity, paying special attention to actual issues of ensuring their participation in public administration.

Keywords: family, women, social environment, society, human rights, enlightenment, upbringing.

Ma’lumki, ming yillar davomida har qaysi jamiyatning madaniy darajasi va ma’naviy barkamolligi ayollarga bo‘lgan munosabat bilan belgilangan. Ayolni e’zozlash, unga ehtirom ko‘rsatish o‘zbek xalqiga xos xususiyatdir.

Hadisi sharifda “Jannat onalar oyog‘i ostidadur”, “Avval onangizga, yana onangizga, va yana onangizga, so‘ngra otangizga yaxshilik qiling”, degan benazir so‘zlarda ham ana shu adoqsiz ehtirom namoyon bo‘lib turibdi. Shu ma’noda mamlakatimizda xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va mavqeyini mustahkamlash borasida davlat ahamiyatiga molik salmoqli ishlар amalga oshirilmoqda.

Hap qaysi millatning o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o‘rni va ta’siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag‘rida shakllanadi. Bolaning xarakteri, tabiatи va dunyoqarashini belgilaydigan ma’naviy mezon va qarashlar: yaxshilik va ezzgulik, olivjanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiyidir. Shuningdek, ijtimoiy hayotda xotin-qizlarni ilmiy salohiyatining yuksak bo‘lishi – jamiyatda barqarorlik va hamjihatlikning mustahkam bo‘lish omillardan birdir.

Oila hayot abadiyligi, avlodlar davomiyligini ta’minlaydigan, xalqimizning muqaddas urf-odatlari sayqal topadigan, kelajak avlodning kamolotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘idir. Asosiy qonunimizning 63-moddasida, “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega. Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi”, – deya belgilab

qo‘yilgan. Mazkur tamoyil asosida mamlakatimizda oilani har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, unga moddiy va ma’naviy ko‘mak berish choralari ko‘rilmoxda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи nutqida “Bugungi kunda aziz-u mukarram ayollarimizning barcha soha va tarmoqlardagi o‘rni va ta’siri yanada ortib bormoqda. Buning tasdig‘ini respublikamizda mehnat bilan band aholining 45 foizini xotin-qizlar tashkil etayotganida ham yaqqol ko‘rish mumkin.

Ayollarimiz orasida taniqli davlat va jamoat arboblari, jumladan, o‘nlab senator va deputatlar, vazir va hokimlar, O‘zbekiston Qahramonlari, akademiklar, professorlar, O‘zbekiston xalq shoirlari, Xalq o‘qituvchilari, Xalq artistlari, nodavlat tashkilotlarning faol vakillari borligi barchamizni quvontiradi.

Hozirgi vaqtida mamlakatimiz boshqaruv tizimida ayollarning ulushi 33 foizga yetdi. Yurtimiz bo‘yicha bir yarim mingga yaqin xotin-qizlar turli darajadagi rahbarlik lavozimlarida ishlamoqda. Xususan, tashkilotchi va tashabbuskor opa-singillarimiz 6 ta tumanda hokim vazifasida, yuzlab hududlarimizda o‘rinbosar va maslahatchi lavozimlarida samarali faoliyat ko‘rsatmoqda. Yirik korxonalar, banklar va kompaniyalar, tadbirkorlik subyektlarini boshqarmoqda.

Ana shunday katta salohiyatni yanada oshirish, davlat va jamiyat boshqaruvida ularning ishtirokini kuchaytirish maqsadida 6 mingdan ziyod faol xotin-qizlardan iborat kadrlar zaxirasi shakllantirildi.

Bunday zamonaviy bilim va iste’dodga, yetakchilik qobiliyatiga ega, el-yurtimiz uchun fidoyi xotin-qizlarimiz – xalqimiz, millatimizning oltin fondi, desak, hech qanday mubolag‘a bo‘lmaydi”, – dedilar.

Bugungi kunda xotin-qizlarning ilm-taraqqiyotidagi o‘rnini kengaytirish, ularning iqtidorlarini rag‘batlantirishga alohida e’tibor qaratildi. Jamiyatimizda xotin-qizlar jamoat tashkilotlarining huquqiy vakolatlarini kengaytirish, faoliyat samaradorligini yanada oshirishga ham katta e’tibor berilmoqda. Hozirda xotin-qizlarning salmoqli qismi ta’lim muassasalarida, nodavlat notijorat tashkilotlarining ta’lim, ayollar huquqlari, reproduktiv salomatlik, kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, atrof-muhitni himoyalash kabi sohalarda samarali faoliyat ko‘rsatmoqda.

Har qanday tuzum va har qanday ijtimoiy muhitda xotin-qizlarning ijtimoiy siyosiy faolligini oshirish orqali oila farovonligiga erishiladi. Oila farovon bo‘lsa, bu o‘z navbatida, jamiyatning ravnaqiga olib keladi. Shuning uchun xotin-qizlar masalasini olib chiqish orqali jamiyat miqyosida tahsinga loyiq juda ko‘p vazifalarni bajarish mumkin. Ayolga xos bo‘lgan ma’naviy fazilatlar uning tabiatga, odamlarga yaqinlik, doimo yaxshilikni o‘ylab yashash, halol mehnat qilish, dunyoning tengsiz ne’mat va go‘zalliklaridan bahramand bo‘lishida namoyon bo‘ladi. Ayol ma’naviyati ijtimoiy hayotning yorqin ko‘zgusidir. Chunki ayolda ham oilaviy turmush, ham iqtisodiy va siyosiy hayot o‘z aksini ko‘rsatadi. Ayol ma’naviyatining har bir qirrasi jamiyat ijtimoiy siyosiy hayoti bilan uzvylashadi.

O‘zbekistonning buyuk kelajagini bunyod etish, asosan, bugungi yosh avlodning zimmasida ekan, ularni bilimli, madaniyatli, mehnatsevar, tashabbuskor, izlanuvchan etib shakllantirish hayot tajribasiga ega, qiyinchiliklarda toblangan yoshi ulug‘larimiz, faxriyalarimizning, shu bilan birga, mazkur ishga da‘vat etilgan tarbiyachilar, muallimlar, olimlarning va umuman barchanening asosiy vazifasi bo‘lib qoladi. Shulardan kelib chiqib, mamlakatimizda 2021-yil “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” deb e’lon qilinishi ham fikrimizning dalilidir. Bu borada yoshlar tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Yoshlarni ma’naviy va jismoniy shakllantirish, iqtidorli yoshlarni tanlash, rag‘batlantirish borasida davlatimiz olib borayotgan siyosatning namunasidir. Shu boisdan ham kelajak borasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturida yoshlar tarbiyasiga alohida e’tibor berish, ularni jamiyatimizning ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy taraqqiyotida faol ishtirok etishlarini ta’minalash har bir fuqaroning burch va vazifalari hisoblanadi. Mazkur holatda, eng avvalo, yoshlarimiz ongida ma’naviyat va axloqiylik kabi yuksak fazilatlarni tarbiyalashimiz zarur bo‘ladi, ya’ni yoshlar tarbiyasi sohasidagi siyosatni keng jabhada olib borilishi, jumladan, o‘zi voyaga yetayotgan oiladagi tarbiya poydevorini ta’lim maskanlarida ham uyg‘un ravishda mustahkam qo‘yilishiga e’tibor qaratilishi zarur.

Muqaddas dinimizda ham, oila mustahkamligiga katta e’tibor qaratilgan. Chunki oila jamiyat asosi va hayot davomchisi bo‘lgan farzandlar kamol topadigan tarbiya maskanidir. Shu ma’noda qachon oilalar salohiyatli bo‘lsa, bunday oilalardan tashkil topgan jamiyat ham salohiyatli bo‘ladi. Shuning uchun ham oilaga iymon, muhabbat, ta’lim-tarbiya va baxtli hayot sari yo‘llovchi maskan sifatida qarash muhimdir.

Bugungi kunda barkamol insonning shakllanishi va jamiyatda o‘z o‘rnini topishi o‘ziga xususiyat va imkoniyat, qonuniyatlarga egadir. Yoshlarning shakllanishi oiladan boshlanadi, bunday oila esa, ta’lim-

tarbiyaning boshlang‘ich mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi. Ta’lim-tarbiya, shaxslararo munosabatlar, milliy an’ana va qadriyatlar, urf-odatlar hamda ijtimoiy muammolarining kelib chiqishi hamda ularni bartaraf etish chora-tadbirlari oilada o‘rganiladi. Shuning uchun ham oila va nikoh munosabatlarini o‘rganishda oilaviy munosabatlarga alohida e’tibor berish o‘ta muhimdir.

Tarixdan ma’lumki, butun dunyoda ilg‘or fikrli insonlar hamisha, asrlar osha xotin-qizlar masalalariga juda katta ahamiyat qaratib kelganlar. Buning sababi ayolning tabiatan go‘zalligi, donologgi, oqilaligi, bunyodkorligi, yaratuvchanligi, mehnatsevarligi, yurtparvarligi, adolatliligi, mehr-shafqatliligi, eng muhimi, uning nozik jismiga, hattoki juda kuchli erkakning ham qo‘lidan kelmaydigan og‘ir, o‘ta mas’uliyatlari, shu bilan birga, sharaflari, muqaddas vazifaning – onalik vazifasining yuklatilganligida bo‘lsa, ajab emas. Chunki ayol kishigagina onalik va oiladagi bosh tarbiyachilik rolini birvarakayiga olib borish, amalga oshirish tabiatan in‘om etilganligi barchamizga ayon haqiqatdir.

Bugungi kun o‘zbek ayoli ma’rifatli, ma’naviyati yuqori, tafakkuri teran, shu bilan birga, zamonamizga xos barcha ijobiy xislatlarni o‘zida mujassamlashtirgan oqila va dono bo‘lishi hamda ayol jamiyatning negizi hisoblangan oilada farzandlar tarbiyasi bilan shug‘ullanib qolmasdan, jamiyatda ham o‘z o‘rniga ega bo‘lmog‘i lozim.

Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan ayollarga jahon davlatlarining hech birida kuzatilmagan ehtirom va hurmat ko‘rsatiladi. Mustaqillikka erishganimizdan buyon, ayol zotini ulug‘lash uchun uning nomiga yillar ataldi, ayol nomida mukofotlar joriy etildi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatda ayollar sonini ko‘paytirish haqida kvotalar joriy qilindi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, inson huquqlariga oliy qadriyat sifatida qaralayotgan yurtimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirokini ta’minalash uchun barcha huquqiy asoslar, shart-sharoitlar mavjud. Jumladan, vakillik organlariga oid saylov qonunchiligidagi ayollarga imtiyozlar belgilangan. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi Qonunda xotin-qizlarning soni siyosiy partiyalardan ko‘rsatilgan deputatlikka nomzodlar umumiyligi sonining kamida 30 foizini tashkil etishi lozimligi qayd etilgani ham fikrimizning yaqqol isbotidir.

Xotin-qizlarning davlat va jamiyat ishlarida ishtirok etishlari uchun O‘zbekistonda yaratilgan huquqiy va tashkiliy sharoitlar davlat siyosatining muhim yo‘nalishidir. Ayollar va bolalar salomatligini muhofaza qilish muammolarini hal etishga xotin-qizlarni tobora ko‘proq jalb etishga; ayollarning moliyaviy kreditlardan foydalanishini ta’minalashga, ayollar va bolalar jinoyatiga qarshi kurashga, ekologik xavfsizlikka, ijtimoiy ahamiyatga molik tadbirlarda, qonun loyihalari muhokamasida, saylov jarayonida xotin-qizlarning qatnashishiga katta ahamiyat berilmoqda.

Bizning yurtimizda ayollarning ijtimoiy muammolarini hal etish uchun ularga ish o‘rinlarini yaratish, xotin-qizlarning iqtisodiy sohada, tadbirkorlikda, fan va texnika taraqqiyotida hamda davlat qurilishidagi nufuzini ko‘tarish, o‘rnini kengaytirish kabi masalalar davlat siyosati darajasida ko‘tarildi. O‘zbekistonda *birinchi navbatda*, ayollarni, oilani, onalik va bolalikni himoya qilishning huquqiy bazasi yaratildi, *ikkinchidan*, ayollar va oilani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga, joylarda ularga aniq yordam ko‘rsatishga alohida ahamiyat berildi va bu ishlar bugungi kunda amalga oshirib kelinayotganining guvohi bo‘lib turibmiz.

Ayolni ulug‘lash va uni himoya qilish borasida qabul qilingan muhim hujjatlar ayollarning barcha qatori mehnat va ijod qilishi, ijtimoiy hayotda va davlat qurilishida ishtirok etishi lozimligini isbotlab berdi. Prezidentimizning “Ayollarning jamiyatdagi mavqeyi va rolini ko‘tarish davlatchiligidan ustuvor va asosiy yo‘nalishlaridan biridir” degan so‘zlarining o‘zi ham yurtimizda ayollar ijtimoiy huquqlarining naqadar kafotlanganligidan dalolat beradi.

Jamiyatda yuzaga keladigan ma’naviy barkamollik, avvalo, uning eng kichik yachevkasi bo‘lmish – oilaning mustahkam va barkamol bo‘lishiga bevosita bog‘liqdir. Oiladagi ma’naviy vaziyat, avvalo, ayolning aqliy salohiyati, ongi, dunyoqarashi darajasiga chambarchas bog‘langan. Bu esa ayoldan bilim darajasi keng va chuqur bo‘lishini talab qiladi.

Jumladan, oila madaniy hodisa sifatida xalqimizning boy va qadimiy tarixini, moddiy va ma’naviy merosini, qadriyatlar, urf-odatlar va an’analarni avloddan avlodga asl holida yetkazadigan, milliy faxr sifatida avaylab asraydigan va jahon miqyosida umuminsoniy qadriyat tarzida namoyish etadigan uyushmadir. Shuningdek, jamiyatimizning farovonligi, jahonda taraqqiy etgan davlatlar safidan o‘rin olish uchun to‘la imkoniyat yaratmoq niyatida mehnat qiladigan jismoni sog‘lom, ma’naviy boy, axloqiy pok, komil farzandlarni ham oila tarbiyalab voyaga yetkazadi. Olimlarning ta’kidlashlaricha, ota-onalar farzand

tarbiyasida asrlar davomida shakllangan an'analarga, bu boradagi umuminsoniy qadriyatlarga tayanganida, davr ruhi va ehtiyojlarini e'tiborga olganida yaxshi natjalarga erishadilar. Bu ishning samarasi ko'proq tarbiyaning maqsadi va usullariga bog'liq bo'ladi.

Umuman olganda, mamlakatimizda yangilanish jarayoni kechayotgan hozirgi davrda jamiyat quruvchilari bo'lmish yoshlarni ma'naviy boy, axloqiy yetuk, yuqori bilimli, jismonan baquvvat, har tomonlama kamol topgan shaxs etib shakllantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Yuksak insoniy xislatlarga ega barkamol shaxs, avvalo, oilada shakllanadi va o'zi tarbiya topgan oila an'analari uning jamiyat faoliyatida o'z o'rniga ega bo'lishida katta ahamiyat kasb etishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 2 февралдаги “Хотин-қизларни кўллаб-қувватлаши ва оила институтини мустаҳкамлаши сонасидағи фаолиятини тубдан тақомиллаштириши чора-тадбирлари түг‘рисида” ги 5325-сон Фармони www.lex.uz.
2. Мусурмонова О. Оила маънавияти – миллий г'урур. – Т.: Ўқитувчи, 1999. – 2000 б.
3. Шарипова Д. Маънавий баркамол шахсни шакллантириши – жасамият тараққиётининг асоси. – Т.: Фан ва технология, 2002.
4. Куронов М. Оила ва баркамол авлод тарбияси. – Т.: Маънавият, 2012. – 134 б.
5. Нажмидинова К.У. Оила тарбиясида миллий ва умуминсоний ахлоқий маданиятнинг ўрни. (монография). – Т.: Адолат, 2016.-224 бет.



Baybayeva Muxayyo Xudaybergenovna,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti, “Pedagogika” kafedrasи dotsenti
pedagogika fanlari nomzodi

TA'LIM MUASSASALARIDA RAHBAR AYOLLARNING O'QUV JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI ROLI

Annotatsiya. Maqolada boshqaruva faoliyatini amalga oshirishda rahbar ayollarning o'quv jarayoni samaradorligini oshirishdagi ahamiyati psixologik xususiyatlari, ularning namoyon bo'lish mexanizmlari, o'ziga xos jihatlari xususida fikr-mulohazalar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: jamoa, boshqaruva, rahbar, qobiliyat, samaradorlik, mexanizm, faoliyat.

Аннотация. В статье представлены отзывы о психологических особенностях значения женщин-руководителей в повышении эффективности образовательного процесса при осуществлении управлеченческой деятельности, механизмах их проявления, их специфике.

Ключевые слова: коллектив, управление, руководитель, способность, эффективность, механизм, деятельность.

Annotation. The article presents reviews of the psychological features of the importance of women managers in improving the effectiveness of the educational process in the implementation of managerial activities, the mechanisms of their manifestation, and their specifics.

Key words: team, management, manager, ability, efficiency, mechanism, activity.

Yangilanayotgan O'zbekistonda jamiyat boshqaruvi sohasida inson omilini faollashtirish, rahbar kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish, davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Aynqsa, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda erkinliklarini ta'minlash maqsadida aniq chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilib, ularni bajarish bo'yicha tegishli vazirlik va idoralar tomonidan izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bois ham hozirgi vaqtida xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida erkaklar bilan bir qatorda

xotin-qizlar, xususan, ayol rahbarlar faoliyat yuritmoqdaki, bu albatta, xotin-qizlarga ehtirom, hurmat ramzini anglatishi bilan birga, ularda faollik, fidoyilik, mag‘rurlik, shijoat, vatanparvarlik kabi his-tuyg‘ularni uyg‘otib, ichki ruhiy zahiralarni ishga tushiradi.

Tarixga nazar solsak, insoniyat sivilizatsiyasining hamma bosqichlarida ham erkak rahbarlarning davlat boshqaruvi ishida xotin-qizlarning yuksak aql-idroki va dono maslahatlaridan o‘rinli foydalanib kelganligiga guvoh bo‘lamiz. Bunga o‘tmishdagi momolarimizning hayoti, ko‘rsatgan jasorati va fidoyiliklari yaqqol misol bo‘la oladi. Chunonchi, To‘maris tengsiz aql-zakovati, shijoati bilan yurtimiz tuprog‘iga bostirib kirgan bosqinchilarni daf etgan bo‘lsa, Amir Temurga davlat ishlarini boshqarishda Bibixonim doimo maslahatgo‘y bo‘lgani tarixdan ma’lumdir. Buyuk podshox Zahiriddin Muhammad Bobur ham butun umri davomida davlat boshqaruvida ayol shaxsiyatiga yuksak e’tibor bilan qaragan. Unda xotin-qizlar qadr-qimmatini joyiga qo‘yish, izzat-hurmatlarini bajo keltirish ustun bo‘lgan, zarur bo‘lganda Qutlug‘ Nigorxonim, Esan Davlatbegim, Xonzodabegim va boshqa ayollar bilan davlat ishlari muammolariga oid masalalar bamaslahat ado etilgan, ularning fikrlari inobatga olingan. Boisi ayollardagi muomala madaniyati, tinglash mahorati, o‘zini tiya bilishlik, vafo va sadoqat, sezgirlik,adolatparvarlik, oshkoraliq, samimiylilik, xushmuomalalik, to‘g‘riso‘zlik, javobgarlik, nafosat, mas‘uliyat kabi insoniy fazilatlar ular timsolining asosini tashkil etgan.

Bugungi kunda boshqaruv sohasiga oid barcha masalalarni jamiyat rivojlanishi nuqtayi nazaridan o‘rganish, korxona, tashkilot va muassasalarni boshqarishning yanada samaraliroq usullarini ishlab chiqish, zamon talablariga to‘la javob bera oladigan, boshqaruv mahoratiga ega bo‘lgan rahbar kadrlarni tayyorlash muammolari bilan shug‘ullanish dolzarb masalaga aylandi. Ayniqsa, rahbarlikdagi gender farqlar, jinsiy ijtimoiylashuv, jinsiy stereotiplar, erkak va xotin-qiz rahbarlarning shaxsiy sifatlari, boshqaruvchilik imkoniyatlari, xotin-qizlarni samarali rahbarlik faoliyatiga tayyorlash, zamonaviy ayol rahbarning ijtimoiy-psixologik qiyofasini yaratish masalalari psixologiya fani sohasida qator tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda. Jamiyatda erkak rahbarlar asosiy diqqat-e’tiborini ishlab chiqarish muammolariga taalluqli vazifalarga qaratса, xotin-qiz rahbarlar esa ko‘proq jamoaning ijtimoiy-psixologik jihatlari, psixologik muhitni sog‘lomlashtirishga qaratadi. Xuddi shu boisdan erkak va xotin-qiz rahbarlarga xos jinsiy psixologik farqning bo‘lishi tabiiy, lekin jamoa oldida turgan vazifalarni bajarish, ko‘zlangan maqsadlarga erishish borasida jinsiy tafovut kuzatilmaydi. Rahbarlik ishidagi barcha muvaffaqiyatlarning asl sababi jinsga xos bo‘lmagan omillar bilan belgilanadi. Jumladan, intellekt, qadriyatlar, shaxs xususiyatlari, ma’lumot darajasi, boshqaruv sohasidagi tajriba boshqaruv samarasini ta’minlaydi. Ayol rahbarlar faoliyatining o‘ziga xos jihatlarini o‘rganib, bunday o‘ziga xosliklarga quyidagilarni ajratamiz:

- ayol rahbar o‘z ish faoliyatida bevosita rahbarlikdan tashqari, o‘z xodimlarining fikrlarini ham inobatga oladi;
- ayol rahbar, eng avvalo, o‘zi boshqarayotgan jamoadagi insonlar o‘rtasida shaxslararo munosabatlarga ko‘proq e’tibor qaratadi;
- ayol rahbar qaror qabul qilishda ham kamida 2-3 kishining ma’qullahiga ergashib, so‘ngra oxirgi qarorga keladi;
- ayol rahbar ish manfaatlari bilan oila manfaatlarni deyarli bir darajada ahamiyatli deb qaraydi;
- uning xodimlarga beradigan ko‘rsatmalari ko‘proq konstruktiv bo‘lib, tashabbus ko‘rsatuvchi xodimlar bilan murosaga borib ishlaydi;
- ayol rahbar o‘z xodimlarining shaxsiy hayotlari hamda oilaviy sharoitlari bilan vaqtı-vaqtı bilan qiziqib turadi va hokazo.

Sohaga oid ilmiy adabiyotlar bilan tanishishimiz va tadqiqotlarimiz natijalariga suyangan holda, xotin-qiz rahbarlarda kasbiy muvaffaqiyatni ta’minlovchi bir qator shaxs sifatlari mayjud ekanligiga guvoh bo‘ldik. Ular quyidagilardan iborat:

- xotin-qiz rahbarlar boshqaruv ishida ko‘pincha sheriklik va hamkorlikka asoslangan boshqaruv uslubini tanlaydilar hamda asosiy diqqat-e’tiborlarini jamoadagi psixologik iqlimi sog‘lomlashtirishga qaratadilar;
- ayol rahbar boshqaruvidanagi jamoalarda do‘stona munosabatlar rivojlanadi, boshqaruv qarorlari ko‘pincha xodimlarning bevosita ishtirokida, ularning fikri va tashabbuslarini hisobga olgan holda qabul qilinadi;
- xotin-qiz rahbarlar jamoaviy qarorlarni qabul qilishda qat’iy nazorat qilish tarafdori bo‘ladilar;
- ayol rahbarlar uchun birinchi o‘rinda e’tiqodlilik, topshirilgan ish uchun shaxsan javobgarlikni his qilish, halollik va vijdonlilik turadi;

- murakkab vaziyatlarda ayol rahbarlar xodimlarning yuksak motivasiyasiga tayanib, inqirozdan chiqish strategiyasini tanlaydilar;
- ayol rahbarlar xodimlarni nafaqat taqdirlash, balki yo‘l qo‘yilgan xato uchun ularni jazolash xam kuchli motivatsiya omili ekanini yaxshi tushunadilar, ular qo‘yilgan vazifalarni bajara olmagan xodimlarga nisbatan jazolarni belgilashda dastlab eng oddiy usullardan, ya’ni birinchi marta kechirish, ogohlantirish, e’tiroz aytish va boshqa usullardan foydalanadilar;
- mehnat jarayonidagi muammoli holat, ziddiyat va o‘zaro munosabatlardagi qarama-qarshiliklarga nisbatan oqilona va omilkorlik bilan yondashish va ularga yechim topishda ba’zan xotin-qiz rahbarlar erkak rahbarlarga nisbatan samaraliroq yondashadilar;
- ayol rahbarlar nizo qanday xarakterga ega va qay darajada katta bo‘lmisin, barcha hollarda uning sabablarini diqqat bilan tahlil qiladilar, nizoning mohiyatiga chuqur kirib, uni joyida o‘zining aniq fikrini aytish bilan hal qiladilar.

Bundan tashqari, xotin-qiz rahbarlarning samarali ishlari uchun, avvalo, ularning mehnatlarini ilmiy asosda tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Kattami, kichikmi, qaysi mansabda bo‘lishidan qat’i nazar, har bir rahbar ayolning mehnatinini namunali tashkil etish, uning mehnat unumdorligining muttasil o‘sishini ta’minlash, rahbarning ish o‘rnini tashkil etish va ularga xizmat qilishni yaxshilash, sog‘lig‘ini saqlash, mehnat sharoitini yaxshilash, me’yorlashtirish kabi masalalar ma’muriy boshqaruv sohasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshqaruvda teng imkoniyatlarni ta’minlamagan mamlakat madaniyatli demokratik davlat sifatida taraqqiy etmaydi. Bunda xotin-qizlarga nisbatan patriarchal-konservativ munosabatlardan voz kechgan holda kadrlar siyosatini shakllantirish, xotin-qizlarni boshqaruv faoliyatiga jalb etish bo‘yicha jamoat ongini o‘zgartirish, shuningdek, xotin-qizlarning o‘zлari mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida ishtirok etish zaruratini anglashlariga erishish muhim o‘rin tutadi. Buning uchun xotin-qiz rahbarlarni zamon talablari darajasida tayyorlash, ularning mahoratlarini oshirish, kadrlar zaxirasini vujudga keltirish, faoliyat ko‘rsatayotgan tarmoq va sohalari bo‘yicha ixtisoslashtirilgan malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida maxsus dasturlar asosida o‘qitish ishlarini tashkil etish maqsadga muvofiqliрdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Авершин В.И. Пути повышения учительского мастерства в современных условиях. // Педагогика. 1998 - № 3. – С. 66-69.
2. Каримова В. Ижтимоий психологияда хотин-қизлар раҳбарлиги муаммосининг ўрганилишии. // “Psixologiya”, БухДУ: 2011, 2-сон. 13-б.
3. Смолкин А.М. Менеджмент: основы организации // Учебник / Отв. Редактор С.М.Рыловский. – М.: ИНФРА, 2004. – 235 с.
4. Шакуров, Р.Х. Психология руководства педагогическим коллективом. – М.: «Издательство Магистр», 1995. – 184 с.
5. Шамиева О. Раҳбар аёллар шахсининг ижтимоий-психологик хусусиятлари. / Психол. фан. ном. автореферат. – Т., 2000. – 21-б.

G‘afforova Mavlyuda,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat boshqaruvi akademiyasi kafedra d.v.b.

Jo‘rayeva Nafisa,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat boshqaruvi akademiyasi “Davlat boshqaruvi”
mutaxassisligi bo‘yicha magistri

YOSH OILA TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning oilalarda namoyon bo‘layotgani, oilalar tinchligi, jamiyat osoyishtaligi, farovonligi, farzandlarning ma’naviy-ruhiy muhitda voyaga yetishishidagi ta’siri va ma’naviy barkamol, jismonan sog‘lom avlodni tarbiyalashda oilaning o‘rni muhim ekanligi, ularning tarbiyasini umumbashariy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish, oila va nikohning muqaddasligini yosh avlod ongiga chuqur singdirish yo‘li bilan oilalarning mustahkamligini ta’minlash masalasida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: islohot, oila, qadriyatlar, nikoh, sog‘lom muhit, barkamol avlod, jamiyat, millat.

Аннотация. В статье освещаются проводимые в стране реформы, влияние семьи на воспитание духовно зрелого, физически здорового поколения, гармония их воспитания с общечеловеческими ценностями, неприкосновенность семьи и брака, обеспечение стабильности семей через привитие святыни семьи и брака в умах молодого поколения.

Ключевые слова: реформа, семья, ценности, брак, здоровая среда, гармонично развитое поколение, общество, нация.

Annotation. The article highlights the reforms carried out in the country, the influence of the family on the upbringing of a spiritually mature, physically healthy generation, the harmony of their upbringing with universal human values, the inviolability of the family and marriage, ensuring the stability of families through instilling the sanctity of the family and marriage in the minds of the younger generation.

Key words: reform, family, values, marriage, healthy environment, harmoniously developed generation, society, nation.

Mamlakat hayotida yuz beradigan har qanday o‘zgarish, amalga oshirilayotgan islohotlar, avvalo, oilalarda namoyon bo‘ladi. Shu bois ham, oilalarda tinchlik va osoyishtalik, sog‘lom muhit mo‘tadilligini ta’minlash oldimizda turgan eng muhim vazifalardandir. Zero, ahil va mustahkam oila – yurt tayanchi, uning ishonchli kelajagi, millat sharafini yuksaklarga ko‘taradigan mehr-muruvvat, ma’naviyat o‘chog‘i hisoblanadi. Zero, oilalarimiz tinch bo‘lsa, jamiyatimiz osoyishta, farovon, farzandlarimiz esa to‘la-to‘kis ma’naviy-ruhiy muhitda voyaga yetadi. Bizning asosiy maqsadimiz jamiyat taraqqiyotida, ma’naviy barkamol va jismonan sog‘lom avlodni tarbiyalashda oilaning o‘rni muhim ekanligini hisobga olib, oilaga taalluqli boy va sermazmun milliy an‘analarni asrab-avaylash, ularni umumbashariy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish, oila va nikohning muqaddasligini yosh avlod ongiga chuqur singdirish yo‘li bilan oilalarning mustahkamligini ta’minlashni ilmiy o‘rganishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi PF-5325-sonli “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni hamda 2018-yil 27-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-3808-sonli Qaroriga muvofiq, davlat siyosatida oila, uning barqarorligi, baxt-u saodati va farovonligiga qaratilgan yangi bosqich belgilandi.

Oila davlat poydevorining kichik bir bo‘lagi sanalib, jamiyatdagi barcha islohotlarning o‘ziga xos barometri hisoblanadi. Ana shu nuqtayi nazardan, oila iqtisodiyot, ijtimoiy soha, madaniyat va, umuman, jamiyatni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydi.

Mamlakatimizda yosh oila doimo davlatimiz diqqat-e'tiborida bo'lib kelgan. Agarda xronologiyaga e'tibor qaratsak, 1998-yil O'zbekistonda "Oila yili", undan keyingi yillar esa mos ravishda "Ayollar yili", "Sog'lom avlod yili", "Ona va bola yili", "Sihat-salomatlik yili", "Yoshlar yili", "Barkamol avlod yili", "Mustahkam oila yili", "Sog'lom bola yili", "Sog'lom ona va bola yili" hamda joriy yil "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" deb e'lon qilindi.

Ta'kidlash o'rinniki, har bir yil uchun oila hayotining barcha jihatlarini, xususan, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, pedagogik, huquqiy va boshqa omillarni qamrab olgan Davlat dasturi ishlab chiqildi. Ushbu dasturlarning ijrosini ta'minlashda davlat muassasalari va tashkilotlari, xotin-qizlar hamda yoshlar tashkilotlari, keng jamoatchilik, qolaversa, butun xalqimiz faol ishtirok etdi.

Shu bilan bir qatorda, respublikada aholini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha keng ko'lamli siyosat va islohotlar amalga oshirildi, bunda, tabiiyki, oila birinchi o'ringa qo'yildi.

Nikohga va yaqin qarindoshlikka asoslangan axloqiy mas'uliyat, o'zaro hurmat, tushunish va mehr-muhabbat umumiyligi bilan bog'langan kichik ijtimoiy guruh oila deyiladi. Bevosita yosh oilaga huquqiy baho beradigan bo'lsak, yosh oila – er-xotinning ikkisi ham o'ttiz yoshdan oshmagan oila hisoblanadi.

Aytish joizki, yosh oila yangi munosabatlarni (shaxslararo va oila ichidagi), yangi maqom (kelinning, yosh oilaning haq-huquqlari), yangi iqtisodiy holat (yosh oilaning moliyaviy ta'minoti, shaxsiy moliyaviy manbalar), yangi turmush yo'naliishlarini shakllantirish bosqichida bo'ladi. Olimlar tomonidan o'tkazilgan ko'plab tadqiqotlar natijalariga ko'ra, yangi maqom va munosabatlarni shakllantirishda yosh oilaning barqarorligi, asosan, yoshlarning oilaviy hayotga tayyorligi bilan bog'liqligini tasdiqladi.

Farzandni tarbiyalashdagi yondashuvlar oiladagi munosabatlarning qanday barpo bo'lgani, o'rtadagi rollarni taqsimlanishiga qarab shakllantiriladi. Mamlakatimizda yosh oilalarni ma'naviy-moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularning uy-joy va turmush shart-sharoitlarini yaxshilash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga jalg etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bilan bir qatorda, ularning bilim saviyasini oshirish bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda, bo'lajak oila quruvchi yigit-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha innovatsion maktablar yaratilmoqda.

Yosh oilalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlarga qaramay, bu borada bir qator kamchiliklar mavjud bo'lib, ularni chuqur o'rganish va ijobjiy hal etish maqsadga muvofiqdir.

Avvalo, o'sib kelayotgan avlodni oilaviy hayotga tayyorlash dolzarb masala sanaladi. Bunda, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda uyg'un ravishda qator yo'naliishlarda samarali faoliyatni olib borish zarur.

Birinchidan, ma'naviy-axloqiy yo'naliishda yoshlarda ma'naviy-axloqiy, jumladan, ota-on, kattay-u kichikni hurmat qilish, farzand tarbiyasi; mas'uliyat, sodiqlik, rostgo'ylik; vatanparvarlik va rafiqqasi (turmush o'rtog'i), oila, farzandlar va, umuman, jamiyat oldidagi burchdorlik hissi, jinsiy yaqinlik odoblarini o'rgatib borish lozim.

Ikkinchidan, oilaning ijtimoiy jihatlarini, ya'ni nikoh va oilaviy munosabatlarning mohiyati, oilaning jamiyatdagi o'rni, turmush o'rtoq va ota-onalarning ijtimoiy funksiyalari mohiyati har tomonlama tushuntirilib borilishi muhimdir.

Uchinchidan, psixologik jihatlarga e'tiborni kuchaytirish kerak. Bu borada erkak va ayol, er-xotin, ota-on va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar psixologiyasining o'ziga xos xususiyatlari, turmush va oilaviy hayot uchun zarur bo'lgan his-tuyg'ular, muloqot qilish ko'nikmasini shakllantirish maqsadga muvofiq sanaladi.

To'rtinchidan, huquqiy yo'naliishda nikoh va oila qonunchiligi asoslarini bilish; er-xotinning bir-biriga, farzandlari va jamiyatga munosabati bilan bog'liq majburiyatlarni bilish va o'zlashtirish talab etiladi.

Beshinchidan, yosh oilalarda pedagogik jihatlarni – ota-onalarning pedagogik salohiyatini shakllantirish, ularning tarbiyaviy vazifalari va ota-onalarning pedagogik madaniyatini yuksaltirish muhim o'rinn tutadi.

Oltinchidan, xo'jalik-iqtisodiy jihatlar, ya'ni oila byudjeti, turmush tarzi madaniyati, uy xo'jaligini boshqarish qobiliyatları va bilimlarini mustahkamlash orqali yosh oilalarda katta oilaviy hayotga moslashuv yanada osonroq kechadi.

Yetinchidan, yoshlar (bo'lajak kelin-kuyov)ning jismoniy va reproduktiv salomatligiga e'tiborni qaratish lozim.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda jinsiy-axloqiy tarbiyaning ahamiyati muhim o'rinn tutadi. Jinsiy tarbiyaning asosiy vazifasi yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, yoshlarni o'z jinsiga monand fiziologik, tibbiy, ijtimoiy-ma'naviy, ruhiy bilim va ko'nikmalarini

shakllantirish, yosh avlodning sog‘lom voyaga yetishi, reproduktiv (nasl qoldirish) qobiliyatga ega bo‘lishini ta’minalash, nikoh va oilani mustahkamlashga yordam berishdan iboratdir.

Jinsiy tarbiya o‘g‘il va qiz bolalarda erkak-ayol munosabatlari, jins masalalariga nisbatan to‘g‘ri munosabatni qaror toptirishni ko‘zda tutadi.

Jinsiy tarbiya ma’naviy-axloqiy, jismoniy, aqliy-intellektual, estetik tarbiya bilan uyg‘unlikda olib borilishi, oilada boshlanishi, ota-onalar, shifokorlar, pedagoglar hamkorligida amalga oshirilishi, bolaning yoshi, jinsi hamda boshqa xususiyatlarga monand bo‘lmog‘i darkor.

Zero, tarbiya faqat jinsiy hayot asoslari bilan tanishtirish, bolalarga gigiyenik ko‘nikmalar, erkak va ayol tanasining tuzilishi, jinsiy rivojlanish bosqichlari va qonuniyatlarini anglatish bilan cheklanmaydi, balki jinsga nisbatan qarashni to‘g‘ri singdirib borish, yigit va qizlarning o‘ziga xos tarbiyasiga e’tibor, gender tengligi, farzandlarning o‘zaro muomalada masofa saqlashi, jinsga oid nozik tushunchalar, uylanish va turmush qurish bilan bog‘liq masalalarni yoshiga mos ravishda yetkazish, bu borada ruxsat va taqiqlar, halol va haromning farqiga borishni o‘z ichiga oladi.

Yoshlarga oila qurishning asl maqsadi, jinsiy hayot zaruriyati, uning qoidalarini anglatish o‘ziga xos uslubda, mental xususiyatlardan, dinimiz ko‘rsatmalari va milliy urf-odatlarimizga muvofiq tarzda tibbiyot va salomatlikka oid zamonaviy bilimlardan foydalangan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Ba’zi oilalarda ota-onalar jinsiy tarbiyaga befarq bo‘ladi yoki bu mavzuda suhbatlashishga istihola qiladi, natijada farzandlar turmush qurbanidan keyin, ushbu masalalar sababli turli muammolar, nizolar va kelishmovchiliklar kelib chiqadi. Ota-bobolarimiz farzandni halol va haromning farqiga boradigan, oilaning sha’ni, g‘ururi uchun kurashadigan axloq sohiblari bo‘lishi, yigitlarning or-nomusli, qizlarning iffatli, ibo-hayoli bo‘lib voyaga yetishi uchun jinsiy tarbiya uslublarini qo‘llab kelganlar.

O‘smirlik chog‘idan boshlab yigit-qizlarga oilaviy hayot sirlari, er-xotinlik odobi, boshqa jins vakiliga bo‘lgan hurmat, farzandni dunyoga keltirish va tarbiyalashga oid bilimlarni samarali yetkazish orqali kelgusi yosh oilaning mustahkamligiga zamin yaratiladi.

O‘zbek oilasining ma’naviy-ruhiy poydevori bo‘lgan diniy qadriyatlardan muhim o‘rin egallaydi. Fiqh kitoblarida jinsiy tafakkurga oid (oila qurish, nikoh, erxotinlik odobi, hayz ko‘rish, tug‘uruqda qon ketishi, homiladorlik, farzand dunyoga keltirish) mavzular batafsil ochib berilgan. “Islom ta’limotiga ko‘ra, oila Yaratganning roziliginini topish, payg‘ambarimiz (s.a.v.) axloqlari, islomiy odob bilan ziynatlanish va pok yo‘l bilan insoniyat naslini davom ettirish maqsadida quriladi. Shuning uchun dinimiz oilani nikoh asosida qurishga alohida ahamiyat beradi va nikohni insoniy munosabatlarning eng muhimi sifatida yuksak qadrhaydi. Jamiyat yomonlik va buzzg‘unchilikning barcha turlaridan xoli tinch va obod bo‘lishi, avvalo, ushbu kichik jamiyatning tinchligiga bog‘liq”.

Alovida qayd etish joizki, yosh oilaning mustahkamligi, undagi ma’naviy muhitning barqarorligi yoshlarning salomatligiga, sog‘lom turmush tarziga rioya qilishi va bu boradagi malakaga ega ekanligiga ham bog‘liq.

Sog‘lom turmush tarzining beshta asosiy sharti bo‘lib, bular, eng avvalo, to‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy faollik, zararli odatlardan saqlanish, mehnat qilish va faol dam olishni to‘g‘ri tashkillashtirish hamda gigiyenik ko‘nikmalarga amal qilishdir.

Shuni alohida mas’uliyat bilan ta’kidlash joizki, davlatimiz asosini tashkil etgan yosh oilalar ravnaqi, kelajagimiz poydevorini sog‘lomlashdirish uchun targ‘ibotni, eng avvalo, oiladan boshlash kerak.

Olimlarning fikricha, inson salomatligining 51,6% i sog‘lom turmush tarziga, 20,5 % i irlisyatga, 19,3 % i tashqi ekologik muhitga, 8,6% i sog‘liqni saqlash tizimiga bog‘liq ekan. Shundan ham ma’lumki, salomatlik har bir insonning qanday hayot kechirishi, nima iste’mol qilishi, kimlar bilan muomala qilishi, o‘zi uchun munosib, qulay hayot tarzini ishda ham, dam olishda ham to‘g‘ri tashkil eta olishiga bevosita aloqador ekan.

Bugungi kunda, butun dunyo bo‘ylab salomatlik va sog‘lom turmush tarziga katta e’tibor berilmoqda. Misol uchun, amerikalik olimlar bu narsaga panja ortidan qarash nimaga olib keladi, degan savolga ko‘proq ularni aggressiv xulq-atvor bilan bog‘lamoqdalar. Ya’ni odam urushqoq, salga tajang bo‘ladigan, sabrsiz bo‘lib qoladi. Bu narsa oxir-oqibat giyohvandlikka berilish, ichkilikka ruju qo‘yish, oilada er-xotin o‘rtasida nosog‘lom munosabatlarning kelib chiqishi, ayolga nisbatan zug‘umning ortishi, sportga nisbatan befarqlik, shaxslararo ziddiyatlarni keltirib chiqaradi.

Barkamol avlodni voyaga yetkazishda har tomonlama sog‘lom oilaviy muhitning ahamiyati beqiyosdir. Zero, sog‘lom oila sog‘lom jamiyat asosi, ertangi kun egalarining poydevoridir.

Yosh oilalar xususiyatlari borasida so‘z ketganda, umumiy kesimdagи oilani ham unutmaslik lozim. Zero, oilaviy qadriyatlar negizida, uning tub poydevorida “katta oila” turadi, ya’ni bobo-buvi, ota-on, farzandlar va boshqa shakllardagi oilaviy munosabatlar. Dunyo amaliyotiga nazar tashlansa, oila modeli uchta asosiy turga ajratiladi: an’anaviy, zamonaviy va sobiq ittifoq davridan keyingi (innovatsion) oila. Ushbu modellar parallel tarzda harakatda bo‘lishi mumkin, biroq yaqqol ifodalangan tarixiy ketma-ketlikka ega. Bunda, “An’anaviy oila modeli”da erkaklar va ayollarning roli aniq taqsimlangan va biriktirilgan bo‘ladi. Erkak moliyaviy resurslarga ega oila boshlig‘i hamda asosiy qarorlarni qabul qiluvchi hisoblanadi. Shu munosabat bilan oila ichidagi rollarning biriktirilishi paydo bo‘ladi. Ayol erkakka bo‘ysunadi, u uy yumushlari va farzandlar tarbiyasi bilan shug‘ullanadi. Bolalar, o‘z navbatida, ota-onalariga bo‘ysunadilar, har qanday oila a‘zosining nufuzi uning jinsiga va yoshiga bog‘liq. Oilaviy qadriyatlar “ota-onalar – bolalar” munosabatlari uchun asos hisoblanadi. “Zamonaviy oila modeli”da esa ayolning siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy maqomining oshishi oila ichidagi rollar va oila hayoti me’yorlarining o‘zgarishiga olib keladi.

Ota-on professional karyerasini va oilaviy majburiyatlarini mutanosib ravishda (tengma-teng) olib boradi. “Innovatsion oila modeli” (postsoviet makon oilalari)ga to‘xtaladigan bo‘lsak, ushbu turdagи oila jamiyatni rivojlantirish istiqbollari, jahon iqtisodiyoti talablariga hamohang bo‘ladi. Bu, bir tomonidan, asosiy madaniy qadriyatlar va munosabatlarning avlodlararo aylanishini, boshqa tomonidan esa oila muammolarining alohida emas, balki global tarzda namoyon bo‘lishiga e’tibor qaratiladigan, shuningdek, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish, innovatsion g‘oyalarni yaratish va amalga oshirishga qodir bo‘lgan yoshlar sonini oshirish mas’uliyatini nazarda tutadi.

Hozirgi davrda olimlar an’anaviy, zamonaviy oila turlarini alohida ajratib ko‘rsatishmoqda. Xalqimizga xos bo‘lgan shakl an’anaviy oila bo‘lib, bu o‘zaro hurmat va hamjihatlik asosida qurilgan, oila boshlig‘ining yuqori obro‘sni va yoshi kattalarni qadrlash hamda farzandlar haqida qayg‘urish bilan tavsiflanadigan bir necha avlodli oiladir.

Oilalarda o‘tkazilgan so‘rovlar natijalari bo‘yicha O‘zbekistonda oila a’zolari o‘rtasida muayyan bir aniq iyerarxiya, ya’ni oila a’zolarining funksiyalari va vazifalari taqsimlanishi bilan tavsiflanadigan oila modeli mavjudligi ma’lum bo‘ldi. Ya’ni oilada yetakchi – uydagi tartib hamda oila a’zolari mas’uliyatiga javob beradigan, yuzaga keladigan kelishmovchiliklarni hal qilish va oila byudjetini boshqarish kafolati hisoblangan oila boshlig‘i bor.

Bunday so‘rovlar natijalari bo‘yicha erkaklar oila a’zolari oldida muayyan majburiyatlarga egaligi ma’lum bo‘ldi. Xususan, bular qatoriga moddiy farovonlik (respondentlarning 90 foizi) va qoniqarli turar-joy sharoitlari (47 foiz), farzandlarga ta’lim olish uchun imkoniyat yaratish (22 foiz), farzandlar tarbiyasida ishtirok etish (34 foiz) kiradi. Ayolning majburiyatlariga esa farzandlar tarbiyasi (64 foiz) va ularni parvarishlash (55 foiz), uy xo‘jaligini yuritish (50 foiz) va oilada qulay psixologik muhit uchun javobgarlik (30 foiz) kiradi. Shu bilan birga, oilada mustahkam munosabatlar o‘rnatish uchun, o‘zaro tushunish, hurmat va sabr-toqat (61 foiz), moddiy farovonlik (28 foiz) va boshqalar bo‘lishi kerak.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, yosh oilalarning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, ularning ijobjiy muvozanati va uyg‘unligini ta’minlash oilaning mustahkamligiga xizmat qiladi. Shuningdek, olimlarning ta’kidlashlaricha, yosh oilaning mustahkamlanib, oyoqqa turib ketishi, turli maishiy muammolarni o‘zi mustaqil hal qilishi uchun zarur bo‘lgan muddat aslida turmush qurban ikki shaxsning bir-biriga bo‘lgan samimi munosabatiga, oila va uning atrofidagi turli qadriyatlarga nisbatan uyg‘un qarashlariga, ota-onasida ibrat sifatida ko‘rgan-kechirganlarini o‘z oilasida qo‘llay bilish mahoratiga bevosita bog‘liqdir.

Ammo baribir har bir oila aynan yoshlik davrida muayyan qiyinchiliklarni boshdan kechiradiki, bu muammolar quyidagi asosiy holatlarga bog‘liq tarzda namoyon bo‘ladi:

– oilaviy hayotni bir maromda kechishini ta’minlash, ishslash, o‘qish yoki boshqa masalalarni hal qilish uchun vaqtning yetishmasligi;

- vaqtini yaxshi o‘tkazish, ko‘ngilxushliklarning cheklanganligi;
- yangi sharoitda ham erkakning, ham ayolning jismonan toliqishi, asablarning charchashi;
- iqtisodiy qiyinchiliklar.

Oxirgi holat bir tomonidan, ayni paytda yoshlardagi orzu-havasning ko‘payib ketishi bilan izohlansa, boshqa tomonidan, ota-onalarning orzu-havaslari-yu, bordi-keldi bilan bog‘liq sarf-xarajatlarning ortib borishi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Zamonaviy O‘zbekistonda kundan kunga hayot va yashash sharoitimiz yaxshilanib, oila farovonligi uchun yetarli shart-sharoitlarning bo‘lishiga qaramay, tashqaridan barcha maishiy muammolari hal bo‘lgan

yosh oilada ham nimalardir yetishmayotganday tuyulaveradi. Bu, o‘z navbatida, o‘sha orzu-havaslar, ijtimoiy ehtiyojlarning tobora ortib borayotganligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, yosh oilalar oldida ta’lim-tarbiyaviy, ma’naviy, psixologik, moddiy-iqtisodiy, ijtimoiy xarakterdagi muammoli masalalar mayjud.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғ‘рисида”ги Қонуни, 2016 ийл 15 сентябрь // www.lex.uz.
2. Д.Ташмуҳамедова, Д.Каримова. Илмий-услубий қўлланма. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамаси нузуридаги “Оила” илмий-амалий тадқиқот маркази. – Тошкент: “Yurist-media markazi”, 2019. – 128 б.
3. Ўзбекистонда ёши оила (ижтимоий тадқиқотлар натижалари асосида) /Д.Ташмуҳамедова, Д.Каримова. Илмий-услубий қўлланма. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамаси нузуридаги “Оила” илмий-амалий тадқиқот маркази. – Тошкент: “Yurist-media markazi”, 2019. – 7-бет.
4. “Оила ва жамият: маънавий ва ахлоқий дунё”. Жамоат фикри сўрови натижалари бўйича ахборот-таҳлилий маъруза. – “Ижтимоий фикр” маркази, 2018.
5. Каримова В.М. Оила психологияси: Дарслик. Педагогика олийгоҳлари талбалар учун // Муаллиф: В.М.Каримова. – Т.: “Fan va texnologiya”, 2008. – 75-бет.



Алимова Гузал,
доктор философии (PhD) по экономическим наукам,
преподаватель Университета общественной
безопасности Республики Узбекистан

УСИЛЕНИЕ РОЛИ ЖЕНЩИНЫ В ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ – КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ БЛАГОСОСТОЯНИЯ СЕМЬИ

Аннотация. В статье проведен анализ основных задач по гендерному равенству в предпринимательской деятельности, а также определены проблемные аспекты в этом направлении, выделены меры, способствующие вхождению женщин в бизнес, указаны препятствия на пути открытия своего дела, даны рекомендации по активному участию женщин в предпринимательской деятельности в Узбекистане.

Ключевые слова: личностные качества, проблемы гендерного равенства, пол и гендер, креативное мышление и новаторства, гендерная идентификация, обучение женщин, жизненные ориентиры, опыт, самореализация, пространственные и математические способности.

Annotatsiya. Ushbu maqolada tadbirkorlik faoliyatida gender ravnaqining tahlili va muammoli jihatlari, ayollarning biznesga kirish uchun zarur bo‘lgan chora-tadbirlar, shu bilan birga, bu yo‘nalishda duch keladigan to‘siqlar aniqlangan. O‘zbekistonda ayollarni tadbirkorliklikda faol ishtirokini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: shaxs, gender tenglik, jins va gender, kreativ fikrlash va novatorlik, gender identifikasiyası, xotin-qizlar ta’limi, hayot yo‘nalishi, tajriba va maqsadlarni amalga oshirish, fazoviy va matematik qobiliyatlar.

Annotation. The article analyzes the main objectives for gender equality in business, as well as identify problematic issues in this area, highlighted the measures promoting the entry into the business of women, given the obstacles to starting a business in women given advice on Promoting the active participation of women in business in Uzbekistan.

Key words: personality, gender equality, sex and gender, creative thinking and innovation, gender identity, women’s education, life guidance, experience, self-realization, spatial and mathematical ability.

На сегодняшний день одним из наиболее актуальных вопросов в мире является гендерный вопрос. Эта проблема наиболее обсуждаемая не только в научной среде, но и среди обычных обывателей. Повышенное внимание роли женщины в сформировавшейся современной экономической системе интересует и порой даже беспокоит специалистов различных направлений науки. Так, к примеру, экономисты из США ещё в 50-е годы стали активно продвигать теорию, основанную на вовлечении второго члена семьи, то есть женщины в экономическую деятельность. По их мнению, это должно было не только повысить уровень социально-экономического развития семьи, но и стать мощным толчком для развития предпринимательства.

Предпринимательская деятельность долгое время даже в западных странах была в основном мужским занятием, например, 3 из 4 вновь созданных предприятий в Великобритании в 70-80-е годы прошлого века возглавляли мужчины. Традиционно бизнес требовал таких качеств, как воля к победе и стремление к господству.

Однако в последнее время появился спрос и на типичные женские качества – интуицию, открытость к людям, чувство такта и т.д. В силу этих обстоятельств в последние годы темпы роста численности женщин-предпринимателей на Западе в два-три раза выше, чем темпы роста численности предпринимателей-мужчин.

Нужно отметить, что современные социально-экономические процессы, происходящие в Узбекистане, связанные с формированием рыночной экономики, привели к существенному изменению модели занятости. Как показывают многие исследования, в генезисе предпринимательства существенную роль играет ряд социальных факторов – пол, возраст, образование, допредпринимательская карьера, семья, система социальных связей.

Узбекистан, как полноправный член международных экономических отношений, развивается по законам рыночной экономики, где пол, как биологическая категория, не столь важен как личностные качества человека. В этой связи и в нашей стране женское предпринимательство начинает играть все большую роль в рыночной экономике, а также в решении важнейших экономических и социальных задач.

Постановка основных задач по гендерному равенству в предпринимательской деятельности предполагает определение проблемных аспектов в этом направлении:

Во-первых, термин «гендер» не всегда полностью понимается общественностью, которая неохотно использует принятые в международной практике термины, относящиеся к неравноправию полов[1]. Во многих случаях, слово «гендер» широко рассматривается как синоним слова «женщины», и работа, ориентированная на гендер, зачастую связана с решением социальных вопросов. Таким образом, «проблемы гендерного неравенства преимущественно решаются посредством разработки социальных стратегий, предназначенных для уязвимых групп населения» (в особенности для женщин и девушек), тогда как стратегии, касающиеся таких аспектов как экономическое развитие, финансовые рынки, развитие частного сектора и государственные расходы придерживаются абсолютно гендерно-нейтрального подхода [2,34].

Действительно, поставленная выше проблема требует теоретического осмыслиения понятия «пол и гендер» в современном мире.

Главная проблема заключается в том, чтобы точно разграничивать понятия **пол и гендер**. При употреблении понятия **гендер** (и его производных) речь идет о социальных, культурных, психологических особенностях позиций женщин и мужчин. В отличие от других научных подходов сформированная на базе этого понятия концепция «гендера» рассматривает мужчину и женщину не в «природном», «естественном» качестве, не как биологическое существо, судьба которого предопределена его физиологическими особенностями, а как человека, существа социального, со своим особым статусом, особыми социальными интересами, запросами, потребностями и стратегией социального поведения.

Пол же обозначает, в первую очередь, физические, физиологические, биологические различия между мужчинами и женщинами. В этой связи Э.Гидденс справедливо отмечает, что «разграничение **пола и гендера** является фундаментальным, так как многие различия между женщиной и мужчиной обуславливаются причинами, не являющимися биологическими по своей природе» [3,153],

т.е. грамотность в восприятии «гендерного вопроса» это и есть некое преодоление устоявшихся стереотипов.

Во-вторых, повышение статуса женщины, как неотъемлемое условие экономического развития страны.

Конечно, поставленная проблема является неким историческим наследством, когда устоявшийся стереотип превосходства полов крепко вошел в сознание людей.

В Узбекистане с первых дней обретения независимости и по сей день, проделана объёмная работа в этом направлении. *Сегодня растущий уровень политической и правовой культуры женщин, их общественной активности в нашей стране можно наблюдать во всех звеньях государственного и общественного управления, в судебно-правовой системе, в деятельности негосударственных организаций, социальных структур, во всех сферах и отраслях жизни нашего общества в целом.*

«Несмотря на традиции и восточный уклад жизни, женщины в политике Узбекистана играют все большую роль. Так, в нашей республике на сегодняшний день насчитывается 17 женщин-сенаторов, 15 депутатов законодательной палаты, 15 героев Узбекистана, шесть академиков и 514 докторов наук. Кроме того, представительницы прекрасного пола составляют 23% от численности депутатов местных кенгашей» [5].

В -третьих, доминирование мужчин в предпринимательской деятельности.

Доминирование мужчин в предпринимательской деятельности- проблематика, которая зачастую связана с региональными традициями и обычаями, которые устанавливают границы обязанностей обоих полов. По данным Ассоциации деловых женщин Узбекистана «Тадбиркор аёл», в нашей стране насчитывается более 120 тысяч женщин-предпринимателей. [5].

В-четвертых, большинство женщин-предпринимателей занимаются мелкомасштабным производством товаров широкого потребления, розничной торговлей или оказанием профессиональных услуг (часто в здравоохранении и образовании). Предприятия, которыми руководят женщины, обычно имеют вид неформального надомного производства. В частности, в сельских регионах женский бизнес представляет собой преимущественно малые и микро-предприятия, и женщины занимаются сельскохозяйственным производством (фруктов, овощей, цветов, домашнего скота и птицы), ремеслами и изготовлением сувениров, пошивом одежды, выпечкой и изготовлением сладостей и т.д. Предрасположенность к преимущественно женским видам предпринимательской деятельности, непосредственно связана с психологией поведения сформировавшихся на основе устоявшихся стереотипов.

В-пятых, установление жестких стереотипов в воспитании девочек оказывает негативное влияние на их креативное мышление и новаторство.

Уже в 3 года дети с уверенностью относят себя к мужскому или женскому полу (гендерная идентификация). В это время они начинают замечать, что мужчины и женщины стараются по-разному выглядеть, занимаются разной деятельностью и интересуются разными вещами. Часто взрослые непреднамеренно стимулируют гендерную идентификацию, выбирая одежду определённого цвета и стиля для девочек и мальчиков, даже стрижки. Длинные волосы зачастую идентифицируют ребёнка как девочку, даже игрушки девочек отличаются от игрушек мальчиков.

Есть все основания полагать, что в процессе дифференциальной социализации очень велика роль детских игрушек. Согласно проведенным исследованиям, игрушки и игры помогают девочкам практиковаться в тех видах деятельности, которые касаются подготовки к материнству и ведению домашнего хозяйства, развивают умение общаться и навыки сотрудничества. Совсем иначе дело обстоит у мальчиков: игрушки и игры побуждают их к изобретательству, преобразованию окружающего мира, помогают развить навыки, которые позже лягут в основу пространственных и математических способностей, поощряют независимое, соревновательное и лидерское поведение. [4,29]

Развитие у девочек предпринимательских качеств предполагает наличие неординарного мышления и уверенности в свои силы и возможности. Участие женщин в предпринимательской деятельности в научных кругах является малоисследованным направлением оценки статуса женщин в сфере занятости.

Здесь следует отметить мотивы, способствующие вхождению в бизнес: возможность получения дополнительного заработка, потребность реализовать себя в бизнесе, независимость от работодателя, потребность в творчестве, желание совмещать работу и заботу о семье.

Препятствия на пути открытия своего дела у женщин во многих случаях- это отсутствие первоначального капитала, страх банкротства и финансовых обязательств, по которым они не смогут ответить, нехватка знаний в области финансовых стратегий, оформлении отчетности и управления; отсутствие опыта; недостаток информации об успешных женщинах предпринимательницах; отсутствие соответствующего образования.

В результате проведенного анализа нами разработаны следующие рекомендации по способствованию активного участия женщин в предпринимательской деятельности:

1. Организация через центры занятости обучения женщин на базе вузов, где необходимо создать базовую программу «Основы индивидуального предпринимательства для женщин ».

2. Повышение пропаганды в СМИ успехов женщин- предпринимательниц.

3. Формирование позитивного образа деловой женщины.

4.Организация через фонды поддержки малого и среднего бизнеса «бизнес-инкубаторов» для начинающих предпринимательниц.

5. По прогрессивному принципу продолжить выделение на конкурсной основе целевых (адресных) грантов для развития женского предпринимательства.

На сегодняшний день перед обществом и государством существует ряд задач, которые должны быть решены, но уже сейчас можно сделать вывод, что становление и развитие рыночных отношений изменило жизненные ориентиры многих женщин. Предпринимательство для женщин - это один из способов адаптации к новым условиям. Несмотря на трудности, многие женщины смогли обрести уверенность в себе и своих силах, освоить новую для себя роль предпринимателя.

Список использованной литературы:

1. Союз неправительственных организаций Узбекистана по правам женщин. Независимый отчет, 2009.
2. Европейская экономическая комиссия ООН (ЮНЕКЕ), 2008. Стратегия достижения гендерного равенства в экономических стратегиях для достижения целей развития тысячелетия в Центральной Азии. Женева. – С.34.
3. Гидденс Э. Социология. – М. 1999. – С. 153.
4. Берн Ш. Гендерная психология. – СПб.: ПРАЙМ-ЕВРОЗНАК, 2002. – 219 с.
5. <https://uz.sputniknews.ru/Analytics>
6. <https://gtn.uz/news/politika>.

Nurmatov E.A.,
Toshkent Arxitektura qurilish
instituti o'qituvchisi

MAKTABDA CHIZMACHILIKNI O'QITISHDA HAMKORLIK PEDAGOGIKASINING O'RNI

Chizmachilik fani o'quvchilarning fazoviy tasavvurini rivojlantirishga, texnika va turmushda duch keladigan chizmalarни mustaqil o'qiy olishga, konstruktorlikka oid ko'nikmaning shakllanishiga, estetik didi o'sishiga, yangi texnika vositalari bilan "tillasha" olishiga xizmat qiladi. Biroq chizmachilik fani o'quvchilarning o'tish davrida, ya'ni 8-9 sinflarda o'qitiladi. O'quvchining chizmachilik fanidan to'laqonli bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishi uchun darslarni an'anaviy o'qitish metodi bilan bиргаликда ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish lozim bo'ladi.

Shuning uchun ushbu maqolada zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan chizmachilik fanini o'qitishda o'rinali foydalanish imkoniyatlari ishlab chiqilgan.

Hamkorlik pedagogikasi fan sifatida o'quvchilarning mavzuni chuqur o'rganishlari uchun eng samarali tamoyil, shakl, metod va vositalarni tadqiq qiladi. Eng asosiysi o'quv jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'zaro hurmatni, do'stlar bilan bирgalikda ishlash ko'nikmasini rivojlantirishga tayanadi. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasida guruh o'quvchilari kichik guruhchalarga bo'linadi.

Hamkorlikda o‘qitish g‘oyasi didaktikada dastlab Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya, Niderlandiya, Germaniya Federativ Respublikasi, Yaponiya, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Isroil kabi mamlakatlarning ta’lim muassasalarida keng ko‘lamda sinala boshlandi. Ushbu hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi turli mamlakatlarda turli yillarda rivojlana boshlangan. Masalan, AQShda dastlab Kaliforniya universiteti professori J.Arnon tomonidan joriy etilgan. Professorlar R.Jonson, D.Jonsonlar va Isroildagi Tel-Aviv universiteti professori Sh.Sheron tomonidan ishlab chiqilgan.

Hamkorlikda o‘qitishning asosiy g‘oyasi – o‘quv topshiriqlarni nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o‘qish – o‘rganishdir.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasida o‘quvchilarni hamkorlikda o‘qitishni tashkil qilishning bir nechta metodlari mavjud. Ular:

1. Komandada o‘qitish metodi.
2. Kichik guruhlarda hamkorlikda o‘qitish metodi.
3. Hamkorlikda o‘qitishning “Zigzag” yoki “Arta” metodi.
4. Hamkorlikda o‘qitishning “Birgalikda o‘qiymiz” metodi.
5. Kichik guruhlarga ijodiy izlanishni tashkil etish metodi.

Ushbu maqolada “Chizmalarining hozirgi zamон ko‘rinishlarigacha bo‘lgan davrlarda qanday rivojlanganligi” mavzusidagi darsni “Komandada o‘qitish metodi” yordamida tashkil qilish keltiriladi.

Komandada o‘qitish metodi professor R.Savin tomonidan ishlab chiqilgan. Bu metodda sinf o‘quvchilaridan teng sonli ikkita komanda tuziladi. Har ikkala komanda bir xil topshiriqnini bajaradi. Komanda a’zolari o‘quv topshiriqlarini hamkorlikda bajaradi. Har bir o‘quvchi maqsadni mavzuda ko‘zda tutilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga qaratadi.

Dastlab o‘tiladigan darsning borishi loyihalanadi, so‘ngra o‘quvchilarning o‘zlashtirilgan bilimlarini aniqlash maqsadida test savollari tuzib chiqiladi.

Darsning loyihasi:

1. Tashkiliy qism.
2. O‘tilgan mavzu yuzasidan o‘quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash.
3. O‘quvchilarni dars mavzusi, maqsadi va uni borishi bilan tanishtirish.
4. Yangi mavzuni o‘rganish:
 - a) o‘quvchilarni komandalarga ajratib, guruhlar tashkil etish va har bir komanda a’zolari tomonidan belgilangan o‘quv topshiriqlarni mustaqil ravishda sifatli bajarishiga erishish;
 - b) o‘quv materialining yaxlit holda ishlab chiqilishini amalga oshirish.
5. Mavzu yuzasidan komandalar o‘rtasida savol-javob va oquv bahsi uyuştirish.
6. O‘quvchilar bilimini test savollari yordamida nazorat qilish va baholash.
7. Mavzuni qayta ishslash va yakunlash.
8. Uyga vazifa berish.

Komandalarda o‘zlashtiriladigan mavzu: “Chizmalarining hozirgi zamон ko‘rinishlarigacha bo‘lgan davrlarda qanday rivojlanganligi”.

Quyida mavzu bo‘yicha komandalar uchun tuzilgan topshiriqlardan namuna keltiriladi.

No	O‘quvchilar o‘zlashtirishi lozim bo‘ladigan materiallarga savollar	Topshiriqni bajarish uchun ko‘rsatmalar
	Darslikdagi matnni diqqat bilan o‘qib, quyidagi savollarga javob tayyorlash	
1	O‘zbekiston arxeologlari tomonidan olib borilgan qazilmalarda eramizdan oldingi I-II asrlarga tegishli odamning olddan va yondon ko‘rinishi tasviri qayerdan topilgan?	
2	VI-VII asrlarga taalluqli kumush idishda nimaning tasviri chizilgan?	
3	Abu Rayhon Beruniy tomonidan shar ichida qanday mutazam ko‘pyoqliklarni yasash mumkinligi isbotlangan?	O‘quvchilar guruhi bilan hamkorlikda ishslash
4	Al-Xorazmiy qaysi yunon olimining ijodidagi masalalarning aniq emasligini chizmalar orqali isbotlab bergen?	
5	Abu Nasr Farobiy o‘zgarmas pargor yordamida qanday masalalarni yechishga erishgan?	
6	Abu Rayhon Beruniy zamonaviy ortogonal proyeksiyalash usuli to‘g‘risida qanday fikrni isbotlab bergen?	

7	Abu Ali ibn Sino “Aqllar me’yori” asarida qanday mexanik (mexanizm) asboblarning chizmalarini chizib ko’rsatgan?	
8	Musavvir K.Behzod asarlari qanday zamonaviy proyeksiyalash usuliga fikringizni asoslangan?	
9	O’rta asrlarda O’rta Osiyoda buyuk olimlarimiz barcha fanlar sohasida katta yutuqlarga erishishgan. Ular o’z asarlaridagi chizmalarini qanday chizish asboblaridan foydalaniib chizishgan?	Barcha savollar bo‘yicha javob berishga urining.
10	Noma’lum buxorolik ustaning qanday chizmasi saqlanib golgan?	
11	Iroqi muqarnas kapitelli ustunning chizmasi bilan nima qo’shib tasvirlangan?	
12	XV asrga kelib feodalizm tugatilib, dunyo savdosi rivojlanadi. Texnika taraqqiyot etishga turki bo’ldi. Bu “Uyg’onish” davri qayerda boshlanib rivojlangan?	
13	Nimalar asosida o’tmishimiz haqida to’liq ma’lumot olinadi?	
14	XVIII asrgacha bo’lgan qaysi ma’lumotlar asosida Monj qanday kitob yaratgan?	O’quvchilar jamoasi bilan o’tkaziladigan savol- javobda faol ishtiroy eting.
15	Rossiyada chizilgan chizmalarida nimalar qo’llanilgan? Qachon? O’sha davrlardagi chizmachilikka oid ma’lumotlarni umumlashtiring va ularni tahlil qilib o’z fikringizni bildirishga harakat qiling.	

Shu tartibda o‘quv topshiriqlarining mavzulari tuzib chiqiladi.

O'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish maqsadida yuqorida qayd etilgan mavzulardan foydalilanilgan holda test savollari tavsiya etiladi. Shu boisdan bu yerda test savollarini tuzish namunasi beriladi.

Chizmachilik fanidagi boshqa mavzularni ham hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining “Komandada o‘qitish metodi” yordamida tashkil qilish mumkin. Ushbu metoddan foydalanish natijasida o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlik hissi shakllanadi, o‘quvchining mustaqil fikr bildirishiga va uni himoya qilishiga sharoit yaratiladi, o‘zaro suhbat va diskussiya (tortishuv) o‘tkazish madaniyati rivojlanadi. Eng asosiysi o‘quvchi mavzu bo‘vicha yetarli bilim, ko‘nikmaga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ro'ziyev E., Ashirboyev A.O. *Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi*. – T., *Fan va texnologiya*, 2010.
 2. Rahmonov I., Valiyev A., Valiyeva B. *Muhandislik grafikasi fanini o'qitishning zamonaviy texnologiyalari*. – T., "TDPU rizografi", 2013.
 3. Azizxodjayeva N.N. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. – T., *Adabiyot jamg 'armasi*, 2006.
 4. Bechnanoxo B. IT. *Meyaroruka u nporpeccuBuble TexHonoruu obyyenns*. Bechnanoxo B. IT. *Meyaroruka u nporpeccuBuble TexHonoruu obyyenns*. – M., 1995.

Nurmatova N.U.,
Nizomiy nomidagi TDPU Ijtimoiy
pedagogika kafedrasи o'qituvchisi

O'QUVCHI-QIZLAR IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA MEHNAT TARBIYASINING TUTGAN O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchi-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish dolzarb ijtimoiy pedagogik muammo sifatida tahlil etilgan. O'quvchi-qizlarning ijtimoiy-faolligini oshirishda mehnat tarbiyasining o'rni, mutafakkirlari asarlaridagi fikrlarning tarbiyaviy ahamiyati yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar: ijtimoiyfaollik, mehnat tarbiyasi, kasb-hunar, qobiliyat, qiziqish, hurmat, imkoniyatlar, dunyoqorash.

Аннотация. В статье анализируется повышение социальной активности студенток как актуальная социально-педагогическая проблема. Подчеркивается роль трудового воспитания в повышении социальной активности студентов, воспитательная ценность идей в произведениях мыслителей.

Ключевые слова: социальная активность, трудовое воспитание, профессия, способности, интерес, уважение, возможность, мировоззрение.

Annotation. The article analyzes the increase in the social activity of female students as an actual social and pedagogical problem. The role of labor education in increasing the social activity of students, the educational value of ideas in the works of thinkers is emphasized.

Key words: social activity, labor education, profession, abilities, interest, respect, opportunity, worldview.

Mamlakatimizda xotin-qizlarga katta e'tibor qaratilmoqda, ularning jamiyatimizning turli sohalarida faol ishtirok etishlari uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Ayollarga bo'lган e'tibor o'z tarixiy ildizlariga ega, ajdodlarimiz doimo ayollarni qadrlashga, ularga nisbatan hurmat va izzatda bo'lishga da'vat etishgan. Respublikamiz BMTning "Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllarini yo'q qilish haqida"gi Konvensiyasi, Xalqaro mehnat tashkilotining "Onalikni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Mehnat va mashg'ulotlar sohasidagi kamsitishlar to'g'risida"gi Konvensiyalariga MDH davlatlari orasidan birinchilar qatorida qo'shildi. Bu hujjatlar xotin-qizlar manfaatlarini muhofaza qilish, ularning oila va umuman jamiyatdagi mavqeyini mustahkamlashga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar kompleksining tarkibiy qismidir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida: "Xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi o'rni va nufuzini oshirish ularga yangi imkoniyatlar yaratish bo'yicha navbatdagi qadam sifatida hayotni va ayollar muammolarini yaxshi biladigan, faol va tashabbuskor opasingillarimizdan iborat Respublika Xotin-qizlar jamoatchilik kengashini tashkil etishni taklif qilaman³⁷" – deb ta'kidlab o'tganlar.

Shu o'rinda o'quvchi-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Ular ijtimoiy faolligining darajasi ertangi kun taraqqiyotini belgilab berishi munosabati bilan mazkur masala tobora global va dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'quvchi-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda mehnat tarbiyasining o'rni benihoya katta hisoblanadi.

Mehnat insonning maqsadga yo'naltirilgan faoliyati bo'lib, hayot kechirishining asosiy shartidir. Mehnat tufayli inson o'zining moddiy va ma'naviy ehtiyojlарini amalga oshiradi. Insonning o'zi esa mehnatkash bo'lib, u tufayli o'zining iste'dodi, qobiliyati, layoqatini namoyon etadi. Mehnat jarayonida insonning dunyoqarashi kengayib, bilim saviyasi oshib, o'z-o'zini jismoniy va ma'naviy jihatdan shakllantirib boradi.

³⁷ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга мурожаати. <https://president.uz/uz/lists/view/3324>.

O‘quvchi-qizlar faoliyatining asosiy turi bu mehnat, atrof-muhitni o‘zlashtirish, biror narsani bajarish orqali ham ijtimoiy, ham shaxsiy ehtiyojlarini qondiradi va o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsata oladi. Shuning uchun o‘quvchi qizlar ijtimoiy faolligini oshirishda mehnatga katta e’tibor bilan qaraladi. Mehnat yoshlar uchun ham zaruriyat, ham burch bo‘lishi, buning uchun uyda ham, o‘quv yurtlarida ham mehnat qilish uchun sharoitlar yaratish lozim. Agar o‘quvchi-qizlar kichikligidan mehnat qilishga o‘rgatilsa, o‘yindan mehnat qilishga hech bir qiyinchiliklarsiz o‘tadi. O‘quvchi-qizlar ijtimoiy faolligini oshirishda mehnat tarbiyasi uni har tomonlama rivojlantirishning ajralmas qismidir. Shuningdek, uning har tomonlama shakllantirish vositasi, uning shaxs sifatida ulg‘ayish omili hamdir. Buyuk ajdodlarimiz mehnat tarbiyasi to‘g‘risida to‘xtalib, qimmatli fikrlarini bildirib o‘tishgan. Masalan, Abdurahmon Jomiy: “Oltin topmagan-u o‘rgangin hunar, hunarning oldida xasdir oltin-zar”, – degan fikrlaridan biz ko‘rishimiz muminki, kasb-hunar oltindan ham yuqori turishini va albatta, kasb-hunarli bo‘lish lozimligini ta‘kidlab o‘tgan bo‘lsalar.

Mutafakkirlarimizdan Alisher Navoiy: “Umrni zoye etma, mehnat qil, mehnatni saodatning kaliti bil” – deydilar, ya’ni ular dangasalikni qoralab jamiyatda har doim faol bo‘lish lozimligini va mehnat qilish lozimligini ko‘rsatib bergenlar. Mehnatsevarlik fazilatlari orqali shaxs kamolotga erishishi mumkinligini targ‘ib qilgan.

Fransuz adibi Anatol Franc: “Eng yaxshi axloqiy va estetik dori – mehnat”, – degan fikrni ilgari suradi. Ular mehnatni eng yaxshi estetik va axloqiy dori sifatida ko‘radilar va o‘quvchi qizlar tarbiyasida mehnatning naqadar muhimligini alohida ko‘rsatib bergenlar.

Qizlarga berilgan yengil va oson mehnat tarbiyasi ularni zeriktirgani kabi ularning imkoniyatlaridan og‘ir topshiriqlar ularni bezdirishi mumkin. Mehnat tarbiyasini amalga oshirishda tizimlilik va institutizom bo‘lishiga qat’iy amal qilinishi joiz. Aks holda, har qanday qobiliyatli ular ham yetarlicha Mehnat tarbiyasi ololmasligi mumkin. Mehnat tarbiyasi uchun mакtab davri eng qulay fursatdir. Birinchi navbatda, o‘qish jarayonining o‘zi og‘ir aqliy jismoniy mehnat hisoblanadi. Maktabga o‘z vaqtida kelib-ketish, o‘qish-yozishni o‘rganish, berilgan bilimlarni egallash uchun o‘quvchilarga mehnat tarbiyasi berilgan bo‘lishi kerak. Chunki o‘quv topshiriqlarini bajarish, dars o‘zlashtirish, o‘tilganlarni takrorlash, yozma ishlar bajarish, kerakli matnlarni yodlash, ko‘chirmalar olish, lug‘atlar bilan ishlay olishi uchun o‘quvchi muayyan institutizomga rioya etishi, tashkilotchilik qobiliyati va ishchanlik xususiyatiga ega bo‘lishi, ishning ko‘zini bilishi kerak. Mehnat tarbiyasida, avval aytilganidek, mehnat ta’limi va kasbga yo‘naltirish jarayonlarining ham o‘rni katta. Shuningdek, mehnat ta’limi imkon qadar xilma-xil bo‘lishi hamda o‘quvchilarning aqliy, jismoniy imkoniyatlari va jinsiy xususiyatlariga muvofiq kelishi zarur. Har bir inson u yoki bu kasbini yoki bir necha kasb-hunarni egallashi mumkin. Aynan mana shuning uchun ham mehnat tarbiyasini o‘quvchi-qizlarga yoshlik chog‘idan boshlab berib borish zarur.

Yoshlikda puxta egallagan hunar, mehnat malakalari inson umrining oxirigacha rohat-farog‘atda turmush kechirishning garovi hisoblanadi. “Hunarmandning noni butun”, “Qunt bilan o‘rgan hunar, hunardan rizqing unar”, “Hunar bo‘lsa qo‘lingda, non topilar yo‘lingda”, “Hunar – zar, hunarsiz – xor”, kabi maqollarda ham rizq-nasibaning butunligi hunar orqasidan bo‘lishiga ishora etiladi. Hunar shunchalik katta, mangu boylikki, uni o‘g‘irlash ham, yondirish ham yo‘q qilish ham mumkin emas. O‘quvchi-qizlarning kasb-hunar egallashlari, mehnatsevar bo‘lib tarbiyalanishlarida ustoz shogird an‘analariga rioya etmoq zarur. Chunki ustoz ko‘rmagan hunarmandning ishida unum bo‘lmaydi. Shuning uchun ham o‘quvchi-qizlarning hunar egallashlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish hamda ularga ta’lim va tarbiya berish bilan birga turli xil hunarlarni yoshligida o‘rgatish uchun turli to‘garaklarga yoki hunarmandlarga shogirdlikka berish maqsadga muvofiqdir. O‘quvchi-qizlarga, asosan, to‘quvchilik, pazandachilik, tikuvchilik va boshqa hunarlarni, shu jumladan, biznes, kompyuter grafikasi va chet tillarini ham muntazam o‘rgatib borish bugungi kunning talabi bo‘lib qolmoqda. Bu kabi kasb-hunarlarni o‘quvchi-qizlarga yoshligidan o‘rgatib borish orqali ularda o‘ziga ishonch tuyg‘usi shakllanadi, mustaqil fikrlashga o‘rganadi, kelajakda o‘quvchi-qizlar o‘zlarini moddiy tomonдан taminlay olishlarida ham katta yordam beradi va albatta, ularning ijtimoiy faolligi oshadi.

Hayotda ba‘zi shunday ota-onalar ham uchraydiki, farzandning mayli, qobiliyati, qiziqishini hisobga olmasdan, uni o‘zlar ma’qul ko‘rgan kasbni egallashga majbur qiladilar. Ayniqsa, bu holat mustabid tuzumda tabiiy holga aylanib qolgan edi. Ota-ona farzandni kasb-hunar bilim yurtlarida, ota-bobolarining hunarmandchilik kasblarini o‘rganishlariga yo‘l qo‘ymas, balki keyinchalik “yog‘li joylarda” ishlashi mumkin bo‘lgan, oliy ma’lumot olgunicha qo‘llab, suyab yuradigan tanish-bilish, oshna-og‘aynisi bo‘lgan oliy o‘quv yurtlariga majburan kiritar edi. Natijada, oliy dargohni xohishsiz, qiziqishsiz bitirgan mutaxassis

o‘z kasbi bo‘yicha chuqur bilimsiz, layoqatsiz bo‘lib, ota-oná hurmati uchun shunchaki mehnat qiladi yoki umuman, boshqa soha bo‘yicha ishlaydi. U qilgan mehnatida unum va sifat bo‘lmaydi. Bunday mutaxassisdan jamiyat ham, oila ham manfaat ko‘rmaydi. Hunarning yaxshi yomoni bo‘lmaydi, muhimi tanlangan kasb hunarga mehr-muhabbat qo‘yishdir, uning sir-asrorlarini chuqur o‘rganishga intilishdir. Ota-onaning boyligi, mansabi hech kimga hech qachon vafo qilmagan. Boshga musibat tushganda, turmushda qiyinchiliklarga duch kelganda uni faqat qo‘lidagi hunari mehnati asrab qoladi. Yalqovlik shon-shuhrat ketidan quvish, ishsizlik shoshma-shosharlik bir ishni tugatish, tadbirsizlik, dangasalik, mehnat madaniyatiga rioya etmaslik hunarmandlik, mehnatsevarlik kushandasidir.

Xulosa qilib aytganda o‘quvchi-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda mehnat tarbiyasining va albatta, o‘quvchi-qizlarni to‘g‘ri kasb-hunarga yo‘naltirish muhim ahamiyatga ega. Zero, kasb-hunar inson hayotining gultojidir, oila va jamiyat farovonligining asosidir. Buni har bir yosh ongiga singdirish, ota-onaning, hunarmand ustozlarning vazifasidir.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to‘plami. 2019-yil 26-fevral.
2. O.Hasanboyeva, D.Xoliqov, Rocc Kemibell, Sh.K.Toshpo‘latova, M.Sh.Nurmatova. Oila pedagogikasi. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2005.
3. A.SH. Muxsieva. Oila pedagogikasi. –T.: Nizomiy nomli TDPU nashriyoti, 2017y.
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Mehnat_tarbiyasi.

Qoriyev Abdumalik Ubaydullayevich,
Namangan viloyati XTXQTMOHM o‘qituvchisi

OILADA TA’LIM OLISH HUQUQINING “TA’LIM TO‘G‘RISIDA”GI QONUNDA MUSTAHKAMLANISHI

Annotatsiya. Ushbu maqola oilada ta’lim olish huquqining qonuniy asoslarini yoritgan bo‘lib, unda “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda oilada mustaqil bilim olishning huquqiy jihatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: oila, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, pedagog, oilada ta’lim, mustaqil ta’lim, ota-oná, eksternat, qonuniy vakil.

Аннотация. В этой статье описывается правовая основа семейного образования, в котором изложены правовые аспекты независимого семейного образования в Законе об образовании.

Ключевые слова: семья, Закон об образовании, педагог, воспитание в семье, самообразование, родители, экстернат, законный представитель

Annotation. This article outlines the legal basis for the right to family education, and the Law on Education sets out the legal aspects of independent family education.

Key words: family, Law on Education, Teacher, Family Education, Independent Education, Parent, External, Legal Representative.

Ta’lim tizimi har bir davlatning kelajagini belgilab beradigan eng muhim tizim hisoblanadi. Ushbu masalani yaxshi tushungan davlatimiz rahbari, ta’limni rivojlantirish uchun bir qator chora-tadbirlarni belgilab berdi. Prezidentimiz tomonidan so‘nggi yillarda so‘zlanayotgan ma’ruzalarda, tasdiqlanayotgan qonularda, qabul qilinayotgan Farmon va Qarorlarda mamlakatimiz ta’limini yangi bosqichga ko‘tarish va uni yuksaltirish g‘oyasi asosiy masala hisoblanmoqda. Ushbu g‘oyani amalga oshirish uchun 2020-yil 23-sentyabrda yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Ushbu Qonun avvalgi 1997-yilda tasdiqlangan Qonundan ko‘ra kengroq yoritilgan hamda ta’limni har bir bo‘g‘iniga izchil to‘xtalib o‘tilgan.

Yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda jamiyatimizni asosi bo‘lmish oilani ta’limda qanday ahamiyat kasb etishini o‘rganish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biridir.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra, ta’lim oluvchilar, pedagog xodimlar hamda voyaga yetmagan ta’lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari hisoblanadi. Ta’lim-tarbiyani ishtirokchisi sifatida nafaqat o‘quvchilar, balki ularning ota-onalari ham ishtirokchi ekanligi nazarda tutilmoqda. Ya’ni o‘quvchilarning sifatlari ta’lim va tarbiya olishida ota-onaning roli muhim ekanligi Qonunda asoslab qo‘yilgan.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 5-moddasida ta’lim olish huquqi berilgan, unda bir nechta huquqlar qatori oilada yoki mustaqil o‘qish orqali ta’lim olgan fuqarolarga, shuningdek, umumiy o‘rtta ta’lim olmagan shaxslarga akkreditatsiyadan o‘tgan davlat ta’lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o‘tish huquqining berilishi ham keltirilgan. Bundan shunday xulosa chiqadiki, o‘quvchilar oilada mustaqil bilim olish huquqiga egaligi, mustaqil bilim olgach eksternat tartibida sinovdan o‘tish mumkin ekanligini Qonun bilan belgilab qo‘yildi.

Qonunning 15-moddasida ta’lim olish shakllari berilgan bo‘lib, unga ko‘ra, “Oilada ta’lim olish va mustaqil ta’lim olish” shakli ilk marotaba huquqiy asosga ega bo‘ldi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 18-moddasi “Oilada ta’lim olish va mustaqil ta’lim olish” shakliga to‘xtalib o‘tilgan bo‘lib, unda “Davlat oilada ta’lim olishga va mustaqil ta’lim olishga ko‘maklashadi. Bolalarning oilada ta’lim olishi va mustaqil ta’lim olish uslubiy va maslahat yordami ko‘rsatilgan holda tegishli o‘quv dasturlari bo‘yicha amalga oshiriladi. Oilada ta’lim olish va mustaqil ta’lim olish tartibi, shuningdek, ta’lim oluvchilarning toifalari ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan belgilanadi. Oilada ta’lim olish bolalar, oila, davlat va jamiyat manfaatlarini hisobga olgan holda davlat ta’lim muassasasi hamda ta’lim oluvchilarning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari o‘rtasidagi shartnoma asosida amalga oshiriladi. Mustaqil ta’lim olish yakka tartibda amalga oshiriladi hamda ta’lim oluvchilarni kasbiy, intellektual, ma’naviy va madaniy rivojlantirishga xizmat qiladi. Oilada ta’lim olgan va mustaqil ta’lim olgan shaxslarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta’lim to‘g‘risidagi hujjatni berish davlat ta’lim muassasalarining tasdiqlangan o‘quv dasturiga muvofiq eksternat tartibida amalga oshiriladi” deya izoh berilgan. Bir so‘z bilan aytganda Oilada ta’lim olish qanday tartibda bo‘lishi kerakligi haqidagi savol yangi tahrirdagi Qonun orqali o‘z yechimini topgan. Shuningdek, eksternat tartibidagi ta’lim olishni tashkil etish tartibi, albatta, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Qonunning 29-moddasida yana bir yangilik ham keltirilgan. Unda Ta’lim tashkilotlarining huquqiy maqomi sifatida Oilaviy nodavlat mакtabgacha ta’lim tashkiloti shaklidagi ta’lim xizmatlari ko‘rsatish mumkinligi ham ta’kidlab o‘tilgan.

40-modda Ta’lim to‘g‘risidagi hujjat deb nomlangan bo‘lib, unda bitiruvchilarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta’lim to‘g‘risidagi hujjat (shahodatnoma, diplom, sertifikat, guvohnoma) berilishi haqidagi masala keltirilgan. Ushbu moddada Davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta’lim to‘g‘risidagi hujjat oilada ta’lim olgan yoki mustaqil ta’lim olgan hamda akkreditatsiya qilingan davlat ta’lim muassasalarining tegishli o‘quv dasturlari bo‘yicha eksternat tartibida yakuniy va davlat attestatsiyasidan o‘tgan shaxslarga ham berilishi kerakligi bayon etilgan.

Qonunning 51-moddasida Voyaga yetmagan ta’lim oluvchilar ota-onasining hamda boshqa qonuniy vakillarining huquq va majburiyatlari berilgan. Unga ko‘ra, voyaga yetmagan ta’lim oluvchilarning ota-onasi va boshqa qonuniy vakillari jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalarga, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalarga oilada ta’lim olish imkoniyatini berish, oilada ta’lim olayotgan bolaning fikrini inobatga olgan holda uning o‘qishini ta’limning har qanday bosqichida ta’lim tashkilotida davom ettirish to‘g‘risida qaror qabul qilish kabi huquqlarga ega ekanligini; o‘z bolalarini insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ma’naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalashi, ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishi kabi majburiyatlarga ega ekanligini ko‘rish mumkin.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, o‘quvchilar va o‘qituvchilarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, avvalo, oiladan boshlanadi. Chunki oilada ota-onalar yoki qonuniy vakil tarbiya jarayonida qonun qoidalarga amal qilib bolaga to‘g‘ri o‘rnak bo‘lsa, bolalar, albatta, uning jamiyatda ijobjiy jihatlarini namoyon qiladilar. Ota-onalar tomonidan Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun har tomonlama o‘rganib chiqilsa va unga amal qilinsa, unda berilgan huquqlardan unumli foydalananib majburiyatlar bajarilsa, o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtiriladigan bilimlar bundanda samarali bo‘ladi hamda yaqin kelajakda o‘z mevasini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “Ta’lim to‘g‘risida”. 2020-yil 23-sentabr. <https://lex.uz/docs/-5013007>



Roziqova Gulchehra,
Samarqand Davlat Universiteti
“Maktabgacha ta’lim pedagogikasi va
psixologiyasi” kafedrasи o‘qituvchisi

**MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARIDA OILA BILAN
OLIB BORILADIGAN ISHLAR**

Annotatsiya. Ushbu maqolada jamiyatimizda dolzarb muammolardan biri – yoshlar ongida milliy va an’anaviy tarbiyani singdirish islohotlarining dastlabki bo‘g‘ini hisoblangan ota-onalar hamda maktabgacha ta’lim muassasining o‘rnini qanchalik ahamiyatli ekanligi haqida yoritishga harakat qilindi. Maqolada oilaning roli muhimdir.

Kalit so‘zlar: ota-onalar, maktabgacha ta’lim muassasi, ta’lim-tarbiy

Аннотация. В статье обсуждаются реформы по внедрению национального и традиционного образования в сознании молодежи, что является одной из самых актуальных проблем в нашем обществе. Сделана попытка пролить свет на важность роли родителя и дошкольного учреждения, которые являются первичным звеном. В статье подчёркнута важность роли семьи.

Ключевые слова: родители, дошкольное учреждение, образование.

Annotation. This article discusses the reforms to inculcate national and traditional education in the minds of young people, which is one of the most pressing issues in our society, an attempt has been made to shed light on the importance of the role of the parent and the preschool institution as the primary link. The role of the family is important in the article.

Key words: parents, preschool, education

“Ta’lim-tarbiyaning birdan bir vazifasi kishi yashab turgan jamiyatning talablariga to‘la to‘kis javob bera oladigan va jamiyatni bir butunlikda tinchlik va farovonlikda saqlab turish uchun xizmat qiladigan mukammal insonni yetishtirishdadir”

Abu Nasr Farobi

Odamzod azal-azaldan inson nima uchun yashaydi, degan savolga javob izlaydi. Bu savolga o‘zbekona javob bersak, odamzod, avvalo, farzandli bo‘lish, o‘zidan avlod qoldirish, parvardigor in’om etgan surriyotning baxt-u saodatini ko‘rish, ularni iymon yo‘liga yetaklash uchun yashaydi. U ulg‘aygan makonni vatanim deya ardoqlaydi, sarhadlariga ko‘ksini qalqon qilib yashaydi. Farzand shu qadar aziz, ammo ilm-u odobi undan ham aziz. Shu bois farzandlar tarbiyasi barcha zamonlarda jamiyat uchun eng muhim vazifalardan bo‘lib kelgan. Inson hayotining porloq bo‘lishi hozirgi kunda tarbiyalanayotgan yoshlarga bog‘liq. Bunday ulkan vazifani moddiy va ma’naviy boyliklarni amalga oshiruvchi maskan esa oiladir.

U ijtimoiy jarayonlarning boshlang‘ich bo‘g‘ini sifatida murakkab tarkibiga, mazmuniga ega bo‘lgan. U o‘z faoliyatlarini tarbiya jarayoni bilan birga olib boradi. Maktabgacha tarbiya muassasa bilan ota-onalar jamoatchilikning hamkorlikda olib borishi kerak bo‘lgan o‘zimizning milliy tarbiya tizimimizni yaratishni Respublikamiz oliygohlarida ishlab turuvchi yuzlab yetuk pedagog, psixolog olimlar, minglab o‘z ishining ustasi bo‘lmish ilg‘or tarbiyachilar ota-onalar va boshqalarning fikrlarini o‘rgangan holdagini amalga oshirishimiz mumkin. Ota-onalar va tarbiyachilar qanchalik ma’naviy jihatdan boy va chuqr

bilimga ega bo‘lsalar, ular o‘z farzandlari va tarbiyalanuvchilariga nisbatan shu qadar jiddiy va mas’uliyatli munosabatda bo‘ladilar. O‘zlaridagi mavjud bilim va ko‘nikmalarini, ma’naviy-axloqiy fazilatlarni farzandlari va tarbiyalanuvchilari timsolida ko‘rishni har qanday ota-onva tarbiyachi orzu qiladi. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari beqiyosdir. Bolaning tabiiy alomatlari va nasl-nasabi qanchalik ahamiyatga ega bo‘lmisin, tarbiya hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Chaqaloq hayotining dastlabki yillarida o‘rab olgan dunyoni anglab yetishni oila doirasida o‘rgana boshlaydi. Ana shu muhit shaxs mohiyatini va bundan keyingi rivojlanishini belgilab beradi. Xuddi shu davrda ota-onaning bolaga nisbatan mehr muhabbatining tarbiyaviy ahamiyati kattadir. Chunki bu davrda bolaning rivojlanishi asosan hissiyotlar ta’sirida bo‘ladi. Shuning uchun oilada bolani tug‘ilishidan so‘ng ota-onaning kichkina mavjudot mas’uliyati kattadir. Zotan, murg‘akkina go‘dakni to‘la ma’nodagi shaxs bo‘lishi uchun bu juda zarur. Shunday ekan, ota-onna mehri-muhabbatisiz shaxsni to‘laqonli har tomonlama rivojlantirish mumkin emas. Bola tarbiyasi ijodiy jarayon. Bolalar bilan birgalikdagi hayot – bu haqiqiy san’at bo‘lib, doimo uni takomillashtirib borilsa, har qanday san’at kabi ota-onaga va tarbiyachiga quvonch baxsh etadi. Shuningdek, bolalar bilan birga bo‘lish, faqatgina quvonch emas, ma’naviy kamolotning, axloqiy takomilning manbayi hamdir. Ijtimoiy tarbiyaning roli va imkoniyatlari qanchalik o‘sib borishidan qat’i nazar, oilaviy tarbiya zarur va uni boshqasi bilan almashtirib bo‘lmaydi.

Bolalik bu insonning hissiyoti, ko‘nikmasi, xulq-atvori, didlarining shakllanishi davridir. Xuddi shu davrda uning individual xususiyatlari, xarakter belgilari, axloqiy-irodaviy tomonlari paydo bo‘la boshlaydi. Tilga ega bo‘lib, nutqi paydo bo‘lishi bilan bola kishilik tajribasini o‘zlashtira boshlaydi. Ayni vaqtida oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiya bilan birikib ketgan bo‘lib, ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Bunga qator dalillar keltirish mumkin. Mana shulardan biri alohida olingen shaxs bilan uzoq va yaqin qarindosh-urug‘lar o‘rtasida turli aloqalar mavjud ekan, oilaviy munosabatlar ijtimoiy xarakterga ega bo‘laveradi. Zotan, uyimizda sodir bo‘layotgan barcha voqe va hodisalar mutlaqo o‘zimizning irodamiz va xohishimiz bilan sodir bo‘layotgandek tuyuladi, xolos. Vaholanki, har birimizning dunyoqarashimizga, didimizga, odobimiz va qiziqishimizga jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan axloqiy qoidalar, nihoyat, turli talablar ham doimo ta’sir, turli talablar ham doimo ta’sir ko‘rsatadi, aksincha, ijtimoiy qarashlarga ega ayrim toifadagi oilalardagi qoidalar, rasm-rusumlar ham ta’sir qiladi.

Har qanday oilaning kelib chiqish jarayonini o‘rganish uni jamiyat bilan va undagi o‘zgarish bilan birga borishini, ayniqsa, oilaning ijtimoiy funksiyasidagi o‘zgarish bilan bog‘liqligini tasdiqlaydi. Bu holat oila muammosini o‘rganishda muhim ahamiyat ega bo‘lib, bu narsa hozirgi zamon sharoitida oilaviy siyosatning samaraliroq yo‘nalishni belgilashga yordam beradi.

“Har bir inson, deb yozadi Forobiy, – o‘z tabiatini bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi, u bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga kiritma olmaydi, ularga ega bo‘lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi. Shu sababli yashash uchun zarur bo‘lgan, kishilarni bir-birlariga yetkazib beruvchi va ularga yordamlashuvchi ko‘p kishilarning birlashuvni orqaligina odam o‘z tabiatini bo‘yicha intilgan yetuklikka erishivi mumkin”. Xuddi mana shu ma’noda farzandning kamol topa borishi faqat o‘z ota-onasiniki bo‘lib qolmasdan, balki butun inson zotiga taalluqlidir.

Ayni vaqtida, bola tarbiyasi umuminsoniy ahamiyat kasb etib, umumbashariy qadriyatga aylanadi. Ana shuni anglab yetgan ota-onva tarbiyachilar bolalari tarbiyasidagi mas’uliyatni chuqr his qila oladilar. Ota-onalar va tarbiyachilar bolada dunyoni insonga xos (fuqarolarcha) ko‘rishni tarbiyalab bormog‘i lozim. Ular dunyoni fuqarolarcha, vatanparvarlarcha ko‘rishni kishilar mehnati bilan, shuningdek, ko‘tarinki g‘oyalar, bu o‘rinda milliy istiqlol g‘oyalari bilan qo‘sila borishini o‘ylab ko‘rmog‘i lozim. Bola tarbiyasida nima asosiy, yetakchi, hal qiluvchi ekanini ko‘rish juda muhim. Bolaning miyasiga go‘dakligidanoq o‘zgalar manfaatini o‘z manfaatidan ustun qo‘yish, jamiyat manfaatini, fuqaroviylar manfaat shaxsiy manfaatidan ustuvor ekanligini uning ongiga singdirib borish ayni muddao bo‘ladi.

Bola tarbiyasi masalasi Abu Bakr Muhammad ibn Al-Abbos Al-Xorazmiy qarashlarida ham mavjul. Uning aytishicha, “Ota-onalar ikki xil: tug‘ilish otasi va ta’lim berish otasi: birinchisi, jismoniy hayot sababli, ikkinchisi ruhiy hayot sababli”. Shunga ko‘ra, ularni uzviy birlikda olib qarash tarbiya ishida muhim ahamiyatga molikdir. Uning quyidagi so‘zları ibratlidir: “Zamondan yaxshiroq ta’lim (beruvchi) muallimni, insondan yaxshiroq ta’lim oladigan o‘quvchini ko‘rmadim”. Uning bu so‘zlaridan, bir tomonidan, ijtimoiy muhitni bola tarbiyasi uchun hal qiluvchi ta’sirini anglasak, ikkinchi tomonidan, inson shaxsi ta’lim-tarbiya natijasida kamolotga erishib borishi mumkinligini sezamiz. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarni

tarbiyalash sifati uchun xalq va jamiyat oldidagi o‘z mas’uliyatini anglashga, ta’lim-tarbiya vazifalarini hal etishga ijodiy yondashishga, o‘z mahoratini doimo takomillashtirib borish va ishdagi o‘rtoqlarining o‘sishiga ko‘maklashishda yordam beradi. Tarbiyachi o‘zi yashab turgan o‘lka hayotini bilishi, tabiat va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarini tushunishi, ijtimoiy faol bo‘lishi, umumiy va maktabgacha tarbiya pedagogikasini, bolalar ruhiyati va fiziologiyasini egallashi kerak. Uning pedagogik hodisalarini tahlil qilishga ilmiy nuqtayi nazardan yondashuvi bolani har tomonlama rivojlantirishni muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradi.

Tarbiyachining o‘ziga talabchanligi, o‘zining har bir xatti-harakatini nazorat qilib bora olishi davlatimiz maktabgacha tarbiya muassasalari oldiga qo‘ygan talablarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning garovidir. Bunga quyidagilar kiradi.

- bolaning sog‘ligini saqlash va mustahkamlash;
- aqliy qobiliyatlarini o‘stirish;
- jamiyatimizning, milliy madaniyatimizning g‘oyaviy-axloqiy prinsiplariga mos keluvchi e’tiqod va qarashlarini tarkib toptirish;
- ona-vatanga muhabbatni, ijtimoiy faollikni shakllantirish, mas’uliyat, o‘rtoqlik, do‘stlik hissini, halollik, mehnatsevarlikni tarbiyalash.

Albatta, yuqorida keltirilgan sifatlarni tarkib toptirish o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash vazifasining hamma tomonlarini qamrab ololmaydi, ammo tarbiyachi shularga asoslanib bolalarni kelajakdagi mustaqil hayotga, mehnatga tayyorlash ishini ma’lum maqsad bilan samaraliroq amalga oshirishi mumkin.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *M.Inomova. Oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish.* – T.: Fan, 1995.
2. *M.Inomova. Oilada bolalarni ma’navi-axloqiy tarbiyalash.* – T., 1999.
3. *R.Mavlonova ba boshq. Pedagogika* – T., 2001.
4. *B.Ziyamuxamedov va boshq. Pedagogika* . – T., 2000.
5. *Abu Nasr Farobi. Fozil odamlar shahri.* – T., 1993. 222
6. *Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.* – T., 1992.

Кубатов Шахобжон,
докторант Национального
университета Узбекистана

ВОПРОСЫ ПРОГРЕССИВНОГО ИСЛАМСКОГО ФЕМИНИЗМА: ДИАЛОГ ЗАПАДНЫХ И ВОСТОЧНЫХ КУЛЬТУР

Аннотация. В статье представлен подробный анализ взаимосвязи между исламским феминизмом и гендерным равенством, расстуцей роли женщин в семейной и общественной жизни в результате глобализации исламских идей в развивающихся странах и интеграции мужских и женских ролей в семье. В то же время в статье сравниваются взгляды консервативных и либеральных исламистов на исламский феминизм и гендерное равенство.

Ключевые слова: гендерное равенство, феминизм, консервативный и либеральный ислам, исламский феминизм, андротсентрическая картина мира, фаллогоцентризм.

Annotatsiya. Maqolada islam feminizmining gender tenglik bilan aloqadorligi, rivojlanayotgan dunyoda islam g‘oyalaringin globallashishi natijasida ayollarning oila va jamiyat hayotidagi mavqeining oshib borishi va oilada erkak va ayol rollarining integratsiyalashishi atroflicha tahlil qilingan. Shu bilan birga, maqolada konservativ va liberal islam tarafdarlarining islam feminizmi va gender tenglik haqidagi qarashlari o‘zaro taqqoslangan.

Kalit so‘zlar: gender tenglik, feminism, konservativ va liberal islam, islam feminizmi, androtsentrik dunyoqarash, fallogotsentrism.

Annotation. The article provides a detailed analysis of the relationship between Islamic feminism and gender equality, the growing role of women in family and public life because of the globalization of Islamic ideas in developing countries and the integration of male and female roles in the family. At the same time, the article compares the views of conservative and liberal Islamists on Islamic feminism and gender equality.

Key words: gender equality, feminism, conservative and liberal Islam, Islamic feminism, androcentric worldview, phallogocentrism.

С момента распространения гендерных исследований, центральное место в которых занимает проблема социального неравенства мужчин и женщин, появляются новые перспективы, и появляется возможность определения «методологии для анализа гендерной модели религиозных феноменов» [4] и более глубинного изучения проблемы феминизма и религии. Данная тема в последние десятилетия стала популярной среди зарубежных исследователей, которые анализируют взаимосвязь, взаимодействие, взаимовлияние феминизма и религии. Этапы становления феминизма и особенности его отношения с господствующими в обществе религиозными взглядами могут существенно различаться, что находит свое отражение в литературе, освещающей эти проблемы. Немало работ посвящено теме исламского феминизма, иудейского, а также христианского. Хорошо известно, что религия — это общественный идентификатор, но в тоже время — частная и приватная сфера. Учитывая эту специфику, авторы задавались вопросом, как соединить два мощных потока, течения, влияющих на общественную жизнь — феминизм и религия [3]. Для более подробного анализа феминизма и религии, и религиозного феминизма и их влияния на современную западную культуру, нам необходимо проследить три этапа развития феминизма, как сложившегося и объективно существующего явления, имеющего глубокие исторические корни.

Тема феминизма (феминизм — от латинского слова — *femina* — женщина) являлась актуальной на протяжении многих десятилетий, и не теряет своей актуальности по сей день. Традиционно принято считать, что происхождение термина «феминизм» связано с именем Шарля Фурье, и появился он в конце XVIII века. Фурье называл феминистами тех, кто был сторонником женского равноправия. К настоящему времени понятие феминизма объединяет разные явления социальной жизни и поэтому ему трудно дать четкое определение. Например, Г. А. Брандт характеризует феминизм следующим образом: «... феминизм взялся доказать, что пол не сводится только к первичным и вторичным признакам, он пронизывает все сферы социальной и культурной жизни человека» [8]. Считается, что существует более трехсот значений данного термина [9]. А российская исследовательница Н.Л.Пушкарёва выделяет пять дефиниций феминизма: 1) Социально-политическая теория (анализ положения мужчин и женщин в «историческом прошлом и настоящем»); 2) Социальное движение за равные права и возможности женщин; 3) Оппозиция женоненавистническим теориям и действиям; 4) Философская концепция социокультурного развития, отображающая невнимательность к значению опыта женщин в понимании мира и общества; 5) Методология исследований, которая является совокупностью исследовательских практик, озвучивающих взгляд на мир и систему ценностей присущих женщинам [10]. Мнений по поводу происхождения такого явления как феминизм, и о том, где следует искать его корни довольно много. Одно из общепринятых сводится к тому, что родиной феминизма следует считать США, где во время войны за независимость (1775 - 1783), впервые были выдвинуты требования равноправия женщин. Первой феминисткой Америки она называет Абигейл С. Адамс, цитируя её знаменитую фразу: «Мы не станем подчиняться законам, в принятии которых мы не участвовали и власти, которая не представляет наших интересов» [1].

Еще один важный для становления феминизма аспект — женщина и власть. Эту немаловажную тему, также поднимает Джоанн Келли. Она подчеркивает, что все последователи феминизма так или иначе обращались к власти, в поисках сильных и властных женщин, которые могли постоять за себя. Именно это помогло бы, по мнению Келли, доказать самостоятельность женщин, способность к управлению, и к образованию. Джоан Келли вспоминает таких женщин как Жанна Д'Арк, «...Боадицею, королеву бretонцев, учившую римлян, «что женщина может покорить их - тех, которые покорили почти весь мир...» [5].

В последней четверти XX века феминизм становится методологией и характеризуется критикой научной рациональности и объективности, и считает их «обслуживающими мужскую науку» [9].

Считается, что именно в этот период происходит перемещение центра активности женщин из США и Европы в страны второго и третьего мира – в Африку, Латинскую Америку, Азию, мусульманский мир. Кроме того, очевидно, что феминизм к этому времени становится более разнообразным, так как женщины все больше осознают свое право на проявление индивидуальности. Появление третьей волны многие исследователи связывают с глобализацией, ростом значимости СМИ в общественной жизни, новыми технологиями сверхскоростной связи (интернет, мобильная связь), уплотнением транспортных потоков (в том числе туризм), глобальным переселением народов (миграция, беженство) и кросс-культурным скрещиваниями. Этот период поднимает такие проблемы как «андроцентрическая картина мира» (мужской взгляд на мир), «фаллогоцентризм» (мужское средство выражения знания). Новое направление феминизма «...предлагает учитывать особенности субъекта познания определенного пола, его (ее) ценностные ориентации» [9]. При этом стоит подчеркнуть, что в таком случае, пол исследователя влияет на его мировоззрение, что оказывается на задачах и выводах самого исследования. В этот период приходит ясное осознание того, что любое угнетение, независимо от времени и места – несправедливо[2], появляются самые разные феминизмы (эко, амазон, цветной, религиозный и т.д.), в которых главной целью остается борьба за свои социальные, политические, культурные, расовые, конфессиональные и многие другие права. Таким образом, в период развития феминистского движения (преимущественно второй и третьей волн), можно проследить путь его проникновения в различные сферы жизни общества. Наиболее значительным стало воздействие феминизма на религию и связанные с ней стереотипы и нормы женского поведения. Взаимодействие феминизма и религии также привело к развитию религиозного феминизма в современной культуре.

Вопросы положения женщины в исламском обществе спорные и неоднозначные. В век современных технологий приверженцам исламского традиционализма приходится признавать, что принятие научной и рациональной перспективы приводит к изменениям в привычном для исламского общества мышлении и поведении. Многие женщины как образованные, так и не имеющие образования, способствующие национальному развитию, принимающие участие в общественной жизни, не имеют самоидентичности, и их личности не представляют какого-либо интереса в историческом процессе, они воспринимаются лишь как инструмент усиления патриархальной системы, веря, что это предписано традицией религии. Многие мусульмане отождествляют эмансипацию женщин не с модернизацией, а «вестернизацией». В основном это связано с прошлой колонизацией мусульманских народов западными странами и с современным влиянием Запада, как модели интеллектуальной и социальной трансформации. Занимаясь анализом положения женщины в исламском обществе, а также вопросами, связанными с исламским феминизмом, важно иметь в виду, что во многом статус женщины определяется не самими религиозными установками, а традициями, существующими в определённых этнических группах, что в свою очередь зависит от региона, где исповедуют ислам. В мусульманском обществе, как и в любом другом, происходит разделение на сферу для женщин – то есть дом, и деятельность в обществе – что относится к мужчинам. При этом важно помнить, что семья, брак – чрезвычайно важная часть исламской жизни. В правовых вопросах, как и в целом в любых вопросах, касающихся положения женщины в исламе, важно понимать о каком исламском учении идёт речь (консервативный, либеральный, реформаторский) [6]. Одна из наиболее распространенных точек зрения, что согласно Корану, женщины подвластны мужчинам в соответствии с исламскими законами. Именно с этой позиции многими исследователями интерпретируется Коран [6]. Одна из высказываемых точек зрения при трактовке Корана, что женщина должна целиком и полностью подчиняться мужу, самостоятельно она практически ничего не может сделать. Действительно можно говорить о том, что идеальная мусульманская семья предполагает покорность женщины мужу, но важно при этом целостно воспринимать все аяты Корана, относящиеся к вопросам прав женщин, и интерпретировать их следует в соответствующем социальном и историческом контексте [6].

В шариате уделяется внимание и имущественным отношениям, и вопросам наследства, и, в общем-то, в шариате содержаться нормы, которые максимально отслеживают, стабилизируют и регулируют различные стороны как общественной, так и личной, и семейной жизни. Некоторые исследователи утверждают, что даже если у женщины есть работа, и она поднимается по карьерной лестнице – она все равно будет отвечать за домашнее хозяйство [12]. Во многом становясь «заложницей» религиозных традиций, и в поисках поддержки и поиска справедливости женщина приходит к той

же самой религии – «Круг замкнулся – женщина, бесправное положение которой было освящено религией, стала самой верной носительницей религиозных верований, способствовала сохранению религии, ибо ей принадлежала главная роль в воспитании подрастающего поколения» [11].

Что касается вопросов, связанных с браком, здесь также нельзя забывать о том, что эти правила индивидуальны в зависимости от традиций, существующих в той или иной этнической группе. Для женщины главное домашний быт, она может работать вне дома, но значимость этой работы невелика в большинстве случаев. Интересна следующая особенность – постепенно переходя из статуса невестки, в статус матери, а затем бабушки– свекрови, с каждым «этапом» женщина приобретает больше власти над младшим поколением, а также пользуется всё большим уважением [12]. То есть, если женщина вела себя правильно в течение своей жизни, впоследствии она может рассчитывать на уважение со стороны детей и сообщества. Обратим внимание на еще один интересный факт – «в проведении всех мусульманских и традиционных праздников главенствующая роль в семье принадлежит старшей женщине в семье», но, несмотря на это, многими исследователями брак в мусульманском обществе воспринимается лишь как сделка [7].

Подобные анализы позволяют нам убедиться, что восприятие положения женщины в исламском мире зависит от господствующих традиций и региона, что в свою очередь оказывает влияние и на такое сложное и двойственное явление как исламский феминизм. Поскольку мусульманская культура с каждым годом все больше распространяется и ассимилируется в странах Запада, что приводит к активному взаимовлиянию этих двух культур, каждая из которых принимает те или иные особенности другой. Обратим внимание на то, что, несмотря на общие точки соприкосновения, все же принципы и ценности феминизма и ислама противоречат друг другу. В частности, по мнению феминисток – патриархат — значит притеснение женщин, тогда как ислам не поддерживает такую точку зрения. В современном мире многие исламские феминистки выступают за то, чтобы ислам не стоит выделять как традицию насилия и патриархата, больше, чем другие религии. Они стремятся бороться за свои права в рамках существующей традиции, отмечая роль женщины внутри своей религиозной общинны, при этом объединяя «...религиозные, гендерные, политические, личностные элементы идентичности, чтобы иметь возможность устанавливать коалиции, порой противоречащие одна другой в своем противостоянии глобализации, местному национализму, исламизму и патриархальной системе» [13]. При сравнении отношения феминизма и ислама к системе брака, подчеркивается следующее: «В то время как феминизм отрицает любого рода взаимное дополнение полов, ислам делает на этом упор через акценты на различной социальной роли мужчин и женщин. Феминизм критично относится к институту брака, поскольку он приводит к субординации женщин, в то время как ислам строго рекомендует вступление в брак, как мужчинам, так и женщинам, и институт брака в исламе является таким, что мужья и жены четко разделяют в нем свою ответственность и обязанности. Руководящая роль мужчины принимается в исламе как нечто само собой разумеющееся, в то время как феминистки считают ее тиранией» [10]. Основываясь на доступной полигамии в исламе, феминистки считают это притеснением женских прав, и призывают бороться с подобного рода дискриминацией.

Феминизм и поддержка женщины в исламе, способствует демократизации, и, что занято, секуляризации мусульманского мира. Некоторые более радикальные феминистки склонны отрицать положительную деятельность и вклад исламского феминизма в решение общих задач движения, не желают поддерживать отношения с исламскими феминистками, так как считают, что ислам априори не совместим с идеями феминизма. Причиной такого отношения является изначально неправильное понимание ислама, и недооценка стремления женщин к открытости, в условиях мусульманского мира. Исламские феминистки, в свою очередь, зачастую исключают взаимодействие с не принадлежащими им вере (неверующими). Задача светских феминисток – научиться различать среди мусульманок тех, кто действительно продвигает и защищает женские права, и, следовательно, открыты в своей политике, и тех, кто фанатично исповедует тоталитарный исламизм.

Помимо того, что на восприятие положения женщины в исламском обществе влияют традиция, устои общества и части света, о которых идёт речь, немаловажным является и справедливое замечание о противостоянии ислама и запада и об их влиянии друг на друга: «В результате получается замкнутый круг – исламский иной начинает и в самом деле вести себя отчасти так, как описывает западный исламофоб, становится интолерантным и использует то же оружие против самого запада, обвиняя

его огульно в жадности, имморализме и жестокости» [13]. И в таком случае, мы все равно говорим о взаимовлиянии одной культуры на другую. Таким образом, исламский феминизм активно развивается не только в восточных странах, но и в западных, где он (исламский феминизм) взаимодействует с господствующими традициями современной западной культуры. Исламские феминистки пытаются воссоединить в себе нормы и ценности ислама (культурные и религиозные) и транснациональное самопозиционирование. В связи с мировой политической ситуацией тема ислама в современном мире все больше интересуют исследователей, занимающихся вопросами исламского феминизма и не только.

Список использованной литературы:

1. Adams A. and Adams J. *Discuss Women and Republican Government 1776 (letters)* // URL: <http://www.historytools.org/sources/Abigail-John-Letters.pdf> (дата обращения: 31.10.15).
2. Gamble S. *Feminism and Postfeminism*. L&NY, 2006. P.43
3. Jule A., Pedersen B. T. *Being Feminist, Being Christian*. – NY, 2006. 213 p.
4. King U. *General introduction: gender-critical turns in the study of religion* // King U. Beattie T. *Gender, religion and diversity. Cross-cultural perspectives*. L&NY, 2005. P.1.
5. Kelly J. *Early Feminist Theory and the Querelle des Femmes* // Kelly J. *Women, History, and Theory*. – Chicago, 1984. P. 65-110.
7. Shan N.A. *Women, the Koran and international human rights law*. –Netherlands, 2006. P. 2-45.
8. Блинова Е.П. *Религия и женщина*. – М., 1976. 63 с.
9. Брандт Г.А. *Современный феминизм: переворот в историко-философской антропологической традиции Западной Европы* // Адам и Ева. Альманах гендерной истории. 2003. № 6. – С.148-198.
10. Пушкирева Н.Л. *Гендерная теория и историческое знание*. – СПб., 2007. –С.404-419.
11. Современные вопросы исламской мысли // URL:
12. http://www.alhassanain.com/russian/book/book/philosophy_and_gratitude_library/books/sovremennye_voprosi_islamskoy_misli/013.html (Дата обращения: 01.09.2015).
13. Стецкевич Т.А. *Ислам и женщина (историографический очерк)* // Проблемы изучения и критики религий востока. Сборник трудов. – Л., 1979. – С. 81.
14. Темкина А. *Гендерный порядок: постсоветские трансформации (Северный Таджикистан)* // Гендер: Традиции и Современность сборник статей по гендерным исследованиям / Под редакцией С. Р. Касымовой. Душанбе, 2005. – С. 15-16.
15. Тлостанова М. *Деколониальные гендерные эпистемологии*. – М., 2009. – С.121.

Axmadaliyev Berdiali Saydaliyevich,
TVChDPI Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim
fakulteti yoshlari bo‘yicha dekan o‘rnibosari

O‘QUVCHILARNI INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TARBIYALASHNING MAZMUNI VA TARKIBIY QISMLARI KO‘RINISHLARI

Annotatsiya. Maqolada milliy, ya’ni o‘zbek oilalarida shu kunga qadar amal qilib kelingan va hozirda ham qo‘llanilayotgan an’naviy tarbiyaning mazmuni, shu bilan birga, hozirgi mustaqillik davri sharoitida davlat va jamiyatda mакtab tarbiyasiga qo‘yilgan talablar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: barkamol avlod, ta’lim-tarbiya, fan, texnologiya.

Аннотация. В статье обсуждается содержание традиционного образования, которое практиковалось в национальных, то есть узбекских семьях, и используется до сих пор, а также требования к школьному образованию государства и общества в период независимости.

Ключевые слова: гармонично развитое поколение, образование, наука, технологии.

Annotation. The article discusses the content of traditional education, which was practiced in national, that is, Uzbek families, and is still used, as well as the requirements for school education of the state and society in the period of independence.

Key words: harmoniously developed generation, education, science, technology.

Insonni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash xalqimizning azaliy orzusi bo‘lib ajdodlarimiz ma’rifat, manaviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o‘rgatish, ularni komillikka yetaklash yo‘llari qonun-qoidalalarini muttasil izlaganlar. Bu esa talim-tarbiyaning bugungi samarali ko‘rinishlarini yaratib borgan.

Malumki, mamlakatimiz taraqqiyoti va kelajagi talim-tarbiya sohasidagi sifat o‘zgarishlari qilib yuqori samaradorlikka erishishga ularning jahon talim talablari bilan mosligi va amaliy hayotdagi o‘rnini qay darajada topayotganligiga bog‘liq.

Talim tarbiyadagi sifat o‘zgarishlar va yuqori samaradorlik ko‘proq milliy pedagogikamizning tarixiy ildizlari va zamonaviy yuquqlarini talabalar ongiga singdirishni qay darajada olib borilganligiga bog‘liq bo‘lib, u barkamol avlod tarbiyasida mustahkam asos bo‘ladi.[1]

Shunday ekan, biz sog‘lom muhit asosida yosh avlodga talim bilan birga tarbiyaning turli ko‘rinishlarini berib borishimiz zarurdir. Shu sababli talim oluvchilarga milliy ruhda talim-tarbiya berish va uning uzuksizligini taminlash orqali hozirgi kunda talim tizimida to‘planib qolgan muammolarni ijobjiy hal etish bugungi kunning kechiktirib bo‘lmaydigan vazifasidir.

Talim tizimini fan-texnikaning zamonaviy rivojlanish suratlariga muvofiqlashtirish, unda milliy ruhiyatni tarkib toptirish hozirgi kunda juda murakkab, serqirra, mazmuni chuqur bo‘lgan masaladir.[2]

Yoshlarni, ayniqsa, kichik mакtab yoshidagi o‘quvchilarni an’alar asosida tabiat, jamiyat, ruhiyat, qadriyatga muhabbatini uyg‘otish va ixlosini tarbiyalash ishlarini amalga oshirmay milliy tarbiyani shakllantirib bo‘lmaydi.

Milliy ruhda tarbiyalashning turli ko‘rinishlarini oila muhitida olib boriladi. Ammo uni mustahkamlash, boyitish va shakllantirish jarayonini boshlang‘ich talim bosqichi amalga oshiradi.

Demak, biz bu jarayonda talim tizimining bosh bo‘g‘ini, ya’ni kichik mакtab yoshidagi talim bosqichiga alohida ahamiyat berishimiz o‘rinli, albatta.

Avvalambor, milliy tarbiyaning mazmuni nima, uning tarkibi qanday tuzilishga ega ekanligini aniqlab olishimiz lozim.

Milliy tarbiyaning mazmunini o‘zbek oilalarida shu kunga qadar amal qilib kelingan va hozirda ham qo‘llanilayotgan an’naviy tarbiya mazmuni, shuning bilan birga, bugungi davr, ya’ni mustaqillik sharoitida davlat va jamiyat mакtab tarbiyasiga qo‘ygan talablardan mujassamlangan fazilatlar hosil qiladi, muayyan fazilatlarning izchil turli vaziyatlarda turli vositalar yordamida singdirilib, tuzatilib, takomillashtirilib borilishi pirovard natijada davlat va jamiyat, oila, mahalla, mакtab uchun namunaviy o‘quvchi o‘g‘il-qiz axloqini hosil

qiladi. Ana shu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda milliy davlatchiligimiz xalqimiz tarixi, hoziri, istiqloli va istiqboli talablarini umumlashtirgan holda hozir o‘quvchilarimizda shakllantirilishi dolzarb ahamiyat kasb etayotgan fazilatlar tasnifini tuzib chiqdik.[3] Bu fazilatlar bugungi kun tarbiyasini rivojlantirish uchun uning mazmunini tashkil etuvchi tarkibiy qismlaridir. Ular quyidagilar:

- o‘zidan kattalarga salom berish;
- ota-onaga, yoshi ulug‘ insonlarga yor-qarindoshlarga mehrli bo‘lish;
- jamoat joylarida, yig‘inlarda o‘zini va boshqalarni hurmat qilish;
- atrofdagilarini noto‘g‘ri ishlardan qaytarish;
- sabrli, insofli bo‘lish;
- boshqa xalqlar millatlar vakillariga nisbatan to‘g‘ri munosabatda bo‘lish;
- o‘zga millat vakillarining dini, urf-odatlari, madaniyatiga hurmat bilan qarash;
- o‘tmish ota-bobolari haqida malumotlarga ega bo‘lish;
- har bir ishni o‘z vaqtida bajarish orqali o‘tayotgan vaqtning qadriga yetish;
- o‘zining tabiatga, jamiyatga bo‘lgan munosabatini yaxshi niyat, yaxshi so‘z, yaxshi amal asosiga qura olish;
- umummilly birdamlik uchun harakat qilish;
- yaqinlari, yani do‘satlari, qarindosh-urug‘lari betob bo‘lganda borib holidan xabar olish;
- atrofidagi insonlarning munosabatlaridagi kelishmovchiliklarni yaxshilashga urinish;
- shijoatli bo‘lish;
- birovning shodligidan shodlanish, qayg‘usiga hamdard bo‘lish;
- o‘zidan kichiklarni izzat qilish;
- o‘zi tanigan yoki tanimagan insonlarini g‘iybat qilmaslik;
- salbiy xarakterga ega insonlar bilan do‘s tutinmaslik;
- yaxshi insonlarga havas qilish va ularning ishlariga taqlid qilish;
- kamtarin bo‘lish orqali o‘zgalar oldida kekkaymaslik;
- birov larning oldida kulmaslik;
- kambag‘al bolalarni kamsitmaslik;
- o‘g‘il bola bo‘lib qizbolalarning, qizbola bo‘lib o‘g‘il bolalarning kiyimini kiymaslik ularga taqlid qilmaslik;
- milliy an’analarga, urf-odatlarga, madaniyatga hurmat bilan qarash;
- milliy odob-axloq qoidalariga bo‘ysunish;
- Vatan manfaatlarini shaxsiy manfaatlaridan ustun qo‘ya olish;
- ona tilini, dinini qadrlay bilish;
- ijtimoiy hayotdagi moddiy resurslardan oqilona foydalanish;
- atrofdagilariga nisbatan xushmuomala, shirin so‘zli bo‘lish;
- o‘tmish ajdodlarining nomini faxr bilan tilga olish;
- bir ishni boshlashdan oldin o‘zidan kattalar, ota-onasi, ustozlari bilan maslahatlashish;
- o‘z Vatanining milliy istiqlol g‘oyalarini, mafkuralarini har bir ishida ko‘rsata bilish;
- savdo-sotiq munosabatlarida halol, chaqqon, vijdonli bo‘lish;
- o‘tmishning ma’naviy-ma’rifiy yodgorliklarini asrash va uni hurmat qilish;
- ilmga mudom chanqoqlik hissini tuyish;
- o‘zining mustaqil fikriga, tafakkuriga etiqodiga ega bo‘lish va ushbu xislatlarning barchasini kelajak avlodga ham yetkazib borish bizning burchimizdir.

Milliy ruhda tarbiyalashning mazmunini ko‘rib chiqar ekanmiz uning tarkibini tashkil etuvchilarining ayrim ko‘rinishlarini keltirib o‘tdik.

Milliy tarbiyamizning mazmunini tashkil etuvchi ma’naviy fazilatlarni o‘quvchi yoshlar ongiga singdirish kichik maktab yoshida izchil ravishda amalga oshirilsa, samarasini yuqori bo‘ladi.

Bunda, asosan, milliy tarbiyamizning tarkibidagi ma’lum fazilatlardan birini qarab o‘tamiz. Masalan, o‘zbek xalqining boshqa millat va elat vakillariga nisbatan to‘g‘ri munosabatda bo‘lishi. Bu fazilat o‘zbek xalqining tan-u joniga singib ketgan. Qadimdan O‘rta Osiyoda turli xil millat va elat vakillari bir oila bo‘lib, jismoniy tinch-totuv hayot kechirgan va bu hamjihatlik hozirgi kunga qadar davom etib kelmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ziyod millat va elatlar istiqomat qiladi, o‘zbek xalqi ular bilan qon-

qarindoshlik, qo'shnichilik, do'stlik, o'rtoqlik, aka- ukachilik munosabatlarini o'rnatgan. Sababi shundaki, ular turkman, ingliz, qirg'iz, xoh rus, xoh qozoq millatiga mansub bo'lsin, muhimi uning inson ekanligi va qadrdon bo'lib qolganligidadir.

Birgina o'zbek xonadonini misol qilib keltiradigan bo'lsak, yon qo'shnisi betob bo'lsa, u qaysi millat vakili bo'lishidan qat'i nazar to sog'ayib ketgunga qadar undan hol-ahvol so'raydi, uning uchun taom tayyorlab, eng oldini uzatadi, uy-joyidagi yumushlariga yordamlashadi, uni boy-u kambag'al deb ajratmaydi, xullas, qo'lidan kelgan yordamini ayamaydi.

Demak, xalqimizning kundalik turmushida namoyon bo'ladigan, o'tmish ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan bu ma'naviy fazilatlarni kelajak avlodga ham yetkazish, ularning qalbiga singdirish, ong-u shuurida aks ettirish uchun ta'lim tizimida milliy tarbiyaga ham keng o'rinn berishimiz lozim. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirishimiz kerak:

Birinchidan, ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan urf-odat, an'analarimizga xos bo'lgan ma'naviy fazilatlarni yanada ko'p o'rganish va kelajak avlodga yetkazishning samarali va zamonaviy usullarini tanlash; ikkinchidan, boshlang'ich ta'lim darsliklarida (jumladan, o'qish, ona tili, odobnama, atrofimizdagi olam, musiqa va b.) keltirib o'tilgan milliy tarbiyamizga doir mavzularni kengaytirish va ularni o'quvchilarga yetkazib berishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish; uchinchidan, milliy o'zligimizni anglash, boy ma'naviy merosimizni o'rganish orqali hozirda ta'lim tizimida va tarbiya jarayonida to'planib qolayotgan muammolarni bartaraf etish.

Shuni alohida takidlash lozimki, milliy tarbiyaning mazmunini boyituvchi omillar bugundan paydo bo'lgan emas, balki bu jarayon necha asrlardan buyon oila, mahalla doirasida rivojlanib, sayqal topib kelmoqda. Biz esa milliy ruhda tarbiya berishning bugungi davr talabiga xos bo'lgan shakllarini boshlang'ich sinf o'quvchilarining ongiga singdirib borishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ж.Хасанбоев, Х.Тўрақулов, И.Алқаров, Н.Усманов. Педагогика. "Ношир" 2011. 3-бет
2. К.Хошимов ва бошқалар. Педагогика тарихи. – Т.: Ўқитувчи. 1996. 382 бет.
3. М.Қуронов. Milliy tarbia. – Т.: 2007. – 112 бет. Маънавият.



O'tanov Xurshid

Nizomiy nomidagi TDPU "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" kafedrasи o'qituvchisi

ERKIN JAMIYAT XOTIN-QIZLARI ILM-FAN YO'LIDA

Annotatsiya. Maqolada ilm-fan ravnaqi yo'lida zahmat chekkan va tegishli sohalarda dunyo miqyosida ahamiyatga ega bo'lgan ixtirolar qilgan olima ayollar, shuningdek, o'zbekistonlik ilm-fan fidoiylari to'g'risida so'z yuriitildi.

Kalit so'zlar: ilm-fan, olima ayollar, tadqiqotlar, doktor, akademika, akademik, ilmiy salohiyat.

Annotation. В статье речь идет о женщинах-ученых, в том числе узбекских деятельности науки, которые трудились на благо прогресса науки и совершили открытия в мировом масштабе.

Ключевые слова: наука, женщины-ученые, исследования, доктор, академия, академик, научный потенциал.

Annotation. The article deals with women scientists, including Uzbek scientists, who worked for the benefit of the progress of science and made discoveries on a global scale.

Key words: science, women scientists, research, doctor, academy, academician, scientific potential.

Erkinlik jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olishi darkor. Zero, usiz taraqqiyot yo'q, millat va elatlari, jinslar va e'tiqodlar o'rtaida tenglik bo'lmaydi. Ta'bir joiz bo'lsa, tabiiy muvozanat buziladi.

Insoniyat umrini ilm-fan bilan bog‘laydi. Yangi ufqlar ochish go‘yo erkaklar ishidek tuyuladi. Olimlar orasida erkaklar nufuzi salmoqli ta’sirga egaligi ham haqiqat. Ammo fan taraqqiyotida ayollar rolini e’tiborga olmaslik – adolatsizlikdan dalolat.

Dunyoning birinchi dasturchisi, ingliz matematigi, Nobel mukofotining sovrindori Ada Bayron; radiy, poloniylar kabi radioaktiv moddalar tom ma’noda hayotining mazmuniga aylangan polyak muhodjiri, ikki karra Nobel mukofotining sovrindori Mariya Sklodovskaya-Kyuri; Mariya Kyurining ishini davom ettirgan uning qizi, fizika fani bo‘yicha ulkan yutuqqa erishgan, Nobel mukofotining sovrindori Iren; ingliz biofizigi Rozalind Franklin; asli Venalik, Germaniya universitetining birinchi professor-ayoli, fizika bo‘yicha Nobel mukofotining sovrindori Liz Meytner, shuningdek, Reychel Karson, Barbara Mak-Klinton, Elizabeth Blekvell, Jeyn Gudoll, Gipatiya Aleksandriyskaya, Mariya Mitchell kabi o‘nlab o‘zlarining ilmiy salohiyati bilan dunyomi larzaga solgan olima-ayollar allaqachon jahon tamadduni namoyondalari sifatida e’tirof etilgan va ularning nomi tarixga muhrlangan.

O‘zbekistonda tashabbuskor, uddaburon, mas’uliyatli va yurtimizda hayotga tatbiq etilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda faol ishtirok etayotgan xotin-qizlar salmog‘i yildan yilga ortib bormoqda. Bu harakatning ildizi uzoq yillarga borib taqaladi.

So‘nggi 60-70 yil mobaynida O‘zbekistonda ilm-fan sohasida o‘ziga xos burilish yasagan, ilmiytadqiqot ishlari bilan xalqaro miqyosda e’tirof etilgan ko‘plab respublikamiz ayollarini fan cho‘qqilarini zabt etganliklariga tarix guvohlik beradi. Masalan, 1945-yilda fan nomzodi, 1950-yilda fan doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya himoya qilgan, yuridik fanlari doktori, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi Xadicha Sulaymonova o‘zbek xalqining yetakchi olima-ayollaridandir.

1954-yilda X.Sulaymonova Toshkent davlat yuridik instituti direktori, 1956-yilda Adliya vaziri, 1964-yilda respublika Oliy Sudi raisi lavozimlariga tayinlanib, umrining so‘ngiga qadar huquq-tartibot sohasida rahbarlik faoliyatini olib borgan fan arboblaridan sanaladi.

Yuksak ilmiy salohiyat va serqirra iqtidor egasi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi X.Sulaymonova huquqshunoslik fani taraqqiyoti uchun tinimsiz izlanish olib borgan, jinoyat huquqi va O‘zbekiston sud qurilishi tizimida o‘ziga xos maktabga asos solgan olima sifatida 80 dan oshiq ilmiy ishlar muallifi hamdir.

Akademik Xadicha Sulaymonova 1956-yilda Amsterdamda bo‘lib o‘tgan sotsiologlarning III Xalqaro kongressi, 1960-yilda Londonda bo‘lib o‘tgan BMT II kongressi, 1960-yilda Sofiyada bo‘lib o‘tgan yurist-demokratlar Xalqaro assotsiatsiyasi YII kongressi, 1961-yilda Qohira va Tokioda, 1962-yilda Pragada, 1964-yilda Seylonda bo‘lib o‘tgan kongresslar ishtirokchisi hamdir.

Akademik S.A.Azimjonova ilmiy maktabi O‘zbekiston sharqshunoslik fanida alohida o‘rin egallaydi. 1968-yilda doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan yirik olima davlatimizning ko‘plab mukofotlari bilan taqdirlangan.

Arxeologiya faniga katta hissa qo‘shtan O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi G.A.Pugachenkova tarix fani rivojiga beqiyos mehnati singgan, 1963-yilda 38 yoshida doktorlik ishini muvaffaqiyatli himoya qilgan, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, professor R.H.Aminova; filologiya fanlari doktori M.A.Asqarova; 1995-yilda Fransiyaning “Akademik Palmo” ordeni bilan mukofotlangan, filologiya fanlari doktori F.K.Sulaymonova; O‘zbekiston Respublikasi FA Tarix instituti bo‘lim boshlig‘i, tariximizga oid qator fundamental asarlar muallifi, tarix fanlari doktori, professor Dilorom Alimova; tarix fanlari doktori, professor Rahbarxon Murtazayeva kabi o‘nlab olimalarimiz ro‘yxatini yana davom ettirish mumkin. Ularning sa’y-harakatlari tufayli O‘zbekiston xotin-qizlari orasida olima va shoiralalar, davlat va jamiyat boshqaruvi faollari safi kengaydi, ilmiy-pedagog kadrlar tarkibi boyidi.

Hozirgi kunda respublikamiz filolog-olimlarining 70,8 foizi, psixologlarning – 81 foizi, pedagoglarning – 60,7 foizini ayollar tashkil etadi. Shuningdek, filosofiya, politologiya kabi ijtimoiy-gumanitar fan sohalari vakillarining teng yarmi olima ayollarimizdir.

1400 dan ortiq xotin-qizlar davlat va jamiyat boshqaruvi tizimida rahbar lavozimlarda faoliyat olib bormoqdalar. Fan, ta’lim va tarbiya hamda san’at sohalarida mehnat qilayotgan mutaxassislarning 72 foizini aynan xotin-qizlar tashkil etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘zining 2018-yil 8-martdagি Xalqaro xotin-qizlar bayrami tabrigida: “Hozirgi vaqtida mamlakatimizda turli soha va tarmoqlarda mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilarining 45 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Jumladan, davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1

ming 400 ga yaqin opa-singillarimiz rahbarlik lavozimlarida mehnat qilmoqda. Ulardan 17 nafari senator, 16 nafari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati bo‘lib, 1 ming 75 nafari esa xalq deputatlari mahalliy kengashlari tarkibida faoliyat yuritmoqda.

O‘nlab opa-singillarimiz “O‘zbekiston Qahramoni”, “O‘zbekiston fan arbobi”, “O‘zbekiston xalq o‘qituvchisi”, “O‘zbekiston xalq shoiri”, “O‘zbekiston xalq artisti” singari davlatimizning yuksak faxriy unvonlariga, orden va medallariga sazovor bo‘lgan. Ularning orasida 500 nafardan ziyod fan doktorlari va akademiklar, minglab fan nomzodlari o‘z bilimi va iste’dodi bilan Vatanimiz ravnaqiga astoydil xizmat qilib kelmoqda”, – degan so‘zlarni alohida iftixor bilan aytgan edi (“Yangi O‘zbekiston” gazetasi. 2020-yil, 25-yanvar. № 1).

Mustaqillik yillarda 2180 nafardan ortiq xotin-qizlarimiz yuksak davlat mukofotlariga sazovor bo‘lgan. Ularning orasida o‘nlab O‘zbekiston Qahramonlari, fan arboblari, xalq o‘qituvchilari, xalq shoirlari, xalq artistlari bor.

Bugungi kunda xotin-qizlar orasida 6 nafar akademik, 514 nafar fan doktori bor. 255 nafar iqtidorli qizlarimiz Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovriniga munosib deb topilgan. 15 nafar vatandosh-ayollarimiz davlatimizning oliy mukofoti – O‘zbekiston Qahramoni unvoniga musharraf bo‘lishgan.

Yurtimizdagagi oliy ta’lim maskanlarida bugun 373 ming 500 ga yaqin yoshlar ta’lim olmoqda. Ulardan 168 ming 470 nafarini, ya’ni 45,1 foizini qizlar tashkil etishi alohida e’tiborga loyiq.

Joriy yilda madaniy-gumanitar sohalarni rivojlantirish bo‘yicha qilingan ishlar haqida gapirganda, avvalo, madaniyat, adabiyot va san’at, ommaviy axborot vositalari sohasiga taalluqli 12 ta muhim hujjat qabul qilinganini qayd etish lozim.

O‘zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamонавијат kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo‘lishi Prezidentimiz tomonidan shart qilib qo‘yilgan.

2020-yil 24-yanvarda Prezident Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga murojaat qildi. Murojaatnomada qamrab olingan masalalar aynan shu muhimlikda qo‘yildi. Ilm-fanni yangi sifat darajasiga ko‘tarish, yoshlarni mukammal bilim, yuksak ma’naviyat va madaniyat egalari qilib tarbiyalash borasidagi ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamонавијат bosqichga ko‘tarish maqsadida 2020-yil “Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”, deb e’lon qilindi.

Respublika ta’lim tizimi, xususan, oliy ta’lim tizimida mavjud muammolarni nazarda tutgan holda Prezident quyidagi jiddiy xitob bilan Parlamentga murojaat qildi: “Biz ilm sohasida, oliy ta’lim sohasida qilgan xatolarimizni to‘g‘rilashimiz kerak”.

Murojaatnomada, shuningdek, ilm-ma’rifat, xususan, oliy ta’lim, ayniqsa, qizlar orasidan yetuk mutaxassis-kadrlar tayyorlash masalasi Prezidentimiz tomonidan birlamchi masala sifatida qo‘yildi. Bu sohada chinakamiga tub islohotlar amalga oshirilishi qat’iy qilib belgilandi. Ularni Prezidentimiz quyidagicha izohladi:

- oliy o‘quv yurtlariga talabalarni qabul qilish davlat grantlari ikki barobar ko‘payadi;
- qizlar uchun alohida grantlar ajratiladi. Xotin-qizlar qo‘mitasi ushbu grantlar asosida o‘qitishga nomzodlarni tanlash va saralash mezonlarini ishlab chiqadi.

Xalq ta’limi tizimda ham o‘ziga yarasha muammolar mavjud, ulardan ham ko‘z yumib bo‘lmaydi. Xususan, bu tizimda faoliyat ko‘rsatayotgan qariyb 60 ming tarbiyachining atigi 21 foizi oliy ma’lumotli, qolgani esa o‘rta maxsus ma’lumotga egaligi – achinarli hol. Ana shu masalani hal qilish uchun 2018-2019-o‘quv yildidan boshlab oliy o‘quv yurtlarida maktabgacha ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha kunduzgi bo‘limda bakalavrular tayyorlaydigan 3 yillik tizimni joriy etildi. Shuningdek, bu yo‘nalish bo‘yicha sirtqi va kechki ta’lim shaklida bakalavrular tayyorlash tizimi ham yo‘lga qo‘yildi.

O‘ylaymizki, o‘ziga xos inqilobiy o‘zgarishlarni boshidan kechirayotgan ta’lim tizimi, unda salmoqli o‘rin tutgan xotin-qizlar masalasi jamiyatimiz taraqqiyotida bundan keyin ham ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda hukm surayotgan tinchlik, osoyishtalik, jamiyatimizda qaror topgan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik, oilasi va yaqinlarining xotirjam hayot kechirayotgani, tanlangan sohasida mehnat qilishi, o‘zi va farzandlari erishayotgan muvaffaqiyatlar xotin-qizlarning aksariyati uchun farovon va barqaror kelajakka ishonch bag‘ishlaydi.

Bunga ishonchimiz komil.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Шавкат Мирзиёев. Нияти улуг‘халқнинг – иши нам улуг‘, хаёти ёргуғ ‘ва келажаги фаровон бўлади. 3-том. – Тошкент, “Ўзбекистон”, 2019 йил.
2. “Янги Ўзбекистон” gazetasi. 2020-yil, 25-yanvar. № 1
3. Internet materiallari.



Beketov Nurseit Alijan o‘g‘li,
TVChDPI Boshlang‘ich ta’lim kafedrasи o‘qituvchisi

Yesirkepova Baljan Talgat qizi,
TVChDPI Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi

Ergashova Farida Amanbay qizi,
TVChDPI Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda o‘yinga asoslangan zamonaviy pedagogik texnologiyalarini qo‘llash haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: ta’lim, tarbiya, texnologiya, samara.

Аннотация. В статье рассматривается использование современных педагогических игровых технологий в развитии творческих способностей учащихся начальных классов.

Ключевые слова: образование, обучение, технология, эффективность.

Annotation. The article discusses the use of modern pedagogical game technologies in the development of creative abilities of primary school students.

Key words: education, training, technology, efficiency.

Yurtimizning istiqboli, farzandlarimizning kelajagi tom ma’noda bugungi ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligi bilan belgilanadi. Ilm-fan sohasidagi yangiliklarni ta’lim jarayoniga olib kelish va joriy etish bugungi kun o‘qituvchisining vazifasidir. Har bir o‘qituvchining izlanishi, bugungi kun talablari asosida o‘zini tarbiyalashi, o‘z ustida tinimsiz ishlashi, ilg‘or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini o‘zlashtirishi ta’lim jarayonida ta’lim samaradorligini oshiradi. Ilg‘or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalar ta’lim jarayonini ta’sirchanligini oshiradi. O‘quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishini oshiradi. Bilimlarni mustahkam o‘zlashtirish ulardan amaliyotda mustaqil foydalanish ko‘nikma va malaklarini shakllaniradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda o‘yinga asoslangan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ta’lim samarasini oshiradi. O‘yinga asoslangan texnologiyalarning ta’limdagи o‘rni, o‘yin elementlarining funksiyalarini o‘qituvchi o‘quvchilarga oldindan tushuntirib borishi kerak.

Boshlang‘ich ta’limda didaktik o‘yinlarning o‘rni beqiyos. O‘yin vositasi o‘quvchilarning bilimlarini o‘zlashtirish jarayoni qulaylashtiradi, muomala madaniyati shakllanadi, shu bilan birga, o‘yin qiziqarli, sodda, aniq bo‘lishiga, imkon boricha barcha o‘quvchilar ishtirot etishga, faol qatnashgan o‘quvchilarni rag‘batlanirishga alohida e’tibor berish lozim.

Quyidagi didaktik o‘yinlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’lim jarayoniga qiziqishini yanada oshiradi: “Tezkor savol, javob”, “So‘z top”, “Kim chaqqon?”, “Sana”, “Kim tez topadi?”, “Maqollar chashmasi”, “Aylanma misollar”, “Zanjir”, “Baliq tutish”, “Ortiqcha so‘zni top”, “Qaldirg‘och” kabilar

shular jumlasidandir. O‘quvchilar sayohatga borganda “Baliq tutish” o‘yinini o‘ynashi mumkin. Bunda baliqning ikkinchi tomoniga turli topshiriqlar bo‘ladi. O‘quvchilar tutgan baliqdagi topshiriqlarga javob topadilar. Bu o‘yinni boshlang‘ich sinflarda matematika, ona tili, o‘qish, tabiat, odobnoma darslarida qo‘llash mumkin. O‘yin maqsadi o‘quvchilarning bilim olishga qiziqishini oshiradi. O‘tilgan mavzular bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlab borishga imkon yaratadi. To‘g‘ri va tez o‘qishga, chaqqon javob berishga o‘rgatadi. Masalan, ona tili darslarida So‘z turkumlari mavzusi yuzasidan savollar yoziladi: “Ot so‘z turkumiga oid 5 ta so‘z toping?” O‘quvchilar ona, o‘quvchi, kitob, daftар, gul, bulbul kabi so‘zlarni topadilar.

“Kim chaqqon?” o‘yini mashqi orqali o‘quvchilar berilgan topshiriqlarga va savollarga chaqqonlik bilan javob berishga harakat qiladi, darsga bo‘lgan qiziqishi ortadi. Bu o‘yinda sinf o‘quvchilari guruhlarga bo‘linadi. Kerakli topshiriqlar A-3 qog‘ozga yozib qo‘yiladi, har bir guruhga tarqatiladi. Topshiriqnini bajarish shartlari tushuntiriladi va reglament belgilanadi. Guruhlar bir vaqtida ishga tushadilar, belgilangan vaqt tugagach taqdimot o‘tkaziladi. Vaqtida to‘g‘ri bajargan guruh g‘olib bo‘ladi.

“Qaldirk‘och” o‘yin mashqi. Qaldirk‘och mакeti uning og‘ziga skrepka bilan misol yozilgan, o‘quvchilar 2 guruhga bo‘linadilar 1-guruh o‘quvchilari qo‘llariga qaldirk‘och mакetini olib qo‘shiqning birinchi bandi aytib topshiriqnini beradilar:

Oq qaldirk‘och, ko‘k qaldirk‘och.

Qalay – qalay uchasan,

Mana bunday , mana bunday,

Mana bunday uchaman

2-guruh o‘quvchilariga qaldirk‘och mакeti olib borib beriladi. U o‘quvchilar qaldirk‘och mакetidagi kartochkadagi savol yozilgan tarqatma materialni olib borib berilgan javobini skrepka bilan qistirib ko‘rsatadi. Mashqni bajarish jarayonida o‘quvchilar:

Oq qaldirk‘och, ko‘k qaldirk‘och,

Qalay-qalay cho‘qiysan.

Mana bunday, mana bunday,

Mana bunday cho‘qiyan, deb misolni javobini ko‘rsatadilar.

“Sana” o‘yin mashqi. O‘yin qoidasi bugungi sana raqamini o‘quvchilar daftarlariga bir qator qilib chiroqli yozishlari talab qilinadi. Masalan, bugun 5-dekabr. Demak, o‘quvchilar 5 5 5 5 5 raqamini bir qatorga chiroqli qilib yozadilar. Topshiriq uchun bir daqqa vaqt beriladi. O‘quvchilar shu vaqt davomida javobi 5 ga teng bo‘ladigan misollar yozishi shart.

1*5=5 10-5=5

10:2=5 0+5=5

100:20=5 25:5=5 kabi

Demak, har bir darsda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va qiziqishlari darajasini hisobga olib, darslarni tashkillashtiradigan bo‘lsak, o‘quvchilarimizning o‘zlashtirishi, aqliy rivojlanishiga yordam beruvchi xususiyatlar rivojlanib boradi va samarali ta’limning interfaol usullaridan foydalanim darslar o‘tish nafaqat o‘quvchilarning so‘z boyligini, shu bilan birga, ijodkorlik, topqirlik, chaqqonlik va insoniy fazilatlarini tarbiyalaydi. Bugungi kun o‘qituvchisi izlanuvchan, ijodkor bo‘lsa , o‘z ustida tinmay ishlasa darslari samarali, qiziqarli o‘tadi. Yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan, barkamol avlodni tarbiyalab yoshlarga zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ta’lim berish mamlakatimizda ta’lim sohasida amalga oshirayotgan ustuvor vazifalardan biridir.

Komil insonni voyaga yetkazishda boshlangich ta’lim, shubhasiz, mustahkam poydevor rolini o‘taydi. Shu sababli har bir darsda amaliy va rivojlantiruvchi xarakterdagi topshiriqlar va mashqlarni, turli didaktik o‘yinlarni qo‘llab, o‘quvchilarning amaliy va rivojlantiruvchi faoliyatlarini turli xil ko‘rinishda tashkil etish muhim hisoblanadi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Педагогик технология асослари” Ж.С.Йулдашев, С.А.Усманов.
2. “Xalq ta’limi” журнали.
3. “Booshlang‘ich ta’lim” журнали.
4. “Ma’rifat” газетаси.
5. “Умумтаълим фанлар методикаси” журнали.

IKKINCHI SHO‘BA:

**O‘ZBEKİSTON RESPUBLİKASIDA
OILA FAROVONLIGI VA
DEMOGRAFIK RIVOJLANISHNING
USTUVOR YO‘NALİSHLARI**

Tuychiyeva G.U.,
Filologiya fanlar doktori (DSc)
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot institutining
Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash
va oila psixologiyasi bo‘limi boshlig‘i

O‘ZBEKISTONDA OILAVIY MOJAROLARNING OLDINI OLISHDA KONFLIKTOLOGIYA IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada konfliktlogiya, negativ va destruktiv funksiyaning pozitiv funksiyaga aylantirilishi va konflikt yechimi, mediatsiya, uning ziddiyatlarni bartaraf etishda qo‘llanilishi to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Shuningdek oilaviy zo‘ravonlik, suitsid holatlari keng tarqalganini inobatga olib, konfliktlogiya sohasini rivojlantirish davr talabi ekanligi qayd etiladi.

Kalit so‘zlar: oilaviy nizolar, konfliktlar, konfliktlogiya, ochiq va yopiq jamiyat, mediatsiya

Аннотация. В статье речь идет о конфликтологии, превращении негативной и деструктивной функции в позитивную как решение конфликта, о медиации и ее применении в предотвращении разногласий. Также подчеркивается необходимость развития сферы конфликтологии в период, когда широко распространены случаи семейного насилия и суицида.

Ключевые слова: семейные разногласия, конфликты, конфликтология, открытые и закрытые общества, медиация

Annotation. The article deals with conflict management, the transformation of a negative and destructive function into a positive one as a solution to a conflict – mediation and its application in preventing disagreements. It also emphasizes the need to develop the sphere of conflict management at a time when cases of domestic violence and suicide are widespread.

Key words: family disagreements, conflicts, conflictology, open and closed societies, mediation

Insoniyat tarixida uzoq vaqtlar konfliktlarga nisbatan salbiy munosabat mavjud bo‘lgan. Konflikt, asosan, tomonlarga zarar olib keladigan hodisa sifatida talqin qilingan. Konflikt ko‘p hollarda moddiy, ma’naviy, ruhiy-psixologik, iqtisodiy-moddiy qarama-qarshilik, jiddiy to‘qnashuv va murosasizlik sifatida baholanib kelingan. Biroq konfliktlarni o‘rganish jarayoni ijtimoiy makonda ularning o‘ziga xos pozitiv xususiyatlari mavjudligi isbotlaydi³⁸.

Dunyo miqyosida konfliktlogiya (Conflict Resolution) biznes strukturalar o‘rtasidagi moddiy va iqtisodiy mojarolarni tinchlik yo‘li bilan hal qilish yo‘nalishi sifatida rivojlangan³⁹. Mazkur soha XIX asrning oxiri XX asr boshlarida o‘rganila boshlangan. Dunyo miqyosida esa intensiv tarzda konfliktlogiya bilan o‘tgan asrning 50-yillaridan shug‘ullanilgan⁴⁰. Shunga qaramay, konfliktlarni o‘rganish sohasi ijtimoiy va sotsiologik fanlar tarkibidagi yangi ilmiy yo‘nalishlardan biridir.

Rossiyada konfliktlogiya sohasiga 1991-yili asos solingan, biroq keng rivojni so‘nggi 10 yil ichida kuzatsa bo‘ladi. MDH da konfliktlogiya bilan so‘nggi 10-15 yilda shug‘ullanib kelinmoqda. O‘zbekiston uchun bu soha umuman yangi yo‘nalishdir.

Konfliktlogiyaning o‘rganish predmeti bu – konfliktning ijtimoiy tabiatni, tiplari, dinamikasini o‘rganish, uni yechimga olib kelishning usullari, vositalari, ularning oldini olish mexanizmlarini belgilash va amaliyatga tatbiq etishdir. Konfliktlogiya ikki asosiy soha: sotsiologiya va psixologiya kesimida rivojlangan.

Boshqa mamlakatlar tajribasini ko‘radigan bo‘lsak, Rossiyada oxirgi 30 yil ichida juda katta ishlar olib borildi. Masalan, Rossiyada so‘nggi besh yilda konfliktlogiyaning turli yo‘nalishlariga bag‘ishlangan

³⁸ WIN WIN. Based on the Fighting Fair model created by Fran Schmidt and Alice Friedman. Grace Contrino Abrams Peace Education Foundation. Inc., Miami, Florida, 1998

³⁹ Handling Conflicts. Conflicts: a positive approach. Participant’s manual. Grace Contrino Abrams Peace Education Foundation. Inc., Miami, Florida, 1997

⁴⁰ Fran Schmidt. Alice Friedman. Fighting Fair. For families. Grace Contrino Abrams Peace Education Foundation. Inc., Miami, Florida, 1994

600 ga yaqin kitoblar, monografiyalar, o‘quv qo‘llanmalari yaratilgan. Shu bilan birga, barcha katta olyi o‘quv yurtlari va FA qoshida Konfliktlar yechimi bo‘yicha markazlar tashkil qilingan. Ular jamiyatdagi konflikt vaziyatlarni o‘rganish asosida ijtimoiy prognozlash ishlarini olib boradi. Turli ijtimoiy krizis va nizolar eskalatsiyasining oldini olish imkoniyatini yaratadi. Rossiya FA Sotsiologiya instituti qoshidagi Konfliktlogiya markazi, **Российский совет по международным делам, Российский Пагуошский комитет, Центр поддержки молодёжных инициатив, Московский центр Карнеги, Институт США и Канады РАН, Российский институт стратегических исследований, Центр конфликтологии и медиатации при Смоленской торгово-промышленной палате, Центр разрешения конфликтов при Орловском университете**⁴¹ kabilar va boshqa o‘nlab regional universitetlar qoshida yuzlab ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyat olib boradi, fakultetlar tashkil qilinib, bakalavr, magistr mutaxassislarini yetishtiruvchi o‘quv dasturlari yaratilgan. Mana shunday ilk markaz Rossiyada 1991-yil ochilgan, u ham bo‘lsa Rossiya FA Sotsiologiya instituti qoshidagi Konfliktlogiya markazidir⁴².

AQShda birinchi Konfliktlogiya markazlaridan biri (Neighborhood Justice of Chicago) ⁴³ NNT sifatida 1979-yili Chikago shahrida tashkil qilinadi. Bugungi kunda konfliktlar bo‘yicha mutaxassislar bakalavr va magistr darajasida Vaterloo universiteti (Kanada), AQShning bir qator OTM da, xususan, Kornell universitetida (Scheinman Institute on Conflict Resolution), Sharqiy Mennonit universitetida, Jorjtaun universiteti, Jon Xopkins universiteti, Shimoliy Korolina universitetida, Dublindagi Triniti kollejida, Jorj Mason universitetida, Huquq universitetida (Angliya), Tel-Aviv universitetida (Isroil), Jamiya Milliya universitetida (Hindiston), Lennaus, Land, Upsala universitetlarida (Shvesiya), BMT huzuridagi Tinchlik universitetida tayyorlanadi va yuzlab markazlar faoliyat olib boradi. Konfliktlarni yechimga olib kelish Markazlari xorijiy davlatlar, shu jumladan, AQSh, Kanada, Angliya, Fransiya, Germaniya, Portugaliya, Ispaniya, Shvetsiya, Norvegiya, Finlyandiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya kabi davlatlarda faol harakat olib boradi. Ulardagi ko‘philik universitetlar qoshida konfliktlogiya markazlari ish olib boradi. AQSh ning Minnesota shtati Xeppenin okrugida joylashgan Minneapolis shahrida tashkil qilingan *Konfliktlarni yechimga olib kelish Markazi (Conflict Resolution Center)* mana shunday amaliy markazlar jumlasidandir. Yoki Mayamida tashkil etilgan “Tinchlik ta’limi tadqiqotlari markazi” ana shunday tashkilotlardan hisoblanadi. 1960-yilda AQSh ning Michigan universiteti qoshida Konflikt vaziyatlarni o‘rganish Markazi ish boshladi. 1970-yildan esa AQSh ning milliy harbiy xavfsizlik strukturalari va harbiy vazirliklari tarkibida ham siyosiy va harbiy konfliktlar, ular mazmuni, manfaatlari, to‘qnashuvlar xususiyatlarini tadqiq etish bo‘yicha turli konfliktologik markazlar ish boshladi.

1986-yil BMT tomonidan dunyo bo‘ylab Tinchlik yili deb e’lon qilindi. Mana shu sana bilan uzviy bog‘liq holda Avstraliyada Konfliktlar yechimi bo‘yicha Xalqaro Markaz maxsus tashkil qilindi va ish boshladi. Bugunga kelib yuzlab mana shunday markazlar faoliyat olib bormoqda. Mana shunday markazlar faoliyatini ishga solish va rivojlantirish bizning mamlakatimizda eng dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

1959-yilga kelib bu sohada ma’lum o‘zgarishlar qilishga erishildi. Germaniyadan AQSh ga ko‘chib ketgan sotsiolog olim Luis Alfred Kozer o‘zining 1956-yilda ilk bor ingliz tilida nashr qilingan “Konfliktlarning ijtimoiy funksiyalari” asarida ziddiyat va nizolarga bo‘lgan umumomma munosabatini o‘zgartirishga erishadi. Chunki olim konfliktlar mohiyatida juda katta ratsional mag‘iz yashiringanligini ko‘rsatib bera organ. Shundan keyingina konfliktlarga nisbatan umumiy va majmuaviy tarzda “salbiy” va “ijobiy” xususiyat va oqibatlar birligi sifatida baho berishga o‘rganilgan.

Luis Alfred Kozerning fikriga ko‘ra, ikki xil jamiyatlar mavjud. Biri – bu yopiq, yoki rigid, unitar jamiyatlar. Ikkinchisi – ochiq, ya’ni pluralistik jamiyatlardir.

Birinchi tipdagagi jamiyatlar o‘zaro qarama-qarshi bo‘lgan ikki asosiy ijtimoiy sinfga bo‘linadi. Ular o‘rtasida esa doimiy konfliktlar mavjud bo‘ladi. Jamiyat hayoti ijtimoiy sinf, ijtimoiy qatlarm va guruhlarining o‘zaro manfaatli kurashidan iborat bo‘ladi, deb hisoblaydi olim. Mazkur konfliktlar jamiyat ichida tomonlar o‘rtasidagi muvofiglik, muvozanat, birdamlik, hamjihatlik, toleratnlik va xayrixohlikni buzadi, ba’zan esa uni butunlay ildizidan qo‘porib boradi. Shuning uchun bunday jamiyatlarda tomonlar qarama-qarshiligi turli xil buhronlar, krizislarga moyil bo‘lib, inqiloblar, davlat to‘ntarishlari, qurolli to‘qnashuvlar yoki fuqarolik urushlari orqali yangilanib boradi.

⁴¹ <http://oreluniver.ru/subdivision/unperk>

⁴² <http://ecsocman.hse.ru/text/21905340/>

⁴³ <http://crcminnesota.org/>

Ikkinchisi tipdagi pluralistik jamiyatlarda ham ijtimoiy guruhlararo, qatlamlararo ziddiyatlar mavjud bo‘ladi. Lekin bunday jamiyatlarda boy va ko‘p qirrali faoliyat bilan shug‘ullanuvchi ijtimoiy institutlar tizimi rivojlangan bo‘lib, ularning bosh maqsadi jamiyatda mavjud bo‘lgan ijtimoiy qatlamlararo birdamlik va hamjihatilikni muhofaza qilishdan iborat. Bunday jamiyatlarda tomonlarni kelishuvga olib kelish mexanizmlari ish beradi, tomonlar manfaatlarini o‘rganish va ular asosida, ya’ni ziddiyatlar energiyasini belgilab olish orqali mazkur energiyani jamiyat manfaatlariga bo‘ysundirishga erishiladi. Bu esa konfliktlar nazariyasini bilish asosida amalga oshiriladi. Chunki konfliktlarda ijtimoiy nizo va ziddiyatlar ikki turdag‘i bosh vazifalarni amalga oshirish uchun qo‘llanilishida yorqin namoyon bo‘ladi. Ya’ni ijtimoiy konflikt birinchidan, negativ funksiya hamda ikkinchidan, pozitiv funksiyaga ega bo‘ladi. Jamiyatda birdamlik faoliyatini ta‘minlash uchun pozitiv funksiyaning barqaror, ya’ni doimiy, muntazam amal qilishi va bo‘lishini ta‘minlash taqozo etiladi.

Binobarin, konfliktologiyada olimning fikriga ko‘ra, negativ va destruktiv funksiyani pozitiv funksiyaga aylantirilganida konflikt yechimga olib kelinadi. L.A.Kozerning ijtimoiy konfliktlar borasida aytgan fikrlari bugunga qadar o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, konfliktlarni izohlash va ular mohiyatini anglashda tamal toshi rolini o‘ynaydi va asos bo‘lib xizmat qiladi.

Konfliktlarni o‘rganishning ijtimoiy jihatdan o‘ta dolzarbliji, konfliktlar nazariyasi bilimlari ijtimoiy krizislarning oldini olishda juda katta ahamiyat kasb etishi konfliktlar borasidagi bilimlarga YUNESKO ning e’tiborini tortadi. Natjada, 1957-yildagi YUNESKO qoshidagi Sotsiologik assotsiatsiyaning Parij yig‘ilishi maxsus ravishda konfliktologiya masalalariga bag‘ishlandi.

Binobarin, dunyo miqyosida konfliktlogiya tez sur’atlar bilan rivojlanib, ilmlar tasnididan o‘rin egallagan yangi innovatsion g‘oya va qarashlar majmuyidan iborat bo‘lgan sohalardan biri hisoblanadi hamda konfliktologiyaning quyidagi g‘oyaviy yo‘nalishlari mavjud:

- ✓ L.Kozerning pozitiv-funksional konflikt borasidagi konsepsiyasi (AQSh);
- ✓ R.Darendorfga tegishli jamiyatning konfliktli modeli borasidagi konsepsiyasi (Germaniya);
- ✓ A.Turenaning ijtimoiy konfliktning barcha uchun umumiyligi borasidagi konsepsiyasi (Fransiya);
- ✓ K.Bouldingga tegishli konflikt ichida o‘zaro munosabatlarning umumiy nazariyasi konsepsiyasi (AQSh);
- ✓ T.Parsons va E.Meyo qalamiga tegishli “ijtimoiy rozilik” va insoniy munosabatlar konsepsiyasi (AQSh);
- ✓ Erik Bernning konfliktda odamlarning transakt analiz asosidagi o‘zini tutishi nazariyasi konsepsiyasi (AQSh);
- ✓ M.Sherifning guruhlararo konfliktlarni o‘rganishda vaziyatli munosabat konsepsiyasi;
- ✓ Klark Xall, G. Lindsey, D.Zigler kabilarning konfliktda psixo-dinamik munosabat ko‘rsatish konsepsiysi as; ✓ Karen Xorni va G.Sallavenlarning neopsixoanaliz konsepsiyasi;
- ✓ V.Shutsning konfliktda insonlararo munosabatlarning fundamental oriyentatsiyasi konsepsiyasi;
- ✓ E.Eriksonning shaxs ijtimoiylashuvi konsepsiyasi;
- ✓ J.Dollard, L.Dub, N.Miller, A.Bandura va L.Berkoves kabilarning agressiyaning frustatsion determinatsiyasi konsepsiyasi;
- ✓ M.Doychning konflikt konkret vogelikka javob shakli ekanligi borasidagi konsepsiyasi;
- ✓ Kurt Levinning konflikt kognitiv fenomen ekanligi borasidagi konsepsiyasi;
- ✓ F.Xayderning konfliktda struktural balans mayjudligi borasidagi konsepsiyalari mavjud.

V.I.Andreev konflikt vaziyatni “yashirin va yoki ochiqchasiga vujudga kelgan va namoyon bo‘lgan bir yoki bir necha tomonlarning o‘zaro qarama-qarshiligi” deb ataydi hamda har bir tomon o‘z qarashlari, motivlari, fikrlari, muammoni yechimga olib kelishning usul, vosita va yo‘llariga egaligini qayd etadi. Olimning fikriga ko‘ra, konfliktlarda ham shaxsiy manfaatdorlik kuchli namoyon bo‘ladij⁴⁴.

A.Y.Anupov va A.I. Shipilov kabi olimlarning fikriga ko‘ra, konflikti yechimga olib kelish va uni bartaraf etish uchun uning mazmuni, xarakteri va maqsadlari, tomonlar manfaatlarini bilish taqozo etiladi. Bu bilan esa maxsus fan, ya’ni konfliktologiya shug‘ullanadi. Konfliktlar xarakteri va ularni yechimga olib kelish jarayonini aynan konfliktologiya fani o‘rganadi⁴⁵.

⁴⁴ Андреев В.И. Конфликтология: искусство ведения спора. Ведение переговоров и разрешения конфликтов. – Казань, 1999. – С. 82.

⁴⁵ Анцупов А.Я., А. И. Шипилов. Значение, предмет и задачи конфликтологии // Конфликтология. — М.: ЮНИТИ, 1999. – С. 81. – 551 с. – 10 000 экз. – ISBN 5-238-00062-6.

S.Y.Teminaning fikriga ko‘ra, konfliktlar unda ishtirok etayotgan tomonlar o‘rtasida vujudga keladigan nomuvofiqlikdan iboratdir. Mazkur nomuvofiqlik turli shaxslar manfaatlari o‘rtasida vujudga kelishi mumkin.

A.G.Zdravomislovning⁴⁶ fikriga ko‘ra, konflikt bu insonlarning jamiyat ichida bo‘lgan eng muhim o‘zaro munosabatlarining bir ko‘rinishidir. Konflikt bu – ijtimoiy borliqda mavjud bo‘lishning namunasidir, uning hujayrasidir. Bu – ijtimoiy amallar doirasida uning, ya’ni jamiyatning potensial va aktual ijtimoiy subyektlarining o‘zaro munosabatga kirishish shaklidir. Biroq ularning motivatsiyasi qarama-qarshi bo‘lgan qadriyatlar, normalar, manfaatlар va ehtiyojlar bilan belgilanadi.

Y.G.Zaprudskiy esa konfliktni ijtimoiy obyektlar rivojlanishiga oid tendensiyalar va maqsadlarning ochiq holda va yoki maxfiy holda turli tomonga tarqalishidir deb ataydi. Shunga ko‘ra, ijtimoiy kuchlar ziddiyat vaziyatida o‘zaro qarama-qarshilik asosida to‘g‘ridan to‘g‘ri va yoki bilvosita to‘qnashuvga kirishadi. Biroq olimning fikriga ko‘ra, aynan mana shunday ijtimoiy kuchlarning to‘qnashuvga kirishishi o‘ziga xos tarixiy rivojlanish omili sanaladi, eskidan yangi taraf qilingan qadam va harakat sanaladi.

A.V.Dmitriev esa konflikt, ayniqsa, ijtimoiy konfliktlar haqida fikr qilib, ularni, eng avvalo, qarama-qarshilik sifatida baholaydi. Olimning fikriga ko‘ra, konflikt tomonlarning qarshi tomon qarashlari, manfaatlari, territoriyasi, qadriyatlar, yoki madaniyati, yashash tarziga qarshi qilgan (1) hujumi yoki (2) himoyasidan iborat bo‘ladi.

Mediatsiyani ko‘philik hollarda ziddiyatlarni shu vaqtchaga bo‘lgan bartaraf etish usullari qo‘l kelmaganda, barcha urinishlar foydali bo‘lmagan va natijaga olib kelmaganda ishlataladi. Mediatsiyadan tomonlarni bir-birlarini tushinib olishga, boshqa tomonning qarashlari, fikrlari va qadamlarini anglashga ko‘mak beruvchi vosita sifatida qo‘llaniladi. Eng qadimgi vaqtlardan boshlab konfliktga kirgan odamlar o‘zlarini masalalarni hal qilgandan ko‘ra boshqa uchinchi tomon yordamida mazkur sa’y-harakatlarni amalga oshirishlari yengilroq kechishini anglab yetganlar.

Bugungi kunda yoshlarda tez-tez “ijtimoiy transformatsiya” holati kuzatilmoqda. Uning xususiyatlari yoshlarning ijtimoiy jihatdan faolligi, o‘zini shaxs sifatida mustaqil va erkin tutishga intilishi, “kattalar” ijtimoiy xatti-harakatlariga nisbatan qaysarligi, ijtimoiy ziddiyatlarga moyilligi, o‘z fikrini qanday bo‘lsa ham o‘zgalarga singdirishga urinishi, o‘zini barchadan, ba’zan ota-onasiga, yaqinlari va o‘qituvchidan ustun qo‘yishi, o‘zbilarmon va qiziqqonligi, ziddiyatlarga kirishdan cho‘chimasligi, biroq uning oqibatlariga tayyor emasligi, hissiy va emotsiyonal beqarorligi, o‘z hissiyotlarni baholashga ojizlik qilishi, shaxs sifatida to‘la shakllanib bo‘lmaganligi va buning oqibatida o‘zini “kattalardek” tutgani bilan, o‘z amallariga har doim ham javob berishga hozir emasligi bilan belgilanadi.

Shu bilan birga, yoshlardan atrofidagi ijtimoiy makonda ham tanglik, jamiyatdagi turli iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, demografik va b. vaziyatlarning keskinlashuvi ham ularning qarorlar qabul qilish jarayoniga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. Mazkur ta’sirlar esa ijobjiy, salbiy va yoki o‘ta salbiy bo‘lishi mumkin.

Shunga ko‘ra, yoshlardan shaxsining shakllanishi jarayonida, ya’ni ijtimoiy makon va ulg‘ayishi aloqadorligida bir qator o‘ziga xos negativ tendensiyalar ham vujudga kelmoqda. Yoshlardan odamovulik, individualizm, o‘z hissiyotlari va fikrlarini ichga yutish va yashirish, o‘sirinlar ichida turli jinoyatlarga moyillik, bolalarga ta’sir etayotgan turli tashqi axborotlarga nisbatan befarqlik, ularni taftish eta olmaslik, axloqni buzadigan axbrotlarga ruju qo‘yish, zo‘ravonlik, pofigizm, ksenofobiya, qahri qattiqlik, agressiya, suitsid holatlari uchramoqda.

Sotsiologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, oilaviy nizolar bilan bog‘liq konfliktlarda 63% erxotinlar o‘zini muhofazalash taktikasini qo‘llar ekan, 24% erkaklar bosim o‘tkazish yoki befarqlik bilan o‘zga tomonni yengish taktikasini ishlatar ekan. Biroq seminar ishtirokchilaridan qariyb 90% konfliktologiya sohasi borasida umuman erishilmaganligi qayd etilgan. Mahalla raislarining xotin-qizlar va oila bo‘yicha maslahatchilarining 90% konfliktlar nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha o‘z bilim, malaka va ko‘nikmalarining professional tarzda shakllanmaganligi qayd etilgan.

Buning o‘ziga xos sabablaridan biri O‘zbekistonda konfliktlogiya keng rivoj topmaganligi, o‘quv qo‘llanmalari, darslik va kitoblarning o‘zbek tilida mavjud emasligi, konfliktlogiya bo‘yicha mutaxassislarini yetishtirib berish tizimi yaratilmaganligi, maxsus markazlarning yo‘qligi bilan belgilanadi.

⁴⁶ Здравомыслов А.Г. Социология конфликта: Россия на путях преодоления кризиса: Учеб. пособие для студентов высших учебных заведений. – 2-е изд., доп. – М.: Аспект Пресс, 1995. – 317 с.; Здравомыслов А.Г. и др. Трудовые отношения и социальные конфликты в современной России. – М.: Современная экономика и право, 2004. – 384 с.; Здравомыслов А.Г. Межнациональные конфликты в постсоветском пространстве / 2-е изд. – М.: Аспект Пресс, 1999. – 286 с.

Binobarin, hozirgi kunda mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash tizimi xodimlarining ko'pchiligi professional tarzda konfliktlogiya bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalardan xabardor bo'lishni istaydilar.

Konfliktlogiya bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi zarurligini ijtimoiy makon va zamonaviy taraqqiyot omillari ham taqozo etadi.

Konfliktlar haqida gapirganda biz uni ko'proq ijtimoiy vogelikdagi agressiya, urush, janjal, keskinlik, jahl, kelishib bo'lmaydigan bahs, qarama-qarshilik, dushmanlik bilan bog'laymiz.

Aslida esa, real hayotda ko'pchilik hollarda nizo va ularning to'g'ri yechimiga asoslangan qarorlarning qabul qilinishi, inson va uning fikr, qarash va qarorlarining o'zgarishi, o'z-o'zini qayta anglashi, o'z qadriyatlarini qayta ko'rib chiqishi, munosabatlarning ochiqlik yo'lidan ketishi, shu bilan birga, ba'zi yashirin bo'lgan muammolarning muhokama etilishi bilan bog'liq holda kechadi.

Turli kelishmovchiliklarga e'tiborsizlik, ayniqsa, yoshlar hayotida ularning istiqbol qarashlari va tafakkurining shakllanishiga bevosita bog'liq hol bo'lib, bu holat ba'zan ularni noto'g'ri yo'ldan olib ketishi va noto'g'ri qarorlar qabul qilishiga sabab bo'lishi mumkin. Yoshlarni nizolar yechimlariga, nizolarni oldini olishga o'rgatmaslik ular xarakterida nizoli xatti-harakatlarning stereotiplar asosida qat'iyashuvni va muntazam takrorlanishiga olib keladi. Yoshlar hayotida yuzaga kelgan turli nizolarga e'tiborsizlik ularda o'zga insonlarga nisbatan ishonchsizlik xislatining vujudga kelishiga asos bo'ladi, buning negizida esa odam muammoning yechimini qidirishga, vujudga kelgan nizoli vaziyatlarda tahlil qilishga emas, balki faqat birovlarni, nizoda qatnashgan o'zidan boshqa insonlarni doimiy ayplashga o'rgatilib qo'yiladi.

Bugungi kunda yoshlarning ulg'ayish jarayoni ma'lum o'zgarishlarni o'z boshidan kechirmoqda. Ijtimoiy, iqtisodiy, oilaviy, demografik, ekologik tahdidlarning ortib borayotganligi, rang-barang axborot kommunikatsiya tizimlarining ochiqligi, buning natijasida esa mana shu ulkan negativ axborotning bevosita tafakkurga negativ ta'siri va uning kundan kun kuchayib borishi yoshlar rivojining yangi shart-sharoitda kechayotganligi ko'rsatadi. Agar sanab o'tilgan zamonaviy vogelik xususiyatlari kattalarda stress holatini kuchaytirishi haqida umuman ko'p gapirlisa-da, bunday vaziyatlarning yoshlar tafakkuri va hayotiga ta'siri haqida qariyb gapirilmaydi. Lekin bu degani mazkur ijtimoiy vogelik yoshlarga ta'sir etmasligini, zamonaviy yoshlar mana shunday ta'sirdan xoli yashayapti deganini anglatmaydi.

Ijtimoiy makonning yoshlar tafakkuriga ijobjiy va salbiy ta'siri mavjud. Agar ijobjiy ta'sir xususiyatlari yoshlarning ijtimoiy jihatdan faolligi, o'zini shaxs sifatida mustaqil va erkin tutishga intilishi, "kattalar" ijtimoiy xatti-harakatlariga nisbatan moslashuvchanligi va ularni takrorlashi bilan belgilansa, salbiy ta'sir bugungi bolalarning ijtimoiy ziddiyatlarga moyilligi, o'z fikrini qanday bo'lsa ham o'zgalarga singdirishga urinishi, o'zini barchadan, ba'zan ota-onasi, yaqinlari va o'qituvchidan ham ustun qo'yishi, bolalar agressiyasi, bezbetligi, o'zbilarmon va qiziqqonligi, ziddiyatlarga kirishdan cho'chimasligi, ziddiyatlarni kuch bilan hal qilishga urinishi, biroq turli ziddiyatlarning rang-barang oqibatlariga emotsiyonal jihatdan umuman tayyor emasligi, ularidan esankirab qolishi, natijada agressiyaga ruju qo'yishi, barchani va butun borliqni inkor etishi, turli destruktiv kayfiyatlarga moyilligi bilan belgilanadi.

Binobarin, bugungi kunda ijtimoiy makon keskin o'zgarmoqda, uning turli paradigmalari o'zgarmoqda. Buning natijasida ziddiyatlari vaziyatlar kuchaymoqda. Bularning barchasi yoshlar tafakkuriga ta'sir etmoqda. Yoshlar psixologiyasi va shaxsi ham, uning o'sish, ulg'ayish xususiyatlari ham ma'lum o'zgarishlarni boshidan o'tkazmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, konfliktlogiya sohasini oilaviy mojarolar, ajrimlar, oilaviy zo'ravonlikning oldini olish, suitsid holatlarni bartaraf etish, tinch va totuvlikda yashash ko'nikmalarini joriy etish, avlodlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar oqibatlarini tahlil qilish va boshqa ko'p yo'naliishlarda rivojlantirish davr talabidir.

Xojayev Sobir Jumayevich,
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti bo‘lim boshlig‘i,

Sodiqov Furqat Fatulloyevich,
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti kichik ilmiy xodimi

JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN OZOD BO‘LGANLARNING OILAVIY MUAMMOLARI VA UNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

Annotatsiya. Maqolada Jazoni ijro etish muassasalari (JIEM) dan ozod bo‘lgan shaxslarning oilaviy muammolari sotsiologik tadqiqot natijalari asosida tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu muammolarni hal qilish bo‘yicha ayrim takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: jazoni ijro etish muassasalari, oila, muammo, uy-joy, sotsiologik tadqiqot, so‘rovnama, respondent, shaxs.

Аннотация. В статье анализируются семейные проблемы лиц, освобожденных из учреждений исполнения наказаний на основе результатов социологического исследования. Кроме того, были высказаны некоторые предложения по решению этих проблем.

Ключевые слова: учреждения исполнения наказаний, семья, проблема, жильё, социологическое исследование, анкета, респондент, личность.

Annotation. The article analyzes the family problems of persons released from penal institutions based on the results of a sociological research. In addition, there were some suggestions to concerning to resolve these issues.

Key words: penitentiary institutions, family, problem, housing, sociological research, questionnaire, respondent, personality.

Jazoni ijro etish muassasalari (JIEM)dan ozod bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy-psixologik holatini yaxshilash, ularning reabilitatsiyasi va hayotga qayta moslashishini ta’minalash muhim ijtimoiy masalalardan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 8-oktyabr kunidagi videoselektor yig‘ilishida jazoni o‘tab qaytganlarning ijtimoiy moslashuvini ta’minalashga alohida to‘xtalib o‘tgan edi⁴⁷. Darhaqiqat, bugungi kunda sobiq mahkumlarning ijtimoiy hayotga moslashuviga bir qator muammolar yuzaga kelmoqdaki, ularni bartaraf etishda ilmiy asoslangan yechimlarni ishlab chiqish, chuqur ilmiy tahlillarni amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Xususan, JIEMdan ozod bo‘lgan shaxslarda yuzaga kelayotgan oilaviy muammolarni o‘rganish va uni yechimida ko‘maklashish ushbu shaxslarning normal hayot tarziga qaytishida yordam beradi. Inson tug‘ilgandan jinoyatchi bo‘lib tug‘ilmaydi. Uning jinoyat yo‘liga kirishiga jamiyatdagi ma’lum muammolar, ijtimoiy-psixologik muhit, sotsial adolat tamoyilining buzilishi, hayotdagi tasodifiy holatlar va bir qator omillar o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Zero, jamiyatda hech bir kishining hayoti to‘la tekis, qat’iy ravishda kafolatlanmagan.

Hozirda O‘zbekistonda JIEMdan qaytganlar quyidagi oilaviy muammolarga duch kelmoqda. Birinchidan, jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan fuqarolarning oilasi atrofida hamda o‘ziga nisbatan jamiyatimizda turli salbiy stereotiplar mavjudligi kuzatilmoqda. Bunday salbiy munosabat o‘z navbatida sobiq mahkumlarning jamiyatga moslashishini yanada qiyinlashtirmoqda, ularning ijtimoiy-ruhiy hamda moddiy ahvoli yomonlashishiga sabab bo‘lmoqda. Ikkinchidan, JIEMda bo‘lgan vaqtida ayrim shaxslarning oilasi turli sabablarga ko‘ra buzilib ketmoqda. Uchinchidan, JIEMdan qaytgandan so‘ng moddiy yetishmovchilik, ishsizlik, uy-joy, o‘zaro bir-birini tushunmaslik, sog‘lik va boshqa sabablarga asosan, oilalar buzilib ketmoqda.

“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot institutida olib borilgan qisqa muddatli loyiha doirasida Buxoro, Samarcand, Surxondaryo, Farg‘ona, Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shaharlarida JIEMdan qaytgan shaxslar bilan o‘tkazilgan sotsiologik so‘rovda, ushbu shaxslarning qanday oilaviy muammolarga duch kelayotgani aniqlangan.

⁴⁷ <https://president.uz/uz/lists/view/3883>

Tadqiqotda 480 nafar respondent ishtirok etib, shundan 62,2 foizini erkaklar va 37,8 foizini ayollar tashkil etdi.

Jazoni o‘tab qaytganlarni jamiyatga moslashtirishda eng muhim jihat ularning oilaviy holati bilan bog‘liq. Aksariyat hollarda ular oila qurish bilan bog‘liq jiddiy muammolarga duch kelishadi. Sababi sobiq mahkulmarga nisbatan fuqarolar ongida shakllangan stereotiplar, qo‘rquv va ishonchsizlik tufayli ko‘pchilik qamalib chiqqan kishini kuyov yoki kelin qilishga jazm qilmaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadi, tadqiqotga jalb etilgan sobiq mahbuslarning 19,3 foizi bugungi kunda uylanmagan (turmushga chiqmagan). Shuningdek, 14,3 foizi turmushidan ajralgan. Oila qurganlar esa 61,7 foizni tashkil etdi (1-rasm).



1-rasm. Respondentlarning oilaviy holati.

Ota-onasidan birining qamalishi yoki jazoga tortilishi farzandlarning ruhiyati, xulq-atvori, tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Eng muhimmi, oilaning boquvchisi qamalsa, farzandlarning sifatlari ta’lim olishi, bekamiko‘st voyaga yetishida muammolar yuzaga keladi.

So‘rovnoma ishtirokchilarining qayd etishicha, 33,1 foizda 2 nafar, 22 foizida 1 nafar, 15,5 foizida 3 nafar, 9,8 foizida 4 nafar farzand bor. 19,6 foizida esa farzand yo‘qligi ma’lim qilingan.

Agar sobiq mahkulmlarning ijtimoiy vogelikka sotsial adaptatsiyasida muayyan muammolar kuzatilsa, ushbu holat shu oilada tarbiyalanadigan farzandlar kelajagiga ham ta’sir qildi.

Respondentlarning 53,6 foizi ta’kidlashicha, jazoni ijro etish muassasiga hukm qilingandan keyin oilasi ajralib ketgan insonlar haqida ma’lumotga ega, 22,3 foizi esa o‘zlarining hayoti bunga yaqqol misol bo‘lganligini izhor etishdi.

So‘rovnoma ishtirok etganlarning aksariyati (75%) bugungi kunda oilasidagi muhitni do‘stona, o‘zaro hurmatga asoslanganini bildirgan bo‘lsa, 6,6 foizi oilada samimiylilik yo‘qligini, yana shuncha miqdordagi respondentlar oilada vaqtiga-vaqtiga bilan ziddiyatlar bo‘lishini, 3,5 foizi munosabatlarda begonalashuv va loyqaydlik borligini va 3,5 foizi janjallar tez-tez bo‘lib turishini qayd etgan.

So‘rov ishtirokchilarining ayni damda qanday dolzarb masalalar bezovta qilayotgani o‘rganilganda, uy-joyni tashkil etish (27,2%), ishsizlik (20%) va oila qurish (7,7%) ekanligini ta’kidlashgan. Mazkur muammolar JIEMdan qaytganlarning oilaviy hayotga moslashib ketishiga to‘g‘anoq bo‘layotganligi tadqiqot natijalarida o‘z ifodasini topdi.

Dastlab uy-joy muammosinini tahlil qiladigan bo‘lsak, so‘rovnoma ishtirokchilarining yashash joylari quyidagicha ko‘rinish hosil qildi:



2-rasm. Respondentlarning istiqomat qilish joylari

Bundan ko‘rinib turibdiki JIEMdan qaytganlarning 3/1 qismini uy-joy masalasi qiy nab kelmoqda va ushbu shaxslarning oilasi tinehligi va xotirjamligiga katta to‘siq bo‘lmoqda.

Ishsizlik, moddiy qiyinchiliklar JIEMdan qaytganlarning nafaqat oilaviy barqarorligiga balki, ularning ijtimoiy-ruhiy holatiga ham salbiy ta'sir qiladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, so'rvonomada ishtirok etganlarning har beshinchisi bugungi kunda ishsiz. Ish bilan band bo'limgan shaxslarning 34,2 foizi to'lanadigan ish haqi kamligi sababli bugungi kunda ishsiz. Shuningdek, 27,1 foizi sog'ligi sabab, 15,7 foizi kasb-hunari yo'qligi sabab, 15,7 foizi qamalgani uchun hech kim ish bermayotganini, 4,2 foizi taklif qilinayotgan ish mutaxassisligiga to'g'ri kelmasligi bois ish bilan ta'minlanmasdan qolmoqda.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilgan holda, quyidagi xulosalarni qilish mumkin. JIEMdan qaytganlarning oilaviy muammolarini hal etish uchun mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining o'rni va roli beqiyos ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash zarur. Mahalla instituti insoniy qadriyatlar, ezgu g'oyalarni targ'ib qiluvchi muassasa sifatida jazoni o'tab qaytganlarning jamiyatga moslashuvini ta'minlashda faol ishtirok etishi zarur. Mahallaning JIEMdan qaytganlarning ijtimoiy moslashuvi va muammolarini hal etishdagi ko'magini ko'rsatib o'tgan. Masalan, respondentlarning aksariyati (55,8%) jazoni ijro etish muassasalaridan chiqqandan so'ng jamiyatga ijtimoiylashuvi jarayonida duch kelgan muammo va masalalar yuzasidan o'zini yashash joyi bo'yicha mahalla fuqarolar yig'ini vakillariga murojaat etgan va 43 foiz holatda muammolar yechimi to'liq, 21 foiz holatda qisman amaliy yordam olgan. Shu bilan birga, 35,8 foiz murojaatchilarning masalalari qondirilmagan yoki e'tiborsiz qoldirilgan.

So'nggi yillarda jamiyatdagi ro'y berayotgan tez sur'atdagi ijtimoiy o'zgarishlar bilan bog'liq holda oila institutida salbiy holatlar tez-tez sodir bo'layotganligi ko'zga tashlanmoqda. Bu borada mulkiy va ijtimoiy qutblanish oilaning deformatsiyalanishi ta'lim, maishiy va bo'sh vaqt funksiyalari deformatsiyasi bilan tavsiflanadi.

JIEMdan qaytganlarni uy-joy bilan ta'minlash masalasi ham hozirgi kunning asosiy muammolaridan biridir. Bu uchun ularga ma'lum imtiyozli kreditlar berish orqali uy-joy bilan ta'minlash dasturini amalgalashirish mumkin. Lekin bu kabi imtiyoz bilan birga ularga nisbatan muayyan talablar ham qo'yilishi lozim. Masalan, uch yilgacha uy davlat nomida bo'lib, shu vaqtgacha qayta jinoyat qilmasa, shaxsning nomiga rasmiylashtirish va hokazo.

Shu bilan birga, jazoni ijro etish muassasidan qaytgan ma'lum toifadagi xotin-qizlarni "Ayollar daftari" ro'yxatiga kiritish va ularni ijtimoiy hayotga to'liq moslashib ketishlari uchun qo'llab-quvvatlab turish, fikrimizcha, ularning o'z hayotlarini izga solishlariga imkon beradi.

Birinchi marta va qasddan sodir etilmagan yengil jinoyatlarni, yengil iqtisodiy jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga JIEMda emas, probatsiya nazoratida bo'lishi va eng asosiysi oilasi bag'rida bo'lishini ta'minlash orqali, oilalarning buzilib ketishini kamaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. president.uz/uz/lists/view/3883

Babashev Farxad Aytmuratovich,
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent Mahalla va oila
ilmiy-tadqiqot instituti bo'lim boshlig'i

OILADA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada oilada bolalarning axborot xavfsizligini ta'minlash, ularni ma'naviy-axloqiy va mafkuraviy tahdidlardan muhofaza qilishda ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish masalalari to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: tarbiya, axloq, globallashuv, ommaviy axborot vositalari, axborot xavfsizligi, axborot resurslari, axborot xurujlari, ommaviy madaniyat.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы информационной безопасности детей в семье, взаимодействия с образовательными учреждениями в их защите от духовных, нравственных и идеологических угроз.

Ключевые слова: воспитание, нравственность, глобализация, средства массовой информации, информационная безопасность, информационные ресурсы, информационные атаки, массовая культура.

Annotation. The article deals with the issues of information security of children in the family, interaction with educational institutions in their protection from spiritual, moral and ideological threats.

Key words: education, morality, globalization, mass media, information security, information resources, information attacks, mass culture.

Yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlargi, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim vazifalardan biridir.

Sh.Mirziyoyev

Har qanday jamiyat ravnaqi, davlatning kuch-qudrati ta'lim-tarbiya tizimining samaradorligiga bog'liq. Yoshlar tarbiyasi uchun, birinchi navbatda, oila, ota-onas mas'ulki, bu faoliyat har bir fuqarodan katta ma'naviy, aqliy, jismoniy hamda moddiy salohiyatni talab qiladi.

Biz shu kunga qadar shaxs kamolotiga biologik va ijtimoiy omillar, ta'lim-tarbiya hamda shaxsiy faoliik kabi to'rtta omil ta'sir qilishini ta'kidlab kelar edik. Bugungi kunga kelib, jahon miqyosida axborot-kommunikatsiya tizimlarining mislsiz taraqqiyoti negizida media resurslar voyaga yetib kelayotgan avlod ongi uchun eng ta'sirchan omil hisoblanadi.

Media resurslar – bu inson sezgi kanallari (ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish) tomonidan idrok etiladigan axborotlar yig'indisidir. Axborot oqimi XX asrda televideniye, radio va, ayniqsa, internet paydo bo'lishi va globallashuv jarayoni yuzaga kelishi bilan yanada kuchaydi.

Globallashuv XXI asrda yuksak taraqqiy topgan mamlakatlarga hech qanday qirg'inbarot qurol ishga solmasdan, fan, texnika, texnologiyalar hamda "ommaviy madaniyat" vositasida endi taraqqiyotga kirib borayotgan va ulardan orqada qolayotgan mamlakatlarni o'zlariga bog'lab qo'yayotganligi bilan, hozirgi zamonga xos bo'lgan yangi imperiyalarni vujudga keltirish imkoniyatini yaratganligi bilan insoniyat taraqqiyotining yangi davrini boshlaganligini ham o'zida ifoda ettiradi. Globallashuv xalqlarni o'ziga qarashning azaldan amal qilib kelgan qurollarni ishga solishdan, yangi "madaniylashgan" uslubiga o'tilishidir.⁴⁸

O'tmishda davlatlar o'zaro urushlarda inson resurslari, qurol-yarog'lar hamda texnika yutuqlariga tayangan bo'lsa, endi mafkuraviy qurollar, jumladan, ommaviy axborot vositalari va targ'ibot-tashviqot texnologiyalaridan foydalanadilar. Bunda asosiy e'tibor inson ongiga qaratiladi. Inson dunyoqarashi qanchalik

⁴⁸ Отамуратов С. Глобаллашув: миллатни асрари масъулияти (сиёсий-фалсафий кирралари) [Матн]/ С.Отамуратов. – Тошкент: “О'zbekiston” НМИУ, 2018. – 352 б. 69-бет.

tor, bilimlari sayoz bo‘lsa – uning ongiga ko‘rsatilayotgan ta’sir kuchi shunchalik oshib boradi. Shu boisdan ham, O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan “mafcura poligonlarining yadro poligonlaridan ham kuchli” ekanligi bir necha bor qayd etilgan edi.

Bu esa bugungi axborolashtirilgan davrda yoshlari, ayniqsa, bolalarning axborot xavfsizligi ustida jiddiy bosh qotirish zarurligidan, oilada va ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning mafkuraviy mohiyatini boyitib borish muhimligidan dalolat beradi. Afsuski, bu boradagi yutuqlarimiz maqtanarli darajada emas.

Bugungi avlodga keladigan bo‘lsak, ular bitmas-tuganmas axborot oqimlari ta’sirida qolgan. Ayniqsa, mobil aloqa vositalari yoshlarimizning qimmatli vaqtini olishdan tashqari, ularning dunyoqarashi, ma’naviy-axloqiy qiyofasining shakllanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Afsuski, ko‘p hollarda yosh avlod tomonidan qabul qilinayotgan xabarlar va ma’lumotlar ularning ma’naviy-axloqiy qiyofasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Axborot xurujlarining asosiy ta’sir qurollaridan biri “ommaviy madaniyat” bo‘lib, bugungi yoshlarimizning xulq-atvorida aynan uning kuchli ta’sirini kuzatmoqdamiz. “Ommaviy madaniyat”ning asosiy maqsadi ham kishilar, ayniqsa, yosh avlod ongiga, tafakkuriga ta’sir etish orqali ularda milliy o‘zlikni anglash, Vatanga muhabbat hislarini yo‘qotishdan iboratdir. R.Safarova va boshqa olimlar “ommaviy madaniyat”ning ta’sirini quyidagicha tavsiflagan edilar: “ommaviy madaniyat” asta-sekin insonning hayvonga xos xususiyatlarini kuchaytirib boradi. Bu ma’naviy-axloqiy illatlarning ta’siri natijasida insonlarda bir qator holatlar kuzatiladi:

- 1) axloqiy buzuqlik – jamoat joylarida o‘pishish, shahvoniy film va suratlar ko‘rish;
- 2) zo‘ravonlik va zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi filmlar va o‘yinlarga odatlanib qolish;
- 3) o‘zim bo‘lsam bo‘ldi, o‘zga bilan ishim yo‘q qabilida ish tutish;
- 4) barcha narsalarga shaxsiy manfaat nazari bilan yondashish;
- 5) shaxsiy manfaatni har narsadan ustun qo‘yish – bu borada hech kim bilan hisoblashmaslik, hattoki ota-onsa hurmati va fikrini ham mensimaslik;
- 6) o‘z nafsining quliga aylanish;
- 7) hayosizlik, giyohvandlik, ichkilikbozlik, tubanlikka mukkasidan berilishi;
- 8) g‘ayriinsoniy “nikoh”lar, jinslar o‘rtasida hayvoniy nafsga berilishi kabi o‘ta salbiy holatlar.⁴⁹

O‘zbekistonda yoshlari siyosati samaradorligini oshirish masalasiga jiddiy e’tibor berib kelinmoqda. Ammo, afsuski, bugungi kunda ham yoshlari tashkilotlari o‘z kontingeneti bo‘lgan yoshlarni yagona g‘oya asosida jipslashtirgan holda yangi maqsadlar sari safarbar qilishga ojizlik qilmoqda. Zero, eskicha buyruqbozlik uslubi bilan tizimga yangilik kiritib bo‘lmaydi. Ta’lim muassasalarida talabalar o‘zini o‘zi boshqarish tizimining mavjud emasligi, ularning talab va tashabbuslari kontrakt to‘lovini kamaytirish-u stipendiya miqdorini oshirishdan nariga o‘tmayotganligi fikrimiz tasdig‘idir.

O‘zbekiston Respublikasining “Bolalarni ularning sog‘ligiga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, “oilaviy qadriyatlarni inkor etadigan, axloqsizlikni targ‘ib qiladigan, shuningdek, ota-onasiga va oilaning boshqa a‘zolariga nisbatan humatsiz munosabatni shakllantiradigan” axborot ham bolalar o‘rtasida tarqatilishi taqiqlangan axborot mahsuloti jumlasiga kiradi.⁵⁰

Qonunga ko‘ra, “Bolalar ongiga g‘ayriqonuniy axborot ruhiy ta’sir ko‘rsatilishining, ularga hiyla ishlatilishining, bolalarni g‘ayriijtimoiy harakatlarga undovchi axborot mahsuloti tarqatilishining oldini olish, shuningdek, ushbu sohadagi huquqbazarliklarni profilaktika qilish” bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan bir sifatida belgilangan.

Jamiyatning axborot borasidagi xavfsizligiga erishish yo‘llari qonunga xilof ravishda ijtimoiy ongga axborot vositasida ruhiy ta’sir ko‘rsatishga, uni chalg‘itishga yo‘l qo‘ymaslik; milliy o‘zlikni anglashni izdan chiqarishga, jamiyatni tarixiy va milliy an‘analar hamda urf-odatlardan uzoqlashtirishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni barqarorlashtirishga, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni buzishga qaratilgan axborot ekspansiyasiga qarshi harakat tizimini barpo etish kabilardan iborat ekanligi qonun bilan belgilab berilgan.⁵¹

⁴⁹ Ўкувчи-ёшларни «оммавий маданият» хуружларидан ҳимоя қилишнинг назарий-методологик асослари. Р.Г.Сафарова ва бошк. – Тошкент, «Tafakkur qanoti», 2017. – 200 б. 32-бет.

⁵⁰ Ўзбекистон Республикасининг Конуни «Болаларни уларнинг соғлигига зарар етказувчи ахборотдан ҳимоя қилиш тўғрисида». Электрон ресурс: <https://lex.uz/docs/3333797>

⁵¹ Ўзбекистон Республикасининг Конуни «Ахборот эркинлиги принциплари ва кафолатлари тўғрисида». Электрон ресурс: <https://www.lex.uz/acts/52268>

Ammo bolalarning axborot xavfsizligini ta'minlash borasida ota-onalar mas'uliyatiga ham alohida e'tibor qaratishimiz darkor. B.Sirliboeva o'smir-o'quvchilarda axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishda ota-onalarga quyidagi amaliy tavsiyalarni beradi:

– o'smir-o'quvchilarning axborotlashgan jamiyatda to'g'ri faoliyat olib borishlarini ta'minlashga doir nazariy va amaliy metodik bilimlarini boyitishga e'tibor qaratish;

– oilada o'smir-o'quvchilarning axborotlardan samarali, maqsadga muvofiq va muvaffaqiyatli foydalanishlari uchun zarur shart-sharoit, shuningdek, ularning umumiyligi rivojlanishi uchun qulay axborot muhitini yaratib berish;

– bu borada ehtiyoj mavjud bo'lsa, umumiyligi o'rta ta'lim maktablarining pedagogik jamoasi, shuningdek, tegishli va ijtimoiy fanlar o'qituvchilarining pedagogik, maktab psixologining psixologik yordamiga tayanib ish ko'rish;

– o'smir-o'quvchilarning axborotlar bilan ishlashiga yo'naltirilgan faoliyatlarini vaqtiga vaqtiga bilan nazorat qilib borish, muammo yuzaga kelganda umumiyligi o'rta ta'lim maktablari bilan o'zaro hamkorlikka tayangan holda pedagogik va psixologik yordam olish;

– umumiyligi o'rta ta'lim maktablarida tashkil etiladigan ota-onalar yig'ilishlarida o'smir-o'quvchilarda axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirish muammosining ustuvor vazifalari yuzasidan o'zaro fikr almashishlarini ta'minlash;

– oila davrasida axborotning ijtimoiy-shaxsiy ahamiyati oqibatlari, axborot xavfi, axborot xavfsizligi borasida suhbatlarni tashkil etish.⁵²

Shuningdek, biz ham o'z o'rnida bolalarni ularning sog'ligiga, ma'naviyatiga zararli ta'sir ko'rsatuvchi axborot oqimlaridan saqlash maqsadida ota-onalardan o'z farzandlarining bo'sh vaqtini qanday o'tkazayotganini, telefonidan oqilona foydalanishini nazorat qilib borishni tavsiya qilamiz. O'quvchi-yoshlarni dars mashg'ulotlariga o'z vaqtida tayyorgarlik ko'rishga, mustaqil ta'lim olishga, doimiy ravishda badiiy adabiyotlarni mutolaa qilishga o'rgatib borish darkor.

Yuqorida fikrlarimizga xulosa qilib shuni qayd etmoqchimizki, ota-onsa o'z farzandlarining axborot xavfsizligini ta'minlash uchun bevosita mas'uldir. Farzandining bo'sh vaqt tushunchasidan yiroq bo'lishi, bekorchilik va dangasalik kabi illatlarga qaram bo'lishining oldini olish bo'yicha tizimli faoliyat olib borishda maktab va boshqa ta'lim muassasalariga yaqindan yordam berishi – ularning asosiy burchidir. Zero, ota-onsa va ta'lim muassasasi o'rtasidagi yaqin hamkorlikkina yosh avlodni axborot xurujlaridan samarali himoya qilish imkonini beradi.

Er-xotin, qaynona-kelin, quda-andalar, avlodlar o'rtasidagi nizolar, erta turmush qurish, ajrimlar va boshqa ijtimoiy muammolarni bartaraf qilmas ekanmiz, yosh avlodning axborot xavfsizligi to'g'risida so'z yuritishning o'zi noo'rin. Shu boisdan jamiyatimizda oilaviy ziddiyatlarning oldini olish – bizning asosiy maqsadimizga aylanishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни «Болаларни уларнинг сог'лигига зарар етказувчи ахборотдан нимоя қилиши тўғ‘рисида». Электрон ресурс: <https://lex.uz/docs/3333797>
2. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни «Ахборот эркинлиги принциплари ва кафолатлари тўғ‘рисида». Электрон ресурс: <https://www.lex.uz/acts/52268>
3. Отамуратов С. Глобаллашув: миллатни асраси масъулияти (сиёсий-фалсафий қирралари) [Матн]/ С.Отамуратов. – Тошкент: “O'zbekiston” НМИУ, 2018. – 352 б.
4. Ўқувчи-ёшиларни “оммавий маданият” хуружларидан нимоя қилишининг назарий-методологик асослари. Р.Г.Сафарова ва бошқ. – Тошкент: “Tafakkur qanoti”, 2017. – 200 б.
5. Сирлибоева Б. ўсмир-ўқувчиларда ахборот хаевфисизлиги кўникмаларини шакллантириши. – Т.: “Фан ва технология”, 2011. 80-бет.

⁵² Сирлибоева Б. Ўсмир-ўқувчиларда ахборот хаевфисизлиги кўникмаларини шакллантириши. – Т.: «Фан ва технология», 2011. 80-бет. 11-бет.

Isamutdinov Ravshan Raxmonovich,
*Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi boshqarma
boshlig'i o'rinnbosari, mustaqil izlanuvchi*

"XAFVSIZ MAHALLA" TAMOYILINI JORIY QILISHDA "XAVFSIZ OILA" MEZONINING O'RNI VA ROLI

Annotatsiya. Maqolada “Xavfsiz mahalla” tamoyili asosida “Xavfsiz oila” mezonining o‘ziga xosliklari yoritib berilgan. Shuningdek, muallif maqolada xavfsiz oilani ta’minlashda har bir oilaning sog‘lom muhit va o‘zaro hurmatini shakllantirishi, farzand tarbiyasiga mas’uliyatni rivojlantirishi, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishi, kitob o‘qish va huquqiy savodxonlikni rivojlantirishi jihatlarini ochib bergan.

Kalit so‘zlar: xavfsiz mahalla, xavfsiz oila, jinoyat, huquqbuzarlik, mezon, tasnif.

Аннотация. В статье раскрыты особенности критерии “Безопасная семья” на основе принципа “Безопасная махалля”. Также, автор поясняет особенности формирования здоровой среды и взаимного уважения, развития ответственности за воспитание детей, занятия физической культурой и спортом, чтения книг и развитие юридической грамотности в каждой семье для обеспечения безопасной семьи.

Ключевые слова: безопасная махалля, безопасная семья, преступление, правонарушение, критерий, классификация.

Annotation. The article reveals the features of the “Safe family” criterion based on the “Safe mahalla” principle. Also, the author explains the features of the formation of a healthy environment and mutual respect, the development of responsibility for raising children, physical education and sports, reading books and developing legal literacy of every family to ensure a safe family.

Key words: safe mahalla, safe family, crime, offense, criterion, classification.

Bugungi kunda jamiyatda ijtimoiy ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashda “Xavfsiz mahalla”, “Xavfsiz qishloq”, “Xavfsiz turizm”, “Xavfsiz shahar” kabi tushunchalar qo’llanilmoqda. Mazkur tushunchalarining har biri ma’lum bir soha va hududini o‘z ichiga qamrab olib, alohida yo‘nalish sifatida qaralmoqda.

Masalan, “Xavfsiz mahalla” tamoyilini taqdiq qilar ekanmiz biz uni shartli ravishda 3 ta mezonga ajratib, o‘rganishni lozim topdik (1-rasm).



1-rasm. Xavfsiz mahalla mezonlari

Ajratilgan 3 ta mezon o‘z navbatida tizimosti tarkibiy qismlarga bo‘lindi va ulardan biri “Xavfsiz oila” mezonining “Xavfsiz mahalla” tamoyilini joriy qilishdagi o‘rni va roli haqida to‘xtalib o‘tamiz.

“Xavfsiz oila” mezon 4 ta tarkibiy qismlarga ajratilib, ular tizimosti sifatida ma’lum bir sohani qamrab olish nuqtayi nazaridan tasniflandi (2-rasm).



2-rasm. Xavfsiz mahalla mezonining tizimosti tarkibiy qismlari.

Birinchidan, oilada sog'lom muhit va o'zaro hurmatni shakllantirish yo'nalishida.

Bugungi kunda oila institutini mustahkamlash bo'yicha, eng avvalo, "Sog'lom oila – sog'lom jamiyat" g'oyasini hayotga tatbiq etishga yo'naltirilgan yagona davlat siyosatini yuritish, notinch va muammoli oilalarga manzilli ko'maklashishni tashkil etish dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

Bu borada "turmush qurgan yoshlar orasida hayotni yengil-yelpi tasavvur qilish, oila muqaddas ekanini tushunib yetmaslik holatlari ham, afsuski, uchrab turibdi. Yosh oilalar orasida arzimas sabablar bilan ajralishlar ko'payib bormoqda. Begunoh bolalar yetim bo'lib, mehr va e'tiborga eng tashna vaqtida ota-onalar tarbiyasidan chetda qolmoqda. Yana bir noxush holatni bugun afsus bilan aytmoqchiman: oilalarda nosog'lom munosabatlar, qaynona-kelin, er-xotin o'rtasidagi janjallar, xotin-qizlarimiz orasida o'z joniga qasd qilish holatlari borligi shaxsan meni qattiq iztirobga solmoqda [1]", – deb ta'kidlab o'tganlar yurtboshimiz.

Keyingi yillarda aholi orasida oilaviy ajralishlar soni kamaygan bo'lsa-da, masala dolzarbligicha qolmoqda. Shu o'rinda, statistik ma'lumotlarga murojaat qiladigan bo'lsak, so'nggi yillarda respublikamizda 2016-yilda 29 340 ta, 2017-yilda 31 929 ta, 2018 yilda 32 326 ta, 2019 yilda 31 389 ta va 2020 yilda 28 233 ta oilaviy ajralishlar [2] qayd qilingan.

Biroq bugungi kunda oilalarda sog'lom muhit va o'zaro hurmatni shakllantirish borasida olib borilgan ishlarga qaramasdan qayd qilingan nikohlarning 10 foizi ajralishlar bilan yakunlanmoqda. Shuningdek, hozirgi vaqtida noqonuniy nikoh asosida yashayotganlar 16 ming 276 tani [3] tashkil qildi.

Bugungi kunda oila mustahkamligini ta'minlashda oilalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni o'rganish orqali mavjud muammolarini aniqlash va ularni vakolatli tashkilotlar bilan hamkorlikda manzilli bartaraf qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Zero, oilaviy nizoli holatlarning oldini olishda to'g'ri yondashilmaslik natijasida 2020-yilning 12 oyida respublikada sodir etilgan qotillik jinoyatlarining 35,2 foizi oila-turmush doirasida sodir etilganligi bunga yaqqol misoldir.

Masalan, oila-turmush doirasidagi qotilliklarning 47% er-xotinlar, 9% aka-ukalar va 38% boshqa qarindoshlar o'rtasida kelib chiqqan nizolar sababli sodir etilgan. Ushbu jinoyatlarining 4% o'ch olish, 13% rashk, 53% murosaga kelisha olmaslik, 4% mol-mulk talashish hamda 24% [4] boshqa sabablar oqibatida yuzaga kelgan. Bu esa oilalardagi nizolarni o'z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ko'rishni, jinoyatlar sodir etilishiga imkon beruvchi omillarga oila xavfsizligini ta'minlash nuqtayi nazardan yondashishni talab etadi.

Ikkinchidan, farzand tarbiyasiga mas’uliyatni rivojlantirish yo‘nalishida. O‘tgan asrda jadid adabiyotining yirik vakillaridan biri Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”, degan iboralari bugungi zamonda ham muhim va dolzarbligini ko‘rsatmoqda.

Ilmiy kuzatish va tadqiqotlar inson o‘z umri davomida oladigan barcha ma’lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo‘lgan davrda faol qabul qilishini, bolaning ongi, asosan, 5 – 7 yoshda shakllanishini ko‘rsatgan. Bu esa jamiyatga kirib kelayotgan shaxsning ma’naviy-ruhiy olami, dunyoqarashi, bilim-u salohiyati uning mактаб yoshigacha bo‘lgan yillarda oлган ta’lim-tarbiyasiga uzviy bog‘liqligidan dalolat beradi.

Jumladan, ota-onalarning farzand tarbiyasidagi huquqiy, ma’naviy-axloqiy, pedagogik, psixologik va tibbiy bilimlarini oshirish zaruriyati mayjud bo‘lib, bu esa jamiyatimizda uchrayotgan turli xil salbiy holatlariда o‘z aksini topmoqda.

Xususan, oilaviy ajralishlar oqibatida respublika voyaga yetmaganlar ota yoki ona mehridan mahrum bo‘lishiga olib kelmoqda.

Shuningdek, oilaviy ajralishlar bilan bog‘liq bunday holatlarda farzandlarni nazoratsiz va qarovsiz qolishlari voyaga yetmagan o‘smir qizlar o‘rtasida erta tug‘uruq holatlari sodir bo‘lmoqda. Bundan tashqari, oilada farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanishida ota-onalarda mas’uliyatni yetarli darajada rivojlanmaganligi, ularni qarovsiz va nazorat qolishlariga olib kelmoqda.

Uchinchidan, qo‘ni-qo‘shnilar bilan ahillikni mustahkamlash yo‘nalishida. Hozirgi vaqtida jamiyatdagi fuqarolar o‘rtasida bo‘layotgan turli xil ijtimoiy kelishmovchiliklar va ziddiyatli hodisalarda har bir oilani bir bo‘g‘im sifatida qaralganda, uni har jihatdan qo‘llab-quvvatlashda qo‘ni-qo‘shni tushunchalarning ham alohida o‘rni bor.

Qo‘ni-qo‘shni to‘g‘risida fikr yuritishdan oldin ushbu tushuncha bo‘yicha ilgari surilgan ta’riflarni keltirish o‘rinlidir. Ayni paytda, manbalar, ilmiy adabiyotlarda “qo‘ni-qo‘shni” yoki “qo‘shni” tushunchasiga turli xil yondashuvlar mavjud.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida berilgan ta’rifga ko‘ra, “Qo‘shni – uylari, hovli-joylari yonma-yon yoki yaqin bo‘lgan kishilar, oilalar, xonodonlar (bir-biriga nisbatan)” [5] hisoblansa, “qo‘ni-qo‘shni esa qo‘ni-qo‘shnilarning o‘zaro bordi-keldi munosabatlari” [6] tushuniladi.

Shundan kelib chiqib, qo‘ni-qo‘shni mustahkamligi va ahillagini ta’minalashda munosabatlar ishtirokchilarini o‘zaro kelishmovchilik va janjallarni barvaqt oldini olishda unga ta’sir qiluvchi muammolarni asl kelib chiqish sabablarini tahlil qilish lozim.

Agarda fuqarolar o‘rtasida ko‘plab nizoli holatlarni kuzatsak, ular, asosan, ma’lum bir obyektga qaratilganligining guvohi bo‘lamiz. Jumladan, respublikada oila-turmush doirasida sodir etilgan 143 ta qotillik jinoyatlarning 7 tasi qo‘ni-qo‘shni o‘rtasida bo‘lib o‘tgan.

Sodir etilgan jinoyatlar sabablari tahlil qilinganida yer talashish va o‘zaro kelishmovchiliklar orqali kelib chiqqanligi ma’lum bo‘lgan.

Shuningdek, oilaviy munosabatlarning barqarorligini ta’minalashda qo‘ni-qo‘shnilarning bir-biriga e’tiborsizligi ham asosiy rol o‘ynaydi. Bu borada oilada fuqarolarni bir-biri bilan janjallahish holatlariга e’tiborsizligi, ularni tartibga chaqirish va huquqbazarlikning dastlabki bosqichida oldini olish choralarini ko‘rish yoki bu haqida tegishli mas’ullarga bu haqida xabar berish osoyishtalikni ta’minalashga zamin bo‘ladi.

To‘rtinchidan kitob o‘qish va huquqiy savodxonlikni rivojlantirish yo‘nalishida. Mazkur yo‘nalishni yoritishda uni qismga ajratib olish maqsadga muvofiq, avvalambor, kitob o‘qish, ikkinchidan, oilada huquqiy savodxonlikni rivojlantirish sifatida alohida-alohida ko‘rib chiqamiz.

So‘ngi yillarda respublikada kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Jumladan, respublikada kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlashning huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida 2017-2020-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatning 5 ta qarori qabul qilindi, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi etib belgilandi [7].

Bu borada oilada kitobxonlik madaniyatini oshirishga doir targ‘ibot ishlarini tizimli va samarali tashkil etishda kitobxonlar o‘rtasida “Eng kitobxon mahalla” va “Eng kitobxon oila” kabi ko‘rik-tanlovlarini tashkil qilish yo‘lga qo‘yildi.

Oilada kitob o‘qishni rivojlantirish yosh avlodning ma’naviy-intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan muhim va dastlabki maskan hisoblanadi.

Tadqiqotchi D.Mo'minova fikricha, turli yosh bosqichidagi shaxsning kitob bilan muloqotini 5 ta shaklda ifodalab, dastlabki qarashlarning oilada shakllanishini "kitobxonlik savodxonligi" [8] sifatida baholagan.

Olimlar va tadqiqotchilar hamisha kitobni aqlni charxlaydigan, ma'naviy yuksalishga yetaklaydigan manbaa sifatida ta'riflaydilar. Kitob o'qish inson ruhiyatiga va salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi haqida so'nggi vaqtarda olimlar o'rtasida bahs-munozara bo'lmoqda.

Kitob orqali inson fikran boyishi va dunyoqarashi kengayishida ko'plab foydali jihatlari keltirilgan. Masalan, mutolaa jinoyatchilikning oldini oladi. O'tkazilgan tadqiqotdan ma'lum bo'lishicha, panjara ortida savodxonligini oshirgan jinoyatchilar ozodlikka chiqqanlaridan so'ng boshqa jinoyatchilarga nisbatan jinoyatga 30 foiz kamroq qo'l uradilar [9].

O'zbekiston mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi direktori A.Abdullaev ta'kidlashicha, mutolaaga qiziqishning susayishi, o'z navbatida, aholi savodxonlik darajasi pasayishi jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishi uchun katta tahdidlardan sanaladi [10].

Bundan tashqari, mamlakatimizda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish "shaxs — oila — mahalla — ta'lim muassasasi — tashkilot — jamiyat" prinsipi asosida tashkil etilmoqda. Bu borada mahallalarda haftaning kunlarida ma'lum bir yo'nalish bo'yicha huquqiy targ'ibot tadbirlari o'tkazilmoqda.

Jumladan, mahallalarda aholi vakillarini taklif qilgan holda "Ma'naviyat soatlari" va "Huquqiy bilimlar", "Huquqbazarliklar profilaktikasi", "Yong'inlar profilaktikasi", "Yo'l harakati xavfsizligi targ'iboti" kunlari o'tkazilmoqda. Tashkil qilingan targ'ibot tadbirlari orqali oilada huquqiy savodxonlikni rivojlantirish huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga ta'sir qiluvchi omillaridan biri sifatida ko'rishimiz mumkin.

Umuman olganda, "Xavfsiz mahalla" tamoyilini joriy qilishda har oilada sog'lom muhit va o'zaro hurmatni shakllantirish, farzand tarbiyasiga mas'uliyatni rivojlantirish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish, kitob o'qish va huquqiy savodxonlikni rivojlantirish kabi masalalarning o'rni va roli beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. 2018 йил 7 марта куни ҳалқаро хотин-қизлар куни муносабати билан ўтказилган тадбирдаги нутқи. www.iza.uz. 09.03.2018 й;
2. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси берган маълумотлари;
3. Ўзбекистон Республикаси Махалла ва оиласи қўллаб-қувватлаш вазирлиги маълумотлари;
4. Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Нукуқбузарликлар профилактикаси боши бошқармасининг маълумотлари;
5. Ўзбек тилининг изоҳли луг'ати / А.Мадвалиев таҳрири остида; масъул муҳаррир Э.Бегматов ва бошқ. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008. – Б.421.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луг'ати / А.Мадвалиев таҳрири остида; масъул муҳаррир Э.Бегматов ва бошқ. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008. – Б.409.
7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг "2020 — 2025 йилларда китобхонлик маданиятини ривожлантириши ва қўллаб-қувватлаш миллий дастурини тасдиқлаш тўғ‘рисида"ги 781-Қарори. Конун нујжесатлари маълумотлари миллий базаси, 14.12.2020 й., 09/20/781/1619-сон
8. Муминова, Диляфрӯз Акбаралиевна (2019) «The role of booking in barkamol individual.» *Scientific Bulletin of Namangan State University: Vol. 1 : Iss. 6 , Article 81.* <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss6/81>
9. Китоб ўқишининг 21 фойдаси нақуда. "AdMe.ru" китоб ўқишининг фойдалилиги борасидаги тадқиқотлар натижалари. <https://kh-davron.uz/kutubxona/qoshimcha/rivoyatlar/kitob-oqishning-21-foydasi-haqida.html>.
10. А.Абдуллаев. Мутолаа маданияти ва интеллектуал салоният. Халқ сўзи. Online. 14.02.2017.
11. <https://old.xs.uz/index.php/homepage/madaniyat/item/9477-mutolaa-madaniyat-va-intellektual-salo-iyat>.

Bayjonov Furqat Baxromovich,
MOITI mustaqil tadqiqochisi

FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING JORIY HOLATI VA ME'YORIY-TASHKILIY BAZASINI MUSTAHKAMLASH YO'LLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining joriy holati va me'yoriy-tashkiliy bazasini mustahkamlashga qaratilgan ishlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: mahalla, qonun, chora-tadbirlar, fuqaro, boshqaru, oila, xotin-qizlar.

Аннотация. В статье описывается текущее состояние самоуправления граждан и работы по укреплению нормативно-правовой базы.

Ключевые слова: соседство, закон, меры, гражданин, администрация, семья, женщины.

Annotation. This article describes the current state of citizens' self-government and the work aimed at strengthening the regulatory framework.

Key words: neighborhood, law, measures, citizen, administration, family, women.

Demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'llidan izchil borayotgan mamlakatimizda fuqarolarning davlat boshqaruvini amalga oshirishdagi ishtirokini va mahalliy ahamiyatga molik masalalarni mustaqil hal qilishlarini ta'minlovchi tashkiliy-huquqiy kafolatlar tizimini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, o'zini o'zi boshqarish tizimini rivojlantirish fuqarolik jamiyatini barpo etishning nafaqat sharti, balki muhim vosisadir. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinishi bilan milliy davlatchiligimiz tarixida birinchi marotaba mahalla konstitutsiyaviy institut maqomiga ega bo'ldi. Asosiy Qonunning 32-moddasida fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega ekanligi, bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo'li bilan amalga oshirilishiga oid norma o'z ifodasini topdi. Konstitutsiyaning 105-moddasida esa fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining huquqiy asoslari yanada mustahkamlandi. Unga ko'ra, shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylashi belgilandi. Bu vazifani hal qilishda "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekistonda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish idoralari joylarda fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy huquqlarini ro'yobga chiqarish, ularning xavfsizligi yoki tinchligiga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan holatlarning oldini olish hamda fuqarolik jamiyatini shakllantirishda eng muhim o'rinn tutadigan ijtimoiy institut hisoblanadi. Aynan shu sababdan hukumat tomonidan ushbu idoralarning faoliyatini mutazam ravishda takomillashtirib borish vazifasiga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yilda qabul qilingan "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etdi. Farmonda mahalla institutini qo'llab-quvvatlash orqali jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish bo'yicha ko'plab chora-tadbirlar va mexanizmlar ko'zda tutilgan. Mahalla instituti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha hukumat tomonidan olib borilayotgan sa'y-harakatlar va yaratilayotgan sharoitlar ushbu tashkilotlar faoliyati samarali bo'lsagina belgilangan maqsadlarga erishishga imkon yaratadi. Shu nuqtayi nazardan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish idoralarining faoliyatini tizimli ravishda baholab borish va uning natijalari bo'yicha ushbu faoliyatni takomillashtirish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlar belgilash va amalga oshirish vazifasi o'ta dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mahallalarda istiqomat qiladigan voyaga yetmagan farzandlari bor hamda kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan ulkan hajmdagi moliyaviy mablag'lar ham mahalla yig'inlari orqali taqsimlanishini inobatga olinsa, ushbu tashkilotlar faoliyatining samaradorligi va shaffofligi ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning ahvoligi ham ta'sir etishi bois ham dolzarb hisoblanadi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish idolarining faoliyatini baholash ushbu faoliyat natijasida mahallada istiqomat qiladigan aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, xavfsizligi, yashash sifati va turli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari yuzasidan aniq va obyektiv xulosa yasash uchun imkon yaratib berishi zarur. Bu baholash mahalla va uning aholisi uchun muhim bo‘lgan sohalar va jabhalarni to‘g‘ri belgilab olinishi pirovardida baholashning obyekтивligini belgilab berishini ko‘rsatadi.

Baholash tizimining obyekтивligini ta‘minlash maqsadida mahalladan va boshqa tashkilotlardan olinadigan ma‘lumotlarning ishonchlilagini tekshirish bo‘yicha aniq mexanizm ko‘zda tutililishi zarur.

To‘plangan ma‘lumotlar va ko‘rsatkichlar asosida baholashni amalga oshirishda turli xatoliklar hamda obyekтивlikka ta’sir etadigan omillarning oldini olish maqsadida baholashning bazaviy ma‘lumotlarni kiritishdan boshqa barcha jarayonlari va bosqichlarini kompyuter dasturi orqali amalga oshirilishini qat’iy belgilinishi lozim.

Metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilgan va obyektiv indikatorlarga asoslangan baholash tizimi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish idolarining faoliyatini tahlil qilish hamda takomillashtirish yuzasidan muvofiq takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Bu, o‘z navbatida, mazkur idoralarning oldiga qo‘yilgan vazifalarni to‘liq va samarali bajarilishi uchun shart-sharoitlar shakllanishini ta‘minlaydi.

Bugungi kunda mamlakatimizni barqaror rivojlantirishga erishish, xalq farovonligini oshirishga yo‘naltirilgan ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy o‘zgarishlar va keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari izchil amalga oshirilmoqda. Buni yaqqol yurtimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya qilinishini ta‘minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash va siyosiy partiyalar faoliyatida keng ko‘lamli ishlar, islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bugun yurtimizda faoliyat yuritayotgan mahalla instituti xotin-qizlarning jamiyatda ijtimoiy faolligi va o‘z o‘rnini topishlari uchun izchil faoliyat olib bormoqda.

Barcha mahalla instituti ishlarning holati xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ular bilan maqsadli ishlarni tashkil etish, oilalarda ma‘naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash va sog‘lomlashtirish hamda ularning siyosiy faolligini oshirishning samarali mexanizmlarini yaratishga to‘sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammo va kamchiliklar mavjudligini o‘rganib, ularni bartaraf etishga harakat qilishmoqda.

Ma‘lumki, xotin-qizlar o‘rtasida huquqbazarliklarning barvaqt oldini olish, birinchi navbatda, huquqbazarlikka moyilli bo‘lganlar bilan yakka tartibda ish olib borish hamda jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan xotin-qizlarning ijtimoiy reabilitatsiyasi va moslashishi bo‘yicha choratadbirlarni amalga oshirishda davlat organlari va fuqarolik jamiyatni institutlari bilan yaqin hamkorlikni ta‘minlashda mahalla instituti va siyosiy partiyalar muhim o‘rin tutadi. Chunki siyosiy partiyalarda faoliyat yuritayotgan ayollar qanotining o‘rni muhim ahamiyatlidir.

Mamlakatimizda huquqni muhofaza qiluvchi organlar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va siyosiy partiyalar hamda boshqa tashkilotlar bilan birgalikda xotin-qizlar o‘rtasida huquqbazarliklarni jinoyatchilik profilaktikasini samarali tashkil etish, shu jumladan, ularning huquqiy madaniyatini oshirish va ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarini mustahkamlashga shaxsan javobgardir.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida bugun jamiyat hayotida mahalla institutini rivojlantirish borasida ustuvor bo‘lgan muhim jihatlarga to‘xtalib o‘tildi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatimizda faoliyat yuritayotgan har bir mahalla instituti o‘z dastur, nizom va ustavlarida o‘zining ustuvor vazifalari qatorida xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish orqali jamiyatda mustahkam o‘rnini topishishida muhim poydevor vazifasini bajaradi. Shuni alohida ta‘kidlash joizki, mahalla instituti xotin-qizlar huquqiy madaniyatini oshirishdagи o‘rni va uning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish va bu borada izchil hamkorlikning o‘rnatalishi, ilg‘or xorij tajribasining tadbiq etilishi bu boradagi islohotlarning ijobiy samarasini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. – T.: 2018-yil 2-fevral, PF-5325-son. <https://www.lex.uz/docs/-86020>

2. O'zbekiston Respublikasining "Fugarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to 'g 'risida "gi Qonuni, – T.: 1993-yil 2-sentabr, 915-XII-son. <https://www.lex.uz/docs/-86020>
3. "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog 'lomlashirish, mahalla institutini yanada qo 'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish choratadbirlari to 'g 'risida "gi PF-5938-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. – T.: 2020 yil 18-fevral. <https://www.lex.uz/docs/-86020>
4. <https://lex.uz/docs/3546742>

Mirakbarova Dildora Alisher qizi,
TDIU 2-bosqich tayanch doktoranti (PhD)

AJRIM SABABLARI VA ULARNING DINIY VA DUNYOVIY BILIMLAR ASOSIDAGI TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda nafaqat O'zbekistonning, balki butun dunyoning global muammolaridan biri bo 'lmish – ajrim va uning sabablari o 'rganiladi. Har bir jamiyat asosini baxtli va mustahkam oila tashkil etadi. Oila ma 'nan baxtli bo 'lgandagina, moddiy ne 'matlar ko 'zga ko 'rinadi, demografik muammolar hal etilib, har bir inson o 'z sohasi rivoji uchun xotirjam faoliyat yuritadi. Oila mustahkamligiga rahna soluvchi muammolarni, sabablarini o 'rganish, tahlil qilish va ulardan to 'g 'ri xulosa chiqara bilish oila va jamiyat kelajagining farovon bo 'lishiga olib keladi.

Kalit so 'zlar: oila mustahkamligi, ajrim, ma 'naviy inqiroz, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, diniylik, dunyoviylik.

Аннотация. В статье исследуются разводы и его причины, которые сегодня являются одной из глобальных проблем не только в Узбекистане, но и во всем мире. Основа любого общества – это счастливая и крепкая семья. Только когда семья духовно счастлива, материальные блага видны, демографические проблемы решены, и каждый спокойно работает над развитием своего дела. Способность изучать, анализировать и делать правильные выводы из проблем и причин, подрывающих прочность семьи, ведет к благополучному будущему для семьи и общества.

Ключевые слова: укрепление института семьи, развод, духовный кризис, подготовка молодежи к семейной жизни, религиозное, светское.

Annotation. The article examines divorces and its causes, which today are one of the global problems not only in Uzbekistan, but throughout the world. The foundation of any society is a happy and strong family. Only when the family is spiritually happy, material benefits are visible, demographic problems are solved, and everyone calmly works to develop their business. The ability to study, analyze and draw the right conclusions from problems and causes that undermine the strength of the family leads to prosperous future for the family and society.

Key words: consolidation the institute of the family, divorce, spiritual crisis, preparing young people for family life, religious, secular.

Sharq davlatlari, jumladan O'zbekiston uchun oilaviy munosabatlardagi baxt-saodat, mustahkamlik eng oliv milliy va diniy qadriyatdir. Zero, xotirjam, baxtli oiladagina komil farzandlar voyaga yetadi. O'zbek xalqi milliy va diniy qadriyatlari, urf-odatlari asosida necha asrlardan beri oila mustahkamligiga bo 'lgan e 'tiborini bir zum bo 'lsa ham ham kamaytirgani yo 'q.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 15-iyun kuni Toshkentda bo 'lib o 'tgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so 'zlagan nutqida oilalarimiz, mahallalarimizda, butun jamiyatimizda sog 'lom muhitni

mushakamlash, yoshlar tarbiyasi, tinch-osuda hayotimizni, muqaddas dinimiz pokligrini asrash vazifasi bugungi kunda naqadar ulkan ahamiyat kasb etayotganini uqtirdi. [9] Ma'lumki, diniy va dunyoviy bilimlar uyg'unligidagina inson o'zi orzu qilgan baxt qasriga erisha oladi.

Islom dinining muqaddas kitobi Qur'oni Karimning Va-z-zoriyot surasi 49-oyatida "Sizlar eslatma – ibrat olishlarigiz uchun Biz har bir narsani juft-juft qilib yaratdik", [3: 502] deyilgan. Dunyoga ibrat ko'zi bilan qaragan inson unda har bir jonzotni, maxluqotlarni, va hatto, tabiat ne'matlarini ham juftlik asosida yaratilganini ko'radi. Oila ham juftlik asosida quriladi va mustahkamligi ham juft qalblarning bir maromda urishiga, murosasiga bog'liq.

Ajrim – er va xotinning hayot vaqtida fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organlari tomonidan yoki qonunchilikda ko'zda tutilgan alohida holatlarda sud qarori bo'yicha nikohning bekor qilinishidir. Nikoh er-xotindan biri yoki har ikkalasining arizasiga muvofiq nikohni bekor qilish yo'li bilan, shuningdek, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan er yoki xotinning vasiysi bergan arizaga muvofiq tugatilishi mumkin. [1] Nikohning bekor bo'lish shakllari va sabablarida har bir davrda o'ziga xos asoslar bo'lganini ko'rish mumkin. Masalan, Sharq mamlakatlarida qadimdan to hozirgi kunga qadar nikohning bekor bo'lishi kam uchraydi. Chunki oila institutining poydevori mustahkam bo'lishiga ajdodlarimiz jiddiy qayg'urganlar. [2:12]

Har bir oilada tortishuv va kelishmovchiliklar bo'lib turadi. Ikki xil oilada, vaziyatda voyaga yetgan, dunyoqarashlari ikki olam bo'lgan insonlarning bir-birini tushunishi, murosa ila oila boshqarishiga, tabiiyki, ma'lum bir muddat zarur. O'zini va yonidagi umryo'ldoshini hurmat qilgan inson turli kelishmovchilik va xatolarga ko'z yumadi, muammolarda aybdorni emas, uning kelib chiqish sabablarini topib, bartaraf qilishga harakat qiladi.

Buyuk sahobalardan biri Abu Dardo roziyallohu anhu ayollari Ummu Dardo roziyallohu anhoga yangi turmush qurban vaqtlarida: "G'azabim kelganda sen meni rozi qilishga urin. Sening g'azabing kelganda men seni rozi qilishga urinay. Aks holda, birga yashay olmaymiz", deb nasihat qilganlar. [4:228]

Er-xotin o'rtasidagi mehr, muhabbat va o'zaro hurmat kabi asoslar bo'sh va zaif bo'lsa, er-xotinlik munosabatlari xavf-xatar yetishi kuchayadi. Tuyg'ular yo'qolganida esa, munosabat darz ketadi. Chunki mehr-muhabbat qalbni tark etsa, o'rniga nafrat joylashadi. So'ng er-xotin bir-biriga mehr va sabr-bardosh bilan emas, balki qo'pollik va dag'allik bilan muomala qila boshlashadi. Er-xotin birgalikdagi turmushlari davomida kelisha olishmasa, ikki holatdan biri kelib chiqadi. Yo og'ir va yomon munosabat, urush va janjal bilan turmushlarini davom ettirishadi yoki ajrashib, har biri o'z yo'lidan ketadi. Albatta, bu ikki yo'l ham muammoning yechimini topmaydi va ikkisini ham yaxshi tanlov, deb bo'lmaydi.

Ma'lumotlarga qaraganda (2019-yil 11-fevral), dunyoning ajrashishlar soni koeffitsiyenti eng yuqori bo'lgan o'n davlatiga quyidagilar kiritilgan: Maldiva, Belorussiya, Belgiya, Rossiya, AQSh, Ukraina, Portugaliya, Chexiya, Shvetsiya, Vengriya. [10] Ushbu davlatlarning aksariyati ajrimlarga oilani erkak kishi moddiy ta'minlamasligi, ya'ni ishsizligi, moddiy qiyinchiliklar tufayli ayollarning erkaklar bilan barobar ishlashi orqali moddiy mustaqillikka erishganliklari va er-xotindan birining surunkali spirtli ichimliklarni iste'mol qilishini asosiy sabab qilib ko'rsatishmoqda.

Mutaxassislarning fikricha, ularagi ajrimlarga nafaqat moddiy yetishmovchiliklar, balki ma'naviy inqiroz ham sabab bo'lmoqda. AQShda so'rov davrida 266 ta oilaviy muammolar bo'yicha shug'ullanadigan maslahatchilar o'rganib ko'rildi, ularning qayd etishicha, ularga yordam so'rab murojaat qilgan har 10 ta oilaning 9 tasi o'zaro munosabatlarda qiyinchiliklar sodir bo'layotganini tasdiqlaydilar. Mazkur qiyinchiliklardan: kommunikativ qiyinchiliklar – 86,6% ni, bolalar va ularning tarbiyasi bilan bog'liq – 45,7% ni, jinsiy muammolar – 43,7% ni, molivaviy muammolar – 37% ni, madaniy muammolar – 37,6% ni, tug'ishganlar bilan munosabat – 28,4% ni, er-xotin o'rtasidagi ishonchsizlik – 26,6% ni, xo'jalik ishlari – 16,7% ni, jismoniy haqoratlash – 15,6% ni va boshqa muammolarni tashkil etadi. [7:37] Oilaga bo'lgan mas'uliyatsiz munosabat davom etaversa, nafaqat bu va boshqa davlatlarning bugungi kuniga, balki kelajagiga ham ta'sir etmay qolmaydi.

Ma'lumotlarga ko'ra, ajrimlar sonining o'rtacha me'yorini Sharq mamlakatlarida, jumladan, urf-odati, an'analari va o'zligiga sodiq bo'lgan Xitoy davlatida kuzatishimiz mumkin. Xitoyda ajrim koeffitsiyenti 20-29% ni tashkil etadi. Bu Xitoyda moddiy, ma'naviy muammolar bo'lmaydi degani emas. Turmush qurishdan oldin kelin-kuyov tanlashga mas'uliyat bilan, har tomonlama o'ylab yondashish Xitoy xalqining ma'naviy meroslaridan biridir.

Dunyo olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, oila buzilishiga yoshlarning bir-birini yaxshi bilmay turib, shoshma-shosharlik bilan turmush qurishi, xarakter va dunyoqarashlarning turlicha ekanligining oilaviy hayotda aks etishi, yoshlarning oilaga tayyor emasligi, oilaga uchinchi shaxslarning aralashuvi, xiyonat, alkogol va giyohvand moddalar iste’moli sabab bo‘lmoqda. Aniqlanishicha, bugungi kunda dunyo bo‘yicha 42% ajrimlar yoshlarning oilaviy hayotga tayyor emasligidan kelib chiqmoqda. Aksariyat hollarda, bu oilaviy hayotga tayyor emaslik tushunchasini, aksariyat yoshi ulug‘ insonlar va boshqalar oiladagi uy-ro‘zg‘or ishlarini eplay olmaslik, saranjom-sarishta bo‘lmaslik kabilarni tushunishadi. Ammo bu masalaning faqatgina bir qismi, xolos. Asosiy tomonini esa er-xotinning psixologik holati egallaydi. Er-xotinnning bir- birini tushunmasligi, tushunishga harakat ham qilmasligi, oilada o‘zining “men”ini birinchi o‘ringa qo‘yishi, kelishib yashashga, uy-ro‘zg‘or, bola tarbiyasida mas’uliyatlarning teng emasligi, bir-birini ko‘nglini og‘ritib, xunuk so‘zlar ishlatib, haqorat qilishi, bir-birining hissiyotlariga bo‘lgan e’tiborsizlik, moddiy baxillik, murosaga kelish o‘rniga janjalni oshirib kabi holatlar shular jumlasidandir.

Sotsiolog-psixologlar baxtli va baxtsiz oilalarda arning o‘ziga va xotiniga bo‘lgan munosabatlarning xususiyalarini aniqlaganlar. Ular qiziqarli faktlarga ega bo‘ldilar. Oiladagi psixolgik muhit er-xotin qiziqishlarining umumiyligi bilan xarakterlanadi, eng muhim ularning ikkalasi ham qiziqish bilan hisoblasha bilishlarida va e’tibor bera bilishlaridadir. Er-xotin katta ijtimoiy muammo va talablar bilan yashaydigan oilalargina baxtli bo‘lishlari mumkin. Oiladagi qulay axloqiy-psixologik muhit er-xotin va oilaning boshqa a’zolarida o‘ziga ishonish, kishilarga ishonish, quvnoqlik, vazminlik kabi fazilat va tuyg‘ularni shakllantirishga ta’sir ko‘rsatadi. Psixologik muhit kishilarning muvofiqligida yanada aniq namoyon bo‘ladi. Kishilar bir-birlari bilan muvofiqligi, avvalo, hayotning qadri, qiziqishlari, emotSIONAL ko‘rsatmalarining umumiyligi tarzi hamohangligi nazarda tutiladi, natijada oilada bir-birini tushunish, boshqalarning qadrini ham, shuningdek, insonni qanday bo‘lsa shundayligicha qabul qiladi. Oila a’zolarida psixologik qulaylik ishonchilik, himoyalanish, bir-birining muomalasidan qatnoatlanish muvofiqlikning ichki subyektiv ko‘rsatkichidir. Kishilarning nomuvofiqligi oila a’zolarining bir-birlari bilan muomalada va o‘zaro harakatda bo‘lgan ehtiyojlarining chegaralanganlidadir. [5:25]

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi bergen 2021-yil aprel oyi ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda Respublikamizda 8,5 mln.ga yaqin oila istiqomat qiladi. FHDY organlarida 2021-yil birinchi choragi davomida 9213ta ajrim holati qayd etilgan. Davlat statistika qo‘mitasi bergen ma’lumotlarga ko‘ra esa, hududlar kesimida Toshkent shahri, Farg‘ona, Andijon, Toshkent viloyati va Samarqand viloyatlarida boshqa hududlarga nisbatan ajrimlar soni ko‘p. [9]

Muammoni o‘rganish va uning yechimini topish uchun shu vaziyatga olib kelgan sabablarni o‘rganib, tahlil qilish va ulardan to‘g‘ri xulosa chiqarish uning natijasini chirolyi qilishga, boshqa insonlarda shu kabi holatlarda xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yishning oldini olishga olib keladi. Mutaxassislar tomonidan olib borilgan so‘rovnomalar natijasida O‘zbekistonda oila buzilishiga olib keluvchi bir qancha sabablar aniqlandi:

- Oila va oilaviy munosabatlар haqida bilimning yetishmasligi. Bu holat er-xotin o‘rtasidagi ziddiyat va kelishmovchiliklarga sabab bo‘lib kelmoqda. 2020-yil ma’lumotlariga ko‘ra, aynan bu muammo ajrim sabablarining 44% ni tashkil qiladi. [8]

- Erta turmush qurish. Erta turmush qurgan insonlar o‘rtasida oila mas’uliyatini to‘liq tushunib yetmaganligi sababli tez-tez ajrashish holatlari kuzatilmoqda.

- Qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh. Qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh er-xotin ajrimiga sabab bo‘lish bilan bir qatorda qarindoshlar o‘rtasidagi munosabatlар uzilishi, nogiron farzandlar dunyoga kelishi ko‘rsatkichlarining o‘sishiga olib kelmoqda.

- Oilaga uchinchi shaxslarning aralashuvi. 2020-yil ma’lumotlariga qaraganda, aynan oilaga uchinchi shaxslarning aralashuvi ajrim sabablarining 15% ni tashkil qiladi. [8]

- Ishsizsiz va migratsiya holatlari. 2020-yil tadqiqot natijalariga ko‘ra, ishsizsizlik, iqtisodiy ta’milanmaganlik ajrim sabablarining 10% ni ko‘rsatsa, ichki va tashqi migratsiya sababi 7% ni tashkil qilmoqda. [8]

- Zararli illatlar. Ko‘plab sotsiolog olimlarning fikriga ko‘ra, oilalarning buzilib ketishiga giyohvandlik va surunkali ravishda spirtli ichimliklarini iste’mol qilish kabi illatlar sabab bo‘lishi aniqlangan. 2020-yil ma’lumotlariga ko‘ra, er-xotindan birining ichkilik va boshqa zararli illatlarga berilishi ajrim sabablarining 5% ni tashkil qilmoqdi. [8]

- Befarzanlik. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, dunyo bo'yicha ajrimlarning 15% befarzandlik tufayli yuz bersa, O'zbekistonda 4,7% sodir bo'lmoqda. [8]
- Oiladagi turli ko'rinishdagi zo'ravonlik holatlari 2020-yil statistik ma'lumotlar ko'ra, oiladagi zo'ravonlik tufayli 7% oila buzilmoqda, [8] va boshqalar.

Yuqorida biz o'rganib chiqqan sabablar O'zbekistondagi ajrim sabablarining ayrimlaridir, xolos. Bunda boshqa "yangicha" ko'rinishdagi sabablar ham yildan yilga ko'paymoqda. Ularning ba'zilariga ajrimdan boshqa chora topilmasligi, ba'zilari shunchaki "bahona"ligini tushunish tafakkur qilib ko'rgan odam uchun qiyin emas.

Odamni na moddiy, na ma'naviy ne'matlar baxtli qila olmaydi, qachonki bu baxt uchun o'zi kurashmasa. Ikki inson baxt uchun kurashishdan to'xtagan zahoti oila parokandalikka uchraydi.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash – bu fiziologik, tibbiy, psixologik, huquqiy, axloqiy, ma'naviy, madaniy, gigiyenik, ijtimoiy, iqtisodiy va jismoniy jihatlarni o'z ichida mujassamlashtiruvchi murakkab va mas'uliyatli jarayon. Jahon tajribasiga ko'ra, ta'lim oluvchilarni oilaviy hayotga tayyorlash maktab dasturlariga kiritilgan. Xususan, Shvetsiyada 1942-yildan, Chexiya va Slovakiyada 1960-yildan buyon "Otalik va onalik tamoyillari", Yaponiyada boshlang'ich ta'limning o'zida "Oilaviy hayotga tayyorlash" kurslari va Polshada 1973-yildan "Oiladagi hayotga moslashish" maxsus kurslari mavjud. Ushbu kurslar yoshlarni oila to'g'risidagi qonunlar, tushunchalar, oila psixologiyasi haqidagi bilimlarga o'rgatadi.

Mamlakatimizda yoshlarni oila-nikoh munosabatlariga tayyorlash muhim vazifa sanaladi. Bu borada ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida oilaga oid tushunchalarni yoshlarga o'rgatib borish zarurdir.[2:56]

TDIU "Ijtimoiy gumanitar fanlar" kafedrasi tomonidan oila mustahkamligi, ayol va ekaklarning oiladagi ma'naviy va moddiy huquqlari, gender tenglik va Islom dini axloq-odob qoidalariga oid monografiya va o'quv qo'llanma ustida ish olib borilmoqda. Bu boradagi takliflarimiz shundan iboratki, oliy ta'lim muassasalari o'quv yuklamasiga "Oila ma'naviyati" fanini kiritish zarur. Sababi, aksariyat o'zbek yoshlari talabalik davrida turmush qurishadi. Oilaga oid bilimlarni esa oila qurishdan avval egallansa, bu oila mustahkamligiga xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu mavzular yuzasidan turkumli ko'rsatuvlar qilish orqali ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda yangi loyiha ishlab chiqilib, teledasturning ilk sonlari xalq e'tiboriga havola etildi. Bu loyihaning maqsadi xalqimizning huquqiy, ma'naviy, diniy savodxonligini oshirishdir.

Ma'rifatparvar jadidchi Abdurauf Fitrat o'zining "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" asarida "Uylanish sunnatini qabul qilgan kishi xotin va bola-chaqasini tarbiyalab, boqish uchun o'zini kasb-korga uradi, harakat va amal yo'liga qadam qo'yadi. O'zining va oilasining tinchligi va farovonligini ta'minlash uchun harakat qiladi. Shu yo'l bilan mo'min odam o'zini xorlik va pastlik jarligidan qutqaradi. Qaysi millatning namoyondalari shu yo'l bilan tinchlik va totuvlikka erishgan bo'lsalar, o'sha millat hurmat va xotirjamlikda bo'ladi" [6:15], deb baxtli oila ikki tomonlarma mas'uliyat va o'zaro hurmatga asoslanishini ta'kidlab o'tgan.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, oila mustahkamligi masalasi, ajrimlar va ularning oldini olishda diniy va dunyoviy bilimlar, umuminsoniy, milliy va diniy qadriyatlar asosida har bir inson o'zi va yaqinlari uchun harakat qilmas ekan, menga nima qabilida ish tutib, loqayd bo'lar ekan bu masalaning yechimini topish qiyin bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Oila Codexsi. Lex.uz internet sayti.*
2. Акрамова Ф. ва бошқалар. Оила энциклопедияси. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" давлат илмий нашириёти. – Тошкент, 2019 йил.
3. Куръони Карим. Таржима ва изоҳлар муаллифи Шайх Алоуддин Мансур. "Чўлпон" нашириёти, – Тошкент, 1992-йил.
4. "Олтин силсила: 8-жуз: Сабиҳул Бухорий". "Hilol-nashr" нашириёти. – Тошкент, 2018-йил.
5. Ф. Бабажанова, З. Эшонқурова. "Оила психологияси" фанидан ўқув-услубий маҳсума. – Гулистан, 2015 йил.
6. А.Фитрат "Оила ёки оила бошқарии тартиблари". "Маънавият" нашириёти. – Тошкент, 2016-йил.
7. Файзиева М.Х. "Оила барқарорлигига шахслараро муносабатлар таъсирининг ижтимоий-психологик хусусиятлари (Эр-хотин мисолида)". Психология фанлари номзоди илмий даражасини олини учун ёзилган диссертация. – Тошкент 2005 йил.

8. Mahalla va oilani қўллаб-қувватлаш вазирлиги томонидан берилган статистик маълумотлар. 2020 йил декабрь маълумотлари.
9. Kun.uz интернет сайти.
10. prozakon.ru интернет сайти.



Maxsudova Mo‘tabar,
NamDU dotsenti, p.f.n.

OILA FAROVONLIGIGA SALBIY TA’SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada oila farovonligiga salbiy ta’sir etadigan psixologik omillar to ‘g ‘risida nazariy fikrlar va tadqiqotlar natijalarini berilgan.

Kalit so‘zlar: oila, oilaviy qadriyatlar, xiyonat, psixologik mos kelmaslik, ajralish.

Аннотация. В данной статье приводятся теоретические мнения и результаты исследований психологических факторов, негативно влияющих на семейное благополучие.

Ключевые слова: семья, семейные ценности, измена, психологическая несовместимость, развод.

Annotation. Theoretical opinions and research results on psychological factors that adversely affect family well-being are given in this article.

Key words: family, family values, faithlessness, psychological incompatibility, divorce.

Bizga ma’lumki, oila jamiyatning bir bo‘lagi, mustahkam qo‘rg‘on, muqaddas dargoh, Vatan ichra Vatan, inson o‘zini eng qulay his qiladigan maskan sifatida e’tirof etiladi. Prezidentimiz tomonidan oila va uning farovonligini ta’minlash uchun doimo e’tibor berib kelinadi.

Oila farovonligiga salbiy ta’sir etadigan omillardan biri bu ajralishdir. Agar ajralishning sabablarini Rossiya va O‘zbekiston oilalari misolida tahlil qiladigan bo‘lsak, quyidagi natijalarini ko‘rishimiz mumkin:

Rossiyada o‘tkazilgan oxirgi tadqiqotlarda nikoh ajrimlarining asosiy sabablari sifatida quyidagilar qayd etilmoqda (turli yoshli so‘raluvchilarining jami soniga nisbatan foiz hisobida):

- *moddiy, maishiy muammolar – 55;*
- *er yoki xotinning ichkilikka ruju qo‘yishi – 39;*
- *yoshlar uchun oilaviy qadriyatlarning pastlab ketishi – 27;*
- *er-xotin xiyonati – 19;*
- *psixologik mos kelmaslik – 17;*
- *oilaviy hayotning mazmunsizligi – 12;*
- *boshqa birovni sevib qolish – 11;*
- *farzandlarning yo‘qligi – 7;*
- *boshqa sabablar – 2;*
- *javob berishga qiynalganlar – 6. (1. 78.)*

Respublika va viloyatlar “Oila” ilmiy-amaliy markazlari tomonidan 2018-2020-yillar davomida nikoh ajrimlarining *sabablari* o‘rganilganda, aksariyat holatlarda bu birinchi o‘rinda er-xotinlarning o‘zaro kelishmovchiliklari, fe'l-atvorning bir-biriga mos kelmasliklari, rashk, xiyonat, kelin bilan qaynona va boshqa yaqin qarindoshlarning chiqishmasliklari, erkakning zararli odatlarga berilib ketishi (ichkilikka, giyohvand moddalarga va shu kabi), moddiy qiyinchiliklar (asosan, ernenish ishlamasligi, mustaqil oilani boshqara olmasligi), qudalarning to‘ydan keyin o‘zaro kelishmay qolishlari, ernen daraksiz ketib qolishi kabilar qayd etiladi. Ajrim sabablari o‘rganilganda, iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli oilaning buzilishi eng oxirgi o‘rinda qayd etiladi, chunki aksariyat o‘ziga to‘q, boy-badavlat oilalarda yoshlar, asosan, uch sabab tufayli ajrishib ketmoqda: rashk va xiyonat, kelin-qaynona munosabatlardagi kelishmovchilik va turmush sharoitidagi noqulayliklar. Umuman olganda, nikoh ajrimlarining bosh omili yoshlarning ma’naviy jihatdan turmush qurishga tayyor emasliklaridir.

Amalda er va xotin ajralishga axd qilganda, ular o‘rtasida farzand bo‘lmasa, FHDY idoralariga murojaat qiladilar va ularning nikohi bekor qilinadi. Agar o‘rtada farzand bo‘lsa, bu ishni sudlar hal qiladi, lekin aksariyat holatlarda o‘z-o‘zini boshqarish organi bo‘lmish mahalla va undagi yarashtirish komissiyasining a’zolari bo‘lmish faollar bunga aralashadilar, arzimagan sabab bilan ajrimgacha borayotgan yoshlarga jamoatchilik monelik ko‘rsatadi. Chunki milliy mentalitetda farzandni tirik yetim qilib qo‘yish katta gunoh hisoblanadi, shuning uchun azaldan urf bo‘lgan tamoyil borki, yosh oilaning keyingi taqdiriga kattalar aralashadi va oilaviy nizoning sabablari o‘rganilgach, bir qarorga kelinadi.

Agar oilaviy nizo yoshlarning, birinchi navbatda, ayolning va farzandlarning salomatligi, tinchligi va birgalikda yashashlariga jiddiy xavf solgan hollarda (xiyonat tufayli bir-birini kechirolmaslik, ernen timisiz alkogol iste’mol qilishi tufayli ayolni muntazam qiyynashi, maishiy zo‘ravonlik, oila byudjetiga erkak ulushining qo‘silmaligi kabi) jamoatchilik ayolning haq-huquqlarini himoya qiladi va mahallaning o‘zi ayol, uning farzandlari taqdirini belgilash, ularni ijtimoiy himoya qilish maqsadida bu ishga aralashadi. Joylardagi xotin-qizlar faollari oxirgi yillarda aynan shu masalalarda o‘z-o‘zini boshqaruv organlarining odilona faolligini oshirishga alohida e’tibor berib kelmoqda.

Mahalladagi yarashtirish komissiyalarining a’zolari bilan o‘tkazilgan suhbatlardan ma’lum bo‘ldiki, ular aksariyat holatlarda aynan ayollarning manfaatlarini himoya qilish bilan shug‘ullanadi, lekin ayolning aybi va uning oilaviy yumushlarga tayyor emasligi, eri va qarindoshlar bilan to‘g‘ri munosabatlarni o‘rnatishga no‘noqligi tufayli oila ajrim arafasida bo‘lgan sharoitda mahalla maslahatchilari kelin bilan ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi.

Namangan viloyati bo‘yicha ma’lumotlarga e’tibor beradigan bo‘lsak, 2019-yilning 10 oyi mobaynida o‘rganilgan ajrimlarning sabablari turli hududlarda turlicha aniqlangan. Jumladan, viloyat Oila markazi tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida Chust tumanida ajralishga ko‘proq sabab er-xotin munosabatlari, Uychi tumanida tibbiy ko‘rikning yaxshi tashkil qilinmaganligi oqibatida farzandsizlik, Uchqo‘rg‘on tumanida esa migratsiya natijasida xiyonatning kelib chiqishi, Pop tumanida qaynona-kelin munosabatlari, Namangan shahrida esa erta turmushning natijasida ajarishning kelib chiqishi asosiy omil bo‘lganligi aniqlandi.

O‘zbekistonda nikoh ajrimlarning imkon darajasida kam bo‘lishi yo‘lida olib borilayotgan ishlar o‘zining natijalarini bermoqda. Yil sayin sudlar orqali nikoh ajrimlari sonining kamayib borayotganligi fikrimiz dalilidir.

Oilalar miqdorining ortib borishi oxirgi yillarda, asosan, yosh oilalar va nuklear tipli, ya’ni, er-xotin va ularning farzandlari alohida yashaydigan oilalar hisobiga sodir bo‘lmoqda. Mavjud oilalarning salkam 50 foizi – bu nuklear oilalar, bir xonadonda bir necha alohida oilalar istiqomat qiladigan patriarchal oilalar jami oilalarning salkam 23,5 foizini tashkil etadi. Nuklear, yosh oilalarning aksariyati 9 yildan kam bo‘lgan turmush tajribasiga ega bo‘lganlar bo‘lib, sodir bo‘layotgan nikohning barbod bo‘lishi holatlari aynan shu kabi oilalarga to‘g‘ri kelmoqda. Ya’ni ilmiy izlanishlardan olingan ma’lumotlarga ko‘ra, 70 foizdan ortiq nikoh ajrimlari yosh oilaga to‘g‘ri keladi.

Noto‘liq oila – yolg‘iz onaxon yoki otaxonlar, er yoki xotinning o‘limi tufayli noto‘liq bo‘lgan oilalar yoki ajrim tufayli paydo bo‘ladigan oila tipidir. Afsuski, oxirgi sabab bo‘yicha noto‘liq bo‘lgan oilalar boshqa toifaga nisbatan ko‘p. Ajrim bo‘lgan oilalarning salkam 1% dagina bolalar otaning qo‘lida qoladi. Qolgan holatlarda voyaga yetmagan bolalar onalari bilan qoladi. Bu onalarning o‘rtacha yoshi 23-24 yoshni tashkil etadi, ularning qo‘lida qolgan bolalarning o‘rtacha soni 2,5 nafardir. Yolg‘iz farzand tarbiyalayotgan yosh ayollarning ma’lumotliligi o‘rganilganda, ularning aksariyoti o‘rtalig‘i va to‘liqsiz o‘rtalig‘i ma’lumotli ekanligi e’tirof etilgan (20,5%). Yosh turmush qurayotgan qizlarimizning 12,3% i 15-19 yosh oralig‘ida ona bo‘lishadi. 15-16 yoshda ona bo‘lish holatlari ham hanuz mavjud.

Psixologik adabiyotlarda ajrimlarning tabiatini, bu jarayonga oid qonuniyatlar ilmiy nuqtayi nazardan beriladi. Masalan, *S.Kraxotvil* ajrim jarayonining quyidagi bosqichlarini ajratadi:

Bosh ko‘tarish bosqichi: xo‘rlangan va norozi ayol o‘z faolligini oshirib, ajrim sodir bo‘lmasligining oldini olib uchun muayyan sa’y-harakatlarga kirishadi. Lekin barcha ishlarni xavotirlik va hayajon bilan amalga oshirgani sababli, ko‘p xatolarga yo‘l qo‘yadi va noma‘qul ishlarni ham qilib qo‘yishi mumkin.

Tushkunlikka tushish bosqichi: ajralishni xohlasmagan tomon vaziyatni boshqara olmaganligini tan olib, tushkunlik, depressiya holatiga tushadi va o‘zini ham ayblay boshlaydi.

Bo‘yinga olish bosqichi: ajralishni xohlasmagan tomon endi mavjud holat bilan kelishib, bunday nikohning bo‘lganidan bo‘limgani ma’qulligi fikriga keladi.

Albatta, shuni ta'kidlash joizki, ayrim hollarda ikkala tomon ongli ravishda, o'zaro kelishib, bir-birlariga tana-dashnom bermaydilar va bunday ajrimlar yuqorida ko'rsatilgan bosqichlarsiz sodir bo'ladi. Demokratik huquqiy davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurilayotgan davlatlarda ajrimlar masalasiga ham demokratik tarzda qaraladi, ya'ni bu ikki tomonning yoki birining manfaatiga mos kelishi inobatga olinib, ajrim sodir etiladi, lekin bunday holatlarda, ayniqsa, yosh bolasi bilan qolgan ona ijtimoiy-psixologik yordamga, jamiyat tomonidan ko'rsatiladigan madadga muhtoj bo'ladi. Inqirozli oila yoki mushkul ahvolga tushib qolgan onalar, ularning farzandlari bilan psixologik-pedagogik yordam ishlarini tashkil etish asosan quyidagi yo'nalishlarda tashkil etiladi:

- diagnostik;
- korreksion;
- profilaktik;
- ma'rify.

Inqirozli oila bilan ishlash, avvalo, shunday holatga tushib qolgan oilalarning talab-takliflari asosida, yoki u yoki bu hududdagi oilalarning ahvolini o'rganish natijalariga ko'ra amalga oshiriladi.

Oilaga ijtimoiy-psixologik xizmat markazlari kimning buyurtmasi bilan faoliyat boshlagani, uning faoliyati samarasini kim monitoring qilishidan qat'i nazar, u quyidagi toifa insonlarga xizmat ko'rasatadi:

- *bolalar*;
- *ota-onalar*;
- *yaxlit oila*.

Oilada tarbiyalanayotgan bolalar muammolari bilan shug'ullanadigan ijtimoiy-psixologik xizmat markazlari, asosan, ular bilan diagnostik va psixokorreksion yo'nalishlarda ish olib boradi.

Diagnostik yo'nalishdagi ishlar o'z ichiga quyidagi vazifalarni qamrab oladi:

1. Bola psixik taraqqiyotida sodir bo'layotgan muammolar, chekinishlar va ularning asl sabablarini diagnostika usullari yordamida aniqlash.
2. Bolaning normal taraqqiyoti jarayonida aniqlangan muammla jihatlarni va ularni bartaraf etish bilan bog'liq ishlar.
3. Bola psixik taraqqiyotidagi patologiyalar va ularni qisman bo'lsa-da bartaraf etish, kelib chiqish sabablarini ota-onaga bildirish hamda hamkorlikda bolaga yordam berish choralarini belgilash.

Bola salomatligi va uning xastaliklarining psixik hayotga aloqadorligi bevosita ekanligini aniqlagan psixolog-maslahatchi ota-onsa bilan birgalikda muammoning yechimini izlaydi va bu bilan oila muhitini yaxshilashga hissa qo'shamdi. Bolalar o'rtasida olib boriladigan **profilaktik ishlar**, asosan, avvaldan belgilangan reja bo'yicha amalga oshiriladi. Profilaktikaning maqsadi – bolada anomal holatlarning oldini olishdir. Albatta, bunda ham psixolog mutaxassis psixodiagnostik vositalardan foydalandi, lekin uning vazifasi, eng avvalo, bolada ro'y berishi mumkin bo'lgan patologik jarayonlarning oldini olishdir.

Chunki oilaviy nizolar, oilaviy munosabatlarning izdan chiqishi shu oila muhitida tarbiyalanayotgan bolaning asab tizimiga, psixologik rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Oиласida muammo bo'lgan bolalar o'rtasida olib boriladigan **korreksion-tuzatish bilan bog'liq chora-tadbirlar** ham diagnostik amaliyot bilan birgalikda amalga oshiriladi. Bunda diagnostika orqali aniqlangan xulqdan chekinish holatlari bolaning yoshi, oilaviy sharoiti, qiziqish va iqtidori inobatga olingan holda malakali amaliyotchi psixolog tomonidan amalga oshiriladi. Bunda bevosita bola ongi va fikrlash tarziga ta'sir ko'rsatiladi, shuning uchun bunday tadbirlar maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar o'rtasida o'tkaziladi.

Ota-onalar bilan psixologik-pedagogik profilaktika ishlari oilada er yoki xotin tomonidan bir-birlariga nisbatan noo'rin, beshafqat munosabatlar sodir etilganda amalga oshiriladi. Shuning uchun amaliyotchi psixolog, eng avvalo, er-xotinlarning qay biri ko'proq aybdor va qaysi birining insoniy sha'ni va huquqlari poymol etilganini aniqlashi darkor. S.Kovalevning fikricha, nizokash er-xotinlarning dastlabki muloqotda psixologga bergen ma'lumotlari har doim ham haqqoniy, obyektiv bo'lavermaydi. Psixolog xizmatidan foydalanishni istagan shaxsning o'zi muammoni aniq nimada ekanligini bayon etolmaydi. Masalan, eridan noligan xotin erning qay darajada nohaqligi yoki nima sababdan undan ko'ngli qolganligini aniq aytib berolmaydi. Ayniqsa, bunday holatlarda nizoli vaziyatni keltirib chiqargan "aybdor" bola bo'lib chiqsa, ikkala tomon ham o'zicha haq va ularning ikkisini janjallashishga turtki bo'lgan omil ularning farzandini sevishi bo'lib chiqadi.

Rus olimi V.V.Stolin psixologik xizmat markazlariga norozilik bilan murojaat qilgan ota-onalarning shikoyatlari mazmunini o'rgangan va ularni toifalarga bo'lgan:

1. Bolasidan tashvishlangan ota-onaning murojaati. Aslida ba’zi murojaatlar o‘rinsiz bo‘lib, ota-onaning ortiqcha jonsarakligi, xavotirchanligi tufayli kelib chiqadi, ular har ehtimolga qarshi bolsini parvarishlash, tarbiyalashga adashib ketmaslikdan qo‘rqib psixolog qabuliga keladi.

2. Shikoyatli murojaat ota-onaning bolaga munosabatining o‘zidan kelib chiqadi. Chunki aslida bola ota-ona ishora qilayotgan tashvishlardan, nuqsonlardan xoli bo‘ladi. Masalan, onaning fikricha, bolasi uni yoqtirmaydi, uning aytganlarini qilmayapti, aslida, uning o‘zi bolaga yetarli va o‘rinli mehr berolmaydi.

3. Shikoyat qisman yoki mutlaq asosli, chunki bolada haqiqatan ham ota-onaga, yaqinlariga, yaxshi ko‘rgan narsalariga nisbatan noto‘g‘ri munosabat shakllana boshlagan yoki anchadan buyon namoyon bo‘lmoqda. Bu nuqsonlar, asosan, ota-ona va bola o‘rtasidagi munosabatlarga aloqadorligini psixolog aniqlaydi.

4. Bola xulqidagi og‘ishlar va ularga bog‘liq xatti-harakatlar ota-onani jiddiy tashvishga soladi. Lekin bunday holat umuman oilaviy o‘zaro munosabatlarning darz ketganligi oqibati bo‘lishi mumkin. Bu odatda bolaning ota-onasi bilan normal munosabatda ekanligini ko‘rsatadi, lekin xulqidagi nomuvofiqliklar bolaning o‘qishi, intizomi, maktabdagi burchlarini to‘la bajarmayotganligi bilan bog‘lanadi.

5. Bolaning ota-onasi bilan munosabati yomonligining sababi – asosan kattalarning bolaga nisbatan adolatsizligi oqibati hisoblanadi. Bunday holatlarda haqiqatan ham bolaning psixologiyasida jiddiy o‘zgarishlar va muammolar bo‘ladi va ota-onaning shikoyati jiddiy psixologik tuzatish ishlarini taqozo etadi.

Yuqoridagi kabi shikoyatlar ortib borgan sari oxirgi yillarda ota-onalarning o‘z farzandlarini to‘g‘ri tarbiyalashlari, o‘zaro munosabatlarini to‘g‘ri maromda tashkil etishlari borasida qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Shunday loyihalardan biri “Ota-onalikning samaradorlik treningi” bo‘lib, u rus olimi A. Aladin tomonidan taklif etilgan. Bu trening ota-onalarda oilaviy munosabatlarda o‘zini qanday tutish, farzandlar bilan munosabatda qo‘llaniladigan eng samarali usullar borasidagi bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirishga yo‘lantirilgan.

O‘zbekiston sharoitida ham endi keng ko‘lam yozayotgan xususiy va davlat muassasalari taklif etayotgan “Oila saboqlari”, “Ijtimoiy psixologik treninglar” aynan er-xotinlarni ota-onalikka va o‘zaro munosabatlarning turli jihatlariga qaratilgandir.

“Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash” vazirligi, Respublika “Oila” ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan olib borilayotgan ishlarning asosiy maqsadi va yo‘nalishi ham aynan shu kabi muammolarni joyida, oila muhitida yechishga kattalarni va yoshlarni o‘rgatish, ularda sog‘lom munosabatlar psixologiyasini shakllantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Demak, oila farovonligiga erishish uchun oilaning ijtimoiy-psixologik muhitini yaxshilash, ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, er-xotin o‘rtasidagi munosabatlarni izga solish, yosh oilalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularga oila ilmini o‘rgatish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Иванова Л.В. *Ваша свадьба*. – Смоленск: Русич, 1999. – С. 78-84.

Mustanov U.Z.,
Jizzax davlat pedagogika instituti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA OILA, MAHALLA, MAKTAB HAMKORLIGI KONSEPSIYASI

Annotatsiya. Maqolada jismonan sog ‘lom, ma’nan yetuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti, ota-onalar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ta’lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorligini mustahkamlash haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik, insonparvarlik, diniy bag‘rikenglik, yuksak ma’naviyat.

Аннотация. В статье рассматривается укрепление взаимодействия института семьи с родителями и органами самоуправления граждан и образовательными учреждениями в воспитании физически здорового, духовно зрелого и разностороннего поколения.

Ключевые слова: патриотизм, человечность, веротерпимость, высокая духовность.

Annotation. The article is about strengthening the interaction of the family institution, parents and citizens’ self-government bodies with educational institutions in the upbringing of a physically healthy, spiritually mature and harmoniously developed generation.

Key words: patriotism, humanity, religious tolerance, high spirituality.

Yosh avlodga zamonaviy ta’lim berish bilan birga ularni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, yuksak iqtisodiy fazilatlar ruhida tarbiyalash, ongi va qalbini mafkuraviy va ma’naviy tahdidlardan ishonchli himoya qilish, ularda g‘oyaviy immunitet va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalalari davlatimizning doimiy diqqat markazida bo‘lib kelmoqda.

Endilikda yoshlardan millati, xalqi, qolaversa, o‘zi va oilasi manfaatlari uchun erkin mehnat qilish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bunday muhim ijtimoiy o‘zgarishlar mustaqil davlatimiz Konstitutsiyasida, “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi” va boshqa qonunlarda umuminsoniy qadriyatlarga muvofiq ravishda mustahkamlab qo‘yilgan. Bularning barchasi yoshlarda yangicha tafakkurni, milliy, ijtimoiy-siyosiy ongini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik kabi xislatlar bilan birga diniy bag‘rikenglik, yuksak ma’naviyat egasi bo‘lish hamda boshqa millatlarga nisbatan hurmat bilan qaraydigan, insoniy qadr-qimmatini e’zozlaydigan qilib tarbiyalash biz qurayotgan buyuk davlatchiligidan poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu ulkan sharafla, mas’uliyatlari ishlarni amalga oshirishda o‘zaro chambarchas bog‘liq uch omil – oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligi muhim ahamiyatga egadir. Ular orasidagi samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish o‘smirlar orasida tartibbuzarlik, o‘g‘rilik, tanga jarohat yetkazish, nomusga tajovuz qilish, giyohvandlik va shunga o‘xshash illatlarning oldini olishda, bugungi kunning ma’naviy yetuk yoshlarni tarbiyalashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning 3.2-bandida ta’lim oluvchilarning o‘qishi, turmushi va dam olishi uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi vazifalar qal etilishida jamoatchilik boshqaruvini rivojlanishiga, 4.4.-bandida esa O‘zbekiston mustaqilligi prinsiplariga sadoqatlari hamda jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishga qodir shaxsni shakllantirish maqsadda ta’lim muassasalari, ota-onalar, oila, maqalda qo‘mitalari, “Ma’naviyat va ma’rifat jamoatchilik markazi”, jamoat tashkilotlari, fondlar bilan o‘zaro puxta hamkorlik qilishlariga alohida e’tibor berilgan. Bu “Oila, mahalla, maktab hamkorligi” bugungi kunning ma’naviy, ma’rifiy, mafkuraviy, tarbiyaviy zaruriyati ekanligini bildiradi. Yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda:

– xalqimizning boy milliy, madaniy, tarixiy an’analariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ishlab chiqilib, amaliyatga joriy etilishi;

– umumiy hamda milliy pedagogik madaniyatni oshirish;

– mamlakatimiz fuqarolari orasida milliy mafkuraviy tarbiya ishlarini takomillashtirish “Oila, mahalla, maktab hamkorligi” konsepsiyasining asosiy maqsadidir.

Jismonan sog‘lom, ma’naviy yetuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti, ota-onalar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ta’lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorligini mustahkamlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mustahkam oila yili” Davlat dasturi to‘g‘risida” 2012-yil 27-fevraldaggi PQ-1717-son qarorining 69-bandji ijrosini bajarish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 19-iyundagi 175-sonli qarori bilan 4 ta yo‘nalish, 25 ta banddan iborat “Oila-mahalla-ta’lim muassasasi” hamkorlik mexanizmini kuchaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuasi tasdiqlandi⁵³. Uning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

I. Oila, mahalla, ta’lim muassasalari hamkorligini yanada kuchaytirishga qaratilgan metodologik asoslarni yaratish.

II. “Oila-mahalla-ta’lim muassasasi” Jamoat kengashlarini shakllantirish va ularning faoliyatini tashkil etish.

III. O‘quvchi-yoshlar o‘rtasida g‘ayriijtimoiy harakatlarning vujudga kelish sabablari va shart-sharoitlarini o‘rganish, ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish.

IV. Barkamol avlodni tarbiyalashga doir ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning samaradorligini oshirish va ularni mazmunan yanada takomillashtirish.

Birinchidan, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ko‘pgina davlat va jamoat tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorligi mustahkamlanadi. Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan turli millat vakillarining ibratli madaniyati va urf-odatlari bilan aholi, ayniqsa yoshlar keng tanishtiriladi, millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik tushunchalari chuqurroq singdiriladi.

Ikkinchidan, “Yoshlar ma’naviy olamini boyitishda adabiyot va san’atining o‘rni” mavzusida o‘tkaziladigan turkum ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar jarayonida yoshlarda odob-axloq va estetik did shakllantiriladi.

Kundalik hayotda, ishda, o‘qishda, ko‘chada, turli tadbirdarda o‘zimizni to‘g‘ri tutishni bilishimiz aynan ana shu dastlabki tarbiyadan hosil bo‘ladi. Shunday naql bor: “Ota-onaning burchi faqat farzandni dunyoga keltirganligi bilan emas, balki yaxshi farzand tarbiyalagani bilan ham belgilanadi”.

Bola tarbiyasida, uning ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda oilaning o‘rnini va ta’siri beqiyosdir. Aynan oilada milliy iftixor tuyg‘usi shakllanadi. Milliy iftixor esa insondagi yuksak ma’naviy fazilatlarni hosil qiladi. Ushbu insoniy fazilatlar esa Vatan, uning istiqboli, milliy manfaatlari bilan uzviy bog‘liqidir.

Kattalarga izzat-ikrom, kichiklarga mehr, ota-onalarga e’zoz, farzandlarga mehr-muhabbat kabi insonni inson sifatida ulug‘laydigan, ma’naviy-axloqiy jihatdan go‘zal va barkamol qiladigan qadriyatlarimiz har bir fuqaro, ayniqsa, yoshlar qalbidan mustahkam o‘rin olishi lozim⁵⁴.

Ma’lumki, xalqimiz azal-azaldan o‘zining bolajonligi, oilaparvarligi bilan ajralib turadi. Albatta, farzandga mehr qo‘yish, uning qornini to‘q, ustini but qilish bilan bir qatorda, ularni yoshlik chog‘idan boshlab tarbiya, axloq-odob, yuksak ma’naviyat, o‘z yurtiga sadoqat kabi tuyg‘ularni shakllantirish asosida voyaga yetkazish doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Bu masalaga e’tibor bermaslik nafaqat oila, mahallasi uchun, balki butun jamiyat rivojiga to‘sinqilik qilishi va salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ham ko‘pgina hayotiy misollarda kuzatilgan. Zero, kishining kundalik hayoti va faoliyatida moddiy va ma’naviy asoslar har doim bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining 73-moddasida quyidagi qoidalar belgilab qo‘yilgan:

“Ota-oni o‘z bolalarini tarbiyalash huquqiga ega va tarbiyalashi shart.

Ota-oni o‘z bolalarining tarbiyasi va kamoloti uchun javobgardir. Ular o‘z bolalarining sog‘lig‘i, jismoniy, ruhiy, ma’naviy va axloqiy kamoloti haqida g‘amxo‘rlik qilishlari shart.

Ota-oni o‘z bolalarini tarbiyalashda boshqa barcha shaxslarga nisbatan ustun huquqqa ega.

Ota-oni bolalarining qonun hujjalari belgilangan zarur darajada ta’lim olishini ta’minlashi shart”.

Shuningdek, ushbu Kodeksda voyaga yetmagan bolalarning quyidagi shaxsiy nomulkiy huquqlari ko‘rsatilgan:

– bolaning oilada yashash va tarbiyalanish huquqi (65-modda);

– bolaning ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan ko‘rishish huquqi (66-modda);

⁵³ Республика “Махалла” жамоат фонди Хоразм вилояти бўлими жорий архив материаллари. Урганч, 2013 й.

⁵⁴ Маврулов А. Маънавий баркамол инсон тарбияси. - Тошкент: Ўзбекистон, 2008. - 80 б.

- bolaning himoyaga bo‘lgan huquqi (67-modda);
- bolaning o‘z fikrini ifoda etish huquqi (68-modda);
- bolaning ism, ota ismi va familiya olish huquqi (69-modda);
- bolaning ismi va familiyasi o‘zgartirish (70-modda).

Har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o‘z ota-onasini bilish, ularning g‘amxo‘rligidan foydalanish, ular bilan birga yashash huquqiga ega, bola manfaatlariga zid bo‘lgan holatlar bundan mustasnodir.

Binobarin, jismonan sog‘lom, ma’naviy yetuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning roli muhim hisoblanadi.

Imomov In’omiddin Abdulxamidovich,
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti umumiy va
aniq fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi*

OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARI O’RTASIDA UCHRAYDIGAN ZIDDIYATLARNI PEDAGOGIK TASHXIS ETISH

Annotatsiya. Maqolada oliv ta’lim jarayonida yuzaga keladigan ziddiyatlarni pedagogik tashxis etishning o‘ziga xos jihatlari xususida fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: jamoa, talaba, qobiliyat, samaradorlik, mexanizm, faoliyat, ziddiyat, tashxis etish.

Аннотация. В статье дается отзыв об особенностях педагогической диагностики конфликтов, возникающих в процессе получения высшего образования.

Ключевые слова: коллектив, студент, способность, эффективность, механизм, деятельность, конфликт, диагностика.

Annotation. The article provides feedback on the features of pedagogical diagnostics of conflicts that arises in the process of obtaining higher education.

Key words: collective, student, abilities, efficiency, mechanism, activity, conflict, diagnostics.

Ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish jarayonida uning ishtirokchilar o‘rtasida muayyan ziddiyatlar yuzaga keladi. Ishtirokchilarning amalga oshirilayotgan faoliyat (ishning bajarilishi)ga bo‘lgan munosabatlari, ziddiyatni yuzaga keltiruvchi vaziyatni turlicha talqin etishlari, qarshi tomon ishtirokining salbiy yoki past baholashlari, faoliyatni tashkil etishdagi shaxsiy rolni bo‘rttirib ko‘rsatishlari, sabablarni chuqur tahlil qilmasliklari va eng muhimi ziddiyatni o‘z o‘rnini, vaqtida bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilamasliklari pedagogik ziddiyatarning kelib chiqishi uchun sharoit yaratadi.

Ko‘p sonli va turli yoshdagagi subyektlarga egalik, har bir subyektning individual ravishda psixologik, fiziologik va jismoniy imkoniyatlarni namoyon etishi, o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda turli darajada faollik ko‘rsatishi ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etishda u yoki bu ko‘rinishdagi pedagogik ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Ta’lim jarayoni ishtirokchilarining boshqaruvchi va bo‘ysunuvchi (ta’lim muassasasi rahbari, pedagoglar jamoasi, pedagog, talaba, talabaning ota-onasi), nazoratchi va nazorat qilinuvchi, buyruq beruvchi va ijro etuvchi kabi ikki yirik guruhga ajralishlari hamda ular o‘rtasidagi yosh, bilim, hayotiy tajriba o‘rtasidagi farqning kattaligi esa pedagogik ziddiyatlarning sodir bo‘lishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

Pedagogik ziddiyat – bu ta’lim va tarbiya jarayonida uning ishtirokchilar (ta’lim muassasalarining rahbarlari, pedagoglar jamoasi, talabalar hamda ularning ota-onalari) o‘rtasida yuzaga keladigan va bir-biriga mos kelmaydigan manfaatlar to‘qnashuvi sanaladi. Demak, pedagogik ziddiyatlar deganda pedagog va talaba o‘rtasidagi ta’lim jarayonida kuzatiladigan ziddiyatlar, tortishuvlar kelishmovchiliklar, qarama-qarshiliklar nazarda tutilishi lozim.

Ziddiyat ko‘pincha pedagogning talaba shaxsi to‘g‘risida noto‘g‘ri o‘ylashi sababli kelib chiqadi. Bola shaxsi to‘g‘risida ijobjiy fikrda bo‘lish pedagogik ziddiyatlar kelib chiqishining oldini oladi. Ziddiyatlarga yo‘l

qo‘ymaslikka erishish – pedagogning pedagogik zukkoligining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Pedagogik ziddiyatlar ta’lim jarayoni ishtirokchilari o‘rtasidagi turli sohalarda tashkil etiladigan munosabatlarni qamrab oladi. Ziddiyatlarni ularning turli ko‘rsatkichlari bo‘yicha turkumlashtirish mumkin. Pedagogik ziddiyatlar davomiyligiga ko‘ra:

1) tezda yakun topadigan ziddiyatlar (juda yuqori hissiyotli harakatlar bilan boshlanib, o‘zida ziddiyatga kirishuvchilarning chuqur salbiy munosabatlarini aks ettiradi; bu kabi ziddiyatlar og‘ir va fojiali yakun topishi ham mumkin);

2) uzoq muddat davom etadigan ziddiyatlar (tomonlar o‘rtasidagi ziddiyatlar yetarli darajada chuqur, barqaror, murakkab bo‘lgan vaziyatlarda yuzaga keladi; bunday ziddiyatlarni hal qilish oson emas);

3) kuchsiz, sust kechadigan ziddiyatlar (u qadar keskin tus olmagan qarama-qarshiliklarni namoyon etadigan ziddiyatlar bo‘lib, ular odatda ziddiyatga kirishayotgan tomonlardan birining faolligi, ikkinchi tomonning esa imkon qadar ziddiyatdan qochishi bilan tavsiflanadi; bu kabi ziddiyatlarning yechimini topish ham bir mucha qiyin, ularning yechimi tashabbuskor tomonning qaroriga bog‘liq bo‘ladi);

4) kuchsiz, tez kechadigan ziddiyatlar (o‘zaro qarama-qarshiliklar, to‘qnashuvchilarning bir qadar ijobjiy shakli bo‘lib, agarda u ziddiyatga kirishuvchi tomonlar o‘rtasidagi yagona ziddiyat bo‘lsa, u holda uni ijobjiy hal qilish imkoniyati mavjud).

Shuningdek, pedagogik ziddiyatlar yuzaga kelish vaqtin, birgalikdagi faoliyat mazmuni, psixologik xususiyatlari hamda namoyon bo‘lish holati nuqtayi nazardan ham bir necha turlarga ajratiladi. Ya’ni:

I. Yuzaga kelish vaqtiga ko‘ra: 1) doimiy ziddiyat; 2) muayyan muddatli (bir marta yoki bir necha marta namoyon bo‘ladigan) ziddiyatlar.

II. Birgalikdagi faoliyat mazmuniga ko‘ra: 1) ta’lim olish bilan bog‘liq (o‘quv) ziddiyatlar(i); 2) tashkiliy ziddiyatlar; 3) mehnat ziddiyatlari; 4) shaxslararo ziddiyatlar va boshqalar.

III. Psixologik xususiyatlariga ko‘ra: 1) rasmiy ziddiyatlar; 2) norasmiy muloqot jarayonida yuzaga keluvchi ziddiyatlar [120].

IV. Namoyon bo‘lish holati nuqtayi nazardan: 1) ochiq ziddiyatlar; 2) yashirin (yopiq) ziddiyatlar.

Yashirin ziddiyat ikki shaxs orasida mavjud bo‘lib, ma’lum vaqtgacha ular orasida mojaroborligini berkitib yurish mumkin. Ulardan birining sabri chidamay qolsa bu ziddiyat ochiq ziddiyatga aylanishi mumkin. Yana stixiyali paydo bo‘ladigan va davriy yuzaga chiqadigan, ig‘vo orqali yuzaga keladigan ziddiyatlar ham mavjud. Ziddiyatni boshqa turi fitna ham bo‘lishi mumkin. Fitna tashabbuskor tomonidan qasddan qilingan vijdonsizlarcha harakat bo‘lib, shaxs yoki jamoani ma’lum harakatga majbur qilib, zarur.

Shuningdek, ta’lim jarayonining ishtirokchilari o‘rtasida kelib chiqadigan ziddiyatlar ular negizini hosil qiluvchi qarama-qarshiliklarning darajalari bo‘yicha ham guruhlarga ajratiladi. Jumladan: 1) qoniqmaslik; 2) fikrlarning xilma-xilligi; 3) qarama-qarshilik; 4) janjal; 5) dushmanlik.

Garchi pedagogik ziddiyatlar turlicha guruh yoki turkumlarga ajratilsalar-da, biroq ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Rivojlanish davrida ziddiyatlar bir turdagisi ko‘rinishdan ikkinchi turdagisi ko‘rinishga o‘tishi mumkin.

Ziddiyatli vaziyat – bu obyektiv narsalar shaxs tomonidan subyektiv qabul qilingan pedagogik jarayonning murakkab obyektiv-subyektiv holati bo‘lib, u ishtirokchilar uchun ahamiyatli hisoblanadi.

Ta’lim muassasalarida yuzaga keladigan ziddiyatlar o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ular orasida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

– pedagogning vaziyatni pedagogik to‘g‘ri hal qilishga kasbiy mas’uliyat: axir OTM talabalar insonlar orasidagi munosabatlar ijtimoiy qoidalarini o‘zlashtiradigan jamiyat modelidir;

– ziddiyatlar ishtirokchilari turli ijtimoiy mavqelarga ega bo‘ladilar (pedagog–talaba), ziddiyatdagি turli xulqlari shu bilan belgilanadi;

– ishtirokchilarning yoshi va hayotiy tajribasidagi farq ziddiyatdagи ularning qarashlarini ajratadi, ziddiyatni hal qilishda xatolar uchun turli darajadagi mas’uliyatni keltirib chiqaradi;

– ishtirokchilarning hodisalarini va ularning sabablarini turlicha tushunishlari (ziddiyatga “pedagogning ko‘zi bilan” va “talabaning ko‘zi bilan” turlicha qarashlar), shuning uchun pedagogga bolaning kechinmalari chuqurligini tushunish, talabaga esa o‘zining hayajonlarini boshqarish, aql bilan ish tutishi qiyin bo‘ladi;

– ziddiyat paytida boshqa talabalarning kuzatishlari ularni guvohlardan ishtirokchilarga aylantiradi, ziddiyat esa ular uchun ham tarbiyaviy mazmunga ega bo‘ladi, bu to‘g‘risida pedagog doim yodida tutishiga to‘g‘ri keladi;

– ziddiyatda pedagogning kasbiy holati uni hal qilishda tashabbusni o‘z qo‘liga olishiga majbur qiladi va birinchi o‘rinda shakllanayotgan shaxs sifatida talabaning manfaatlarini qo‘ya bilishini talab qiladi;

– ziddiyatni hal qilishdagi pedagogning har qanday xatosi yangi vaziyatlarni va ziddiyatlarni keltirib chiqaradi, unga boshqa talabalar ham aralashadilar;

– pedagog darsda talabalar xulqlarini taxmin qilish bo‘yicha ega bo‘lgan imkoniyatning ozligi; ularning harakatlari kutilmaganligi ko‘pincha darsning rejalashtirilgan borishini buzadi, pedagogda g‘azablanish va har qanday yo‘l bilan “to‘siqlarni” olib tashlashga intilishini keltirib chiqaradi; sodir bo‘lgan hodisa to‘g‘risida axborotning yetishmasligi tegishli yo‘l tutishni va shunday sharoitlarda murojaat etish ohangini tanlashni qiyinlashtiradi;

– boshqa talabalar ham vaziyat guvohlari bo‘ladilar, shuning uchun pedagog har qanday yo‘l bilan o‘zining ijtimoiy mavqeyini saqlab qolishga intiladi va shu bilan ko‘pincha vaziyatni ziddiyatgacha olib boradi;

– pedagog odatda talabaning alohida harakatlarini emas, balki uning shaxsini baholaydi, bunday baho ko‘pincha talabaga boshqa pedagoglar va tengdoshlarining (ayniqsa, boshlang‘ich matabda) munosabatlarini ko‘rsatadi;

– talabaga baho berish ko‘pincha uning harakatlarini subyektiv tushunish va uning motivlari to‘g‘risida, shaxsning xususiyatlari, oiladagi hayotiy sharoitlari to‘g‘risida kam axborotga ega bo‘lishi asosida quriladi;

– pedagog vujudga kelgan vaziyatni tahlil qilishga qiynaladi, talabani jazolashga shoshiladi, talabaga nisbatan ortiqcha talabchanlik zarar qilmaydi deb hisoblaydi;

– pedagog va alohida talabalar o‘rtasidagi vujudga kelgan munosabatlar xususiyatlari muhim ahamiyatga ega bo‘ladi; talabalarning shaxsiy sifatlari va nostandard xulqlari ular o‘rtasidagi doimiy ziddiyatlar sababi hisoblanadi;

– pedagogning shaxsiy xususiyatlari (jahldorlik, qo‘pollik, qasoskorlik, mag‘rurlik, ilojsizlik va boshqalar) ham ko‘pincha ziddiyatlar sababi bo‘ladi; talabalar bilan o‘zaro munosabatlarda pedagogning ustuvor kayfiyati, pedagogik ishlarga qiziqishi, pedagogik qobiliyati yo‘qligi, pedagogning hayotiy muvaffaqiyatsizliklari, pedagogik jamoadagi umumiy muhit va ishlarni tashkil qilinishi qo‘srimcha omillar sifatida ishtirok etadi. Vaziyatlarni va ziddiyatlarni hal qilishda pedagogning har qanday xatosi talabalarning xotiralarida qoladi va o‘zaro munosabatlarga uzoq vaqt ta’sir ko‘rsatishini esdan chiqarmaslik kerak;

– darslardagi, ayniqla, o‘smir yoshlar sinflaridagi ziddiyatlar ko‘pchilik tomonidan odatiy, qonuniy deb tan olinadi;

– pedagog turli yoshdagagi talabalar o‘rtasidagi amaliy o‘zaro aloqalarni kuchaytirib ularning jamoali o‘quv faoliyatlarini tashkil qilishni bilishi kerak; bunday ziddiyatlar ko‘proq birinchi o‘rinda faqatgina fanni o‘zlashtirish darajasi bilan qiziqadigan pedagoglar faoliyatida ko‘zga tashlanadi, aksincha, talabalarни yaxshi biladigan va ular bilan aloqa qilish turli shakllarini topadigan pedagog tomonidan olib boriladigan darslarda va boshlang‘ich sinflarda ular ancha kam sodir bo‘ladi;

– odatda fanni yaxshi o‘zlashtirmagan, xulqi “og‘ir” talabalar bilan darsdagagi vaziyat ziddiyatgacha yetib boradi. Shuning uchun pedagogning o‘z foydasi uchun aynan shunday talabalarни yaxshiroq o‘rganishi, topshiriqni bajarishda o‘z vaqtida yordam ko‘rsatish maqsadida ularga e’tiborli bo‘lishi kerak;

– xulqi uchun fan bo‘yicha yomon baholar bilan jazolash kerak emas – bu ijobjiy natijalarga olib kelmaydi, balki faqatgina pedagog bilan uzoq shaxsiy ziddiyat keltirib chiqaradi, bu holat albatta fanga qiziqishini pasaytiradi;

– pedagogik faoliyatda ziddiyatni samarali hal qilishdan uning oldini olish oson.

Pedagogik ziddiyatlarda har qandayadolatsizliklarga, ijtimoiy munosabatlarda yakka hokimlikning yetakchi o‘rin tutishiga nisbatan murosasizlik kabilar ham pedagogik ziddiyatlarning o‘zigagina xos bo‘lgan muhim xususiyatlarni sanaladi. Har qanday ziddiyatning oqibatlari talabalar shaxsining keyingi rivojlanishlarida o‘z aksiga ega bo‘lib boradi, shuningdek, ularning kelgusi taqdirlariga ham sezilarli ta’sir o‘tkazadi. Demak, murakkab ziddiyatli vaziyat pedagog va talabalarning maqsadlari, vazifalari, sabablari va ishtirokchilarning shaxsiy imkoniyatlarining bir-biriga mos kelmasligi kuzatiladigan bir qadar og‘ir sharoitlardagi o‘zaro

harakatlaridan farq qiladi. Bu o‘rinda bir-biriga mos kelmasligi darajasi ziddiyatli vaziyatning murakkablik hamda qiyinlik darajasiga bilan aniqlanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta’lim muassasalari amaliyoti bilan tanishish natijasida pedagogik ziddiyatlarning kelib chiqish negizi turlicha bo‘lsa-da, asosiy sabablar quyidagilar ekanligi ma’lum bo‘ladi: pedagogik talabni qo‘yishda talabalarning yosh, psixologik, va shaxsiy imkoniyatlarining inobatga olinmasligi; pedagogik talabning talabalar imkoniyatiga mos emasligi; pedagogik talabning qo‘yilishida barcha talabalarga birdek yondashilmaslik; pedagogik talabning qo‘yilishida talabalarga individual yondashilmaslik; o‘qituvchilarning talabaga nisbatan “adolatsiz” munosabatda bo‘lishlari; pedagogik talabning talabalar xohish-istik, intilish va qiziqishlariga zid bo‘lishi; pedagogik talabning qo‘yilishida samimiylilikning yetishmasligi, aksincha, buyruq ohangida bayon etilishi; pedagogik talabning qo‘yilishida talaba shaxsiga ishonch bildirilmaslik va h.k.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

2. Аицупов А.Я. *Профилактика конфликтов в школьном коллективе*. – М.: Гуманитар. изд. центр ВЛАДОС, 2004. – С. 38.
3. Каримова В.М. *Психология / Ўқув кўйланма*. – Т.: А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашириёти, 2002. – 205 б.
4. Кузина А.А. *Воспитание конфликтологической компетентности старшеклассников*. Автограферат дис.. канд. пед. наук. – М., 2007. – 176 с.
5. Тўйчиева Г.У. *Ёшлар ва конфликтлар: конфликтлар ечимига ўрганиш*. – Т., 2008. – 128 б.



**Karimova Aziza Mamatkarimovna,
Ma’rufova Munira Egamqulovna,**
SamDU “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi va
psixologiyasi” kafedrasи o‘qituvchilari

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA OILA HAQIDAGI TASAVVURLARINI BOYITISH

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda oila haqidagi tasavvurlarni boyitish atroglicha yoritilgan.

Kalit so‘zlar: oila, jamoa, hurmat.

Аннотация. В статье раскрыты вопросы формирования представлений о семье у детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: семья, коллектив, уважение

Annotation. The article deals with the formation of ideas about the family in preschool children.

Key words: family, team, respect.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda oila haqida, uning muqaddasligi to‘g‘risidagi bilimlarni shakllantirish kelajakda ularning oilaning muqaddasligini tan olish va hurmat qilishga asos bo‘ladi. Hozirgi kunda oilaning jamiyatda tutgan o‘rnini hisobga olib, bu boradagi ishlarni jadal olib borishimiz lozim.

Tevarak-atrof bilan tanishtirish

Mavzu: Bizning oila

Mashg‘ulotning maqsadi: bolalarda oila haqida tasavvurlarni mustahkamlash va mavzu bo‘yicha yangi bilimlar berish.

Kutilayotgan natija:

- bolalar oila haqida tasavvurga ega bo‘lishadi;
- oila mustahkam va tinch bo‘lishi haqida tushunchalarga ega bo‘lishadi;
- katta va kichik oila haqida bilib oladi;
- oila a’zolari va turar joylari haqidagi bilimlarni mustahkamlaydi.

Ko‘rgazmali qurollar: Marker, bo‘r, qog‘oz, plastilin, rangli qalamlar, oila rasmi.

Mashg‘ulotning borishi:

Tarbiyachi: – Bolajonlar, hammamizning uyimiz bor-a?

- Siz uyingizda kimlar bilan yashaysiz?

Bolalarning javobi.

– To‘g‘ri, bolajonlar, hammamizning uyimiz bor va biz oila a’zolarimiz bilan birga yashaymiz. Oila a’zolarimizga otamiz, onamiz, singlimiz, opamiz va ukamiz kiradi. Demak, ular oilamiz a’zolari hisoblanadi. Qani, bolalar hozir hammamiz oila a’zolarimizni barmoqlarimiz orqali sanaymiz va oilada necha kishi yashasa, barmoqlarimiz orqali ko‘rsatamiz.

Bolalarning javobi.

– Bolajonlar hozir biz bir oilaning rasmini ko‘ramiz. Men shu rasm orqali Rustamning oilasi hikoyasini aytib beraman (oila tasvirlangan rasmni ko‘rsatadi).

Bu rasmagi katta oila. Agar oila a’zolari to‘rtta va undan ko‘p bo‘lsa, katta oila hisoblanadi. Bolajonlar, siz rasmda chorpojada bobo va buvining choy ichib turganini ko‘rib turibsiz. Rustam buvisiga choy uzatmoqda. Agar bobo, buvilari kimda bo‘lsa, ularni hurmat qilish lozim. Ovqat pishirayotgan rustamning onasi. U shirin osh pishirmoqda. Rustamning opasi onasiga savzini tozalab bermoqda. Rustamning ukasi otasiga gullarni ekishga yordam beryapti.

- Bolajonlar, Rustamning oila a’zolari oilada necha kishi ekan?

- To‘g‘ri, bolalar ular etti kishi ekan. Endi bu oila kattami, kichikmi?

Bolalarning javobi.

Didaktik o‘yin. Bolalar hozir sizlar bilan “OILA” o‘yinini o‘ynaymiz. Faqat odamlarda emas, balki hayvonlarda ham oila bor, Hozir ularning nomlanishini o‘yin orqali bilib olamiz. Men sizlarga ma’lum havvonning nomini aytaman. Sizlar o‘sha havvonning otasi va onasining nomini aytasizlar.

Tarbiyachi:

- Jo‘ja. Jo‘janing onasi kim?
- Tovuq.
- Otasi kim?
- Xo‘roz.
- To‘g‘ri, bolajonlar, buzoqchaning onasi kim?
- Sigir.
- Otasi-chi?
- Buqa.
- Qo‘zichoqning onasi?
- Qo‘y.
- Otasi-chi?
- Qo‘chqor.

O‘yin shu tariqa davom etadi.

Amaliy ish.

Bolalar o‘z oilasini yoki uylarini tasvirlashlari yoki plastilinda yashashlari mumkin.

Mustahkamlash uchun qisqa didaktik o‘yin.

“Oila a’zolari”

O‘yinning qoidasi: tarbiyachi to‘p orqali oila a’zolaridan birini aytib to‘pni istalgan bolaga uzatadi. Bolalar oila a’zolarini ketma-ket sanaydi. Boshqalar aytgan oila a’zolarini takrorlamasligi lozim (oila a’zolari: ota, ona buvi, bobo, aka, opa, singil, uka, nabira, hola, amma, amaki, yanga).

Tarbiyachi mashg‘ulotda faol qatnashganlarni rag‘batlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrda “2017-2021 yillarda muktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli Qarori.
2. Muktabgacha yoshdagи bolalarga qo‘yiladigan Davlat talablari 2018-yil.
3. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi 2018-yil



Berdiyev Dilmurod Nomonovich,
NavDPI Jismoniy madaniyat kafedrasi o‘qituvchisi

**OILA VA XOTIN-QIZLAR O‘RTASIDA JISMONIY TARBIYA
VA SPORTNI TARG‘IB ETISH**

Annotatsiya. Ushbu maqolada xotin-qizlar; yosh onalarga turli xil jismoniy mashqlarni o‘rgatish, mahallalarda, oilalarda sog‘lomlashtirishga doir tadbirlar tashkil qilish yoritilgan.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya, sog‘lom avlod, xotin-qizlar, onalar, ayollar salomatligi, tadbirlar.

Аннотация. В статье описывается обучение женщин и молодых мам различным физическим нагрузкам, организация оздоровительных мероприятий в общине и семьях.

Ключевые слова: физическое воспитание, здоровое поколение, женщины, матери, женское здоровье, деятельность.

Annotation. This article describes how to teach women and young mothers a variety of physical activities, and how to organize health activities in the community and in families.

Key words: physical education, healthy generation, women, mothers, women’s health, activities.

Vatan uchun ham, har bir oila uchun ham, eng avvalo, sog‘lom farzand tarbiyalanishi kerak. Hozirgi paytda statistika bo‘yicha respublikamiz aholisining taxminan 30% i salomatlik garovi bo‘lgan jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanadi. Achinarlisi, xotin-qizlarning bu boradagi ko‘rsatkichi 6% ni tashkil etarkan, xolos.

Sog‘lom avlodni dunyoga keltirish, tarbiyalash, jamiyatga mos tarzda tayyorlash bugungi kun onalariga ko‘p jihatdan bog‘liq. Demak, onalar, ayollar salomatligi, ularning jismonan sog‘lom, ma’nан yetukligi farzandlarimiz kamoloti va jamiyatimiz rivojining bosh omillaridir. Qadimgi qo‘lyozmalar, turli xil manbalarda ajdodlarimiz uzoq o‘tmishda ham jismoniy mashqlar bilan mutazam shug‘ullanib kelganligidan ogoh etadi. “Alpomish”, “Qirqqiz”, “To‘maris” eposlarida tasvirlanishicha, o‘sha davrda ayollar jismoniy tarbiyaga nafaqat qiziqishgan, balki erkaklar bilan tengma-teng musobaqalashishgan. Kezi kelganda yelkama-yelka turib dushmanlarga qarshi jangga kirishgan. Barchinoy, Qaldirg‘och, Guloyim va Qirq go‘zal timsollari sharq ayolining jismoniy kamoloti va benazir layoqati borligidan darak berib turibdi. Albatta, jismonan kuchli inson ruhan sog‘lom ham bo‘ladi.

Insоннинг етиқоди кучли, mustahkam bo‘lishi bilan birga badani ham sog‘, chiniqqan, har qanday mashaqqatlarga dosh bera oladigan bo‘lmog‘i lozim. Payg‘ambarimiz (S.A.V): “Kuchli mo‘min kishi Ollo huzurida kuchsiz mo‘mindan yaxshiroq va mahbubroqdir” degandilar. Salomatlikni tiklashga xizmat qiladigan mashqlar Islom dinida ham qadrlanadi. Haj safari ham kishidan har tomonlama sog‘lom bo‘lishlikni taqozo etadi. Mo‘min yashayotgan yeridan to ka‘batullogacha piyoda yurib borishi va u yerda uzuksiz ka‘batulloh atrofida aylanishi, Arofat tog‘iga chiqishi va ka‘baga qaytishi zarur bo‘larkan. Bu birinchidan, kishidan mustahkam sog‘liq talab etsa, ikkinchidan jismoniy chiniqqan, sabr-bardoshli, irodali va chidamlı bo‘lishga undaydi. Ayollar ham yuqorida barcha riyozaatlarni Haj safari davomida erkaklar barobarida tortishlari shart bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda, Islom sog‘liq uchun nimaki zarur bo‘lsa, musulmonlarga buyurgan”.

Ona bo‘lish – buyuk baxt. Ayniqsa, baquvvat, sog‘lom har tomonlama yetuk farzandga ona bo‘lish yana katta sharafdir. Bunga erishish uchun bo‘ajak onalar, avvalo, sog‘lom va ma‘lum ta’lim-tarbiya jarayonlari bilan tanishishlari lozim. Xotin-qizlar, yosh onalarga turli xil jismoniy mashqlarni o‘rgatish, mahallalarda, oilalarda sog‘lomlashtirishga doir tadbirlar tashkil qilish, tushuntirish va maslahatlar berish lozimdek ko‘rinadi.

Maktablar o‘rtalarda maxsus va oliy o‘quv yurtlari hamda ishlab chiqarish korxonalarida sog‘lomlashtirish ishlarini olib boradigan mutaxassis xodimlar tayyorlashni kengaytirish zarur. Shu bois ham maktabda o‘quvchi qizlar bilan olib boriladigan jismoniy tarbiya ishlarining ahamiyati juda katta. Maktabda olib boriladigan jismoniy tarbiya shakllariga jismoniy tarbiya darsi, darsdan tashqari olib boriladigan sog‘lomlashtirish tadbirlari kiradi. Bola maktabga kelguncha 80% harakatda bo‘lar ekan. Faqat 20% uqlash, dam olish, ovqatlanish va shu kabilarga sarflanar ekan. Mana shu haftalik harakatga bo‘lgan talabning 80% ini butun 11 yil davomida o‘quvchilarda saqlab qolishimiz lozim. Ma’lumki, maktabda jadval asosida o‘tkaziladigan haftada 2 soat jismoniy tarbiya darsi o‘quvchilarda harakatga bo‘lgan talablarning 11% iga javob berar ekan, darsdan tashqari hamma jismoniy tarbiya tadbirlari haftalik harakatga bo‘lgan talablarning 60 % igacha qoniqtirar ekan. Demak, darsdan tashqari olib boriladigan tadbirlarga katta e’tibor berilishi lozim. Bu tadbirlardan biri turli-tuman sport bayramlaridir, ayniqsa, “Balli qizlar!” bayrami juda qiziqarli o‘tadi. Bunday bayramlarni o‘tkazishdan maqsad va vazifalar:

- qizlarda harakat faolligini oshirish;
- hayotiy zarur ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;
- sog‘lom onalarni tarbiyalash;
- xotin-qizlar orasida sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish;
- o‘zaro hurmat va do‘stlik fazilatlarini tarbiyalashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. K.Mahkamjonov, L.Inozemseva, F.Nurmatov, L.Rustamov. Sport bayramlarini tashkil qilish va o‘tkazish metodikasi (darslik). – Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2008.
2. R.S.Salomov, M.X.Mirjamolov. Jismoniy imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning sport mashg‘ulotlariga moslashishi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent-2014y
3. D.D. Safarova. Sport morfologiyasi. – Toshkent, 2015.
4. O.Q.Musayev. Oliy o‘quv yurti o‘qituvchisining pedagogik qobiliyatlar kompleksi. Metodik qo‘llanma. – Toshkent, 2016

Farmonov O‘ktam Ne’matovich,
TVChDPI Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti
o‘quv ishlar bo‘yicha dekan o‘rinbosari

KREATIV YONDASHUVLAR ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MATEMATIK TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. Maqolada barcha turdagи ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchi, pedagoglar oldida turgan zamonaviy ta’lim talablari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: pedagog, ijodkorlik, kreativ g‘oyalari, qobiliyat.

Аннотация. В статье рассматриваются современные образовательные требования, с которыми сталкиваются учителя, работающие во всех типах образовательных учреждений.

Ключевые слова: педагог, творчество, творческие идеи, умения.

Annotation. The article examines the modern educational requirements faced by teachers working in all types of educational institutions.

Key words: teacher, creativity, creative ideas, skills.

Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o‘z oldiga muammoli masalalarni qo‘yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo‘lgan dalillar bilan to‘qnash

keladi. Buning natijasida o‘z ustida ishlash, mustaqil o‘qib o‘rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi. Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik potensialini yanada rivojlantiradi.

Zamonaviy ta’lim barcha turdag'i ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchi, pedagoglarning ijodkor bo‘lishlarini taqozo etmoqda. “Kreativ pedagogika asoslari” moduli pedagogning an’anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligin ta’minalashga xizmat qiluvchi yangi g‘oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi bo‘lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari uchun talabalik yillarda poydevor qo‘yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o‘zini o‘zi ijodiy faoliyatga yo‘naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. “Kreativ pedagogika asoslari” modulining maqsadi: pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kurs tinglovchilarini kreativ pedagogikaning umumiy asoslari, tamoyillari, pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantiruvchi metod, vosita va texnologiyalar bilan tanishtirish orqali ularda o‘quv va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni jarayonini, talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatlarini samarali tashkil etishga nisbatan kreativ yondashish malakalarini rivojlantirish.

“Kreativ pedagogika asoslari” modulining vazifalari:

- tinglovchilarini kreativ pedagogikaning umumiy asoslari, tamoyillari, pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantiruvchi metod, vosita va texnologiyalar bilan tanishtirish;
- tinglovchilarida o‘quv dasturlarini yaratish; nazariy va amaliy mashg‘ulotlar uchun materiallarni to‘plash va ularni saralash; o‘quv axborot (ma’lumot)larini samarali izlash; nazariy va amaliy mashg‘ulotlar uchun didaktik ishlanmalar tayyorlash;
- nazariy va amaliy mashg‘ulotlar uchun o‘quv topshiriqlari turlarini belgilash;
- o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish;
- o‘quv topshiriqlari uchun ish qog‘ozlarini hama o‘quv fanlari bo‘yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar uchun sinov topshiriqlarini tayyorlashga kreativ yondashish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- tinglovchilarining mavzu mohiyatidan kelib chiqqan holda to‘liq, g‘oyaviy mazmun va ilmiy asoslarga ega, amaliy qiymatga ega o‘quv materialini tayyorlay olish, ma’ruza mashg‘uloti uchun mo‘ljallangan matnning vizual xususiyat kasb etishi (o‘quv axborotining grafik (sxema, jadval, diagramma, tasvir, giperbolik va b.) ko‘rinishda bo‘lishi)ga erishish, ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar, shuningdek, reyting nazorati uchun keyslar va darajali testlar to‘plamini shakllantirish borasidagi ko‘nikmalarining malakaga aylanishini ta’minalashdan iborat.

Modul bo‘yicha tinglovchilarining bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

“Kreativ pedagogika asoslari” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida tinglovchi:

- “kreativlik” va “kreativ pedagogika” tushunchalarining mohiyati;
- kreativ pedagogikaning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti;
- kreativ pedagogikaning tarkibiy tuzilmasi va muhim kategoriyalari;
- kreativ pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari;
- pedagoglarning kreativlik sifatlari, kreativlik imkoniyatlari va malakalari;
- pedagoglar kreativ imkoniyatining muhim darajalari va ularni aniqlovchi mezonlar;
- pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo‘llari va shartlari;
- pedagoglarda kreativlikni rivojlantirishga to‘sinqil qiluvchi omillar;
- pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash shakllari, metod va vositalari;
- pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish bosqichlari, metod va vositalari to‘g‘risidagi bilimlarga ega bo‘lishi;
- o‘quv dasturlarini yaratish; nazariy va amaliy mashg‘ulotlar uchun materiallarni to‘plash va ularni saralash; o‘quv axborot (ma’lumot)larini samarali izlash; nazariy va amaliy mashg‘ulotlar uchun didaktik ishlanmalar tayyorlash; nazariy va amaliy mashg‘ulotlar uchun o‘quv topshiriqlari turlarini belgilash; o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish;

- o‘quv topshiriqlari uchun ish qog‘ozlarini hama o‘quv fanlari bo‘yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar uchun sinov topshiriqlarini tayyorlashga kreativ yondashish;
- mavzu mohiyatidan kelib chiqqan holda to‘liq, g‘oyaviy mazmun va ilmiy asoslarga ega, amaliy qiymatga ega o‘quv materialini tayyorlay olish;
- ma’ruza mashg‘uloti uchun mo‘ljallangan matnning vizual xususiyat kasb etishi (o‘quv axborotining grafik (sxema, jadval, diagramma, tasvir, giperbolik va b.) ko‘rinishda bo‘lishi)ga erishish ko‘nikmalarini egallashi;
- ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar, shuningdek, reyting nazorati uchun keyslar va darajali testlar to‘plamini shakllantirish;
- ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishda kreativlik sifatlarini to‘laqonli namoyish etish;
- mavzu mohiyati va o‘quv materialining xarakteridan kelib chiqqan holda auditoriya (joy)ni jihozlash;
- ma’naviy-ma’rifiy tadbir mavzusi, yo‘nalishi va xarakteridan kelib chiqqan holda u o‘tkaziladigan joy (xona, zal)ni jihozlashga kreativ yondashish malakalarini egallashi;
- kreativ yondashuv asosida o‘quv va ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayoni muvaffaqiyatli tashkil etish;
- talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishda pedagogik kreativlik sifatlarini egallashi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar.

“Kreativ pedagogika asoslari” modulini o‘qitish jarayonida:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlari, test so‘rovlari, kichik guruhlarda ishslash, interaktiv ta’lim metodlarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olижаноб xalqимиз билан бирга қурамиз. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 yil, – 488 bet.*
2. *Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017-yil. –104 bet.*
3. *Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016-yil, – 56 bet.*
4. *2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldaggi PF-4947-sonli Farmoni.*

Мухаматкулова Паризодабегим Маматжоновна,
Студентка 4-курса ТГЮУ

Научный руководитель:
Бурханова Лейла Мариусовна,
доцент кафедры “Частно-правовых дисциплин”
Специализированного филиала ТГЮУ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ОСОБЕННОСТИ ГОСУДАРСТВЕННОЙ РЕГИСТРАЦИИ РАСТОРЖЕНИЯ БРАКА И ПЕРСПЕКТИВЫ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В ЭТОМ НАПРАВЛЕНИИ

Annotation. Nikohni bekor qilish tahlili, rasmiy lashtirish va uni qo'llashdagi muammolarning xususiyatlari juda dolzarb va talabga ega. Vaqt va amaliyotning zamonaviy talablarini hisobga olgan holda, nikohni bekor qilish bilan er-xotinning birgalikda yashashining huquqiy faktini tugatishga qaratilgan huquqiy jarayonni alohida huquqiy hujjat (nikohni bekor qilish to'g'risidagi guvohnoma) berish yo'li bilan tushunish kerak. Shu bilan birga, nikohni bekor qilishning alohida xususiyatlari va amaliy jihatlari ilmiy e'tibordan tashqarida qolmoqda, bu esa ushbu ilmiy maqolaning yaratilishiga olib keldi.

Kalit so'zlar: nikoh, nikoh tarqatish, ajralish, ma'muriy ajralish, FHDY.

Аннотация. Анализ расторжения брака, особенностей его оформления и проблем в его применении очень актуален и востребован на данный момент. С учетом современных требований времени и практики, под расторжением брака нужно понимать юридическую процедуру, направленную на прекращение юридического факта совместной жизни супругов, путем вынесения особого юридического документа (свидетельства о прекращении брака). Но в то же время отдельные особенности и практические аспекты расторжения браков остаются за пределами научного внимания, что и обусловило создание настоящей научной статьи.

Ключевые слова: брак, расторжение брака, развод, административный развод, ЗАГС.

Annotation. Analysis of the divorce, peculiarities of its design and problems in its application is very relevant and in demand at the moment. Taking into account the modern requirements of time and practice, the dissolution of marriage should be understood as a legal procedure aimed at ending the legal fact of joint life of spouses by issuing a special legal document (certificate of termination of marriage). But at the same time, certain features and practical aspects of the dissolution of marriages remain beyond scientific attention, which led to the creation of this scientific article.

Key words: dissolution of marriage, divorce, administrative divorce, registry office.

Институт прекращения брака, как и его заключения, является весьма востребованным и часто применимым в жизни граждан. Учитывая то, что брак меняет юридический статус граждан, каждый из граждан связывает с его прекращением определенные причины и обстоятельства. И зачастую, наличие многих таких причин не могут привести к сохранению семьи.

Результаты исследований многих ученых наглядно показывают, что падение устойчивости и ценности семьи создают серьезные проблемы для национальной безопасности государств [1].

Узбекистан характеризуется устойчивостью семей, о чем свидетельствует относительно низкий уровень разводимости [2].

Однако, на данный момент на практике увеличивается тенденция случаев разводов. Так, в Узбекистане количество разводов за период с января по март 2021 года составило 9 тысяч 213 случаев. Меньше всего разводились в Каракалпакстане (288), а самое большое количество разводов зафиксировали в Ташкенте (1331). Эти случаи приходятся на 10 243 зарегистрированных браков за этот же период времени⁵⁵. Как вывод, около 1000 семей из более 10.000 имеют тенденцию пока что

⁵⁵ По данным Государственного комитета статистики // См. источник: <https://stat.uz/uz/>

сохраниться. Такая статистика не дает повода для того, чтобы останавливаться на определенном уровне правовой работы.

Расторжение брака в административном имеет свои преимущества. И этот научный факт хоть и обсуждается, критикуется, но в целом данный порядок не будет устранен.

Преимущество данного порядка выражено также в том, что с его применением нет необходимости раскрывать дело в суде, обстоятельства, сложившиеся в личной жизни супружеских пар, иных обстоятельств, по которым обострился конфликт.

ЗАГС на практике принимает заявления о расторжении брака от супружеских пар, между которыми:

- нет имущественных споров;
- нет общих, совместных несовершеннолетних (малолетних) детей;
- нет усыновленных детей[3].

Весьма проблематичным является пассивность органов ЗАГСа в изучении причин желания супружеских пар разорвать брак. Сотрудники ЗАГСа в основном соблюдают требования и правила регистрации актов гражданского состояния, но в то же время выполняют работу формально, без придания социально-политического значения в своей деятельности. С другой стороны, такая обязанность официально не закреплена законодателем. С этой точки зрения мы не можем утверждать, что сотрудники органов ЗАГСа поступают неправильно. Здесь скорее всего такое замечание следует сделать самому законодателю, а также в некоторых аспектах Министерству юстиции. Мы считаем, что органы ЗАГСа – подчиненная государственная структура, которая в своей деятельности многое может поменять, когда для этого будет законодательно проработана административная процедура.

Ввиду этого обоснованно будет утверждать, что государство в лице своих высших государственных органов власти должно работать не с благоприятной статистикой сокращения разводов, а с причинами разводов, а также практическими аспектами разграничения разводов, исходя из причин их возникновения.

Из общеизвестной и очевидной практики разводов становится ясным, что не каждое ограничение в расторжении брака может сохранить семью, не каждая бюрократическая рамка может примирить супружеских пар. Значит, аспекты практики в этой части расторжения браков, а именно: сроки примирения, отказы в удовлетворении исковых требований супружеских пар, а также иные процедуры, предшествующие расторжению брака, должны быть изучены.

Следовательно, органы ЗАГСа и соответствующие комиссии по укреплению семейных ценностей должны активно содействовать супружеским парам, находящимся на стадии расторжения брака, в разрешении конфликтных вопросов их взаимоотношений: алименты, раздел имущества. Здесь мы видим необходимым учитывать роль медиаторов, работающих при хокимияте, оказывающих свою посредническую помощь супружеским парам как на безвозмездных началах. С материальной точки зрения любому законодателю данное предложение покажется расточительным, потому что то или иное изменение в штатной структуре государственного органа повлечет за собой необходимость обеспечивать определенные финансовые расходы. На практике многие супружеские пары еще могут договориться между собой об алиментах, разделе имущества, встречах с детьми, если к этим переговорам им будут способствовать квалифицированные специалисты[4].

Административная процедура развода, рассматривается как более либеральный тип развода и как вершина законодательства о свободе развода[5].

В юридической науке существуют дискуссии о необходимости официально запретить административный способ расторжения брака, чтобы сократить количество разводов[6].

Данные тенденции ученые отмечают как социально необходимые. Однако мы не придерживаемся точки зрения, что расторжение брака в административном порядке (через органы ЗАГСа) необходимо упразднить. Наоборот, этот способ расторжения брака необходимо постоянно изучать и совершенствовать, особенно в направлении работы органов ЗАГСа по работе, как с лицами, расторгающими брак, так и с лицами, вступающими в брак.

Как мы уже сказали, мы не являемся сторонниками таких взглядов на поставленный вопрос (количество разводов). С введением только судебного порядка можно столкнуться с трудностями материального и организационно-правового характера, с которым будет работать намного тяжелее. Мы считаем обоснованным утверждать, что это лишь затруднит процессы по расторжению браков, и

даже создает опасность для некоторых супружеских пар, которые страдают от домашнего, психологического или иного неправомерного влияния со стороны другого супруга.

В целом, нужно отметить, что институт расторжения брака, как и его заключения, является весьма востребованным и часто применимым в жизни граждан. Учитывая то, что брак меняет юридический статус граждан, каждый из граждан связывает с его прекращением определенные причины и обстоятельства. И зачастую, наличие многих таких причин не могут привести к сохранению семьи.

Именно поэтому, на наш взгляд, расторжение брака на современном этапе общественного развития нужно рассматривать не как негативную тенденцию общественных отношений, а как следствие несовершенства профилактической общественной работы по изучению моральных и материальных ценностей семьи. Мы считаем, что каждый гражданин должен знать о бремени ответственности за создание семьи, прежде чем ее создавать. Если работать в таком направлении деятельности, в будущем мы сможем сократить количество разводов в нашей стране.

Мы считаем, что органы ЗАГСа и соответствующие комиссии по укреплению семейных ценностей должны активно содействовать супружеским парам, находящимся на стадии расторжения брака, в разрешении конфликтных вопросов их взаимоотношений: алименты, раздел имущества. Здесь мы видим необходимым учитывать роль медиаторов, работающих при хокимияте, оказывающих свою посредническую помощь супружеским парам как на безвозмездных началах. С материальной точки зрения любому законодателю данное предложение покажется расточительным, потому что то или иное изменение в штатной структуре государственного органа повлечет за собой необходимость обеспечивать определенные финансовые расходы. На практике многие супружеские пары еще могут договориться между собой об алиментах, разделе имущества, встречах с детьми, если к этим переговорам их привлекут компетентные специалисты в этом деле.

Считаем необходимым, прежде всего, работать не с благоприятной статистикой сокращения разводов, а с причинами разводов, а также практическими аспектами разграничения разводов, исходя из причин их возникновения. Ведь, как показывает практика, не каждое ограничение в расторжении брака может сохранить семью, не каждая бюрократическая рамка может примирить супружеские пары. Значит, аспекты практики в этой части расторжения браков, а именно: сроки примирения, отказы в удовлетворении исковых требований супружеским парам, а также иные процедуры, предшествующие расторжению брака, должны быть изучены.

На наш взгляд, расторжение брака на современном этапе общественного развития нужно рассматривать не как негативную тенденцию общественных отношений, а как следствие несовершенства профилактической общественной работы по изучению моральных и материальных ценностей семьи. Мы считаем, что каждый гражданин должен знать о бремени ответственности за создание семьи, прежде чем ее создавать. Если работать в таком направлении деятельности, в будущем мы сможем сократить количество разводов в нашей стране.

Другим актуальным практическим аспектом реализации административного способа расторжения брака является применение медиации.

Следует отметить, что медиация является подходом, направленным на обеспечение взаимодействия между сторонами, помочь им в концентрации внимания на реальных аспектах спора и предложить варианты решения проблемы, удовлетворяющие интересы и потребности супружеских пар.

Досудебное регулирование вопросов расторжения брака, в частности медиации, является требованием времени. Данный способ разрешения конфликтов будет актуален всегда и в любой стране, и связано это с тем, что он не предполагает серьезных временных, организационных и материальных затрат, тем самым предоставляя людям как работать в данной сфере (расширять свой юридический профиль) так и обращаться к таким людям, медиаторам.

Актуален институт медиации в Узбекистане еще и потому что он не усовершенствован, он представляет собой непрекращающийся интерес, в связи с чем могут изучаться и прорабатываться иные, сопутствующие медиации сферы правовой жизни.

Список использованной литературы:

1. Боймирзаева, Р.Х. Конституционные основы семьи в Узбекистане / Р.Х. Боймирзаева, Хуриида Ахмедова. – Текст: непосредственный // Молодой ученый. 2017. – № 45 (179). – С. 98-99. url: <https://moluch.ru/archive/179/46397/> (дата обращения: 02.04.2021).
2. Мамадалиева Х.Х. Брак и семья в Узбекистане // Народонаселение. 2017. – № 4. – С. 67-77. DOI: 10.26653/1561 -7785-2017-4-5.
3. По данным Государственного комитета статистики // Источник: <https://stat.uz/uz/>
4. Тарусина Н.Н. Брак по российскому семейному праву. – М., 2010. – С. 183.
5. Комментарий к Семейному кодексу Российской Федерации: Учебно -практический. / Под ред. С.А. Степанова. – Москва, 2015. 365 с.
6. Вершинина Е.В. Концепции расторжения брака в России и за рубежом: сравнительно-правовой анализ // Семейное и жилищное право. 2013, № 5. – С. 8.

Babajanova Dinara Islamovna,
TDYU Fuqarolik huquqi kafedrasi dotsenti vazifasini
bajaruvchi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

**ALIMENT TO'LASH TO'G'RISIDAGI KELISHUVNI FUQAROLIK-HUQUQIY
TARTIBGA SOLISHNING ASOSLARI**

Annotatsiya. Maqolada aliment to'lash to'g'risida shartnoma tuzish tartibi va uning shakli masalalari tahlil qilingan. Muallif ushbu kelishuvni fuqarolik qonunchiligi nuqtayi nazaridan o'rganadi va shartnomaning tekin, bir tomonlama va konsensualligini asoslaydi. Ishning xulosalari aliment to'lash to'g'risidagi bitim kontsepiyasini, ushbu shartnomaning aliment to'lashning boshqa tartib-qoidalaridan afzalliklarini asoslashdan iborat.

Kalit so'zlar: aliment, kelishuv, fuqarolik-huquqiy shartnoma, shakl, notarius, aliment to'lovchi, aliment oluvchi

Аннотация. В статье анализируются вопросы о порядке заключения соглашения об уплате алиментов и его форма. Автор изучает данное соглашение с позиции гражданского права и обосновывает безвозмездность, односторонность и консенсуальность соглашения. Выводы по работе заключаются в обосновании понятия соглашения об уплате алиментом, преимущества данного соглашения от других порядков взыскания алиментов.

Ключевые слова: алименты, соглашение, гражданско-правовой договор, форма, нотариус, плательщик алиментов, получатель алиментов.

Annotation. The paper analyzes the issues of the procedure for concluding an agreement on the payment of alimony and its form. The author studies this agreement from the standpoint of civil law and substantiates the gratuitousness, one-sidedness and consensuality of the agreement. The conclusions of the work are to substantiate the concept of an agreement on the payment of alimony, the advantages of this agreement from other procedures for collecting alimony.

Key words: alimony, agreement, civil contract, form, notary, alimony payer; alimony recipient.

Bugungi kunga kelib, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi aliment to'lash majburiyati taraflariga tegishli bitim tuzish orqali aliment to'lashning miqdori, shakli va tartibi bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish imkoniyati berilgan. Aliment majburiyatları instituti doimo oila huquqining asosiy institutlaridan biri bo'lib kelgan. Zamonaviy sharoitda aliment bo'yicha huquqiy munosabatlardan juda muammoli bo'lib, davlatning diqqat e'tiborini talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasining oila qonunchiligidagi aliment to'lashning ixtiyoriy tartibi ko'zda tutilgan – tomonlarning kelishuvi asosida. Qonun chiqaruvchi unga ustunlik beradi, chunki oiladagi munosabatlardan shaxsiy xususiyatga ega va aliment to'lash majburiyatları, ta'rifga ko'ra, davlat majburlovisiz bajarilishi kerak.

Aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv – bu yosh institut: birinchi marta uni tuzish imkoniyati amaldagi O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksida ko‘zda tutilgan. Yuridik adabiyotlarda alimentlar to‘g‘risidagi kelishuv atamasi keng qo‘llanilishiga va doimiy ravishda har xil jihatlarda ishlatalishiga qaramay, uni umumiy tushunchasi va talqini mayjud emas.

Masalan, S.P.Grishaeva, aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv aliment to‘lashga majbur bo‘lgan shaxs va ularni oluvchi o‘rtasida aliment to‘lashning miqdori, shartlari va tartibi to‘g‘risida notarial tasdiqlash shartidir [1]. E.A. Usacheva quyidagi ta‘rifni beradi: “aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv – bu aliment to‘lashga majburiy bo‘lgan shaxs va qonun asosida undan aliment olishga haqli bo‘lgan shaxs o‘rtasidagi alimentni to‘lash miqdori, usuli va tartibini belgilaydigan kelishuvdir” [2].

Ba‘zi mualliflar alimentlar to‘g‘risidagi kelishuvni oilaviy huquq instituti nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqadilar. Shunday qilib, L.V.Dzyubrovskaya, aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv – bu tarmoq ichidagi o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan, belgilangan huquqlarni amalga oshirishga qaratilgan oila a‘zolari yoki sobiq oila a‘zolarining o‘zaro roziliginini belgilaydigan majburiy va dispozitiv normalarni birlashtirgan mustaqil yuridik institutdir [3].

Bizning fikrimizcha, aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv aliment to‘lash majburiyati taraflariga ular uchun taqdim etilishi mumkin bo‘lgan eng maqbul shartlar to‘g‘risida mustaqil ravishda kelishish imkoniyatini beradigan xususiy huquqiy xarakterdagi nizolarni sudsiz hal qilish usulidir. Aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuvining xususiyatlari quyidagilar: aliment to‘lash shartnomasining subyektlari; notarial tasdiqlash; aliment to‘lashning mustaqil tartibi va usuli; hukumat majburlashisiz ijro etish.

Yuqorida ta‘kidlab o‘tilganidek, aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv fuqarolik-huquqiy shartnomasi hisoblanadi [4]. Ushbu bayonotni qo‘llab-quvvatlovchi doktrinaviy mulohazalarni chetga surib, diqqatni, xususan, quyidagi rasmiy huquqiy fikrlarga qaratishi mumkin.

Aliment to‘lash to‘g‘risidagi fuqarolik-huquqiy shartnomasi:

1. Bepul: bir taraf ikkinchi tarafga biror narsa taqdim etish majburiyatini oladi.
2. Bir tomonlama (bir tomonlama majburiy): bir taraf majburiy (aliment to‘lash), boshqa taraf esa (aliment to‘lash) talab qilish huquqiga ega.
3. Konsensual: qonunda belgilangan shaklda bitim tuzilgan paytdan boshlab (shu paytdan boshlab huquq va majburiyatlar paydo bo‘ladi) bitim tuzilgan hisoblanadi. [5]

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 130-moddasiga muvofiq aliment to‘lash majburiyati bo‘lgan shaxs va uni oluvchi o‘rtasida aliment to‘lash to‘g‘risida (aliment to‘lashning miqdori, shartlari va tartibi) kelishuv tuziladi. Alimentni oluvchi – qonun hujjatlarida shunday tan olingan, to‘lovchi bilan oilaviy yoki boshqa munosabatlar bilan bog‘liq bo‘lgan jismoniy shaxs. Alimentni oluvchining (voyaga yetmagan yoki ruhiy kasallikka chalingan) muomala layoqatsizligi uning qonuniy vakili (vasiy) tomonidan qoplanadi. Vasiy, aliment to‘lash majburiyatining tarafi bo‘limganligi sababli, qaramog‘iga olingan shaxs nomidan bitimlar tuzadi. 14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar, muomala layoqati cheklangan shaxs sifatida, ota-onalarining (farzandlikka oluvchilar, vasiylar) yozma roziligi bilan aliment to‘lash to‘g‘risidagi shartnomalarini tuzadilar.

Keng yondashuvga ko‘ra, aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv mutlaqo har qanday shaxslar o‘rtasida tuzilishi mumkin: mehnatga layoqatli yoki layoqatsizligi, aliment to‘lash tartibiga rioya qilinishidan qat’i nazar, oilaviy aloqalari bo‘lgan va bo‘limgan holda. Ushbu pozitsiyani M.V.Antokolskaya, M.V.Vlasova, E.A.Chefranova va boshqalar qo‘llab quvvatlaydi [6, 7, 8].

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 131-moddasida aliment to‘lash to‘g‘risida kelishuv yozma ravishda tuzilgan va notarial tasdiqlanishi kerakligi belgilangan. Qonun hujjatlarida belgilangan aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv shakliga rioya qilmaslik O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan oqibatlarga olib keladi. Aliment to‘lash to‘g‘risida notarial tasdiqlangan kelishuv ijro varaqasi kuchiga ega.

Tuzilgan hujjat qonuniy kuchga ega bo‘lishi uchun u notarius tomonidan tasdiqlanishi kerak. Aliment to‘lashga majbur bo‘lgan tomon o‘z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda, aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv ijro varaqasining rolini bajaradi – uning asosida majburiy ravishda mablag‘ yig‘ish mumkin bo‘lgan tashkilotning buxgalteriya bo‘limi orqali ishlaydi.

Notarial tasdiqlash natijasida aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv jamoat tomonidan tan olinadi [9]. Kelishuvni notarial tasdiqlash alimentlar bo‘yicha huquqiy munosabatlar subyektlarining huquqlari va manfaatlarini amalga oshirish va himoya qilishning huquqiy kafolatlaridan biridir [10].

O.N.Nizomiyevanig fikriga ko‘ra, bunday kelishuvni notarial tasdiqlash talabi, shubhasiz, kelishuv taraflarining va avvalambor aliment oluvchining huquqlari kafolatlari darajasini oshiradi [11]. Biz O.Nizomiyevanig fikriga mutlaqo qo‘shilamiz, chunki kelishuvni notarial tasdiqlash kelishuvning qonuniyligini, shu jumladan, tomonlarning har biri uni to‘ldirishga haqli yoki yo‘qligini tekshirishni anglatadi va notarius yoki mansabdar shaxs tomonidan amalga oshiriladi.

Aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv tomonlarning ixtiyoriga binoan 1 yilga, 5 yilga yoki boshqa muddatga (masalan, bola umumiyligi ta’lim olguncha) tuzilishi mumkin. Agar bunday kelishuvning amal qilish muddati tugagan bo‘lsa, unda bu aliment to‘lash bo‘yicha tomonlarning yangi kelishuv tuzishiga to‘siq bo‘lmaydi. Agar tomonlar bunday kelishuvni tuzishni istamasalar, unda qolgan muddat davomida aliment to‘lashga majbur bo‘lgan shaxs unga yuklatilgan majburiyatni saqlab qoladi, tomonlar ushbu masalani sud tartibida ko‘rib chiqishga murojaat qilishlari mumkin. Kelishuvning amal qilish sharti sifatida umumiyligi muddat muhim ahamiyatga ega emas, chunki muddat belgilanmasa, kelishuv alimentni to‘lash majburiyati muddati davomida tuzilgan deb hisoblanadi.

Yuqoridagilarni umumlashtirib, quyidagi xulosalarni shakllantirishimiz mumkin:

1. Aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuvlar aliment to‘lashga majbur bo‘lgan shaxs va ularni oluvchi o‘rtasida aliment to‘lashning miqdori, shartlari va tartibi to‘g‘risida notarial tasdiqlash sharti hisoblanadi. Shu bilan birga, aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv alimentni olishning eng qulay usullaridan biri bo‘lib, sudsiz, shuningdek, o‘zaro kelishuv asosida rasmiy lashtiriladi. Boshqa tomondan, aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv, birinchidan, ijro hujjati, ikkinchidan, sudda bir xil davriy to‘lovlarni undirish to‘g‘risidagi da‘vo arizasini qabul qilishni rad etish uchun asosdir.

2. Aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuvni aliment to‘lashni nazarda tutadigan boshqa turdagiga tartib bilan taqqoslaganda uning bir qator afzalliklari aniqlandi. O‘z navbatida, bu aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuvdan tashqari aliment majburiyatlarida boshqa huquqiy tuzilmadan foydalananish maqsadga muvofiq emasligini tasdiqlashga asos beradi. Xususan, oila qonunchiligi kelishuvning mazmuniga ma’lum talablarni qo‘yadi, ularga rioya qilish aliment oluvchining huquqlari va manfaatlarini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- Гришаев С.П. Алиментные обязательства / Система ГАРАНТ, 2011. – № 4. – С. 184-185.
- Усачева Е.А. Проблемы определения предмета и субъектного состава соглашения об уплате алиментов / Актуальные проблемы российского права. – 2014. – № 8 (45). – С. 1656.
- Дзюбровская Л.В. Соглашение об уплате алиментов – самостоятельный семейно-правовой институт / Семейное и жилищное право. – 2012. – № 6. – С. 13.
- Гражданское право: Учебник. В 3 т. Т. 3 / Под ред. А.П. Сергеева, Ю.К. Толстого. 2010. – С. 569-570.
- Семейное право: Учебник / Гонгало Б.М., Крашенинников П.В., Михеева Л.Ю., Рузакова О.А.; Под ред. П.В. Крашенинникова. – Москва: Статут, 2008. – С. 302 – 305.
- Антокольская М.В. Семейное право: учебник. – Москва, 2002. – С. 235-237.
- Власова М.В. Постстатейный комментарий к Семейному кодексу Российской Федерации. – М., 2007. – С. 206.
- Чефранова Е.А. Имущественные отношения в российской семье. Практическое пособие. – Москва, 1997. – С. 98, 102, 111.
- Алексеева О.Г., Андропов В.В., Бухарбаева А.А. и др. Постстатейный комментарий к Семейному кодексу Российской Федерации. 2014. – С. 258-264.
- Ксенофонтова Д.С. Нотариальное удостоверение соглашения об уплате алиментов как правовая гарантия осуществления и защиты прав и интересов субъектов алиментного правоотношения / Нотариус. Отв. ред. О.Н. Низамиева. – Москва: Проспект, 2010. – С. 385-386.
- Комментарий к Семейному кодексу Российской Федерации (постстатейный) / Отв. ред. О.Н. Низамиева. – Москва: Проспект, 2010. – С. 358-335.

Xolov Aktam Xatamovich,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
DBA kafedra mudiri v.v.b
PhD (iqtisod fanlari), dotsent

Mahmudov Shohruh Pulat o'g'li,
Mirzo Ulugbek nomidagi O'zMU Iqtisodiyot fakulteti talabasi

MAVJUD MUAMMOLARNI HAL ETISH UCHUN MAHALLALAR TIZIMIDA IQTISODIY DASTAKLARNI QO'LLASH ZARURIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizdagi mavjud muammolarni hal etishda iqtisodiy yondashishni mahallalar tizimida qo'llash zaruriyati va amalga oshirishda jahon tajribalari misolida asoslab berilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga va xalqqa qilgan Murojaatnomasida mavjud muammolarni mahallalar tizimida hal etish masalalariga iqtisodiy yondashgan holda ishlar olib borilayotganligi, hududlarni kompleks rivojlanadirishda "drayver"larni aniqlash mexanizmi va amaliyatga joriy etish masalalari atroficha keltirib o'tilgan. Prezidentimiz ta'kidlab o'tganlaridek, hal qilinishi zarur bo'lgan mavjud muammolarni faqatgina mahallabay kesimda chuqur o'rGANISH yo'li bilan hal qilish yuqori samara kasb etadi. Shuningdek, mamlakatdagi mavjud muammolar qatorida, iqtisodiy faol aholi tarkibidagi bandlar salmog'iini oshiririshda mahallalar kesimida qanday chora-tadbirlar amalga oshirish bo'yicha taklif va mulohazalar, dunyo mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bartaraf etish tajribalari, mashhur iqtisodchi olimlarining ushbu masalalarga fikr-mulohazalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: mahalla, "temir daftari", yoshlar daftari, ayollar daftari, investitsion jozibadorlik, soliq imtiyozlari, iqtisodiy farovonlik, "drayver" iqtisodiy vositalar, bandlik, "mahalla byudjeti", ishsizlik, kasb-hunar markazlari, subsidiya, kambag'allik, o'zini o'zi band qilish, tadbirkorlik, mehnat zaxirasi, ish haqi.

Аннотация. В данной статье обосновано необходимость решения существующих в стране проблем путем применения экономического подхода к системе махаллей и их реализация на примере мирового опыта. Также в послании Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева к народу и Олий Мажлису от 29 декабря 2020 года представлена подробная информация о ходе применения экономического подхода к решению существующих проблем в системе махаллей, об механизме выявления «драйверов» в комплексном развитии территорий и их реализации.

Как отметил президент, очень эффективно решение существующих проблем путем глубокого изучения данных проблем в разрезах махалли.

Наряду с этими проблемами в данной статье приведены предложения по увеличению доли занятых в составе экономически-активного населения, опыты стран мира по устранению социально-экономических проблем, мнения известных учёных в сфере экономики по данным задачам.

Ключевые слова: махалла, «железная тетрадь», молодежная тетрадь, женская тетрадь, инвестиционная привлекательность, налоговые льготы, экономическое благополучие, «водитель» экономические возможности, занятость, «бюджет махалла», безработица, центры профессионального обучения, субсидии, бедность, самозанятость, предпринимательство, рабочая сила, заработка плата.

Annotation. This article is based on the need to apply the economic approach in solving the existing problems in our country in the system of mahallas and the example of world experience in its implementation. In addition, the Address of the President of the Republic of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev to the Oliy Majlis and the people on December 29, 2020 provides detailed information on the economic approach to solving existing problems in the mahalla system, the mechanism for identifying and implementing "drivers" in integrated development. As noted by the President, it is highly effective to solve the existing problems that need to be solved only through in-depth study in the neighborhood. Also, among the existing problems in the country, there are proposals and comments on what measures to take to increase the share of the economically active

population in the community, the experience of overcoming socio-economic problems in the world, the views of prominent economists.

Key words: mahalla, “iron book”, youth book, women’s book, economic well-being, investment attractiveness, tax breaks, “driver”, economic means, employment, “mahalla budget”, unemployment, vocational centers, subsidies, poverty, self-employment, entrepreneurship, labor force, wages.

Mamlakatimiz Prezidenti ta’kidlaganlaridek “mahalla – jamiyatimizning yorug‘ yuzi va vijdoni ko‘zgusi”dir. Bundan kelib chiqqan holda, har bir vazirlik va hokimliklarning olib borayotgan ishlari natijalariga mahallalardagi mavjud vaziyat orqali baho berish mumkin bo‘ladi. Murojaatnomada barcha idora va tashkilotlar faoliyati no‘qtayi nazaridan kelib chiqqan holda, mahallalardagi muammolarni o‘rganish va ularga yechim topishlari zarurligi hamda aholi farovonligiga sezilarli ta’sir etish zarurligi ham takidlاب o‘tilganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Shuningdek, Prezident Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga va xalqqa qilgan Murojaatnomasida mavjud muammolarni mahallalar tizimida hal etish masalalariga iqtisodiy yondashuvlar hamda byudjet mablag‘larini mahalladagi muammolarni hal etishga sarflash bo‘yicha ishlar olib borilayotganligi keltirib o‘tilgan.

Tadqiqotning maqsadi – mahallalardagi mavjud muammolarni hal etishda iqtisodiy vositalardan foydalanishni kengaytirish zarurligini ilmiy asoslash hamda mamlakatda olib borilayotgan siyosiy-iqtisodiy munosabatlarda mahalla fuqarolar yig‘inlarining o‘rnini chuqur tahlil qilish.

Maqolaning ilmiy ahamiyati sifatida, mahalla tizimidagi mavjud muammolarni hal etish yo‘lida ilmiy-tadqiqot ishlanmalari keng amalga oshirilayotganligi bilan izohlash mumkin. Tadqiqotning amaliy ahamiyati – hozirgi kundagi davlat iqtisodiy siyosatining keng ko‘lamda ushbu yo‘nalishga yo‘naltirilganligi, mahallalardagi mavjud muammolarga iqtisodiy tomondan yondashish optimal usullardan biri ekanligini inobatga olgan holda, har tomonlama tahlilni amalga oshirish zarurligini keltirib chiqaradi.


Asosiy qism. Mayjud muammolarni hal etishda iqtisodiy usullarni qo‘llash eng samarali usullardan hisoblanadi. Bunda mayjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda operativ loyihalarni ishlab chiqish, ularni amaliyotga bevosita targ‘ib etish zarur hisoblanadi.

Mahallalarda iqtisodiy hamda demografik tanglikni keltirib chiqaruvchi dastlabki muammo sifatida, ishsizlikni keltirishimiz mumkin.

Dastlab 1911-yilda Britannica ensiklopediyasida paydo bo‘lgan va 1915-yilda AQSh Mehnat vazirligi hisobida keltirilgan ushbu tushunchani ta’riffashda, ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida qarab, iqtisodiy faol aholining o‘ziga loyiq ish topa olmasdan qolgan va mehnat zaxirasiga aylangan qismi deb aytishimiz mumkin [1].

Mamlakatimizdagи hozirgi holat bo‘yicha, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma’lumotlariga muvofiq, Davlat statistika qo‘mitasi ishsizlik darajasini 10,5% ekanligini bayon etgan [2].

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlari asosida tuzilgan quyidagi 1-diagrammada, eng yuqori ishsizlik darajasiga ega hududlar sifatida, har biri, 11,1% ko‘rsatkichda Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarini keltirishimiz mumkin.



1-diagramma. O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha ishsizlik darajalari [3].

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha 2019-yilgi Nobel mukofoti sohiblarining amaliy ishlari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2030-yilgacha belgilangan 17 ta barqaror rivojlanish maqsadlaridan biri hisoblangan qashshoqlikni kamaytirish masalasiga to'liq mos keldi [4].

Abhijit Banerjee, Esther Duflo va Maykl Kremerlarning tadqiqotlari natijasi sifatida, 1995-yildan 2018-yilgacha eng qashshoq mamlakatlarning farovonligi ikki baravar oshdi (jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot), bolalar o'limi ikki baravarga kamaydi va maktabga boradigan bolalar ulushi 24 foizga o'sib, 80 foizni tashkil etishini e'lon qilishgan [5].

Ushbu jahon tajribalarini chuqur o'rgangan holda mamlakatimizga moslashtirishimiz yuqori samara berishi tayin.

Mamlakatdagi iqtisodiy faol aholi tarkibidagi bandlar salmog'ini oshiririshda, hozirgi kunda hududlardagi real holatni ko'z oldimizga keltirgan holda mahallalar tizimida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

Birinchidan, har bir mahalla fuqorolar yig'ini qoshida, ustoz-shogird tizimi orqali kasb-hunar markazlarini tashkil etish. Ushbu markazlarda yangi va talabgor kasb va hunarlarni o'rgatish orqali bandlikni oshirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Murojaatnomada ushbu masala bo'yicha qilinishi zarur bo'lgan amaliy chora-tadbirlarni keltirib o'tgan. "Kambag'allikdan chiqib ketish uchun eng muhim omil – bu insonning intilishi, o'z kuchiga tayangan holda, aniq maqsad sari harakati bo'lishi kerak. Shu maqsadda kelgusi yili mahallalarda aholini kasb-hunarga o'qitish bo'yicha mingdan ziyod markazlar tashkil etiladi. Bunda kasb-hunarga o'qitilgan har bir shaxs uchun o'quv markazlariga 1 million so'mgacha subsidiya berilib, buning uchun byudjetdan 100 milliard so'm ajratiladi. O'quv kurslarini tamomlab, o'z biznesini boshlamoqchi bo'lgan fuqarolarga asbob-uskuna xarid qilish uchun 7 million so'mgacha subsidiyalar beriladi" [6].

Ikkinchidan, mahallalar kesimida mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda ma'lum tarmoqlarga ixtisoslashtirish. Bunda o'zini o'zi band qilish holatini kengayishi orqali ishsizlik darajasi kamayadi va aholi farovonligi oshadi.


Uchinchidan, har bir mahallalar kesimida, bisnes va psixologik treninglar tashkil etish. Yuqoridagilar aholining tadbirkorlikka bo'lgan xohish-istiklarini uyg'otish, yo'l-yo'riqlar ko'rsatish va o'zlariga bo'lgan ishonchlarini oshirishga xizmat qiladi. Buning natijasida, hududlarda tadbirkorlik muhiti yaxshilanadi, yangi ish o'rinalining tashkil topishi natijasida ishsizlik darajasi bevosita kamayadi.

Respublika hududida 2021-yil holatiga ko'ra 9168 ta fuqarolar yig'ini mavjud. Bularidan 8887 tasi mahalla fuqarolar yig'ini, 161 ta ovul fuqorolar yig'ini, 89 tasi qishloq fuqarolar yig'ini, hamda 41 tasi shahar fuqarolar yig'ini ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Mazkur holatga obektiv baho beradigan bo'lsak, Respublikaning asosan viloyatlar kesimida mahalla binolarining mavjud emasligi, mavjudlarining ham ko'p qismi talabga javob bermasligini, yetarlicha texnik jihatdan ta'minlanmaganligini ko'rishimiz mumkin. Yuqoridagilarning barchasi mahalla tizimiga yuklatilgan mas'uliyatni bajarishda qiyinchiliklarni taqozo etadi. Ushbu holatlarni ijobiyl o'zgartirish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, tuman-shahar hokimiyati tadbirkorlik subyektlari bilan hamkorlikda sherikchilik asosida mahalla binolarini qurish. Bunda hokimlik ajratib bergen maydonning holatidan kelib chiqqan holda 2 yoki 3 qavatlik binolarni tadbirkorning mablag'lari orqali amalga oshirish va binoning ma'lum qavatlaridan foydalanish imkoniyatini berish.

Ikkinchidan, mahalliy byudjet mablag'larining hisobidan maqsadli dastur ishlab chiqish va bosqichma-bosqich faoliyat natijalari monitoringi natijasida mahallalarni zamонавиy binolar va texnikalar bilan ta'minlash.



1-rasm. Muammolarni bartaraf etishning iqtisodiy dastaklari.

Davlatimiz rahbari Murojaatnomasida ushbu masala yuzasidan kelgusi yillar uchun byudjet mablag‘larini yo‘naltirish belgilab berilgan. “Joriy yilda tumanlar byudjetiga qo‘sishma manbalarning kamida 10 foizini bevosita mahalladagi muammolarni hal etishga sarflash bo‘yicha ishlarni boshlab, bu maqsadlarga 70 milliard so‘m ajratildi. Endi bu vakolatni yanada kengaytirib, tuman byudjeti xarajatlarining 5 foizini ham ana shunday maqsadlarga yo‘naltirish bo‘yicha yangi tartib joriy etiladi” [7].

Hozirgi kunda mahallalarni yanada rivojlantirish va iqtisodiy barqarorligini ta’minlash borasida uzviy chora-tadbirlab olib borilmoqda. Davlat dasturi doirasida har bir hududning “drayver” larini aniqlash va ushbu o‘sish nuqtasi orqali har bir hududni kompleks rivojlantirish masalasi qo‘yilmoqda.

2019-yilgi Nobel mukofoti g‘oliblarining ishi hududlarda “global qarshi kurashishni sezilarli darajada oshirganligini hamda iqtisodiyotni rivojlanishini o‘zgartirganligini, Shvetsiya Qirollik akademiyasi ta’kidlab o‘tdi [8].

Avvalambor, “drayver”ni aniqlab olishning aniq mexanizmlarini ishlab chiqish zarur. Mexanizmni yaratishda hududlarning mavjud imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda yirik 3 guruuhga ajratib olishimiz darkor:

1. Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari.
2. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlari.
3. Sanoat tarmoqlariga ajratib olishimiz zarur.

So‘ngra bu yirik 3 ta guruhni har bir mahallalar kesimida klassifikatsiya qilamiz. Bunda tarmoqlarni “o‘sish nuqtasi” deb qarashimiz uchun bevosita hududlarda 2019 yilda Nobel mukofoti sovrindorlari Abxijit Banerji, Ester Duflo va Maykl Kremer [9] metodologiyasiga asoslangan “kichik masshabdagi masalalar” bo‘yicha “dala tadqiqotlari”ni o‘tkazish zarur. Bunda quyidagilarni e’tiborga olish maqsadga muvofiq:

birinchidan, hududning joylashgan geografik o‘rni, bunda, turizm yoki qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida imkoniyatlarini baholash;

ikkinchidan, aholining demografik ko‘rsatkichlari (mehnat resurslari soni, zichligi, o‘rtacha yosh darajasi)ga;

uchunchidan, mavjud qadriyatlar, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan kasb-hunarlarning mahallalarda rivojlanganligiga;

to‘rtinchidan, hududlarning investitsion jozibadorligini baholashdagi mavjud infratuzilmaga;

beshinchidan, har bir mahallada mavjud intellektual salohiyatni baholashga atroficha e’tibor qaratish zarur.




2-rasm. Drayverlarni aniqlash indikatorlari

“Drayver” larni aniqlab olganimizdan so‘ng, ushbu “o‘sish nuqtalari”ni amalga oshirish va yuqori darajada ushlab turish masalasi dolzarb hisoblanadi. Buning uchun quyidadagilarni amalga oshirishimiz darkor:

Birinchidan, bank va moliya muassasalari bilan birgalikda, aniqlangan imkoniyatlarni hisobga olgan holda kredit mablag‘larini ajratish mexanizmmini soddalashtirish, aholi va bank orasidagi “masofa”ni yaqinlashtirish.

Ikkinchidan, davlat byudjeti yoki mahalliy byudjetlar mablag‘lari hisobidan hududlarda aniqlangan “drayver”lar uchun aniq manzilli bevosita subsidiyalar ajratish.

Uchinchidan, ushbu hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish maqsadida, aniqlangan sohalarga soliq imtiyozlarini ishlab chiqish zarur.



3-rasm. “Drayver” ni amalga oshirish va yuqori darada ushlab turish usullari.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, har bir hududning “drayver” larini aniqlab olish, amaliyotga joriy etish va yuqori darajada ushlab turish, hududlarning iqtisodiy samaradorligini oshiradi.

Xulosa va takliflar. Mahallalar davlat asosini tashkil etishini bilgan holda, mavjud muammolarni hal etishda iqtisodiy usullarni har bir mahallalar kesimida amalga oshirish samarali natija berishini ko‘rshimiz mumkin. Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish, bevosita aholini kambag‘allikdan chiqarishga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi, natijada aholi orasida boqimandalik hissining kamayishiga, temir daftар, yoshlar va ayollar daftaridagilarning salmog‘i keskin pasayishiga hamda aholining iqtisodiy farovonlik ko‘rsatkichi yanada yaxshilanishini ko‘rshimiz mumkin.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, mahalla tizimidagi muammolarni hal etishda quyidagi iqtisodiy choralarini yaratish va amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Birinchi. Har bir mahallalarda “Mahalla byudjeti”ni yaratish hamda mablag‘larni homiyalar va mahalla hududida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari to‘laydigan davlat majburiy yig‘imlarining 3% miqdorini yo‘naltirish orqali to‘ldirish. Hosil bo‘lgan mablag‘larni mahallalardagi mavjud muammolarni hal etishga yo‘naltirish va izchil monitoring qilib borish.

Ikkinci. Mahalla fuqorolar yig‘inlari tizimidagi xodimlar oylik maoshlarini belgilashda hududdagi aholilar soni va bajarilgan ishlar, jumladan, jinoyatchilikni oldini olish masalalariga e’tibor qaratish.

Uchinchi. Mahallalar kesimida “iqtisodiy va huquqiy treninglar”ni amalga oshirishni izchil yo‘lga qo‘yish orqali aholining iqtisodiy va huquqiy dunyoqarashlarini shakllantirish.

To‘rtinchi. Mahallalarni kompleks rivojlanishda “drayver”larni aniqlab olish dasturini yaratish zarur.

Prezidentimiz ta’kidlab o‘tganlaridek, hal qilinishi zarur bo‘lgan mavjud muammollar juda ko‘p. Bularni faqatgina mahallabay kesimda chuqur o‘rganish bilan hal qilish yuqori samarani kasb etadi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси.
2. <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>
3. <https://www.britannica.com/topic/unemployment>
4. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2>
5. <https://www.eesc.europa.eu/en/news-media/news/local-people-are-main-drivers-rural-development>
6. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>
7. <https://www.nobelprize.org/prizes/economic-sciences/2019/press-release/>
8. <https://www.nber.org/news/nobel-prize-winners-economics-2019>
9. <https://sdgs.un.org/goals>
10. <https://www.barillacfn.com/en/magazine/food-and-society/nobel-prize-in-economic-sciences-2019-fighting-poverty-on-site/>

Mansurova Malika Asqarovna,
Guliston davlat universiteti doktoranti

YOSH OILALARDA NIZO VA AJRIMLARNING ASOSIY OMILLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lgan yosh oilalar o‘rtasida ajrimlar soni ortishining asosiy omillari o‘rganilib, shu xususida fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: oila, jamiyat, farzand tarbiyasi, ajralish, nizo.

Аннотация. В данной статье исследуются основные факторы, увеличивающиеся количество разводов среди молодых семей, что является одной из самых актуальных проблем современности, и дается обратная связь по этому поводу.

Ключевые слова: семья, общество, воспитание детей, развод, конфликт

Annotation. This article examines the main factors, the increasing number of divorces among young families, which is one of the most pressing problems of our time. Feedback on this issue provided.

Key words: family, society, child rearing, divorce, conflict.

Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini, ustunidir. Birgina shu so‘zda olam-olam ma’no mujassam. Har bir insonning jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishida, yetuk shaxs sifatida kamol topishida oilaning o‘rnini beqiyos. Oiladagi tinchlik, xotirjamlik insonga quvvat, kuch bag‘ishlaydi. Oиласида бaxт topgan insonning ish-faoliyatida ham rivojlanish bo‘ladi. Ishidagi turli ko‘ngilsiz voqealar va muammolar oilasi bag‘riga kelgach unut bo‘ladi. Oila a‘zolari ahl bo‘lishsa, bir-birlarini har sohada tushunib, qo‘llab-quvvatlashsa, bu

oila yanada mustahkam bo‘ladi. Har bir ota-onan farzandlarining baxti-kamolini ko‘rishni orzu qiladi, shu umid bilan yashaydi. Butun umr yiqqan-terganini jamlab, o‘g‘il uylantiradi, qiz chiqaradi. To‘y bir kunda o‘tadi- ketadi, eng muhimi, yoshlarning kelgusi hayotlari baxtli o‘tishidadir. Hozirgi kunda yosh oilalarda ajralishlarning soni tobora ortib bormoqda. Bu holat hech bir insonni quvontirmaydi. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Baxtiyor oila” kitobida oila buzilishining sabablari sifatida quyidagilarni keltirganlar:

1. Oila va oilaviy munosabatlar haqida bilimning yetishmasligi.
2. Aroqxo‘rlik va giyohvandlik.
3. Yosh oilalarga ota-onaning aralashuvi.
4. Befarzandlik.
5. Oilaning buzilishiga sabab bo‘ladigan narsalardan biri zinodir.
6. Oilalarda sabr va bag‘rikenglikning yetishmasligi.

Ushbu omillarga qo‘srimcha sifatida yana ba’zi sabablar haqida fikr yuritaylik.

1. Eng asosiy va hozirda juda keng tarqalgan omillardan biri sifatida yolg‘onchilikni ko‘rsatish mumkin, ya’ni sovchilikka kelgan yigit tomon vakillarining yolg‘onni ko‘p ishlatishi yomon oqibatlarga olib kelmoqda. Juda ko‘p holatlarda ajrimlarning aybdorlari sifatida yoshlarni ko‘rsatishadi, biroq yolg‘onni to‘qishni, shu yolg‘on bilan yangi hayotni boshlashni bizga yoshi ulug‘lar o‘rgatishmayaptimi? Bo‘lajak kuyovbolani oshirib-toshirib maqtashlari, uning ko‘ngli qizga tushganligicha davom etadi. Hattoki, to‘ydan oldin berilayotgan va’dalar ham yolg‘on asosiga qurilmoqda va to‘ydan so‘ng hammasi yo‘qqa chiqmoqda. Albatta, yolg‘onning umri qisqa. To‘ygacha qizning uydagilarini rozi qilish uchun qaratilgan barcha yolg‘onlar to‘y o‘tgach ma’lum bo‘ladi. Ikki quda hamda kelin va kuyov oralarida yuzaga keladigan bunday dilxiralikni hech narsa bilan yo‘qotib bo‘lmaydi. “Yolg‘on so‘z aytmoq qilich zarbiga o‘xshar, agarchi yarasi bitsa ham nishoni qolur”. [1,166]

Sovchilarning hamma gaplariga ishonch hosil qilish uchun yigitning o‘zini, oilasini so‘rab surishtirishadi. Bu qadimdan davom etib kelayotgan an’analardan hisoblanadi. Avvalambor, mahallasidan, qo‘ni-qo‘sni, ish joyidan so‘raladi. Mahallada tug‘ilib o‘sgan bolani qo‘ni-qo‘snilarichalik hech kim bilmasa kerak. Achinarli tomoni shundaki, ba’zi qo‘shnijonlarimiz bilib-bilmay yolg‘on so‘zlab gulday oilaning qizlarini baxtsiz qilib qo‘ymoqdalar. Mening nazarimda, bu masalada faqat rostini aytish lozim, chunki birligina haqiqat bir oilani musibatdan saqlab qolishi mumkin. Eng yomon tomoni shundaki, mabodo shu oila ajrim bilan yakunlanadigan bo‘lsa, “biz shunaqaligini bilardik, yaxshilab so‘ramaganmisizlar?” deydiyanlar paydo bo‘lmoqda. Bu ham ikki oilaning taqdiriga bo‘lgan befarqlikni ko‘rsatib bermoqda.

2. Yosh oilalarning barpo bo‘lishida shaxsiy manfaat birinchi o‘ringa chiqmoqda. Avvallari yigitning ishi bor-yo‘qligi, oilani ta’minlay olish yoki olmasligi surishtirilardi, endi esa qizning ota-onasi qayerda ishlashi-yu qanday mol-mulkka egaligi muhim hisoblanmoqda. Bundan tashqari, qizning ham o‘qimishli bo‘lgani ma’qul, negaki oilaga daromad olib keladi. Bir qarashda juda g‘alati holat hisoblansa-da, yon atrofimizda bu kabi toifadagilarning ko‘payib borayotganligidan hayratga kelamiz. Hattoki, ayol kishining topgan pullari hisobiga yashab, boshini ko‘tarib yurgan erkaklar ko‘paymoqda.

Oiladagi yetishmovchilik sababli chet ellarga ishlashga ketayotgan ayollarimiz soni ortmoqda. Oilada sog‘lom, kuch-quvvati bor erkak kishi bo‘la turib zaifa ayolni pul topish maqsadida chekka joylarga jo‘natish erkaklar uchun sharmandali holat hisoblanadi. Oiladagi voyaga yetmagan farzandlar qarovsiz qolib ketmoqda. Ba’zi oilalarda erkak, hatto ayoli jo‘natgan pullar hisobiga uyini qurib, uylanib olayotgan holatlar ham uchrab turadi.

Avvalambor, oilada o‘g‘il bolaga alohida tarbiya lozim. Uni g‘ururli, mard, bir so‘zli qilib tarbiyalash kerak. Yigit kishi oilani moliyaviy ta’minlay olishga ko‘zi yetgandan so‘nggina oila qurishi kerak. U ertaga rafiqasiga suyanchiq, farzandlariga har sohada yo‘lboshchi va o‘rnak bo‘lishi kerak. Oilani ayol kishi ta’minalashiga yo‘l qo‘ymasligi lozim. Albatta, ayol kishi ham qo‘lidan kelganicha oilaga yordam qilishga harakat qiladi, lekin bu degani erkak uyida o‘tirishi kerak degani emas. Erkak kishi ayol kishini avaylashi, unga og‘ir ishlarni qildirmasligi kerak.

Yigitlarimiz qalbida mudrab yotgan g‘urur va vijdona tuyg‘ularini uyg‘otishsa, yosh oilalarni saqsab qolishlari mumkin.

3. Har bir oilaning o‘ziga xos qonun-qoidalari va odatlari bo‘ladi. Oiladagi muhitning mutlaqo boshqachaligi kelinni yangi oilaga moslashishiga qiyinchilik tug‘diradi. Masalan, oilada ota yetakchi bo‘lgan,

otaning so‘zi o‘tadigan oiladan buning aksi bo‘lgan ona boshchiligidagi oilaga kelin bo‘lishi ko‘plab nizolarni paydo qilmoqda. Oilani moliyaviy jihatdan ayol kishi ta‘minlagan oilada xuddi shunday farzandlar kamol topadi. “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, – deydi dono xalqimiz. Bunday oilalarda barcha majburiyatlar kelinga yuklatib qo‘yiladi. Farzandlar ota-onadan o‘rnak oladi, kelgusida ulardek oila qurishni niyat qiladi. Shu sababli oiladagi muhit va tarbiya yosh oilalarning keyingi taqdirida muhim hisoblanadi.

4. Ajrimlarga sabab bo‘layotgan omillardan yana biri sifatida kelin va kuyov o‘rtasida o‘zaro hurmat, muhabbat, samimiylit kabi tuyg‘ularning yo‘qligi hisoblanadi. Bunga misol keltiradigan bo‘lsak, yigitning ko‘ngil qo‘ygan qiziga emas, balki ota-onasiga ma‘qul kelgan qizga uylanishi kabi holatlar uchramoqda. Bunday vaziyatda yigit yo‘q joydan janjal chiqarishga urinadi va bu janjallarning oxiri ajrim bilan yakun topmoqda. Ota-onalarimiz farzandlarini ko‘ngli bilan ham hisoblashishsa yaxshiroq bo‘lardi. Butun umr birga yo‘ldosh bo‘ladigan qizni o‘g‘illari tanlashlariga ruxsat berishlari kerak. Axir farzandining baxti ota-onaning ham baxti-ku.

5. Oilalarning buzilishini kim ham istardi? Biroq oramizda shunday insonlar ham topiladi. Bu insonlar kuyovning ota-onalari bo‘lishsa-chi. Uzoq yillardan beri bilamizki, qaynona va kelin o‘rtasidagi nizolar davom etib keladi. Hozirgi kunda qaynonalar sababli ajralayotgan oilalar anchagina. Ular aslida oilani saqlab qolishga, norasida go‘daklarni ota-onsa bag‘rida katta bo‘lishiga ko‘maklashishlari lozim emasmi? O‘g‘il har qanday vaziyatda onasidan voz kecha olmaydi, uning shartlarini bajaradi va xatoliklarga yo‘l qo‘yadi.

Hattoki, baxtli hayot kechirayotgan oilani ham qaynonalar buzishga, kelinni o‘g‘liga yomon ko‘rsatishga harakat qiladilar. Masalan, kelinni oilaning bir a’zosi sifatida emas, balki xizmatkori sifatida ko‘radilar. “Birovning boqib, tarbiyalab, voyaga yetkazgan qizini kelin qilishga so‘rab borgan taraf o‘g‘liga umr yo‘ldoshi topish niyatida bo‘ladimi yoki o‘g‘ilning ota-onasiga cho‘ri sotib olish savdosiga boradimi?! Shunchalik ham noinsoflik bo‘ladimi?!” [2.432] Axir kelin ham bir oilaning erka farzandi, nevaralarining bo‘lajak onasi hisoblanadi-ku. Qaynona kelinga qanday muomala qilsa, oilaning boshqa vakillari ham shunday munosabat bildiradilar. Kelinni ota-onasini ko‘rib kelishiga ham ba’zan ruxsat berishmaydi. Kelin ham farzand, ota-onasidan xabar olib kelish uning farzandlik burchi sanaladi. Xullas, kelinning birorta xohish-istiklari inobatga olinmaydi. Tinimsiz o‘tkazilayotgan zug‘um, tazyiqlar sababli dunyoga kelayotgan farzandlarda turli nuqsonlar paydo bo‘lmoqda. Bunday holatda ham yana kelin aybdor hisoblanadi va oilaning ajralishiga sabab qilib ko‘rsatiladi. “Islom ta‘limotida iloji boricha oilani mustahkamlashga amr qilingan. Boshqa birovning – agar o‘sha birov ota-onsa bo‘lsa ham – xohishiga binoan oilani buzishga ruxsat yo‘q. Bu haqiqatni barcha ulamolar o‘zlarining qadimgi va yangi kitoblarida ta‘kidlaganlar” [2.433]

Oilada erving ham, ayolning ham majburiyatları va vazifalari bor. Ba’zi oilalarni kuzatar ekanmiz, kelinga qaynotasining oyoqlarini yuvishni, uni uqalab qo‘yishni ham vazifalari qatoriga kiritmoqdalar. Yaqinda bir oilaning ajralish sabablarini so‘raganimda kelinni qaynotasini yuvintirishga undaganligi, hatto har bir qilayotgan ishini qaynotasiga hisobot berib turishi lozimligini kuyov vazifa qilib beribdi. Hattoki, bir uyda qaynota va kelinni yashashi lozimligi, kelin qaynotasini xizmatini qilishga majbur ekanligi aytib janjallahishlari natijasida bir oila buzilgan. Albatta, oila buzilishiga birgina janjal sabab bo‘lolmaydi. Bundan keyin yoshi ulug‘lar, mahalla oqsoqollari ishtirokida tushuntirish ishlari olib borilgan, lekin qaynona va qaynotada diniy bilimlarning yetishmasligi natijasida so‘nggi chora, ya’ni ajrim bilan yakunlashga to‘g‘ri kelgan.

Qadim zamonlardan beri bilamizki, oiladagi qiz farzand bilan ota o‘rtasida o‘ziga xos odob-axloq saqlangan. Hattoki, otaga tik qarash, gapini bo‘lish mumkin bo‘lmagan, o‘z fikrini ham ona orqali otaga yetkazish kabi odatlarimiz bo‘lgan. Kelinlarimiz qaynotasini ham otadek hurmat qilishadi, ularning xizmatini yelib-yugurib ado etishadi. Biroq hamma masalada ham me’yor bo‘lishi lozim. Kelin xizmatkori sifatida emas, qiz sifatida qaralganda bunday muammolar kelib chiqmagan bo‘lardi. Bu kabi voqealarni ko‘ramiz, eshitamiz ekan, avvalambor, qaynona va qaynotalarimizda diniy ilmlar yetishmasligini ko‘rib turibmiz. Ular to‘g‘ri yo‘lni bilmay turib, farzandlarining xatosini qanday qilib to‘g‘rilaydilar. Ularni to‘g‘ri yo‘lga solishda din ulamolari, mahalla oqsoqollari, yoshi ulug‘ keksalar, maxsus mutaxassislar hamkorligini yo‘lga qo‘yish lozim. Shunday o‘rinlar ham bo‘ladiki, bunda yosh oilalarni alohida yashatib ko‘rish ham oilani saqlab qolishi mumkin.

Har bitta ajralishlar ortidagi eng og‘ir yuk norasida go‘daklar yelkasiga tushmoqda. Oilaga, farzandlariga nisbatan mas’uliyatni his qilmagan erkaklar, hattoki farzandlariga aliment to‘lashdan ham voz kechmoqdalar. Axir bu bolalar ham baxtli oilaning erkatoj farzandi bo‘lishga haqli edi-ku. Eng beg‘ubor bolaligini ularga

kim qaytarib bera oladi? Otasining o‘rnini kim bosa oladi?! Masalaning bu tomonini ham yaxshilab o‘ylab ko‘rish lozim.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, har bir oilani saqlab qolishda, uning baxtiyor oila bo‘lishida barchamiz birdek mas’ulmiz. Bu mas’uliyatni unutmasligimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Tohir Malik. Kelinlar daftariga. 1-kitob. –Toshkent: Davr press, 2009.*
2. *Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. – Toshkent: Hilol-nashr, 2013.*



O‘tayev Akram Yo‘ldoshevich,
Chirchiq davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi,

Sobirova Sayyora Ravshanbek qizi,
TSMG-19/Iguruxi talabasi

XIVA – SHARQ MEMORCHILIGINING YUKSAK NAMUNASI

Dunyoning Qadimiy shaharlaridan biri bo‘lgan Xiva asrlar mobaynida insoniyatning ma’naviy va moddiy madaniyati taraqqiyotiga o‘zining salmoqli hissasini qo‘shib kelmoqda. Xalqaro sayyoqlik markazlardan biri sanalgan Xiva bejiz butun dunyoda ochiq osmon ostidagi muzey sifatida e’tirof etilmagan. Bu shahar hududida miloddan avvalgi VI-V asrlardan XX asr boshlarigacha bo‘lgan davrlarga taalluqli 122 dan ortiq arxeologik yodgorliklar va me’moriy obidalar saqlanib qolgan bo‘lib Davlat muhofazasiga olindi⁵⁶. Xiva shaharning qadimgi qismidagi juda ko‘p arxitektura yodgorliklariga boy bo‘lgan Ichan - Qal’a sharqning ekzotik shahar timsolini o‘zida saqlab qolgan afsonaviy shahardir. Xiva Xorazm viloyatidagi shahar. Xiva tumani markazi. O‘zbekistonning shimoli - g‘arbida, viloyatning janubida, Amudaryoning chap sohilida, daryodan 40 km janubda, 91 m balandlikda joylashgan. Shahar yonidan Polvonyop (qadimgi Xeykaniq) kanali o‘tgan. Maydoni 0,08 ming km². Aholisi 51,2 ming kishi (2004). Xiva - O‘zbekistonning qadimgi shaharlaridan biri. Arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra, shahar mil. av. V - asrda barpo etilgan. Uning nomi shaharning qadimgi qismida joylashgan Xivaq (Xeyvaq) qudug‘i bilan bog‘liq.

Ba’zi tadqiqotchilar shahar nomini xorazmiy tiliga yaqin bo‘lgan qadimgi osetin tilidagi ”Xiauv” – qal’a so‘zidan, boshqalari bu atamani antik davrdan Xiva hududidan oqib o‘tgan Xeykaniq (hozirgi Polvonyop) kanalining o‘zgartirilgan (Xeykaniq – Xeyvaniq – Xeyvaq – Xeva – Xiva) nomidan kelib chiqqan deydilar. Xorazmlik tarixchi solnomachi Xudoyberdi Qo‘samuhammad o‘zining 1831-yilda yozgan ”Dili G‘aroyib” asarida Xorazmning qadimgi shaharlarini nomma-nom sanar ekan, ”Bu mamlakatning yana bir qal’asi – Qal’ai Ramldir⁵⁷. Bu qal’aga Som ibn Nuh asos solgan bo‘lib, u hozirgi Xivaq nomi ila mashhurdir” deydi. Xalq rivoyatlarida ham shaharning bunyod etilishi Nuh zamonlariga borib taqaladi. Bunda Nuhning o‘g‘li Som bo‘lajak shahar yoniga kelib quduq qazdirgan va shu bilan Xivaga asos solgan. Haqiqatan ham Xivaning Ichon qal’asida qadimgi Xeyvaq (Xivak) qudug‘i saqlanib qolgan. Xiva to‘g‘risidagi dastlabki ishonchli ma’lumotlar X asrdan boshlab arab, fors tilidagi tarixiy - geografik manbalarda uchraydi. Istaxriy (930) Xivani o‘sha davrdagi eng yirik 30 ta shahar ro‘yxatiga kiritgan. U Xivani Hazoraspdan 8 farsax masofada Jurjoniya (Gurganj) yo‘lida joylashganligini qayd qiladi. Muqaddasiyning ma’lumotlariga ko‘ra esa Xiva bilan Hazorasp o‘rtasidagi masofa 8 dovon (10 farsax)dan iborat bo‘lgan. Xiva Yoqut Hamaviy (XIII – asr), Nizomiddin Shomiy (XIV – asr) asarlarda ham karvon yo‘lida joylashgan shahar sifatida eslatib o‘tiladi.

Xivaning qadimgi qismi – Ichon qal’ada 1200 m² bo‘lgan maydon qazib o‘rganildi. Arxeologik ashyolarning 7 m gacha chuqurlikdan topilganligi, shaharning paydo bo‘lish davri qadimiy ekanligidan dalolat beradi. Shahar tarixiy taraqqiyotining birinchi davrida Ichon qal’a o‘rnida odamlar yashay boshlagan. Arxeologik materiallarning guvohlik berishicha, bu davr mil.av.V asrga to‘g‘ri keladi. Kulolchilik charxida tayyorlangan sopol buyumlar majmuasi, shuningdek, paxsa devor qoldiqlari shu davrga mansubdir. Mil. av. V asr oxirida Xorazm Eronning siyosiy tazyiqidan halos bo‘lgach, Xivada shahar sistemasining asosiy

⁵⁶ Хива “Ичан- қалъа” давлат музей-қўрикхонаси, Хоразм Маъмун академияси. Дилмурод Бобоҷонов, Максудбек Абдурасулов. Хива қадим ўтмишда ва мустақиллик йилларида.

⁵⁷ М.Матниёзов. ”Хива Хонлигига яшаган халқлар ва уларнинг хонлик ижтомоий – сиёсий ҳаётида тутган ўрни ва роли” “Урганч”2004 – йил,10-бет

elementlari shakllana boshladi. Mil. av. IV-III asrlarda qal'a atrofi 2 qavatlari qalin devor bilan o'rabi olindi. Devor oldin paxsa, uning ustiga xom g'isht terilib, bunyod etilgan. G'ishtlarning aksariyatiga tamg'a bosilgan. Devor orasida (ichida) eni 2 metrli yo'lak bo'lgan. Devor bo'yab, har 22–27 m masofada minoralar tiklangan. Devordagi minoralar to'g'ri burchakli bo'lgan. Qal'a devorining butun tizimi asosiy devordan 4,4–8,5 m masofadagi qo'shimcha to'siq – devor bilan o'rabi chiqilgan. Devor ichi va yo'laklardan topilgan sopol buyumlar mil. av. IV-III asrlarga taalluqli. Bo'yin qismi ingichka, nozik qilib ishlangan xum va xumchalarning sirtiga och pushti rangda gul naqshi solingen. Yana bir nodir topilma – ko'zachaning sher kallasi shaklidagi dastasidir.

Qadimgi qal'a devori va yo'laklar Xiva o'sha davrda vohada yirik shaharlardan biri sifatida Xeykaniq (Polvonyop) kanali sohillari hamda sohilga yaqin hududlarni nazorat qilib turganligini tasdiqlovchi dalildir. Xiva dastlab agrarhunarmand shahar sifatida rivojlandi. Mil. av. II asrda Xivaning katta qismi qum ostida qolgach, aholi shaharni tark etdi. Ichan qal'a devorlari vayron bo'ldi. Mil. boshlarida shaharda hayot yana tiklana boshladi. Qal'a devorining g'arbiy qismida ark bunyod etildi. I-III asrlarda (Kushonlar davri) Xiva Ichan qal'a devorlari tashqarisidan qalin g'ishtin devor bilan mustahkamlandi, natijada shahar devori qalinligi 7,5–9 m ga yetdi. Arxeologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, mil. IV-V asrlarda shaharni yana qum bosgan. VI-VIII asrlarda Xiva qayta tiklana boshladi. Xiva hududida zamindorlarning dastlabki ko'shklari paydo bo'la boshladi. Ichan qal'ada shunday ko'shklardan 2 tasi topilgan. Shahar Xorazmshoxdar davri (XII-XIII asr boshi) ravnaq topib, hududi kengaydi. 1220 – 1221-yillarda Xiva Chingizzxon qo'shinlari tomonidan vayron etildi. Keyinroq qayta tiklana boshladi. Hunarmandchilik (kulolchilik, koshinkorlik va b.) rivojlandi. Keyingi davrda ayniqsa, XVI-XIX asrlarda shahar jadal taraqqiy eta bordi. Quyi Volga, O'rta va Yaqin Sharq shaharları bilan savdo aloqalari o'rnatildi.

Xiva XVI asrning 2-yarmidan Xorazmning poytaxtiga aylangach, har tomonlama rivojlandi. Me'moriy qiyofasi ham o'zgara bordi. Shahardan o'zaro ko'ndalang kesishgan 2 ta katta ko'cha va 4 darvoza (Otadarvoza, Polvondarvoza, Bog'chadarvoza, Toshdarvoza) orqali Dishan qal'a (rabod) ga chiqiladi. Ichan qal'a devorining uzunligi 2200 m, balandligi 6–8 m, tag zaminining qalinligi 5–6 m. Qal'a to'g'ri to'rtburchak shaklida qurilgan bo'lib, uzunligi 650 m, eni 400 m, jami 26 ga maydonga ega. Xivaning rabod qismi Dishan qal'a 1842-yilda Olloqulixon davrida (1825-1842) baland devor bilan o'rabi olingan. O'sha davrda Ichan qal'ada 33 mahalla (machit qavm) va Dishan qal'ada 34 mahalla bo'lgan. Mahallalar nomi shu yerda yashayotgan aholining kasbkori (Chitkarlik, Elakchilik, Kulollar, Misgarlik, G'assollar) yoki shaxs lavozimi (Otamurod qushbegi, Yoqub mehtar, Yusuf yasovulboshi) bilan atalgan. Shaharda 109 katta - kichik ko'cha, 79 masjid va 120 qorixona bo'lgan.

Xivada XIX asr o'rtalarida 20 ming kishi yashagan. Shahar, asosan, XIX asrning 2-yarmidan kengaya bordi. 1874-yilda shahar ma'muriy jihatdan Qumyosqa, Kaptarxona, Ko'hnabozor, Kaltaminor, Amin chorsu, Meveston, Qoraa'lam va Yangi qal'a mavzelariga bo'lingan. Xiva xonning "mulki holisasi" hisoblanib shaxsan uning o'zi tomonidan boshqarilgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xivada 64 Madrasa, 79 masjid bo'lgan. 1924-yilda shaharda olingen aholi ro'yxatida 4029 xonadonda 18145 kishi qayd qilingan. Xivaning ilk tarhi 1740-yilda chizilgan. Shahar tarhi uzunasiga 1 ming m, eniga 400 m bo'lib, 40 ga maydonni egallagan. Uning butun tevarak atrofi suvli xandak bilan o'rabi olingan. Shaharga sharq tomonidan maxsus ko'priq orqali kirish mumkin bo'lgan. Ko'priq kechalari ko'tarib qo'yilgan. Ko'priq yonidagi darvozadan boshlangan katta ko'cha to'ppa-to'g'ri Ark darvozasiga borib taqalgan. Ark shaharning g'arbiy qismida joylashgan. Shaharning asosiy ko'chasi uni 2 qism (shimoliy va janubiy) ga ajratgan. Arkda xon saroyi, haramxona, aslahaxona bo'lib, ular mahsus qal'a devori bilan o'rالgan. Lekin, o'sha davrdagi ba'zi inshootlar chizmaga kirmay qolgan. Shaharning yana bir tarixi Rossiyadan maxfiy topshiriq bilan kelgan topograf G.N.Zelenin tomonidan 1839-yilda chizilgan. Zeleninining ma'lumotlariga ko'ra, shaharda o'sha davrda 17 ta masjid, 22 ta mahalla va 260 savdo rastasi bo'lgan. Shaharning juda aniq va mukammal bo'lgan so'nggi tarhi 1873-yilgi rus istilosidan so'ng rus topograflari tomonidan tuzilgan va o'sha yiliyoq "1873-yilgi Xiva yurishlari" maqolasiga ilova tarzida bosilgan. Me'moriy ansamblining yaxlitligi jihatidan shahar O'rta Osiyoda yagona hisoblanadi. 1967-yilda O'rta Osiyoda ilk bor Xivaning Ichan qal'a (shahriston) qismi tarixiy - me'moriy yodgorliklar qo'riqxonasi deb e'lon qilindi. Shunday qilib arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan ashyoviy dalillar Ichonqal'a hududida mil.avv VI – V asrlarda kichkina manzil mavjud bo'lgan, keyinchalik, mil.avv. IV – III asrlarda esa Ichonqal'a vujudga kelgan va shahar mudofaa devori bilan o'rabi olingan.

Umirzakova Nargiza Akmalovna,

Toshkent Davlat stomatologiya instituti katta o'qituvchisi

TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI VA OILADAGI MUNOSABATLAR DEFORMATSIYASI

Annotatsiya. O'zbekistonda mehnat migratsiyasi ko'pchilik uchun oilani boqishning yagona usuliga aylandi. Maqolada tashqi mehnat migratsiyasining oiladagi munosabatlardan deformatsiyasiga olib kelayotgani, tashqi mehnat migratsiyasi nafaqat oila muammolari sonini oshirayotgani, balki jamiyat ijtimoiy hayotini murakkablashtirayotgani haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: migratsiya, oila, tashqi mehnat migratsiyasi, demografiya, nikoh, sms-ajralishlar.

Аннотация. В Узбекистане трудовая миграция стала для многих единственным способом материально поддержать семью. В статье утверждается, что внешняя трудовая миграция приводит к деформации семейных отношений, что внешняя трудовая миграция не только увеличивает количество семейных проблем, но и усложняет социальную жизнь общества.

Ключевые слова: миграция, семья, внешняя трудовая миграция, демография, брак, sms-развод.

Annotation. In Uzbekistan, labor migration has become the only way for many to support their families financially. The article argues that external labor migration leads to deformation of family relations, that external labor migration not only increases the number of family problems, but also complicates the social life of society.

Key words: migration, family, external labor migration, demography, marriage, sms-divorce.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, O'zbekistonda mehnat migratsiyasi ko'pchilik uchun oilani boqishning yagona usuliga aylandi. Yangi sharoitda oila u yerda pul mablag'larining katta qismi ishchi kuchini eksport qilish hisobiga jalb etiladigan mutlaqo boshqacha iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchiga aylandi.

Mehnat migrantlari vaqtining katta qismini boshqa madaniyat qurshovida o'tkazadi. O'zbekistonning har yili qariyb ikki million nafar fuqarosi (Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlariga qaraganda, 2018-yilda 2 384,8 ming kishi xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chiqib ketgan) borib turadigan xorijiy mamlakatlarda (ayniqsa, Rossiya) ijtimoiy jarayonlar ularning vatanidagidan boshqacha tarzda kechadi. Rossiya jamiyati asosan an'anaviy institutlarning barbod bo'lishi jarayonlarini boshdan kechirmoqda. Rossiyaliklarning katta qismi yolg'izlik yo'llini afzal ko'rgan holda oila qurishga shoshilmaydi.

Demograf olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, kam ta'minlangan oilalar yuqori daromadli oilalarga nisbatan ko'proq farzand ko'radilar. Shuning uchun aytish mumkinki, migrantlar ko'p bolali bo'lib, ko'p bolalilik mezoniga ko'ra, farzandlarini moddiy ta'minlash uchun tashqi mehnat migratsiyasiga ketishga majbur bo'ladi.

Tashqi mehnat migrantlarining asosiy qismini past malakali ishchilar tashkil etadi. Demografiyaga oid adabiyotlarda past malakali va malakasiz ishchilar yuqori malakali ishchilarga nisbatan katta oilalarga yo'naltirilganligi isbotlangan. Bundan kelib chiqadiki, tashqi mehnat migrantlarining asosiy qismini ko'p bolali oila boshliqlari yoki oilaning voyaga yetgan farzandlari tashkil etadi.

Umuman, hozirgi demografik vaziyatda migratsiya jarayonlarining intensivligi oila qurish jarayonining katta moddiy xaratjatlar bilan davom etishiga bog'liq, bu aholini tirikchilik uchun xorijga borishga majbur qiluvchi omil hisoblanadi. Kelajakda aholi migratsiyasi nikoh va oilaviy munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatib, aholi, ayniqsa yoshlarning ajralish darajasini oshiradi.

Tashqi mehnat migratsiyasining salbiy jihatlari mavjud bo'lib, uni biz ikki toifaga ajratdik:

1. O'z mamlakatidagi migrantlarning oilalariga salbiy ta'siri:

– bola tug'ilishidan boshlab "farzand tarbiyasidek" muhim jarayonda otaning yo'qligi;

– ayollarning norasmiy ish bilan majburan shug'ullanishi, bunda bolalarni tarbiyalashga kam e'tibor beriladi;

– tashqi sharoitlar tufayli oilaga tahdid;

– nikohdagi jinsiy munosabatlardan qoniqmaslik, bu keyinchalik oilaning buzilishiga sabab bo'ladi.

2. Migrant mehnat qilayotgan mamlakatda tashqi migratsiyaning salbiy jihatlari:

- turli xil shikastlanishlar (shu jumladan, nogironlik), o‘lim;
- turli yuqumli kasalliklarga uchrash;
- fe’l-atvor, shuningdek, oiladagi ma’naviy qadriyatlarning o‘zgarishi;
- yosh avlod orasida alkogolizmning ommaviy tarqalishi va hokazo.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadi, ko‘p oilalar uchun mehnat migratsiyasi ularning moliyaviy ahvolini yaxshilash uchun yagona imkoniyatdir. Mehnat migratsiyasi natijasida muhojir oilalarning moliyaviy ahvoli sezilarli darajada yaxshilanadi. Oilalarning tashqi mehnat migratsiyasidan kelib tushgan mablag‘dan oziq-ovqat sotib olishga, o‘z oilasi yoki farzandlar oilasini yaratish, uy-joy qurish, maishiy texnikani sotib olish (avtomobillar, televizorlar, videokameralar, muzlatkichlar, parabolik antennalar va boshqalar), kichik biznes va bolalarni o‘qitish uchun foydalaniadi.

Tashqi mehnat migratsiyasi oilalar turmush darajasini yaxshilaydi, oilalar hayoti, yangi qadriyatlar haqida ma’lumotlarni kiritadi, dunyoqarashini kengaytiradi. Bu omillar shu bilan bog‘liqliki, muhojir pul mablag‘idan tashqari uygaga yangi turmush tarzini olib keladi, ularni oilaviy hayotga tatbiq etgan holda turmush sifatini yaxshilaydi, shuningdek, oila a’zolarining ma’naviy jihatdan boyib borishi va ularning sifat jihatdan rivojlanishiga hissa qo’shamdi.

Bu jihatlar dastlabki nikoh qurish yoshini o‘zgartiradi, oilani rejalashtirish imkoniyatini kengaytiradi. Shu bilan birga, qabul qiluvchi mamlakatlarda mehnat muhojirlarining og‘ir mehnat va yashash sharoitlari ularning sog‘lig‘ini yomonlashtiradi. Og‘ir jismoniy mehnat, yomon turmush sharoiti kasallik, shikastlanish va nogironlikning sababi hisoblanadi. Migrant ishchilar mahalliy aholi ishlashni xohlamaydigan ishlarga jalb etiladi, chunki taklif qilingan ish haqi mahalliy aholi uchun juda kam hisoblanadi.

Mehnat muhojirlarining respublikadan tashqaridagi faoliyati va ularning noto‘g‘ri turmush tarzi jamiyat uchun kuchli xavf tug‘diradi, chunki bunday hayotning oqibatlari ko‘plab ijtimoiy xavfli kasalliklarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasida aholi kasallanishining tahlili ijtimoiy xavfli kasalliklarning ko‘payishini ko‘rsatadi: sil kasalligi, jinsiy yo‘l bilan yuquvchi infeksiyalar, shu jumladan, VICH infeksiyasi darajaning keskin ko‘tarilishidan jiddiy tashvishni keltirib chiqaradi. Afsuski, respublikada kasallangan mehnat muhojirlari hisobi yuritilmaydi, ammo amaliyot shuni ko‘rsatadi, kasalliklarning sezilarli qismi o‘z oilalariga qaytgan mehnat muhojirlarining sog‘lig‘i bilan bog‘liq.

Mavsumiy ishchilarining aksariyati o‘z oilalarini xorijga olib ketishni xohlamaydilar, chunki u yerdag‘i maosh oilanening ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli emas, ammo o‘z vatanida bu mablag‘ oilani boqish uchun yetarli hisoblanadi.

Bugungi kunda mehnat migrantlarining nikohni bekor qilishi alohida muammoga aylanib bormoqda. Erkaklar ishlab yurgan joyida o‘ziga boshqa umr yo‘ldoshi topishi holatlari uchramoqda. Ularning turmush o‘rtoqlari uchun esa erkakning uzoq vaqt uyda bo‘lmasligi haqiqiy sinov vazifasini o‘tamoqda. Ushbu jarayon ham respublikada oila institutining demografik taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda ishchi kuchini eksport qiluvchi mamlakatlarda sms-ajralishlar ham ursiga aylanmoqda. Ajralishning bunday turida erkaklar chet elda ishlab yurib, turmush o‘rtoqlariga “taloq” so‘zini sms-xabar orqali yozib yuboradi. Buning natijasida ayol sud qarorisiz, odatda, himoyasiz qolib, ota-onasining uyiga qaytishga majbur bo‘ladi. Bu borada erkaklarni mas’uliyatli bo‘lishga chaqirib, ularga ajralishning bunday shakli noqonuniy ekanligini tushuntirish, bunday holat bilan kurashish oila masalalari bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar oldida turgan dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

Aholining mehnatga layoqatli qismi, ayniqsa, yosh erkaklarda mehnat migratsiyasining yuqori darajasi, ularning boshqa mamlakatlarda uzoq muddat mehnat qilishi ular tomonidan shu hududda yangi oila qurilishiga sabab bo‘lmoqda. Mazkur holat oilalar o‘rtasidagi nizolar, oilalarning buzilishi, farzandlar yetimligi va qarovsizligining keng tarqalgan sababi bo‘lib qolmoqda. Shuningdek, migratsiya er-xotin o‘rtasida masofaviy munosabatlarni yuzaga keltirib, tugalmas oilalar, beva ayollar sonini oshiradi.

Tashqi mehnat migratsiyasi ta’sirida oilalarning parchalanishi nafaqat muhojirlarning turmush o‘rtog‘i va farzandlari hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, balki bu ayollarda tug‘ish miqdorini pasaytirish omili sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, migrantlar uzoq vaqt istiqomat qiluvchi mamlakatda turmush quradilar va farzand ko‘radilar, bu aholining tug‘ilish darajasini oshirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, tashqi mehnat migratsiyasi nafaqat oila muammolarini sonini oshiradi, balki jamiyatning ijtimoiy hayotini ham murakkablashtiradi. Shuning uchun davlatning ijtimoiy siyosatini qayta ko‘rib chiqish va mehnat migratsiyasi muammolarini hal qilishning samarali mexanizmini ishlab chiqish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон демографик ишллик тўплами. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси, 2017.
2. Ама-Мирзаев О. Б. Народонаселение Узбекистана: история и современность. – Ташкент, 2009. – 73.

Sobirova Sayyora Ravshanbek qizi,
*TVCHDPI Tasviriy san’at va muhandislik
grafikasi yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

**CHIZMACHILIK MASHG‘ULOTLARIDA O‘QUVCHILARGA
MUSTAQIL GRAFIK TOPSHIRIQLAR TO‘PLAMI MAZMUNINI SHAKLLANTIRISH
VA TAYYORLASHNI O‘RGATISH**

Annotatsiya. Maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilari uchun qurilish chizmalarini bajarish bo‘yicha metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘quvchi, mashg‘ulot, chizma.

Аннотация. В статье даны методические рекомендации по составлению строительных чертежей для учащихся общеобразовательных школ.

Ключевые слова: ученик, упражнение, чертёж.

Annotation. The article provides guidelines for the preparation of construction drawings for secondary school students.

Key words: student, exercise, drawing.

Qurilish chizmachiligidan tayyorlangan ushbu topshiriqlar kurs nazariy ma’lumotlarining asosiy qismi bo‘yicha amaliy grafik ishlarni o‘z ichiga oladi va umumo‘rta ta’lim maktablari chizmachiligi fan dasturiga to‘la mos keladi. Qo‘llanma materiallari konstrukturlik hujjatlarining yagona tizimi standartlari va qurilish uchun loyiha hujjatlari tizimi talablariga mos holda tayyorlandi.

Qurilish chizmachiligidan topshiriqlar o‘quvchilarning auditoriyadan tashqari mustaqil ishlari, shuningdek, o‘qituvchi rahbarligi hamda nazoratida auditoriyadagi individual grafik ishlariga mo‘ljallab tuzildi. Fanni o‘rganishga ajratilgan vaqt byudjetini hisobga olgan holda mutaxassislik kafedrasi qaroriga asosan topshiriqlarning ma’lum qismlari individual grafik topshiriqlar sifatida mustaqil ta’limga, qolganlaridan auditoriyada bajarishda foydalanish mumkin.

Topshiriq bajarishni osonlashtirish maqsadida har bir bo‘lim bo‘yicha qisqacha metodik ko‘rsatmalar berildi va shu topshiriqlarni bajarish namunalari misollar keltirildi. Qurilish chizmalarini o‘qish tekislikda bajarilgan chizma bo‘yicha qurilayotgan obyekt yoki uning qismlarining hajmli shakllarini tasavvur qilishni ko‘zda tutadi. Buning uchun bunday chizmalarni bajarish qoidalarini bilish kerak bo‘ladi.

Chizma o‘qish jarayonida quyidagi tartiblarga amal qilish zarur bo‘ladi:

➤ chizma bilan umumiy tanishish, ya’ni undagi tasvir va yozuvlarning soni va joylashishi haqida tasavvurga ega bo‘lish;

➤ tasvirlar qanday masshtablarda chizilganligini aniqlash, gabarit o‘lchamlar va bino alohida qismlarining o‘lchamlarini aniqlash;

➤ binoning ichki rejalashtirilishini o‘rganib chiqish;

➤ shartli belgi va yozuvlarni o‘qish, ya’ni bino turli qismlarining shartli va soddalashtirilgan belgilashlarini o‘rganib chiqish.

Mashqlarni bajarishga kirishishdan avval qurilish chizmalarida qo‘llaniladigan ayrim atamalar bilan tanishib chiqing. Shu maqsadda turar-joy va sanoat binolarining yaqqol tasvirini diqqat bilan o‘rganib chiqish tavsiya qilinadi.


Grafik ishlar A3 (297x420 mm), A4 (210x297 mm)lik chizma listlarida yoki ish daftarida bajariladi.

Bino qismlarining nomlanishi bilan tanishib chiqqandan keyin fan o'qituvchisi ko'rsatmasi bo'yicha topshiriq yoki mashqlarni bajarishga kirishing.

Bino fasadi chizmalarini bajarish. Binoning olddan, yon tomondan yoki orqadan ko'rinishi (proyeksiyasi) *fasad* deb nomlanadi. Binoning ko'cha tomondan ko'rinishi asosiy fasad, chap yoki o'ngdan ko'rinishlari – ko'ndalang fasadlar, orqadan, hovli tarafdan ko'rinishi esa hovli fasadi deyiladi. Bino loyihalarida fasadlarni nomlashda odatda muvofiqlashtiruvchi o'qlarning tamg'alarini beriladi. Bunda oldin chekka chap o'q ko'rsatilib, keyin chekka o'ng o'q ko'rsatiladi, masalan, "Fasad 1 – 4" yoki "Fasad D – A" (12-shakl, *k*). Agar binoning asosiy va hovli fasadlari bir xil bo'lsa faqat bitta fasad chiziladi va uning nomlanishida ikkala fasadning ham chekka o'qlari ko'rsatiladi, masalan, "Fasad 1 – 8 va 8 – 1" (1-shakl, *m*) yoki "Fasad B – A va A – B". Bunda chizmaning o'zida jipslashtirilgan o'qlar 12-shakl, *a* va *c* lardagi kabi ko'rsatiladi.

Bino fasadi bo'yicha uning tashqi ko'rinishi, tuzilish va arxitektura elementlarining shakli: derazalar, eshiklar, ayvonlar, peshayvonlar, chaspaklar, plastr (bir tomoni devorga kirgan qirra ustun)lar, ustunlar, tashqi o't o'chirish va evakuatsiya qilish zinalari, suv oqib tushadigan tarnovlar kabilar haqida xulosa qilish mumkin.

Fasad chizmalari loyihalash bosqichlari, ishlatilish sohalari va bino o'lchamlarini hisobga olgan holda 1:50 dan 1:400 gacha bo'lgan masshtablarda bajariladi. Fasadning murakkab bo'lgan qismlari 1:50 yoki 1:100 masshtablarda fragment shaklida alohida tasvirlanadi.



1-shakl. Ishlab chiqarish binosi fasadini chizish bosqichlari

Chizmada elementlarni bat afsil tasvirlash uning masshtabiga bog'liq bo'ladi. Masalan, deraza, eshik va darvoza tavaqalarining qismlarga ajratilishi 1:100 va undan yirik masshtablarda bajarilgan chizmalarda ko'rsatiladi. Mayda masshtablarda bajarilgan chizmalarda tavaqa yoki ular o'rinalining konturlari tasvirlanadi.

Chizmalarda fasadning ko'rinalidigan konturlari ustidan qalinligi S/3 bo'lgan ingichka tutash chiziq bilan yurgizib chiqiladi.

Yer konturi chizig'inining qalinligi 1...1,5 mm bo'lib, fasad chegarasidan 20...30 mm ga chiqib turishi kerak.

Loyiha topshirig'i bosqichida bajariladigan fasad chizmalari planshetga tortilgandan keyin quruq tush yoki akvarel bo'yog'i bilan yuvib bo'yaladi. Hajmiy kompozitsiya yechimini ochib berish maqsadida fasadlarda xususiy va tushayotgan soyalar ko'rsatiladi.

Tasvir ifodaliliginini ta'minlash maqsadida binodan tashqari landscape (manzara) yoki qurilgan shahar binolari ham ko'rsatiladi. Bunday chizmalar badiiy grafika elementlari bilan tasvirlangan fasadlar deyiladi.

Binoning sxemalashtirilgan qirqimini bajarish ketma-ketligi.

Ikkinch bosqichda tashqi va ichki devorlar, qirqimga tushadigan pardevorlar, plandan olingan bog‘lash o‘lchamlarining konturlari muvofiqlashtiruvchi o‘qlarga bog‘langan holda ingichka chiziqlarda o‘tkaziladi, qavatlararo va chordoq orayopmalarining qalinligi, ikki yoqqa nishab tominga tepe qirrasining balandliklari ko‘rsatiladi. Peshtoq va poypeshning devordan chiqish o‘lchamlari belgilanib, chiziladi, tom nishabining chizmasi quriladi.

Uchinchi bosqichda tashqi va ichki devorlar, pardevorlarda joylashgan va kesimga tushadigan deraza va eshik o‘rinlari belgilab olinadi. Kesuvchi tekislik orqasidagi binoning barcha elementlari tasvirlanadi. Teshiklarning konturlari belgilanib, chiqarish va o‘lcham chiziqlari o‘tkaziladi, sath belgilarini qo‘yish uchun shartli belgilarni qo‘yib chiqiladi.

To‘rtinchi bosqichda qirqim konturlarining ustidan qalinligi 0,6...0,8 mm likdagi chiziqlar bilan yurgizib chiqiladi. Sath o‘lchamlari, o‘qlarning o‘lchamlari va tamg‘alari qo‘yib chiqiladi, chizmaga zarur bo‘lgan tushuntirishlar yoziladi, qirqimning nomi ko‘rsatilib, keraksiz yasash chiziqlari o‘chirib tashlanadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Kadrlar tayyorlash milliy dasturi*. – Toshkent: “SHarq,” 1997.
2. *E.I.Ro‘ziev Geometrik va proekzion chizmachilik*. – Toshkent: “Yangi asr avlod” 2010.
3. *E.I.Ro‘ziev Muhandislik grafikasini o‘qitish metodikasi*. – Toshkent: “Yangi asr avlod” 2010.
4. *A.Ashirboev “Chizmachilik” kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma*. – Toshkent: “O‘qituvchi” 2008.
5. *E.N.Semchenko “Chtenie chertejey” kasb-hunar kollejlari uchun metodik qo‘llanma*. – Toshkent: “G‘ofur G‘ulom” 2007.
6. *K.X.Madumarov, Norqulov A.A., “Texnik chizmachilik” kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma*.



Kabirova Muazzam Shuxratbek qizi,
O‘zbekiston Milliy universiteti
Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrasи
1-bosqich tayanch doktoranti

O‘ZBEKISTONDA OILA INSTITUTINING RIVOJLANISHIDA NIKOH-AJRALISH JARAYONLARI VA ULARNING HUDUDIY JIHATLARI

Annotatsiya. *Jahon hamjamiyatini qattiq tashvishga solayotgan oila instituti mavqeyining keskin tushib borayotgani bugungi kunning dolzarb muammosi hisoblanadi. Jamiyatda oilaviy ajrimlarning ortib borishi, noto‘liq oilalarning ko‘payib borayotgani nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyo jamiyatini iztirobga solmoqda. Albatta, bu muammo O‘zbekistonda ham kundan kunga dolzarblikka ega bo‘lib bormoqda. Ta‘kidlash joizki, O‘zbekistonda ajralishlar soni yildan yilga oshib bormoqda. Oila transformatsiyasi jarayonidagi tarixiy tendensiyalarini kuzatar ekanmiz, jamiyatning liberallashuvi va sanoatlashuvining dastlabki bosqichlarida nikohdan ajrashish ehtimoli va soni ortib boraverishi kuzatiladi.*

Kalit so‘zlar: ajralish, nikoh, nikoh yoshi, nikoh shartnomasi, geodemografiya.

Аннотация. Резкое снижение статуса института семьи, вызывающее большую озабоченность мирового сообщества, сегодня является актуальной проблемой. Растущее количество семейных разводов и количество незаконнорожденных детей в обществе является источником беспокойства не только для Узбекистана, но и для всего мира. Конечно, в Узбекистане эта проблема становится все более актуальной. Следует отметить, что количество разводов в Узбекистане с каждым годом растет. Если мы проследим исторические тенденции в процессе трансформации семьи, мы увидим, что на ранних этапах либерализации и индустриализации общества вероятность и количество разводов возрастают.

Ключевые слова: развод, брак, брачный возраст, брачный договор, геодемография.

Annotation. The sharp decline in the status of the family institution, which is of great concern to the world community, is a topical issue today. The growing number of family divorces and the number of illegitimate children in society is a source of concern not only for Uzbekistan, but also for the whole world. Of course, this problem is becoming increasingly important in Uzbekistan. It should be noted that the number of divorces in Uzbekistan is growing every year. If we observe the historical trends in the process of family transformation, we can see that in the early stages of liberalization and industrialization of society, the probability and number of divorces is increasing.

Key words: divorce, marriage, age of marriage, marriage contract, geodemography.

Dunyoda juda ko‘p rivojlangan mamlakatlarni qamrab olayotgan inqiroz tufayli oilaga bo‘lgan e’tibor tobora kuchayib bormoqda. Bu borada oila institutlarini tashkil etish, har bir demografik jarayonlarni o‘rganish ularni tahlil qilish, oila-nikoh munosabatlarini mustahkamlash, oilaviy qadriyatlarni asrab qolish, hozirgi kun oilasining ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarini yanada rivojlantirish, demografik jarayonlarni boshqarish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Hozirgi vaqtga kelib dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida olimlar va mutaxassislar tomonidan oilaning rivojlanishi, uning tarkibi, u bilan bog‘liq demografik jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilmoqda. Xorijlik mualliflardan A.Sovi, J.Sutter va G.Bekker kabi olimlar nikoh hamda ijtimoiy-iqtisodiy va demografik jarayonlarning o‘zaro aloqadorlik masalalarini o‘rgangan. Oila-nikoh munosabatlarini Rossiyalik olimlardan A.G.Vishnevskiy, L.V.Darskiy hamda V.A.Borisov va A.G.Volkov tomonidan ajralish masalalari alohida o‘rganib chiqilgan.

O‘zbekistonda esa oila masalalarining o‘rganilishini ilk kurtaklari sifatida Avesto asarini olishimiz mumkin. Ilk tarixiy tadqiqot ildizi sifatida A.Fitratning “Oila yoki oilani boshqarish tartiblari” nomli asarini ta’kidlash joizdir. Asar oilaning paydo bo‘lishi, uning jamiyat hayotidagi o‘rni va uning o‘ziga hos boshqarish tomonlari va unga amal qiluvchi tartib qoidalarga bag‘ishlangan. Respublikada 20-asrning ikkinchi yarmidan boshlab mazkur muammolar bilan shug‘ullangan olimlaridan M.Q. Qoraxonov, M.R.Bo‘riyeva, I.R.Mullajonov, R.A.Ubaydullayeva, O.B.Ota-Mirzayev, Z.N.Tojiyeva, X.X. Mamadaliev, D. Egamova va A.A.Qayumov va boshqalarning keltirib o‘tish joiz.

Sharqda, musulmon mamlakatlarida azaldan oila muqaddas dargoh sanalgan. Agar oila sog‘lom va mustahkam bo‘lsa, yurtda tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Zero, oila farovonligi milliy farovonlik asosidir. Oila shunday kuchga egaki, u davlat siyosatiga juda katta ta’sirini ko‘rsatadi. Oilaning holati jamiyatning o‘z-o‘zini takror barpo etishi, ya’ni aholini takror barpo bo‘lishi asosida davlatni inson resurslari bilan ta’minlay olish, avlodlar almashuvining intensevligini optimal darajada ushlab turish va sifatini ta’minalash, xalqning asrlar davomida yuzaga kelgan davlatchilik asoslarini shakllantirishning muhim sharti hisoblangan, an’analari va urf-odatlarini saqlab qolishga bo‘lgan qobiliyati bilan ham bog‘liqidir. Shundan kelib chiqiladigan bo‘lsa, mamlakatda amalga oshirilayotgan oilaga doir siyosatni shakllantirish va rivojlantirishda oila institutini mustahkamlash va oila-nikoh munosabatlarini takomillashtirish kabi masalalarga alohida e’tibor qaratish lozimdir.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgandan so‘ng oila-nikoh munosabatlariga, ya’ni kuchli ijtimoiy siyosat iqtisodiyotini isloh qilishni o‘z oldiga ustuvor yo‘nalish qilib oldi. Oila munosabatlarini buyuk qadriyat darajasiga ko‘tarib, oilada istiqomat qiluvchi har bir insонning kelib chiqishi uning umr yo‘lidagi har bir yo‘nalishiga alohida e’tibor qarata boshladi. Inson va oila manfaatlarini himoya qilish, xalqning turmush darajasini oshirish, aholi bandligini ta’minalash, kishilarga o‘z mehnati bilan munosib turmush sharoitlarini ta’minalashlari uchun sharoitlar yaratish, kam ta’milangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash, ishsiz ayollarni ish bilan ta’minalash jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni saqlash uning asosiy mazmunini tashkil etadi.

O‘zbekistonda oilani rivojlantirishga global darajada Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror taraqqiyot maqsadlari doirasida, shuningdek, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida qaraladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5325-son [1]. Ajralishlar sonining o‘sib borishi, bir tomonidan, ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirishni talab etsa, ikkinchi tomonidan, aholining mazkur toifasining ijtimoiy faol qatlami tajribasidan samarali foydalanish texnologiyalarini hayotga tatbiq etish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

O‘lkamizning o‘ziga xosligi nafaqat iqtisodiy geografik joylashgan o‘rnimiz bilan, balki aholimizning o‘ziga xosligi bilan ham ajralib turadi. O‘zbekiston deb atalmish go‘sada biz hali tushuna olmagan qonun-qoidalar talaygina. Oila muqaddas, uni asrash, ardoqlash kerak deb bizga oilada singdiriladi. Oila juftlik qonuni asosida yuzaga keladi, bir erkakning, yoxud bir ayolning o‘zi oila bo‘lmaydi. Nikoh aholining takror barpo bo‘lishida juda katta ta’sir etuvchi omil hisoblanadi. “Nikoh davomiyligi, nikoh yoshi, nikohning bekor etilishi qaysidir omillar ta’siri tufayli tug‘ilishning ko‘payishiga yoki qisqarishiga olib keluvchi ijtimoiy-demografik sabablardan hisoblanadi” [2]. O‘tmishda O‘rta Osiyo xalqlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bu nikoh jarayonlariga erta yosh davrida kirishishlaridir. Ayniqsa, qiz bolalar 15-17 yoshlarida nikoh qurishgan. Qiz bolalarning erta nikohga kirishlari tabiiyki, farzand ko‘rish muddatini ma’lum darajada uzaytirgan. Bu hol o‘lkanning demografik holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Ishchi kuchining ko‘pligi, yosh oilalarning ko‘payishi kuzatilgan. Qizlarning erta nikohga kirishishining ham ijobiy, ham salbiy tomonlari bo‘lgan. Ijobiy tomonlari qizlarning demografik jarayonlarda faol ishtiroki bo‘lsa, salbiy tomonlari esa yosh onalarning o‘lim holatlari, nogiron farzandlarning tug‘ilishi, qizlarning onalikka tayyor emasligi shular jumlasidandir. Hozirgi davrga kelib, globallashuv jarayonida, texnika-texnologiya bilan birlgilikda yoshlarimizning ham oilani rejalashtirish, nikoh yoshining tobora ko‘tarilib borayotganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Ayollarning nikohga kirish yoshi bu oila institutining poydevori bo‘lib xizmat qiladi. Oilada ajralish bo‘lsa, bizda har doim, birinchi navbatda, ayol kishi aybdor sanaladi. Dunyo tajribalariga asoslanib shunday deyishimiz mumkinki, oilada ajralish yuzaga kelganda eng ko‘p qiynaluvchi ayol va uning bolasi hisoblanadi.

Geodemografik omil nuqtagi nazaridan tahvil qilsak, oila institutini mustahkamlashda eng ustuvor vazifalardan biri bu ayollarning nikohga kirish yoshini nazorat qilishdir.

I-jadval

O‘zbekiston Respublikasida birinchi marta nikohlanuvchi ayollarning o‘rtacha yoshi (yilda, yosh)

Viloyatlar						
	Jami	Shahar	Qishloq		2015	2020
O‘zbekiston Respublikasi	22,5	22,8	22,5	22,9	22,4	22,7
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	24,0	24,4	24,4	25,0	23,6	23,9
Andijon	22,1	22,5	22,2	22,5	22,1	22,5
Buxoro	22,5	22,8	22,8	23,3	22,3	22,6
Jizzax	22,7	23,4	22,7	23,4	22,7	23,3
Qashqadaryo	22,5	22,8	22,7	23,1	22,4	22,6
Navoiy	22,9	23,2	22,9	23,4	22,8	23,1
Namangan	21,7	22,0	21,3	21,7	22,0	22,5
Samarqand	22,0	22,3	21,9	22,4	22,0	22,2
Surxondaryo	23,2	23,3	23,4	23,6	23,0	23,2
Sirdaryo	23,1	23,5	23,2	23,7	23,1	23,4
Toshkent	22,6	23,2	22,8	23,6	22,5	23,0
Farg‘ona	21,6	22,0	21,6	22,1	21,6	21,9
Xorazm	22,8	23,1	23,1	23,6	22,6	22,8

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

O‘zbekistonda nikoh ko‘rsatkichlari har ming kishiga nisbatan 2015-yilda 8,6 promille, 2020 yilda esa 9,4 promilleni tashkil etgan. Aholining demografik jarayonlardagi o‘rniga uning yashash sharoiti o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Nikoh yoshining shahar va qishloq hududlarida turli xil bo‘lishi bizga ma’lum. Shahar joylarida ayollarning nikoh qurish yoshi qishloq joylariga nisbatan turli xil. Masalan, janubiy demografik jarayonlarda faol bo‘lgan Qashqadaryo viloyatida shahar joylarida istiqomat qiluvchi ayollarga nisbatan qishloq joylarida nikoh qurish yoshi nisbatan kichik. 2015-yilda shahar joylarida ayollarning nikoh yoshi 22,7 yoshni tashkil etgan bo‘lsa, qishloq joylarida esa 22,4 yoshni tashkil etgan. Vodiylarimizda esa ayollarning nikohga kirish yoshi nisbatan yosh. Masalan, Andijon va Namangan viloyatida o‘rtacha nikohga

kirish yoshi 22 yoshni tashkil etmoqda. Shuni aytib o‘tish joizki, bu hududlarimiz ajralish jarayonida ham faol bo‘lgan hududlardandir. Ammo, tanganing ikki tomoni bo‘lgani kabi juda kech turmush qurishning salbiy oqibatlari talaygina. Dunyo olimlarining fikricha, hozirda texnika-texnologiya zamonida ekologiyaning buzilishi natijasida 30 yoshdan so‘ng farzand ko‘rayotgan ayollarning nogiron farzandni dunyoga keltirish ehtimoli yuqoridir.

Davlat boshqaruvini takomillashtirishda ayollarning qarashlarini, oiladagi muammolarni o‘rganib, fikrlarini, albatta, inobatga olinishi va yuqoridagidek sotsiologik-demografik tadqiqotlar qamrovini kengaytirish o‘ta zarur. Binobarin, bular barchasi demografik jarayonlar boshqarish mexanizmining qanday yo‘lga qo‘yilganligi, ayollarning va erkaklarning oila haqidagi fikr, qarashlari, ajrimlar tizimidagi o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Shunday ekan, milliy va ma’naviy qadriyatlarimizdan kelib chiqqan holda oila institutini rivojlantirish, globallashuv jarayonida axborotlashgan oilani jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sifatida muhofaza qilish, faqat sog‘lom oilagina sog‘lom jamiyat ustuni bo‘lishi to‘g‘risidagi tushunchani aholi ongiga singdirish, umuman, bu sohada yillar davomida e’tibordan chetda qolib kelgan bo‘shliq va muammolar yechimi yuzasidan dolzarb vazifalarni bajarishga qaratilgan samarali davlat siyosatini olib borish ustuvor yo‘nalishlar bo‘lib qolaveradi.

Foydalanimgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Ўзбекистон Республикасида оила институтини мустаҳкамлаши концепциясини тасдиқлаши түг‘рисида” ПҚ-3808-сон 27.06. 2018.
2. Тожиева З. Н. Ўзбекистон анонси: ўсиии ва жойланиши (1989-2009 йй.). Илмий монография. – Т.: “Фан ва технология”, 2010. – 18,0 босма табоқ.
3. <http://rusk.ru/newsdata>.
4. www.lex.uz.

Mirzayeva F.O.,
Nizomiy nomidagi TDPU Ijtimoiy
pedagogika kafedrasи dotsenti

OILAVIY MUNOSABATLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada, bolalar va ota-onalar munosabati, ota-onalik munosabati va ota-onalik ustanovkalari, oilada o‘zaro munosabatlar omillari, dinamikasi, ota-ona va bolalar o‘rtasidagi munosabatning ijobjiy tus olishi uchun ota-ona farzandlari bilan munosabatga kirishishda pedagogik odobga rioya qilish yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Ota-ona, farzand, munosabat, odob, axloq, samimiyat, mehr, muhabbat, odat.

Аннотация. В этой статье освещаются отношения между детьми и родителями, отношение и установки родителей, факторы в семейных отношениях, динамика, педагогический этикет в обращении с детьми, чтобы обеспечить позитивные отношения между родителями и детьми.

Ключевые слова: родитель, ребенок, отношение, воспитание, нравственность, искренность, доброта, любовь, традиции.

Annotation. This article highlights the relationship between children and parents, relationship between parents, factors in family relationships, dynamics, pedagogical etiquette in dealing with children to ensure a positive parent-child relationship.

Key words: parent, child, attitude, education, morality, sincerity, kindness, love, tradition.

Oilaviy hamda avlodlararo munosabatlar masalalarini o‘rganish borasida ilmiy tadqiqot ishlari so‘nggi yillar mobaynida butun dunyo miqiyosida jadal tus olib bormoqda. Jumladan, chet el psixolog va sotsiolog olimlari, Fransiyada A.Villi, E.Dyurkgeym, P.Jane, Germaniyada T.Shrayber Amerikada K.Byuler, V.Metyuza,

Dj Bruner, S.Xoll, U.Djeyms, D.Cheyni, Shveysariyada E.Klapared va boshqa ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan bu sohada bir qancha ishlar amalga oshirildi.

Bizning nuqtayi nazarimizcha, bolalar va ota-onalar munosabati, ota-onalik munosabati va ota-onalik ustanovkalari kabi bir-biri bilan bog‘liq, lekin shu bilan birga, bir-birini to‘ldiruvchi hamda ko‘pincha sinonim tarzida qo‘llaniladigan tushunchalarni bir-biridan farqlash lozim. Bolalar va ota-onalar munosabatlarining o‘ziga xosligi shundan iboratki ular ikki tomonlama munosabatlardan tarkib topib, har ikki tomon ota-ona va bola munosabatlar tizimini faollik bilan shakllantiradi. Bu munosabatlar avval boshidan teng huquqli munosabatlar bo‘lmasa-da, biroq doimo teng huquqlilikka intiladi. Bola shaxsining shakllanganligi esa bunday munosabatlarning mahsuli bo‘lib hisoblanadi.

Shunday qilib, bolalar va ota-onalar munosabatlarini bevosita qarindoshchilikka ega bo‘lgan kattalar hamda bolalar o‘rtasidagi munosabatlar tizimi sifatida talqin qilish mumkin: ular bola tug‘ilishi bilan paydo bo‘lib, ota-ona va bolaning o‘zaro ta’sirli hamkorligi jarayonida o‘zining alohida dinamikasi hamda o‘ziga xoslik bilan tavsiflanuvchi mohiyatga ega bo‘lib boradi. Bunday munosabatlar quyidagi uchta omil: ota-ona, bola munosabatlarining madaniy tarixiy mazmuniga ega.

Oilada bolalar bilan to‘g‘ri munosabatga kirishish juda muhim ahamiyatga egadir. Oila bolalarni Vatanga muhabbat, mehnatga va xalq boyliklariga ongli munosabat, nuqsonlarga murosasozlik ruhida tarbiyalash uchun katta imkoniyatlarga ega. Oila, xususan, bolaning hissiyoti va emotsiyonal madaniyatini tarbiyalashda katta imkoniyatlarga ega.

Ota-ona va bolalar o‘rtasidagi munosabatning ijobiy tus olishi uchun ota-ona farzandlari bilan munosabatga kirishayotganlarida pedagogik odobga rioya qilmoqlari kerak. Ota-onaning aytgan har bir so‘zi ta’sir qiladigan bo‘lmog‘i, so‘zning aytishli formasi, shu so‘zning formasiga mos keladigan holda chehraning ochiq yoki vajohatli bo‘lishi pedagogik ta’sirning ta’sirchanligini oshiradi. Aksincha, pedagogik odobga rioya qilmaslik bolani haddan ortiq sevish yoki berahm, qattiqqo‘l munosabatda bo‘lish ota-ona bilan bola o‘rtasidagi o‘zaro muomalaning buzilishiga sabab bo‘ladi. Ota-onalar va bolalar o‘rtasida munosabatlarning ijobiyligini ta’minlashda har bir bolaga alohida muomala va munosabatda bo‘lish zarur. Bunda bolaning yoshi, o‘sha davrdagi holati hisobga olinishi kerak. Bolaning yoshini, ma’lum vaziyatdagi holatini yaxshiroq tushunish uchun o‘zimizni bolaning o‘rniga qo‘yib ko‘rishimiz kerak. Shunda biz bolaning ichki olamini, xohish-istagini anglab yeta olamiz.

Ota-ona va bolalar o‘rtasidagi ijobiy munosabatni yuzaga keltirish ko‘p jihatdan ota-onalarning o‘z bolalarini, ularning fe‘l-atvori, xarakter xislatlari, qiziqishlari kabilarni bilishlari bilan bog‘liqidir. Shu jihatdan har bir ota-ona, eng avvalo, o‘z bolalarini har tomonlama bilishlari va shu asosda munosabatda bo‘lishlari lozimdir.

Keltirilgan fikrlarga asoslangan holda quyidagi xulosa va tavsiyalarni berish maqsadga muvofiq:

- Bolalarga samimiyat bilan munosabatda bo‘luvchi, lekin ularga ko‘p narsalarni ruxsat etuvchi ota-onalarning farzandlari faollik, mustaqillik, o‘rtoqlik, ijdoga intilish kabi xususiyatlarga ega bo‘lish bilan birga, ularda salbiy sharoitlar shakllanishiga keng imkoniyat yaratilishi mumkin.
 - Bolalarga samimiyat bilan qarovchi, lekin ularni ko‘p jihatdan cheklovchi ota-onalarning bolalari xushmuomala, yon bosuvchan bo‘lib, ularda ijodkorlikka, mustaqillikka intilish kamroq namoyon bo‘ldi.
 - Bolalarga sovuq munosabatda bo‘luvchi, lekin ularga ko‘p narsalarni ruxsat etuvchi ota-onalarning farzandlari ko‘pincha ota-onalariga befarq munosabatda bo‘ladilar, lekin buni xulq-atvorlarida har doim ham namoyon qilmaydilar. Shuningdek, ular odatda tortinchoq, kattalarga ishonmaydigan bo‘ladilar, ijtimoiy yolg‘izlikni afzal ko‘radilar.
- Farzand bilan ota-ona o‘rtasidagi yaqin munosabat o‘z-o‘zini anglashni rivojlanishiga turtki bo‘lishi mumkin.

Ilgari surilgan xulosalarga muvofiq quyidagi tavsiyalarimiz ota-onalar va o‘qituvchilarga mo‘ljallangan.

- Shaxsda o‘z-o‘zini anglashning shakllanish xususiyatlari to‘g‘risida ota-onalar va o‘quvchilar to‘liq tasavvurga ega bo‘lishlari kerak.

- Ota-onalar o‘z farzandlarining qiziqishlari imkoniyatlari va qobiliyatlarini to‘g‘ri baholashlarga o‘rganishlari lozim. Faqat shundagina ular o‘z farzandlarini o‘z-o‘zini to‘g‘ri baholash va o‘z-o‘zini rivojlantirishga o‘rgatishlari mumkin.

- Oiladagi psixologik iqlimning buzilishi bola xulqida negativ xususiyatlarni shakllantirishini inobatga olgan holda ota-onalar oilada hamkorlik muhitini yaratishga odatlanishlari maqsadga muvofiq.

- Samimi o'rnatilgan muloqot bola shaxsida rostgo'ylik, saxiylik, mustaqillik sifatlarni tarkib toptiradi. Bu esa ota-onalarning o'z farzandlari bilan muntazam jonli muloqotda bo'lishni taqazo etadi.
- O'z-o'zini anglash shaxsda axloqiy me'yorlarni egallash omillaridan biri. Bu o'rinda ota-onalar o'z farzandlari uchun "yaxshi andoza"rolini bajarishi juda zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мусурмонова О. Юқори синф ўқувчиларининг маънавий маданиятини шакллантиришининг педагогик асослари: педагогика фанлари доктори дис. –Тошкент: ТДПУ, 1993.
2. Рахимова К., Отажонова М. Болаларда маънавий тушунчаларни шакллантиришида актив методлардан фойдаланиш. / Фан ва тиббиёт. Технологиялар. 1999.
3. Йўлдошева Б. С. Ўзбекистонда ёшларни маънавий тарбиялашнинг ижтимоий-педагогик асослари. Пед.ф.н. ... ёзилган дисс. – Тошкент: 2000.
4. Воспитать человека: Сб. под ред. В.А. Березиной. – Москва: Вентана-Граф, 2002.

ДАУКАЕВА ХАЛИДА ИБРАХИМОВНА,
Преподаватель Международного университета
туризма «Шелковый путь»

ВЛИЯНИЕ ПАНДЕМИИ COVID-19 НА РОДИТЕЛЕЙ, ДЕТЕЙ И ФУНКЦИОНИРОВАНИЕ СЕМЬИ

Annotatsiya. Ushbu maqola pandemiya va izolyatsiyaning oilaviy hayotga ta'sirini o'rganadi. Ijtimoiy uzoqlashish choralari odamlarning kundalik ijtimoiy hayotida keskin o'zgarishlarga olib keldi va shubhasiz, bunga katta ta'sir ko'rsatdi. Oilaviy hayot, maktab va ish kabi har xil sohalar birdaniga bir joyga to'planib, odamlar kutilmagan qiyinchiliklarga duch kelishdi. Ushbu maqolada oilalar ularni hal qilishda duch keladigan qiyinchiliklar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: pandemiya, oila, ota-onalar, bola, o'spirin, karantin, izolyatsiya.

Аннотация. Данная статья посвящена изучению влияния пандемии и карантина на семью и семейную жизнь. Меры по социальному дистанцированию вызвали резкие изменения в повседневной социальной жизни людей, несомненно, оказывая на нее огромное влияние. Такие разные сферы, как семейная жизнь, школа и работа, неожиданно сошлись в одном месте и люди столкнулись с определенными непредвиденными трудностями. В данной статье обсуждаются трудности, с которыми столкнулись семьи в период карантина и пути их решения.

Ключевые слова: пандемия, семья, родители, ребенок, подросток, карантин, изоляция.

Annotation. This article investigates the impact of pandemic and isolation on family and family life. Social distancing measures have caused dramatic changes in people's daily social life, undoubtedly having a profound effect on it. Such different areas as family life, school, and work suddenly converged and people faced unforeseen difficulties. This article discusses the difficulties families have encountered and some suggestions how to solve them.

Key words: pandemic, family, parents, child, adolescent, quarantine, isolation.

С марта 2020 года Всемирная организация здравоохранения признала распространение COVID-19 пандемией [4]. Чтобы замедлить распространение COVID-19, правительства многих стран в мире, включая Узбекистан, приняли радикальные меры по минимизации социальных контактов, закрывая общественные места, требуя от людей сохранять физическую дистанцию и оставаться дома. В Узбекистане в марте 2020 года был объявлен карантин были введены меры социального дистанцирования, которые заставили всех граждан страны оставаться дома и работать по возможности удаленно.

Работа общественных мест была приостановлена (театры, кино, торговые центры, общественный транспорт). Эти меры по социальному дистанцированию (так называемая «изоляция») вызвали резкие изменения в повседневной социальной жизни людей, несомненно, оказывая на нее огромное влияние. Такие разные сферы, как семейная жизнь, школа и работа, неожиданно сошлись в одном месте, и семьи столкнулись с непредвиденным увеличением количества часов, проведенных вместе под одной крышей. Это оказало на семьи как положительное, так и отрицательное влияние.

Для семей проведение большего количества времени вместе во время изоляции помогло сблизиться друг с другом и укрепить связи, организовать совместное времяпрепровождение, найти общие интересы, больше узнать о жизни друг друга. Однако ряд факторов, характерных для кризиса COVID-19, таких как финансовая необеспеченность, беспокойство о собственном здоровье и здоровье окружающих, неопределенность в отношении продолжительности карантина, отсутствие социальной и физической активности и скука, негативно влияют на настроение и психическое благополучие человека [2]. Более того, родители, имеющие в доме детей, также испытывали стресс, поскольку им приходилось совмещать работу и семью. Это создавало определенные трудности, такие как отсутствие достаточного пространства для работы, шум и одновременная забота о семье. Родители должны были контролировать обучение детей на дому, что также было непросто и создавало много стрессовых ситуаций. Как следствие, такое ограничение свободы являлось причиной роста напряженности, раздражительности, семейных конфликтов, а в худшем случае - домашнего насилия или жестокого обращения с детьми [10]. Так, в соответствии с источниками, В 2020 году в Узбекистане также наблюдался рост домашнего насилия [3].

Важнейшим аспектом возникновения стрессовых ситуаций являлась неопределенность. Неопределенность является одним из ключевых факторов, определяющих уровень переживаемого стресса. Поскольку всемирная пандемия COVID-19 повлияла на повседневную жизнь всех людей, уход от сопровождающей ее неопределенности представляется невозможным. Следовательно, родители могут испытывать больший стресс в сложившихся обстоятельствах, что, в свою очередь, может повлиять на их родительское поведение.

Проблемы психического здоровья родителей, такие как одиночество, безнадежность, депрессивные симптомы и родительский стресс являются факторами риска для более стрессовой домашней обстановки в семье. Самой уязвимой группой семей в период пандемии оказались семьи с низким уровнем дохода. Чтобы уменьшить влияние пандемии и карантина на уязвимые слои населения, по решению Правительства Узбекистана этим семьям была организована регулярная финансовая поддержка.

Дети и подростки также имели трудности в условиях пандемии и изоляции. Подростки стремятся стать независимыми и уделяют больше внимания общению и проведению времени с друзьями, а не со своими семьями, тогда как в условии пандемии и карантина они проводили все свое время дома с семьей, будучи оторванными от своего ежедневного общения с друзьями.

Тем не менее, введение карантинных мер также имело положительный эффект на население и семьи Узбекистана. Время, которое родители проводят со своими детьми, является важным фактором, определяющим детское развитие. Изменения в занятости родителей, вызванные пандемией COVID-19, увеличили время, которое родители начали проводить со своими детьми. Было увеличено время на уход за детьми. Но очень важно правильно организовывать досуг, чтобы проводить не только больше времени с детьми, но и проводить его более качественно.

В период, когда школы закрыты, у родителей может быть больше возможностей провести время с детьми, и это может привести к более позитивному взаимодействию между родителями и детьми. Однако сбои в работе, вызванные изменениями в распорядке дня и экономические изменения, или угроза болезни могут привести к более негативному взаимодействию.

Плюсом является то, что пандемия произошла в технологический век, и будучи изолированы друг от друга, люди имели возможность общаться, обмениваться чувствами и идеями, быть в курсе всех новостей, работать онлайн. В ответ на социальное отдаление, онлайн-контакты с родственниками или друзьями помогли справиться с ситуацией и родителям, и подросткам. Кроме того, родители и подростки назвали просмотр телепередач полезным занятием, помогающим избежать скуки и узнавать новую информацию. Другие виды деятельности, помогающие справиться с ситуацией различны у

родителей и подростков. В то время как родители помогало общение с семьей, приготовление пищи, подросткам помогал отдых и прослушивание музыки.

Несмотря на усиление стресса и неопределенности вокруг пандемии COVID-19, она помогла усилить чувство социальной связаннысти и морали, у всех было чувство общности и равности перед данной проблемой. В семье никто не оставался дома один, и человек все еще мог общаться в режиме онлайн с другими людьми за пределами семьи.

Появилось множество вариантов удаленной работы, люди освоили новые навыки, что позволило им стать свободнее и независимее.

Пандемия показала, насколько уязвимо человечество как физически, так и психологически. Принимая во внимание все вышеперечисленные и многие не упомянутые факты, следует сделать выводы из данной ситуации.

Очень важно формировать семейные ценности и традиции и проводить вместе время не вынужденно, а запланировано и с радостью. Важно сформировать ежедневную рутину в семье, которая включает в себя совместное времяпровождение по вечерам, время без использования интернета и социальных сетей.

Дети чувствуют психологическое состояние родителей, поэтому для нормального формирования ребенка очень важно создавать в доме положительную обстановку. В разговоре с детьми о COVID-19 важно, прежде всего, нужно обеспечить открытую и благоприятную атмосферу, в которой дети знают, что могут задавать вопросы и получать ответы. Однако не менее важно не заставлять детей говорить об этом, пока они не будут готовы. Отвечая на вопросы детей, необходимо быть честными. Это может повлиять на их способность доверять родителям в будущем. Дети могут задавать один и тот же вопрос несколько раз либо потому, что им трудно понять концепцию, либо для того, чтобы получить заверения.

Важно помнить, что дети учатся, наблюдая за своими родителями, учителями, медицинскими работниками и т.д. Им будет интересно узнать, как взрослые реагируют на события и как они обсуждают эти события друг с другом. И это будет формировать их отношение к ситуации и жизни.

Важно демонстрировать спокойствие и делать все возможное, чтобы формировать их мировоззрение. В этой связи мы должны стараться не позволять нашим детям слишком много смотреть телевизор с тревожными или пугающими программами.

Очень важно, приняв во внимание все те трудности, с которыми мы столкнулись в период пандемии и карантина, создать в семье обстановку надежности, спокойствия и взаимоуважения.

Список использованной литературы:

1. *Bavel J., Baicker K., Boggio P., Capraro V., Cichocka A., Cikara M., et al. Using social and behavioural science to support COVID-19 pandemic response. Nature Human Behaviour. Nature Publishing Group. - 2020. pp. 460–471.*
2. *Cava M., Fay K., Beanlands H., McCay E., Wignall R. The experience of quarantine for individuals affected by SARS in Toronto. Public Health Nursing. - 2005. – pp. 398–406.*
3. <https://www.gazeta.uz/ru/2021/03/08/women/>
4. <http://www.euro.who.int/en/health-topics/health-emergencies/coronavirus-covid-19/news/news/2020/3/who-announces-covid-19-outbreak-a-pandemic#:~:text=COVID-19>

Ochilov Fariddun Izatulloyevich,
TVChDPI Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Axunova Diyora Urunboy qizi,
Solixova Shukrona Ayubjonzoda,
TVChDPI Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabalari

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING SHAXSIY-INSONIY VA FUQAROLIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini oliy ta’lim muassasalarida tayyorlash va malakasini oshirish tizimi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: oquvchi, boshlang‘ich sinf, ta’lim tizimi.

Аннотация. В статье рассматривается система подготовки и переподготовки учителей начальных классов в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: ученик, начальная школа, система образования.

Annotation. The article discusses the system of training and retraining of primary school teachers in higher educational institutions.

Key words: pupil, primary school, education system.

Respublikamizda mustaqillik yillarda kadrlar tayyorlash va ta’limni tashkil etishning jahon standartlariga javob beradigan samarali tizimi yaratildi va bugungi kunda ham oliy ta’limni modernizatsiyalashga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasini, avvalambor, yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, Vatanimiz taqdiri va istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir yosh kadrlar safini kengaytirishga bevosita bog‘liq.

Ta’lim islohotlaridagi “majburiy itoatkorlikdan ongli intizomlilik” tamoyili hozirda pedagogik jarayonni isloh qilishdagi asosiy tamoyil bo‘lib xizmat qilmoqdaki, bu sog‘lom avlodlarni ta’lim-tarbiyalash uchun pedagogik jarayonning mazmun-mohiyatini tubdan yangilash imkonini beradi. Pedagogik jarayonga yangicha mazmun baxsh etishda pedagogik jarayonning negizlari, ya’ni ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi va uning bilish ehtiyojini qondiruvchi, shu asosda sog‘lom avlodlarni shakllanishida ishtirok etuvchi barcha subyektiv va obyektiv omillar muhim ahamiyat kasb etadi.

Nima uchun bugun aynan maktabgacha ta’lim muassasalari ishlariga e’tibor kuchaytirilyapti, chunki aynan bolaning 5-7 yoshgacha davrida uning ongida zarur bo‘lgan 70-75% axborotlar shakllanadi. Mana shu omilning o‘zi ushbu yoshdagagi ta’lim-tarbiya ishlarining naqadar mas’uliyatli ekanligini ko‘rsatmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.Karimov shunday degan edi: “Aynan mana shu davrda bola hamma yaxshi-yomon narsani tushunib, anglay boshlaydi, uning beg‘ubor ongi bamisol bosma qog‘oz singari oiladagi, yon-atrofdagi barcha voqeа-hodisalarni, ularning zamiridagi taassurotlarni o‘ziga shimib-singdirib oladi⁵⁸.

Shuning uchun hozirda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini oliy ta’lim muassasalarida tayyorlash va keyinchalik malakasini oshirish tizimida sog‘lom avlod ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi pedagog kadrlarning mahoratini oshirish, bilim berish sifatini takomillashtirish maqsadida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, pedagogik nutq madaniyati, pedagogik mahorat ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, ta’lim-tarbiyaning innovatsion texnologiyalarini joriy qilish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini oliy ta’lim muassasalarida tayyorlash va keyinchalik malakasini oshirishda pedagoglarning ichki va tashqi imkoniyatlarini, bilim olish uslublarini bilgan, aniq ehtiyojlarini o‘rgangan holda, ularga sog‘lom avlodlarni tarbiyalash jarayoniga pedagogik texnologiyalar asosida yondashish, uyg‘unlashtiruvchi va umumiy ta’sir etuvchi shart-sharoitlarning yaratilishi yo‘l-yo‘riqlari targ‘ib qilinmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek, “bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz

⁵⁸ Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: “Маънавият”, 2008. – 53 бет.

emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi”⁵⁹.

Ayniqsa, pedagoglarning shaxsiy (insoniy) va nisbiy xususiyatlarini, kasbiy va fuqarolik xususiyatlarini o‘rganish, ulardagagi demokratik va insonparvarlik tamoyillar darajasini, ilmiy bilim va salohiyatini aniqlash, pedagog faoliyatining innovatsion xususiyatlarini rivojlantirish, ularning pedagogik texnologiyalarini o‘zlashtirish darajasiga e’tibor qaratish, pedagogik mahoratini oshirish kabi omillar sog‘lom avlodlarni shakllantirish jarayonini takomillashtirishga odilona yondashish imkonini yaratadi.

Shu o‘rinda pedagogik texnologiyalar sog‘lom avlodlarni shakllantirish jarayonini boshqarish omili sifatida pedagogikaning boshqa yo‘nalishlari kabi quyidagi ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi xususiyatlarga ega ekanligini ta’kidlash zarur.

- Pedagogik texnologiyalarning ta’limiy xususiyatlari – muayyan fan yoki g‘oyalar haqidagi umumiy-frontal, sohaviy-tarmoqli yoki alohida-xususiy bilimlar majmularini o‘rganish, ularni boshqa soha, tarmoq, fanlar bilan aloqadorligini tahlil qilish, amaliy asoslash va amaliyotdagi ahamiyatini belgilashi bilan xarakterlanadi.

- Pedagogik texnologiyalarning tarbiyaviy xususiyatlari – aqliy, axloqiy, etik, ma’naviy, ruhiy tarbiya jarayonlariga ta’sir ko‘rsatadi.

- Rivojlantiruvchi xususiyatlari – shaxsning intellektual salohiyati oshadi, undagi sezgi, diqqat, xotira, tafakkur, idrok, temperament, faoliyat, hissiyor va iroda kabi psixo-pedagogik jarayonlarni rivojlanishi-shiga ta’sir ko‘rsatadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining shaxsiy-insoni, fuqarolik xususiyatlari – ularning o‘zligini anglash, shu asosida ta’lim-tarbiyaning dolzarb masalalarini tushunib yetish, o‘z shaxsiy sifatlarini, nisbiy kuchli va kuchsiz tamonlarini tahlil qila olishga yo‘naltirsa, kasbiy xususiyatlari kasb mahorati mezonlari darajasini egallashga, kasbiy burch hamda kasb mahorati haqida qanday fikrda ekanligini tahlil qila olishga yo‘naltiradi. Zero, bu xususiyatlarsiz tashqaridan uning shaxs faoliyatiga ham, shuningdek, kasb faoliyatiga ham ta’sir qilish mumkin emas. Shuning uchun muktabgacha ta’lim muassasalari pedagog xodimlari malakasini oshirish muammolari o‘rganilganda ushbu omillar o‘rganilib, pedagogik faoliyatning innovatsion xususiyatlarini rivojlantirishga e’tibor qaratiladi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining faoliyatida innovatsion xususiyatlarning asosan uch ko‘rinishi pedagog olimlar tomonidan alohida ajratib ko‘rsatiladi. Bular akmeologik, refleksiv, kreativlik xususiyatlardir.

Shunday qilib, ushbu talab va xususiyatlardan ko‘rinib turibdiki, sog‘lom avlodlarni shakllantirish jarayoni muktabgacha ta’lim muassasalari pedagog-xodimlaridan ta’lim mazmuni, uning strukturasi, zamonaviy bilimlar, maxsus kasbiy ko‘nikma va malakalar bilan quronib qolmay, balki fanlar rivoji, uning konseptual asoslari, boshqa fanlar bilan aloqadorligini o‘rganishni va yuksak mahorat, innovatsion xususiyatlarni, boshqaruvchilik qobiliyatini talab etadi. Pedagogik adabiyotlarda⁶⁰ tarbiya texnologiyasining tarkibiy qismlari quyidagicha belgilangan:

- 1) tarbiyani tashkil etishga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyoj (rag‘bat);
- 2) tarbiya maqsadi;
- 3) tarbiya mazmuni;
- 4) tarbiya berishning (shakli, metodi, usuli va texnik vositalari);
- 5) o‘qituvchi (tarbiyachi) faoliyati;
- 6) o‘quvchi (tarbiyalanuvchi) faoliyati;
- 7) tarbiya samarasи;

Bizning fiikrimizcha, ushbu tarbiya texnologiyasining tarkibiy qismlaridan tarbiya metodlari va usullarining innovatsion turlarini ishlab chiqish va joriy qilish orqali sog‘lom avlodning raqobatbardosh tarbiyasini samarali ta’minalash mumkin deb hisoblaymiz.

Tarbiya mazmunining mukammal belgilangan qonuniyatlar mavjud bo‘lib, u asrlar davomida har bir davrning talablariga mos ravishda takomillashtirilib kelingan. Tarbiya mazmunida tarbiyalanuvchining yoshi va ijtimoiy kelib chiqishiga qarab belgilangan tarbiyaviy maqsad va vazifalarga muvofiq ular tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar, shaxs xulq-atvori hamda axloqiy sifatlari mujassamlashgan.

⁵⁹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг олий мажлисга мурожаатномаси. – Т.: “Ўзбекистон”, 2018. – 19-20 бетлар.

⁶⁰ Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технология: назария ва амалиёт – Тошкент: “ФАН” 2005.-Б 22-24.

Xaydarova Xilola Xislatovna,
O'zMU tayanch doktoranti

SHAHAR QIYOFASI OILA FAROVONLIGI TIMSOLIDA

Annotatsiya. Maqolada shahardagi oilaviy farovonlikning hozirgi holati tahlil qilingan. Shahar hududidagi oilalar farovonligini ta'minlash ma'lum ko'rsatkichlar asosida qishloq oilalari bilan taqqoslangan holda o'rganilgan. Shuningdek, shahardagi zamonaviy va an'anaviy oilalar qadriyatlar kesimida solishtirilgan.

Kalit so'zlar: oila farovonligi, moddiy ta'minlanganlik, zamonaviy oila, an'anaviy oila.

Аннотация. В статье анализируется современное состояние благополучия семьи в городе. Обеспечение благосостояния городских семей изучено в сравнении с сельскими семьями по определенным критериям. Также сравниваются современные и традиционные семьи в городе с точки зрения ценностей.

Ключевые слова: семейное благополучие, материальная обеспеченность, современная семья, традиционная семья.

Annotation. The article analyzes the current state of family well-being in the city. Provision of the well-being of urban families was studied in comparison with rural families according to certain indicators. It also compares modern and traditional families in the city in terms of values.

Key words: family well-being, financial security, modern family, traditional family.

Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lib, oilaning farovonligi jamiyat farovonligini ta'minlaydi. Shu sababli uzoq yillardan beri "oilaning farovonligini ta'minlash" muammosi olimlar diqqat markazida bo'lib kelgan. Masalan, jamiyatdagi oilaviy farovonlik muammolarini O.Kont, E.Dyurkgeym, K.Marks, M.Mid, T.Parsons, M.Kovalevskiy, P.Sorokin kabi olimlar umumnazariy yondashuv asosida o'rganishgan. Undan tashqari A.Antonov, V.Belova, M.E.Yelyutina, S.V.Klimova, V.Borisov, B.Boyko, E.Vasileva, A.Vishnevskiy, A.Volkov, A.A.Taradanov kabi olimlar esa ushbu tadqiqotlarni davom ettirishdi. O'zimizning sotsiologlarimizdan N.Aliqoriev, N.Latipova, L.Eryigitova kabi olimlar tadqiqotlarida ham oila va uning farovonligi, chuqur tahlil qilingan.

Oilaviy farovonlikning chuqur o'rganilishining asosiy sababi uning bir nechta ko'rsatkichlarining mavjudligidadir, masalan, moddiy ta'minlanganlik, oiladagi o'zaro munosabat, farzandlarni tarbiyalash, ruhiy barqarorlik, ma'naviy muhit va boshqa ko'rsatkichlar.

Bugungi kunda oilalarni hududiy kesimda ham o'rganib chiqish juda muhimdir. Chunki qishloq aholisining o'zaro hamjihatligi tufayli qishloq sharoitida oilalarning farovonlik darajasi yaqqol namoyon bo'ladi. Biroq shaharda bunday deya olmaymiz. Zero, ko'p qavatlari binolardagi xilma-xil oilalar va bu hududda migratsiya jarayonining kuchliligi bunga asosiy sababdir. Masalan, joriy yilda Samarqand shahrida 7 ta 16 qavatlari va ikkita 25 qavatlari uylar barpo etilmoqda [1]. Bu esa yaqin yillarda mingdan ziyod oilaning uyli bo'lishi hamda migratsiya jarayonini shakllantirishini anglatadi. Shahar hududida oilalar sonining ko'payishi shaharning strategik rejasida ularning farovonligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni ko'paytirish vazifasini yuklaydi.

Har qanday oila farovonlikka intiladi, bu aniq ijtimoiy haqiqat, u esa bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jarayon hisoblanadi [2]. Oilaning farovonligi oilaviy qadriyatlardan biri erkak va ayol xarakati va motivatsiyasi asosida ta'minlaniladi. Ko'pgina olimlar oilaning farovonligiga iqtisodiy jihatdan yondashadilar. Bir tomonidan, ularning fikri to'g'ri bo'lib, moddiy qadriyatlarga egalik qilishinishi oila farovonligini ta'minlashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Chunki oilaviy munosabatlardagi kichik nizolar ko'p hollarda aynan moddiyatga borib tarqalmoqda. Shahardagi ko'pgina oilalar moddiy texnikaviy jihatdan yaxshi ta'minlangan bo'lib, ularning ko'pchiligining xonardonlarida televizor, dazmol, telefon, kompyuter, kir yuvish moshinasi, muzlatgich kabi bir qancha texnika vositalarini kuzatish mumkin. Shahar oilalarining farovonligini ta'minlashda kundalik ehtiyojidagi birgina texnikaviy ta'minlanganlikga e'tibor berish ushbu muammoga faqat bir tomonlama qarash demakdir. Zero, ovqatlanish, kiyinish kabi kundalik ehtiyojni ta'minlash uchun ham oilaning o'z daromad manbayi bo'lishi va bu oilaviy jamg'armani hosil qilishi lozim. Ko'p hollarda shahardagi oila jamg'armasining to'ldiruvchilari birdek oilaning erkagi va ayoli

zimmasida bo‘ladi. Biroq ayrim an’anaviy oilalar to‘g‘risida bunday deya olmaymiz. Chunki ayrim an’anaviy oilalarda erkaklar oilaviy jamg‘armaning to‘ldiruvilari hisoblanadi. Ko‘rinib turibdiki, shahar ekotizimidagi oilalarni shuningdek, zamonaviy va an’anaviy oilalar turkumiga bo‘lib tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Shahardagi oilalarning an’anaviy shakli oilaviy munosabatlarda yaqqol ko‘zga ko‘rinadi. Bunday oilaviy munosabatlarda an’analar yetakchi vosita hisoblanadi. Zamonaviy oilalar munosabatlari zamonaviy dunyoqarash asosiga qurilgan bo‘lib, ular zamonaviylikni turlicha talqin qilishadi. Masalan, K.U.Najmuddinova “zamonaviy oilada, xuddi yetuk va fazil jamiyat kabi bir tomonlama, dogmatik, haqiqat va taraqqiyotga zid, olg‘a yurish uchun to‘sqinlik qiladigan odat va intilishlar bo‘lmaydi” deb hisoblaydi [4].

Bugungi kunda texnika vositalari zamonaviy shahar oilalarining qadriyatlariga aylangan. Qishloq hududidagi oilalarda esa oddiy taqinchoqdan tortib, to uy jihozlarigacha qadriyat sifatida ezozlanadi. Qishloq hududlaridagi oilalarning ko‘philigi eski jihozlarni tashlash va jihozlarni yangilash masalalariga ko‘p ham e’tibor beraverishmaydi. Xususan, Olga Brednikova hamda Olga Tkachlarning kuzatuvi buni yana bir bor tasdiqlaydi. Ularning kuzatuviga ko‘ra, qishloq aholisi narsalarni chiqindiga tashlashda juda diqqatli bo‘lib, hattoki ularning tushunchasidagi eski buyum degan so‘z yangisi bilan almashadi. “Uyimdagি biror bir latta bekorga chiqindiga chiqib ketmaydi. Agar ko‘ylagim eskirgan bo‘lsa, undan fartuk yoki parda yoki lattali ro‘zg‘or sumkasini tikaman, hech ilojsiz bo‘lsa unda urug‘lar uchun xaltacha tikaman” deb javob beradi qishloq aholisining biri [3]. Ko‘rinib turibdiki, ular oddiy buyumga nisbatan juda e’tiborli bo‘lib, bu esa moddiy ehtiyojlarga ketadigan mablag‘ni kamaytiradi. Oddiy buyumga nisbatan bo‘lgan bunchalik munosabat, albatta, insonlarga bo‘lgan munosabatda ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Oila farovonligini ta’minalashda oilaviy tarbiyaning ham ahamiyati muhimdir. Bugungi kunda o‘zining tarbiyaviy yo‘nalishida oila milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘zaro uyg‘un holda olib bormoqda. Biroq milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlardan ustun biladiganlar ham yo‘q emas, albatta. Bu esa shahar boshqaruvida og‘riqli nuqta bo‘lib, ba’zi hollarda ajrimlarga sabab bo‘lmoqda. Oilada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘un bo‘lishi natijasida oila farzandlari har qanday ijtimoiy va iqtisodiy shart-sharoitlarda o‘zlarini yo‘qotib qo‘ymasligini ta’minalaydi.

Ko‘p hollarda oldinlari oilalar davlat yoki jamiyat a’zolaridan yordam olishni istashmagan. Davlat tomonidan hamda jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan oilalar kambag‘al sifatida “tamg‘alangan”ligi balki bunga sababdir [2]. Bugun esa oilalar davlat va jamiyat ko‘magi zarurligini yashirayotgani yo‘q va buni ochiqdan ochiq namoyon etishmoqda. Eng asosiysi esa davlat va jamiyat tomonidan oila farovonligini ta’minalash uchun turli xil strategik ishlarni amalga oshirib kelmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, shahar aholisining oilaviy farovonligi bevosita shaharning ijtimoiy qiyofasini yaratishda muhim omil bo‘ladi. Zero, oilalar farovon bo‘lsa, shahar ham obod, ham farovonlikka erishadi. Shahar oilalarining farovonligini ta’minalash uchun shahar ekotizimida barcha imkoniyatlar mavjud, faqatgina oilaviy munosabatlarda buni tushunib yetishga ko‘proq e’tibor qaratish lozim. Shahar oilalarining farovonligini ta’minalash borasida boshqaruv tizimiga quyidagi vazifalarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

Yosh oilalarda moddiy ehtiyojlarini tartibga solish bo‘yicha turli choralar ko‘rish lozim. Chunki bu narsa oilaviy tinchlikni ta’minalash kafolati sanaladi.

Ko‘p hollarda oilalarning farovonligini ta’minalashda moliyaviy hayriyalar tashkillashtiriladi. Biroq, tekin bilimlar xayriyasini shakkantirish tartibini ko‘rib chiqish va ko‘paytirish lozim. Zero, ba’zi oilalarda bilim olishga ehtiyoj mavjud, faqatgina moliyaviy tanqislik sababli o‘z qobiliyatlarini namoyon etishga qiynalishadi. Bunda ma’rifatparvar jadidchilar mehnatidan o‘rnak olish maqsadga muvofiqdir.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Халқ сўзи. 2021 йил 16 апрель, № 77 (7857). Б.1.
2. М.Э.Елютина, С.В.Климова. Благополучие семьи: парадигма институционального подхода. *Известия Саратовского университета. Нов. сер. Серия. Социология. Политология. 2013. – Тошкент, 2013. № 2. – С. 22-23.*
3. О.Бредникова, О.Ткач. «Грязная деревня» и «замусоренный город» (обыденные практики обращения с мусором в разных сообществах). *Антропологический исследований. Форум, №8. – С. 338-344.*
4. К.У.Нажмидинова. *Оила тарбиясида миллий ва умуминсоний ахлоқий маданиятнинг ўрни.* – Тошкент: Адолат, 2016. – Б.31.

Narimbetova Zaxiya Axmedovna,
TVChDPI Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Yuldashev Sanjarbek Ulug‘bek o‘g‘li,
Masalseva Tatyana Valerevna,
TVChDPI Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI ONGIDA TOLERANTLIK TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘quvchilarga tolerantlik tushunchalarini shakllantirishda tinchliksevarlik, etnik, siyosiy, konfessional va shaxslararo kelishmovchiliklarga nisbatan chidamlilik, teng huquqlilik kabilarning tub mohiyatini o‘rgatish haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: tolerantlik, chidamlilik, teng huquqlilik.

Аннотация. Статья посвящена обучению студентов основам толерантности, толерантности к этническим, политическим, конфессиональным и межличностным различиям, а также равенству в формировании концепции толерантности.

Ключевые слова: толерантность, терпимость, равноправие.

Annotation. The article is devoted to teaching students the basics of tolerance, tolerance towards ethnic, political, confessional and interpersonal differences, as well as equality in the formation of the concept of tolerance.

Key words: tolerance, equality.

Insomni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash xalqimizning azaliy orzusi bo‘lib, ajdodlarimiz ma’rifat, ma’naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o‘rgatish, ularni komillikka yetaklash yo‘llari, qonun-qoidalarini muttasil izlaganlar. Bu esa ta’lim-tarbiyaning bugungi samarali metodlarining yaratilishiga olib kelgan.

Ma’lumki, mamlakatimiz taraqqiyoti va kelajagi ta’lim-tarbiya sohasidagi sifat o‘zgarishlari qilib yuqori samaradorlikka erishishga, ularning jahon ta’limi talablari bilan mosligi va amaliy hayotdagi o‘rnini qay darajada topayotganligiga bog‘liq.

Ta’lim-tarbiya jamiyat uchun, eng avvalo, hayotiy zaruriyatdir. Ayniqsa, yosh avlodga tarbiya berish jarayonida maktab juda katta ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarga tarbiya berish, ularga ta’lim berish bilan birgalikda amalga oshiriladi. Ammo tarbiyaning o‘z vazifasi, mazmuni, amalga oshirish usuli va vositalari mavjud. Ta’lim va tarbiya jarayonining uzviyligi ta’lim muassasalari oldiga qo‘yilgan eng muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘qituvchi bilan o‘quvchi orasidagi “Hamkorlik pedagogikasi” va “Tolerantlik” tushunchalarini qo‘llamay turib, ta’lim tizimidagi islohotlarni amalga oshirish, har tomonlama rivojlangan shaxsni kamol toptirish mumkin emas.

Birinchi navbatda, tolerantlik tarbiyasini amalga oshirish tamoyillari va vositalari ilmiy jihatdan asoslanishi lozim. Tolerantlik tarbiyasini amalga oshirish jarayonining tahlili shuni ko‘rsatdiki, bu dolzarb masalaga o‘quvchilar va o‘qituvchilar e’tiborini jalb etish maqsadida tolerantlik tarbiyasining samarali metod va vositalarini izlab topish lozim. Shuningdek, tolerantlik tarbiyasining shakllari va texnologik o‘ziga xosliklarini ham aniqlash talab etilmoqda. Tolerantlik oliy darajadagi insoniy fazilat ekanligini ta’limning ilk bosqichlaridan boshlab o‘quvchi ongiga singdirishga erishish lozim.

Tolerantlik tuyg‘usini tarbiyalash shuning uchun ham dolzarbki, bugungi kunda jamiyat hayoti va kishilarning turmush tarzini yaxshilash va mustaqil rivojlanishini ta’minalash uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy, ma’naviy tushuncha va qadriyatlarni o‘quvchilarga ta’limning dastlabki bosqichlaridan boshlab singdirish mumkin. U quyidagilardan iboratdir:

– o‘quvchini u yoki bu tushuncha, qarash, qadriyatlarni egallashga majburlamaslik axloqini o‘zlashtirish;

– boshqa xalqlar madaniyati, dini, qadriyatlariga nisbatan bardoshli, oqilona munosabatda bo‘lishni qaror toptirish;

– o‘quvchini ta’limning ilk bosqichlaridan boshlab atrofdagilar bilan o‘zaro ongli bir-birini tushunuvchanlik shartlariga asoslangan muloqotga o‘rgatishga erishish;

– o‘quvchilarda o‘zgalar fikrini bardosh bilan tinglash, muammolarni o‘zaro murosa asosida hal qilishga undash ko‘nikmasini tarkib toptirish;

– o‘quvchilarda tolerantlik tushunchalarini shakllantirishda tinchliksevarlik, etnik, diniy, siyosiy, konfessional (diniy konfessiya-muayyan dinga e’tiqod qiluvchi kishilar jamoasi) [1-26] va shaxslararo kelishmovchiliklarga nisbatan chidamlilik, tenghuquqlilik kabilarning tub mohiyatini o‘rgatish.

Tolerantlik tuyg‘usi hissiy, aqliy rivojlanish, mehnat ko‘nikmalarini egallahdan iborat bo‘lib, o‘z aqidalari va ongini o‘zgartirish orqali shakllanadigan ruhiy holatdir.

Agar o‘qituvchining o‘zi tolerant bo‘lsa, u o‘ziga ishonuvchan, o‘quvchilarni sevadigan, ularni bardosh bilan tinglay oladigan, murosali, xushmuomala, muloqot vaziyatini vujudga keltira oladigan bo‘ladi. U o‘z o‘quvchilariga ham o‘zida mavjud bo‘lgan ko‘nikma va sifatlarni singdirish mahoratiga ega bo‘ladi. O‘qituvchi psixologik va pedagogik tasir ko‘rsatish natijasida o‘quvchini tolerant shaxs qilib tarbiyalash orqali unda quyida keltirilgan sifatlarni shakllantirib boradi va davlat uchun keng dunyoqarashli fuqaro hamda jamiyat uchun munosib salohiyatli kadrlarni tayyorlaydi.



Bu esa o‘z navbatida jamiyatda har tomonlama yetuk komil inson shaxsini tarbiyalash uchun muhim omil bo‘la oladi. Talim tizimida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan pedagogik-psixologik va ijtimoiy konfliktlarni oldini oladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Қаршибоев М. Миллий истиқлол гояси ва маънавият асослари: 9-синф учун дарслик.
2. Мусурмонова О., 3-наири. –Тоикент: Маънавият, 2003. –266.

UCHINCHI SHO‘BA:

**OILADA GENDER TENGLIKNI
TA’MINLASHNING HUQUQIY,
IQTISODIY VA IJTIMOIY
ASOSLARI**

Ismaylova Ra’no,
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot
instituti katta ilmiy xodimi,
psixologiya fanlari nomzodi

OILADAGI GENDER MUNOSABATLARNING IJTIMOIY- PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oiladagi jinslarning huquqlari va majburiyatlar masalasi, gender munosabatlarga oila tuzilmasining ta’siri va zamonaviy jamiyatda oila tuzilmalarining o‘zgarishi, ba’zi milliy urf-odat, an’ana va qadriyatlarning noto‘g’ri talqil etilishi natijasida oilada gender tenglikning buzilishi, tazyiq va zo‘ravonlikni sodir etilishiga olib kelishi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: gender, huquq va majburiyat, oila tuzilmasi, urf-odat, tazyiq va zo‘ravonlik.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы гендерных прав и обязанностей в семье, влияние структуры семьи на гендерные отношения и изменения семейных структур в современном обществе, неправильное толкование определенных национальных обычаяев, традиций и ценностей, ведущих к гендерному неравенству и угнетению в семье.

Ключевые слова: гендер, права и обязанности, структура семьи, обычаи, угнетение и насилие.

Annotation. This article examines the issues of gender rights and responsibilities in the family, the influence of family structure on gender relations and changes in family structures in modern society, misinterpretation of certain national customs, traditions and values, leading to gender inequality and oppression in the family.

Key words: gender, rights and responsibilities, family structure, customs, oppression and violence.

Jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy, siyosiy o‘zgarishlar natijasida davlat va jamiyat oila hayotiga va undagi munosabatlarga ta’sir etish doirasidan chiqib ketdi va endi u mustaqil ravishda o‘z yo‘lini tanlaydi, bu esa, o‘z navbatida, oilaviy va gender munosabatlarining turli xil variantlarini ishlab chiqarish imkonini berdi.⁶¹

Keyingi yillarda olib borilgan qator tadqiqotlarda erkaklar va ayollar huquqlari muammolari ko‘rib chiqiladi, bu yerda asosiy e’tibor ularning qonuniy mavqelariga, teng huquqlarni amalga oshirishdagi qiyinchiliklarga qaratiladi. Oiladagi jinslarning huquqlari va majburiyatlar masalasi alohida dolzarbdir, chunki aynan oila jamiyatdagi mavjud gender munosabatlarning kichik modeli hisoblanadi.

Yaqinda oila o‘zaro munosabatlar tizimi sifatida jiddiy o‘zgarishlarga duch kelganini ta’kidlash lozim. Bu yerda munosabatlar mayjud an’analar asosida emas, balki afzalliklarga asoslangan. Bugungi kunda nikoh va oilaviy munosabatlarda dominant turlar patriarchal, matriarxat yoki tenglik tarzida qolmoqda, ammo baribir oilaviy munosabatlarning asosi uning huquqiy tartibga solinishi, ya’ni turmush o‘rtoqlarining huquqlari va majburiyatlarini qonuniy darajada birlashtirishdir, ularning buzilishi muayyan huquqiy oqibatlarga olib keladi. Uzoq vaqt davomida oilada erkaklar va ayollarning mavqeyi bir xil bo‘lmagan va oilaning o‘zi “kuchga bo‘ysunish” sxemasi asosida qurilgan.

Ma’lumki o‘zbek oilasi kengaytirilgan patriarchal oila tizimida bo‘lgan. Patriarxal oilada ota vakolati kuchli bo‘lib, ayol va bolalar otaga bo‘ysunadi.

XX-asrning boshlarida oila haqida yangi tushuncha va tasavvurlar paydo bo‘ldi, u endi teng huquqli subyektlar birlashmasi sifatida talqin qilindi, bu esa oila qonunchiligin tubdan qayta ko‘rib chiqishga olib keldi. Hozirgi vaqtida O‘zbekistonda er-xotinlar o‘rtasidagi munosabatlar “Oila kodeksi” bilan tartibga solinadi, uning normalari er va xotin tengligi tamoyiliga asoslanadi. Oila to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining vazifalari oilani mustahkamlashdan, oilaviy munosabatlarni o‘zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a’zolarining mas’ullik hissi asosida qurishdan, biron bir shaxsning oila masalalariga o‘zboshimchalik bilan aralashishiga yo‘l qo‘ymaslikdan, oila a’zolari o‘z huquqlarini to‘sqiniksiz amalga oshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishni ta’minlashdan iboratdir.

⁶¹ Самыгин С.И., Верещагина А.В. и др. Социальная безопасность: Учебное пособие. – Москва, 2012. – С. 233

Oila qonunchiligi me'yorlarini mazmunan tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, hamma me'yorlar ham ushbu tamoyillarga mos kelmaydi, tenglikni buzish erkak va ayolga nisbatan sodir bo'ladi. Sabab Oila kodeksing 8-moddasi oilaviy munosabatlarda mahalliy urf-odat va an'analarning qo'llanilishi bo'lib, Qonun hujjatlarida oilaviy munosabatlarni tartibga solishga oid tegishli normalar bo'lмаган тақдирда, О'zbekiston Respublikasining qonun hujjatları tamoyillariga zid bo'lмаган mahalliy urf-odat va an'analar qo'llaniladi, deb ko'rsatilgan. Zamona viy jamiyatda gender tengsizligini yengishdagi urinishlarga qaramay, ba'zi milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarining noto'g'ri talqin etilishi tufayli oilada gender tenglikning buzilishi, tazyiq va zo'ravonlikni sodir etilishiga olib keladi.

Oila kodeksining nikoh tuzish tartibi va shartlari 2-bobi 13-moddasida nikoh tuzish tartibi, nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida tuzilishi va diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh huquqiy ahamiyatga ega emasligi aniq ko'rsatilgan bo'lsada zamona viy jamiyatda tobora norasmiy (shar'iy) nikoh tuzishi ko'paymoqda. Bunday hollarda er va xotinni nihoyatda katta tuyg'ular va og'zaki kelishuv bog'laydi va qonuniy rasmiyatchiliklar unchalik muhim emas. Endi jamiyat insonning shaxsiy hayotiga nisbatan ancha bag'rikengroq, lekin bu norasmiy nikohlar tufayli yana ayol aziyat chekadi, chunki ko'p hollarda er o'z majburiyatlaridan voz kechib, oilani tashlab ketadi va yana ayol aziyat chekadi.

Bundan tashqari, "fuqarolik nikohi" hodisa sifatida allaqachon ijtimoiy institutning aniq tasavvurini egallagan va zamona viy sharoitlarda shaxsnинг ijtimoiylashuvi jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Bir ma'noda, "fuqarolik nikohi" ning mavjudligi bilan yoshlar orasida noto'g'ri xulq-atvorning elementlari mavjud bo'lib, bu o'zgaruvchan jamiyat uchun xarakterlidir, bu yerda butun ijtimoiy normalar tizimi qayta ko'rib chiqiladi. Bunday vaziyatda odamga normativ xulq-atvor chizig'ini tanlash qiyin bo'lishi mumkin.

Axloqiy me'yorlar ko'plab shaxslar bajarishni istagan ba'zi bir harakatlarni amalga oshirishni taqiqlaydi, deviant xulq-atvorning yana bir hodisasi paydo bo'ladi – oqlanish normalari. Bular madaniy modellar bo'lib, ularning yordamida odamlar har qanday taqiqlangan istak va harakatlarning amalga oshirilishini mavjud axloqiy me'yorlarga ochiq qarshi chiqmasdan oqlaydilar.

Boshqa tomondan, deviant xatti-harakatlar madaniyatni ijtimoiy o'zgarishlarga moslashtirishning bir usuli hisoblanadi. Yangi madaniy me'yorlar kamdan kam hollarda ijtimoiy guruhlarning barcha a'zolari tomonidan muhokama qilish va qabul qilish yo'li bilan yaratiladi. Yangi ijtimoiy me'yorlar shaxslarning kundalik xatti-harakatlari natijasida, doimo paydo bo'ladigan ijtimoiy sharoitlar to'qnashuvida tug'iladi va rivojlanadi. Kichkina, juda ko'p sonli shaxslarning eski, odatiy xatti-harakatlar me'yorlaridan chetga chiqish yangi normativ modellarni yaratishda boshlanishi bo'lishi mumkin. Asta-sekin, yangi hayotiy me'yorlarni o'z ichiga olgan an'ana va deviant xatti-harakatlar odamlarning ongiga tobora ko'proq kirib bormoqda. "Fuqarolik nikohi" ham istisno emas.

Odamlarni oilaviy guruhlarga birlashishga undashning asosiy sabablari insonning ehtiyojlari. Inson ehtiyojlari tarkibi fiziologik bo'linadi; ekzistensial ehtiyojlar (mavjudlik xavfsizligi uchun); ijtimoiy ehtiyojlar (aloqada); obro'li ehtiyojlar (tan olinishi uchun); ma'naviy ehtiyojlar (o'zini anglash uchun). Buni tan olishimiz yoqimli yoki yoqimsiz bo'lsin, "fuqarolik nikohi" ijtimoiy muhit tomonidan sanksiya qilingan ushbu normal ehtiyojlarning barchasini qondirishga xizmat qiladi.

Jinslarning qarama-qarshi tomoni, E.Dyrkgeymning fikriga ko'ra, nafaqat nikoh uyushmasi quriladigan asosiy poydevor, balki oilada axloqiy yaqinlikning asosiy sababi hamdir. Oilaviy va nikoh munosabatlarning barqarorligiga ta'sir kuchi jihatidan u qarindoshlik kabi omillardan ham kuchliroqdir. E. yurkgeym gender munosabatlarni mehnat taqsimoti nuqtayi nazaridan tahlil qiladi⁶². "Fuqarolik nikohi" hodisasining hozirgi holati, uni uzlusiz institutsionalitsiya qilish jarayoni haqida mulohaza yuritib, shuningdek, ijtimoiy institutlarni ijtimoiy munosabatlар va aloqalar takror namoyon bo'ladi. Shu munosabat bilan, "fuqarolik nikohi" instituti jamiyat talab qilgan paytgacha mavjud bo'ladi.

"Fuqarolik nikohi" (birgalikdagi yashash) psixologik muammo sifatida emas, balki qonuniy muammo hisoblanadi. Rasmiy, chinakam fuqarolik nikohining yo'qligi er-xotinning hayotiga salbiy ta'sir qiladi, chunki turmush o'rtoqlar va ularning farzandlarining mulkiy va boshqa huquqlari himoya qilinmaydi. Shu bilan birga, "fuqarolik nikohi" deb nomlangan oilaning o'ziga xos psixologik xususiyatlaridan biri – bu "ayol – uy bekasi, erkak – boquvchi", "byudjetni bo'lishish kerak", "tur mush o'rtog'ining barcha qarindoshlariga yoqishi kerak" va boshqalar kabi ijtimoiy stereotiplardan ozod qiladi.

⁶² Диркгейм Э. О разделении общественного труда. – М., 1991.

Birgalikda yashaydigan ko‘plab yoshlarga qonun nuqtayi nazaridan katta xavf tug‘diradi. Ammo shunga qaramay, rasmiy nikoh odamlar o‘rtasida ko‘proq ishonchni ta’minlaydi, bo‘sh munosabatlar shaxsiy aloqalar orqali ko‘proq bog‘liqdir. Ro‘yxatdan o‘tmasdan birgalikda yashash holatlarida katta erkinlik va ma’naviyat to‘g‘risida bahslar ham unchalik barqaror va ishonchli emas. O‘zaro munosabatlarni rivojlantirishning salbiy va ijobjiy variantlari ma’lum. Shunday qilib, birgalikda yashash oilaning qiymatini yo‘q qilishmi yoki umuman axloqiy tanazzulmi yoki demografik siyosatga o‘z hissasini qo‘sib, oilani saqlab qolish uchun xizmat qiladigan vosita bo‘ladimi?

Oila instituti tanazzulga yuz tutadimi, “fuqarolik nikohi” buning tasdig‘i emasmi, degan savol tug‘iladi. Oila kelajakda - erkak va ayol o‘rtasidagi baxt, ularning farzandlari va nabiralarining to‘laqonli tarbiyasi va yangi avlodlarning ko‘payishi uchun zarur bo‘lgan sheriklik sifatida qolsa, bu oila deb nomlanadimi yoki boshqa nom bilan ataladimi?

Bugungi kunda olimlar bir tomonidan, biron bir ijtimoiy evolyusiya oila uchun xavfli, boshqalari esa oila boshqa ijtimoiy institutlar singari modernizatsiya jarayonida ekanligiga aminlar, buni fojeaga aylantirish kerak emas, deb hisoblaydilar.

Oila va oilaviy munosabatlar qaysi nikoh turiga asoslanishidan qat’i nazar gender munosabatlar va oilani alohida ko‘rib chiqish mumkin emas, chunki oilaviy qadriyatlar muqarrar ravishda gender qadriyatlarning rolini o‘ynaydi. Shu sababli oilaviy munosabatlar tahlilini gender vakillariga murojaat qilmasdan o‘rganish mumkin emas. Masalan, ajralish kabi ijtimoiy hodisada rossiyalik tadqiqotchilarining fikricha ayollarning ma’lumoti yetarlicha yuqori bo‘lganida, oilaviy qarorlarni qabul qilishda ishtirok etishini qadranganida, ayollar ajralish haqida ko‘proq, albatta, resurslari kam va o‘zini o‘zi qadrlashi past bo‘lgan ayollar ajrashish haqida kamroq o‘ylashar ekan. Shunday qilib, oilaviy munosabatlar psixologiyasida gender yondashuvidan foydalanish oilaviy psixologiyadagi psixologik tadqiqotlarni tahlil qilishda analitik vosita sifatida xizmat qiladi.

Narimbayeva Lola Kuzibaevna,
TVChDPI Maktabgacha ta’lim kafedrasи o‘qituvchisi,

Dexqonboyev Shoxrux Mo‘minjon o‘g‘li,
*TVChDPI Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda
jismoniy tarbiya va sport talabasi*

IQTIDORLI BOLALARNI IZLASH, ANIQLASH VA QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Maqolada iqtidorli, qobiliyatli, yuqori darajadagi aqliy koeffitsient (*IQ*)ga ega o‘quvchilarni o‘z vaqtida aniqlash muhimligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *IQ*, iqtidor, ixtiro, jamiyat taraqqiyoti.

Аннотация. В статье обсуждается важность своевременного выявления одаренных, талантливых учеников с высоким *IQ*.

Ключевые слова: *IQ*, талант, изобретение, социальное развитие.

Annotation. The article discusses the importance of timely identification of gifted, talented high *IQ* pupils.

Key words: *IQ*, talent, invention, social development.

Insoniyat o‘z ijtimoiy taraqqiyotining bugungi kuniga kelib, aql-zakovat yoki ijod mahsuli bo‘lgan g‘oya ham mulk ekanligini aniq va ravshan belgilab oldi. Intellektual mulk deb ataladigan boylik sohibi o‘z iqtidori, aql-zakovati bilan buyuk ijod namunalarini, ixtirolarni yaratadiki, bu, o‘z navbatida, insoniyat va jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi asosiy omil hisoblanadi.

Har qaysi insonda muayyan darajada intellektual salohiyat mavjud. Agar shu ichki quvvatning to‘liq yuzaga chiqishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoit yaratilsa, har qaysi inson Olloh taolo ato etgan noyob qobiliyat va iste’dodini, avvalo, o‘zi uchun, oilasining, millati va xalqining, davlatining farovonligi, baxtsaodati, manfaati uchun to‘liq baxshida etsa, bunday jamiyat shu qadar kuchli taraqqiyotga erishadiki, uning sur’at va samarasini hatto tasavvur qilish ham oson emas” – degan edi. Bu teran fikr, hayotiy mantiq mamlakatimizda iqtidorli yoshlar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, ularning ta’lim-tarbiyasiga berilayotgan e’tiborda o‘z ifodasini topmoqda. Oldindan qilingan bu bashoratning yaqin orada haqiqatga aylanmog‘i muqarrar, bu ishonch O‘zbekiston kelajagining buyukligiga bo‘lgan ishonch bilan uyg‘unlashib ketadi.

Iqtidorli bolalar, ularning ta’lim-tarbiyasi to‘g‘risida gap ketganda, ko‘pincha “Qanday bolani iqtidorli deyish mumkin?” degan savol ham tug‘iladi. Iqtidor tushunchasi ko‘p qirrali va uning qoidasi turli-tuman. Bu qoidalarni umumlashtirib psixolog olimlar ko‘pincha iqtidorni yuqori darajada rivojlangan qobiliyat, yuqori darajadagi aqliy koeffitsiyent (IQ) deb, izohlashadi. Aytish kerakki, iqtidorni o‘rganish jarayonining boshlanganiga bir asrdan uzoq vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, unga aniq yoki to‘liq asoslangan ilmiy ta’rif berilmagan. Shuning uchun “iqtidor tabiat in’omimi yoki ta’lim va tarbiyaning samarasimi?”, degan savol nafaqat bizning mamlakatimizda, balki butun dunyoda ham olimlarni, ham tarbiyachi-pedagoglarni o‘ylantiradi⁶³.

Amerika qo‘shma shtatlari ta’lim qo‘mitasi 1972-yilda shunday qoidani tavsiya etgan: “o‘zining oliv darajada rivojlangan qobiliyatlarini namoyon etib, u yoki bu faoliyatda yuqori natijalarga erishgan yoki shunga erishish imkoniyatiga (layoqatiga) ega bo‘lgan bolalarni iqtidorli va talantli deyish mumkin”. Amerikada bunday bolalar istiqboli faoliyatida erishgan natijalari va bir yoki bir necha soha (aqliy, akademik, ijodiy, badiiy, muomala va liderlikka intilish, harakat)ga bo‘lgan layoqat, imkoniyat, qobiliyatlar asosida aniqlanadi. Makur yo‘nalishlar bo‘yicha iqtidorli bolalar uchun maxsus dasturlar (ko‘pincha individual dasturlar) tayyorlanib, bunday bolalarga asosan maxsus maktablarda emas, oddiy maktablardagi ixtisoslashtirilgan guruhlarda ta’lim-tarbiya beriladi. Fransiya, Germaniya maktablarida ham iqtidorli bolalar maxsus tayyorlangan psixofiziologik, psixologik-intellekt testlari yordamida saralanadi. Bu mamlakatlarda iqtidorli bolalar uchun maxsus maktablar tashkil etilgan bo‘lsa-da, oddiy maktablarda ham ular uchun ixtisoslashtirilgan guruhlar mavjud.

Dunyoda iqtidorli bolalarni tanlash uchun Raven, Kettel (culture-fair intelligence), Veksler intellekt testlaridan foydalaniladi. Bu metodikalar madaniy muhit ta’siriga bog‘liq bo‘lmaganligi va noverbal (so‘z ishlatilmaydi) bo‘lganligi uchun juda keng tarqalgan. Mazkur metodikalarning O‘zbekiston muhitiga moslashtirilgan variantlari O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis Markazida mavjud. Hozirgi kunda 200 taga yaqin, fanlar chuqur o‘rgatiladigan ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarda tashxis Markazlari mutaxassislari Raven, Kettel metodikalari yordamida iqtidorli bolalarni tanlash ishlarini amalga oshirmoqdalar. Bundan tashqari, Respublika Tashxis Markazi mutaxassislari tomonidan mazkur maktablarga iqtidorli va qobiliyatli o‘quvchilarni tanlash bo‘yicha 3 ta psixologik metodikalar majmuasi ishlab chiqilib, amalga tadbiq etilgan. Shuningdek, o‘quvchilarning umumiyligi aqliy qobiliyatlarini bilan birga, 5 ta akademik yo‘nalish (ijtimoiy-gumanitar, aniq, tabiiy fanlar, xorijiy tillar va san’at-nafosat) bo‘yicha ham maxsus qobiliyatlarni o‘rganish uchun psixologik tashxis metodikalari tayyorlandi.

Barcha Tashxis Markazlarida “iqtidorli bolalar banki” tashkil etilgan bo‘lib, mazkur tanlovlarda eng yuqori aqliy rivojlanganlik darajasini ko‘rsatgan o‘quvchilar kiritilgan⁶⁴.

Respublika Tashxis Markazi mutaxassislari tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalari, hozirgi kunda 6-16 yosh davridagi bolalarning o‘rtacha 3-5 foizi yuqori darajadagi aqliy koeffitsiyent (IQ)ga ega ekanligini ko‘rsatmoqda. Biz o‘z tadqiqotlarimizda “iqtidor” tushunchasini yuqori darajada rivojlangan qobiliyat sifatida o‘rganmoqdamiz. Shu o‘rinda aytish lozimki, ko‘pincha, hatto mutaxassislar ham iqtidor va iste’dod tushunchalarini bir ma’noda talqin etishadi. Bizningcha, iqtidor shaxsning individual-psixologik xususiyati bo‘lib, u faqat akademik faoliyat yoki aqliy-nazariy faoliyatda namoyon bo‘ladi. Iste’dod esa aqliy-ijodiy faoliyatda namoyon bo‘ladigan individual-psixologik xususiyatdir. Albatta, bu xususiyatlar har bir insonning faqat o‘ziga xos bo‘lganligiga va tabiiy shartlanganligiga qaramasdan, alohida e’tibor va ta’lim-tarbiyani talab etadi. Shuning uchun ham, iqtidorli, iste’dodli bolalarni tanlab, ularni yanada rivojlantirish uchun

⁶³ Усманова М.Н. Педагогической тестированийе. – Тошкент: Адолат, 1995

⁶⁴ Нишонова Т.. Мустақил ижодий фикрлаш. – Тошкент: Фан, 2003. -114 б

yeterli shart-sharoit hamda intellektual, ijodiy muhit kerak bo‘ladi. Chunki har qanday iqtidor va iste’ dod faqat o‘zi tegishli bo‘lgan soha faoliyati jarayonida rivojlanadi va namoyon bo‘ladi.

O‘quvchilarning iqtidor va iste’ dodlari fanlardan olgan “a’lo” baho bilan emas, ko‘proq miyada kechadigan aqliy jarayonlarning mahsuldarligi bilan o‘lchanadi. Psixologik intellekt testlari o‘quvchining u yoki bu fandan bilimini emas, umumiy aqliy qobiliyati va o‘zi tanlagan soha bilan shug‘ullana olish layoqati, imkoniyatini aniqlab beradi. O‘quvchi umumiy o‘rta ta’lim fani (“umumiy o‘rta”ga e’tibor bering) bo‘yicha imtihonda “besh” baho olsa-yu, shu soha bo‘yicha intellektual yoki ijodiy qibiliyati bo‘lmasa, uning keyingi faoliyati unumdorligi past bo‘ladi. Oxir oqibatda bunday kishi tanlagan sohasidan bezibgina qolmay, jamiyat uchun ham hech qanday foyda keltirmaydi.

Yana shuni qayd etish lozimki, iqtidorlilikni faqat shaxsning aqliy imkoniyati sifatida tasniflash uni tadqiq etishda bir tomonlamalikka olib keladi. Chunki iqtidorlilik nafaqat aql, balki shaxs tuzulmasining barcha komponentlarining uyg‘un va yuqori darajada rivojlanganligi bilan izohlanadi. Demak, iqtidor faqat aqlga emas, balki shaxsga tegishli. Iqtidorli kishi deganda biz har tomonlama rivojlangan shaxsni nazarda tutamiz. Kimsidir o‘z qobiliyati bilan, boshqa birov o‘z xarakteri va tashqi olamni o‘ziga xos idrok etishi bilan iqtidorli bo‘lishi mumkin. Ayrim holatlarda biz o‘z tengdoshlaridan rivojlanishda o‘zib ketgan bolalarni iqtidorli deymiz. To‘g‘ri, bunday bolalar qobiliyatli, lekin shunday bolalar ham borki, ular noandoza fikrashi, voqeа va hodisalarni g‘ayrioddiy talqin etishi bilan iqtidorli hisoblanadi. Bunday bolalar ko‘pincha tarbiyachilar, o‘qituvchi va ota-onalar uchun “qiyin” va ularni tarbiyalash ham og‘ir kechadi. Ayniqsa, o‘qituvchilar bunday bolalar xatti-harakatini baholashda, uning boshqa bolalarga o‘xshamaydigan g‘ayrioddiy harakatlarini qabul qilishda qiynalishadi. Aytish kerakki, bolaning rivojlanishi o‘ziga xos qonuniyat asosida kechadi va o‘zining ichki mantiqiga ega bo‘ladi. Ichki mantiqni tushunishda quyidagi konsepsiya asoslanish lozim. O‘z-o‘zini boshqaruvchi individ rivojlanish jarayonida shunaqa xususiyatlarga ega bo‘lib boradiki, bu xususiyatlar bir so‘z bilan aytganda na ichki, na tashqi jihatdan shartlanmagan. Bu xususiyatlar tashqi va ichki ta’sirlarning uzviylashuvi bilan mushtaraklashadi. Boshqacha qilib aytganda, shaxsning rivojlanishi uning barcha qirralarini qamrab olgan holda yaxlit jarayon sifatida kechadi. Buni oddiy tilda izohlasak, hech kim shaxs bo‘lib tug‘ilmaydi, balki shaxs sifatida shakllanadi. Yosh davrlari davomida shaxs rivojlanishi bilan iqtidorning rivojlanishi uyg‘un kechishini ta’lim va tarbiyada albattra inobatga olish lozim bo‘ladi.

Ишанханова Гулнора Амановна,
самостоятельный соискатель
Ташкентского государственного
юридического университета

ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ СЕМЕЙНОГО НАСИЛИЯ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ МЕХАНИЗМЫ

Annotatsiya. Maqolada oilaviy zo ‘ravonlikning oldini olishning xalqaro va milliy mexanizmlari to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro hujjalarni ratifikasiya qilish, gender tenglikning konstitutsion jihatdan kafolatlanishi va boshqalar ushbu mexanizmlarning asoslari hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: zo ‘ravonlik, oilaviy zo ‘ravonlik, gender tengligi, xalqaro huquq, xalqaro konvensiyalar, ayollar diskriminatsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining inson huquqlari bo‘yicha milliy strategiyasi

Аннотация. В статье речь идет о международных и национальных механизмах предотвращения семейного насилия. Основами этих механизмов считаются ратификация международных документов по правам человека, конституционные гарантии гендерного равенства и др.

Ключевые слова: насилие, семейное насилие, гендерное равенство, международное право, международные конвенции, дискриминация в отношении женщин, национальной стратегии Республики Узбекистан по правам человека

Annotation. The article deals with international and national mechanisms for the prevention of domestic violence. The foundations of these mechanisms are considered to be the ratification of international human rights instruments, constitutional guarantees of gender equality, etc.

Key words: violence, domestic violence, gender equality, international law, international conventions, discrimination against women, national strategy of the Republic of Uzbekistan on human rights

Подавляющее большинство государств-участников подписали и ратифицировали Конвенцию ООН о ликвидации всех форм дискриминации в отношении женщин (CEDAW) (1), а также взяли на себя другие международные обязательства по защите женщин от насилия по гендерному признаку и поощрению гендерного равенства.

Международные конвенции и договоры могут предусматривать определенные обязанности. Государства, которые не только подписали, но и ратифицировали международные документы, юридически обязаны соблюдать их положения. К таким международным документам относятся:

Конвенция о ликвидации всех форм дискриминации в отношении женщин (CEDAW, 1979 г.) – конвенция по правам человека, соблюдение положений которой юридически обязательно для присоединившихся к ней государств.

Государства, присоединившиеся к Пекинской декларации и платформе действий (1995 г.), обязались «разрабатывать стратегии, призванные обеспечить условия, исключающие повторную виктимизацию женщин – жертв насилия в результате применения законов, судебных и правоохранительных мер, не учитывающих гендерные факторы ...» (2).

Всеобщая декларация прав человека (1948 г.) (3), Конвенция о защите прав человека и основных свобод (1950 г.) (4) установили запрет дискриминации по признаку пола. Международный пакт об экономических, социальных и культурных правах (5) и Международный пакт о гражданских и политических правах (6) возложили на государства обязанность обеспечить равное для мужчин и женщин право пользования всеми экономическими, социальными, культурными, гражданскими и политическими правами.

На международном уровне внимание должно быть направлено в первую очередь на механизмы реализации, предусматриваемые договорами о защите прав человека.

Республика Узбекистан ратифицировала Конвенцию CEDAW в 1995 году и приняла на себя обязательства по соблюдению положений договора, а также представлению каждые четыре года доклада о законодательных, судебных, административных или других мерах, принятых для выполнения её положений, и о прогрессе, достигнутом в этой связи.

Типовые стратегии и практические меры по искоренению насилия в отношении женщин в области предупреждения преступности и уголовного правосудия (ООН) призывают государства проводить обзор, оценку и пересмотр своих уголовно-процессуальных норм с тем, чтобы «женщины, подвергшиеся насилию, имели возможность давать показания в ходе судебного разбирательства наравне с другими свидетелями, и были приняты меры, способствующие даче таких показаний и защите неприкосновенности частной жизни» (8).

Резолюция Совета безопасности ООН № 1325 (2000 г.) (9) призывает государства к необходимости «уважения в полной мере международного гуманитарного права и норм в области прав человека, которые защищают права женщин и девочек», а также «принимать специальные меры для защиты женщин и девочек от обусловленного половой принадлежностью насилия».

Понятие ответственности государства за нарушения прав человека в последние годы значительно расширилось и теперь включает не только нарушения прав человека самим государством или его ведомствами, но также и злоупотребления со стороны частных субъектов. Государства несут позитивную обязанность за предупреждение, расследование преступлений, связанных с гендерным насилием и дискриминацией, и за вынесение наказаний за них. Государство, которое не может должным образом предупредить, расследовать или вынести наказание за злоупотребления, включая дискриминацию и насилие на гендерной почве, бытовое насилие и торговлю людьми, подлежит ответственности в рамках международного законодательства по правам человека.

К числу оснований, позволяющих признать должностное соблюдение данным государством своих обязательств в отношении проявлений дискриминации и насилия на гендерной почве (НГП), относятся

следующие: ратификация международных документов по правам человека; конституционные гарантии гендерного равенства; наличие национального законодательства и (или) административных санкций, предусматривающих выплату компенсаций жертвам НГП; нормативные документы или планы действий по борьбе с НГП; учет гендерных аспектов системой правосудия и правоохранительными органами; доступность и наличие услуг поддержки; осуществление мер, предусматривающих повышение осведомленности, и гендерную экспертизу нормативных документов; сбор данных и статистической информации по НГП.

Конвенция о ликвидации дискриминации в отношении женщин предусматривает механизм контроля за ее исполнением. От государств-участников требуется представлять в Комитет по ликвидации дискриминации в отношении женщин начальный и периодические доклады о работе, проделанной для достижения целей Конвенции.

Выполняя свои обязательства по представлению докладов в соответствии с договорами, государства проводят самооценку для определения того, насколько эффективно права человека осуществляются в их стране. Процесс сбора информации об осуществлении прав человека на национальном уровне является важным инструментом, помогающим правительствам планировать и реализовывать программы развития, основанные на правах человека. Узбекистан, будучи участником КЛДЖ, представляет свои периодические отчеты о прогрессе в сфере достижения гендерного равенства и защиты женщин от насилия.

Вот почему важным для выполнения международных обязательств стало принятие Узбекистаном 2 сентября 2019 года двух законов: «О гарантиях равных прав и возможностей для женщин и мужчин» и «О защите женщин от притеснения и насилия».

Законом «О защите женщин от притеснения и насилия» определены формы насилия (психологическое, физическое, половое и экономическое), даны понятия «жертвы притеснения и насилия», «притеснения» и «охранный ордера».

Защита от притеснения и насилия определена, как система неотложных мероприятий экономического, социального, правового, организационного, психологического и иного характера с целью устранения опасности, возникшей для жизни, здоровья женщин, обеспечения их безопасности при наступлении жизненных обстоятельств, требующих срочных мер, а также недопущения повторных противозаконных действий со стороны лица, притесняющего и совершающего насилие в отношении жертвы притеснения и насилия. А предупреждение притеснения и насилия названо системой экономических, социальных, правовых, медицинских и других мер, направленных на выявление и устранение причин и условий, способствующих притеснению и совершению насилия в отношении женщин, повышение осведомленности в обществе о правах женщин быть свободными от насилия.

Важно, что Закон подтверждает приоритет норм международного права над национальным. Так, в статье 2 Закона предусмотрено, что, «если международным договором Узбекистана установлены иные правила, чем те, которые предусмотрены законодательством Республики Узбекистан о защите женщин от притеснения и насилия, то применяются правила международного договора».

Подтверждая приверженность соблюдению своих международных обязательств, Указом Президента Республики Узбекистан № УП-6012 от 22.06.2020 г. «Об утверждении национальной стратегии Республики Узбекистан по правам человека» предусмотрено, что в целях дальнейшего совершенствования механизма защиты прав и свобод человека, обеспечения исполнения Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах, а также эффективной и своевременной реализации задач, определенных в Послании Президента Республики Узбекистан Олий Мажлису от 24 января 2020 года, одними из основных направлений деятельности государственных органов и организаций Республики Узбекистан, ответственных за выполнение норм международных договоров по правам человека, определено: обеспечение безусловного выполнения национальных планов действий («дорожных карт»), направленных на реализацию рекомендаций международных организаций по защите прав человека; выявление, анализ, а также устранение причин и условий, препятствующих выполнению рекомендаций уставных органов и договорных комитетов по правам человека ООН, путем разработки и реализации мер, направленных на совершенствование законодательства и правоприменительной практики; осуществление эффективного сотрудничества с Общественной палатой при Президенте Республики Узбекистан и институтами

гражданского общества в области выполнения международных обязательств Республики Узбекистан по правам человека.

Актуальным остаются вопросы совершенствования системы реагирования государством на факты притеснений и насилия в отношении женщин. Следует продолжить работу над внесением изменений и дополнений в действующее в данной сфере законодательство, предусматривающих расширение полномочий суда по принятию ограничительных мер в отношении агрессора и коррекции его поведения, а также мер наказания за совершенное насилие, в том числе насилие в семье.

Из практики Европейского суда, на которую может ссылаться и Комитет ООН по правам человека, куда вправе подавать индивидуальные сообщения из Узбекистана, так как ратифицирован Факультативный протокол к Международному пакту о гражданских и политических правах, можно привести в качестве примера Дело «Володина против России» (Жалоба № 41261/17, ПОСТАНОВЛЕНИЕ ЕСПЧ, СТРАСБУРГ, 9 июля 2019 года в составе 7 судей). Европейский суд в своём решении указал:

В рамках исполнения настоящего постановления следует провести следующие реформы материального и процессуального законодательства: (1) Закон должен определять домашнее насилие как отдельный состав уголовного преступления.

(2) Установленное законом уголовное наказание за домашнее насилие должно быть равносильно наказанию за самые серьезные формы физического насилия при отягчающих обстоятельствах. (3) Закон должен предусматривать преследование домашнего насилия в порядке публичного обвинения и отражать «публичный интерес» в таком преследовании даже в тех случаях, когда женщина не подает жалобу или впоследствии отзывает ее.

(4) Закон должен устанавливать требование расследовать случаи домашнего насилия в срочном порядке и предусматривать механизм экстренных мер в контексте расследования случаев домашнего насилия и уголовного преследования виновных.

(5) Закон должен предусматривать возможность превентивного заключения под стражу лица, виновного в домашнем насилии, в случае такой необходимости.

(6) Закон должен содержать указание на необходимость профессиональной подготовки сотрудников судов, прокуратуры и полиции с тем, чтобы обеспечить эффективное применение вышеуказанных новых законодательных мер и признание гендерного равенства.

В своем докладе, принятом на тридцать первой сессии Совета по правам человека, проходившей с 29 февраля по 24 марта 2016 года (A/HRC/31/57), Специальный докладчик ООН по вопросу о пытках и других жестоких, бесчеловечных или унижающих достоинство видах обращения и наказания оценил применимость содержащегося в международном праве запрета пыток к уникальному опыту женщин. Он напомнил, что «всесторонний учет гендерных аспектов при любом анализе пыток и жестокого обращения имеет ключевое значение для того, чтобы нарушения, обусловленные дискриминационными социальными нормами, полностью признавались, искоренялись и исправлялись» (§ 6) и что «когда государство знает или ему следовало бы знать, что женщина в опасности, оно должно принять конкретные меры для обеспечения ее безопасности, даже если она сама не решается обратиться в суд» (§ 12).

Специальный докладчик отметил: «... Насилие в семье приравнивается к жестокому обращению или пыткам в тех случаях, когда государства попустительствуют запрещенному поведению, не обеспечивая защиту жертв и не пресекая запрещенные деяния в частной сфере, о которых государство знало или должно было знать... В соответствии с международным правом государства несут ответственность за пытки, когда в силу безразличия, бездействия или пассивности прокуратуры либо судебных органов не проявляют должного усердия для обеспечения защиты от подобного насилия или узаконивают насилие в семье, например, разрешая мужьям «наказывать» своих жен или не квалифицируя в качестве уголовного преступления изнасилование в браке и другие деяния, которые могут представлять собой пытку.

...Оправдание государствами насилия в семье и терпимое отношение к нему, о чем свидетельствует дискриминационная неэффективность судебной системы – в частности, отсутствие расследования, судебного преследования и наказания виновных, создают благоприятствующую домашнему насилию обстановку и равносильны отказу жертвам в правосудии, что может быть приравнено к постоянному нарушению государством прав человека».

Есть положительный пример, когда международные обязательства повлекли за собой изменения в национальном законодательстве Республики Молдовы. Так, например, в рамках выполнения своих международных обязательств по Конвенции CEDAW Республика Молдова дополнила Уголовный Кодекс новым составом преступления:

Статья 201-1. Насилие в семье

«(1) Действие или бездействие, намеренно совершенное одним членом семьи по отношению к другому члену семьи, выразившееся в:

- а) нанесении побоев, совершении иных насильственных действий, сопряженных с легкими телесными повреждениями или иным незначительным вредом здоровью;
- б) изоляции, запугивании в целях навязывания воли или личного контроля над жертвой;
- с) лишении экономических средств, в том числе средств к существованию, пренебрежении, причинении жертве легких телесных повреждений или иного незначительного вреда здоровью, наказывается неоплачиваемым трудом в пользу общества на срок от 150 до 180 часов или лишением свободы на срок до 3 лет.

(2) Деяния, предусмотренные частью (1):

- а) совершенные в отношении двух или более членов семьи;
- б) совершенные в связи с запросом или применением мер защиты;
- с) повлекшие причинение телесного повреждения средней тяжести или иного средней тяжести вреда здоровью,

наказываются неоплачиваемым трудом в пользу общества на срок от 180 до 240 часов или лишением свободы на срок от одного года до 6 лет.

(3) Деяния, предусмотренные частями (1) и (2):

- а) повлекшие причинение тяжкого телесного повреждения или иного тяжкого вреда здоровью;
- б) повлекшие самоубийство или попытку самоубийства, наказываются лишением свободы на срок от 6 до 12 лет.

(4) Деяния, предусмотренные частями (1) или (2), повлекшие причинение тяжкого телесного повреждения или иного тяжкого вреда здоровью, повлекшие смерть жертвы, наказываются лишением свободы на срок от 12 до 15 лет».

Важно, что Молдова выполнила требования Конвенции и криминализировала насилие в семье, а также предусмотрела уголовную ответственность не только за физическое, но и за психологическое, экономическое насилие; за насилие, совершенное в связи с применением мер защиты, например, за насилие в связи с выдачей охранного ордера либо в связи с принятием запретительного приказа суда.

Данный опыт важен тем, что Узбекистану предстоит выполнить пункт 9 Перечня тем и вопросов, касающихся Шестого периодического доклада Узбекистана, согласно которому КЛДЖ просит указать, какое учреждение отвечает за исполнение Закона «О защите женщин от притеснения и насилия» (2019 год), и какие меры были приняты для обеспечения его эффективного осуществления; сообщить о планах по установлению прямой уголовной ответственности за все формы гендерного насилия в отношении женщин, в том числе за семейно-бытовое насилие и изнасилование в браке, проведению расследований и судебных преследований *ex officio* и включению в Уголовный кодекс определения изнасилования и других форм сексуального насилия, основанного на отсутствии согласия, а не принуждения.

В рамках Проекта «Укрепление гражданского общества в целях продвижения, защиты и расширения прав и возможностей женщин в Узбекистане», реализуемого совместно ННО Центр поддержки гражданских инициатив (ЦПГИ) и Агентством технического сотрудничества и развития Франции ACTED при поддержке Европейской комиссии в начале 2021 года было проведено исследование на тему: Анализ действующего законодательства и правоприменительной практики по вопросам гендерного насилия в Узбекистане.

В ходе опроса фокус-группы: специалистов государственных органов и ННО были получены данные, подтверждающие, что имеются определённые проблемы с пониманием и применением законодательства:

Так, например, на вопрос “В каких случаях виновное в совершении насилия лицо привлекается к административной или уголовной ответственности?” большинство ответов связывают возбуждение административного и уголовного дела с причинением телесных повреждений – 13%, вида совершенного насилия: физическое и сексуальное – 11%; степени тяжести причиненных телесных повреждений – 10%; связывают возбуждение дела с обращением жертвы в правоохранительные органы – 16%, но указывают, что и прокурор может и самостоятельно возбудить преследование, если причинены тяжкие телесные повреждения – 11%, однако, в действительности УПК предусматривает обязанность прокурора возбудить уголовное дело без жалобы потерпевшей, если она ввиду беспомощного состояния, зависимости от обвиняемого или по иным причинам неспособна сама защищать свои права и законные интересы⁶⁵.


Опрос показывает, что имеется заблуждение по поводу возможности возбуждения преследования виновного только после оформления охранного ордера – 5%, хотя выдача охранного ордера не является обязательным условием возбуждения административного или уголовного дела.

Ответы подтверждают тот факт, что безнаказанными остаются такие виды насилия, как психологическое, экономическое. За эти виды насилия никакого вида наказания не предусмотрено. Имеются только меры воздействия в виде профилактической беседы, выдачи охранного ордера, размещения в специальные центры.

На вопрос “Какая работа проводится с лицом, совершившим насилие?” превалирующее большинство опрошенных специалистов упоминают коррекционные программы – 79%, небольшое число говорят о привлечении их к ответственности – 7%; очень незначительная часть упоминает проведение профилактической беседы – 2%; и достаточно много опрошенных упоминают меру, которая пока в законодательстве не предусмотрена – предупреждение суда о возможном выселении – 21%.

На вопрос “Влияет ли выдача охранного ордера на профилактику насилия?” больше половины опрошенных отмечают эффективность выдачи охранного ордера – 56%, еще 37% свидетельствуют о том, что влияет не всегда, а в некоторых случаях; только 2 % считают, что вовсе не влияет. 5% не знают ответа на данный вопрос.

Зўравонликнинг олдини олишга ҳимоя ордени берилиши таъсир кўрсатадими? (%)



Среди тех, кто считает, что выдача охранного ордера не влияет на профилактику насилия голоса опрошенных разделились по многим вопросам поровну. Например: 19% опрошенных считают, что выдача охранного ордера влияет на предотвращение насилия в семье, так как предотвращает более тяжкие последствия. Одновременно столько же опрошенных – 19% – считают, что агрессор не признаёт охранный ордер, как наказание. Многие высказали опасения за продолжение насилия пока не будут приняты меры наказания – 6%; в том числе путем увеличения размера штрафов – 13%; что в связи с его выдачей есть опасения увеличения насилия, особенно потому, что агрессор и жертва продолжают жить вместе и часто насилие продолжается под влиянием алкоголя и др. средств – 12%;

⁶⁵ УПК РУз, Статья 325.Возбуждение уголовного дела по жалобе потерпевшего

достаточно большое число опрошенных опасаются, что насилие будет продолжено после окончания срока действия охранного ордера – 13%.

Это свидетельствует, что нужно продолжить совершенствование системы мер воздействия и наказания на виновного, с учетом совершается ли насилие впервые или носит систематический характер, тяжести последствий. Самое главное – это обеспечить реализацию принципа неотвратимости наказания, где будет учтён голос жертвы о том, что она хочет сохранить свою семью, но при этом будет установлен достаточно серьёзный контроль над изменением поведения агрессора, когда он исправляется либо игнорирует меры воздействия или наказания, прекращает насилие либо продолжает его. И тогда важно, чтобы агрессор знал, что после предоставления шанса на исправление повторное совершение акта насилия общество и государство не прощает.

На вопрос “Есть ли у Вас предложения по совершенствованию законодательства о защите женщин от насилия?” положительно ответили по следующим рекомендациям:

- дополнить УК новым составом преступления “домашнее насилие” поддержали – 37%;
- дополнить в статью 206-1 КоАО в качестве наказания за нарушение условий охранного ордера общественные работы – 35%;
- усилить ответственность агрессора за совершение бытового насилия, а также взыскивать с виновного причиненный потерпевшим ущерб и вред – 49%;
- службы, осуществляющие работу по коррекции поведения агрессора, должны представлять в суд отчеты о результатах её прохождения – 28%;
- расширить полномочия ННО в оказании помощи и поддержки жертвам насилия – 51%;
- усилить взаимодействие и сотрудничество гос. органов и ННО – 51%;
- дополнить полномочия юристов специальных центров правом на сопровождение в правоохранительных органах и судах – 37%;
- с целью предотвращения насилия предоставить суду полномочия предупреждать агрессора о возможном выселении из жилого помещения независимо от того, является ли он собственником или нет, а также в необходимых случаях высылать – 28%;

Небольшое число опрошенных отметили, что в случае предупреждения агрессора о выселении и выселении по решению суда, насилие после его возвращения будет усиливаться – 2%.

Вызывает интерес ответы опрошенных жертв насилия.

Так, на вопрос: Что Вы понимаете под притеснением и домашним насилием? ответы показали, что опрошенные жертвы насилия понимают, что такое притеснение и насилие. Если систематизировать ответы опрошенных жертв насилия, то можно убедиться, что им известны все виды насилия:

А. физическое насилие: нанесение телесных повреждения различной степени тяжести – 53%, о чём знают более половины опрошенных; избиение детей – 2%

В. психологическое насилие, которое проявляется в широком спектре действий, унижающих достоинство человека, его родственников, направленных на установление контроля и подавление воли жертвы: оскорбление, клевета, угрозы отмечены достаточно большим числом опрошенных, как формы притеснения и насилия – 57%; ограничение воли также отмечено более половиной жертв – 53%; запугивание и угнетение, дискриминация (дискриминация родственников) – 21%; многожёнство и незарегистрированный брак – 21%; подозрение в измене, сильная ревность – 13%; принудительный брак – 6%; запрет видеться с родителями – 2%

С. Экономическое насилие: запрет учиться и работать – 13%, очевидно, что жертвы знают об этой форме насилия, которая делает жертву зависимой от агрессора из-за отсутствия средств к существованию; еще одна форма экономического вида насилия – это выселение либо угроза выселения из жилого помещения – отмечается большей половиной опрошенных – 53%, что подтверждает наличие данной проблемы, когда жертва насилия остаётся либо может остаться без крыши над головой; более 1/3 опрошенных отмечают такую форму экономического вида насилия, как ограничение в еде, одежде и деньгах – 32%, и это часто может затронуть детей, делает членов семьи уязвимыми и зависимыми от агрессора.

Д. Половое насилие и насилие в репродуктивной сфере: достаточно большое число опрошенных отметили принуждение к вступлению в половую связь, понимая, что это является насилием – 32%; среди опрошенных жертв насилия имеется не очень высокий уровень осведомленности о том, что

запрет использовать контрацептивы также является насилием и затрагивает репродуктивные права – 11%

На вопрос: Что Вы понимаете под притеснением и насилием в отношении детей? подавляющее большинство жертв насилия отметили такие формы насилия, как: запугивание и угнетение – 81%; оскорбление, клевета, угрозы – 60%; причинение телесных повреждений различной степени тяжести – 55%; дискриминация, сексуальное домогательство, ограничение воли – 36%; ограничение в еде, одежде и деньгах – 34%; принуждение к вступлению в половую связь – 23%; запрет учиться – 17%; установление тотального контроля – 17%

Анализ показывает, что наиболее распространено психологическое и физическое насилие, однако, не менее важным является экономическое и сексуальное насилие.

Больше половины опрошенных жертв ответили, что насилие осуществляется со стороны мужа – 55%; при этом имеются жертвы, в отношении которых насилие осуществляется со стороны третьих лиц, например, со стороны свекрови – 17%.

Достаточно актуальным является применение процедуры медиации, введенной в практику, согласно Закону Республики Узбекистан «О медиации» от 03.07.2018 года, в качестве альтернативного способа урегулирования споров, конфликтов. Статья 3 Закона предусматривает, что «действие настоящего Закона распространяется на отношения, связанные с применением медиации к спорам, возникающим из гражданских правоотношений, в том числе в связи с осуществлением предпринимательской деятельности, а также индивидуальным трудовым спорам и спорам, возникающим из семейных правоотношений, если законом не предусмотрено иное».

Очевидно, что примирять семьи, где есть насилие, нельзя. Но применить медиацию для урегулирования споров, возникающих из семейных отношений, таких, как раздел имущества, взыскание алиментов, вопрос определения места жительства детей и др. между сторонами насильственного конфликта, можно и нужно. При этом, можно использовать институт представителей сторон, и вместо жертвы насилия на переговоры для принятия взаимовыгодного для них решения с помощью нейтрального, беспристрастного посредника – медиатора – приглашать доверенное лицо либо адвоката. Целесообразно Статью 10 Закона «О медиации» дополнить следующим положением: «При проведении медиации, если одной из сторон является жертва притеснения и насилия, участие её представителя является обязательным», чтобы исключить возможность эскалации конфликта и наступления тяжких последствий в виде продолжения насилия и повторной виктимизации.

Процесс совершенствования законодательства по противодействию домашнему насилию должен продолжаться с учетом положительного опыта других стран и международных стандартов, ставших частью национальной правовой системы Узбекистана. Необходимо помнить, что семья – это ячейка общества, где формируется правосознание будущего гражданина. Нельзя позволить, чтобы растущее поколение воспитывалось в атмосфере насилия, так как известно, что это негативно сказывается на личности ребенка и становится причиной продолжения насилия в его собственной семье. Вот почему важно, чтобы общество и государство продолжали работу над совершенствованием системы защиты от насилия.

Tovboyeva Muqaddam Safarovna,
Samarqand davlat universiteti
Psixologiya nazariyasi va amaliyoti
kafedrasi katta o'qituvchisi

OILADAGI NIZOLARGA DESPOTIZMNING PSIXOLOGIK TA'SIRI

Annotatsiya. Maqolada oilalarning o'zaro munosabatlarida despotizm holatlari oqibatida shaxs ruhiyatiga (psixik) ta'sir ko'rsatish, o'ziga bo'y sundirish shakllari xaqida ma'lumot berilgan. Muallifning fikricha oiladagi despotizm oqibatida oilaviy munosabatlarda buzilish kabi omillarning sabab sharoitlari, xulqda moyillik xususiyatlarini ilmiy amaliy jihatdan o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Kalit so'zlar: despotizm, zo'ravon hukmronlik, o'zboshimchalik, bezovtalik, tushkunlik.

Аннотация. В статье приводится информация о формах подчинения, влияющих на психику человека в результате деспотизма в семейных взаимоотношениях. По мнению автора, целесообразно научно и практически изучить причинные условия таких факторов, как разрыв семейных отношений в результате деспотизма в семье, особенности склонности в поведении.

Ключевые слова: деспотизм, насильтвенное господство, произвол, волнения, депрессия.

Annotation. The article provides information on the forms of subordination that affect the human psyche as a result of despotism in family relationships. According to the author, it is advisable to study scientifically and practically, the causal conditions of such factors as the rupture of family relations as a result of despotism in the family, and the peculiarities of propensity in behavior.

Key words: despotism, violent domination, arbitrariness, excitement, depression.

Jamiyatda oiladagi zo'ravonlik muammosining dolzarbligini past baholash tendensiyasi mavjudligining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish zaruratinini yuzaga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida: "Hech kim qynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas"⁶⁶ ligi to'g'risidagi qoidaning mustahkamlanganligi shaxsning hayoti, sog'lig'i va uning qadr-qimmati oliv qadriyat ekanligini ko'rsatadi.

Oiladagi despotizm o'z oila a'zolariga, hatto o'zaro munosabatlarida ham tanlov imkoniyatini bermaydi, uning oiladagi insonlariga nisbatan munosabati global va asossiz tug'iladi. Despotizm hamkorlik va boshqalarni hurmat qilish kabi tushunchalarini istisno qiladi, unda nafrat, dushmanlik, tushunmovchilik va yolg'izlikni o'ziga odat qilib oladi. Vaqt o'tishi bilan doimiy janjal va nizolar oila a'zolarining ruhiyatini sindiradi.

Oila muhitida despotizm yakka boshqaruvni amalga oshirishda jismoniy va psixologik kuchdan foydalanish orqali tartibni o'rnatish istagi bilan izohlanadi. Odatda, despotlar nazorat qilish uchun ko'proq imkoniyatga ega bo'lish uchun o'z galarning qadr-qimmatini butunlay yo'q qilishga harakat qilishadi. Garchi munosabatlarning dastlabki bosqichlarida, ular boshqalar haqida g'amho'rlik qilayotgandek o'zini tutsa ham. Oiladagi despotizm, uning a'zolariga tanlov bermaydi. Mehr-muhabbat, uni qabul qilish o'rniga, despot qo'rquv, nafrat, qasos, dushmanlikni ko'rsataverishi natijasida oilada yolg'iz qoladi.

Despotizm gender tafovutlarida erkaklar va ayollarda o'ziga xos xususiyat sifatida namoyon qiladi. Despotizm faqat erkaklarga xos xususiyat bo'lib tuyulishi mumkin, xuddi zo'rlash haqida gap ketganda, hamma darhol ayolni qurban deb biladi. Oiladagi zo'rlik – ayollar uchun jiddiy asoratlar olib keladigan ijtimoiy voqeylek. Zo'rlik davomli va shavqatsiz tarzda sodir etiladigan bo'lsa, chuqur va tuzalmas dardga aylanadi, bundan tashqari eng yomoni bunday zo'rlikka uchragan shaxs o'zining shaxsiyligini yo'qotadi⁶⁷.

Biroq ayollar ham ko'p jihatdan despotikdirlar. Ayollar rashk, shantaj, doimiy jazava, o'z joniga qasd qilish tahdidi, haqorat qilish va qadr-qimmatini kamsitish bilan erkakni psixologik tomondan qiyashga

⁶⁶ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2015.

⁶⁷ Семейное насилие. Женщина-жертва-преступница / Психология и правосовременной России. – 2010. – С.46-48.

qodir. Eng dahshatlisi shundaki, despotik ayolning harakatlari va so‘zlari nafaqat ta’sir, balki aql bilan ham boshqariladi. Despotik holat erkaklar va ayollarda o‘ziga xos xususiyat sifatida namoyon qiladi, ya’ni ular usullarni tanlashda biroz tashqi jihatdan bir-biridan farq qiladi.

Oilaviy munosabatlarda zulmkorlik, zolimlik, zo‘ravonlik harakatlarining sodir etilishi odatiy hol deb qabul qilinishi – nafaqat oilaga balki jamiyatga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Psixologiyada despotizm – bu o‘z ixtiyorli bilan, tortishish bilan emas, balki zo‘rlik bilan, tajovuzning namoyon bo‘lishi, qasddan foydalanish, tahqirlash, jismoniy va jinsiy zo‘ravonlik kabi xatti-harakatlardir. Odatda, bu xatti-harakatlarning sabablari bolalikdagi shikastlanishlar, komplekslar va qo‘rquvlari bo‘lib, odam shu kabi buzg‘unchi tarzda yengishga, o‘ziga ishonch va yaxlitlikni olishga harakat qiladi.

Despotik odam boshqalarning shaxsiy chegaralari va erkinliklari to‘g‘risida tushunchaga ega emas va uning oilasi deb hisoblanganlarni u mulk sifatida qabul qiladi, barcha harakatlari faqat yaqin kishisiga nisbatan o‘z tasarrufidagi, ungagina tegishli sifatida qaraydi.

Tabiiyki, bunday munosabat boshqalardan doimiy ravishda despotning talabini bajarish, shuningdek, uning hayot haqidagi tasavvurlariga qo‘shilish, oila a’zolari o‘zini qanday tutishi va his qilishi kerakligiga unga to‘liq mos kelib yashash kerakligini zaruratga aylantiradi. Despotik shaxs yaqin insoniga nisbatan talablari tizimi ortadi. Nazoratga olinmaydigan hissiy sohadagi agressiv xulq shaxsda zulmkorlik idrok etilmasligidan dalolat beradi. Bunday xatti-harakatlar muqarrar ravishda turli darajadagi nizolarni keltirib chiqaradi. Despot qurbanlari sifatida oila a’zolari o‘zlarining kuchsizligini sezganlarida sukul saqlaydilar, jumjilik bilan jimgina qarshilik ko‘rsatishadi, bu nafaqat qurbanning, balki zolimning ham ruhiyatini qaytarib bo‘lmaydigan darajada buzadi.

Oiladagi despotizm o‘z oila a’zolariga, hatto o‘zaro munosabatlarida ham tanlov imkoniyatini bermaydi. Vaqt o‘tishi bilan doimiy janjal va nizolar oila a’zolarining ruhiyatini sindiradi. Despotizm ko‘pincha xo‘rlik va qasoskorlik bilan yonma-yon yashaydi va agar boshqalarning kamshitilishi ozmi-ko‘pi aniq tendensiyalarga ega bo‘lsa, demak, inson o‘z ko‘ziga yaxshi ko‘rinishni boshlasa, u holda hammaga qaratilgan qasos global va asossiz bo‘lib tug‘iladi. Kuchli pozitsiyaga, o‘zini hurmat qilish va yuksaltirish istagiga qaramay, despotizm hamkorlik va boshqalarga hurmatni istisno qiladi.

Muammo shundaki, despot ruhiyatida qancha ko‘p qo‘rquv yashiringan bo‘lsa, uning boshqarish usullari shunchalik takomillashib boradi va despot shaxs tomonidan birovning erkinligini boshqarish istagi kuchayadi.

Despotizm ongsiz ravishda yo‘l qo‘ygan xatolari uchun boshqalardan qasos olish istagini shakllantiradi. Bolani haqorat qilish, xo‘rash, shafqatsiz jazo berish nafaqat ota-onasini, balki butun dunyon jazolash istagini keltirib chiqarishi mumkin, chunki u despotik holatni odatiy holat deb qaraydi. Ammo nafaqat qo‘pol muomala despotizmni rivojlantirish uchun zarur shart bo‘lib xizmat qilishi mumkin, shuningdek, bola shaxsiyatining o‘ziga xosligi, uning boshqalardan ustunlik holatlarini ham kuzatish mumkin. Bolalar uchun ota-onalarning fikri juda muhim bu o‘ziga xos munosabatni shakllantiradi, haqiqiy dunyoni tushunishga imkon beradi, ammo kimdir kamchiliklarni ochiqdan-ochiq masxara qilishi sababli stressni boshdan kechiradi.

Agar jamiyatda buzg‘unchilik holatlari ko‘p bo‘lsa zo‘ravonlik hissi va shaxs chegaralari despotizm xarakterning namoyon bo‘lishi sifatida qabul qilinishi yoki hatto hurmat qilinishi mumkin. Bolaligida qaram tip sifatida travmatizmga uchragan odamlar, hayotining keyingi davrida despotik va zolimlarga xos sifatlarni norma deb bilib, yana o‘zlarining erkinliklari qo‘pol ravishda buzilishini sezmaydilar. Despotizmning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bu jismoniy va psixologik zo‘ravonlikni o‘zini tutish normasi va munosabatlarni tartibga solish usuli sifatida qabul qilishdir. Bunday xususiyatlar despot bilan o‘zaro aloqada asosiy hisoblanadi, u amalda qanday qilib so‘rashni, muzokara olib borishni va murosaga kelishni bilmaydi.

Odatda, despotlar o‘zgalarning qadr-qimmatini butunlay yo‘q qilishga harakat qilishadi. Shuni ta’kidlash kerakki, despotik shaxs shafqatsiz muomala, qo‘poliklaridan zavqlanishi mumkin. Kamsitish va haqorat qilish boshqalar oldida odatiy holga aylanadi.

Oilada despot jufti va yaqinlarini uni sevishga undaydi. Despotizm hamkorlik va boshqalarni hurmat qilish kabi tushunchalarni istisno qiladi. Natijada, bunday shaxs nafrat, dushmanlik, tushunmovchilik va yolg‘izlikni o‘ziga odat qilib oladi. Boshqa odamlarga nisbatan bunday munosabat o‘zgalar xududiga egalik, psixologik masofani buzishni ham nazarda tutadi. Bundan tashqari egasining ixtiyoridan tashqari elektron pochtasini ko‘rish, o‘qish, uyali telefonidagi xabarlarni o‘qish kabi bosimlarni amalga oshirishida namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, bunday xulq-atvor ko‘rinishlari tufayli despotlarning qarindoshlari va do‘stlari astasekin uzoqlashadi, uning ijtimoiy doirasi cheklanadi, ular o‘zlarining fikrlarini baham ko‘radigan insoni bo‘lmaydi. Bu esa despotning xudbin va noroziligini yanada kuchayishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015.
2. Семейное насилие. Женщина-жертва-преступница / Психология и правосовременной России. – 2010. – С.46-48.
3. Файзиева М., Жабборов А. Оилавий муносабатлар психологияси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. –Б. 7.
4. Гребёнкин Ф.Б. Уголовно-правовое значение психологического насилия в преступлениях против собственности: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Москва, 2004. – С. 8.
5. Болаларга нисбатан зўравонлик бўйича бутунжашон ҳисоботи. – Тошкент, 2009. – Б. 64.
6. Шоумаров F.Б. Оила психологияси. – Тошкент, – Б. 151.

Shayakubov Shomansur Shakabulovich,
Candidate of Historical Sciences,
Senior Lecturer of the Department of
General Education and Culture,
Tashkent State University of Law

ENSURING GENDER EQUALITY – INCREASING THE RIGHTS AND OPPORTUNITIES OF WOMEN

Annotatsiya. Maqolada ayollarning turmush va moddiy sharoitlarini yaxshilash, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning davlat va jamiyatdagi rolini oshirish, ayollar, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari bandligini ta’minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalg qilish, oilalar poydevorini yanada mustahkamlash masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: gender siyosati, ayol, jamiyat, davlat, normativ-huquqiy hujjat, erkinlik, tenglik, ijtimoiy-iqtisodiy, milliy va madaniy hayot, ma’naviyat, ma’naviy meros, ish bilan ta’minlash, tadbirkorlik.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы улучшения жизненных и материально-бытовых условий женщин, повышения их социально-политической активности, усиления их роли в управлении государством и обществом, обеспечения занятости женщин, выпускниц профессиональных колледжей, широкого привлечение их к предпринимательской деятельности, к дальнейшему усилению основ семьи.

Ключевые слова: гендерная политика, женщина, общество, государство, нормативно-правовой акт, свобода, равенство, социально-экономическая, национально-культурная жизнь, духовность, духовное наследие, трудоустройство, предпринимательство.

Annotation. The article discusses the issues of improving the living and material conditions of women, increasing their socio-political activity, enhancing their role in government and society, ensuring the employment of women, graduating professional colleges, ensuring their wide involvement in entrepreneurial activities, to further strengthening the foundations families.

Key words: gender policy, woman, society, state, normative legal act, freedom, equality, social and economic, national and cultural life, spirituality, spiritual heritage, employment, entrepreneurship.

Since gaining independence and building a democratic state, Uzbekistan has embarked on the path of reforming its political and economic ideological institutions. The first President of the Republic of Uzbekistan

IA Karimov wrote: "No society can see its perspective without the development and strengthening of spiritual potential, spiritual, moral values in the minds of people" [1,131]. Since that time, a number of normative legal acts and program documents of the country have been issued, which enshrined the equality and freedom of women in all spheres of socio-economic and national-cultural life. Based on this, we understand that the cultural values of the people, their spiritual heritage for centuries have served as a powerful source of spirituality for the peoples of the entire East. On the initiative of I. Karimov, on December 27, 1991, the Women's Committee under the Cabinet of Ministers of the Republic was established, aimed at realizing the rights and freedoms of women, activating in the sphere of public life and effectively supporting the activities of women's public organizations.

In this regard, life dictates to us the need for a special attitude towards women, the search for a new approach to solving the women's issue, which will allow us to rethink the position of women in the mainstream of modern social practice. In our opinion, it is necessary to understand that for many years in our society they proceeded from the false idea that the women's question had been resolved once and for all, and thereby denied the dialectics of the social forward movement. The main task is to analyze the causes and consequences of the accumulated and emerging problems of this large social group in society. The imperative of our days is to see all the novelty of the processes actually occurring in economic, social, cultural life and the degree of their influence on a person.

Changes in economic practice, the transition to a dynamic economy put forward competitiveness as an important factor, since they entail liberation. In this regard, it is imperative to identify the degree of women's competitiveness and help them acquire it.

In recent years, there has been a massive influx of women into the economic, social, political and cultural life of the country. As a result, their high employment is observed, which requires society to take a fresh look at the social protection of women. In our opinion, it is important to analyze the process of social and professional integration, the study of labor problems in close connection with the study of the problems of its subject. The problem of the effectiveness of the existing system of training and retraining of women in the context of the scientific and technological revolution also arises with all the acuteness.

In modern conditions, it is important to raise the question of the relationship between the legally enshrined rights of women and the real opportunities to fully use them. The view of a woman, established in the public consciousness, has not yet been overcome, which views her as a labor force, forgetting that it is a woman who is the bearer and guardian of a new life - the most important universal value. Ultimately, this turns into colossal economic, spiritual and moral losses for society and is reflected in the generation it reproduces.

The belittling of the role of women in society leads to the fall of its culture as a whole, to the distortion of the spiritual and moral values of the individual. It is to this greatest issue that the President of the Republic of Uzbekistan pays attention to the "Strategy of Action in the Five Priority Areas of Development of the Country in 2017-2021", developed as a result of a comprehensive study of topical issues of concern to the population [2].

In the context of the implementation of the recommendations of the CEDAW Committee following the consideration of the national reports of Uzbekistan, as well as the State Program for the Implementation of the Strategy of Action in Five Priority Areas of Development of the Republic of Uzbekistan in 2017-2021 "Year of Dialogue with the People and Human Interests", it seems expedient to further improve legislation in order to activate participation of women in the management of the affairs of society and the state, provision of equal opportunities for access to the system of public administration, development of a national mechanism for the empowerment of women and implementation of ratified international treaties in the field of human rights.

President of the Republic of Uzbekistan Sh.Mirziyoyev, noting the need to improve their living and material conditions, draws attention to increasing the socio-political activity of women, strengthening their role in government and society, ensuring the employment of women, graduates of professional colleges, their wide involvement in entrepreneurial activities, to further strengthen the foundations of the family.

Society has often paid the price for the landing of the moral ideal, since the ideal elevates human existence or provides it. Each era had its own ideal of a woman. It can be argued that recently the stereotype of a woman's way and life of an inadequate reality and therefore does not allow one to approach the ideal has broken down in the public consciousness. The very public consciousness makes it difficult to break it.

We must admit that the way to get rid of illusions is not easy and difficult. But we will have to follow it, since there is an urgent need to overcome conservatism in assessing the state of the women's issue. Step by step, it is necessary to form a new attitude towards the problems of a woman's life, to look for ways to solve them, taking into account the whole range of changes in the complication of her role, function in the process of social and cultural progress of mankind.

The modern stage of social development has put forward the need for a theoretical rethinking of the nature of relations between women and society, the formation, on an interdisciplinary basis, of a modern concept of solving the women's issue that meets today's realities, modern social policy. In the XXI century, it is time to start developing ideology, politics, solving the women's issue, adequate to the trends of the times.

We cannot avoid the persistently sounding question about the role of women in society, about her mission, her moral and social responsibility before society and society before her. It is necessary that it be established not only in the scientific community, but also certainly among those directly involved in decision-making, including legislators-deputies, among the intelligentsia, influencing the mind-building of people, and the general public.

Such a problem of a global scale as the women's question cannot be solved once and for all, because it reflects many processes of social development.

One third of the world's developing countries have achieved gender equality in primary education. Girls have the opportunity to continue their studies at school, as well as help their girlfriends to empower and empower.

Women, in ensuring equal opportunities with men, are able to fight against unfounded, wrong opinions and ideas that can become an invisible obstacle against someone's will.

In order to achieve gender equality, men have the opportunity to build spiritual and moral relationships based on mutual respect and work together with women.

Women make up half of the world's population. This means that half of the human potential is in women. Today, gender inequality is causing the decline, recession in social development persists everywhere.

According to 2014 data, 143 countries of the world guaranteed equal rights for women and men in their constitutions, but 52 countries of the world have not yet had time to implement them. In 46 countries, over 30% of the seats in one chamber of the state parliament are held by women. It is not equality that increases with the growth of girls. Girls are more victims of early marriage than boys. Worldwide, about 15 million, 37 thousand girls under the age of 18 are married a day [3,17]. Early marriage even negatively affects girls' education. One third of developed countries still have not achieved gender equality in primary education. In Africa, West Asia and Oceania, girls face barriers to enrollment in primary and secondary education. Lack of education hinders the acquisition of a profession and also limits opportunities in the labor market.

The pandemic has also led to a steep increase in violence against women and girls. With lockdown measures in place, many women are trapped at home with their abusers, struggling to access services that are suffering from cuts and restrictions. Emerging data shows that, since the outbreak of the pandemic, violence against women and girls - and particularly domestic violence - has intensified [4].

The empowerment of women contributes to the acceleration of economic development and social progress. The involvement of women in all spheres of life would contribute to the growth rate of many countries of the world [5].

The empowerment of women contributes to the acceleration of economic development and social progress. The involvement of women in all spheres of life would contribute to the growth rate of many countries of the world [5].

Based on the above, there is a need to support, pilot and innovate to empower women to participate in socio-economic life. And also, assistance in the preparation of normative legal acts and analytical documents on the empowerment of women in accordance with international human rights treaties. It is necessary to increase the institutional capacity of the regional branches of the Women's Committee of Uzbekistan, the State Committee on Statistics, the Ministry of Employment and Labor Relations for the formation of gender-disaggregated statistics and the promotion of women's rights and opportunities.

References:

1. Каримов И.А. Узбекистан на пороге XXI века: угрозы безопасности, условия и гарантии прогресса. –Т.: “Узбекистан”, 1997.
2. Указ Президента Республики Узбекистан УП-4947 от 7 февраля 2017 года. “Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития страны в 2017-2021 годах”.
3. Bu dunyoni o‘zgartirishga yo‘naltirilgan 17 ta maqsad // O‘zbekistondagi BMT vakilligi. –T.: Baqtriya press, 2018.
4. <https://www.un.org/sustainabledevelopment/gender-equality>.
5. https://www.un.org/sustainabledevelopment/wp-content/uploads/2016/08/5_Why-It-Matters-2020.pdf



Oribboyeva D.,

NamDU katta o‘qituvchisi

OILADA ZO‘RAVONLIK VA UNING KO‘RINISHLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oilada yuzaga keladigan zo‘ravonlik, uning ko‘rinishlari va oqibatlari, bola psixik taraqqiyotiga ko‘rsatadigan salbiy ta’siri haqidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: zo‘ravonlik, aqliy, jinsiyl, jismoniy, ijtimoiy, iqtisodiy, mehr, loqaydlik.

Аннотация. В этой статье приведена информация о насилии, которое происходит в семье, его проявлениях и последствиях, негативном влиянии, которое оказывается на развитие психики ребенка.

Ключевые слова: насилие, интеллект, сексуальное, физическое, социальное, экономическое, доброта, апатия.

Annotation. This article provides information about violence that occurs in the family, its manifestations and consequences, the negative impact that affects the development of the child’s psyche.

Key words: violence, intelligence, sexual, physical, social, economic, kindness, apathy.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2020-yilning 12-fevral kuni mahalla tizimini takomillashtirish, mahallalarda tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, jinoyatchilikning oldini olish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Yig‘ilishda oilaviy ajrimlar, yoshlar salomatligi, erta tug‘uruqlar, ma’naviy-axloqiy tarbiya bilan bog‘liq muammolar ko‘rsatib o‘tildi. Chunki bugun jamiyat taraqqiyotida oilaning tutgan o‘rni ulkan va beqiyosidir.

Bugungi kunda oilalarimizdagi mavjud jamiyatni qiynayapgan global muammolardan biri bu zo‘ravonlik muammoсидир. So‘nggi paytlarda oilalarda ayollarga va bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlari tez-tez uchramoqda. Hozirda shhuni ham ta‘kidlash kerakki, yer yuzida nafaqat ochlik, yetarlicha uyjoy yetishmasligi, sog‘liqni saqlashning yomonligi kabi bolaning hayoti va sog‘lig‘iga tahdid soladigan muammolar qatorida ularga nisbatan ko‘rsatilayotgan zo‘ravonlikning turli shakllarini butun yer yuzidagi mavjud davlatlarda ko‘rish mumkin.

Butun dunyoda bu kabi jinoyatlar profilaktikasi bo‘yicha katta tajriba, maxsus qonunchilik me’yorlari va bunday kishilarni reabilitatsiya qilishga doir standartlar mavjud. O‘zbekistonda ham bu normalar rivojlanmoqda. Prezident qaroriga (№3827) muvofiq, Adliya vazirligi Respublika Xotin-qizlar qo‘mitasi bilan birgalikda Oilaviy zo‘ravonlik oldini olish borasida bir qator ishlар amalga oshirildi.

Jumladan O‘zbekiston respublikasining Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risidaga qonuni, Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 17-avgustda qabul qilingan bo‘lib, Senat tomonidan 2019-yil 23-avgustda ma’qullangan. Ushbu Qonunning maqsadi xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.⁶⁸

⁶⁸ Ўзбекистон Республикасининг Хотин-қизларни тазиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисидаги қонун 2019 йил 23 август 2019 йил 2 сентябрь. № ЎРК — 561

Mamlakatimizda bunday zo‘ravonlik tushunchasi birinchi marta qonun doirasida belgilandi. Qonun himoya mexanizmlari, taqiqlovlar, chora-tadbirlar, protsessual kafolat kabilarni tatbiq qilishga yo‘naltirildi

Zo‘ravonlik maishiy-siyosiy, iqtisodiy, psixologik hukmronlikni qo‘lga kiritish yoki saqlab qolish, har qanday huquq va imtiyozlarni qo‘lga kiritish uchun shaxsning yoki ijtimoiy guruhning turli majburlash shakllarini (qurolli ta’sirga qadar) qo‘llashdan iborat salbiy holat sanaladi. Zo‘ravonlik shakllari va turlari turfa xil bo‘lib, ular uyda, ishda, ko‘chada – har qanday joyda uchrashishi mumkin. Kezi kelganda kattalar ham, bolalar ham ushbu zo‘ravonlikning qurbanlardir.

Oiladagi zo‘ravonlik sinfi, irqi, madaniy, diniy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatlaridan qat’i nazar, aholining har qanday qatlamlari va toifalarida uchraydigan holat sanaladi.

Oiladagi zo‘ravonlik oilani ijtimoiy va psixologik jihatdan tanazzulga boshlaydigan, uning barqarorligi va xavfsizligidan mahrum qiluvchi muhim sabablardan biridir. Oiladagi zo‘ravonlikning mavjudligi jiddiy oqibatlarga olib keladi, zero, o‘zaro munosabatlari zo‘ravonlikka asoslangan oilalar katta xavf ostida, chunki bunday muhitda tarbiyalangan bolalar zo‘ravonlik qurbaniga aylanadilar va boshqalarni, hattoki yaqinlarini hurmat qilmaydilar. Bolaning taqlidchan ekanligini inobatga olsak, farzandlar oilada ota-onasining xatti-harakatlari namunasini o‘zlashtirishi isbotlangan. Ko‘pincha o‘g‘il bolalar otalarining onalariga bo‘lgan munosabatlarini nusxalash orqali yosh singillariga nisbatan tajovuzkorroq bo‘lish holatlari uchrab turadi. Oiladagi zo‘ravonlik modeli odatda avloddan avlodga o‘tadi. Qattiq jazo odatda bolalarga nisbatan zo‘ravonlik deb hisoblanmaydi, lekin ular keyinchalik bolada tajovuzni yuzaga keltiradi. Oiladagi madaniy va ma’naviy qadriyatlarini saqlashning asosiy shartlaridan biri bu zo‘ravonlikning oqibatlari kelajak avlodlar ruhiyatida salbiy iz qolidirishi mumkinligini anglashdan boshlanadi.

Jamiyatda zo‘ravonlikning o‘sishi va uning kriminallashuvi bevosita oilaviy munosabatlarga bog‘liq bo‘ladi, chunki jamiyatning asosini oilalar tashkil etadi. Hozirda ota-onalar, vasiylar, o‘qituvchilar tomonidan bolalarga shafqatsiz munosabatda bo‘lish kabi salbiy holatlarni uchratish oddiy holatga aylanib bormoqda. Kattalarning bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo‘lishi natijasida bolada kelajakda hayotga bo‘lgan qiziqishning yo‘qotilishi, doimiy qo‘rquv, o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqning yo‘qligi, oila haqidagi tasavvurlarning qanday bo‘lishini bilmaydigan his-tuyg‘ulari cheklangan odamning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Farzandlarining taqdiri uchun ularning kelajagi uchun qayg‘urish nafaqat ota-on, farzand uchun zaruriy ehtiyoj hisoblanadi, balki jamiyat uchun ham mustahkam oilarning ko‘payishi foydali, zero, o‘zbek xalqida shunday bir maqol bor “Olang tinch-sen tinch”. Farzandlarga o‘tkaziladigan zo‘ravonlikning turli ko‘rinishlari ularning xulq-atvorida ham zo‘ravonlik va shafqatsizlikning shakllanishiga olib keladi. Chunki mehr-muhabbat ko‘rib ulg‘aymagan inson bolasi, boshqalarga ham ushbu yuksak insoniy hislarni bera olmaydi. Ayni paytda bolaga nisbatan ko‘rsatiladigan zo‘ravonlikning quyidagi shakllari ajratib ko‘rsatiladi: jismoniy, shahvoniy, aqliy, ijtimoiy, iqtisodiy, ruhiy.

Jismoniy zo‘ravonlik – bu bolaga qasddan jismoniy zarar yetkazish, uning sog‘lig‘iga va keyingi rivojlanishiga putur yetkazilishi va o‘ta og‘ir holatlarda bolaning hayotiga zomin bo‘lishi bilan yakunlanadi. Bolaga muntazam jismoniy zo‘ravonlik o‘tkazish tufayli, bolada giyohvand moddalarni, alkogol ichimliklarni, zaharli moddalarni yoki mastlikni keltirib chiqaradigan “tibbiy” dorilarni iste’mol qilishga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltirishi, unda qasos ruhining paydo bo‘lishiga turtki bo‘lishiga mumkin.

Jinsiy zo‘ravonlik – bu bolani jinsiy faoliyatga roziligidan majburlash, shuningdek, fohishabozlik va pornografiya bilan shug‘ullanishga undashdan iborat. Bolaning balog‘at yoshiga yetmasdan jinsiy aloqaga roziliqi uni zo‘ravonlik qurbanini bo‘lmagan deb hisoblash uchun asos bo‘la olmaydi, chunki bola bu kabi xatti-harakatlarning barcha salbiy oqibatlarini oldindan ko‘ra olmaydi.

Aqliy zo‘ravonlik – bu bolaga doimiy ravishda aqliy ta’sir qilish, shuningdek, bolaning yoshiga mos kelmaydigan talablar qo‘yishi va uning shaxsiyatining rivojlanishiga xalaqit berishdan iborat zo‘ravonlik shakli hisoblanadi.

Ijtimoiy zo‘ravonlik – bolaning qiziqishlari va ehtiyojlari e’tiborsiz qoldirilgan vaqtida yuzaga keladi. Uning asosiy ehtiyojlari (oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar joy, ta’lim, tibbiy xizmat)ga ahamiyat berilmaydi va qondirimaydi. Natijada, bolaning hissiy holati yomonlashadi, sog‘lig‘i va normal rivojlanishi uchun tahdid paydo bo‘ladi.

Ruhiy zo‘ravonlik – bolaga tahdid qilish, qo‘rqitish, unga ruhiy shikast yetkazish, so‘z erkinligini cheklash, oila a’zolaridan, do‘stlaridan ajratish, tahqirlash, beparvolik bilan munosabatda bo‘lish hisoblanadi.

Iqtisodiy zo'ravonlik – bolaga o'zining pulini sarflashga ishlatalishga majburlash yoki uni ishslashga majburlash va uning ustidan iqtisodiy yagona nazorat o'rnatishdan iborat.

Oiladagi bola shaxsiga nisbatan ko'rsatilgan zo'ravonlik natijasida bolaning psixikasida bir qator uzoq muddatli noxush holatlar yuzaga keladi:

1. Zo'ravonlikning zanjirga aylanib qolishi avlodlar orasida a'nanaga aylanadi.
2. Bolada agressiya kuchayib, o'ziga ishonchi yo'qoladi.
3. Bola jamiyatda o'z o'rnini topa olmaydi, katta yutuqlarga erisha olmaydi, sog'lig'ida muammolar paydo bo'ladi, doimiy kasalliklar yuzaga keladi.
4. Bolaning individual xususiyatlaridan kelib chiqib kam hollarda ijobiy yutuqlar yuzaga kelishi mumkin.
5. Bolalarda oliv ta'llim olishga ishtiyoq bo'lmaydi, jamiyat uchun foyda keltirish istagi yo'qoladi.
6. Bolada oila a'zolari va o'ziga nisbatan mehr va hurmat hissi yetishmaydi
7. Doimiy tushkunlik, turli yomon odatlar ruju qo'yish (ichkilik, o'g'rilik, zo'ravonlik) kuchayib ketadi.
8. Ko'p holatlarida yoshligida ololmagan mehrni oqibatni his qilmaslikni boshqa g'ayrioddiy yo'llar bilan kompensatsiya qilish kabi holatlar uchraydi.
9. Tarbiyadagi buzilishlar natijasida ayrim bolalarda doimiy qamoqxonalarining asiri bo'lib qolish ehtimoli ortadi.

10. Aka ukalar va opa singillar o'rtasidagi kelishholmaslik, nizolar yuzaga keladi.

Agar oilada bolaga nisbatan shunday zo'ravonlik usullari muntazam qo'llanib kelinayotgan bo'lsa bolaga yordam berish uchun nima qilish kerak?

1. Ijtimoiy xodim, maktab psixologgi, sinf rahbari yoki fan o'qituvchisi sifatida bola bilan ehtiyojkorlikda suhatlashish va unga e'tibor berish kerak.
2. Bolaning qo'ni-qo'shnilarini va uning sinfdoshlari bilan suhbatlashing.
3. Bolaning salomatligida muammoi bor yoki yo'qligini bilish uchun poliklinikadagi hudud shifokori va maktab tibbiy xodimi bilan maslahatlashing.
4. Vasiylik organiga murojaat qiling.
5. Mahalla fuqarolar yig'ini, bolaning bobo va buvisi, ichki ishlar idoralari yoki maktab ma'muriyati bilan bog'laning.
6. Eng yaqin psixologik yordam markaziga murojaat qiling.

Zero, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan onalik va bolalikni mustahkamlash masalasida mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конуни Хотин-қизларни тазиик ва зўравонликдан ҳимоя қилиши тўғрисидага 2019 йил 2 сентябрь № ЎРҚ — 561
2. Важсенина К.Е. Как уберечь ребенка от опасных людей. Книга для родителей и не только. – Санкт-Петербург: Речь, 2010. – 157с.
3. Защита детей от жестокого обращения/под ред. Е.Н. Волковой. – Санкт-Петербург: Питер, 2007. – 256 с.
4. Сафонова Т.Я., Цымбал Е.И. Жестокое обращение с детьми. – Москва, 1993.
5. Энциклопедия психологической безопасности/ В.Б. Шапарь. Ростов-на-Дону.: Феникс, 2007.



Ismailova Zuxra Karabayevna,
TIQXMMI, “Professional ta’lim va jismoniy madaniyat”
kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor;

Baybayeva Muxayyo Xudaybergenovna,
TDPU, “Ijtimoiy pedagogika” kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi

BOSHQARUV FAOLIYATIDA GENDER TENGLIKNI TA’MINLASH VA XOTIN-QIZLARNING HUQUQ VA IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshqaruv faoliyatida gender tenglikni ta’minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish haqida ma’lumotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, ayol, faoliyat, tizim, funksiya, tenglik, samarali, jarayon, soha, boshqaruv.

Аннотация. В данной статье освещен вопрос обеспечения гендерного равенства в управлеченческой деятельности и расширении прав и возможностей всех женщин.

Ключевые слова: образование, женщина, деятельность, система, функция, равенство, эффективность, процесс, сфера, управление.

Annotation. This article covers information on ensuring gender equality in management and the empowerment of all women.

Key words: education, woman, activity, system, function, equality, efficiency, process, sphere, management.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yilning sentyabrida Barqaror rivojlanish bo‘yicha o‘tkazilgan sammitida qabul qilingan 70-son rezolyutsiyasiga muvofiq, shuningdek, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qaror qabul qildi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Barqaror rivojlanishning beshinchi maqsadini amalga oshirish doirasida “Gender tenglikni ta’minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish”ga oid to‘qqizta vazifani ishlab chiqdi. Beshinchi maqsadning vazifalariga (Gender tenglik) muvofiq, 2030-yilga kelib barcha xotin-qizlarga nisbatan kamshitishlarning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to‘liq va samarali ishtirokini va yetakchilik qilish uchun teng imkoniyatlarni ta’minlash zarur. Bundan tashqari, ushbu maqsad davlatning turli darajalarida Davlat dasturlarini qabul qilish jarayonida gender tenglik tamoyillarini joriy qilishni o‘z ichiga oladi.

So‘nggi yillarda boshqaruv faoliyatida gender tenglikni ta’minlash, ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish bo‘yicha ishlar bir necha yo‘nalishlarda olib borilmoqda:

- ayollar huquqlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarni takomillashtirish;
- ayollarni himoya qilishning institutsiyal asoslarini takomillashtirish;
- aholining gender tenglik va ayollar huquqlari to‘g‘risida xabardorligini oshirish;
- huquqni qo‘llash amaliyotida ularga rioya etilishini ta’minlash uchun mas’ul mansabdor shaxslarni tegishli huquqiy meyorlar asosida o‘qitish.

O‘zbekistonda bir qator qonun hujjatlari, jumladan, Prezidentning boshqaruv faoliyatida xotin-qizlar huquqlarini ta’minlash, xususan, gender tengligi va ayollarni zo‘ravonlik va zulmdan himoya qilish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqomini kuchaytirish to‘g‘risidagi farmon va qarorlari qabul qilingan. Gender tengligini joriy qilish nuqtayi nazaridan ta’limdagи ijobji siljishlarni alohida ta’kidlash kerak. Ya’ni 2017-yildan boshlab aksariyat oliy o‘quv yurtlarida turli mutaxassisliklar bo‘yicha sirtqi bo‘limlar faoliyati tiklandi. Ta’limning ushbu shakli yosh ayollarga bolalarni parvarish qilish va boshqa oilaviy majburiyatlarni bajarishga xalal qilmasdan oliy ma’lumot olish imkoniyatini beradi.

Fursatdan foydalanib, Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil iyun oyida Oliy Majlis Senatidagi nutqidan iqtibos keltirishni o‘rinli deb bilamiz: “Meni kishilarimizning ongida paydo bo‘lgan stereotip ko‘p o‘ylantiradi. Odatda biz ayolni, avvalambor, ona, oila qo‘rg‘onining qo‘riqchisi sifatida hurmat qilamiz. Bu, shubhasiz, to‘g‘ri. Ammo bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o‘zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo‘lishi kerak”.

Mazkur sohadagi qonunchilik choralariga to‘xtaladigan bo‘lsak, O‘zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini ta’minlash va himoya qilishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish maqsadida 2019-yil sentyabr oyida “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi hamda “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunlar qabul qilindi. Gender tenglik bo‘yicha institutsional choralarga kelsak, ayni paytda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tarkibida ayollar huquqlarini ta’minlash va kamsitishning har qanday shakliga barham berish bo‘yicha milliy qonunchilikda xalqaro standartlarni uyg‘unlashtirish bilan shug‘ullanuvchi yangi Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi tashkil qilingan. Bundan tashqari, boshqaruv faoliyatida mehnatga oid huquqlarning kafolatlari va qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, uydagi zo‘ravonlik qurbanlariga yordam berish maqsadida zo‘rlik ishlatishdan jabr ko‘rgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o‘z joniga qasd qilishning oldini olish respublika markazi va Xotin-qizlar tadbirkorligi markazi, Hukumat huzuridagi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi kabi yangi tuzilmalar tashkil topdi. Mazkur yangi tashkil etilgan barcha institutsional mexanizmlar O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi bilan birligida BMT Konvensiyasiga muvofiq ayollar huquqlari, gender tengligi va xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarga barham berishning yagona yaxlit mexanizmiga aylanishi masalaning muhim tomonidir. Ta’kidlash joiz, qabul qilingan normativ-me’yoriy hujjatlar va amaliy chora-tadbirlar O‘zbekistonning gender siyosati sohasidagi muhim qadamidir va u qonunchilik hamda amaliyotning xalqaro me’yor va standartlariga to‘liq mos keladi, shu bilan birga, ularning bir qismi BMTning inson huquqlari bo‘yicha idoralari tavsiyalariga asoslangan. Ayniqsa, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu Qonun ko‘p yillik muhokamalardan so‘ng qabul qilindi. Qonun oiladagi zo‘ravonlik qurbanlariga yordam berish, ularga boshpanalar ajratish, ishonch telefonlari va nafaqat jismoniy zo‘ravonlik, balki psixologik yoki iqtisodiy jinoyatlar bo‘yicha majburiy javobgarlikka tortish orqali ayollarni himoya qilish uchun asosdir. Bunday choralar, xususan, BMTning inson huquqlari bo‘yicha idoralari tomonidan uzoq vaqt davomida tavsiya qilib keligan.

Shu bilan birga, ushbu yo‘nalishda davomiy izchil ishlarni amalgga oshirish talab etiladi. Bu yerda nafaqat qabul qilingan ko‘rsatmalar, balki ularning xalqaro majburiyat va standartlarga muvofiqligi, joylarda o‘z vaqtida va aniq bajarilishi ham muhim ahamiyatga ega.

Shu ma’noda, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to‘liq va samarali ishtirok etishini ta’minlash bo‘yicha ishlarni izchil davom ettirish zarur. Binobarin, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi va “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunlarning bajarilishini ta’minlash uchun “Yo‘l xaritalari”ni qabul qilish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, Gender tengligi bo‘yicha milliy strategiyani qabul qilish rejasi ham mavjud. BMT agentliklari gender tenglik va kamsitmaslik masalalarida, shu jumladan, maxsus hujjatlarni rejalashtirish, ishlab chiqish va amalgga oshirish, yangi kodekslarning maxsus qoidalarini – jinoiy, protsessual va ijro etuvchi bosqichlarni ishlab chiqishda bundan keyin ham ko‘mak berishga tayyor. Shuningdek, qabul qilinayotgan u yoki bu darajadagi hujjatlarning ayollar va erkaklar uchun bir me’orda bo‘lishiga erishish uchun qonunchilikning gender ekspertizasini o‘tkazish majburiyigini ta’minlash muhimdir. O‘z navbatida, biznes inkubatorlari bilan bir qatorda, ayollarni ta’lim va fan sohasida rag‘batlantirish, shuningdek, STEM (Fan, texnologiya, muhandislik, matematika) laboratoriylar yaratish orqali ularni tabiiy va texnik fanlar sohasiga jalb qilish choralarini ko‘rish zarur. Bu, o‘z navbatida, ayollarning bandligini, zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Qabul qilinayotgan chora-tadbirlar boshqaruv faoliyatida mamlakatning barcha hududlari va xotin-qizlarning barcha toifalarini qamrab olishi kerak. Xususan, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalgga oshirish kun tartibidagi tamoyillarni, ayniqsa, “hech kimni ortda qoldirmaslik” tamoyilini hisobga olgan holda, har xil kamsitish shakllariga moyil bo‘lgan xotin-qizlarning holatiga alohida e’tibor qaratish dolzarb masaladir.

Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati:

1. Каримова В. Ижтимоий психологияда хотин-кизлар раҳбарлиги муаммосининг ўрганилиши. // "Psixologiya", БухДУ: 2011, 2-сон. – 12-13-б.
2. Шамиева О. Раҳбар аёллар шахсининг ижтимоий-психологик хусусиятлари. / Психол. фанл. номз. автореферат. – Тошкент, 2000. – 21-б.
3. Язиев Э. Социально-психологический портрет современного руководителя Республики Узбекистан. // «Мир образования – образование в мире». – Москва: 2013, № 4. – С. 87-94.



Saribaeva Umida Sattarovna,
TDPU Psixologiya kafedrasи dotsenti

Norqulov Husniddin Do'sbekovich,
"Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti
katta ilmiy xodimi, ped.fan.nom., dotsent.

OILADAGI RUHIY-JISMONIY ZO'RAVONLIK VA UNING BARTARAF ETILISHIDA PSIXOLOGIK BILIMLARNING ROLI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oiladagi ruhiy-jismoniy zo'ravonlik va uning bartaraf etilishida psixologik bilimlarning roli haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: oila, erkak va ayol, ruhiy-jismoniy zo'ravonlik, gender tenglik, psixologik moslik, milliy etnik xususiyat.

Аннотация. В этой статье содержится информация о психологическом и физическом насилии в семье и о роли психологических знаний в его преодолении.

Ключевые слова: семья, мужчина и женщина, психическое и физическое насилие, гендерное равенство, психологическая совместимость, национально-этническое своеобразие.

Annotation. This article provides information on the psychological and physical violence in the family and the role of psychological knowledge in overcoming it.

Key words: family, women and men, mental and physical violence, gender equality, psychological compatibility, national and ethnic originality.

Oilada sodir etilayotgan zo'ravonlikka bugungi kunda jamiyat miqyosidagi yechimini topish zarur hisoblangan ijtimoiy muammo sifatida qaralmoqda. Oiladagi zo'ravonliklar, asosan, er-xotin o'rtaSIDA sodir etilib, oiladagi farzandlarning tarbiyasiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xalqaro statistik ma'lumotlarga ko'ra, yiliga 3,5-10 millionga yaqin bolalar va o'smirlar o'z uylarida ayollarga nisbatan ishlataligan zo'rlikning guvohi bo'lishmoqda[1]. Oiladagi zo'ravonliklar kriminologik adabiyotlarda asosan uch turga, ya'ni jismoniy, ruhiy va jinsiy zo'ravonliklarga ajratilgan holda tadqiq qilinadi [2].

Bugungi kunda oiladagi zo'ravonlik bilan bog'liq muammo dunyoda tarqalgan ijtimoiy hodisalar sifatida namoyon bo'lib, jamiyatda xotin-qizlar, voyaga yetmaganlar va qariyalarga nisbatan sodir etilishi bilan kriminologik xarakterga ega bo'lgan jinoyatlardan hisoblanadi.

Oilada sodir etiladigan zo'ravonlikda bolalarni kaltaklash, xo'rslash, zulm o'tkazish, o'ldirish kabilar, masalan, chaqaloqlarning o'ldirilishi, shafqatsiz va tahqirlovchi jazolashlar, beparvolik va tashlab qo'yish, shahvoniy tahqirlash va bolalarga qarshi zo'ravonliklar oilada sodir etiladi [3].

1962-yilda doktor Genri Kempe tomonidan "Shafqatsiz muomala" termini fanga kiritilgan. Uning "Kaltaklangan bolalardagi sindrom belgilari" mavzusidagi ilmiy maqolasida jismoniy va ruhiy zo'ravonlikning bolalarda paydo bo'ladigan psixologik belgilari, ularning ruhiy rivojlanishiga salbiy ta'siri yoritib berilgan [4].

Bolalarni tarbiyalash jarayonida zo'ravonlikni "urf-odatga asoslangan" odat normalari yoki "tarbiya" berish usuli deb qo'llash insonni xo'rlovchi va kansituvchi muomala jarayoni hisoblanadi.

Aynan bu kabi muammolarning oldini olishda inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi katta tarixiy ahamiyatga molik bo‘lib, unda inson, uning qadr-qimmati, huquq va erkinliklari eng oliv qadriyat sifatida yuksak baholanadi. Uning 1-moddasida odamlarning o‘z qadr-qimmati hamda huquq va erkinliklarga teng bo‘lib tug‘ilishlari, ularning bir-birlariga birodarlik ruhida munosabatda bo‘lishlari, 2-moddasida ularning barcha huquq va erkinliklarga ega bo‘lishlari, hech qanday kamsitish bo‘lmasligi, 3-moddasida har bir insonning yashash, erkin bo‘lish va shaxsiy daxlsizlik huquqiga egaligi, 5-moddasida hech kimning qyinoqqa yoki shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoxud qadr-qimmatni xo‘rlovchi muomala va jazoga duchor etilmasligi, 12-moddasida hech kimning shaxsiy va oilaviy hayotiga o‘zboshimchalik bilan aralashish, uning nomus va sha’niga tajovuz qilish mumkin emasligi, shuningdek, shaxsni oiladagi zo‘ravonlikdan himoya qilish bo‘yicha xalqaro paktning 7-moddasida shaxsni azob-uqubatga duchor qilmaslik, unga nisbatan shafqatsiz, noinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi yoxud xo‘rlovchi muomalada bo‘lmaslik, 17-moddasida shaxsning oilaviy hayotiga hech kimning aralashmasligi, uning or-nomusi va sha’niga tajovuz qilish mumkin emasligi qonun bilan ta’qiqlab qo‘yilgan[5].

O‘zbekiston bu borada Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya [6] va boshqa xalqaro shartnomalar [7] ga tayanadi.

Oiladagi zo‘ravonlik shaxsga ta’alluqli har qanday salbiy xatti-harakatlar sanalib, shaxs ustidan kulish, tuhmat, haqorat qilish kabilar unga ko‘rsatilgan ruhiy zo‘ravonlikni kiritish mumkin.

Ilmiy nuqtayi nazardan qaraganda, oiladagi zo‘ravonlikka ko‘pincha tajovuzkorlik xususiyatlari va rashk motivi sabab bo‘lganligini ko‘rish mumkin.

Tajovuzkor xulq-atvor shaxs tug‘ilgandan boshlab yuzaga kelmaydi, balki tevarak-atrofdagilar ta’sirida shakllanadi va ijtimoiylashuv jarayoni buzilishining natijasidir va aynan tajovuzkorlik xususiyatlari bilan bog‘liq holda sodir etilishi insoniy nizolar mahsuli bo‘lib, oilada sog‘lom muhitni shakllantirilmaganligi, er-xotin o‘zaro munosabatlarida muomala madaniyatiga amal qilinmasligi, psixologik savodxonlik, psixologik takning yetishmasligi bilan izohlanadi. Bu o‘z o‘rnida er-xotin munosabatida hissiy portlashning kuzatilishi, o‘z his-tuyg‘ularini, xulq-atvorini rejalshtirmslik, boshqara olmaslik, nazorat qilmasliklari bilan izohlanadi. Ya’ni inson ruhiyatidagi buzilishlar zo‘ravonlikka moyillikning kuchayishiga sabab bo‘lib, shaxsda tajovuzkor xulq-atvorni, turli hissiy holatlarda, ya’ni qasos, g‘arazli maqsad, ko‘rolmaslik yoki nafrat oqibatida ham namoyon bo‘lishi kuzatiladi.

Tadqiqot natijalaridan olingan ma’lumotlar o‘zbek oilasida er-xotinlar va oilaning barcha a’zolari zamonaviy psixologik bilimlardan xabardor bo‘lishlari zarur, degan xulosani beradi va quyidagi tavsiyalarimizni yoritishga asos bo‘ladi:

1. Barcha ta’lim muassasalarida “Oila psixologiyasi” kursini maxsus fan sifatida o‘qitilishi;
2. “Oila psixologiyasi” fani dasturiga bugungi kunda dolzarb muammoga aylanib borayotgan masalalarni kiritish;
3. Har bir hudud hokimliklari qoshida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarni oila psixologiyasi kurslarida qayta tayyorlovdan o‘tkazish;
4. MFY faollari, pedagog-maslahatchilarining psixologik bilimlarini oshirish maqsadida ular bir va uch oylik “Oilaviy hayot psixologiyasi” kurslarida o‘qitilishi lozim deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Махмудова Н.А. Менинг ҳуқуқларим. – Тошкент, 2000. – Б. 18.
2. Исаков А.А. Криминологическая характеристика и предупреждение насильтственных преступлений, совершаемых в семье: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Москва, 2004. – С.9.
3. Болаларга нисбатан зўравонлик буйича бутунжасон ҳисоботи. – Т., 2009. – Б. 8; Ten Bencel RW. Rheinbeiger MM, Radbill SX (1997). Children in a World of Violence: The Roots of Child Maltreatment. In: Heiferman et al.(Eds).The Battered Child. Chicago, University of Chicago Press,pp 3-28; United Nations Secretary-General(2006).Report of the Independent Expert for the United Nations Study on Violence against Children. Promotion and protection of the rights of children. United Nations General Assembly, Sixty-first session. A/61/299.

4. Kempe, C.H., 1962 *The Battred Child Syndrome. Jomal of the Americal Associtation (July)* Pp. 107-112; Мэкс А.М. Социальные условия насилия в семейном поведении (анализ насилия в американской семье): Автограферат диссертации на соискание ученой степени кандидата социологических наук. -Москва, 2003. –С.3.
5. Гуломова С. “Нидоя” ва Инсон һуқуқлари умумжасонон декларациясидаги уйг‘унлик масалалари. // Демократиялаштириши ва инсон һуқуқлари. №4, 2008. -Б. -
6. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. – Тошкент, 2004. – Б. 57-82.
7. Инсон һуқуқлари бўйича халқаро шартномалар (тўплам). – Тошкент, 2004.

Мадаева Шахноза Амануллаевна,
заведующая кафедрой “Философия и логика” НУУз, проф, д.ф.н.

Кумушева Мадина Махамаджановна,
преподаватель частной школы “Ориентал гимназия”

ФАКТОР ИСЛАМА В ФОРМИРОВАНИИ ГЕНДЕРНЫХ ОТНОШЕНИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ: ИСТОРИКО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация. В статье рассматриваются социальные проблемы веры женщины в ислам и ее положение в современном Узбекистане в контексте становления гендерных отношений. Данная тема важна потому, что она затрагивает все стороны жизни социума – от повседневного быта людей до государственной идеологии. В ней наиболее полно проявляется новая роль ислама в регионе, а также вероятные перспективы и тенденции развития узбекского общества в целом.

Ключевые слова: ислам, гендер, женская религиозность, идентичность, традиционное общество, национальные обряды, традиции, стереотипы.

Annotatsiya. Mazkur maqolada ayollarning islom diniga e’tiqodi ijtimoiy masalalari va uning zamonaviy O’zbekistondagi holati gender munosabatlari shakllanishi kontekstida ko’rib chiqiladi. Ushbu mavzu jamiyat hayotining barcha jabhalariga – sotsiumning maishiy hayotidan tortib davlat mafkurasiga qadar chambarchas bog’liqligi bilan muhimdir. Bu tadqiqotda islom dini omilining mintaqadagi yangi roli, shuningdek, umuman o’zbek jamiyatining istiqboldagi taraqqiyoti va rivojlanish tendensiyalari atroficha ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: islom dini, gender, ayollar dindorligi, identiklik, an’anaviy jamiyat, milliy marosimlar, urf-odatlar, stereotiplar.

Annotation. This article examines women’s Muslim religiosity and its transformation in modern Uzbekistan through the context of the formation of gender relations. This topic is important because it affects all aspects of society’s life - from everyday life of people to state ideology. It most fully reveals the new role of Islam in the region, as well as the likely prospects and development trends of the Uzbek society as a whole.

Key words: islam, gender, female religiosity, identity, traditional society, national rituals, traditions, stereotypes.

История рассмотрения гендерных отношений, роль ислама в образовании этих отношений и в формировании разнообразных аспектов «женского вопроса» в Узбекистане представляются разнообразными и многосторонними. Цель настоящей работы заключается в том, чтобы рассмотреть особенности религиозной идентичности населения, роль ислама в социальной организации гендерных отношений, в частности – представления населения о мусульманской этике и эстетике, значение этих представлений в формировании религиозной идентичности.

Конечно, вести разговор об исламе, о традиционном обществе и проблемах женщин для широкой публики представляет некоторые сложности. Потому что есть такие нюансы, которые

должны восприниматься и пониматься не на теоретическом уровне. Существуют некоторые вещи, которые должны пониматься эмпирическими знаниями или посредством ментального стереотипа.

Это всё говорится для того, чтобы объяснить, что сегодняшняя тема является сложной для восприятия с одного раза. Она представляет собой некоторые отдельные направления, которые изучались, и изучаются до сих пор как самостоятельные объекты [1,2,3].

Мы с вами сегодня попытаемся объединить эти области и объяснить, что представляет из себя гендер на фоне влияния ислама.

Гендер (англ. *gender*, от лат. *genus* «род») – социальный пол, определяющий поведение человека в обществе и то, как это поведение воспринимается. Это то полоровое поведение, которое определяет отношение с другими людьми. С точки зрения структурной социологии, и в полном соответствии с традицией Дюркгейма, пол сам по себе есть явление социальное, поэтому использование термина «гендер» представляет собой плеоназм (бесконечное повторение слов «мужчина и женщина»), но его использование призвано подчеркнуть, что речь идет о социологическом подходе к вопросу пола, когда речь идет о широкой дискуссии.

У гендера существуют бесконечно много понятий, связано это с тем, что сам объект имеет вековую историю и до сих пор является востребованной темой. В общественных науках есть такое парадоксальное явление, что во многих случаях научные понятия тоже переживают определенную инкарнацию. Научные понятия со временем дополняются, иногда плавно меняются или же, по мере обстоятельств, несут в себе больше смысла, чем было заложено в начале. Таким образом, не было бы ошибкой, если скажем, что понятие гендер на сегодняшний день представляет собой больше понятие равноправия мужчин и женщин, которое в большинстве случаев понимается и принимается неразрывно с понятием феминизма.

Объяснять гендер с точки зрения равноправия или феминизма по отношению к Узбекистану не очень просто. Здесь больше всего уместно растолковать специфику гендера именно с точки зрения половых ролей индивидов. В этом большая доля религии ислам, которая смогла сформировать своеобразную специфику социальных стереотипов.

Узбекистан в Центральной Азии занимает второе место по географическому объёму и первое по численности населения. На сегодняшний день, имея мегаполис-столицу, как Ташкент, с восьми миллионами жителями, в этой стране имеется уже больше, чем 34 миллионов населения. 55% этих чисел занимают женщины. По новым подходам изучения истории в постсоветском пространстве формирование национальности узбек, как народности уходит в глубь трёх тысячелетий. А распространение ислама в Центральной Азии приходится к началу VIII века минувшего тысячелетия.

Сводить проблематику влияния ислама на гендерные отношения является не простой проблемой. В этом есть необходимость уточнения некоторых нюансов, связанных с периодизацией этого феномена под влиянием социальных факторов:

1. В Центральной Азии, как доказывают многие источники, до принятия ислама можно было видеть высокую активность женщин в социальной жизни.

2. Ислам, хотя и сам был призван для того, чтобы обеспечить социальную защиту прекрасному полу человечества, после вторжения в Центральную Азию образовал такой тип стереотипов, который в скором времени породил обособление и изолированность женской половины от общественной жизни.

3. Построение советского общества способствовало общества в принудительном порядке, в последствие которой происходило отчуждение от ислама и национальных ценностей. В этот период прослеживается усиление активизации роли женщин в социальной жизни посредством социальных институтов.

4. Не смотря на то, что советский период стал своеобразной преградой между религией и обществом, в период независимости происходит массовое обращение к своим национальным, религиозным истокам. В этом обращении больше всего проявляется новый тип религиозного возрождения, внутри которого содержатся разнообразные типы религиозных идентичностей.

Каждый из этих пунктов, пережил и переживает до сих пор в себе определённое взаимоотношение ислама и гендера, имеет ли это прогрессивное или регressive последствие с точки зрения влияния ислама или нет, является де-факто в историческом процессе. А закономерности и обстоятельства, которые формировали эти этапы, требуют детального изучения для построения общей картины о

влиянии ислама на формирование гендерных стереотипов. Конечно, наш взор сегодня обращен к современности, но для логической последовательности мы бы хотела остановиться вкратце и на предыдущих этапах.

Богатые материалы доисламского периода единогласно показывают, что гендерные стереотипы Центральной Азии, частично территории Узбекистана, характеризовали особую роль женщины в социальной жизни. Теоретические обобщения в некоторых анализах по гендерным отношениям описывают это как высокое социальное положение женщины (с сакрализацией ее статуса) в культуре древней Центральной Азии [4].

Анализ письменных, археологических материалов, богатый объем словесного фольклора показывают доминирующую роль женщины в социальной жизни в древней Центральной Азии. Женщине принадлежала очень важная роль в политической жизни, она занималась государственными и военными делами, экономической деятельностью, её статус нередко признавался в обществе более высоким, чем положение мужчины [4]. Имена и деяния некоторых женщин-правительниц и воительниц сохранились в анналах среднеазиатской истории: царица Томирис, Спаретра, правительница Бухары Хатун и другие.

С распространением Ислама в Центральной Азии, гендерная специфика края, которая отличалась ярко выраженными активностями женщин, постепенно начинает терять свой первоначальный облик.

Исторические источники конца XIX начала XX вв. единогласно подтверждают, что в этот период, чем этническая, территориальная или какие-либо другие виды идентичностей доминировала религиозная идентичность. А гендерные отношения всё больше уходило в сторону дисбаланса за счёт узурпации женщин. В то же время и в источниках мыслителей самого региона и за пределами Туркестана религиозное просветительство населения отмечается на самом низком уровне.

В произведении А.Вамбери «Путешествие по Средней Азии» описывается интересный случай. Женщина, проданная своим мужем старому человеку, обращается к путешественнику: « – Хаджи мой! Ты читал книги, скажи мне, есть ли где написано, что мусульманин может продать свою жену, которая ему рожала детей?». Дальше он пишет: «Я отвечал, что это считается грехом, но ... у него (имеется в виду мужчина, покупавший эту женщину, – прим. Ш.Мадаева) есть сильная рука у кази калана (верховного судьи) в Карши и он уверен в своей безопасности от преследований» [5]. Здесь можно отметить два момента, во-первых, в этот период человек, считавший себя истинным мусульманином мог продать свою жену, считая что он имеет на это моральное право. Во-вторых, законы шариата в данный момент исказились до такой степени, что верховные судьи могли защищать права человека, совершившего скверный поступок. В литературе, посвященной изучению судебно-правовой системы, подтверждается это явление: «Особо важную роль во всей деятельности судей и казиев играли муфтии. Они, основываясь на законы шариата и судебный опыт, вели различные рассуждения и оказывали своё влияние на то, что кази могли выводить решения, с большой выгодой для себя. Поэтому решение казийских судов зависело не от их личных убеждений, основанных на знание и опыт, а больше на суждения и влияние муфтиев» [6]. В некоторых источниках деструктивный характер религиозной идентичности обуславливается с ограничением правовых норм населения: «Следование указаниям мулл было исходным для любых жизненных поступков. Мусульманство способствовало закреплению бесправного положения женщины, которая веками оставалась в пределах ичкари (женской половины дома), выходила закрытая паранджой, имела чрезвычайно узкий круг общения» [7].

Что касается современности, многие исследователи попытались изучать религиозные проблемы в Узбекистане в большинстве случаев с контекста женской религиозности. В работах таких известных авторов, как С.П. Поляков и Г.П. Снесарев, религиозно-общинная ритуальная обрядность в Центральной Азии, в частности на территории Узбекистана, исследовалась непосредственно в связи с религиозными женскими ритуальными практиками. Такой же подход прослеживается в работах современных исследователей – таких, как Д. Кандиоти и Н. Азимовой, Х. Фатхи, М. Камр. В этих работах как общепризнанный факт звучит такая мысль, что изучение разных аспектов религиозности в центральноазиатском обществе удобно и эффективно проводить на примере женщин, женского статуса и женской идентичности. Это часто обосновывается особой женской готовностью к восприятию ислама не так к религии, а как источника веры. Исторические корни этого феномена связаны с тем, что женщины испокон веков, будучи хранительницами очага и семьи, больше всего были связаны

с разными религиозными ритуалами, верованиями и культурами, кроме того «особая роль женщины проявляется даже в религиозных верованиях среднеазиатских скотов; так, дербеки почитали Землю как женское божество, не приносили в жертву и не ели никакого существа женского пола, в чём можно видеть пережиточное тотемное табуирование[8]).

В современном Узбекистане характер религиозной идентичности существенным образом стала меняться, соответственно стала меняться ритуальная практика в махалля. На религиозные обряды «Бибимушкүл-кушод», «Бибисешанба», о которых много писалось этнографами и историками [9] и которые представляли собой традиционную форму женских сообществ, на сегодняшний день многие женщины смотрят как пережиточные формы религиозных обрядов или как ритуалы, не входящие в рамки ислама. Сегодня женские сообщества, постоянно практикующие религиозные ритуалы, стали называться «эхсон», т.е. «дарить, угощать во имя аллаха». Похоронные обряды, которые начинались со смертью покойника и заканчивались последним ритуалом, посвященным годовщине смерти, тоже стали называться «эхсон», а проведение этих ритуалов по старому поминальному порядку на седьмой, двадцатый и сороковой дни стало восприниматься как неисламское. Если в ритуалах «Бибимушкүл күшод», «Бибисешанба» прежние отын больше всего были заняты деталями ритуала, т.е. подготовкой и раздачей ритуальной пищи, чтением «дуо», то в эхсон «новые» отын основное внимание уделяют воспитательно-просветительской работе в религиозном направлении.

В повседневной жизни современного узбекского социума эхсон становится влиятельным институтом, через который можно управлять и диктовать поведение женщин, стиль одежды, религиозный образ мышления, даже бытовой образ жизни женщин махалля. Взгляды и поведение этих фигур – отын и особо религиозных («Исломий») женщин – больше продиктованы не «традициями» и «традиционной» религиозностью, а идеологией, политикой, заимствованными представлениями о том, что такое ислам и что такое женщина-мусульманка.

В последнее время светской властью Узбекистана используются огромные духовные возможности мусульманской религии, способной открыть новые грани ее миротворческого и конструктивно-созидательного, гуманистического потенциала. Думается, что именно обращение к позитивным началам ислама, равно как и других религий, позволит успешно решить задачу по *интеграции народных умонастроений в официальную идеологию государства*. Одновременно, это позволит избавить ислам как часть духовной жизни нации от многих необоснованных нападок, порождаемых действиями его невежественных последователей.

Список использованной литературы:

1. Leyla Ahmad. *Women and gender in Islam. Historical Roots of a Modern debate.* – New Haven & London: Yale University Press. 1992.
2. Kamp M. *The New Woman in Uzbekistan: Islam, Modernity, and Unveiling under Communism.* Seattle&London: University of Washington Press, 2006;
3. Тохтаходжаева М. XX век глазами женщин Узбекистана. – Москва. Евразия, 2007.
4. Сулаймонова Ф. Шарк ва Г'арб. – Тошкент. Ўзбекистон, 1997.
5. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. – Санкт-Петербургъ, 1865.
6. Бакиров Ф. Чор Туркестонида суд, шариат ва одат. – Тошкент: Фан, 1967.
7. Лурия А.Р. Об историческом развитии познавательных процессов. – Москва: Наука, 1974.
8. Farid Alakbarli. *Amazons Legends in History Fearless Women Warriors in Life and Lore.* // Azerbaijan international. Spring. 2005 №13.1.
9. Крэмер А. Мушкул Кушид // Ислам на территории бывшей Российской империи. Выпуск. 4. – Москва, 2003.

Yusupova Dildora Dilshatovna,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Harbiy-teknik instituti "Gumanitar va
ijtimoiy fanlar" kafedrasi dotsenti v.b.

GENDER STREOTIPLARINING XOTIN-QIZLAR HAYOTIGA TA'SIRI

Annotatsiya. Maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston xotin-qizlarining ijtimoiy-madaniy hayoti, haq-huquqlarining poymol bo'lishiga sabab bo'lgan omillar hamda din peshvolarining islam shariatidan noto'g'ri foydalangan holda ularga yetkazgan zararlari bayon etilgan. Shuningdek, bugungi kunda tarixiy jarayonlar asosida yetib kelgan gender streotiplarining salbiy oqibatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: gender, gender tengligi, gender streotiplari, erkak va ayol munosabtlari, musulmon ayol, islam shariati, paranji, ilm-ma'rifat.

Аннотация. В статье описывается социокультурная жизнь женщин Туркестана в конце XIX – начале XX веков, факторы приведшие к нарушению их прав, причиненный им злоупотреблением исламским правом религиозными лидерами. Также анализируются негативные последствия гендерных стереотипов, возникших сегодня на основе исторических процессов.

Ключевые слова: гендер, гендерное равенство, гендерные стереотипы, отношения между мужчинами и женщинами, мусульманка, исламский шариат, паранджи, наука и просвещение.

Annotation. The state describes the socio-cultural life of Turkestan women in the late XIX early XX centuries, factors that led to the violation of ix rights, inflicted on them by an attacker of Islamic law by religious leaders. It also analyzes the negative consequences of gender stereotypes that arise today on the basis of historical processes.

Key words: gender, gender equality, gender stereotypes, relations between men and women, Muslim woman, Islamic Sharia, burqa, science and education.

Bugungi kunda dunyoda gender tengligini ta'minlash masalasida bir qator muammolar mavjud bo'lib, ular hali-hanuz o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Bunday muammolar ko'pincha erkaklarning ayollar ustidan hukmronlik o'rnatishi hamda ularga nisbatan zo'ravonlik, kuch ishlatish kabi holatlarda saqlanib qolmoqda.

O'tgan asrdagi dunyoqarash, ya'ni eskilik sarqiti bugungi kunda ham insonlar ongida gender streotiplari ko'rinishida davom etib kelmoqda. Jumladan, gender streotiplari – bu turli xil jins vakillarining, birinchi navbatda, erkaklar va ayollarning xususiyatlari va xulq-atvori to'g'risida jamiyatda keng tarqalgan fikrlardir. Gender streotiplari ma'lum bir jamiyatda mavjud bo'lgan gender rollari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularni saqlab qolish va ko'paytirishga xizmat qiladi. Xususan, gender streotiplari tengsizlikning saqlanib qolishiga yordam beradi⁶⁹.

Gender streotiplari oilalarda erkak va ayolga yuklatilgan vazifalarda namoyon bo'ladi. Masalan, ayol oilada uy-ro'zg'or yumushlari bilan band bo'lishi, farzandlarini tarbiya qilishi kabi vazifalarni o'z zimmasiga oladi va oilada o'ziga yuklatilgan rolini bajaradi. Natijada, u faqat oila yumushlari bilan band bo'lib, kasbiy yetuklik jihatdan o'zini namoyon qilishi mumkinligi kabi imkoniyatlariga devor qo'yadi. Faqatgina turmush o'rtog'ining roziligi bilangina u professional salohiyatini namoyon qilishi mumkinligini tushunib, unga qaram ekanligini ruhan tan oladi. Mana shu yerda gender tengligiga putur yetadi.

Gender streotiplari nafaqat bugun, balki o'tgan asrda ham mavjud bo'lganligini Turkistondagi ijtimoiy hayot ham isbotlab beradi. Jumladan, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashagan jadid ma'rifatparvarlaridan biri, diniy va dunyoviy ilm egasi bo'lgan Abdurauf Fitrat o'zi yashagan davr hayoti, turmush tarzi, erkak va ayol munosabatlari xususida quyidagi fikrlarni bildiradi: "Mamlakatimizdagi xotinlar har daqiqada qanchadan qancha tahqir va jafolarga duchor bo'lib yashamoqdalar. Biz Turkistonliklar o'z xotinlarimizni

⁶⁹ https://ru.wikipedia.org/wiki/Гендерные_стереотипы

odamiyat doirasidan tashqarida deb o‘ylaymiz va u bechoralarga odamga qilgandek muomala qilmaymiz. Xotinlarimizni marhamatga sazovor, insofga loyiq va shafqatga haqli deb bilmaymiz. Bizda xotinlarni so‘kish faxr va g‘urur sanaladi, urib mayib qilishni esa erkakchilikning fazilati deb bilamiz”⁷⁰.

O‘tgan asrdagi illatlar bugungi kunda ham davom etib kelishi ayanchli hol, albatta. Agar gender tengligiga erisha olmasak, bu streotipler yana ancha davrlar davom etib, milliy va diniy qadriyatlarimizda saqlanib qoladi. Natijada, kelgusi avlod o‘z ajdodlaridan nafratlanib yashashiga sabab bo‘ladi.

Zero, ayolni asrash, unga g‘amxo‘rlik qilish, moddiy ta‘minlash masalasi islom dinida ham alohida e‘tirof etilsa-da, ammo Turkistonda xotin-qizlarning turmush tarzi shariatning anchagini aqidaviy qarashlari ostida buzilgan qonunlari asosida tashkil etilganligi, ayollarga past nazar bilan qarash, ularning ilm olishlari shart emas, faqat uyda o‘tirib, uy-ro‘zg‘or yumushlari bilan shug‘ullanishlari kerak, degan ayrim chalasavod din peshvolarining o‘y va fikrlari ayollarning huquq va erkinliklarini cheklab qo‘ygan edi. O‘sha davr matbuotida “Musulmon ayoli” haqida noto‘g‘ri fikrlar, diskurslar bo‘lganligini Orenburg gazetalaridan birida A.Faxrutdinov ismli shaxs shariatdan xabari bo‘lmanagan kishi, ya’ni o‘zi uchun notanish kimsa bo‘lgan I.Podgorniyning “Musulmon ayollar” nomli maqolasini tanqid qilib, shariat ayollarga keng huquq va erkinliklar bergenligini shariatdan quyidagi dalillarni keltirib o‘tib, fikrini isbotlashga urinadi:

1. Hech qaysi ayol majburan turmushga berilishi mumkin emas. Hattoki, qizlarni turmushga chiqish masalasi bo‘yicha ota-onalar ham hech qanday huquqqa ega emaslar.

2. Ayol kishi yuridik shaxs kabi mol-mulk huquqiga egalik qilish, shaxsiy xo‘jalik yuritish, sotish, sotib olishda erining roziligidagi muhtoj emas.

3. Ayolning majburiyati oilaviy masalalar chegarasidan tashqariga chiqmagan. Hattoki, o‘t qalash va suv tashish ishlari erlarning zimmasiga yuklatilgan.

4. Nikoh – faqat fuqarolikka asoslangan. Ayol kishi (bokira qiz) turmushga chiqishda xohlagancha shart qo‘yishi, erkak tomonidan bajarilmagan taqdirda, erining ruxsatisiz hech qanday huquqdan mahrum bo‘lmanagan holda uning uyini tark etish huquqiga ega (boshqasiga turmushga chiqishi ham mumkin).

5. Erlar o‘layotib, o‘z xotinlari va qizlarini merosdan mahrum etishga haqli emaslar.

6. Nikohga kirish paytida er kelinga “mahr” (qalin) to‘lashi shart. Mahr uning shaxsiy mulki hisoblanadi.

7. Ajrim paytida er sobiq xotinini uch oygacha, agar homilador bo‘lsa, tug‘uruqqa qadar ta‘minlab turishi shart.

8. Agar er xotinini ta‘minlashga qurbi yetmasa yoki unga hayoti uchun zarur mablag‘ bermasa, unda xotinining iltimosiga ko‘ra sud ularni ajratadi va xotinga boshqasiga turmushga chiqishiga imkon beradi.

9. Shariat bo‘yicha ayollar erkaklar bilan barcha siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan tenglar.

10. Jang vaqtida dushmanlar tomonga ayollar o‘tganda ham ular omonat hisoblanib, o‘ldirilmaydilar va asirga olinmaydilar⁷¹.

A.Faxrutdinov musulmon bo‘lmanagan kishi, qanday qilib o‘zi bilmagan narsa haqida gapirishi mumkinligini, aslida, shariatda ayollar masalasiga qanday yondashilganligini isbotlab, I.Podgorniyga raddiya bildirgan.

Yuqorida fikrlarga yanada aniqlik kiritadigan bo‘lsak, islomiy muqaddas kitoblarda ham ayollarni qul qilish tushunchasi yo‘q. Lekin islomdagi bu hikmatlarni unutgan islom ma‘rifati va huquqiga dogmatik yondashuvchi johil ruhoniylar – yuqori mansabdorlar (qozikalon, shayxulislom kabilar), shuningdek, ularning mahalliy hokimiyat tizimidagi yanada chalasavod ijrochilar (chala mullalar) ayollarning haqiqatda ijtimoiy, madaniy hayotdagisi ishtirokini cheklashlari xotin-qizlarning faqat oila doirasida cheklanishiga olib kelgan. Ayollar o‘z haq-huquqlarini bilmasliklari esa, ularning ilmsiz bo‘lganliklaridan dalolat bergan. Zero, jamiyatda gender tengligi bo‘lmash ekan, bunday jamiyatda yangicha fikrlash va yangicha yashash tarziga erishib bo‘lmaydi.

O‘tgan asrda ayollar masalasi eng asosiy masala bo‘lib, u jamiyatning og‘riqli nuqtasi ekanligi, ularga ta‘lim-tarbiya berish va ichkaridan olib chiqish haqida mahalliy olimlar tomonidan ko‘p fikrlar o‘rtaga tashlangan. Biroq bu masala hech qanday natija bermadi, chunki harakatga ega bo‘lmanagan bu fikrlar o‘z amaliy natijasini ko‘rsatmaganligi bois kundan kun orqaga cho‘zilib boraverdi.

Paranji ostida ilm-ma‘rifat bulog‘idan bebahra qolayotgan ayollar nolasi matbuotga yo‘llangan Xanifa Oysiyanining “Yara ochildi”, Xayriya xonimning “Bizga yo‘l bering” kabi xatlarlarida yangradi. Masalan,

⁷⁰ Фитрат А. Оила ёки оила бошқариш тартиби. – Тошкент: Маънавият, 2000. – Б. 33.

⁷¹ ЎзР. МДА, ФИ-1009, рўйхат-1, иш-159, вараг-5.

“Yara ochildi” nomli xatda: “Bizning ayollarimizning istaklari islom talablariga muvofiq bo‘lishi kerak. Ayollarga nisbatan islomning hukmlaridan foydalanish kerak. Aks holda, ayollarimiz o‘lsa, unda millat halok bo‘ladi, chunki millatning farovonligi ayollarga bog‘liq”⁷², – deydi Xanifa Osiyeva. Bu bilan u ayollar ilm nuridan bebahra ekanliklarini, ularning ko‘zlarini yumuq, nafas olishlariga imkon yo‘qligini o‘kinib aytganida, albatta, paranji ostida bo‘g‘ilganligini sezish qiyin emas. Shuningdek, millatning asl tarbiyachisi ayollar ekanligini tushunib yetgan Xanifa Osiyeva: “Millatning bir qismi yozish va o‘qishni bilmaguncha, qolgan yarmi ham ozod bo‘lolmaydi”⁷³, – deb millatning qo‘ldan boy berilishining sababini ham ayollarni qorong‘u xonaga qamalganliklarida, deb biladi. Demak, paranji ostidagi ayolning ilm-ma’rifatdan uzib qo‘yilganligi nafaqat farzandlar tarbiyasiga, shu bilan birga, millat kelajagiga ham bolta urganligini ko‘rsatadi. Xayriya xonim tomonidan yo‘llangan ikkinchi maktubda esa, “Millat saqlanib qolinishini istasa, u o‘z qizlarini o‘qitishi kerak. Buni din, shariat, insoniyat va zamon talab qiladi”, – deb so‘zini davom ettirar ekan, “Bizni tarbiyalang, undan keyin esa, bizdan millatparvar, vatanparvar va h.k. bolalarni talab qiling”⁷⁴, – deya, ayollar qoloq, ilmsiz zamondan orqada qolgan holda kelajak avlodni tarbiyalay olmasligi, zero, erkak kishi tug‘ilganidan to o‘limiga qadar ayol kishi bilan yashashini misol keltirib o‘tadi. Darhaqiqat, erkak kishiga har qanday holatda ham ruhiy, ham ma’naviy jihatdan ko‘mak beruvchi ayollarning o‘rni unutilar ekan, albatta, erkaklar ham ayollar kabi baxtsiz yashaydilar.

O‘tgan asrda Turkistonda ayrim shariat peshvolari va diniy aqidaparastlar tomonidan dinning noto‘g‘ri talqin etilishi xotin-qizlarning huquqlari poymol qilingani holda, ularni paranjiga o‘ralishiga, jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lmasligi va xat-savodsiz tarzda chuqur jarga uloqtirilishiga zamin yaratib bergen, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Zero, Yurtboshimiz ta’kidlaganidek: “Yer yuzida har qaysi jamiyatning madaniy darajasi uning ayollarga bo‘lgan munosabati bilan belgilanadi”⁷⁵.

Yuqorida fikrlardan shu narsa ayon bo‘ladiki, jamiyatda gender, ya’ni erkak va ayollar munosabatlarining buzilishi, nozik xilqat va tuyg‘ular sohibasi bo‘lgan ayollarni mensimaslik, ularga to‘g‘ri baho bera olmaslik inson huquqlarining poymol bo‘lishiga olib kelgan.

Shu o‘rinda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi so‘zlarini keltirib o‘tishni joiz deb o‘ylaymiz: “Qiz bola – bo‘lg‘usi oila bekasi, kelajagimiz egasidir. Bugun biz ularga qanday ta’lim-tarbiya bersak, ertaga ular yangi avlodimizga shunday tarbiya beradi”⁷⁶. Yurtboshimizning fikrlaridan ham ma’lumki, qiz bola nafaqat nasl qoldiruvchi, balki davlatimiz kelajagini belgilovchi shaxs sifatida ham ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi. Biz unga qancha e’tibor bersak, davlatimiz shu darajada taraqqiy etadi.

Yuqorida fikrlardan kelib chiqqan holda quyidagi tavsiyalarni berish maqsadga muvofiqdir:

birinchidan, davlatning kelajakdagi o‘rni shu jamiyat ayollarining ilm-ma’rifatiga bog‘liq ekanligini unutmaslik lozim;

ikkinchidan, o‘tgan asrdagi illatlardan to‘g‘ri xulosa chiqarib, xato va kamchiliklarni qaytarmaslik darkor;

uchinchidan, shariat qonunlarini noto‘g‘ri talqin qilish jamiyatda xotin-qizlarning zo‘ravonlik qurbanini bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkinligini tushunib yetish maqsadga muvofiq;

to‘rtinchidan, gender tengligi masalasida islom dinida juda chiroyli yechim borligini unutmaslik lozim.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://ru.wikipedia.org/wiki/Гендерные_стереотипы
2. Фитрат А. Оила ёки оила бошқарши тартиби. – Тошкент: Маънавият, 2000.
3. ЎзР. МДА, ФИ-1009, рўйхат-1, иш-159, варак-5.
4. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.

⁷² ЎзР МДА ФИ-1009, рўйхат-1, иш-159, варак-17.

⁷³ ЎзР МДА ФИ-1009, рўйхат-1, иш-159, варак-17.

⁷⁴ ЎзР МДА ФИ-1009, рўйхат-1, иш-159, варак-17.

⁷⁵ Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 345.

⁷⁶ Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 350.

Эгамбердиев Эдуард Хажибаевич,
Преподаватель кафедры Гражданского права ТГЮУ

Аширбоева Мунисабегим Нодир кизи,
Студентка 1 курса факультета частного права ТГЮУ

СООТНОШЕНИЕ ПРИНЦИПА РАВЕНСТВА ПРАВ МУЖЧИНЫ И ЖЕНЩИНЫ В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ И ВОПРОСАХ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА С ОБЪЕКТИВНЫМИ РЕАЛИЯМИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы соотношения основополагающих начал семейных отношений и гендерного равенства с практической ситуацией в Республике Узбекистан. Авторы разграничивают круг общественных отношений, подпадающих под понятие гендерное равенство и отождествляют с правовыми основами. Поднимаются проблемы, существующие на сегодняшний день и требующие скорейшего разрешения.

Ключевые слова: семья, гендерное равенство, принцип равенства, мужчина, женщина, обычаи, культура.

Annotatsiya. Maqolada oilaviy munosabatlarning asosiy tamoyillari va gender tengligi bilan O'zbekiston Respublikasining amaliy holati o'rtaqidagi bog'liqlik ko'rib chiqilgan. Mualliflar gender tengligi konsepsiyasiga kiradigan ijtimoiy munosabatlar doirasini chegaralaydi va qonunchilik bazasi bilan aniqlaydi. Bugungi kunda mayjud bo'lgan va ertaga hal qilinishi talab qiladigan muammolar ko'tarilmoqda.

Kalit so'zlar: oila, gender tengligi, tenglik prinsipi, erkak, ayol, urf-odatlar, madaniyat.

Annotation. The paper examines the relationship between the fundamental principles of family relations and gender equality with the practical situation in the Republic of Uzbekistan. The authors delimit the range of social relations that fall under the concept of gender equality and identify with the legal framework. The problems that exist today and require an early resolution are being raised.

Key words: family, gender equality, the principle of equality, man, woman, customs, culture.

Место и роль крепкой и благополучной семьи в государстве сложно переоценить. Именно в семье человек формируется как личность, растет и развивается, получает воспитание. Не спроста Конституция Республики Узбекистан встает на защиту семьи и его членов. Откуда и возникают принципы семейного права такие как добровольность брачного союза мужчины и женщины, разрешение внутрисемейных споров по взаимному согласию, приоритет семейного воспитания детей, заботы об их благосостоянии и развитии, и, пожалуй, один из дискуссионных в современном мире – принцип равенства прав супругов.

Во многих цивилизациях, доктринах, религиях женщины обладали меньшим объемом прав, чем мужчины. Более 2 тысяч лет назад в период существования Римского государства (римское право считается фундаментом нынешнего гражданского права Республики Узбекистан) женщины почти не обладали правами, и с момента рождения всегда находились под властью мужчин: в момент рождения – под властью отца, при замужестве – под властью мужа, после смерти мужа – под властью сына. Такую же картину мы можем наблюдать и в доктринах исламского права, где женщина также была ущемлена в своих правах. Но всегда с развитием общества, женщинам все же предоставлялись определенные права. К примеру, в последние годы существования Римского государства происходит либерализация права, по которому женщинам предоставляется некоторый объем дееспособности. На примере мусульманинства, в последнее время, также можно наблюдать как некоторые исламские страны либерализуют свои правовые нормы, предоставляя и женщинам определенный объем прав. Хотя в обоих случаях нельзя говорить о гендерном равенстве, скорее можно утверждать о гендерном неравенстве.

В нашей стране указанная ситуация обстоит иначе. Правовое равенство полов в нашей стране было установлено еще в 1992 году, когда была принята Конституция Республики Узбекистан. Так,

статья 18 основного закона закрепляет равенство всех людей перед законом, а статья 46 гарантирует равенство прав женщин и мужчин. Исходя из этих основополагающих норм и возникли статьи 2 и 3 Семейного кодекса Республики Узбекистан, предусматривающие равенство прав мужчин и женщин, а также всех граждан в семейных отношениях. Можно смело утверждать об отсутствии дисбаланса прав мужчин и женщин. Однако на практике данное обстоятельство выглядит совсем иначе.

В современном мире никто не станет спорить, что физически мужчины и женщины не равны с момента рождения и в период всей жизни. Когда говорят о гендерном равенстве полов, никто не предполагает уравнять мужчин и женщин ни физически, ни биологически. Здесь и так понятно, что у каждого пола в обществе имеются свои роли, задачи, которые присущи каждому из них. Поэтому при рассмотрении вопросов гендерного неравенства мы говорим об уравнивании в правах мужчин и женщин. «Гендерное равенство» имеет социально-правовое начало, нежели биологическое или физическое.

Местный менталитет, сложившиеся многовековые обычаи и культура населения все же оказывает определенное влияние на ролевые установки женщин и мужчин в семье. Здесь мы утверждаем о разделении определенных дел между полами, то есть мужчина выполняет присущие ему по своей природе дела (содержание семьи, работа по хозяйству), точно также, как и женщина имеет определенные обязанности в семье (рождение детей и их воспитание, уборка, кухня). При этом, указанные дела распределяются не на основании закона, а по сложившимся обычаям и исходя из особенностей человеческого организма и физического развития. Видится логичным, что мужчина не станет рожать детей, а женщине трудно справиться с тяжелым грузом. Рассматривая противоположность двух полов и присущих им физических, биологических особенностей можно сделать вывод, что в семье происходит слияние этих двух противоположностей воедино. А в зависимости от того, как они смогут ужиться вместе мы говорим о формировании благополучной семьи.

Сейчас уже довольно четко можно утверждать, что гендерное равенство – один из основных признаков (атрибутов) современной семьи. Но именно в семейную сферу идеи равенства мужчины и женщины проникают наиболее тяжело. Когда речь идет о равенстве полов на производстве, никто не будет возражать о необходимости равных оплат за равный труд, о не дискриминации при продвижении по карьерной лестнице, о возможности приобретения новой профессии, о прохождении женщины обучения и т.д. Однако понятие равенства (социального, правового) мужчины и женщины нельзя разделить на отдельные составляющие – равенство на работе, равенство в политической жизни или равенство в семье. Все системы связаны между собой. И если мы хотим получить реальное равноправие на работе, производстве или политике, то придется укреплять равенство и в семье.

О.А.Хазова отмечает, что в подавляющем большинстве случаев решение отказаться от профессиональной карьеры и целиком посвятить себя семье принимает женщина, стереотип распределения семейных ролей является устойчивым. Мужчины не склонны заниматься домашними делами, даже если свободны от работы (пенсионеры, безработные) или имеют свободный режим труда, а женщина, напротив, обременена работой или несколькими работами. Как подчеркивает Е.Ю.Мещеркина, только половина мужчин согласна, что женщины могут столько же работать, сколько они сами, но при этом мужские нормативные ожидания, чтобы женщины, несмотря на это, уделяли основное внимание дому, остаются доминирующими. Впрочем, как известно, отцовство существенно дифференцированно, вполне определенная часть мужчин активно поддерживают мать ребенка, выстраивая с ней либо партнерские, либо гендерно традиционные отношения, имеют положительную мотивацию на родительство.

Равенство полов, как принцип, состоит в том, чтобы изучать и устранять социальные барьеры, мешающие человеку проявляться как личности, а также создавать равные социальные возможности для реализации личности мужчин и женщин во всех сферах жизнедеятельности в зависимости от предпочтений автономной личности.

На данный момент требуется решение нескольких проблем, возникающих в семьях:

1. Независимость мужчины и женщины в плане выбора образования, работы, жизненного пути в целом.
2. Ненасилие физическое или моральное в семье.
3. Снижение бытового (домашнего) насилия.

4. Увеличение роли мужчины в воспитании детей.
5. Эгалитарное воспитание детей в смысле сокращения роли гендерных дифференциаций.
5. Высвобождение времени женщины от домашнего труда.

Резюмируя всё вышесказанное, необходимо часто проводить гендерную экспертизу во всех законодательных актах, для того чтобы не ущемлялись права женщин и мужчин во всех сферах жизни. Также следует ужесточить наказание за ущемление прав и свобод женщин в семье, за не предоставление права выбора в плане образования, работы. Так как многие женщины подвергаются психологическому давлению со стороны их супругов, из-за их традиционных стереотипов «второсортности» и «истинном предназначении» женщины, пора приложить усилия для глобального движения за гендерное равенство и расширить права и возможности женщин.

Список использованной литературы:

1. [https://nko-family.ru/ Гендерное равенство и современная семья.](https://nko-family.ru/)
2. Мещеркина Е.Ю. Социологические исследования маскулинности: мужской пол в публичности и приватности // Гендерное равенство: поиск решения старых проблем. MOT, 2003. – С. 108.
3. Безрукова О.Н. Отцовство в трансформирующемся обществе: ожидания матерей и практики отцов // СоцИс. 2013, № 11. – С. 120.



Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
TDYU “Davlat va huquq nazarisi” kafedrası professori,
yuridik fanlar doktori

O‘ZBEKISTON YANGILANISH JARAYONIDA XOTIN-QIZLAR VA ERKAKLAR UCHUN TENG HUQUQ HAMDA IMKONIYATLARNI TA’MINLASHNING DOLZARBLIGI

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda yangilanish davrida ayollarga bo‘lgan davlat e’tibori hamda amalga oshirilayotgan islohotlarda xotin-qizlar ijtimoiy faolligini oshirish masalalari tahlil etilgan. Jumladan, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquqlarni yaratish imkoniyati bo‘yicha xorij tajribasi va milliy qonunchilik qiyosiy tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: xotin-qizlar, davlat, huquq, faoliyat, islohot, taraqqiyot.

Аннотация. В статье анализируются вопросы внимания, оказываемого по отношению к женщинам со стороны государства и повышения социальной активности женщин в реализуемых реформах в период обновления Узбекистана. В том числе, сравнительно анализированы зарубежный опыт и национальное законодательство по обеспечению равного права между мужчинами и женщинами.

Ключевые слова: женщины, государство, право, активность, реформы, прогресс.

Annotation. The article analyzes the issues of attention paid to women by the state and increasing the social activity of women in the ongoing reforms during the period of Uzbekistan’s renewal. In particular, foreign experience and national legislation on ensuring equal rights between men and women were comparatively analyzed.

Key words: women, state, law, activity, reforms, progress.

“Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirdor xalq – farovon
hayotning, do’stona hamkorlik esa – taraqqiyotning kafolatidir!”
Sh.M.Mirziyoyev

Har qanday jamiyatning madaniy darajasi va ma’naviy yetukligi ayollarga munosabati bilan belgilanadi. Xotin-qizlarni hurmat qilish, ularning jamiyat rivojidagi hissasini munosib baholash, ularga barcha masalalarda ko’maklashish – bularning barchasi qadimdan xalqimizga xos. Ma’lumki, XXI asrda

insoniyat jahon jarayonlarining globallashuvi davriga, inson subyektivligi va faol hayotiy pozitsiya va o‘z-o‘zini anglash huquqi qadriyatlari ilgari surilgan davrga kirdi. Zamonga xos bo‘lgan jihatlardan biri bu demokratik davlatlarni shakllantirish va jamiyatning fuqarolik darajasini oshirish doirasida hayotning barcha sohalarida xotin-qizlarning to‘laqonli va teng huquqli ishtirokiga ehtiyoj ortmoqda.

Jumladan, yangilanayotgan O‘zbekistondagi islohotlar ayollarning ijtimoiy rolini sezilarli darajada oshirdi. Xuddi shunday tendensiyalar Konstitutsianing 46-moddasida mustahkamlangan va ko‘plab qonunlarida aks etgan yerkaklar va ayollar uchun teng huquq va teng imkoniyatlar tamoyili O‘zbekiston Respublikasida ham dolzarbdir. Bu borada Pekin Deklaratsiyasi va erkaklar va ayollar o‘rtasidagi tenglik uchun harakat qilish platformasini amalga oshirish doirasida inson huquqlari va asosiy erkinliklarining xalqaro standartlariga amal qilinmoqda. Yangi O‘zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoy faollashuvini keng targ‘ib etish hamda qo‘llab-quvvatlash maqsadida BMT Inson huquqlari bo‘yicha 46-sessiyasida qayd etilganidek, ijtimoiy-siyosiy hayotda va tadbirkorlik sohasida ayollarning rolini tubdan oshirishga qaratilgan ishlar endi qat‘iy davom ettirilishi e’tirofga loyiqdir. O‘zbekiston ham mazkur sohaga jiddiy e’tibor berish bilan birga uning huquqiy asoslarini yaratgan davlatlardan biridir.

Jumladan, bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldaggi PF-5938-son Farmoni aynan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga doir davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta’minlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli va faolligini oshirish, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta’minlash masalalariga qaratilganligi bilan e’tiborlidir. Xotin-qizlarning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish, bandligini ta’minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, xotin-qizlarni, ayniqsa, qishloq joylardagi yosh qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish masalalari o‘ta dolzarbdir. Shu sababli mazkur masalani ilmiy tahlil etish hamda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlarini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish mazkur maqolaning maqsadidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review)⁷⁷.

Ma’lumki, xotin-qizlarning davlat boshqaruvida tutgan o‘rni masalalari qadim yunon olimlari Aflatun, Arastudan boshlangan bo‘lib, Sharq xalqlari mutafakkirlari Ibn Sino, Al Buxoriy, Farobiy, Alisher Navoiy va boshqalar o‘z asarlarida komil inson tarbiyasida ayollarning muhim o‘rin tutishini siyosiy-huquqiy qarashlarida bayon etishgan.

“Ayollar: xotin-qizlar iborasi”ni o‘rganish hamda tahlil etish juda uzoq tarixga ega. X asr boshlaridan xotin-qizlarning jamiyatdagi noqonuniy mavqeyi muammosi va XX asrning o‘rtalarigacha Kristina de Pisan va Korniliy Agrippa asarlarida fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy va ma’rifiy huquqlarining yo‘qligi tahlil etilgan. Xotin-qizlar ozodligi uchun olib borilgan tadqiqotlarda jamiyatdagi ayollarga nisbatan adolatizliklar tanqid qilingan va yechimini topish masalalari javobsiz qolgan. Uyg‘onish davrining ozodlik g‘oyalariga mos ravishda yuzaga kelgan ayollar harakati, avvalo, yozuvchi Olimpiya de Guj (1791) tomonidan yozilgan “Ayollar huquqlari va fuqarolik huquqlari Deklaratsiyasi” manifestida barcha ayollarning qonun oldida tengligini e’tirof etgan. Sh.Fure fransuz inqilobi taassurotlari asosida ayollarni faollashtirish barcha ijtimoiy taraqqiyotning umumiyligi sifatida ilgari surgan.

Ta’limotlarda qayd etilsa-da, hayotda ayollarning huquqlari erkaklarnikidan anchagina pastda edi. Zamon rivojlangan sari dunyoda ayollarning o‘rni oshib bordi [1]. Shuningdek, davlatchilik tarixidan ma’lumki, sharq ayollarli, jumladan temuriylar davrida davlatning siyosiy-ijtimoy tuzumida ham muhim o‘rin egallashgan. Jumladan, bu borada joriy yilning 2-3-mart kunlari Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida “Pedagogika, psixologiya va o‘qitish metodikasi”, “Gumanitar fanlar” kafedrasi hamda “Tadqiqot.uz” xalqaro ilmiy jurnallar portalini hamkorligida o‘tkaziladigan “I-xalqaro: Yangilanayotgan O‘zbekistonda xotin-qizlarning ilm-fan taraqqiyotidagi roli va Gender tengligi” mavzusida konferensiya o‘tkazilib, mazkur masalalar tahlil etilgani tahsinga loyiq. [2].

Keyingi davrlarda ayollarning siyosiy-ijtimoy faolligi haqida Indiana universitetining Markaziy Yevroosiyo fakulteti xodimi, olima Marian Kamp (Marianne Kamp) Turkiston ayollarli, xususan, o‘zbek ayollarli rolining XIX asrdan buyon turli hukumat boshqaruvlari davomida o‘zgarishi, ularning jamiyatdagi o‘rni va faoliyati haqida “O‘zbekiston yangi ayoli: Islom, Zamonaviylik va Kommunizm davrida paranjining yechilishi” (The new woman in Uzbekistan: Islam, Modernity, and Unveiling under Communism) nomli

⁷⁷ Платон. Соч. – Москва, 1971. – Т.3, 4.1. – С.251; Там же 4.2. – С. 258 ; Аристотель. Политика. – Москва. – Л., 1893. – С. 34

kitob yozgan [3]. Olima Kampning fikriga ko‘ra, mustamlaka davri Jadidlarining xotin-qizlarni ilmgan jalg qilish va ularni jamiyatda o‘z o‘rnini belgilash borasidagi islohotlari Sovet davridagi ayollarni qo‘llab-quvvatlash harakatlariga asos bo‘lgandi. Ya’ni xotin-qizlarga bilim berish va ularni jamiyat rivojiga hissa qo‘shishiga sharoit yaratish borasidagi o‘y va harakatlar Sovet tizimi va Kommunistik partiya yuzaga kelishidan ancha oldin boshlanganligi ta’kidlanadi. Mazkur masala faylasuflar, tarixchilar, hatto huquqshunos olimlardan tomonidan ko‘p tadqiq etilishining sababi jamiyatning asosiy bo‘g‘ini oila bo‘lib, bugungi kunda xotin-qizlarning, ayniqsa, yoshlarning ma’naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi globallashuv davrida barcha davlatlarni, shuningdek, olimlarning diqqat markazida turgan eng dolzarb masalalardan biri bo‘lganidir.

Huquqshunos olimalardan, Q.Abdurasulova, M.Rajabova, Z.Esanova, G.Matkarmova, G.To‘laganovaarning ilmiy tadqiqotlarida xotin-qizlarning muammolari: oila va nikoh, ajrim va meros, uy-joy muammolarini o‘z vaqtida aniqlash, xotin-qizlarning huqubuzarliklari va jinoyatchiligining oldini olishda ularni ish bilan ta’minalash, yordamga muhtoj bo‘lgan va og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko‘rsatish masalalari tahlil etilgan. Xorijiy olimlar esa, o‘tgan asrga qadar ayollarning siyosiy faolligini tan olishmagan. XIX asrga qadar faqat hokimiyat, davlat va siyosat erkaklarga xosligi qayd etilgan. XIX asr ikkinchi yarmida sotsial-utopislardan. Sh.Fure birinchi bo‘lib, xotin-qizlarning jamiyat hayotida ishtirokiga ahamiyat bergen. Sen-Simon esa uni qo‘llab-quvvatlash bilan birga yechimi va yo‘llarini tahlil etgan. T.Parsons, E.Dyurkgeymarning ijtimoy mehnat taqsimotida jinslarning o‘rni, I.Goffman hamda G.Zimmelning tadqiqotida esa, xotin-qizlarning ijtimoiylashuvi masalalari tadqiq etilgan. [4].

Tadqiqot usullari. Ilmiy maqola tayyorlashda tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish kabi usullar qo‘llanilgan.

Tahlil va natijalar:

Yuqoridaqilarga asoslangan holda mazkur maqolada quyidagi vazifalar:

birinchidan, xotin-qizlarning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘rni va roli ortib borayotganini aniqlash;

ikkinchidan, davlat boshqaruvida ayollarning ijtimoiy faolligini oshirishning asosiy omillarini asoslab berish;

uchinchidan, jamiyatni demokratlashtirish sharoitida ayollarning rolini oshirishning ijtimoiy-siyosiy omillarini o‘rganish;

to‘rtinchidan, ayollarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini va mavjud obyektiv shart-sharoitlarini tahlil qilib, xotin-qizlar ijtimoiy faolligini oshirishning asosi sifatida ularning ish bandligini aniqlash; ayollarning ijtimoiy-siyosiy moslashuvi ustuvorligi va jamiyatda gender tengligining huquqiy asosini tahlil etishga qaratildi.

Tadqiqot va tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlaydigan masalaning tarixi va nazariyasini o‘rganishda eng avval islohotlar tahlil etildi. Jumladan, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 2-sentyabr Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasining 75-yubiley sessiyasida nutq so‘zlab nutqida gender masalasiga alohida e’tibor berdi. Davlatimiz rahbari o‘z nutqida “biz uchun gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o‘rni tobora kuchaymoqda. Yangi Parlamentimizda ayol deputatlar soni ikki barobarga ko‘paydi”, deb mamlakatimizda xotin-qizlar siyosati bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni nazarda tutdi. Haqiqatan ham mamlakatimizda xotin-qizlarning o‘z imkoniyatlarini to‘laqonli ro‘yobga chiqarishlari uchun barcha shart-sharoitlarni ta’minalashga oid xalqaro-huquqiy hujjalarni milliy qonunchilikka uyg‘unlashtirish orqali mustahkam huquqiy asoslar yaratilmoqda.

Hozirgi davrda ayollarning yetakchilik roli, siyosatchi imijiga bo‘lgan e’tibor kuchaymoqda.

Shu bois ayol siyosatchi imijini, alohida toifaga o‘tkazib, tadqiq qilish maqsadga muvofiq. Ayol kishining jamiyatdagi o‘rni va mavqeyini belgilab beruvchi siyosiy imijini shakllantirish va omma oldida o‘zini tutishi hamda dasturi, maqsadini keng targ‘ib etish masalalari ham dolzarbdir. Bu o‘rinda Lotin Amerikasi davlatlari tajribasida juda qiziqrli ma’lumotlar mavjud. Lotin Amerika mamlakatlarida ayollarning siyosatga kirib borishi XX asrning birinchi yarmida boshlangan, vaholanki, ayollar ovoz berish huquqini tan olish jarayoni va ayollarning katta siyosatda ishtirok etishi o‘rtasida hech qanday bog‘liqlik mavjud emas edi. Lotin Amerika mamlakatlarida ayollarning siyosiy boshqaruva jarayonlariga, hattoki nomiga jalb etilishi ham

juda cheklangan holatlarda yuz bergen edi. Ularning parlamentdagi ishtiroki kamsonli, hokimiyatning ijro va sud bo‘g‘inlaridagi yuqori lavozimlarga erishishi deyarli mumkin emas edi. Xotin-qizlarning erkaklar bilan bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lishining, onalik va bolalik bilan bog‘liq davlat siyosati yuritilayotgani, xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi mavqeyini kuchaytirish, siyosiy faolligini oshirish, davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish bilan bog‘liq olib borilayotgan ishlar alohida e’tiborga loyiq.

Xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishning ta’sirchan institutsional tizimi bu vakillik hokimiyatidir. Vakillik hokimiyatining barcha darajadagi deputatlari vazifasi iqtisodiy o‘sishni inson taraqqiyoti bilan bog‘lash, ularning uzvyligini ta’minalashdan iborat. Prezidentimiz tomonidan xotin-qizlarning parlamentdagi a’zoligi keyingi yillarda 2 barobarga ortgani xalqaro minbardan ta’kidlangani ham bejizga emas. Chunki ayollar muammosi ko‘p bo‘lib, ulardan biri nikohning bekor bo‘lishi bilan ayollar uysiz qolishi, aliment undira olmasligi masalalarini ayol deputatlar qonundagi bo‘shliqlarni yengishga harakat qilishi tabiiydir. Chunki bunga yetarlicha asosimiz bor.

Haqiqatan ham mamlakatimizning 49 foizini xotin-qizlar, ularning qariyb 64 foizini 30 yoshgacha bo‘lgan xotin-qizlar tashkil etar ekan, albatta, bu yo‘nalishda alohida davlat siyosati olib borishga to‘g‘ri kelmoqda. Xalqaro doirada gender masalalariga qanday e’tibor qaratilayotganiga nazar tashlasak, dunyoda gender tengligini ta’minalashda haligacha qator muammolar borligi ko‘zga tashlanadi. Masalan, Xalqaro mehnat tashkilotining ma’lumotiga ko‘ra, har 10 ishlovchi erkak kishiga 6 ta ishlovchi ayol to‘g‘ri kelar ekan. 2019-yilning 24-sentyabri kuni o‘z ishini boshlagan BMT Bosh Assambleyasining 74-sessiyasida ham tashkilotning ayollar qanoti gender tenglik, mamlakatlarning barqaror taraqqiyotiga erishish yo‘lida ayollar uchun ham munosib huquq va erkinliklar ta’milanishi masalalarini bejizga yoritmadi. Bosh Assambleya sessiyasi davomida 192 nafar nutq so‘zlagan arboblarning atigi 17 tasi xotin-qizlar ekanligi ham alohida tanqid ostiga olindi.

O‘zbekiston xotin-qizlar masalalariga oid xalqaro majburiyatlarini vijdowan bajarishga harakat qilmoqda. Davlatimiz tomonidan “Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi konvensiyaning a’zosi sifatida milliy qonunchilikka uning normalarini uyg‘unlashtirish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, mamlakatimizda bu borada muhim qadamlar qo‘yildi. 2019-yil sentyabr oyida O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi hamda “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilindi. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunda ayollarni jinsi bo‘yicha bevosita va bilvosita kamsitishni taqilishiga alohida urg‘u berilgan. Mazkur qonun davlatimiz rahbarining 2019-yil 7-martdagи “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq ishlab chiqildi. Ushbu qonunning maqsadi xotin-qizlarni turmushda, ish joylarida, ta’lim muassasalarida hamda boshqa joylarda tazyiqlar va zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilishga qaratilgan. Ushbu sohadagi munosabatlarni tartibga solish, shuningdek, tazyiqlar va zo‘ravonlikdan jabrlanganlarni huquqiy hamda ijtimoiy himoya qilish kafolatlarini ta’minalash ham qonunning muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda ayollarning o‘z iqtidorlarini namoyon qilish qobiliyatiga yarasha ishlashi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Ana shu imkoniyatlardan foydalanish darajasi esa unga bog‘liq. Agar ayol o‘zini nafaqat ayol, balki inson sifatida jamiyatdagi o‘rnini anglasa, unga tabiat ato etgan qobiliyatni to‘g‘ri yo‘naltira olsa, faqat oila qurishni emas, balki halol mehnati bilan jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishi lozimligini hayotining maqsadi deb bilsa, bu ayol, albatta, o‘z hayotidan qanoatlana oladi.

Mustaqil O‘zbekistonda xotin-qizlarga demokratik davlatlar uchun xos bo‘lgan barcha huquq va erkinliklar taqdim etilgan. O‘tgan yillar mobaynida bu borada muayyan ishlar amalga oshirilgan Respublikamiz BMTning Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllarini yo‘q qilish haqidagi konvensiyasi, Xalqaro mehnat tashkilotining Onalikni muhofaza qilish to‘g‘risidagi, Mehnat va mashg‘ulotlar sohasidagi kamsitishlar to‘g‘risidagi konvensiyalariga MDH davlatlari orasidan birinchilar qatorida qo‘shildi. Bu hujjatlar xotin-qizlar manfaatlarini muhofaza qilish, ularning oila, umuman, jamiyatdagi mavqeyini mustahkamlashga qaratilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar kompleksining tarkibiy qismidir. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahnamoligida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, salomatligini muhofaza qilish, intilish va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ularga munosib mehnat va yashash sharoitlarini yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Shunday globallashuv sharoitda jamoatchilik nazorati guruhlari tashkil etilib, xotin-qizlar hayotidagi muammolar o‘rganilgani hamda oilalar tomonidan ko‘tarilgan masalalarni hal etish choralarini ko‘rilib, imtiyozli kredit berilayotgani muammoning amaliy yechimiga qaratilgan tadbirdir.

Ishlash istagi bo‘lgan xotin-qizlarning manzilli ro‘yxatlari shakllantirilganini barchamiz bilamiz, uning mantiqiy davomi sifatida ularning bandligini ta’minalash, ayollarning oilaviy va xususiy tadbirkorligi, hunarmandchilik ishlari keng qo‘llab-quvvatlanayotgani ham huquqiy tartibga solingen. Xotin-qizlar o‘rtasida huquqbazarliklarning oldini olish maqsadida har bir mahalla kesimida ish olib boriladi. Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan, shuningdek, o‘tgan yili maxsus ro‘yxatdan chiqarilgan 2 ming 587 nafar diniy oqim a’zosi bo‘lgan ayollarning hayotda o‘z o‘rnini topishi, ijtimoiy muammolarini hal etishga alohida e’tibor qaratilgani eng katta islohotdir. Xotin-qizlarning tibbiy madaniyatini oshirish, kam ta’minlangan oilalarga manzilli tibbiy yordam ko‘rsatish, respublika skrining va reproduktiv markazlari xizmatlarini yanada rivojlantirish bo‘yicha ham tizimli ishlar amalgalash oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 4 ta qarori, hukumatimizning 6 ta qarori, 4 ta farmoyishi va 12 ta chora-tadbirlar dasturi qabul qilindi hamda yangilanayotgan O‘zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning barcha sohada teng huquqli mehnat qilishining huquqiy asoslari yaratildi. Jumladan, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining 562 sonli qonuni qabul qilindi. Qonunda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minalashning qonuniylik, demokratizm, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, jinsi bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘ylmasligi, ochiqlik va shaffoflik, aholining ehtiyojmand qatlamlariga ustuvor ahamiyat berish kabi asosiy prinsiplari belgilandi.

Hujjatda davlat jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda, saylov jarayonida teng ishtirok etishni, sog‘liqni saqlash, ta’lim, fan, madaniyat, mehnat va ijtimoiy himoya sohalarida, shuningdek, davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarida teng huquq hamda imkoniyatlar ta’minalishini kafolatlashi belgilab qo‘yildi. Davlat statistika organlari gender ko‘rsatgichlari asosida jamiyat hayotining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning holatini aks ettiradigan statistik axborotni yig‘ishi, unga ishlov berishi, to‘plashi, saqlashi, tahlil qilishi va e’lon qilishi nazarda tutildi. Shu o‘rinda haqli bir savol – gender tenglikni ta’minalash maqsadida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning ijobiy natijasi o‘laroq, ularning ijrosi hamda qonunchilik hujjatlarini gender-huquqiy ekspertizadan o‘tkazishga doir masala qaysi normativ asosida amalgalash oshiriladi? O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-martdagi “Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini gender-huquqiy ekspertizadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 192-tonli qarorida normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini gender-huquqiy ekspertizadan o‘tkazish tartibi, normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining gender-huquqiy ekspertizasi, gender-huquqiy ekspertizadan o‘tkazishning talablari, gender-huquqiy ekspertiza o‘tkazilayotganda qo‘llaniladigan axborot, gender-huquqiy ekspertizani o‘tkazuvchi ekspertning huquq va majburiyatları kabi bir qator nazariy-huquqiy masalalarga javob topish mumkin.

Normativ-huquqiy hujjatda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minalash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilanib, bundan tashqari, “gender”, “gender-huquqiy ekspertiza”, “jins bo‘yicha bevosita kamsitish”, “jins bo‘yicha bilvosita kamsitish” kabi ushbu sohaning asosiy tushunchalariga aniq izohlar berilmoqda. Avvalo, ushbu tushunchalarning ta’riflari bo‘limganligi bois, huquqni qo‘llash amaliyotida noaniqliklar kelib chiqar edi. Qonunda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minalashning qonuniylik, demokratizm, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, jinsi bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘ylmasligi, ochiqlik va shaffoflik, aholining ehtiyojmand qatlamlariga ustuvor ahamiyat berish kabi asosiy prinsiplari belgilandi. Hujjatda davlat jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda, saylov jarayonida teng ishtirok etishni, sog‘liqni saqlash, ta’lim, fan, madaniyat, mehnat va ijtimoiy himoya sohalarida, shuningdek, davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarida teng huquq hamda imkoniyatlar ta’minalishini kafolatlash belgilab qo‘yildi.

Bu boroda xorij tajribasiga e’tibor bersak, “Gender-huquqiy ekspertiza yuzasidan xorijiy davlatlar tajribasida **Ispaniya**. Ispaniyada 2007-yilda “Ayollar va erkaklar teng huquqlilagini to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilingan bo‘lib, Ispaniya hukumati huzurida gender tenglikni ta’minlovchi komissiya tashkil etilgan. Mamlakatda gender tenglikni ta’minalashga oid strategik rejalarini qabul qilish, ayollar va erkaklarga davlat sektoridagi lavozimlarda ishlashga, siyosiy hayotda ishtirok etishga bo‘lgan huquqini ta’minalashga

qaratilgan davlat siyosati amalga oshiriladi. Shuningdek, qonun hujjatlarining gender tenglikka ta'siri huquqiy ekspertizadan o'tkazilib baholanadi.

Keyingi tadqiqot manzilimiz **Avstriya**. Mamlakatda 2013-yilda o'tkazilgan federal byudjet islohotidan so'ng parlament tomonidan normativ hujjatlarning erkaklar va ayollar o'rtaсидаги "haqiqiy" tenglik nuqtayi nazaridan tahlilini, shuningdek, barcha yangi qonunlar, qonunosti hujjatlar va boshqa yirik davlat loyihalarining gender guruhlariiga ta'sirini baholash joriy etildi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakat uchun qonun hujjatlarini gender-huquqiy ekspertizadan o'tkazishdagi yangi qadam bo'ldi.

Bundan tashqari, **Belgiya** mamlakatida "Gender tenglik to'g'risida"gi 2007-yilda qabul qilingan qonunga binoan, davlat boshqaruviga oid ishlab chiqilayotgan har bir qonun hujjatida gender tenglik sohasidagi strategik maqsadlar ko'rsatilishi kerakligi, har bir qonun loyihasi yoki taklif qilinayotgan strategik dastur "gender ekspertiza" dan o'tishi kerakligi va federal hukumat qonunchilik aktining birinchi qismida gender tengligi bo'yicha strategik maqsadlarni o'z ichiga olishi kerakligini belgilaydi. Albatta, qonunda ushbu bosqichlarni monitoring qilish va baholash ko'zda tutilgan.

Bugungi kunda mamalakatimizda gender tenglik bo'yicha institutsional asoslar ham kengaytirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi 562-sonli qonuniga asosan mamalakatimizda normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalari gender-huquqiy ekspertizasi turli jins vakillariga taqdim etiladigan teng huquq va imkoniyatlar kafolatidan kelib chiqqan holda sohaviy tarmoqlarga (sog'liqni saqlash, ta'limgan, ilm-fan, madaniyat, oilaviy munosabatlar va bolalar tarbiyasi, ijtimoiy himoya, siyosiy, iqtisodiy sohalarga) ajratilgan. Bu esa gender-huquqiy ekspertizaning nechog'lik mukammal va professional amalga oshirilishidan dalolatdir.

Ayni paytda, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tarkibida ayollar huquqlarini ta'minlash va kamsitishning har qanday shakliga barham berish bo'yicha milliy qonunchilikda xalqaro standartlarni uyg'unlashtirish bilan shug'ullanuvchi yangi Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil qilindi.

Uning isboti sifatida davlatimiz rahbari Oliy Majlisga Murojaatnomasida Qo'mitaga xotin-qizlar bandligini ta'minlash, ayniqsa, og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan 13 ming nafar *xotin-qizni ish bilan*, 1600 nafar *xotin-qizni uy bilan ta'minlash vazifasini topshirgani hamda qo'mita* tomonidan bu borada aniq rejalar belgilanib, amaliy ishlar olib borilayotgani ayni haqiqatdir.

2019-yil 2 ta qonun qabul qilinib, biri gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bugun ayollarimiz elchi, hokim, senator, deputat va barcha sohalarda faoldir. Parlamentda ham 30 foiz ayollar saylangani, xotin-qizlarimizga katta e'tibor qaratilayotganidan dalolatdir.

Ikkinchidan, ayollar daftari tashkil etilib, har bir ayol shaxsan o'rganilmoqda.

Uchinchidan, "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni, Zulfiya nomidagi davlat mukofotlari ayollarimizning davlat tomonidan e'tirof etilishidir. Hadislarda ham "uch marotaba onangga keyin otangga yaxshilik qil", deb beziz aytilmagan. Hozirgi vaqtida mamlakatimizda turli soha va tarmoqlarda mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilarining 45 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Jumladan, davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1 ming 400 ga yaqin opa-singillarimiz rahbarlik lavozimlarida mehnat qilmoqda. Ulardan 17 nafari senator, 16 nafari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati bo'lib, shuningdek, ko'plab xalq deputatlari mahalliy kengashlari tarkibida faoliyat yuritmoqda. O'nlab opa-singillarimiz "O'zbekiston Qahramoni", "O'zbekiston fan arbobi", "O'zbekiston xalq o'qituvchisi", "O'zbekiston xalq shoiri", "O'zbekiston xalq artisti" singari davlatimizning yuksak faxriy unvonlari, orden va medallariga sazovor bo'lgan. Ularning orasida 500 nafardan ziyod fan doktorlari va akademiklar, minglab fan nomzodlari o'z bilimi va iste'dodi bilan Vatanimiz ravnaqiga astoydil xizmat qilib kelmoqda. Jamiat va davlat hayotida faollik va tashabbuskorlik ko'rsatgan, o'zining samarali mehnati bilan oilaning shakllanishi va farovonligi mustahkamlanishi, onalik va bolalik muhofazasiga munosib hissa qo'shgan xotin-qizlarga beriladigan "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni ta'sis etildi.

Xotin-qizlar saylov jarayonida saylovchi, deputatlikka nomzod, saylov komissiyasining a'zosi, kuzatuvchi, partiyaning vakolatli vakili, ishonchli vakil sifatida erkaklar qatori teng va erkin, ochiq va oshkora ishtirot etishlari mumkin.

"Saylov huquqlarini amalga oshirishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari" "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonunda alohida bobda mustahkamlandi. Unga asosan, xotin-qizlar va erkaklar hokimiyat vakillik organlariga saylash va saylanishda teng huquqlarga ega. Siyosiy partiyalar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy

Majlisi Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatligiga nomzodlar ko'rsatishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining, saylov hamda referendumlar o'tkazish bo'yicha viloyat, tuman, shahar, okrug va uchastka saylov komissiyalarining tarkibini shakllantirishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar ta'minlanadi. Saylov kodeksining 70-91-moddalariga asosan, ayollarning soni siyosiy partiyadan ko'rsatilgan deputatlikka nomzodlar umumiy sonining kamida o'ttiz foizini tashkil etishi kerak. Nomzodlar o'rtasida ayollar miqdorini oshirish bo'yicha norma belgilash jahonda qo'llaniladigan usul bo'lib, Albaniya, Bosniya, Gersegovinya, Makedoniya, Gretsiya, Chernogoriya, Polsha, San-Marino, Serbiya, Sloveniya, Armaniston, Qirg'iziston, Ispaniya qonunchiligidagi ham buni yaqqol dalilini ko'rshimiz mumkin. Nomzod ayollar uchun ixtiyoriy yoki majburiy kvotalar Fransiya, Shvetsiya, Shvetsariya, Turkiya, Buyuk Britaniyada qayd qilingan.

Shu bois ham o'zbek ayollarining bugungi kundagi davlat boshqaruvidagi faolligini mamlakatimiz aholisining qariyb 50 foizini, ya'ni 29 foizini 14 yoshgacha, 28 foizini 15-30 yoshlilar, 21 foizini 31-45 yoshlilar, 15 foizini 46-60 yoshlilar, 7 foizini 60 yoshdan katta xotin-qizlar tashkil etishi bilan birga, senator, deputat, hokim, elchi, prokuror kabi lavozimlardagi faoliyatida ham ko'rish mumkin. Ular ijtimoiy-ma'naviy, siyosiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalarida samarali va faol mehnat qilib kelishmoqda. Asosiy qonunimiz – Konstitutsiyada ham xotin-qizlarning barcha sohalarda teng huquqli ekanligi e'tirof etilgan. Hukumat tomonidan chiqarilayotgan qaror va farmoyishlarda ayollar, oilalar, farzandlar manfaati hamisha ustuvor bo'lib kelmoqda. Bu sa'y-harakatlar ayollarning jamiyat hayotida faolligi orqali o'z ifodasini topayotir. Xotin-qizlarimizning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda e'tibor kuchaytirilayotganligining yana boshqa jihatlari ham bor. Eng katta yangilik, bir huquqshunos sifatida aytishim shartki, uncha-buncha davlatda yo'q, bunday o'rnatilgan tartib, ya'ni kam ta'minlangan xotin-qizlar uy olishi uchun boshlang'ich badal pulini to'lab berish tizimi yangi O'zbekistonda joriy etilgan islohot. Shuningdek, 2019-yil 1-maydan nodavlat notijorat tashkilot maqomiga ega bo'lgan "Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari" tashkil etildi. Markazlarning asosiy vazifalari etib, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan hamkorlikda uzoq muddat bola parvarishlash ta'tilda bo'lgan, mushkul iqtisodiy ahvolga tushgan ayollarni mehnat bozorida talab etilayotgan kasblar bo'yicha qayta tayyorlash va ularning ishga joylashishiga ko'maklashish va boshqa yo'nalishlar bo'yicha amaliy yordam ko'rsatishi belgilandi.

Shuningdek, eng qiyin va og'riqli masala ishga qabul qilishdagi huquqiy asoslarimizning qonuniy yechimining o'zi ham har qanday ayolning ko'nglini ko'taradi. Jumladan, O'zR Mehnat kodeksining 224-moddasida homilador va uch yoshga to'limgan bolasi bor ayolni ishga qabul qilishni rad etish yoki ish haqini kamaytirish ta'qilanganishi belgilangan. Demak, ayollarimizni, yosh kelinlarimizni homiladorligi hamda uch yoshga to'limgan bolasi borligini ro'kach qilib ishga olmaslik qonunbuzarlikdir.

Shuningdek, ayollarimizning mehnat sharoiti noqulay va zararli bo'lgan hamda og'ir jismoniy ishlar yoki tungi ishlar, ish vaqtidan tashqari va dam olish kunlari, xizmat safariga jalb etishda cheklolvar mazkur qonunining 225-modda, 228-moddalarida ayollar mehnati ta'qilanganishi belgilangan. Yana bir muhim imkoniyatlardan biri bu homilador va ikki yoshgacha bolali ayollarni o'rtacha ish haqi saqlangan holda boshqa yengilroq yoki zararsiz ishga o'tkazish haqidagi norma 226-modda, 227-moddalarda yengilroq va zararsiz ishlarga o'tkazishga qaratilgan. Shu bilan birga, uch yoshga to'limgan bolasi bor ayollarga haftalik ish vaqt 35 soatdan oshmagan va avvalgi ish haqi saqlanilishi esa Mehnat Kodeksimizning 228-1 va 229-moddalari bilan qayd etilgan.

Barchamizga ayonki, ayollarimizning eng qiyin holati bu oilada nogiron farandga g'amxo'rlik qilish hamda uni o'z tengqurlaridek sharoitda tarbiyalab o'stirishdir. Mazkur muammoning yechimi sifatida mehnat qonunchiligidimizning 230-moddasiga ko'ra, 16 yoshgacha nogiron bolali ota-onaning biriga har oyda ish haqi saqlangan holda bir kun dam olish kuni berilishi tafsinga sazovordir. Bundan tashqari, homilador va bola tuqqan ayollarga yillik mehnat ta'tili ularning xohishiga ko'ra, ular istagan vaqtida berilishi 231-moddada o'z ifodasini topgani, oilaviy sharoitlarning yaxshilanishiga yaratilgan imkoniyat va shart-sharoitdir.

Sharq ayollarining milliy qadriyatiga aylangan oilaviy marosimlar hayot mazmuniga singib ketganki, bu jihatlari ham ayollarimizga 3 (uch) kun haq to'lanadigan va kamida 14 kalendar kunidan iborat haq to'lanmaydigan ta'til berish masalasi qonunchiligidimizning 232-moddasida belgilangan. Xususan, ularning huquqiy madaniyati va huquqiy savodxonligini oshirish, iqtisodiy faoliyatni keng yo'lga qo'yish, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish masalalari davlatning muhim maqsadlari qatoridan joy oldi. Mamlakatimizda

amalga oshirilayotgan islohotlar ta’lim va tarbiyaga e’tiborning kuchaytirilishi bilan yanada mustahkamlandi. Yurtimiz ravnaqi, farzandlarimizning, xususan, qizlarimizning bilimli, har jihatdan barkamol bo‘lib ulg‘ayishida, jamiyatimizning ma’naviy-ma’rifiy jihatdan yuksalishida xotin-qizlarimizning hissasi kattadir.

Yuksak ma’naviyatli va ma’rifatli, namunali odobi va tarbiyasi bilan e’tirof etilgan onalarimizning izdoshlari bugun davlat va jamiyat qurilishida, ishlab chiqarishda, ilm-fan, madaniyat, tibbiyot, ta’lim va hatto harbiy sohada xizmatlari beqiyos. Bugungi kunda mamlakatimizda ilm-fan, ta’lim-tarbiya sohalarida mehnat qilayotgan xotin-qizlar bilan olib borilayotgan ishlarni ikki yo‘nalishga ajratish mumkin. Zero, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan xodimlarning 72 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. “2020-2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi”ni qabul qilib, uni amalga oshirish bo‘yicha ishlar boshlanganiga xalqimiz o‘zi guvoh va ishtirokchidir. Axir 8-mart munosabati bilan 28 nafar iqtidorli qizlarimizga Zulfiya mukofoti hamda ko‘p yillar davomida o‘z sohasida katta natijalarga erishgan, davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etib kelayotgan opa-singillarimizdan 297 nafari “Mo‘tabar ayol” nishoni bilan taqdirlangani minglab ayollarga quvonch va ishonch baxsh etadi hamda xotin-qizlar zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi.

Yangi O‘zbekistonda jamiyatning demokratik o‘zgarishlari hamda gender tenglikni ta’minlash yo‘lidagi bahosini shu jamiyatning ayollarga munosabati, yaratilgan imkoniyati va bergen shart-sharoiti bilan belgilanadi. Bunday imkoniyat, bunday e’tibor, albatta, har bir ayolda mehnatga, o‘z iqtidor va qobiliyatini ro‘yobga chiqarishga, yangi g‘oyalar ustida ishlashga, tashabbuskorlik ko‘rsatishga ishtiyoq hamda kelajakka ishonch uyg‘otadi. Yangi-yangi yutuq va marralar sari yetaklaydi. Xotin-qizlarni yangicha yondashuv, yangicha g‘oya va yangicha tashabbuslar bilan chiqishlariga undaydi.

1. Xulosa va takliflar: (Conclusion/Recommendations).

Mazkur tadqiqotda ko‘tarilgan maqsad: BMT bosh Assambleyasining 1967-yil 7-noyabrda qabul qilgan ayollarga nisbatan kamsitishlarni bartaraft etish Butunjahon deklaratsiyasining 1-moddasida “Ayollarga nisbatan kamsitish, ularning erkaklar bilan teng huquqligini rad etish yoki cheklashga olib keladigan holatlar qayd etilsa, o‘z mohiyatiga ko‘ra adolatsizlik bo‘lib, inson qadr-qimmatiga qarshi jinoyat sodir etilgan hisoblanadi”, deb ta’kidlangan. Bu borada mamlakatimizda qator nomativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi va takomillashtirildi.

Jamiyatda gender muammolarini hal etishning eng muhim sharti – davlat tuzilmalari, jamaot birlashmalari va nodavlat tashkilotlarning faol muloqoti va ijtimoiy sherikligidir, chunki ular davlat va fuqarolik jamiyatni o‘rtasidagi asosiy ko‘prikdir. Aynan ana shu ko‘prik xotin-qizlarning davlat va jamiyat hayotida ijtimoiy faolligini nazorat qiladi, shart-sharoit yaratadi va qo‘llab-quvvatlaydi. Bu esa, xotin-qizlarning asossiy mehnat bandligi bilan birga turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan rivojlanish strategiyasining muhim qismidir.

Shu munosabat bilan bunday siyosatni amalga oshirishda ilm-fanni faol jalb qilish kerak, chunki davlat boshqaruvida ishlaydigan ayollar zamon bilan birga hamnafas bo‘lib faolligini ro‘yobga chiqarishida ilmiy asoslangan maxsus tadqiqotlarni talab etadiki, unda sotsiologik so‘rovlar, aholining bunga munosabati va xotin-qizlarning xabardorligi muhim o‘rin tutadi. Shu bois ayollarning davlat boshqaruvidagi rolini oshirishga qaratilgan nazariy va amaliy qo‘llanmalarga muhtojlik seziladi. Demak, bu borada yoshlar, talabalar o‘rtasida tanlovlardan o‘tkazish ham maqsadga muvofiqdir.

Xuddi shunday mehnat munosabatlarda, ta’lim sohasida ham erkaklar va ayollarning teng huquqlari hamda imkoniyatlari ta’minlanishi jamiyatda ayollar rolini oshirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda mamlakatimizda ilm-fan, ta’lim-tarbiya sohalarida mehnat qilayotgan xotin-qizlar bilan olib borilayotgan ishlarni ikki yo‘nalishga ajratish mumkin. Zero, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan xodimlarning 72 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Birinchi yo‘nalish – ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar ijtimoiy siyosiy faolligini yanada oshirish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarda ularning faol ishtirokini ta’minlash ishlarini yanada takomillashtirish bo‘lib, ushbu yo‘nalish mamlakatimiz taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu vazifani ta’lim muassasalarida xotin-qizlarning iqtisodiy va huquqiy bilimlarini oshirishga e’tibor qaratish, huquqbazarlik va jinoyatchilik profilaktikasini kuchaytirish, o‘qituvchilarining kiyinish madaniyatiga va odob-axloq me’yorlariga rioya etishlarini ta’minlash ham bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Ikkinci yo‘nalish – ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan qizlarning huquqiy savodxonligini oshirishga, ya’ni ularning turmush qurishdagini haq-huquqlari, nikoh shartnomasi, er-xotin o‘rtasidagi va boshqa oilaviy munosabat to‘g‘risida ko‘nikmalarini shakllantirish lozim bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, mamlakatimizda xotin-qizlarga oid davlat siyosatini qo‘llab-quvvatlash hamda rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish hamda targ‘ib etish zarur. Demak, siyosiy faol, yetuk ma’naviyatli, jamiyatning muhim tayanchi bo‘lgan xotin-qizlar rolini yanada kuchaytirish uchun quyidagilar taklif etiladi: birinchidan, ayollarimizning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kuchaytirish maqsadida siyosiy partiyalar dasturlarini keng jamoatchilikka yetkazish lozim.

Ikkinchidan, OAVlarda siyosiy, huquqiy bilimini oshiruvchi ko‘rsatuvlarni xalqchil tilda yetkazish zarur.

Uchinchidan, xotin-qizlarning oilada huquqiy savodxonligini oshirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Toki oilaviy zo‘ravonlik qurbaniga aylanib qolmasligi uchun qizlarimizni haq-huquqi bilan birga ma’naviy yuksak bo‘lishi davr talabidir.

To‘rtinchidan, yangilanayotgan O‘zbekistonda mahkumlikdan ozod bo‘lgan ayollar huquqiy savodxonligi va madaniyatini yuksaltirishga alohida e’tibor berish vaqtি keldi. Shu bois bunday xotin-qizlarning ilm olish huquqini, ayniqsa, Oliy ta’limda o‘qitish masalasini hal etmoq kerak. Sirtqi, kechki bo‘limlarda ishdan ajralmagan holda ta’limni tashkil etish Yangi O‘zbekistonning yangi islohotlaridan biriga aylanar edi.

Beshinchidan, ilm yo‘lida izlanish olib borayotgan yosh ayollarimizning ilmiy tadqiqotlarini qo‘llab-quvvatlash (zamonaviy, innovatsion usullar asosida qisqa o‘quv dasturlari asosida) tashkil etish o‘rinli bo‘ladi.

Oltinchidan, xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi faolligini oshirishga qaratilgan maxsus o‘quv kurslari ham tashkil etish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент. Ўзбекистон НМИУ. 2019. 40-б.
2. “Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида”ги Конун lex.uz/docs/4494849. (Конун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 03.09.2019 й., 03/19/562/3681-сон)
3. “Хотин-қизларни тазийиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиши тўғрисида”ги қонунлар. <https://lex.uz/docs/4494849>. (Конун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 03.09.2019 й., 03/19/562/3681-сон)
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 7 мартағи ПҚ-4235-сон қарори. “Хотин-қизларнинг меҳнат ҳуқуqlари кафолатларини янада кучайтириши ва тадбиркорлик фаолиятини қўллаб-қувватлашига oid чора-тадбирлар тўғрисида”. <https://lex.uz/docs/4230944>
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 17 мартағи ПФ-6188-сонли фармони. Конун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 17.03.2021 й., 06/21/6188/0216-со
6. Платон. Соч. – Москва, 1971. – Т.3, 4.1. – С.251; Там же 4.2. – С. 258 ; Аристотель. Политика. – Москва – Л., 1893. – С. 34
7. Фурье Ш. Изб. соч. – Москва, 1951. – Т. 1. – С. 174. Parsons T. The American Family: Its Relations to Personality and to the Social Structure /Parsons T., Baies R. Family, Socialization and Interaction Process. Glencoe, IL: Free Press, 1955);
8. Дюргейм Э. О разделении общественного труда. Метод социологии. - М.: Наука, 1991; Дюргейм Э. Самоубийство. – Москва: Мысль, 1994;
9. Зиммель Г. Женская культура. Фрагмент о любви /Зиммель Г. Избранное. – Москва: Юрист. – Т.2. – С.234-265;
10. Teaching sufism: ideas of bahauddin nakshbandi and its activity in Modern Uzbekistan. SRK Mukhitdinova Firyuza Abdurashidovna, Agzamkhadjaeva Saida Sabithanovna ...International Journal of Advanced Science and Technology. Vol. 28 No. 12 (2019) ISSN: <http://sersc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/1223>.
11. “I-халқаро: Янгиланаётган Ўзбекистонда хотин-қизларнинг илм – фан тараққиётидаги роли ва Гендер тенглиги” мавзуси конференция ахборот хами. 2021 йил, 2-3 марта.

Eshmanova Nodira Nazarkulovna,
ChDPI “Umumiy pedagogika” kafedrasи o‘qituvchisi

YOSHLARNING BARKAMOLLIGINI TA’MINLASHDA AYOL PEDAGOGLARNING TUTGAN O‘RNI

Yoshlarni barkamol avlod qilib tarbiyalashda ta’lim sohasi alohida ahamiyat ega. Bu ishlarning samarali bo‘lishi uchun tarbiyani ham birga olib borish lozim. Chunki tarbiya orqali ta’lim tizimi boshqariladi hamda tarbiya qaysi yo‘nalishda bo‘lsa, ta’lim ham kelajakda shu yo‘nalishni belgilaydi. Shuning uchun ham mazkur vazifa yoshlardagi aniq istiqbolli maqsadni amalga oshirishga qaratilgan. Ammo yoshlarning barkamol inson bo‘lib tarbiyalanishiga hissa qo‘shadigan to‘g‘ri tarbiyalash mexanizmlariga alohida e’tibor qaratish lozim.

Yoshlar barkamol avlod bo‘lishlari uchun davlatimiz tomonidan katta imkoniyatlar va shart-sharoitlar yaratib berilgan. Xususan, ushbu masalaga oid bo‘lgan davlat dasturlari qabul qilinib, bularga misol qilib 2008-yilda respublikamizda qabul qilingan “Yoshlar yili” va unga oid bo‘lgan davlat dasturlarini keltirish mumkin.

Avvalo, yoshlarning har tomonlama yetuk va barkamol bo‘lib yetishishi oilada, shuningdek, maktabgacha ta’lim muassasalarida, maktablarda, o‘rtा maxsus kasb-hunar va oliv ta’lim muassasalarida tarbiyalanadi. Mazkur ta’lim muassasalarida ustoz-murabbiylar samarali faoliyat yuritib, o‘z xizmat vazifalarini yetuk qilib bajarib kelmoqdalar.

Ayniqsa, hukumatimizning ilm-fan va ta’lim sohasidagi olib borayotgan islohotlari xorij aloqalarining jadallik bilan rivojlanishi ish faoliyatida katta o‘zgarishlarni yasadi. Xususan, zamon bilan hamnafas bo‘layotgan jamiyatda ayollar ushbu jarayonda faol ishtirok etmoqdalar hamda ilm-fan va ta’lim sohasiga chuqur kirib borishi bilan birga xorijiy tajribalarni kengroq o‘rganishga ham alohida e’tiborlarini qaratmoqdalar.

Ayollarning jamiyatdagi mavqeyi va maqomini yuksaltirish, ularning olib borilayotgan islohotlar jarayonidagi faolligini oshirish maqsadida bir qator qonun hujjatlar qabul qilingan. Ularning huquq va manfaatlarini ta’minalash, kuchli ijtimoiy himoyalash, iqtisodiy, siyosiy huquqlarini oshirish, har jihatdan qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishga oid ezgu sa’y-harakatlar dunyoda namuna olsa arzigulik ishlar sifatida e’tirof etilmoqda.

Ayollarning qo‘llab-quvvatlash ham hamisha davlat siyosati darajasida bo‘lib kelmoqda. Xususan, bu borada joriy yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagи PF-5325-sonli “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi va shunga asosan, ularga e’tibor alohida ahamiyatga ega bo‘la boshladi.

O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi tashabbusi bilan ayol-pedagoglar tomonidan o‘quv maskanlaridagi ta’lim, davomat, bilimlarni o‘zlashtirishni doimiy tahlil etib borish, yoshlar, ayniqsa, qiz bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini to‘g‘ri shakkantirishda o‘qituvchilar jamoasiga yaqindan ko‘maklashish yuzasidan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoxda. Shuningdek, o‘smir qizlar, talabalar, uy bekalari, mehnat jamoalaridagi mutaxassis ayollar uchun gimnastrandalar, sport festivallari, spartakiadalar ham muntazam o‘tkazilmoqda.

Darhaqiqat, ayollar turli sohalarda ishlab kelib, yoshlarning bilimi, malakasi va tajribasining o‘sishi, kasbiy faoliyatining muhim qirralarini ta’mishlashda o‘zlarining salmoqli hissalarini qo‘shib kelmoqdalar. Ularning ko‘pchiligi mutaxassis-xodimlar bo‘lishsa, ayrimlari olim-tadbirkorlardir. Yoshlarning ma’naviy va ma’rifiy barkamolligi uchun ular o‘qituvchi-murabbiy vazifasini o‘taydilar. Mazkur vazifani ayollarga xos bo‘lgan pedagog sifatida keng talqin qilish mumkin.

Ayol pedagog sifatida yoshlarni bolalik davridan to‘g‘ri so‘z, vijdonli, mehribon, iqtidorli va shijoatkor qilib tarbiyalash ishlarini amalga oshirishga katta hissa qo‘shib keladi. Ular yoshlarga to‘g‘ri yozish va so‘zlash qoidalarini ham o‘rgatadilar. Ayniqsa, ular yoshlarda bir-birlari va boshqalarga bo‘lgan hurmatni, matonatlari va irodali bo‘lish yo‘llarini o‘rgatishlari bilan birgalikda, ularning savodlilik darajasini oshirishga katta hissa qo‘shib keladilar. Chunonchi, ayol-pedagoglarning ijtimoiy vazifasi yoshlarda turmush tarzi ularning kelajakda sog‘lom qilib tarbiyalashga qaratilgan bo‘lib, bunda, avvalo, ta’lim va tarbiya dastlabki ta’sir qiluvchi vosita va omillar biri bo‘lib hisoblanadi. Ular o‘zaro bir-biri bilan chambarchas aloqada bo‘lib, natijada kelajak “bunyodkorlari” bo‘lgan barkamol avlodni jismoni, ruhiy va aqliy jihatdan sog‘lom qilib tarbiyalash belgilanadi.

Bugungi kunga kelib, yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalash uchun ayol-pedagoglarning oldida katta maqsad turibdi. Bu ham bo‘lsa, ular tarbiyalaydigan kelajakdagi inson, ya’ni bugungi kun yoshlari mamlakatimiz ilm-fan ravnaqi va ijtimoiy-iqtisodiy hayotini yaxshilaydigan haqiqiy shaxs bo‘lib yetishishlaridir. Buning uchun ayol-pedagoglarimiz o‘quvchi-yoshlar bilan doimiy yaqin va do‘stona bo‘lishlari, qiziqarli shaklda dars mashg‘ulotlarini olib borishlari, yoshlardagi muammolarni aniqlab, ularning yechimlarini topishga katta o‘z yordamlarini berib turishlari, “ustoz-shogird” an‘analari asosida ta’lim tarbiya berish jarayonini keng davom ettirishlari hamda namunali “ota-on” vazifasidagi yetuk yetakchi (lider) bo‘lishlari talab etiladi.

Shuningdek, ayol-pedagoglar quyidagi keltirilgan vazifalarni doimiy ravishda bajarib kelishlari talab etiladi:

- o‘zaro bir-biriga aloqador bo‘lgan “mahalla-oila-ta’lim muassasalari” hamkorligida doimiy ishlashni ta’minalash;
- yoshlardagi odob-axloq va madaniyatga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirish va yanada kuchaytirish;
- turli madaniy, ma’naviy va ma’rifiy yo‘nalishlardagi tadbirlarni o‘tkazishni yo‘lga qo‘yish va ularda yoshlarning hayotini yaratishga qaratilgan jihatlariga alohida e’tiborlarni qaratish;
- ommaviy axborot vositalari va matbuotlarda yoshlar bo‘yicha turli mavzulardagi chiqishlarni amalga oshirib borish;
- har bir oilada yoshlarning faol bo‘lish jarayonlarini kuchaytirishni ta’minalash;
- yoshlarda tibbiy va ekologik mavzulardagi shaxsiy tarbiyani kuchaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va h.k.

Shamsiddinova Ozoda Bo‘riyevna,
Karimova Zulfizar Lochinovna,
*Sudyalar Oliy kengashi huzuridagi
Sudyalar oliy maktabi doktorantlari*

ER-XOTIN VA BOSHQA OILA A’ZOLARINING MOL-MULK DAN FOYDALANISH HUQUQI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik va Uy-joy kodeksida oila a’zolarining mol-mulkdan foydalanish huquqi va amaliyotining dolzarb muammolari ko‘rib chiqilgan bo‘lib, huquqshunos olimlarning nazariy fikrlari hamda qonunchilik tahvil qilingan. Shuningdek, amaliyotda oila a’zolarining mol-mulkdan foydalanishga oid normalarni noto‘g‘ri kvalifikatsiya qilishga oid ba’zi muammolar ham tadqiq qilingan. Shu bilan birga, oila a’zolarining mol-mulkdan foydalanishi bo‘yicha asoslangan, konstruktiv takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: oila a’zolari, er-xotin, mol-mulk, turar joy, xususiy mulkchilik, uzufrukt, superfitsiy, ashayoviy huquq.

Аннотация. В статье исследуются актуальные вопросы права и практики членов семьи в Гражданском и Жилищном кодексе Республики Узбекистан, анализируются теоретические взгляды ученых-юристов и законодательства. На практике также исследовались некоторые проблемы, связанные с неправильной квалификацией норм пользования имуществом членами семьи. При этом были внесены обоснованные, конструктивные предложения по использованию имущества членами семьи.

Ключевые слова: члены семьи, пара, собственность, жилье, частная собственность, узуфрукт, superfitsiy, имущественное право.

Annotation. The article examines the current issues of the law and practice of family members in the Civil and Housing Code of the Republic of Uzbekistan, analyzes the theoretical views of legal scholars and legislation. In practice, some problems related to the incorrect qualification of the norms for the use of

property by family members were also investigated. At the same time, reasonable, constructive proposals were made for the use of the property by family members.

Key words: family members, couple, property, housing, private property, usufruct, superficies, property law.

Ma'lumki, uy-joy insonning doimiy va asosiy ehtiyoji sifatida alohida huquqiy rejimga ega. Uy-joydan foydalanishda er-xotinni hamda boshqa oila a'zolarini mulk huquqi o'ziga xos xususiyatga ega. Zero, mulk huquqi va uning elementlari o'zaro nisbatini aniqlash, oila a'zolarining uy-joydan va boshqa mol-mulkdan foydalanishiga doir masalalarni tadqiq etish alohida dolzarb ahamiyatga ega.

Bugungi kunda amalgalashishga oshirilayotgan islohotlar sharoitida oila mustahkamligini ta'minlash, oila a'zolarining huquqlari kafolatlari, oila a'zolarining uy-joy hamda boshqa mol-mulkdan foydalanish huquqining mohiyati, ashyoviy huquq konstruksiyalarining rivojlanish tendensiyalari, zamonaviy sivistika fanida mavjud yondashuvlarni tahlil qilish kun tartibidagi masalalardan biridir.

Uy-joy muammosi dunyodagi barcha davlatlar uchun eng muhim ahamiyatga molik muammolar turkumiga kiradi. BMTning axborotnomasida belgilanishicha, dunyoda bir milliarddan ortiq shaxs uy-joy muammosi bilan qynalib yashab kelmoqda, to'rt yuz milliondan ortiq shaxs esa umuman boshpanasiz, tayin yashash joyiga ega bo'lmashdan yashab kelmoqda⁷⁸.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli ekanligi o'z aksini topdi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatda xususiy mulkchilikka keng yo'l ochilishiga va kishilarda mulkdorlik hissining shakllanishiga katta turki berdi hamda shaxslarning o'z moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan imkoniyatlarini yanada ortishiga xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to'g'risida"gi 1993-yil 7-maydag'i qonunning qabul qilinishi natijasida uy-joyga nisbatan mulk huquqi, undan foydalanishga doir muammo birmuncha bartaraf etilgandek bo'ldi.

Mazkur qonunning 12-moddasiga ko'ra, ikki va undan ziyod ijarachi yashab turgan bo'lsa-yu, ulardan ayrimlari xususiylashtirishga rozi bo'lmagan kvartiralar xususiylashtirilishi mumkin emasligi nazarda tutilgan. Qonunning 13-moddasiga asosan, turar joyni xususiylashtirishga rozilik bergan shaxslar shu turar joy maydonidan foydalanish huquqini saqlab qolishi, xususiylashtirilgan uy-joyni sotish yoki ijaraga berish ularning roziligi bilan amalgalashishga qaratilgan imkoniyatlarini yanada ortishiga xizmat qildi.

O'tgan asrning 90-yillarida oila a'zolarining uy-joyga nisbatan mulk huquqini amalgalashishga doir nizoli holatlar davom etdi. Xususiylashtirish jarayonida oila a'zolarining ishtiroki, ularni mulkdorning mulk huquqini tasarruf etishga roziliginu talab qilinishi mulk huquqini tasarruf etishga ta'sir ko'rsatdi.

O'zbekiston Respublikasi Uy joy kodeksiga 2018-yil 11-oktyabrda kiritilgan o'zgarishlarga ko'ra, uy-joyni xususiylashtirishga rozilik bergan shaxsning turar joydan foydalanish huquqi uning vafotidan keyin ochiladigan meros tarkibiga kirmaydi (32-modda). Vaqt o'tishi bilan qonunchilikka o'zgartirish kiritilishi natijasida nizoli masalaga nisbatan sudlarning turlicha yondashuvlariga chek qo'ydi. Chunki uy-joyning ikkilamchi bozori ham bir muncha rivojlandi.

Bu o'rinda o'ziga xos yondashuv kodeksda oila a'zolariga ta'rif berilishi bilan bog'liq. Oila kodeksining 5-moddasida oila a'zolari: er-xotin, ota-onasi va bolalar (farzandlikka oluvchilar va farzandlikka olinganlar) tushuniladi. O'zbekiston Respublikasi Uy joy kodeksining 32-moddasiga ko'ra, turarjoy mulkdorining oila a'zolari deb u bilan doimiy birga yashayotgan xotini (eri) va ularning farzandlari tan olinadi. Er-xotinning ota-onasi, shuningdek, mulkdor bilan doimiy birga yashayotgan oilali farzandlari va ularning er-xotini, agar ular ilgari bu huquqqa ega bo'lmagan bo'lsa, faqat o'zaro kelishuvga binoan mulkdorining oila a'zolari deb tan olinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Uy joy kodeksining 9-moddasiga asosan, fuqarolarning doimiy yashashiga mo'ljallangan, belgilangan sanitariya, yong'inga qarshi, texnik talablarga javob beradigan, shuningdek, belgilangan tartibda maxsus uylar (yotoqxonalar, vaqtinchalik uy-joy fondi uylari, nogironlar, faxriylar, yolg'iz qariyalar uchun internat-uylar, shuningdek, bolalar uylari va boshqa maxsus maqsadli uylar) sifatida foydalanishga mo'ljallangan joylar turar joy deb hisoblanadi.

Turarjoy quyidagi xususiyatlari mavjud bo'lganligi uchun ham ko'chmas mulk hisoblanadi:

⁷⁸ <http://www.private.com.UNreports.activelaw>.

1. Turarjoy yer bilan uzviy bog‘liqlikdir.
2. Turarjoyni bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirish imkoniyati yo‘q.
3. Turarjoy ko‘chirilganda tayinlanish maqsadiga ko‘ra foydalanib bo‘lmaydi.
4. Turarjoy ko‘chirilganda shaklan va jisman o‘zgaradi, turarjoy, uy ko‘chiriladigan bo‘lsa, uning xususiyati yo‘qoladi, buzilishi, darz ketishi kelajakda aynan bu uyning shaklan o‘zgarishga uchrashiga olib keladi. Agar buzib, boshqa joyga qurilgan taqdirda ham aynan ushbu materiallar bilan shunday turarjoy, uyni barpo etish mumkin emas⁷⁹.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, uy-joy ko‘chmas mulk sifatida o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Garchi FKning 209-moddasiga muvofiq, qonun bilan man etilgan ayrim ashylardan tashqari har qanday mol-mulk xususiy mulk bo‘lishi mumkin. Yer uchastkasiga nisbatan xususiy mulk huquqini amalgalashishga to‘laqonli imkoniyat mavjud emas.

O.Oqyulovning ta’kidlashicha, yerga nisbatan xususiy mulkchilikni joriy etishda ijtimoiy va xususiy manfaatlar o‘rtasida muayyan ziddiyat vujudga keladi. Yerga nisbatan ijtimoiy munosabatlarning asosiy mazmuni shundaki, yaxlit holda xalqimiz ham va alohida holda har bir fuqaro ham bu yerlardan hozirda, kelgusida va kelajak avlodlar tomonidan ham erkin foydalanishni xohlaydi. Amaldagi qonunlarda yerga nisbatan belgilangan huquqiy rejim xuddi shu ijtimoiy manfaatlarni ta’minalashga qaratilgan⁸⁰.

Bozor munosabatlarining shiddat bilan rivojlanishi yerning ham to‘laqonli fuqarolik muomalasiga kiritish, oldi-sotdi yoki boshqa mulk huquqini tasarruf etishga doir shartnomalar tuzishga imkon berishni taqazo qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, yerga nisbatan xususiy mulk huquqini joriy etishni kun tartibidagi masala sifatida qo‘yadi.

Qadimgi Rimda o‘zganing ashyosidan foydalanish huquqi mavjud bo‘lib, ulardan eng keng tarqalgani bu – uzufrukt. Uzufrukt – bu ashyoning mohiyatini saqlab qolgan holda o‘zganing ashyosidan foydalanish va undan hosil olish huquqi hisoblangan (Usus fructus est ius alienis rebus utendi frumenti salva substantia (D.7.1.1))⁸¹. Ushbu huquq keyinchalik ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan holda turli o‘ziga xosliklar bilan davlatlar qonunchiligiga retsepsiya qilingan.

Dastlab rim huquqida shakllangan “superfitsiy” atamasi, avvalo, lotincha Superficies solo cedit (Stroenie sleduet za zemlyoy) qoidasiga zid ravishda amal qiladi. Mazkur huquq o‘zganing ko‘chmas mulki (yer uchastkasidan) foydalanishga doir ashyoviy huquq hisoblanadi. Superfitsiyning yana bir muhim xususiyati shundaki, u meros bo‘lib o‘tishi, garovga qo‘yilishi, uchinchi shaxslar foydasiga begonalashtirilishi mumkin. Bunda ijaradan farqli ravishda superfitsiy meros bo‘lib o‘tishi, yer uchastkasining roziligidiz tasarruf etilishi bilan bog‘liq⁸².

Sivilist olimlar ashyoviy huquq asosan uch guruhga bo‘linganligiga ham e’tibor qaratgan. Bular: birinchidan, o‘zganing ashyosidan cheklangan tarzda foydalanish (servitut, emfitevzis, superfitsiy va h.k.), ikkinchidan, o‘zganing ashyosidan muayyan qiymatliklarni olish (masalan, garov huquqi, renta olish huquqi va h.k.), uchinchidan, ma’lum ashyoga egalik qilish huquqini olish (masalan, ko‘chmas mulkni imtiyozli yoki huquqqa nisbatan ulushni sotib olish huquqi) hisoblangan⁸³.

Bugungi kunda ham ashyoviy huquqdan cheklangan tarzda foydalanishga doir munosabatlar dolzarbligini yo‘qotmagan. Cheklangan ashyoviy huquq turlari amaldagi FKning 165-moddasida o‘z ifodasini topgan bo‘lsada, ularning ayrimlari xususiy emfitevzis, superfitsiyiga doir qoidalar unda ifodalanmagan. Shunday bo‘lsa-da, ashyoviy huquqdan cheklangan tarzda foydalanishga doir ayrim qoidalar fragmentar tarzda Oila kodeksida er va xotinning umumiyligi mol-mulkka egalik qilishi, undan foydalanishi va uni tasarruf etishi (24-modda), ota-onalik huquqidan mahrum qilish oqibatlarining qo‘llanishida turarjoydan foydalanish huquqini saqlab qolishda (81-modda), Uy-joy kodeksida mulkdor oila a’zolarining, shuningdek, u bilan doimiy yashayotgan fuqarolarning huquq va majburiyatları (32-modda), fuqaroga mulk huquqi asosida

⁷⁹ Ўзбекистон Республикасининг Уй-жой кодексига шархлар./Масъул мухаррир: Ўзбекистонда хизмат кўрсатган юрист, юридик фанлар док-тори, профессор И.Б.Зокиров. –Т.: ТДЮИ, 2007. 37-бет.

⁸⁰ Оқулов О. Ўзбекистон Республикасида фуқаролик муомаласига ер участкаларини тўлақонли киритиш муаммолари // Юридик фанлар ахборотномаси. 2019. №2. 30-б.

⁸¹ Памятники римского права: Законы XII таблиц. Институции Гая. Дигесты Юстиниана. – М., 1997. – 608 с.; Дигесты Юстиниана / отв. ред. Л. Л. Кофанов. – Т. 2. М., 2002. – 622 с.

⁸² <https://ru.wikipedia.org>

⁸³ Гражданское право: В 4 т. Том 2: Вещное право. Наследственное право. Исключительные права. Личные неимущественные права: Учебник. 3-е издание, переработанное и дополненное. Под ред. Е.А.Суханова. – М.: Волтерс Клювер, 2008. 74-б.

tegishli bo‘lgan turarjoyni ijaraga, arendaga berish shartnomasi bo‘yicha ijaraga, arendaga oluvchining huquqlari (33-modda) va boshqalarda o‘z ifodasini topgan.

FKning 173-moddasida ashayoviy huquqdan cheklangan tarzda foydalanishga doir konstruksiya, ya’ni o‘zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish (servitut) huquqi nazarda tutilgan. Biroq ushbu huquqni amalga oshirish va ushbu huquqni himoya qilishga doir normalar batafsil tartibga solinmagan. Xususan, uchinchi shaxsga tegishli yer uchastkasidan piyoda yoki transportda o‘tish maqsadida foydalanish, energetika, aloqa, suv, quvur o‘tkazgich tizimlari va boshqa kommunikatsiyalarni o‘tkazish va boshqa bu kabi cheklangan foydalanish huquqini qanday tartibga amalga oshirish yopiq qolgan. Shu jumladan, servitutning shartnomaviy tartibi, uning muhim shartlarini belgilash masalasi hal qilinmagan.

Xorijiy mamlakatlar huquqiy tajribasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ularning aksariyatida ashayodan foydalanish yuzasidan turli huquqiy konstruksiyalar qo‘llanilishini ko‘rish mumkin. Fransiya Fuqarolik kodeksining 578-624-moddalaridauzufruktga doir qoidalar nazarda tutilgan. Uzufruktga asosan, mulkdori boshqa bo‘lgan ashayodan foydalanish huquqi tushunilgan. Uzufruktuarly ashyoning mohiyati saqlab qolning holda mol-mulkdan huddi mulkdor kabi foydalanishi mumkin bo‘lgan. Uzufrukt umrbod, muddatli hamda shartli belgilangan⁸⁴ ashayoviy huquq sifatida o‘rnatalishi, uning egasi boshqa shaxsga tegishli ashayodan foydalanishga, undan foydalanish natijasida foyda olishga haqli bo‘lgan.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, fransuz qonunchiligi rim huquqida mavjud bo‘lgan uzufrukt huquqiy konstruksiyasini qabul qilgan. Ayrim mutaxassislar fransuzlarning Fuqarolik kodeksidagi uzufruktdan farqli ravishda rim huquqidagi uzufrukt begonalashtirilishi mumkin bo‘lmagan hamda vorislik tarzida boshqa shaxsga o‘tkazilmaganligini ta’kidlaydi⁸⁵.

Germaniya Fuqoralik Tuzuklari esa, fransuzlardan farqli ravishda ashayoviy huquq (der Nievbrauch) mustaqil cheklangan ashayoviy huquq bo‘lib hisoblanmasdan, balki servitutning bir turi hisoblanadi. GFTning § 1030 ko‘ra, ashyyoga nisbatan huquq cheklanishi mumkin, cheklov kimning foydasiga o‘rnatalgan bo‘lsa u shaxs ashayodan foydalanish natijasida (uzufrukt) daromad olishga haqli⁸⁶.

Demak, uzufruktning mohiyatini aniqlab olish muhim. Uzufrukt alohida ashayoviy huquq bo‘lib, uning subyekti (uzufruktuarly) cheklov o‘rnatalgan ashayodan foydalanish imkoniyatini qo‘lga kiritadi va ashyoning bus-butunligini saqlagan holda undan foydalanish natijasida hosil va daromad olishi mumkin.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi F-5464-son farmoyishi ijrosini ta’minalash maqsadida ishlab chiqilgan “O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksini tasdiqlash haqida”gi Qonuni loyihasi umumxalq muhokamasiga taqdim qilindi⁸⁷.

Mazkur loyihada o‘ziga xos yutuqlar, konsepsiada belgilangan maqsad va vazifalarni ro‘yobga chiqarishga alohida e’tibor qaratilgan. Unda mulk huquqiga daxldor bo‘lgan konstruksiyalar, qoidalar ham o‘z ifodasini topganki, ushbu yutuqlarni qayd etish albatta o‘rinli bo‘ladi.

Amaldagi FKga muvofiq, qurilish qilish huquqi (superfitsiy) nazarda tutilmagan edi. FK loyihasida esa, qurilish qilish huquqi (superfitsiy) ko‘rsatilgan bo‘lib, unda superfitsiy tushunchasi, asosiy shartlari, buning uchun haq olish, superfitsiyning tugatilishi kabi moddalar nazarda tutilgan. FK loyihasida shaxsiy foydalanish va egalik qilish huquqi (uzufrukt) ham belgilangan bo‘lib, uzufrukt turlari, ashyon holatini aniqlash, uzufruktuarlyning huquq va majburiyatları, uzufruktning tugatilishiga doir qoidalar ham o‘z ifodasini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Оила кодекси. – Тошкент: Ўзбекистон, “Адолат” 2014. 5-модда, 5 бет.
2. Ўзбекистон Республикасининг Ўй-жой кодексига шарҳлар./Масъул муҳаррир: Ўзбекистонда хизмат кўрсатган юрист, юридик фанлар доктори, профессор И.Б.Зокиров. – Тошкент: ТДОИ, 2007. 37-бет.

⁸⁴ Сиваракша И. В. Сервитуты и узуфрукт в гражданском кодексе Франции 1804 года : автореф. дис. канд. юрид. наук. – Москва, 2000. – С. 19.

⁸⁵ Какаурова Н.А. Имущество и видоизменения собственности в гражданском праве Франции в XIX веке. // Сибирский юридический вестник. Вопросы теории и истории государства и права. 2010. №2. (49). 11-6.

⁸⁶ Гражданское уложение Германии. Вводный закон к Гражданскому уложению : пер. с нем. / сост. В. Бергман. – Москва: Инфотропик Медиа, 2015. – С. 339 (Серия «Германские и европейские законы»).

⁸⁷ <https://regulation.gov.uz/ru/d/29059>

3. Оқюлов О. Ўзбекистон Республикасида фуқаролик муомаласига ер участкаларини тўлақонли киритши муаммолари // Юридик фанлар ахборотномаси. 2019. №2. 30-б.
4. Памятники римского права: Законы XII таблиц. Институции Гая. Дигесты Юстиниана. – М., 1997. – 608 с.; Дигесты Юстиниана / отв. ред. Л.Л. Кофанов. – Т. 2. – М., 2002. – 622 с.
5. <https://ru.wikipedia.org>
6. Гражданское право: В 4 т. Том 2: Вещное право. Наследственное право. Исключительные права. Личные неимущественные права: Учебник. 3-е издание, переработанное и дополненное. Под ред. Е.А. Суханова. М.: Волтерс Клувер, 2008. 74-б.
7. Какаурова Н.А. Имущество и видоизменения собственности в гражданском праве Франции в XIX веке. // Сибирский юридический вестник. Вопросы теории и истории государства и права. 2010. №2. (49). 11-б.
8. Гражданское уложение Германии. Вводный закон к Гражданскому уложению : пер. с нем. / сост. В. Бергман. – М.: Инфотропик Медиа, 2015. – С. 339 (Серия «Германские и европейские законы»).
9. <https://regulation.gov.uz/ru/d/29059>



Shomurotova N.N.,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi

OILAVIY ZO'RAVONLIKNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK XATARLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek oilalaridagi oilaviy zo'ravonlik muammosi muhokama qilinadi. Oilaviy zo'ravonlik – oila a'zolarining ruhiyati yoki sog'lig 'iga boshqa oila a'zolaridan tahdid soladigan har qanday jismoniy, jinsiy yoki psixologik zo'ravonlik hisoblanadi. Jismoniy kuch ishlatalish orqali tahdid qilish, kaltaklash, psixologik va jinsiy zo'ravonlik oiladagi zo'ravonlik shakllari hisoblanadi. Eng ko'p uchraydigan qurbanlar ayollar va bolalardir, shuningdek, erkaklar ham bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: oilaviy zo'ravonlik, ayollar zo'ravonligi, bolalarga nisbatan zo'ravonlik, onalik depressiyasi, stress, xayf omillari ruhiy kamsitilish, iqtisodiy zo'ravonlik, jismoniy zo'ravonlik, psixologik zo'ravonlik.

Аннотация. В статье рассматривается проблема домашнего насилия в узбекских семьях. Домашнее насилие – это любое физическое, сексуальное или психологическое насилие, которое угрожает психике или здоровью членов семьи со стороны других членов семьи. Угрозы, избиения, психологическое и сексуальное насилие с применением физической силы являются формами домашнего насилия. Чаще всего жертвами становятся женщины и дети, а также мужчины.

Ключевые слова: насилие в семье, насилие в отношении женщин, насилие в отношении детей, материнская депрессия, стресс, факторы риска, психологическая дискриминация, экономическое насилие, физическое насилие, психологическое насилие.

Annotation. This article discusses the problem of domestic violence in Uzbek families. Domestic violence is any physical, sexual or psychological violence that threatens the psyche or health of family members from other family members. Threats, beatings, psychological and sexual violence through the use of physical force are forms of domestic violence. The most common victims are women and children, as well as men.

Key words: domestic violence, violence against women, violence against children, maternal depression, stress, risk factors, mental discrimination, economic violence, physical violence, psychological violence.

Oila ijtimoiy munosabatlar amalga oshiriladigan, shaxs kamolotiga ta'sir etaldigan maskan hisoblanadi. Oiladagi mavjud muhit va undagi ta'sir etuvchi qadriyatlar insonning qanday xulq-atvorli shaxs bo'lib

shakllanishini belgilaydi. Shu bois azaldan ota-bobolarimiz o‘z oilalarida baxtli hayotni, samimiy muloqotlarni, insoniy qadriyatlarning ustuvor bo‘lishini ta’minlanishiga alohida e’tibor qaratganlar. Oiladagi har bir insonning o‘z o‘rni va ta’siri mavjudki, bu oiladagi yashaydigan har bir shaxslar uzviy zanjir kabi bir-birlarini to‘ldirib turishini belgilaydi.

Oila masalasiga davlat ahamiyati doirasida e’tibor qaratilishi millatning ertasiga bo‘lgan e’tiborni anglatadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-tonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 820-tonli qarorlarida “Sog‘lom oila – sog‘lom jamiyat” g‘oyasini hayotga tatbiq etishga yo‘naltirilgan yagona davlat siyosatini olib borish, notinch va muammoli oilalarga manzilli ko‘maklashishni tashkil etish; xotin-qizlarning muammolarini o‘z vaqtida aniqlash, yordamga muhtoj bo‘lgan va og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga, shu jumladan, nogironligi bo‘lgan ayollarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko‘rsatish kabi ijtimoiy-psixologik muammolarni hal etish vazifalari keltirib o‘tilgan. Jamiyat barqarorligida oilalardagi ma’naviy muhitning ijobjiy bo‘lishini ta’minlash masalasi ustuvor ahamiyatga ega bo‘lishiga qaramasdan oilalardagi zo‘ravonlik muammosining ham tez-tez kuzatilayotgani achinarli hol. Zo‘ravonlik, eng avvalo, shaxsga qarshi jinoyat, shaxsiy erkinlik huquqlarining buzilishidir. Oilaviy-maishiy zo‘ravonlik bu oilaning bir a’zosiga nisbatan boshqa bir a’zosi yoki a’zolarining muntazam davom etib keluvchi, takrorlanib turuvchi zo‘ravonligidir va u asosan oila ichida ro‘y beradi. Jismoniy, ruhiy, jinsiy va iqtisodiy zo‘ravonlik kabi ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi mumkin. O‘zbekiston sharoitida oilaviy zo‘ravonlikni xarakterlovchi quyidagi asosiy xususiyatlar farqlanadi: zo‘ravonning jismonan kuchliligi (ko‘pincha erkakning aylonga, ota-onaning farzandga nisbatan zo‘ravonligi), zo‘ravonlikning bir shaxsga nisbatan ko‘pchilik bo‘lib sodir etilishi (uchinchi shaxslarning aralashuvi), jabrlangan shaxsning muammo bilan yolg‘iz qolishi (huquqiy savodsizlik, ijtimoiy yolg‘izlik) va jabrlangan shaxsga huquqiy, psixologik, tibbiy yordam berish imkoniyatining zaifligi. Sotsiologik fanlarda, ilmiy jihatdan oilaviy zo‘ravonlik muammosi o‘tgan asrning 60-yillarda o‘rganila boshlangan. Zo‘ravonlikning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bilan bog‘liq muammolari N.Y.Yegorova, G.N.Kireyev, N.I.Kitayev, N.I.Lovsovalar tomonidan, zo‘ravonlik va axloq o‘rtasidagi munosabatlarning umumiyligi muammarini I.A.Ilin, R.G.Apresyan, A.A.Guseynov, A.P.Nazaretyan, rus sotsiologiyasidagi psixologik zo‘ravonlik muammolariga bag‘ishlangan izlanishlar L.S.Alekseyev, O.M.Zdravomislov, I.S.Klesin, A.B.Orlov, Y.Y.Piskunovlar tomonidan o‘rganilgan. Jismoniy zo‘ravonlik bo‘yicha tadqiqotlar Y.M.Antonyan, A.N.Ilyashenko, K.S.Silanova, N.Xodiryev, D.AShestakovlar ishlarida, iqtisodiy zo‘ravonlik I.D.Gorshkov, I.I.Shurigin izlanishlarida, jinsiy zo‘ravonlik muammolar esa I.S.Kon, A.V.Lisov, N.Y.Sinyagin, I.A.Furmanovlar tomonidan olib borilgan o‘rganishlarda aks etgan. Amerikalik olim M.Strauss tomonidan 1975-yilda olib borilgan uydagi zo‘ravonlik muammosi keyinchalik R.Jellz va S.Steinmetz mutaxassislar jamoasi tomonidan 1985-yilda davom ettirildi. Shuningdek, bu muammo bilan L.Lerman, L.Sherman, R.Berk, D.Finkelxor, K.Yollo, L.Berkovitsa va B.Kreyxlar tomonidan ham yoritilgan. L.Berkovitsa va B.Kreyxni 2002-yilda birinchi marta “Agressiya: sabablar, psixologiya va nazorat” nomli ishi, “Agressiyaning ijtimoiy psixologiyasi” nomli asari 2003-yilda Rossiyada nashr etilgan. Amerika sotsiologi Teresa de Lauretis “Zo‘ravonlik ritorikasi”ni ajratib tahlil qiladi va unda zo‘ravonlikning tushunarli o‘lchamlarini batafsil tahlil qiladi.

O‘zbekistonda ham ilmiy jihatdan zo‘ravonlik muammosini o‘rganish ishlari amalga oshirilgan bo‘lib, lekin oilaviy zo‘ravonlikning ijtimoiy-psixologik muammolariga bag‘ishlangan ilmiy tadqoqotlar yetarli emas.

Oiladagi zo‘ravonlikdan dunyo bo‘yicha har uchinchi ayol jabr ko‘radi. Ammo bu holatni boshdan kechirayotgan odamlar ko‘pincha hech kimga bu haqida aytmaydilar. Bu ularga hech kimga aytmaslik bilan tahdid qilinganligi, bundan tashqari, oilaviy zo‘ravonlikni boshdan kechirayotgan odamlar ba’zida o‘zlarini ayblashadi yoki bu haqda gapirishga uyalishadi. Zo‘ravonlik jismoniy va jinsiy zo‘ravonlikni, moliyaviy, emotsional va psixologik zo‘ravonlik ko‘rinishida bo‘ladi. Tahqirlash, urish, zo‘rlash, og‘zaki tahdidlar, ta’qib qilish, pulsiz qoldirish va qasddan do‘sralardan va oilasidan ajratib qo‘yish oilaviy zo‘ravonlikda sodir bo‘ladigan xatti-harakatlar turlaridan biridir. Oiladagi zo‘ravonlik murakkab jarayon hisoblanadi. Biz xalqaro dalillardan bilamizki, asosiy sabab ayollar va erkaklar o‘rtasidagi tengsizlik, ya’ni kuch, resurs

va imkoniyatlarning teng taqsimlanmasligidadir. Ayol va erkaklarning jamiyatdagi o‘rni va o‘zini tutishi haqidagi stereotipik g‘oyalar ayollarga nisbatan zo‘ravonlik paydo bo‘lishiga zamin yaratmoqda. Gender tengsizligi jamiyatda turli ko‘rinishda bo‘ladi, jumladan:

– yetakchi rollarda ayollar soni kamroq bo‘lib, erkaklar qaror qabul qilish ustidan ko‘proq nazorat qilishadi;

– erkaklarga bir xil yoki shunga o‘xshash ish uchun ayollarga qaraganda ko‘proq maosh to‘lashi sababli ish haqi o‘rtasidagi farq;

Shaxsiy munosabatlarda ham bu tengsizlik erkak o‘z sherigi va farzandlari ustidan hokimiyatni boshqarish huquqiga ega ekanligiga ishonadi. Erkakning oilaviy zo‘ravonligi uni boshdan kechirgan ayollar va bolalarga juda katta ta’sir ko‘rsatadi. Zo‘ravonlik ayollar va bolalar faoliyatini jiddiy ravishda cheklab qo‘yishi va ularning hayotning barcha jabhalarida faol ishtirok etishiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Oilaviy zo‘ravonlikning ijtimoiy psixologik xatarlaridan biri oilaviy zo‘ravonlik guvohi bo‘lib ulg‘aygan bolalar keljakda, bu amaliyotni qo‘llab takrorlovchi bo‘lib qoladilar. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik va oiladagi zo‘ravonlik to‘g‘risidagi adabiyotlarda keltirilishicha, ba’zi insonlar bolaligidan oilaviy zo‘ravonlik guvohi bo‘lganligi sababli zo‘ravonlikka moyil bo‘lishlari, har qanday zo‘ravonlikni oddiy holat sifatida qabul qilishlari mumkin (masalan, bolaligida yomon munosabatda bo‘lgan odamlar, o‘z navbatida, o‘z farzandlariga yomon munosabatda bo‘lishgan; ota-onalar bilan bo‘lgan munosabatlar bu xatti-harakatni kattalardagi yaqin munosabatlarida takrorlashgan). Zo‘ravonlik holatining avlodlararo uzatilishi ijtimoiy tajriba va kuzatuvlarda o‘z tasdig‘ini topgan.

Oilaviy zo‘ravonlikning davomiyligi vaqt o‘tishi bilan ayollarga juda katta psixologik ta’sir ko‘rsatadi va quyidagicha hayotiy ritm holatlarining susayishiga yoki yo‘qolishiga olib kelishi mumkin:

– o‘ziga bo‘lgan ishonch va o‘z-o‘zini hurmat qilish, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati;

– biror kasbda faoliyat olib borish, moliyaviy mustaqillik va uzoq muddatli xavfsizlik;

– bolalar bilan munosabatlarda mehribon, jonkuyar ota-onasi bo‘lish qobiliyati;

– oila, do‘srlar va ijtimoiy aloqalardagi faoliylik;

– jismoniy sog‘lik va hayotdan to‘yinganlik hissini tuyish kabi faol turmush tarzidagi psixologik cheklovlarni yuzaga keltiradi.

Oilaviy zo‘ravonlikning bolalarga bo‘lgan ta’siri ham sezilarli oqibatlarga olib keladi. Bolalar ko‘pincha oiladagi zo‘ravonlikni eshitishadi yoki guvoh bo‘lishadi va bu holat ularga quyidagicha ta’sir o‘tkazadi:

– kognitiv rivojlanish va stressga javob berish tizimlariga ta’sir qiluvchi miyaning asab yo‘llariga ta’sir o‘tkazadi [2];

– o‘zini o‘zi baholashning pastligi va maktabdagi ijtimoiy munosabatlardagi qiyinchiliklar vujudga kelishi;

– moliyaviy xavfsizligiga ta’sir qiladi;

– ruhiy salomatlik muammolari, shu jumladan, xavotir, ruhiy tushkunlik, ovqatlanishning buzilishi va ba’zi holatlarda o‘z joniga qasd qilishga urinishlar;

– tajovuzkorlik, aksilijtimoiy xatti-harakatlar va giyohvand moddalarni iste’mol qilish ehtimoli kuchayganligi;

– erta homiladorlikning kuzatilishi kabi muammolarni hosil qiladi.

Oilaviy zo‘ravonlik qurbaniga aylangan shaxslarda tobelik, aggressivlik, depressiyaning kuchliligi, hayotiy qadriyatlarni mensimaslik, alamzadalik hissi bilan yashash va o‘ziga, yaqinlariga bo‘lgan mas’ullikni tushib ketishi, ziddiyatli munosabatlarni tez-tez yuzaga keltirishi kabi ijtimoiy psixologik muammolar kuzatiladi. Bu esa barqaror va sog‘lom muhitni shakllantirishga to‘sqinlik qiladi.

O‘zbekistonda keyingi yillarda zo‘ravonlikka qarshi bir qancha amaliy sa’y-harakatlar qilindi. Jumladan, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi hamda “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilinib, jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta’siri bo‘lgan zo‘ravonlikka chek qo‘yish sari qat’iy vazifalar belgilandi. Mazkur qonunga muvofiq, zo‘ravonlik va tazyiqdan jabr ko‘rgan ayollar ariza bilan tegishli vakolatli organlarga murojaat qilish huquqiga ega bo‘ldi va bu asosida “himoya orderi” instituti joriy etildi. Bu zo‘ravonlik va tazyiqdan jabr ko‘rganlarni himoya qilishda muhim mexanizm hisoblanadi. Zero, har bir inson o‘z huquqlaridan foydalangan holda erkin va xotirjam yashasagina, o‘zining hayotiy mavqeyini anglasagina jamiyatga naf keltirishi, amaliy hissa qo‘sha olishi ta’milanadi. Zo‘ravonlik esa ruhiy va jismoniy majruhlikni keltirib chiqaradi. Yangilanib borayotgan

O‘zbekiston uchun har bir fuqaroni har tomonlama erkinligi, farovonligi va mustaqilligi eng asosiy dolzarb masalalardan biri sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ижтимоий реабилитация қилиши ва мослаштириши, шунингдек, оиласиий-машший зўрлик ишлатишнинг олдини олии тизимини таомиллаштириши чора-тадбирлари тўхрисида”ги 2018 йил 2 шолдаги 3827-сонли Қарори.
2. Flood, M & Fergus, L, 2008, *Anassault on our future: odamlar va ularning munosabatlaridagi zo‘ravonlik ta’siri*, White Ribbon Foundation, Sidney. www.whiteribbon.org.au/uploads/media/Research_series/An_assault_on_our_future_FULL_Flood_Fergus_2010.pdf va Richards, K, 2011, *Australiyada bolalarning oiladagi zo‘ravonliklarga duch kelishi: jinoyatchilik tendentsiyalari va masalalari va jinoiy adliya No 419, Australiya Kriminologiya Instituti. 2011 yil iyun*
3. DV Vic, 2015, *Specialist Family Violence Services: The Heart of an Effective System, Submission to the Victorian Royal Commission into Family Violence, June 2015*, pp. 10–11.



Sobirova Saida Ravshanbekovna,
Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanidagi
33-maktab o‘qituvchisi

YOSHLARNING MA’NAVIY BILIMLARINI SHAKLLANTIRISH MASALASI

Annotation. Maqolada hozirgi kunda yoshlarga eng dolzarb bo‘lib borayotgan “Dunyoviylik – dahriylik emas” tamoyili asosida ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibotning ayrim masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: diniy aqidaparastlik, ekstremizm, xalqaro terrorizmning tahdidi va ularni bartaraf etish yo‘llari.

Аннотация. В статье рассматриваются некоторые вопросы духовно-просветительской пропаганды, основанной на принципе «Светскость – это не атеизм», который сегодня становится все более актуальным для молодежи.

Ключевые слова: религиозный фанатизм, экстремизм, угроза международного терроризма и пути их преодоления.

Annotation. The article examines some issues of spiritual and educational propaganda based on the principle ‘Secularism is not atheism’, which is becoming more relevant for young people today.

Key words: religious fanaticism, extremism, the threat of international terrorism and ways of overcoming them.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar har tomonlama har bir sohadagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni to‘la yuzaga chiqarish va yangi sharoitlarga moslashtirishdan iborat. Chunki bu orqali respublikamizning har bir hududi, korxona va tashkilotlarda eng ta’sirchan va takomillashgan ijtimoiy-ma’naviy muhitni yaratish muhim ustuvor vazifalardan biri bo‘lib belgilangan. Buning uchun aholining kelajakdagi vorisi, ya’ni uning bir qismi yoshlarning bilimlarini oshirish amalga oshiriladi. Jumladan, yoshlarga yoshlarga oid davlat siyosati va ma’naviy-ma’rifiy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar hamda ularning amaliy natijalari tushuntiriladi. Yoshlar o‘rtasida doimiy ravishda ijtimoiy so‘rovnomalari o‘tkazilib, doimiy tahlil qilib boriladi. Ana shularni to‘liq ro‘yobga chiqarish maqsadida bugungi kunda yoshlar o‘rtasida ijtimoiy-ma’naviy bilimlarini yanada kuchaytirishga qaratilgan ko‘plab tadbirlar, uchrashuvlar va davra suhbatlari uzlusiz ravishda o‘tkazilib borilmoqda.

Aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida o‘tkazilayotgan tadbirlarda O‘zbekiston xalqlari va Xorazm tarixi bo‘yicha yetarli bilim, tug‘ilib o‘sigan vataniga bo‘lgan sadoqatini o‘zining halol va vijjdonan mehnati,

mas’uliyatli va sharafli ezgu ishlarni amalga oshirish, ajdodlariga sodiq komil inson bo‘lib yetishishida zarur ko‘nikmalarni berish masalalari muhokama qilib boriladi.

Shular bilan birgalikla, yoshlarga hozirgi kunda eng dolzarb bo‘lib borayotgan “Dunyoviylik – dahriylik emas” tamoyili asosida ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibotning ayrim masalalari, shuningdek, diniy aqidaparastlik, ekstremizm, xalqaro terrorizmning tahdidi va ularni bartaraf etish yo‘llari tushuntiriladi, ularning salbiy oqibatlari va ta’siri muhokama qilinadi va birgalikda bo‘lib hamkorlikda kurashish masalasi doimiy tarzda ko‘riboriladi.

Avvalo, aqidaparastlikni muayyan sharoitda, biron-bir g‘oya yoki tamoyilga qat’iy ishonch va uni mutlaqlashtirish asosida shakllangan qoida va tartiblarni hamda ularni sharoit, holat va vaziyatni hisobga olmagan holda, ko‘r-ko‘rona qo‘llash va urinishni anglatib, uning salbiy va jirkanch ta’sirlari bevosita misollar orqali yoshlarga ko‘rsatiladi. Hamda terrorizm qo‘rqitish va zo‘ravonlik ishlatishni anglatuvchi ijtimoiy “fenomen” bo‘lib hisoblanib, buning kelib chiqish sabablari va tarqalish yo‘llari ham tushuntiriladi. Ekstremizm muayyan jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalarga zid bo‘lgan g‘oyalarni targ‘ib va amal qilish bo‘lib, uning diniy ekstremizm ko‘rinishi jamiyat uchun an’anaviy bo‘lgan diniy qadriyatlar va aqidaviy ahkomlar tizimini inkor etib, ularga zid bo‘lgan “g‘oyalar” va amallarni agressiv tarzda targ‘ib qilish ekanligi aniq misollar va asoslar orqali yoshlarga yetkaziladi.

Shuningdek, missionerlik va prozelitizm, ularning faoliyat shakllari, ijtimoiy xavfi va oldini olish uslublari yoshlar o‘rtasida o‘tkazilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbir va davra suhbatlarida muhokama qilinadi. Chunki mazkur tushunchalar salbiy jihatlarga ega bo‘lib, bir dinga e’tiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dinni targ‘ib qilish sanaladi. Prozelitizm to‘g‘ridan to‘g‘ri biron-bir dinga ishongan fuqaroni o‘z dinidan voz kechishga va o‘zga dinni qabul qilishga majbur qilish ham din bilan bog‘liq salbiy qarash bo‘lib hisoblanadi.

Umuman olganda, yoshlar o‘rtasida qiziqarli va ta’sirchan tarzda o‘tkaziladigan tadbirda asosiy e’tibor ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibotni to‘liq amalga oshirishga qaratiladi. Bunday hollarda alohida e’tibor berilishi lozim bo‘lgan jihatlar ham mavjud bo‘lib, ular quyidagi yo‘nalishlar bilan izohlanadi:

- yoshlar ongida tobora chuqur o‘rnashib borayotgan “texnokratik madaniyat” omilini tartibga solish va to‘g‘ri boshqarilishini ta’minalash;
- ayrim fuqarolar, jumladan, ba’zi yoshi kattalardagi konservativizm hamda yoshlar orasida kuzatiladigan radikalizm o‘rtasidagi ziddiyatlarning mavjudligiga alohida e’tibor qaratish;
- ba’zi bir yoshlarimizning hayotga bo‘lgan munosabatlarida “gedonizm” holatiga alohida e’tibor qaratish;
- ba’zi bir yoshlarda o‘zining ma’naviy olamini boyitishga bo‘lgan ehtiyojining kamligi yoki yo‘qligini hisobga olish hamda uning kitob o‘qishga bo‘lgan munosabat bilan bog‘liqligi holatlarini kuchaytirish;
- yoshlar ma’naviyatining shakllanishiga ularning tevarak-atrofdagi voqeа-hodisalarining tub mohiyatini anglash yo‘lidagi tajribasizligi va uquvsizligini inobatga olib, to‘g‘ri ta’sirlarni amalga oshirish;
- targ‘ibot ishlarida yoshlar bilim saviyasi va uni hayotga joriy qilish amaliyoti o‘rtasidagi jarlikni hisobga olish hamda ularni bartaraf qilish yo‘llarini izlab topish;
- ayrim yoshlarimizdagи o‘zini o‘zi boshqara olmaslik, bachkanalik va agressivlik holatlarini e’tiborga olish hamda ushbu vaziyatlarda psixologik moslashuvchanlikni yo‘lga qo‘yish.

Umuman olganda, yuqorida keltirilgan yo‘nalishlarni hisobga olgan holda yoshlarning ijtimoiy-ma’naviy bilimlarini oshirish masalalarini hal qilish, o‘z navbatida, ular o‘rtasida ijtimoiy-ma’naviy muhitni yanada sog‘lomlashtirish bo‘yicha tadbirlar o‘tkaziladi hamda bular orqali yoshlarning huquqiy, siyosiy savodxonligi o‘stiriladi, doimiy ravishda ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot natijalari bilan tanishib boradilar, yangi o‘zgarishlar va eng so‘nggi yangiliklar haqida ham bilimlarga ega bo‘ladilar.

Imomova Umida Muzaffarovna,
Termiz davlat universiteti
nemis tili kafedrasi katta o'qituvchisi

OILADA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASHNING HUQUQIY, IQTISODIY VA IJTIMOIY ASOSLARI

Annotatsiya. Maqolada hozirgi kunda o'ta dolzarb muammolardan biri bo'lgan oilada erkak va ayolning teng huquqlari, ijtimoiy va iqtisodiy muammolari haqida so'z boradi. Ayniqsa, mustaqillika erishganimizdan keyingi ayollar bilan erkaklar orasidagi huquqiy majburiyatlar va burchlarning o'sishi kuzatilmogda. Lekin, afsuski, ayrim oilalarda bugungi kunda ham ayollarga past nazar bilan qarash holatlari mavjud. Gender tushunchasi bizga shunday holatlarning oldini olishimizda dasturulamal bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: erkak, ayol, jamiyat, gender, tenglik, birlik, ijtimoiy, iqtisodiy muammolar.

Аннотация. В статье речь идет об актуальном вопросе современности – равноправие мужчин и женщин, их социальных и экономических проблемах. Особенно после обретения независимости наблюдается рост обязанностей и долга между мужчин и женщин. Но, к сожалению, и сегодня в некоторых семьях можно наблюдать предвзятое отношение к правам женщин. Именно понятие гендер поможет нам в таких ситуациях для предотвращения подобного отношения к женщинам.

Ключевые слова: мужчина, женщина, общество, гендер, равенство, единство, социальные и экономические проблемы

Annotation. The article deals with the topical issue of our time - the equality of men and women, their social and economic problems. Especially since independence, there has been an increase in responsibilities and duties between men and women. But, unfortunately, even today in some families one can observe a prejudice against women's rights. Precisely the concept of gender will help us in such situations to prevent negative attitude towards women.

Key words: man, woman, society, gender, equality, unity, social and economic problems

Gender so'zi inglizcha so'z bo'lib erkak va ayollikni, uning ma'lum bir xususiyatini bildiradi. Bu biologik jarayondir. Hujjatlalik ishlab chiqilgan mamlakatlarda ijtimoiy jins, ya'ni hujjatlarda belgilangan jins, pasport jinsiga to'g'ri keladi. Gender-ayollar va erkaklarning ijtimoiy rollariga asoslangan ta'rifidir. Gender jamiyat tomonidan ayollar va erkaklarga davlat va xususiy hayotlarida beriladigan vazifalar, funksiyalar va rollar tushunchasi bilan belgilanadi. Erkaklar va ayollar manfaatlari o'rtasidagi farqlar, uy ichida bir xil, ular o'zaro qanday ifoda etiladi.

Ayollar va erkaklarning oila, jamoa va jamiyatdagi o'rnini belgilaydigan an'analar va ierarxiyalar, bu orqali erkaklar odatda ayollar ustidan hukmronlik qiladilar.

Gender tengligi ijtimoiy qimmatli tovarlar, imkoniyatlar, resurslar va mukofotlardan ayollar va erkaklar tomonidan teng lazzatlanishni nazarda tutadi. Gender tengligi erkaklar va ayollar bir xil bo'ladi degani emas, lekin ularning imkoniyatlari va hayot imkoniyati teng ekanligini ko'rsatib beradi. Gender tahlili siyosat rivojlanishining har bir bosqichida ayollar va erkaklar o'rtasidagi ijtimoiy va iqtisodiy farqlarni hisobga oladi:

Ayollar va erkaklar uchun siyosat, dastur va qonunchilikning potensial turli ta'sirini aniqlaymiz. Chora-tadbirlarni amalga oshirish va rejalashtirishda ayollar va erkaklar, o'g'il-qizlar uchun teng natijalarni ta'minlaydilar.

"Gender yondashuvi uyga yaqin suv va sanitariya ta'minoti, shuningdek, strategik gender ehtiyojlari orqali ayollar uchun sharoitlarni yaxshilash kabi amaliy va jinsga xos ehtiyojlarni ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi: ayollarning jamiyatdagi mavqeyini yaxshilash, vaziyat haqida xabardorligini oshirish va qarorlar qabul qilish va ta'sirni o'zgartirish muhim omildir. Gender yondashuvda, shuningdek, ayollar yanada to'siq oldini olish uchun intiladi va avtomatik ravishda mustahkamlash va an'anaviy rollarni abadiylashtirish kerak emasligining muhimligini ta'kidlaydi. Bu erkaklar bu jarayonni qo'llab-quvvatlash uchun o'z munosabat va xatti-harakatlarini o'zgartirish kerak, deb, erkaklar va ayollar, ham ko'rib chiqish zarurligini nazarda tutadi".

Ijtimoiy fanlar, ayniqsa, feminizmda gender “biologik jinsiy farqlarga emas, balki jamiyatning ijtimoiy tashkilotiga qarab”, “ijtimoiy jins”, ya’ni ijtimoiy belgilangan rollar, identifikatsiyalar erkaklar va ayollar faoliyati sohalarini bildiruvchi tor ma’noga ega bo’ldi. Erkaklar va ayollar o’rtasidagi ijtimoiy tengsizlik muammosi gender tadqiqotlari uchun muhimdir.

Barcha mamlakatlarda iqtisodiy taraqqiyotning turli bosqichlarida; ayollar va erkaklar o’rtasidagi tenglikka erishish uchun vaziyat va muammolar ham turlicha. Shunga qaramay, jamiyatda ham, oilada ham mavjud bo’lgan qadriyatlar va an’analarga asoslangan mehnat bozoridagi ayollar va erkaklar holati va ularning ijtimoiy rollarini aks ettiruvchi umumiy tendensiyalar mavjud.

Davlat qonunchiligidagi ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlar kafolatlangan qoidalar, jumladan, ish sohasida va iqtisodiyot sohasida ham mavjud. Biroq mustaqillik davrida ayollarning kasb-hunar bilan shug’ullanishlari, bolalarni tarbiyalashga ko’proq vaqt ajratishlari tendensiyasi yuzaga keldi; shu bilan birga, davlat ularni turli to’lovlar va imtiyozlar bilan ta’minladi. Ishlamay o’tirgan ayollarni davlat ishsizlikdan himoya qilishni kafolatladidi. Shu bilan birga, erkaklar an’anaviy tarzda oilaning boquvchisi bo’lib xizmat qilgan va ayollar uchun kam kvota kafolatlangan bo’lsa-da, rahbarlik lavozimlarida ishlab, yuqori lavozimni egallagan. O’tish davrida ko’plab ayollar o’z oilalarini boqish uchun iqtisodiyotning davlat sektoridan norasmiy sektorga o’tishga majbur bo’ldilar, biroq ayni paytda ijtimoiy himoya va ish xavfsizligini yo’qotdilar. Hozirgi kunda viloyatlarda xotin-qizlarning iqtisodiy faolligi ancha yuqori davom etmoqda: har 100 kishiga 80 nafar ishchi ayol to’g’ri keladi. Shu bilan birga, ayollarning dinamik va yuqori maoshli sohalardagi ulushi iqtisodiy va kasbiy segregatsiyani oshirish fonida pasayishda davom etmoqda. Mintaqadagi aksariyat mamlakatlarda ayollar mamlakat va iqtisodiy sektoriga qarab erkaklar o’rtacha ish haqining atigi 60 dan 80 foiziga pul topmoqda. Ayollar ham rahbarlik lavozimlarini egallab, erkaklar bilan baravar bormoqdalar. Oila tuzilishi va gender rollari sezilarli darajada yaqinda o’zgardi – erkaklar oila boquvchisi sifatida bir odam g’oyasi asosida an’anaviy stereotiplar va oila vazifalarini birlashtirishga intiladi, ayollar va erkaklarning vaziyatlari ba’zi mamlakatlarda ustun. Yana bir xavotirli tendensiya – qaror qabul qilish va siyosiy hayotda ayollar ishtirokining keskin pasayishi. Ularning milliy parlamentlardagi vakolati o’rtacha 10 foizga teng bo’lib, ayrim mamlakatlarda ayollar bu organlarda umuman namoyish etilmaydi. Erkinlik, tenglik, ijtimoiy kafolatlar va inson qadr-qimmatini hurmat qilish sharoitida ayollar va erkaklar uchun munosib va samarali ish imkoniyatlarini targ’ib qiladi. Shunday qilib, gender tengligini barcha erkaklar va ayollar uchun munosib ishlarni ko’rishda asosiy element deb hisoblanadi. Gender tenglik tamoyillarini amaliyotga ttabiq etishda ijtimoiy hamkorlarimiz-hukumatlar, kasaba uyushmalari va ish beruvchilar tashkilotlarini qo’llab-quvvatlashga intilamiz.

Ayollar va erkaklarning muammolari va ehtiyojlarini qamrab olgan ijtimoiy muloqotni targ’ib qilish hukumatlar, kasaba uyushmalari va ish beruvchilarini gender masalalarini o’z siyosati va amaliy ishlariga singdirishga undaydi.

Ayollar tadbirdorligini qo’llab-quvvatlashda XMT ning ishtirokchi gender audit metodologiyasini kompleks gender yondashuvini targ’ib qilishda erishilgan taraqqiyotni monitoring qilish va baholashning samarali vositasi sifatida amalga oshirishdir.

Ommaviy axborot vositalari, milliy yoshlar tashkilotlari va ta’lim muassasalari kabi yangi aktyorlarni jalg qilgan holda gender tengligi sohasidagi strategik hamkorlikni kengaytirish.

To’g’ri ish o’rnlari teng foydalanish, ta’lim va qaror qabul qilish organlarida ishtirok etish MDH mamlakatlarida ayollar uchun asosiy muammolar bo’lib qolmoqda. Bizning vazifamiz – bugungi kunda kambag’allikni kamaytirish, iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy himoya va farovonlik tizimlarini takomillashtirish, ayollar va erkaklar uchun munosib ish joylarini ta’minalash orqali oilalarda duch keladigan keng ko’lamli masalalarni yaxshiroq hal qilishga yordam berishdir. Gender tengligi tomon progress darajadagi xabardorlik ko’p hollarda mahalliy ma’muriy organlarga bog’liq.

Agzamkhodzhayeva Saida,
Doctor of Philosophy, Professor
National University of Uzbekistan

FORMATION OF GENDER IDENTITY IN THE PROCESS OF SOCIALIZATION

Annotation. *The article analyzes the main ways of developing the idea of gender equality in the minds of adolescents, the processes that need to be solved when integrating gender views of adolescents into society and in the family. The article also examines in detail the views of scientists in this area on the main objectives of equality and sexual development in preschool educational institutions, schools, and families.*

Key words: gender, family, society, upbringing of children, equal upbringing, socialization, stereotypes.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada gender tenglik g'oyalarining o'smir yoshlar ongida rivojlanishining asosiy usullari, jamiyat va oilada o'smir yoshlarda gender qarashlarni singdrishda e'tibor qaratish lozim bo'lgan jarayonlar tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada soha olimlarining MTMlarda, maktab va oilada teng huquqlilik va jinsiy rivojlantirishning asosiy vazifalari haqidagi qarashlari atroficha ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: gender, oila, jamiyat, bola tarbiyasi, o'zaro tenghuquqlilik tarbiyasi, jamiyatlashuv, steriotiplar

Аннотация. В статье анализируются основные пути развития идеи гендерного равенства в сознании подростков, процессы, которые необходимо решать при интеграции гендерных взглядов подростков в общество и в семье. В статье также подробно рассматриваются взгляды ученых в этой области на основные задачи равенства и сексуального развития в ДОУ, школах и семье.

Ключевые слова: гендер, семья, общество, воспитание детей, равноправное воспитание, социализация, стереотипы.

The instability of the socio-economic situation is reflected in the strengthening of the differentiation of society. One of the aspects is the growth in the number of asocial families. A low level of material well-being, the inability to create optimal living conditions for yourself and your child often leads to a decrease in the standard of living, alcoholism, drug addiction, delinquent behavior of the parents. There is an increase in the number of divorces, and as a result, the number of children raised by one parent, more often a mother, is increasing. The unstable social situation in society, early sexual intercourse in adolescence and early adolescence, leads to an increase in the number of underage parents (adolescent parenting). In this regard, the number of "refuseniks" and children who replenish organizations for orphans and children left without parental care (ODS) is increasing.

The reasons for social orphanhood are deprivation of parental rights, refusal of parents from a child and transfer of parental rights, temporary placement of children by parents in orphanages and children's homes due to the difficult material and economic situation of the family. Specific features of orphans are increased aggressiveness, pronounced victimization and neuroticism, immature forms of defensive behavior, there is a tendency towards affective response, resentment, shifting responsibility onto others, etc. [8]. The most important role in the formation of the specific characteristics of orphans is played by the social conditions of their development and, above all, emotional, social and mental deprivation. The social situation of development in some children of the UDF is burdened by separation from their parents, which is assessed as maternal and paternal deprivation.

The formation of gender identity begins from the very birth. A particularly significant age period for the formation of identity is adolescence and adolescence. The process of the formation of moral and ethical convictions acquires the greatest importance at these age stages. In adolescence, interests, attachments, and the value system change, the area of interpersonal communication, professional choice becomes a priority, and a change in identification patterns is of particular importance. The formation of a teenager's gender identity is based on the reproduction of the dominant gender culture as the basis of personality socialization.

The formation of a teenager's personality is determined by the environment in which he is brought up [12]. The socially impoverished environment of the ODS is characterized by the reproduction of the most

conservative gender stereotypes, which make the individual's behavior less flexible, and also contributes to the formation of undifferentiated forms of gender identity [10]. Under the conditions of ODS, the identification process is difficult, and, as a result, an undifferentiated, undefined gender identity arises. The development of the pupil's personality takes place in conditions where female stereotypes of behavior prevail, a female "educational" approach, which is the same for both girls and boys. The blurring of gender identification patterns among inmates of orphanages is largely due to the lack of gender models of behavior of significant adults, both female and male. Among the pupils of the orphanage there are children who, due to circumstances, are completely unfamiliar with the models of male behavior, because almost from birth they grew up in a purely female environment: nannies, educators, cooks, etc. mature personality, as well as contributing to the formation of undifferentiated forms of identity.

The theoretical analysis showed that the specific features of the structure of gender identity of the pupils of the UDF are practically not considered. Meanwhile, children brought up in these institutions belong to the risk group and attention to the development of the personality of the pupils of the UDF should be more careful, since the children of this social and age group develop undifferentiated forms of gender identity, which negatively affects their further socialization and adaptation in society [13].

Currently, representatives of this group have:

- a sense of their lower social status in the establishment of social relations;
- the presence of a negative self-image;
- lack of independence, initiative;
- unwillingness to face new incentives, motives for new action;
- dependence on a significant adult.

The psychological mechanisms of gender socialization are identification processes (psychoanalytic theory of Z. Freud); social reinforcement (theory of social learning and sexual typification by A. Bandura, U. Michel), awareness and understanding of the gender-sex role (theory of cognitive development by K. Letourneau, J. Smetana); construction of gender schemes (theory of gender scheme by S. Boehm), as well as social expectations (new psychology of sex M. Johnson, J. Stockard).

Studies on the role of parents in gender socialization have shown that from early childhood in children, depending on gender, personality traits are formed and consolidated that correspond to the normative notions of masculinity / femininity: in boys, these are activity, perseverance, intelligence, self-confidence, for girls - compliance, passivity, dependence. The psychological mechanism of gender socialization is based on the system of images: images-standards, images-reference points, image- reflections and images-ideas of men and women of different ages, as well as the image in "mf" (masculine- feminine) I. The identification of an individual is due to interaction and active mutual influence the following groups of images:

1. Images-ideas of people of the same and opposite sex: images of adults of the same and opposite sex.
2. Reference images: perspective images (images of older children) of their own and the opposite sex; retrospective images (images of younger children) of their own and the opposite sex.
3. Images-reflections: images of their peers and the opposite sex; images of I of people of their own and of the opposite sex [9].

The interaction of self-images determines the processes of identification, social reinforcement, awareness of the gender-gender social role, social expectations. The system of images performs an indicative corrective function, as a result of which there is a search and consolidation of the most adequate forms of behavior, a system of gender priorities is formed (a system of norms, rules, values, goals).

In the process of gender identification, children, reaching gender constancy, begin to realize their belonging to a particular gender and choose appropriate forms of behavior. The behavior of children in play, even when performing the same role, differs depending on who (a boy or a girl) the children play with [7]. However, boys are more likely to imitate the behavior of other boys than girls.

D The speaker and identity formation, says that the child first learns the idea of gender identity, about what it means to be male or female, then identifies himself as a boy or girl, and then trying to coordinate their behavior with the idea of their gender identity. The cognitive side of the identification process lies in the child's understanding of what it means to be a man or a woman, then in defining who he is, and the harmonization of this behavior with the idea of a man or woman.

Psychologists K. Martin and K. Harverson believe that children tend to reproduce in their behavior exactly those models that correspond to their gender. They observe how often certain types of activity occur in the behavior of men and women, and then use the knowledge gained to build their own behavior. If the behavior of the parents does not correspond to the standard gender role, the children do not adopt it, but are guided by the behavior of other adults.

An important role in the identification process is played by the emotional intimate relationship between the child and the parent. For example, female manners, gestures and ways of interaction are manifested in a girl even before she begins to walk, which indicates an early formation of a primary sense of femininity and an early onset of female gender-role identification.

S. Bern identifies three types of subordination of people to gender norms: compliance (conformity) is a type of submission to social norms, when a person does not accept them, but behaves in accordance with the norms in order to avoid punishment and gain social approval; approval (internalization) is a type of submission when an individual fully agrees with gender norms, identification is a repetition of the actions of a role model (man, woman, father, mother) [2]. The development of gender schemes, sociocultural norms and stereotypes is the result of the influence of cultural and environmental factors. The formation of gender schemes occurs in a child in the first years of life, children begin to call themselves a boy or a girl at an early age (from 2 to 5 years); by the age of 6-7 years, they reach gender constancy.

The further process of gender socialization of the child takes place at school. Russian scientists cite data showing that boys are given more attention from teachers. Teachers, on average, devote 20% less time to girls than boys: boys are more often involved in demonstrating various experiments, the teacher expects them to perform better, especially where abstract thinking is required, and gives higher ratings to their work [1]. Gender socialization of girls in school years contributes to the formation of their specific internal states of barriers that hinder personal and professional fulfillment. These include fear of failure, fear of losing femininity, lack of persistence in achieving goals, fear of social rejection.

The identification process is suspended from the age of 10 for boys and from the age of 9 for girls, which reflects the increasing personal autonomy of the younger student. The completion of the formation of gender-role identity occurs in adolescence and adolescence: girls have a sharply increased interest in their appearance, the need to please; young men have a fetishization of strength and masculinity.

Gender identity in the early stages of life is constructed in the process of communication between an adult and a child through linguistic mechanisms and has an interactive nature. In the process of upbringing, parents fix certain linguistic units, with the help of which gender is manifested, and determine the pragmatic and communicative contexts in which gender identity is constructed. Parents encourage their child to be a "real boy" (restrained, strong-willed, confident, tough, practical and assertive) or a "real girl" (gentle, dependent, sensitive, talkative, flirtatious, impractical). Parents shape the child's identity through sex-appropriate toys and gender-specific attributes. Girls who value the mother's hard work, honesty, humanism, caring for the family most of all develop these qualities in themselves. Boys try to imitate their fathers in efficiency, ingenuity, humor, professional skill [4].

The role of the mother in the formation of gender identity. The preconditions for symbiotic interaction between mother and child are laid during the period of prenatal development and lead to an earlier formation of the maternal parental position in comparison with the parental position of the father. Compared to fathers, mothers have a less differentiated attitude towards children of different sexes, are more forgiving and tolerant of their sons, and allow them, to a greater extent than girls, to show aggression towards parents and other children. Mothers prefer indirect, psychologized influences on children, while fathers are focused on normative interaction. The peculiarities of girls' identification with their mother are a long time period, the depth of the identification process. For the formation of a girl's identity, emotional, trusting relationships with her mother are significant.

The role of the father in the formation of gender identity. From the first moments of their babies' lives, fathers interact with them differently than mothers. With both sons and daughters, they tend to be more active and bring more stimulation and excitement [11]. The father's social expectations leave an imprint on his subsequent communication with the baby. If the baby is a boy, the father assumes that the son can share his interests in the future; hopes to repeat with his son those significant experiences that he had in relation to

his own father or to compensate for what he lacked in his relationship with his father. If the baby is a girl, the father can hope that she will be pretty and attract many fans.

The role of the father in the development of the girl is important in fostering a sense of femininity. A girl in her second year of life behaves with her father in a new way, the father can help her cope with the feeling of inferiority that has arisen as a reaction to the discovery of anatomical differences. In the third year of her life, the girl begins to demonstrate new behaviors - exhibitionistic tendencies (demonstration of her body). This contributes to the formation of a female narcissistic positive gender identity in the girl, the feeling of being a woman. As the girl embraces the female sex role, she asserts her right to interact with her father in a more mature feminine manner, while expanding and deepening her identification with her mother. The girl seeks to win the favor of her father in connection with the strengthening of the position of the woman, which facilitates selective identification with the father

The role of siblings in the formation of gender identity. Siblings have a significant influence on the formation of a child's identity. Ya.L. Kolominsky and M.Kh. Meltsas believe that if there are children of different sex in a family, then they have traits characteristic of the other sex [5]. The influence of children of different sexes on each other is more significant in the case of a small age difference; preference and acceptance of sex - role behavior corresponding to their gender is stronger in the younger child if the older child is of the same sex; in first-born boys, the preference and acceptance of the sex role is slightly weaker; gender-typical reactions are characteristic of single children in a family and boys with a brother. A boy's identification with his father is positively influenced by the presence of a brother. In girls, the presence of a sister has no effect on identification with the mother, which is more pronounced than identification with the father in boys. Older and younger children determine the boundaries and degree of compliance with gender standards, while peers determine gender status. Older children play the role of a standard to which the child tries to comply, the younger ones serve as an indicator of their own achievements, and their peers determine the level of these.

The role of peers in the formation of gender identity. Peers and older males and females have a significant impact on the child's gender - role self-determination. I.S. Cohn [6] argues that identification with peers of the same gender is the most important mechanism for the formation of gender identity. Among peers, the child experiences himself as a representative of the gender, masters' gender-role stereotypes and roles formed in the family, and corrects them in independent communication. Assessing the appearance, behavior of a child, considering other criteria of masculinity / femininity, other than family criteria, peers either confirm or do not confirm his gender identity. Feminine boys in interaction with peers are rejected by them, while they are accepted by girls, masculine girls are more easily accepted by boys. The difference between the attitude of boys and girls can be considered that girls, preferring to be friends with feminine peers, treat masculine girls positively, and among boys, the femininity of their peers is condemned. In the third year of life, peers reinforce or condemn each other's typical or atypical behavior for a given sex. Studies have shown that boys who play with girls are more ridiculed and less popular with them than those who obey gender-role stereotypes. At the age of 8-12, boyish companies begin to form (a period of male protest). This period is characterized by negativism towards girls, which manifests itself in a "masculine" harsh and rude style of communication. By the beginning of adolescence, this style softens somewhat.

Gender stereotypes. Stereotypes are a kind of selective and imprecise way of perceiving reality, leading to its simplification and generating prejudices, they are a necessary condition for a person's interaction with the surrounding reality as a projection onto the world of his own feelings and values [3]. A social stereotype is a standardized, stable, emotionally rich, value-specific image, an idea of a social object (group, person, event, phenomenon), which develops in conditions of a lack of information, as a result of generalization of personal experience and ideas adopted in society.

The stereotypes formed by the society influence the choice of the professional path. According to public opinion, men are valued more than women, it is easier for them to get a job, and it is easier for them to enter a higher educational institution. This stimulates girls to develop such typically masculine traits as activity, competition, and the desire to dominate. Boys and girls develop behaviors that run counter to the main traditional standards of gender roles: girls learn to be more active, and boys become passive or come into conflict with society.

The mass media also play a special role in shaping gender stereotypes. In school textbooks, boys are portrayed as protagonists, courageous, independent, capable of taking risks, girls as passive, secondary characters, waiting for help and support.

The concept of gender stereotypes is directly related to gender roles, gender attitudes and expectations. Gender roles are a subset of social roles. A social role is a normatively approved model of behavior expected from a person holding a certain social position and position in interpersonal relations. The content of the role and its fulfillment are regulated by norms, i.e. certain rules developed and adopted by the group, which must be followed for the implementation of joint activities. There are rules, regulations regarding both the acceptance of roles and their performance. Gender roles are manifested in a certain system of gender symbols and stereotypes of masculinity and femininity; in a clear division of statuses, rights, duties and types of activities of people depending on their gender. As the child becomes aware of his / her gender, a certain attitude towards her is also formed. The child's ideas about meeting the expectations and requirements of a male or female role are reflected in his gender role orientation. Sex-role preferences indicate satisfaction or dissatisfaction with their belonging to this gender.

Thus, we have considered the factors that determine the gender socialization of the individual. Gender stereotypes, acceptance or rejection of gender roles and related attitudes contribute to the formation of an appropriate gender identity.

References:

1. Dulmukhametova GF *Pedagogical in terms of gender differentiation in teaching younger schoolchildren: thesis abstract ... candidate of pedagogical sciences* / G.F.Dulmukhametova. Kazan, 2011, 24 p.
2. Bern S. *Gender psychology: laws of male and female behavior* / S. Bern. St. Petersburg: Prime- Evroznak, 2008. 318 p.
3. Gulevich OA *Psychology of intergroup relations: a tutorial* / O.A.Gulevich. Moscow: Publishing house Mosk . psychol.-social. Institute, 2008. 432 p.
4. Izhvanova EM *Features and patterns of acceptance of female gender roles* / E.M.Izhvanova // *Psychotherapy*. 2006. No. 8.P. 32-34.
5. Kolominskiy Ya. L. *Role gender differentiation in preschoolers* / Ya. L. Kolominskiy, M. Kh. Meltsas // *Questions of psychology*. 1985. No. 3. S. 165-171.
6. Kon, IS *Child and society: a textbook for university students in psychological and pedagogical specialties* / IS Kon. Moscow; Academy, 2003. 336 p.
7. Craig G. *Psychology of development* / G. Craig, D. Bokum. 9th ed. St. Petersburg: Peter, 2007. 904 p.
8. Parishioners AM *Psychology of orphanhood* / AM Parishioners, NN Tolstykh. 2nd ed. St. Petersburg: Peter, 2005. 400 p.
9. Sidorenkov A.V. *Empirical substantiation of the model of manifestation of the identity of individuals in a small group* / A.V. Sidorenkov, N.S. Trishkina // *Psychological journal*. 2010. Vol. 31, No. 5.P. 17 - 29.
10. Tereshenkova E. Yu. *Socio-cultural aspects of the development of gender identity in adolescence: dissertation ... candidate of psychological sciences* / E. Yu. Tereshenkova. Moscow, 2005. 220 p.
11. Tyson F. *Psychoanalytic theories of development* / F. Tyson, R. Tyson. Yekaterinburg: Business book, 1998. 528 p.
12. Shabalina V. V. *Psychology of addictive behavior: on the example of behavior associated with the use of drugs and another psychoactive substances* / V. V. Shabalina. St. Petersburg: Publishing house of St. Petersburg. University, 2004. 336 p.
13. Yufereva TI *Features of the formation of the psychological sex in adolescents brought up in a family and in a boarding school* / TI Yufereva // *Age features of the mental development of children* / otv. ed. I. V. Dubrovina, M. I. Lisina. Moscow: Publishing house of the USSR Academy of Pedagogical Sciences, 1982. 122-131 pp.

Абдуллаева Мавлюда Садыковна,
Кандидат экономических наук, доцент.
Профессор университета общественной безопасности
Республики Узбекистан

Анаркулов Азизджан Давлаткулович,
Подполковник университета общественной безопасности
Республики Узбекистан

ВЗАИМООБУСЛОВЛЕННОСТЬ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА И ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА

Аннотация. В статье даётся анализ взаимообусловленности показателей гендерного равенства и экономического роста. На основе становления гендерных направлений исследований зарубежных стран приводится опыт Узбекистана по обеспечению прав и свобод женщин. Раскрыты основные направления гендерного равенства, способствующие экономическому росту.

Ключевые слова: гендер, гендерное равенство, заработка плата, дифференциация, дискриминация.

Annotatsiya. Maqolada gender tengligi va iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligi tahlil qilingan. Xorijiy mamlakatlarda gender tadqiqot yo'nalishlarini shakllantirish asosida O'zbekistonning ayollar huquqlari va erkinliklarini ta'minlash bo'yicha tajribasi namoyish etiladi. Iqtisodiy o'sishga yordam beradigan gender tengligining asosiy yo'nalishlari aniqlandi.

Kalit so'zlar: gender, gender tengligi, ish haqi, farqlash, kamsitish.

Annotation. The article analyzes the interdependence of indicators of gender equality and economic growth. Based on the formation of gender research directions in foreign countries, the experience of Uzbekistan in ensuring the rights and freedoms of women is presented. The main directions of gender equality that stimulates the economic growth are revealed.

Key words: gender, gender equality, wage, differentiation, discrimination.

Обеспечение гендерного равенства является одним из приоритетов работы ведущих международных организаций и финансовых институтов, таких как ОЭСР, ООН, Всемирный банк, МВФ, ЮНЕСКО, МОТ, ЕС и др.

Дискуссии по этому вопросу ведутся не одно десятилетие. Полный обзор различных мнений разных специалистов на этот счёт требует специального исследования и не может стать предметом одной статьи. В исследуемой проблеме рассматривается узкое направление взаимосвязи гендерного равенства с экономическим ростом.

Становление женских, феминистских, гендерных направлений исследований в североамериканских и западноевропейских университетах происходит с 1970-х годов. В Узбекистане этот процесс начался после 1990 года, за этот период уже накоплен определённый опыт. В частности, информация об опыте Узбекистана по обеспечению прав и свобод женщин в рамках выполнения Повестки дня в области устойчивого развития на период до 2030 года распространена среди государств – членов ООН в качестве официального документа 75-й сессии Генеральной Ассамблеи ООН [4]. Эксперты ООН и Межпарламентского союза (МПС) подчёркивают, что тенденции, наблюдаемые в Узбекистане в этой сфере, идут в русле общемировых процессов, расширение представленности женщин на самых высоких уровнях государственной власти, устранение гендерного неравенства, увеличение их числа в парламенте, правительстве и судебной власти. Согласно ежегодному докладу МПС «Женщины в парламенте» и данным организации «ООН-женщины», впервые за всю историю, по состоянию на январь 2021 года общемировая доля женщин в национальных парламентах составила более четверти – 25,5 %. [4]. В Узбекистане по итогам выборов в парламент в конце 2019 года

они составили 32% депутатов Законодательной палаты Олий Мажлиса, 25% в Сенате. По данному показателю страна вошла в число топ-50 стран (из 190), опередив почти все постсоветские страны.

Издавна гендерные отношения покоились на экономическом, социальном и политическом превосходстве мужчин. Подобное положение вещей (называемое в науке патриархатом) рассматривается наиболее зримо и выпукло. В настоящее время обеспечение гендерного равенства является одним из факторов достижения устойчивого развития и эффективного экономического роста. Несмотря на пристальное внимание международных организаций к проблемам гендерного неравенства, не в полной мере использования потенциала и человеческого капитала женщин в экономике, большинство стран не в состоянии преодолеть барьеры по пути к равноправию мужчин и женщин.

Актуальность исследуемой темы обоснована тем, что качественные изменения социальной роли женщины в экономике, происходившие прошлом столетии и усилившиеся на современном этапе, стимулировали всё возрастающий интерес учёных к проблемам, порождённым этим процессом, которые в современной науке обозначаются гендерными проблемами. Как показывает практика, в этом процессе заложена определённая bipolarность: с одной стороны, налицо позитивные сдвиги в отношении снижения нагрузки на женщину в домашнем хозяйстве, рост общего уровня интеллектуального развития в силу доступности всех уровней образования.

Но с другой стороны – всё большая вовлеченность её в общественное производство отрицательно оказывается на качественной характеристике воспроизводства рабочей силы. Несмотря на демографический рост, имеет место падение уровня рождаемости здоровых младенцев, отказ матерей от своих детей, недостаточное внимание к развитию ребёнка. Эти и другие проблемы находятся в кругу гендерных проблем, отражающих современное положение женщины в системе общественного воспроизводства. Их исследование осуществляется в рамках гендерной экономики, основные вопросы которых в Республике Узбекистан в научном практическом измерении, актуальны не только для узкого круга учёных доказывающих, что отказ от «бесполой экономики» может дать качественно новые возможности для будущего экономического развития страны. Они также представляют интерес для всех уровней государственной власти, в том числе и правительства Узбекистана, которое чётко осознаёт, что экономический рост обеспечивается реально действующими экономическими субъектами, мотивирующими своё экономическое поведение исходя из собственных гендерных интересов, ценностей, культурных традиций.

Обеспечение гендерного равенства является одним из факторов достижения устойчивого развития и эффективного экономического роста. Несмотря на пристальное внимание международных организаций к проблемам гендерного неравенства, недостаточного использования потенциала и человеческого капитала женщин в экономике, большинство стран не в состоянии преодолеть барьеры на пути к равноправию мужчин и женщин.

Гендерный фактор в экономическом росте и воспроизводстве человеческого капитала – это во-первых, исследование влияния на этот рост более полного и равноправного включения женщин в трудовую деятельность, во-вторых, изучение способов обеспечения устойчивого повышения количественных и качественных параметров процесса воспроизводства человеческого потенциала [1].

Гендерное равенство вносит позитивный вклад в экономический рост территорий, обратная зависимость проявляется менее явно и, как правило, только в странах с высоким уровнем социально-экономического развития.

Гендерное неравенство проявляется, прежде всего, в нормах, убеждениях, ценностях, которые зарождаются во «внутренних» гендерных отношениях на уровне домохозяйства. Гендерные стереотипы на уровне домохозяйства определяют доминирующие модели гендерного неравенства в зависимости от эгалитарности общества, а также гендерное разделение труда. Данное разделение наблюдается в различных регионах мира и обусловливается большим участием женщин в неоплачиваемом репродуктивном труде, что объясняет более высокий уровень экономической активности мужчин по всему миру и снижает вклад женщин в ВВП.

Гендерное равенство предполагает наличие одинаковых возможностей для формирования, накопления, использования человеческого капитала каждого индивида вне зависимости от пола. Исследование человеческого капитала без применения гендерного подхода не представляется возможным, это обусловлено тем, что человеческий капитал – это человеческий капитал индивидов,

а гендерные диспропорции в социально-экономической сфере обусловлены гендерными стереотипами, наличие которых объясняет различие в формировании, накоплении и использовании человеческого капитала у мужчин и женщин. Быстрый экономический рост в ряде стран связывают с увеличением занятости женщин в различных отраслях народного хозяйства. Наличие неиспользуемых возможностей здесь очевидно, но механизм их мобилизации не изучен. Выделение гендерного фактора как автономного и активизация его действия представляются весьма перспективным направлением развития теории экономического роста и ее практических приложений.

Исследователи гендерного равенства отмечают гендерную асимметрию во вкладе в экономический рост. Экономический рост определяется как увеличение товаров и услуг, произведенных в стране в течение года, которые оцениваются по рыночной цене с одной важной оговоркой: перечень товаров и услуг ограничивается теми, которые становятся объектами купли-продажи. Производство этих товаров и услуг классифицируется как «экономическая деятельность», вклад в которую вносят в основном мужчины. Товары и услуги, произведенные за счет неоплачиваемого домашнего труда для потребления и использования в семье, в том числе репродуктивный труд по воспроизводству человеческого капитала, который в основном выполняются женщинами, явно исключены из definicijijj экономической активности и роста, относится к категории «экономическая неактивность». Другими словами, экономический рост страны определяется и измеряется таким образом, что произвольно исключает домашний неоплачиваемый труд, который занимает существенную долю в общественном труде и определяется как «экономическая неактивность». В Узбекистане в сфере занятости населения доля работающих по найму женщин почти в два раза ниже, чем мужчин. Согласно исследованию Международной организации труда, 80% населения Узбекистана предпочитает, чтобы в семье мужчина зарабатывал деньги, а женщина занималась домашними делами и детьми.

Разница в оплате труда мужчин и женщин также влияет на экономический рост. Страны с высоким индексом человеческого развития демонстрируют положительную динамику в гендерном развитии и достижении гендерного равенства. В Узбекистане заработная плата женщин на 35% ниже, чем у мужчин [3]. С точки зрения работодателей женщина - менее ценный актив, потому что, согласно гендерным установкам, на первом месте для неё всегда будет семья, а не профессиональный рост и личные интересы. Более того, различия в оплате труда могут быть объяснены двумя основными причинами: во-первых, женщинам платят меньше из-за того, что они сами выбирают более низкооплачиваемые работы, во-вторых, они считают себя менее востребованными работниками из-за нехватки опыта и квалификации. [1, 52].

Стеван Класен предложил два основных направления, по которым гендерное равенство способствует экономическому росту. Первое направление - семья – опосредованный фактор, основанный на предположении о том, что, исходя из распределения репродуктивных обязанностей между мужчинами и женщинами, женщины вкладывают большие ресурсы в человеческий капитал своих детей, тем самым увеличивая производительность следующего поколения работников. Второе направление – рынок-опосредованный фактор, который базируется на предположении о том, что врожденные способности случайным образом распределяются между мужчинами и женщинами, а рынок выравнивает гендерное распределение ресурсов и возможностей и максимизирует производительность и эффективность человеческих ресурсов, имеющихся в экономике.

Данные факторы влияния гендерного равенства на экономический рост имеют разные временные рамки. Влияние на экономический рост рыночного фактора проявляется в течение более короткого периода, так как гендерное равенство подразумевает, что распределение ресурсов и возможностей в экономике зависит от уровня развития человеческого капитала индивидов, а не от проявления императива гендерных норм. Доступ женщин к ресурсам может привести к более высокому уровню инвестиций в человеческий капитал детей, но его влияние на экономический рост не материализуется в экономике и обществе, пока эти дети не присоединятся к рабочей силе. Прежде всего, данное направление отражается в повышении общего уровня образования населения, что также является важным фактором, влияющим на экономический рост.

Следующим фактором, влияющим на экономический рост, являются гендерные различия в реализации человеческого капитала, которая происходит под влиянием вертикальной и горизонтальной сегрегации на рынке труда. Всемирным банком было выдвинуто два объяснения

данного экономического явления: во-первых, проявляется дискриминация по половому признаку на рынке труда, и, во-вторых, наблюдается добровольный выбор профессий на рынке труда мужчинами и женщинами, обусловленный различиями в распределении домашних обязанностей между ними.

Подводя итог, можно сказать, что женщины играют все более важную

роль в современном обществе. Причем их активность в первую очередь должна поддерживаться самим обществом в силу дополнительных выгод, которые оно получает. В статье наглядно показывается, что увеличение гендерного равноправия значительно увеличивает ВВП на душу населения, что способствует экономическому росту. Поэтому обществу должно быть выгодно стимулировать более активную женскую позицию. Участие женщин в экономических процессах также стимулирует конкурентоспособность экономики, а значит, и ее развитие, создание новых технологий и как следствие - инновационность. В целом можно констатировать, что активное уменьшение гендерного разрыва будет не только увеличивать экономическое развитие общества, но и снижать скорость его воспроизводства.

Список использованной литературы:

1. Берн Ш. Гендерная психология. – Москва: ОЛМА Медиа Групп, 2002.
2. Каюмов А.А., Захирова Г.М. Половозрастные особенности занятости населения в Республике Узбекистан. Экономика и финансы, 2016.
3. Нарбаева Т.К. www.podrobno.uz 19.03.2019.
4. Сайдов А.С. Политика гендерного равенства в современном Узбекистане. «The Korea Times». www.koreatimes.co.kr 5.04 2021



Akramova Feruza Akmalovna,
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent
Nizomiy nomidagi TDPU
“Psixologiya” kafedrasi dotsenti

OILADA IJTIMOIY USTANOVKA VA STEREOTIPLARNING GENDER TAFOVUTLARI

Annotatsiya. Maqola olib borilgan tadqiqot natijalari asosida oilada ijtimoiy ustanovka va stereotiplarning gender tafovutlarini tahlil etishga bag'ishlangan. Oila a'zolari o'rtaida olib borilgan tadqiqot natijalarining ilmiy tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: gender, stereotip, ustanovka, ta'lif olish, oila, oila vazifalari.

Аннотация. Данная статья посвящена анализу гендерных различий, социальных установок и стереотипов в семье. Приведен научный анализ результатов исследования, проведенных среди членов семьи.

Ключевые слова: стереотип, установка, получение образования, семья, функции семьи.

Annotation. This article is devoted to the analysis of gender differences, social attitudes and stereotypes in the family. The scientific analysis of the research results carried out among family members is presented.

Key words: stereotype, attitude, education, family, family functions.

O‘zbekistonda xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeyini oshirish, ularning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga katta e’tibor beriladi va davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Asosiy Qomusimiz bo‘lgan mamlakat Konstitutsiyasining 18-46-moddasida qat’iy belgilab qo‘yilgan qoidalar, Oila Kodeksining 14-moddasida belgilangan huquq va majburiyatlar jamiyatda insonlarning jinsidan qati’ nazar keng imkoniyatlar yaratilishiga asos qilib olinganligi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, xotin-qizlarning barcha sohalarda erkaklar bilan teng huquqli ekanliklari e’tirof etilgan.

Shu sababli ham bugungi kunda yurtimizda xotin-qizlarning davlat va jamiyat qurilishi, oiladagi o‘rnini mustahkamlash borasida milliy mexanizm muvaffaqiyatli ishlab turibdi.

Respublikamizda gender tengligiga erishishda quyidagilarni bajarish zarur:

1. Xotin-qizlarning professional va funksional savodxonligini oshirish.
2. Xotin-qizlarning iqtisodiy mavqeyini yaxshilash.
3. Xotin-qizlarning siyosiy hayotda ishtirok etishini kuchaytirish.
4. Qiz bolalarni ta’lim olishlarini qo‘llab-quvvatlash borasida maxsus dasturlar yaratish.
5. Gender tadqiqotlari o‘tkazish.

6. Respublika ayollarining maqomi va maqeyini yaxshilash bo‘yicha milliy mexanizmlarni takomillashtirish.

Ijtimoiy psixologiya ijtimoiy ustanovka muammosini muhim psixologik ta’sir mexanizmi sifatida qaraydi.

“Ustanovka” ruscha so‘zdan olingen bo‘lib, yo‘l-yo‘riq, ko‘rsatma, yo‘nalish, yo‘naltirish ma’nosini anglatadi. Ijtimoiy ustanovka murakkab tizim va tabiatga ega, chunki ijtimoiy ustanovka tushunchasiga munosabatlar ham, shaxsiy ma’no ham, baholar sistemasi ham, bilimlar ham kiradi. Ya’ni ijtimoiy ustanovka shaxsning turli ijtimoiy obyektlarga nisbatan munosabat bildirishning ichki mexanizmidir.

Fanda “stereotip” so‘zi yunoncha “stereos” – qattiq va “typos” – iz, belgi, tamg‘a ma’nolariga tayanadi.

Psixologiya fanida ijtimoiy ustanovka va stereotiplar namoyon bo‘lishida omil sifatida gender tafovutlarining yuzaga kelishi ta’kidlanadi. Biz tadqiqotimiz doirasida oila muhitidagi ijtimoiy ustanovkalar va stereotiplar namoyon bo‘lishining gender tafovutlarini aniqlashni belgilab olgan edik.

Ma’lumki, ijtimoiy hayotda mustaqil o‘rin egallash uchun biron-bir mutaxassislikni o‘rganish, buning uchun esa o‘rta maxsus va yuqori bosqich hisoblangan oliy ta’limni o‘tish kerak. Lekin ularning bu imkoniyatlari ega bo‘lishlari uchun jamiyatda har doim ham xayriyohlik bo‘lmaydi.

Biz oliy ma’lumot olish imkoniyatini kimga: yigitgami, qizgami masalasini ijtimoiy-psixologik so‘rvonoma (V.M.Karimova, F.A.Akramova) orqali qo‘ydik. Bu savol yuzasidan ilk o‘spirinlik davridagi yigit va qizlar hamda oilali katta kishilar fikrini o‘rgandik, ya’ni obyekt sifatida Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti qoshidagi Iqtisodiyot litseyida tahsil olayotgan ilk o‘spirinlik davridagi qizlar va yigitlar; Toshkent shahrining Chilonzor tumanida yashaydigan oilali ayollar va erkaklar fikrlari ham inobatga olindi. Bu savol bo‘yicha olingen natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

I-jadval

“Oliy ma’lumot olishda kimga imkoniyat yaratib berish kerak?” savoli bo‘yicha natijalar (% da)

Obyekt	“Yigitga”	“Qizga”	“Kim qobiliyatli bo‘lsa”	“Javob berish qiyin”
Yigitlar	71,3	7,5	19,0	2,3
Qizlar	66,2	6,5	23,5	3,8

Jadvaldan ko‘rinadiki, aksariyat respondentlar birinchi navbatda oliy ma’lumot olish imkoniyatini yigit kishiga yaratib berish kerakligini belgilashgan. Bunday belgilash ham yigitlar, ham qizlar tomonidan 5 foiz farq bilan ko‘rinadi. Bu o‘z navbatida qizlar ham, yigitlar ham an’anaviy ravishda mutaxassislik egallab, kelgusida oila boqish yumushi ko‘proq erkaklar zimmasida ekanligini anglashlarini bildiradi. Chunki oila muhitida otasining oila iqtisodiy ta’midotida yetakchi ekanligini aksariyat sinaluvchilar bolalik paytlaridan ko‘rib keladilar va bu holat o‘z navbatida ular tasavvurida ham namoyon bo‘ladi.

Qolaversa, azaldan oilani iqtisodiy ta’minlash vazifasiga nisbatan shakllangan ustanovka qiz bola shaxsidan ko‘ra erkak kishiga nisbatan yo‘naltirilganligi bilan xarakterlanadi.

Ikkinchi o‘rinda esa “kim qobiliyatli bo‘lsa” javobi tanlanganligini kuzatamiz. Bu borada qizlar fikri yigitlar fikridan biroz farq qiladi. Chunki litsey o‘quv dargohida nafaqat iqtidorli yigitlar, balki qobiliyatli qizlar ham tahsil oladi. O‘zini o‘zi baholash asosida o‘z qobiliyatni qay darajada ekanligini yaxshi anglaydi. Shu qobiliyatiga mos ravishda kelgusida ta’lim olishni davom ettirib, mutaxassislikka ega bo‘lish istagi aksariyat qizlarda kuzatiladi. Shuning uchun “kim qobiliyatli bo‘lsa” javobining tanlanishi qizlarda ko‘proq ko‘rindi. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, aksariyat hollarda qizlarning oliy ta’limni davom ettirishlari to‘g‘risidagi fikr oila muhitining darajasi va sharoitiga mos ravishda ham hal qilinadiki, bunga asoslangan holda javob tanlanishi mavjuddir. Umuman olganda, litseyda tahsil olayotgan ilk o‘spirinlarning ota-onasi

oilasi zamonaviyligi, farzand kelajagi uchun uning o‘qishi muhimligini tushunish asosida fikrlashi va shunga mos harakat qilishi bilan ajralib turadi.

Birinchi savol bo‘yicha olingen javob natijalarida ko‘proq yigitlarga oliv ta’lim dargohida o‘qib, mutaxassislik egallash imkoniyatini yaratib berish lozimligi belgilangan. Qo‘yilgan savolning mantiqiy davomi sifatida “Nima uchun qiz bola oliv ma’lumot olishi shart emas?” savolining natijalarini keltiramiz.

2-jadvalda keltirilgan natijalardan ko‘rinadiki, qiz bola shaxsiga nisbatan oliv ma’lumot olishiga nisbatan o‘ziga xos ustanovka shakllangandir. Bu ustanovkalar uchun kelgusida oila, ro‘zg‘or tashvishlari bilan ko‘proq shug‘ullanishi muqarrarligini, qiz bola oliv ma’lumot sohibasi emas, biror kasb egasi bo‘lsa yetarli ekanligi, qiz bola oila iqtisodiy holatiga mas’ul bo‘lishi shart emasligini ta’kidlaydi.

2-jadval

“Nima uchun qiz bola oliv ma’lumot olishi shart emas?” savoli bo‘yicha natijalar (% da)

Javoblar	Qiz	Yigit	Ayol	Erkak
Qiz bola oila, bola, ro‘zg‘or bilan shug‘ullanadi	40,6	35,9	19,0	32,4
Kasb egallasa bo‘ldi, oliv ma’lumot olishi shart emas	27,5	39,1	17,2	21,6
Qiz bola turmushga chiqishi shart	8,7	14,1	10,3	10,8
Oila qurgach, eri ishlashga ruxsat bermaydi	5,8	7,8	10,3	4,1
Ko‘p qizlar diplomi bilan uyda o‘tiradi, ish topolmaydi	10,1	1,6	5,2	9,5
Oilani u emas, turmush o‘rtog‘i boqadi	0	6,3	3,4	8,1
Oilaning iqtisodiy ahvoli yetarli bo‘lishi mumkin	2,9	1,6	5,2	1,4
Bu uning qarori bo‘lishi mumkin	0	1,6	3,4	1,4
Boshqa javob	11,6	0	12,1	10,8
Javob berish qiyin	4,3	6,3	25,9	8,1

Shuning uchun “qiz bola oila, bola, ro‘zg‘or bilan shug‘ullanadi”, “kasb egallasa bo‘ldi, oliv ma’lumot olishi shart emas”, “qiz bola turmushga chiqishi shart”, “oila qurgach, eri ishlashiga ruxsat bermaydi”, “ko‘p qizlar diplomi bilan uyda o‘tiradi, ish topolmaydi”, “oilani u emas, turmush o‘rtog‘i boqadi” javoblarining tanlaganligini ko‘ramiz. Bunday natijalar esa o‘z navbatida oilali va oilasiz, yigitlar va qizlar, erkaklar va ayollar tasavvurlari orasida ma’lum darajada tafovut va o‘xshashliklar mavjud ekanligini bildiradi.

Shu o‘rinda biz qiz bola shaxsining oliv ma’lumotga ega bo‘lishiga nisbatan yondashishni kuzatamiz va aytish joizki, “qiz bola oila, bola, ro‘zg‘or bilan shug‘ullanadi”, “kasb egallasa bo‘ldi, oliv ma’lumot olishi shart emas”, “qiz bola turmushga chiqishi shart”, “oila qurgach, eri ishlashiga ruxsat bermaydi”, “ko‘p qizlar diplomi bilan uyda o‘tiradi, ish topolmaydi”, “oilani u emas, turmush o‘rtog‘i boqadi” javoblarining yuqori darajada tanlanishi nafaqat yigitlar va erkaklar tomonidangina emas, balki qizlar va ayollar fikrlaridan ham ko‘rinadi.

Biz bu masalaga umumiy tarzda yondashar ekanmiz, nima uchun aynan oliv ma’lumotga ega bo‘lish ko‘proq ravishda yigitlar uchun zarurligini respondentlar tomonidan ajratib berilishiga e’tiborni qaratdik. Shuning uchun biz “Nima uchun oliv ma’lumot olish uchun yigitga imkoniyat yaratib berish kerak?” savolini maxsus o‘rgandik. Natijalar 3-jadvalda berilgan.

3-jadval

“Nima uchun oliv ma’lumot olish uchun yigitga imkoniyat yaratib berish kerak?” savoli bo‘yicha natijalar (% da)

Javoblar	Yigitlar	Qizlar
Yigit kelgusida oila boquvchisi	49,8	62,6
Yigit ota-onasiga ham qarashi kerak	29,8	17,9
Qiz bola oila qurib ko‘proq oila bilan band bo‘ladi	24,1	10,8
Erkak kishi oila boshlig‘idir	7,3	10,3
Erkak kishi o‘qishi, mutaxassislik egallashi kerak	5,7	10,1
Yigit kishi jamiyatga va boshqalarga ko‘proq foyda keltiradi	1,0	2,1
Yigitlar qizlarga nisbatan aniq maqsadli va qobiliyatliroq	1,9	0,2
Boshqa javob	2,5	3,2
Javob berish qiyin	2,5	1,1

Jadvaldan ko‘rinadiki, oilaviy rollar taqsimoti, kasb egallash, ilm olish masalasida erkak kishi uchun boquvchi rolini mos deb bilish kuzatiladi. Masalan, “yigit kelgusida oila boquvchisi” javobi qizlar tomonidan ko‘proq belgilanishi orqali (62,6%), yigitlar tomonidan esa (49,8 %) kuzatiladi, bu o‘z navbatida oila iqtisodiy ta’mnoti masalasi bu bevosita erkak kishiga tegishli ekanligini yanada ta’kidlaydi. Shuningdek, eng e’tiborli tomonini keltirishni o‘rinli deb hisoblaymizki, oila iqtisodiy ta’mnotiga va uning boquvchisi roliga yigitlarga nisbatan oila boquvchisi vazifasi qo‘llanilyapti.

Jadvaldagagi eng xarakterli tomoni shundaki, respondentlarimiz orasida aynan qizlar oilaning iqtisodiy ta’mnoti kelgusida erkak kishi zimmasiga ko‘proq yuklanishi, shu tufayli qiz bolaga nisbatan yigit kishining o‘qishi, ma’lumot egallashi muhimroq ekanligini ta’kidlashlari hisoblanadi.

Biz qiz bola shaxsi uchun kasb egallash muhimmi yoki oliy ma’lumot olish muhimmi masalalarini solishtirish maqsadida “Qiz bolani oliy ma’lumot olishi muhimmi?” savolini ham berdik. Bu savol yuzasidan olingan natijalar 4-jadvalda berilgan.

Olingan natijada qiz bola oliy ma’lumotni egallasa, “har holda kelajakda noni butun bo‘ladi” kabi qarash ham yo‘q emas. Tadqiqot natijalaridan yana shunday tomonlar ko‘rindiki, oilali erkaklarning 55,5 foizlari “ha” ni tanlasalar, 36,5 foizlari “yo‘q”ni tanlaganlar. Bu natijalar esa erkak kishilar uchun qiz bola kelgusida oila muhitida ayollik, bekalik, onalik rollarini bajarishi muhimroq ekanligini uqtirishlarini ko‘rsatadi.

4-jadval

“Qiz bolani oliy ma’lumot olishi muhimmi?” savoli bo‘yicha natijalar (% da)

Javoblar	Qizlar	Yigitlar	Ayollar	Erkaklar
“Ha”	78,9	78,8	71,6	55,5
“Yo‘q”	18,1	18,2	24,2	36,5
“Javob berish qiyin”	3,0	3,0	4,2	4,0

Demak, oliy ma’lumot olish va kasb egallash masalasi yuzasidan barcha toifa respondentlar birinchi navbatda oila boquvchisi sifatida erkak kishini ko‘radilar va shuning uchun ham yigit kishining oliy ma’lumot olishi muqarrar hodisa sifatida kuzatiladi. Qiz bola shaxsiga nisbatan esa bunchalik xayrioxlik kuzatilmaydi. Chunki u kelgusida ko‘proq oila yumushlari bilan band bo‘ladi, bola tarbiyasi, uyga va ro‘zg‘orga qarash u uchun ko‘proq darajada ahamiyatli deb hisoblash ko‘rinadi. Bu esa qiz bola shaxsiga nisbatan shakllangan ijtimoiy ustanovkani bildiradi.

Demak, oila muhitiji ijtimoiy maskan sifatida shaxsning kasbiy va shaxsiy kamolotiga o‘spirinlik davridayoq ustanovkaning shakllanishiga asos bo‘la olar ekan. Shuning uchun biz oila muhitida yigitnimi, qiznimi, mustaqil oila yuritishida, jamiyatda o‘z o‘rnini topa olishida zarur shart-sharoitni yaratib berishimiz kerak bo‘ladi.

Zero, millatning yuksalishi, davlatning rivojlanishi jinsidan qat’i nazar, har bir insonning shaxsiy, kasbiy, aqliy, ijtimoiy ulushidan tarkib topadi. Shunday ekan, biz jamiyatimizning har bir a’zosiga o‘z qobiliyati va imkoniyatini namoyon etishiga yetarli sharoit yaratishimiz zarur bo‘ladi.

Ermatova Gulnoz Pirimovna,
NavDPI, Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti

Ergasheva Lobar,
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi

JAMIYATDA AYOLLARNING MAVQEYI, HUQUQ VA ERKINLIKHLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada bugungi kunda ayollarimizning huquq va erkinliklari va jamiyat hayotidagi, boshqaruvidagi roli haqida fikrlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ayollarni iqtisodiy, ijtimoiy haq-huquqlari, shart-sharoitlar davlat siyosati, ustuvor vazifa, ijtimoiy-siyosiy faoliyat.

Аннотация. В данной статье освещены права и свободы женщин и их роль в жизни общества и управлении.

Ключевые слова: экономические и социальные права женщин, условия государственной политики, приоритет, общественно-политическая активность.

Annotation. This article covers the rights and freedoms of women, their role in the life of society and in management.

Key words: economic and social rights of women, conditions of state policy, priority, social and political activity.

Bugungi kun mamlakatimizda ayollarning millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy ahvoli hamda turar joyidan qat’i nazar, barcha huquqlarini taminlash dolzarb masalardandir. Davlatimiz tomonidan shahar va qishloqlarda yashaydigan ayollarni iqtisodiy, ijtimoiy haq-huquqlarini himoya qilish, ularning har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish masalasi davlat siyosatining ustuvor vazifasi sifatida belgilangan. Ayollarning huquq va erkinliklari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida ham inson huquqlari sohasidagi xalqaro hujjatlar singari tengligini ta’minlaydi⁸⁸.

Tarixiy rivojlanish bosqichlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, xalqimiz qadimdan ayollarni doimiy ravishda e‘zozlaganliklarini ko‘rish mumkin. Masalan, mil. avv. VI asrda To‘maris jasoratiga, XIV asrda Saroymulkxonim adolatiga, XIX asrda yashab ijod qilgan Nodirabegim va Uvaysiy mahoratiga, XX asrda o‘zbekning suyukli shoirasi Zulfiyaxonim shijoati va salohiyatiga tan berib sharqona hurmat bilan ardoqlab kelishgan. Ushbu an’analarga sodiq qolgan holda, mustaqillikka erishganimizdan keyin ham bu masalada alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda. 1998-yilning “Oila yili”, 1999-yilni “Ayollar yili”, 2001-yilni “Onalar va bolalar yili”, 2012-yilni “Mustahkam oila yili”, 2016-yilni “Sog‘lom ona va bola yili” deb e’lon qilinishining o‘ziyoq bunga yorqin misol bo‘la oladi.

O‘zbekistonda ayollar huquqlari, erkinliklarining qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha izchil va tizimli siyosatning asosiy yo‘nalishlari belgilab olingan bo‘lib, ular quyidagilar hisoblanadi:

–birinchidan, ayollar huquqlari va manfaatlarini himoya qilish, onalik va bolalikni muhofaza qilish sohasida qabul qilingan qonun hujjatlarini bajarilishini taminlash hamda huquqiy asosini yanada takomillashtirish bo‘yicha choralar ko‘rish;

–ikkinchidan, ayollar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha ishlarning, ularning ahvolini doimiy ravishda har tomonlama monitoring qilish, ularning oilada, jamiyatda hamda jamoat va davlat ishlarini boshqarishdagi rolini oshirish;

–uchinchidan, ayollarning bandligini ta’minalash bo‘yicha samarali choralar ko‘rish va amalga oshirish, ularni ishga joylashtirish uchun har tomonlama yordam ko‘rsatish, ayollar orasida, ayniqsa, qishloq joylarida tadbirkorlikning turli shakllarini rivojlantirish;

⁸⁸ Mo’mnov A.R., Tillaboyev M.A. Inson huquqlari. – Toshkent: “Adolat” 2013, 379-bet

–to‘rtinchidan, ayollarning ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-huquqiy faolligini oshirishga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, ayollar nodavlat notijorat tashkilotlarning mamlakatning ijtimoiy va siyosiy hayotida faol ishtirok etishi uchun ko‘maklashish.

Yuqorida ko‘rsatib berilgan vazifalardan kelib chiqib bugungi kunda Respublikamizning barcha viloyat, shahar, tumanlarda “Ona va bola markazlari” tashkil etildi, ayollar huquqlari va manfaatlarini himoya qilish, onalik va bolalikni muhofaza qilish, ularning sog‘ligini ta‘minlash bo‘yicha reproduktiv huquqlarini, ayollarning bandligini ta‘minlash bo‘yicha kichik tadbirkorlik ishlariiga jalb qilish, shu bilan birga, ularni ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-huquqiy faolligini oshirishga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda.

Konstitutsiyamizning 18-moddasida ayollarimizning teng huquqli ekanliklari e’tirof etilgan. Unda “O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, etiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat‘i nazar, qonun oldida tengdirlar. Imitiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo‘yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart”⁸⁹, deb ko‘rsatib o‘tilgan. Konstitutsiyadagi bu tushuncha ayollarning barcha turdagи kamsitishlarining oldini oladi va ularni jamiyatning teng huquqli a‘zosi sifatida konstitusiyaviy huquqlari e’tirof etiladi. Qomusimizning 46-moddasiga muvofiq, xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar.⁹⁰

Ayollarning siyosiy huquqlarini ta‘minlab berishda siyosiy partiyalarga parlament saylovlarida ishtirok etishi uchun deputatlarga nomzodlarning umumiy sonidan kamida 30% ayollar tashkil etishi kerakligi qonuniy mustahkamlab qo‘yilishini ham alohida ta‘kidlab o‘tish lozim. Mamlakatimizda 2009-yil dekabrda Qonunchilik palatasida bo‘lgan saylovarda 150 deputat sonidan 33 ta deputat ayol kishini, 2010-yil yanvardagi Senatda bo‘lgan saylovarda 100 deputatdan 15 tasi ayol deputatlarni tashkil etardi.

BMTning statistika ma’lumotilariga ko‘ra parlamentlarda ayollarning vakilligi butun dunyoda astasekin o‘sib bormoqda va 2010-yilga kelib rekord ko‘rsatkichga-19 foizga yetdi. 2010-yil sentabr oyida New-Yorkda davlat va hukumat rahbarlari ishtirokida BMT ning Ming yillik taraqqiyot maqsadlariga bag‘ishlangan sammitida ishtirok etgan O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov, mamlakatda sog‘likni saqlash sohasini tubdan isloq qilish natijasida onalar o‘limi 2 marta, bolalar o‘limi 3 marta qisqarishiga erishilganligi, aholining o‘rtacha yoshi 67 yoshdan 73 yoshgacha, ayollarniki 75 yoshgacha uzayganligi, mamlakatda ishlayotganlarning 48 foizini ayollar tashkil etishini qayt etgan.

Bugungi kunga kelib ayollarimizning ijtimoy hayotdagi roli yanada ortib bormoqda. Bunga yorqin misol mamlakatimizda huquqiy demokratik asosda xalq davlatini barpo etish yo‘lini har tomonlama asoslab beradigan hujjat “Harakatlar strategiyasi” beshta ustuvor yo‘nalishni qamrab olganligi va ana shu yo‘nalishlardan biri “Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish” hisoblanib, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning davlat va jamiyat boshqaruvidagi o‘rnini kuchaytirish, xotin-qizlar, kasb-hunar kolleji bitiruvchi qizlarining bandligini ta‘minlash, ularning tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, oila asoslarini yanada mustahkamlash⁹¹ jarayonlarini keng qamrab olishdir.

Bu islohotlarning davomi sifatida Prezidentimiz ham o‘zlarining Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomalarida “Davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning o‘rni va mavqeyini yana-da mustahkamlash – islohotlarimizning eng ustuvor yo‘nalishlaridan biridir” deya ta‘kidladi⁹².

Bugungi kunda respublikamiz davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1 ming 400 ga yaqin xotin-qizlar rahbarlik lavozimlarida faoliyat olib borishmoqda. Ularning ulushi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat sohasida 82 foizni, ilm-fan, ta‘lim-tarbiya, madaniyat va san’at sohasida 72 foizni, qishloq xo‘jaligida 45 foizni, sanoatda 38 foizni tashkil etmoqda.

Ma’lumki, xotin-qizlar bandligini ta‘minlash bugungi kundagi eng muhim masaladir. Yechimini kutayotgan muammolarning aksariyati shu masala bilan bog‘liq. Mamlakatimizda 1 millionga yaqin ishsiz ayol bo‘lib, bunga doimiy ish o‘rniga ega bo‘lmagan, mavsumiy ishlarda band ayollar qo‘shilsa, ularning soni 2-2,5 millionga yetadi. Og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan yolg‘iz onalarni uy-joy bilan ta‘minlash

⁸⁹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018, 9- bet

⁹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018, 17- bet.

⁹¹ 2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҲАРАКАТЛАР СТРАТЕГИЯСИ 2017 йил, 7-феврал, ПФ-4947.

⁹² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020-yil, 29-dekabr

masalalari ham bugungi kundagi og‘riqli muammolardan biridir. Ammo ko‘plab xotin-qizlar mana shu masalalar bo‘yicha qayerga murojaat etishni bilmaydi. Ana shu jarayonlar 2020-yilda yuzaga kelgan pandemiya sharoitida o‘rganilib, shular asosida “Ayollar daftari” shakllantirildi va bu jarayonda xotin-qizlarni qiyayotgan ko‘plab ijtimoiy-iqtisodiy muammolar mahalliy hokimiyatlarning diqqat markazidan joy oldi. Bu jarayonga mahallalarda yangi tashkil etilgan “Ayollar maslahat kengashlari” ham yaqindan ko‘mak bermoqda.

“Biz mamlakatimizda istiqomat qilayotgan 17 milliondan ziyod opa-singillarimiz, qizlarimiz, onaxon va momolarimizga munosib sharoit yaratib berish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishimiz lozim”⁹³, – deb ta’kidladi davlatimiz rahbari. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi rolini oshirish bo‘yicha olib borgan islohotlar natijasida parlament yangi tarkibining 30 foizi ayollardan iborat bo‘ldi. Viloyat, shahar va tuman hokimlarining xotin-qizlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi lavozimi joriy etildi. Endilikda, davlatimiz rahbari xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi o‘rni va nufuzini oshirish, ularga yangi imkoniyatlar yaratish bo‘yicha navbatdagi muhim qadam sifatida Respublika xotin-qizlar jamoatchilik kengashini tashkil etish taklifini ilgari surdi. Joylardagi xotin-qizlar kengashlari faoliyatiga esa hokimlarning ushbu masalalar bo‘yicha maslahatchilarini rahbarlik qilishi belgilab berildi.

Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha respublika va hududiy jamg‘ armalarni yangi tashkil etiladigan kengashlar ixtiyoriga o‘tkazib berish taklifi ham ushbu masalani bajarishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini belgilab beradi.

Xotin-qizlar kengashi xotin-qizlarning jamiyatdagi manfaatlarni va mavqeyini munosib himoya qilish, ularning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotdagi rolini oshirish maqsadida xotin-qizlar tashabbusi bilan tashkil etiladigan ixtiyoriy, o‘z-o‘zini boshqaradigan, notijorat, mustaqil jamoat tashkilotidir. Kengashning asosiy maqsadi sifatida quyidagilarni ko‘rish mumkin:

– o‘zini o‘zi boshqarish mahalliy organlari va xotin-qizlar tashkilotlarining o‘zaro hamkorligi;

– jamiyatda erkaklar va ayollar tengligining konstitutsiyaviy tamoyilini amalga oshirish bo‘yicha umumiy strategiya va davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

– siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, psixologik va boshqa omillarning erkaklar va ayollarga tegishli konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishga nisbatan ta’sirini o‘rganish;

– huquqiy ehtiyojlarini amalga oshirish, erkaklar va ayollarning manfaatlari va imkoniyatlarini hisobga olish, ularni mehnat va ijtimoiy faoliyatda o‘z-o‘zini anglash, ayollarni yangi iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish;

– jamiyatda oilaning rolini mustahkamlash, onalik, otalik, bolalikni muhofaza qilish, erkaklar va ayollarning reproduktiv huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni ta’minalash;

– oilaning o‘z vazifasini amalga oshirishi, oila hayotining sifatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish.

Xotin-qizlar Kengashining asosiy vazifalari etib quyidagilarni belgilash maqsadga muvofiq hisoblanadi:

– tuman xotin-qizlar birlashmalarini ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va fuqarolik huquqlari bo‘yicha harakatlarda birlashtirish, voyaga yetmaganlarning va oila a’zolarining noqonuniy xatti-harakatlarining oldini olish, joylardagi xotin-qizlar uyushmalariga amaliy yordam ko‘rsatish;

– xotin-qizlarning jamiyatdagi manfaatlarni va mavqeyini munosib himoya qilish, ularning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotdagi rolini oshirish;

– oilani mustahkamlash, onalikning ahamiyatini oshirish;

– bolalarni barkamol qilib rivojlantirish, moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish, vatanparvarlik va insonparvarlik g‘oyalarini tarbiyalash uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirishga ko‘maklashish;

– antisotsial (yashab turgan jamiyat meyyorlarini buzish va unga qarshi) harakatlarni amalga oshirishga yordam beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlashda ishtirok etish, huquqni muhofaza qilish organlarini xabardor qilish;

– bolalarning nazoratsiz qolishi va o‘smirlilik davri jinoyatlarining oldini olishda ko‘maklashish;

– notinchlikning dastlabki bosqichida oilalarni aniqlash va barcha manfaatdor idoralar va muassasalar tomonidan salbiy holatlarni bartaraf etish bo‘yicha o‘z vaqtida chora ko‘rishda ishtirok etish;

⁹³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020 yil, 29-dekabr

– xotin-qizlar va bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilgani, voyaga yetmaganlar va noqonuniy xatti-harakatlar sodir etishga moyil bo‘lgan oila a’zolarini aniqlash bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risida tuman rahbarini tizimli ravishda xabardor etish.

Prezidentimiz xotin-qizlar kengashini tuzish taklifini ilgari surar ekan, jamiyatimiz turmush darajasining oshishi aynan ayollarga bog‘liq ekanini aniq ko‘rsatib o‘tdi. Ta’kidlash joizki, 2020-yilda O‘zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Xalqaro Tashkilotining muhim organi bo‘lgan Inson Huquqlari bo‘yicha Kengashiga a’zo bo‘lib kirdi. Bu o‘z-o‘zidan bo‘lgani yo‘q. Buning uchun mamlakatimiz inson huquqlari bo‘yicha jahon miqyosida qabul qilingan xalqaro talablar va standartlarga muvofiq ravishda qator islohotlarni olib bordi va ushbu jarayonni davom ettirmoqda. BMTning Inson Huquqlari Kengashiga a’zo bo‘lganimizdan keyingi jarayon ham o‘ziga xos murakkab vazifalarini oldimizga qo‘yadi. Bu vazifalarning eng muhimi esa, xotin-qizlarning haq-huquqi, ularning jamiyatdagi roli, turmush darajasini oshirish borasidagi amaliy harakatlardir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlar uchun keng imkoniyat va shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Ayollarimiz bu imkoniyatlardan to‘laqonli foydalanib, o‘zlarini jamiyat oldidagi ijtimoiy va siyosiy vazifalarini chin dildan ado etishsa, jamiyatimiz va xalqimiz oldidagi fuqarolik burchlarini bajargan bo‘lar edilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mo‘minov A.R., Tillaboyev M.A. Inson huquqlari. – Toshkent: “Adolat”, 2013.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018yil.
3. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришининг бешига устувор ўналиши бўйича Харакатлар Страмегияси. 2017 йил, 7-февраль. ПФ-4947.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020-yil, 29-dekabr



Tashpulatova Dilorom Mukimovna,
TVChDPI Boshlag‘nich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi,

Salomova Mohiniso Xayrulla qizi,
TVChDPI Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi

BO‘LG‘USI BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING USLUBIY-MATEMATIK TAYYORGARLIGINING TASHKILIY VA PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya. Maqolada an'anaviy talim tizimi zamonaviy jamiyat talablarini qondirishga qodir emasligi ta‘kidlanib, ushbu masalalarga yechim sifatida ba‘zi tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: talim tizimi, modernizatsiya, ta’lim modeli

Аннотация. В статье отмечается, что традиционная система образования не способна удовлетворить потребности современного общества, и предлагаются некоторые рекомендации в качестве решения этих проблем.

Ключевые слова: система образования, модернизация, образовательная модель.

Annotation. The article notes that the traditional education system is unable to meet the needs of modern society, and some recommendations as a solution to these problems are offered.

Keywords: education system, modernization, educational model

Milliy ta’lim tizimi modernizatsiyasi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim modeli shakllantirilishini, o‘quvchilarining amaliy faoliyatiga doir o‘quv jarayoniga kirib borishni taqozo etib, bu nazariy bilimlarni

dolzarblashtiradi, maktab o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini olib beradi va mustaqillikni shaxsiy fazilat sifatida shakllantiradi.

Zamonaviy boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ushbu vazifalarni hal etishga tayyorlangan bo'lishi lozim. Boshqacha aytganda, bo'lg'usi pedagog tashkiliy jihatdan ham, mazmuniy jihatdan ham boshlang'ich ta'larning integrativ xarakterini, o'zining bo'lg'usi kasbiy faoliyatining integrativ yo'nalganligini aniq his qila olishi zarur. Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida uslubiy-matematik fanlarni integratsiyalash zarurati unda kasbiy kompetentlikni shakllantirish samaradorligini belgilab beruvchi asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Boshqacha aytganda, integrativ yondashuv nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilgandagina bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining uslubiy-matematik tayyorgarligi samarali bo'ladi. Mazkur yondashuv asosida integratsiya tushunchasi yotadi. Ilmiy adabiyotlarda integratsiya deganda, ko'pincha qandaydir unsurlarning bir butunga birlashib, buning natijasida avvalgi alohida unsurlarga xos bo'lman yangi xususiyatlarni paydo qilishi jarayoni tushuniladi. Bunda yangi xususiyatlar paydo bo'lishiga olib keluvchi unsurlar o'rtaсидagi aloqalarni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratiladi. Shunday qilib, integratsiya ayni bir o'quv materialida u yoki bu sohaga oid umumlashma bilimlarning o'zaro uyg'unlashib ketishini o'zida aks ettiradi.

Qayd etish joizki, ilmiy adabiyotda pedagogik integratsiya maqsadlar, tamoyillar va ta'limgazalar yaxlitligining oliy shakli sifatida hamda o'quv fanlarining o'zaro aloqasi asosida yiriklashtirilgan pedagogik birliklar yaratish sifatida ko'rib chiqiladi. Biz, nazarimizda, kichik yoshdagagi maktab o'quvchilariga matematikani o'qitishda o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga imkon beruvchi uslubiy-matematik o'quv fanlari (matematika, matematika o'qitish metodikasi, psixologiya, didaktika va b.) integratsiyasini ko'rib chiqamiz.

Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik amaliyoti shuni ko'rsatadi, mutanosib ta'limgazalar doirasida integratsiyaning uchta asosiy yo'nalishi mavjud: psixologik-pedagogik, psixologik-uslubiy, fan-uslubiy. Qayd qilish kerakki, psixologik-pedagogik integratsiya masalalari qator mualliflar tomonidan tadqiq qilingan. Xusan, Voronej davlat pedagogika universiteti professori N.I.Vyunovaning doktorlik dissertatsiyasida (1998-yil) mazkur muammo batafsil tahlilga tortilgan. Psixologik-uslubiy integratsiyaga kelsak, u me'yoriy uslubiy kurslar doirasida amalga oshiriladi, chunki integratsiyaning ushbu turi kichik yoshdagagi maktab o'quvchilarini o'qitishning istalgan fan uslubiyatidagi (jumladan, matematikani o'qitish uslubiyatining ham) "tizimga solingan" majburiy integrativ unsur sanaladi. Boshqacha aytganda, mazkur holda fandagi ichki integratsiya haqida so'z bormoqda. Biz fanlararo integratsiyaga e'tibor qaratamiz. Bu ma'noda, bizni fan-uslubiy, aynan esa uslubiy-matematik integratsiya, bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida uslubiy-matematik o'quv fanlarining ahamiyati va o'rni muammozi qiziqtiradi.

Jamiyat iqtisodiy taraqqiyotining yangi turi mutaxassislarga yangi talablar qo'yadi, ularning orasida faoliyatni ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan keng miqyosda muvaffaqiyatli tashkil qilishga imkon beruvchi tizimli shakllangan intellektual, o'zaro fikr almashishga imkon beruvchi, muayyan ko'nikma tusiga kirgan, o'zini o'zi tashkil etuvchi va ma'naviy fazilatlar ko'proq ustuvorlikka ega bo'lmoqda. O'qitishga an'anaviy "bilim" yondashuvi zamonaviy jamiyat talablarini qondirishga qodir emas. Kompetentlikka yo'naltirilganlik g'oyasi ta'larning maqsadi va mazmunini yangi shart-sharoitlar va istiqbollar bilan bir mutanosiblikka keltirishga urinishdan iborat. Kompetentlikka yo'naltirilgan yondashuv: kasbiy-pedagogik ta'limgazalar bilimni eslab qolishga yo'nalganlikdan bilimni o'zlashtirishni tashkil etish va uni amaliy qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirishga o'tish; faoliyat obyekti (predmeti) yakka hukmronligiga "barham berish"; ta'limgazalar strategiyasi asosida ishga joylashish va bajariladigan kasbiy vazifalar imkoniyatlarini kengaytirish foydasiga moslashuvchanlikni oshirishni qo'yish; ta'limgazalar natijalarida fanlararo-integrativ talablarni asosiy o'ringa chiqarish; ta'limgazalar maqsadlarini kasbiy faoliyat sohasida qo'llanilish vaziyatlari bilan yanada chambarchas bog'lash; mutaxassis (bo'lg'usi o'qituvchi) faoliyatini cheksiz xilma-xil kasbiy vaziyatlarga va o'zgaruvchan hayotiy vaziyatlarga yo'naltirish imkonini beradi.

Shunday qilib, qayd qilingan ta'limgazalar bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kichik yoshdagagi maktab o'quvchilariga matematika o'qitish uchun samarali tayyorlashning zaruriy sharti sifatida namoyon bo'ladi.

Bo'lg'usi mutaxassisda kasbiy kompetensiyalar shakllanishi uning ehtiyojlari va motivlari tizimiga bog'liq sanaladi. Ehtiyojlar va motivlar tizimi ko'p jihatdan nafaqat odam faolligi yo'nalishi va darajasini,

balki uning shaxsiyatidagi o‘ziga xoslikni ham belgilab beradi. Ehtiyojlar va motivlar ierarxiyani tashkil etib, u shaxs faoliyatining barcha sohalarida uni tavsiiflaydi hamda o‘z oldiga muayyan masalalarni qo‘yish va ularni amalgalash uchun sa‘y-harakatlarni jamlashga turtki beradi. Turli motivlarning o‘zaro nisbatli kasbiy ta’lim mazmuni va texnologiyasini, mutaxassisning ijodiy shaxsini shakllantirish bo‘yicha butun jarayonni tashkil etish shartlarini tanlashni taqozo etadi.

Ilmiy adabiyotda motivlarning ikki guruhi ajratib ko‘rsatiladi: maqsadga erishish motivlari va bilishga oid motivlari.

Birinchi guruhda bilish faoliyati faqat maqsadga erishish vositasi hisoblanib, bilish faoliyatining o‘zidan tashqarida bo‘lsa, boshqasida – uning o‘zi maqsad sanaladi (ichki motivlari).

Binobarin, noma’lum yangi bilim bilish faoliyati maqsadi bilan ustma-ust tushsa, bunga bilish motivatsiyasi deyish mumkin, maqsadga erishish motivatsiyasida esa bilish faoliyati maqsadga erishish vositasi hisoblanadi.

O‘qitish jarayonida o‘qituvchi talaba motivatsiyasini shakllantiradi. Talaba o‘z xatti-harakatlarini intensiv mushohada qilishi tufayli o‘quv jarayonida bilish va maqsadga erishish motivlari faol ravishda bir-birini to‘ldirib turadi, bunda bilishga qiziqishni faoliyatning mustaqil ta’lim motivi sifatida belgilash mumkin.

Bilish motivatsiyasi bo‘lg‘usi mutaxassis shaxsining kasbiy motivatsiyasi va yo‘nalganligini rivojlantirish jarayonida boshlang‘ich nuqta sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘quv fanini bilishga faol qiziqish bo‘lajak kasbiga qiziqish bilan uyg‘unlashgan holda kasbiy shakllanish samarali bo‘ladi. Shunday qilib, motivatsiya talabani nafaqat bilish faoliyatini faollashtirishga turtki beradi, balki butun mutaxassis tayyorlash jarayonini o‘zida qamrab olib, bu jarayon chuqur mulohazakorlik va maqsadga yo‘nalgan tarzda amalga oshishini ta’minlaydi.

Shu tariqa, agar faqatgina bilim berilsa va ko‘nikma shakllantirilsa, biroq bunda pedagogik faoliyat ehtiyojlar hamda motivlari rivojlantirilmasa, mutaxassis tayyorlash hozirgi talablarga mutanosib bo‘la olmasligi oydinlashadi.

Xaydarov Ismoil Olloqulovich,
psixologiya fanlari nomzodi, доцент

YOSHLARNI OLILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

Annotatsiya. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bilan oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sifatida jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lishi belgilangan. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlab, navqiron avlod vakillari ongida er-xotin huquqlari va majburiyatlari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida nizolarni bartaraf etish usullari, oilada muloqot madaniyati to‘g‘risidagi tasavvurlar shakllantirilib borilsa, oilaviy nizolar va ajrimlar soni kamayib borishi haqida mulohaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: oila va jamiyat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, muloqot madaniyati, oilaviy nizolar va ajrimlar, sog‘lom oilada sog‘lom farzand.

Аннотация. Конституцией Республики Узбекистан предусмотрена роль семьи как основного звена общества и определено право семьи на защиту государства. При подготовке молодых людей к семейной жизни, существует понимание прав и обязанностей молодого поколения, путей разрешения конфликтов на основе национальных и общечеловеческих ценностей и сокращения числа семейных конфликтов и разногласий.

Ключевые слова: семья и общество, национальные и общечеловеческие ценности, культура общения, семейные разногласия и разводы, в здоровой семье здоровый ребенок.

Annotation. The Constitution of the Republic of Uzbekistan provides for the role of the family as the main link in society and defines the right of the family to be protected by state. When preparing young people for family life, there is an understanding of the rights and obligations of the young generation, ways

to resolve conflicts based on national and universal values, and reduce the number of family conflicts and disputes.

Key words: family and society, social and national values, communication culture, family disputes and divorces, a healthy child in a healthy family.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida “Oila” jamiyatning asosiy bo‘g‘ini hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Oilaning muqqadasligi bilan, muammolari va ko‘p qirraligi bilan hamisha ilm ahlini va tadqiqotchilar aql-u zakovatini to‘lqinlantirib kelmoqda.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlab navqiron avlod vakillari ongida er-xotin huquqlari va majburiyatlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, oilada muloqot madaniyati to‘g‘risidagi tasavvurlarni muntazam shakllantirib borish oilaviy nizolar va ajrimlar soni kamayishiga xizmat qiladi.

Oila barqarorligiga asos bo‘lgan huquqiy axloqiy mezonlar, hamma davlatlarda ham aynan bir xil bo‘lgan emas. Jamiyat hayotidagi iqtisodiy, siyosiy munosabatlar, diniy qarashlar, milliy an’analar, tarixiy sharoitlar, oilaviy munosabatlarning axloqiy, huquqiy mezonlarni, aynan bir qolip bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqlarga asoslanishi belgilangan. Nikoh umr savdosi deb ham yuritiladi, xalqimizda. Nikoh bir-biriga begona insonlarni qarindoshlik rishtalari bilan bog‘laydi. Shu o‘rinda kelajakda turmush qurishini niyat qilgan yigit va qizlar o‘zlarini doimo turmushga ota yoki ona bo‘lishga tayyorlab borishlari lozim.

Buning uchun, birinchi navbatda, o‘z sog‘liklari, tanlangan juftlarining xarakterini, dunyoqarashi o‘ziga qay darajada mos kelishi to‘g‘risida qayg‘urishi kerak. Chunki sog‘lom oilada sog‘lom farzand tug‘iladi. Oila farovonligi va barqarorligi – jamiyat, davlat farovonligi va u insoniyat davomiyligini ta’minlaydi.

Ota-onaning xohishiga ko‘ra hali voyaga yetmagan qizlarni turmushga uzatish, o‘g‘il bolalarni uylantirib qo‘yish, ma’lum bir kasb-hunarni egallamasdan, mehnat qilish, oiladagi iqtisodiy-moddiy ta’mnotin boshqara olish tajribasiga ega bo‘lmasdan, erta uylantirish yoki turmushga uzatish ko‘pgina salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda.

Bular quydagilarda kuzatilmoqda:

birinchidan, o‘zlarini tarbiyaga muhtoj bo‘lgan yosh oilalar, farzandni dunyoga keltirish va tarbiyalashda ota-onalik majburiyatlarini his qilmaslik yoki oilaviy munosabatlarga tayyor emaslik;

ikkinchidan, oilada er-xotin vazifalarini taqsimlanishidagi ma’naviy tayyorgarlikning yetishmasligi;

uchinchidan, yoshlar, er-xotinlik faqat nozik munosabatlar emas, balki erlik va xotinlik mas’uliyatini tushunib yetmayotganliklari;

to‘rtinchidan yosh oilaning mustaqil mablag‘i bo‘lmasligi ota-oni qo‘liga qaram bo‘lishi va boshqa sabablar;

beshinchidan, hali oila borasida tajribaga ega bo‘lmanagan yosh kelinga pand-u nasihat qilib, uni yo‘lga solish o‘rniga arzimagan mol-mulkni bahona qilib, kelinga haddan ortiq vazifalar yuklab, zulm qilib oxir oqibat ajralib kelishi;

oltinchidan, bir uyda qaynota, qaynona, kuyov va uning aka-uka, opa-singillari tomonidan kelishib olib, kelinga zulm qilishlari va uni yakkalatib qo‘yilishi va boshqa sabablar hozirgi kunda yosh oillalar orasidagi ajralish sonini ortib borishiga sabab bo‘lmoqda.

Hamma inson ham xato qiladi, kechira olish esa hammaning ham qo‘lidan kelavermaydi. Mehr esa har qanday muammolarning oddiy yechimi hisoblanadi.

Qaynonalar yosh kelinlaridan o‘tgan kamchilik va xatolarni kechira bilishlari ham olivjanoblik sanalib, yoshlarning to‘g‘ri yo‘lga tushishiga yordam beradi. Oilada qaynonalar yoshi ulug‘, tajribali bo‘lganlari uchun yoshlarga imkon berishi, bilmaganlarini o‘rgatishi, bag‘rikenglik qilishlari darkor.

Bizning tajribamiza, eng ko‘p kuzatilayotgan ajralishlar yosh oilalar orasida kuzatilmoqda. Hayot tajribasiga ega bo‘lamagan, oq-qoranı hali yaxshi farqlay olmayotgan yosh turmush qurbanlar orasidagi nikoh moddiy qaramlik, o‘zi mehnat qilib oila boqishga tayyor emaslik, erkak yoki ayol o‘rtasida juda ko‘p kelishmovchiliklarni vujudga keltiradi. Yoki yosh oilaga uchinchi shaxs (qaynona-qaynota va boshqa yaqin qarindoshlar) aralashuvi tufayli ajralishlar ko‘paymoqda.

Agar o‘g‘il va qizlarimiz turmushga chiqish uchun qizlar 21-22 yoshda, uylanish uchun yigitlar 25-26 yoshlarda bo‘lsa, bu yoshga yetganda o‘g‘il va qiz bolalar, umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar

ta'limi va oliv ta'limni tugatib, ma'lum bir soha yo'nalishi, kasbni egallagan bo'ladilar. Bu davrlardagi nikoh har tomonlama yetilgan va mukammal, mustahkam bo'lishi mumkin. Chunki shu yoshga kelib farzandlarimiz ancha ulg'aygan, oq-qorani tanigan, o'zi ishlab maosh oladigan, uy-ro'zg'or tashvishlarini his qilgan, ota-onasi bo'lish mas'uliyatini sezgan va aql-idrok bilan ish ko'radigan darajada bo'ladilar.

Yoshlar hayotiga yengil-yelpi qarab, ba'zan ota-onasi bilan ham maslahatlashmay oila quradilar, oradan ko'p o'tmay ajralish taraddudiga tushib qoladilar. Buning sababi ham oilaviy munosabatlarga asos bo'lgan ma'naviy omillarning zaifligidir. Natijada ko'plab go'daklar yetim qolib, ota-onalar mehridan mahrum bo'ladilar. Ota-onasiz qolib, mehribonlik uylarida katta bo'layotgan bolalarining soni ko'payib borishi jamiyat hayotidagi ma'naviy inqiroz yanada kuchayishga olib keladi.

Fuqarolar yoshlarning oilaviy hayotga tayyor emasligi, ularda hayotiy tajriba, mas'uliyatning yetishmasligi, murosa qilishni bilmaslik yoki buni istamaslik, nizolarda yon bosish, vaqtinchalik moddiy qiyinchiliklar, er-xotinning ruhiy jihatdan bir-biriga mos emasligini oilaning barbod bo'lish omillari sifatida o'rganilib kelinmoqda.

Xulosa qilib aytganda, oilalarni mustahkam bo'lishi uchun quyidagi shartlar bo'lishi kerak:

er-xotin oila uchun bir xil mas'ul bo'ladi, oila va uning a'zolari hayotiga taalluqli muhim qarorlarni birgalikda qabul qiladi;

oila byudjetiga ularning har ikkisi o'z hissasini qo'shishi va uning taqsimoti bilan ham birga shug'ullanadi;

ota-onalar oilada muntazam ravishda o'g'il-qizlarini oilaviy hayotga tayyorlab borishga ma'sul ekanliklarini his qilishiga o'rgatish;

o'quv muassasalarida yeigit va qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash fani kiritish;

oilalarni bir-biriga bo'lgan ishonch hurmat ruhini uyg'otish, er va xotin bir-birining yaqinlariga shirin muomalada bo'lishni o'rgatish;

oilada qizlarga, uy-ro'zg'orni yuritish, sarishta-saranjomlikka doimiy amal qilishga o'rgatish;

oiladagi axloqiy qoidalarni ustun qo'yishga, er va xotin bir-birlariga doimo xushmuomala bo'lishga o'rgatish;

ayol eridan doimo hayo qilishi, uning huzurida yerga boqib turishi, buyrug'iga itoat qilib, gapirayotganda sukut saqlashi, kirib kelganida yoki chiqib ketayotganida o'rnidan turishi, unga yoqmaydigan barcha narsalardan uzoq bo'lishiga o'rgatish;

ayol kishi eri huzurida shirinsuxan, xushmuomala bo'lish bilan birga, toza, chiroyli kiyangan, ziynatlangan holda bo'lishi kerak, chunki bu narsa er qalbiga xursandchilik, ruhiga sokinlik kiritadi, qalbiga quvonch bag'ishlaydi;

er onasi va ayoli o'rtasida hamda yaqinlariga bo'lган mehr-u muhabbatda tarozini ikki pallasini teng tutishga o'rgatish;

er ona uchun solih farzand, ayoli uchun solih er siymosini amalda ko'rsatishi kerak;

kuyov oilaviy hayotning ilk kunida onasiga tushintirib, bu kelinni unga juft bo'lishini o'zi xohlagani, kelin izlagan ham, sovchilikka borgan ham o'zi ekanini tushuntirish;

qaynona turmush borasida hali tushunchaga ega bo'lмаган kelinga pand-nasihat qilib, uni yo'lga solish o'rniga arzimagan mol-matoh uchun ro'zg'or yumushlarini bajarolmagani tufayli uni kamshitishga yo'l qo'ymaslik.

Yuqorida keltirilgan shartlar asosida mahalla institutlari va keng jamoatchilik ishtirokida yosh oillalar o'rtasida o'quv-tarbiyaviy tadbirlar, treninglar, oilaviy nizolar va uning yechimlari bo'yicha sahna ko'rinishlari, er va xotinning burch vazifalari muntazam tushuntirib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ana shunday mashg'ulotlar orqali navqiron avlod vakillari ongida nikoh instituti, nikoh shartnomasi, er-xotin huquqlari va majburiyatlar, oilani rejorashtirish, xo'jalik va byudjet yuritish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida nizolarni bartaraf etish usullari, oilada muloqot madaniyati to'g'risidagi tasavvurlar shakllantirilib borilsa, oilaviy nizolar va ajrimlar soni o'z-o'zidan kamayib boradi.

Xulosa qilib aytganda, biz yuqorida ta'kidlab o'tgan turmush go'zalligi mezonlari, faqat oila uchungina emas, balki jamiyat uchun ham alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki turmushdagi turli xil yaxshilik va yomonliklarni farqlash salbiy, ijobjiy narsalarni anglash, jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhimdir.

Foydalanimanadabiyotlar ro'yxati:

1. 2017-2021 ийларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришинг беиста устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси .
2. Ўзбекистон Республикаси Оила кодексига шарҳлар. – Тошкент, 2000. 52-бет.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Оила кодекси”. – Тошкент, 1998.
4. Эркин Юсупов, Ўтқир Юсупов. Оила – маънавият булоги. – Тошкент, 2003. 34-39 бетлар.
5. Г.Иномжонова. Оиласий ҳуқуқ. Ота-оналар ва болалар муносабатлари ҳақида баъзи мулоҳазалар. Тараққиёт ва қонун, 2003. №-2, 73 бет
6. Оиласада болаларни маънавий-ахлоқий ҳуқуқий тарбиялаши муаммолари ва ечими. – Тошкент, 2004. 55-бет.



Riskulova K.D.,
Doctor of Pedagogical Sciences,
Professor

Zuxra Ismailova,
Professor of Tashkent Institute of
Engineers of Irrigation and
Agricultural Mechanization

THE IMPACT OF GENDER APPROACHES ON EDUCATIONAL EFFECTIVENESS

Annotation. The article covers the impact of gender approaches on educational effectiveness on the basis of statistical and scientific data, and the need to rely on the basis of the necessary knowledge for the ecologically sustainable development of women's knowledge, competence, entrepreneurship is shown. The educational process based on Gender differences and equality contributes significantly to the development of society.

Key words: gender mainstreaming, gender-sensitive, socio-economic analysis, national and universal values, social institutions, competence, entrepreneurship is shown.

Annotatsiya. Maqolada statistik va ilmiy ma'lumotlar asosida gender yondashuvlarning ta'lim samaradorligiga ta'siri yoritilgan bo'lib, ayollarning bilimi, salohiyati va ishbilarmonligini ekologik jihatdan barqaror rivojlantirish uchun zarur bilimlarga tayanish zarurligi ko'rsatilgan. Gender farqi va tengligi asosida ta'lim jarayoni jamiyat rivojlanishiga katta hissa qo'shamdi.

Kalit so'zlar: gender tenglik, ijtimoiy-iqtisodiy tahlil, tadbirkorlik, umuminsoniy qadriyatlar, gender munosabat, gender aloqalar, kompetentlik, ijtimoiy munosabatlar.

Аннотация. В статье на основе статистических и научных данных рассматривается влияние гендерных подходов на эффективность образования, а также показана необходимость опоры на необходимые знания для экологически устойчивого развития женских знаний, компетентности, предпринимательства. Образовательный процесс, основанный на гендерных различиях и равенстве, вносит значительный вклад в развитие общества

Ключевые слова: гендерный равенство, гендерно-чувствительный, социально-экономический анализ, национальные и общечеловеческие ценности, социальные институты, компетентность, предпринимательство.

I INTRODUCTION

It is not surprising that the information age of the 21st century is recognized as such. Nogaku believes that society develops and finds progress, relying on the knowledge and entrepreneurship of the individual.

And the educational process, organized on the basis of Gender differences and equality, makes an important contribution to the development of society, it will be able to field as a necessary component of the cultural, socio-economic and environmentally sustainable development of the pupil's personality.

In our country, by the end of the last century, thoughts about gender differences and similarities in the educational process began to be put forward. The fact is that gender is an approach that has arisen as a continuation of feminist theory.

At the conference of UNESCO on October 9, 1998, it was recognized that the purpose of the higher education system is the restoration of society free from violence and oppression. It is noted that in order to achieve this goal, it is necessary to re-develop educational programs using new pedagogical technologies and modern methods. In the newly developed training programs, equality of men and women, as well as gender factors of all subjects were taken into account. These initial attempts, based on world practice, were supported by the UN Development Programme, UNESCO, the Open Society Foundation. As a result, the course of gender studies was introduced into the programs of Moscow State University, Kharkiv University and a number of higher educational institutions of the CIS countries.

Materials of the special session of the UN General Assembly on the theme of 'Women-2000: gender equality, development and peace' in 2000, recent studies prepared by the World Bank indicate that there is an inalienable link between economic development and gender equality. The important role of this problem in the development of society can be clearly seen in the example of increasing interest in this area in Germany and other European countries in recent years. In some higher education institutions of Uzbekistan, starting from 2001, initiative teachers give lectures covering one or more aspects of gender Research in the form of special courses. Experiments in this regard have shown that students ' interest in gender Research is strong.

II THE MAIN PART

The study of gender studies in higher educational institutions of our republic is not only the formation of the future thinking of specialists on the basis of the latest analytical achievements in the world, but also the promotion of further development of this sphere in the science of Uzbekistan, undoubtedly. Gender differences and similarities are based on taking into account the similarities and differences in the educational activities of girls and boys in the educational process. This, in turn, will

help to ensure the effectiveness of the educational process. He or she determines the im-cones of the pupil's personality of this gender.

Studies aimed at taking into account gender differences and similarities between boys and girls are carried out in practice on a somewhat wider scale in gender pedagogy and psychology. This is especially evident in the direction of sexual education and the consideration of spiritual opportunities in this process. Sex-based education is a collection of educational, educational tools that have a comprehensive impact on the preparation of the student for the future life.

Today, gender differences and identity recognition in the educational process are recognized as a natural pedagogical phenomenon. However, there is no scientific interpretation of this phenomenon in didactics. It is clear to all specialists that it is impossible to ensure the effectiveness of the educational result without taking into account the peculiarities of gender differences in the educational process. In particular, psychologists have achieved a number of achievements in this area.

The term Gender was introduced into scientific consumption by American psychologist scientist Stoller in 1968 year, which means "sex". Although sexual relations were previously also actively studied in psychology, the emergence of a new term has created new currents in Social Sciences. Such branches of science as "Gender history", "gender psychology", "gender sides of philosophy", "gender anthropology", "gender sociology" and later "gender pedagogy" were formed.

The concept of "Gender" primarily covers the socio-psychological and pedagogical aspects of the relationship between a man and a woman, a boy and a girl. This concept is connected with new social views and culture. Gender conception is developing in the CIS region as a category of socio-economic analysis. Currently, a number of achievements have been achieved in the implementation of the gender Research course in Russia, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Ukraine and other republics of the former Union to the educational programs of higher education institutions. One of the most important achievements in

pedagogical science today is the opening of opportunities for teaching on the basis of gender equality and differences. This phenomenon also has a special value in terms of humanization of Education.

The Constitution of the Republic of Uzbekistan establishes the legal basis for ensuring gender equality in the educational system. On the basis of the new amendment of the law “on Education adopted” in 2020, equal rights of sons and daughters of all educational institutions, choosing a profession are ensured. In the 2004-2005 school years, the number of boys and girls studying at the school was almost the same, with 51% of boys and 49% of girls. In the system of secondary special and vocational education, this discrepancy increases. In academic lyceums, the number of boys is 64% and girls 36%, while in vocational colleges the number of boys is 53%, girls 47%.

The number of male children entering higher educational institutions is also higher than that of female children. This is due to the fact that women and girls with higher education have fewer opportunities to work than men. Because it is assumed that parents believe that the funds spent on their studies will be effective and will have a negative impact on the family budget. In Uzbekistan, there are problems of gender balance in the higher stages of education, including academic lyceums and higher educational institutions. Since the first years of independence, the Government of Uzbekistan has made significant efforts to eliminate this trend and raise the status of women on all fronts. In the educational process, it is considered as one of the urgent issues to understand the position of boys and girls in society and in the family, to properly prepare them for the life of the family and society. In this sense, the Government of Uzbekistan fully joins the decisions adopted in the final documents of the fourth World Conference on the status of women, which was held in Beijing on September 4-15, 1995. Indeed, in paragraph 12 of this decision:

“We affirm our participation in broadening women’s opportunities and improving their situation, including thinking, e’tiqod, religion and views, ensuring that moral, spiritual, spiritual and intellectual requirements are met individually or together with others, and that as a result, their life in society is fully manifested in the formation of their potential in accordance with their own desires and desires.”

In paragraph 27, the ideas of “promoting non-stop economic growth by providing women with basic education, continuing education, training in literacy, vocational training and primary medical humanitarian work “ are described.

Paragraph 30: “to create broad opportunities for women and men to receive education and medical care and to ensure equal treatment in these areas, to improve the sexual and reproductive health of women, as well as to improve their level of knowledge» thinking about.

III DISCUSSION

The problem of Gender attracts the attention of philosophers, sociologists, anthropologists, linguists, literary critics, psychologists and educators. The psychological aspects of gender are well-known psychologists Z.Freud, T.Parsons, R.Staller, Sh.Bern, A.Bandura, Simona de Beaver, A.Klima, S.Mining, A.Usmanova, I.S.Klesina, E.Gaziev, O.Abdusattorova, X.R.Haydarova, sociological aspects E.Goffman, R.Xaf, A.Kolstkorova, A.Zdravomislova, A.A.Tyomkina, G.K.Zaitsev and A.G.Zaitsev, G.B.Urazalieva, philosophical aspects of Keith West, D.Zimmerman, S.G.Ayvazova, I.Jerebkina, aspects related to anthropology E.R.Yarskaya-Smirnova, some aspects of pedagogy L.Shustova, P.Repkina, R.Safarova, G.Lit up in the works of Akramova.

The educational system is of particular importance in society not only as a factor of technological and socio-economic development, but also as an important strategic tool for spiritual and economic development. Therefore, in our independent country, great attention is paid to the sphere of education every year. This task is entrusted to all stages of the educational system: from pre-school educational institutions to the higher stages of Higher Education.

Despite the variety of approaches and points of view in relation to the designation of gender, it is possible to distinguish two concepts. These conceptions are as follows:

- 1) gender social structure theory;
- 2) gender system theory.

The approach to gender from a social point of view will be as follows: from a biological point of view, gender is a set of tasks that are inherent in a particular society to the gender that is decided on, and

the specific behavior of both the boy and the girl children, the different manifestations associated with the social norms of interaction.

The concept of interaction between boys and girls is called R. Introduced by Hof, the boy and the girl represent the spiritual and cultural images of children. In accordance with this approach, gender is represented as a measure of the social relationships that are decided in a particular society.

The study of socio-humanities by students in the higher education system promotes the development of social activity of student-girls on the basis of gender approach. The idea of national independence, fundamentals of meaning, sociology, cultural studies, history of Uzbekistan, pedagogical history, religious studies, which are taught in the higher education system, create an opportunity to increase the social activity of students and perfect the process of adaptation to society. Gender theory approaches in the educational process from a different point of view to the issue of distinguishing characteristics inherent in boys and girls. In this approach, the main differences between the sexes are manifested in their social originality. These differences are formed in society by means of social institutions, norms and cultural views. Bunda is important in the social aspects of gender differences.

Gender stratification is the basis of the development of the socio-pedagogical system of humanism in society and education system. At present, the social activist of students and students-girls of social insitutes in society such as family, education, religion, culture-educational importance in the development of gini increases the effectiveness of this process. One of the most important achievements in pedagogical science today is the opening of opportunities for teaching on the basis of gender equality and differences.

This phenomenon also has a special value in terms of humanitarian education. In the process of realization of this goal, the first task is to improve the existing educational programs using new pedagogical technologies and modern methods. In the improved curricula, it is important that the equality of boys and girls is determined on the basis of gender equality and differences in all disciplines.

Such educational process new educational tools-methodical materials and didactic work- requires the creation of lanes. In turn, educational and methodical materials should be selected in connection with the means of control.

IV CONCLUCIONS:

The reforms carried out in the Republic are giving positive results in the economic, social, political, cultural and educational development of our society among the most developed countries of the world. Such changes are carried out consistently in the educational system, as in all spheres.

After the country gained its independence, the main task was to restore our values, to realize ourselves, to form a national idea and ideology in the worldview of students, to rebuild the educational system, to prepare specialists that meet all mature and modern requirements. It is important that it is determined on the basis of RG. Such educational process new educational tools-methodical materials and didactic work - requires the creation of lanes. In turn, educational and methodical materials should be selected in connection with the means of control.

At present, radical changes are taking place in the socio-economic and spiritual life of Uzbekistan, the issue of organizing the educational process on the basis of gender equality and differences of the individual should also become a component of pedagogical processes and research.

With the help of the educational materials provided taking into account Gender equality and differences, students ' observability, design, hypothesis, prediction skills are consistently formulated.

After all, the regulation of social and educational relations between girls and boys has an important pedagogical significance. Because training through its processes, social relations between male and female members of society are decided in perspective.

References:

1. *A new revision of the national program of Personnel Training. // Bulletin of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, 2020*
2. *Decree of the President of the Republic of Uzbekistan on Measures to ensure more effective organization of the process of acquisition of rights over land parcels and other immovable property*

- as part of the South Caucasus pipeline expansion project more ... // Collection of legislation of the Republic of Uzbekistan, 2004, 21-th, Article 251; 2014 y., 29-th, Article 356.*
3. *Hof R. The emergence and development of gender studies. / Gender, tender, culture. // Ed. by E. Schore K. Haider. – M.: 1999. – p. 23-53.*
 4. *Bock G. History, history of women, history of the sexes. / THESIS: women, the family. 1994, No. 6. – C. 170-200.*
 5. *Report on the Millennium Development Goals. Uzbekistan 2006. UN Office in Uzbekistan. Tashkent.*
 6. *Uzbekistan-Beijing Platform and action program (PPHD), the UN Convention “on the elimination of all forms of discrimination against women” (CEDAW), the Millennium Development Goals (MDGs) on the basis of achieving gender equality. Support for civil initiatives Marthe trip. Tashkent.*
 7. *Ismailova, Z., Khimmataliev, D., Khashimova, M., Fayzullaev, R., & Sadikova, F. (2019). The role of modern women in society and family. Opcion, 35(Special Issue 21), 734–751*
 8. *Karabaevna, Z., & Raximovich, B. (2019). The use of innovation technologies in the formation of students' professional competences. International Journal of Engineering and Advanced Technology, 9(1), 6898–6902. <https://doi.org/10.35940/ijeat.A2996.109119>*
 9. *Ismailova, Z., Choriev, R., Musurmanova, A., & Aripjanova, M. (2020). Methods of training of teachers of university on advanced training courses. Journal of Critical Reviews. Innovare Academics Sciences Pvt. Ltd. <https://doi.org/10.31838/jcr.07.05.85>*

TO'RTINCHI SHO'BA:

**OILA TARBIYASIDA
MILLIY VA UMUMINSONIY
QADRIYATLARNING O'RNI
VA AHAMIYATI**

Ibraimov Xolboy Ibragimovich,
pedagogika fanlari doktori, O'zbekiston davlat
jahon tillari universiteti "Pedagogika
va psixologiya" kafedrasi professori.

OILADA MILLIY FAZILATLI SHAXSNI TARBIYALASHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada oilada milliy fazilatli shaxsni tarbiyalashga doir ayrim fikr va mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: oila, milliy fazilat, tarbiya, milliylik.

Аннотация. В этой статье собраны некоторые идеи и размышления по воспитанию в семье личности национального характера.

Ключевые слова: семья, национальный характер, воспитание, национальность.

Annotation. The article discusses the ideas for the upbringing of a national character personality in family.

Key words: family, national character, upbringing, nationality.

Inson o'zining ijtimoiy-madaniy rivojlanishi jarayonida o'z avlodlarining milliy qadriyatlarini ijodiy o'zlashtiruvchi, zamonaviylashtiruvchi va boyituvchidir. O'zining ana shunday insoniy burchlarining har bir shaxs tomonidan mukammal bajarilishi ijobiy tarqqiyotning boy va rang-barang madaniy oqimlarini hosil qiladi. Ana shu nuqtayi nazardan har bir inson o'zida tarixiy, ijtimoiy, madaniy-milliy ko'rsatkichlarni mujassamlashtiruvchi tarbiyaning mahsulidir.

Oila – kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas'uliyat hamda o'zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi. Oila tarbiyasi – ota-onalar (yoki bola kamoloti uchun mas'ul shaxslar) tomonidan tashkil etiluvchi hamda farzandlarni har tomonlama yetuk, sog'lom etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon [1]. Turli xalqlarning bir-birini tanishda, bilishda, bevosita va bilvosita millatlararo muloqotlarda insonning o'ziga xos – milliy jihatlariga e'tibor berilgan. Qadim zamonlarda tarixchilar, sayyoohlar, qomusiy bilimga ega mutafakkirlar (Strabon, Abu Rayhon Beruniy, Mikluxo Maklay, Rui Gonsales de Klavixo, X.Vamberi va boshqalar) qoldirgan asarlar, ijtimoiy-falsafiy, axloqiy ta'limotlarda ham boshqa xalqlar hayotini siyosiy o'rganish yo'naliishi mavjud edi. XIX asrga kelib chet el ijtimoiy fanlarida boshqa xalqlar milliy-madaniy xususiyatlarini tadqiqot qiluvchi kulturantropologiya va sotsiologiya maxsus fanlarga aylanib, "boshqa dunyo kishisi" muammosini o'rgana boshladi.

Bu esa aslida, boshqacha tarbiya – milliy tarbiyaning tizim, uslublari, maqsadlaridagi xususiyatlarini ilmiy nuqtayi nazardan o'rganish davri boshlanganligini anglatar edi.

Oiladagi sog'lom muhit – sog'lom mafkurani shakllantirish manbayidir. Jamiyatda har bir oilaning mustahkamligi, farovonligini, o'zaro hurmat va ahillikni ta'minlash – milliy mafkurada ko'zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirishda tayanch bo'ladi [2].

Milliylik – bu avvalo umuminsoniy boylik yoki umuminsoniy qadriyat milliyiksiz mavjud bo'la olmaydi. Milliylik – bu umuminsoniylikni lo'nda, muayyan namoyon bo'lishining va hatto mavjudligining shartidir. Demak, milliylik tabiiy va shu sababdan – birlamchi, umuminsoniylik – milliylik orasidagi umumiylilik, uyg'unlik, shu sababdan u hosiladir. Shuning uchun ham biz "barcha xalqlar bir – biriga o'xshaydi", yo aksincha, "hech bir xalq bir-biriga o'xshamaydi" degan fikrlarni isbotlash uchun ko'plab misollar keltira olamiz. Aynan ana shu "o'xshashlik" – umuminsoniylikni, "o'xshamaslik" esa xalqning o'ziga xosligi – milliyligini, benazirligini tashkil qiladi. Ularning bir-biriga o'xshashlik sabablari – ongli mavjudot: ham biologik; ham ijtimoiy birlik sifatida shakllanganligi, taraqqiyot bosqichlarining bir-birida takrorlanishidir. Ularning o'xshamaslik sabablari ana shu taraqqiyot qonunlarining turli zamondan, tabiiy va iqlimiylardan sharoitlarda o'ziga xos kechganligidadir [3].

Oila milliy turmushning nazariy va amaliy manbayi sifatida yoshlarga milliy g'oya va mafkura qarashlari to'g'risidagi ma'lumotlarni berish, ularda mazkur qarashlarga nisbatan xayrixohlik, fazilatini

shakllantirishda alohida o‘rin tutadi. Binobarin, o‘g‘il-qizlar ota-onalaridan o‘zlashtirgan ma’naviyat, mafkuraviy qarashlarni sintez qilish asosida mafkuraviy e’tiqodga ega bo‘ladilar, uni mustahkamlaydilar. Mazkur holat milliy g‘oya va mafkura asoslarining yangi mazmun bilan boyitilishini kafolatlaydi. Mafkuraviy qarashlar o‘rtasidagi birlik tufayli avlodlar orasidagi hamfikrlilik, o‘zaro ishonch, ijtimoiy maqsad birligi, yuksak fazilatlilikning qaror topishiga zamin yaratadi.

O‘zbek milliy tarbiya tizimini islom dinining pedagogik merosisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Tarbiya mavzusidagi hadislar hayotning barcha jahbalarini qamrab olganligi bilan komplekslik kasb etadi (*I-jadval*).

I-jadval
Hadislar va milliy fazilatlar uyg‘unligi

Hadislar	Milliy fazilatlar
Oralaringizda salom berishni keng tarqatinglar, bir-birlaringga mehrlaring ziyoda bo‘ladi.	Milliy odoblilik
Garchi boshi mayizdek qora qul boshliq qilib tayinlansa ham, unga itoat qilinglar	Mas’uliyatlilik
Tejab sarflagan kambag‘al bo‘lmaydi.	Tejamkorlik
Qo‘lidagi ovqat moylarini yuvmay uxlagan odamga biror ofat yetsa o‘zidan ko‘rsin.	Ozodalik
Agar uch kishi bo‘lsalaring uchinchi kishini qoldirib, ikkitalaring gaplashmanglar – to odamlarga qo‘shilguncha, ajratib qo‘yish uni xafa qiladi.	Xushmuomalalik

Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish, ochiq ko‘ngillilik, millatidan qat‘i nazar odamlarga xayriyohlik bilan munosabatda bo‘lish, o‘zgalar kulfatiga hamdard bo‘lish va o‘zaro yordam tuyg‘usi kishilar o‘rtasidagi munosabatlarning me’yori hisoblanadi. Ular o‘zbek xalqining ming yillar davomida to‘plagan, necha-necha avlodlarning tarbiyaviy tajribasi negizida yuzaga kelgan. O‘zbeklar diyoriga, o‘z Vataniga mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, bilimga, ustozlarga, ma’rifatparvarlarga nisbatan alohida hurmat-ehtirom O‘zbekiston fuqarolariga xos fazilatlar sanaladi.

Ushbu jarayonni yanada takomillashtirish yo‘lida quyidagi ishlarni amalga oshirish niroyatda zarur:

- milliy ma’naviyat va odob-axloq an’analariiga rioya qilish, xalq madaniy merosiga hurmat bilan munosabatda bo‘lish;
- an’anaviy va zamonaviy tarbiya metodlarini bilish hamda ularni mazmunan va shaklan boyitish;
- xalqning milliy tarbiyaviy madaniyati va o‘ziga xosligini ifoda etuvchi tarbiya vositalarini rivojlantirib, ulardan samarali va maqsadga muvofiq foydalanish;
- respublika hududida yashovchi xalqlarning milliy madaniyati va tillariga o‘zaro hurmat bilan munosabatda bo‘lish;

– oilaviy milliy tarbiya metodikasini ishlab chiqish va uni amaliyatga tatbiq etish lozim. Bunda o‘zbek xalqi, shuningdek, respublika hududida yashovchi boshqa xalqlarning milliy, tarixiy va madaniy an’analari, ma’naviy tajribasi g‘oyalarini ta’lim va tarbiya tizimiga uzviy ravishda joriy etilishi bugungi kundagi muhim pedagogik masalalardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Педагогика назарияси ва тарихи. I-қисм: Педагогика назарияси. (М.Х.Тохмакоджасеева ва бошқалар) – Тошкент: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007. – 380 б.
2. Миллий истиқтол -ояси: асосий тушиунча ва тамойиллар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – 66-бет.
3. Сатторов М. Ўзбек удумлари: миллатнинг кенжса бўгинига. – Тошкент: Фан, 1993. – 48 б.



Gimazutdinov Radik Galimovich,
TVChDPI Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi,

Manzurov Abdulaziz Xurshid o'g'li,
*TVChDPI Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda
jismoniy tarbiya va sport fakulteti talabasi*

TALABALARDA JISMONIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Maqolada talabalarni ta'lim asosida stratifikatsiya qilish orqali jismoniy sifatlarini rivojlanirish ijtimoiy-pedagogik zaruriyat ekanligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, differensiatsiya, texnika, oliv ta'lim, muassasa, jismoniy madaniyat, jismoniy sifat, talaba, rivojlanish, stratifikativ ta'lim.

Аннотация. В статье подчеркивается, что развитие физических качеств учащихся через образовательную стратификацию является социально-педагогической необходимости.

Ключевые слова: образование, дифференциация, технология, высшее образование, учреждение, физическая культура, физические качества, студент, развитие, дифференцированное образование.

Annotation. The article emphasizes that the development of students' physical qualities through educational stratification is a social and pedagogical necessity.

Key words: education, differentiation, technology, higher education, institution, physical culture, physical qualities, student, development, differentiated education.

Ta'lim jarayonida talabalarda ular tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida hosil qilingan amaliy ko'nikma va malakalar hamda kompetensiyaning rivojlanishi ham alohida ahamiyatga ega. Masalan, talabalarda kuch sifatlarini boshqarishda odatda uchta ko'rsatkichlar guruhi hisobga olinadi:

1. Asosiy:

- a) harakatlanishning har qanday momentidagi kuchning oniy qiymatlari, xususan, maksimal kuch;
- b) o'rtacha quvvat;

2. Integral – kuch impulsi.

3. Differensial – kuch gradienti va boshqalar.

Maksimal kuch juda aniq, ammo tezkor harakatlarda u harakatning yakuniy natijasini nisbatan yomon tavsiflaydi (masalan, maksimal itarish kuchi va sakrash balandligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik nolga yaqin bo'lishi mumkin). Mexanika qonunlariga ko'ra, kuch ta'sirining yakuniy ta'siri, xususan, uning harakati natijasida erishilgan jism tezligining o'zgarishi, kuch ta'sirida aniqlanadi. Demak, talabalarning o'zlashtirgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olishga o'rgatish, ularning fanga oid kompetensiyalarini oshirishga xizmat qiladi yoki kuch doimiy bo'lsa, u holda impuls kuchning harakatga keladigan vaqtiga mos bo'lishi, kuch impulsining sonli hisob-kitoblarida integratsiya jarayoni amalga oshirilishi, shuning uchun bu ko'rsatkich integral deb nomlanishi, ayniqsa, tez-tez kuch impuls perkussiya harakatlarini (boksdagi musht va boshqalarni) boshqarishda ishlatalishini bilgan talabaning ma'naviy-axloqiy va estetik tasavvurlari, xulq-atvori va dunyoqarashi adekvat holatda rivojlanadi.

Tabaqaqlashtirilgan o'qitishning tarbiyaviy vazifasi, eng avvalo, ta'lim mazmunida aks etadi. O'qitish jarayonida tarbiyaning ikkinchi omili o'qituvchi va talabalarning munosabatlari, psixologik muhit, o'qish jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlari, talabalarning idrok etish faoliyatlariga o'qituvchining rahbarligi hisoblanadi.

Texnika oliv ta'lim muassasalarida talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantiruvchi vazifasi talabaning jismoniy sifatları, fikrlashi, shaxsnинг sensorli va harakatlanish sohalari, emotsiional-irodaviy, intellektual sohalarini rivojlantirishda o'z aksini topadi. O'qitish jarayonida talabani jismoniy va aqliy rivojlantirish, aqliy faoliyat usullari, analiz qilish, taqqoslash, tasniflash, kuzatish, xulosa chiqarish, jismoniy topshirilqlarning muhim belgilarini ajrata bilish, faoliyat maqsadi va usullarini aniqlashni bilishga o'rgatish, uning natijalarini tekshirish malakasini rivojlantirishga erishiladi. Masalan, talabalarda chidamlilikni rivojlantirish mashqlarni uzoq vaqt davomida samaradorligini buzmasdan bajarish qobiliyatini o'stirishdan boshlanadi. Sport

amaliyotida ko‘plab mashqlar qo‘llaniladi va ular xilma-xil (tuzilishi, davomiyligi, muvofiqlashtirish murakkabligi va h.k.) ko‘rinishga ega. Shuning uchun ular turli xil chidamlilik turlari (umumiyligining, tezkorlik, kuch va boshqalar) haqida gapirish mumkin. Chidamlilik ikki xil o‘lchanadi: o‘ziga xos bo‘limgan (shaxsning samarali raqobatlashishi yoki charchoqning kuchayishi sharoitida mashq qilish imkoniyatlari asosida) va o‘ziga xos (natijalari ushbu potensial imkoniyatlarning amalga oshirilish darajasini ko‘rsatadi).

Shunday qilib, texnika oliv ta’lim muassasalarida talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish bosqichlari 4 ta asosiy qismidan iborat:

- 1)o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan materialni idrok etish;
- 2)bilimlarni mustahkamlash;
- 3)tushunchalarni hosil bo‘lishi;
- 4)kompetensiyalar, sport anjomlari bilan ishslash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Har bir bosqich uchun talabalarning muayyan xarakterdagi bilish faoliyati xarakterlidir. Bu faoliyat o‘qituvchi tomonidan alohida rahbarlikni talab etadi. Jismoniy madaniyat o‘qituvchisi rahbarligida talabaning o‘quv materiallarini rejali ravishda bilib olish jarayonidir. Bu jarayonni bilish bosqichidan iborat bo‘lgan tarkibiy qismlarga (yoki komponentlarga) ajratish mumkin. Talaba bilmaslikdan bilish, uddasidan chiqa olmaslikdan uddalay olish, malakalar hosil qilish yo‘lidan borib, ushbu bosqichlardan o‘tishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *2017-2021 йилларда Ўзбекистонни ривожлантиришининг бешта устувор йўналишии бўйича Ҳаракатлар стратегияси.* – Тошкент, 2017 йил, 7-январь.
2. *Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 мартағи “Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спорт сонасида давлат бошқаруви тизимини тубдан таомониллаштириши чора-тадбирлари тўғ’рисидаги Фармони.*
3. *Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириши чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909-сонли қарори.*
4. **Мирзиёев Ш.М. Буюқ келажагимизни мард ва олийжаноб ҳалқимиз билан бирга курамиз.** – Тошкент: **Ўзбекистон**, 2017.
5. *Абдуллаева Ш.А. Спортчиларнинг тарбияланганлик даражасини таҳхислаш методлари.* – Тошкент: Камалак, 2019. – 134 б.
6. *Абдуллаев А. Талаба ва спорт.* – Тошкент: Молия, 2015. – 168 б.
7. *Аграновский М.А., Лукин Н.С., Качашкин В.М. Современная силовая тренировка.* – Москва: Физкультура и спорт, 2019. – 248 с.
8. *Бернштейн Н.А. Биохимические особенности скелетной мускулатуры.* – Киев: Вища школа, 2016. – 214 с.
9. *Bohnishc S. Einige philosophisch-methodologische Fragen-* Berlin, 2016. – 175 p.
10. *Bloom B. S. A Taxonomy of Educational Objectives Handbook.*- Harrow, 2017. – 83 p.

Xudoyberdiyeva Zumrad Xudoyberdiyevna,
TVChDPI Boshlang‘ich ta’lim kafedrasи o‘qituvchi,

Ravshanbekova Begoyim,
TVChDPI Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi

TA’LIM SIFATINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARINI JORIY QILISH

Annotatsiya. Ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish ta’lim oluvchilarning hayotiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan tayyorgarlik darajasini aniqlash, ta’lim sifatining jahon ta’lim standartlari bilan raqobatbardoshligini ta’minlash va xalqaro tadqiqotlar natijalarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish imkonini beradi. Maqolada boshlang‘ich sinflarda matematika fanini o‘zlashtirish darajasining xalqaro baholash dasturlariga uyg‘unligini aniqlash bo‘yicha tahliliy izlanishlar olib borildi.

Kalit so‘zlar: ta’lim sifati, ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlar, matematika

Аннотация. Организация международных исследований в области оценки качества образования позволяет определить необходимый уровень подготовленности обучаемых к жизнедеятельности, обеспечить конкурентоспособность качества образования на уровне мировых образовательных стандартов, внедрить результаты международных исследований в образовательный процесс. В статье были проведены аналитические исследования по определению гармоничности уровня усвоения математической науки в начальных классах с международными программами оценки.

Ключевые слова: качество образования, международные исследования по оценке качества образования, математика.

Annotation. The organization of international research in the field of education quality assessment allows us to determine the necessary level of readiness of students for life, to ensure the competitiveness of the quality of education at the level of world educational standards, to introduce the results of international research into the educational process. In the article, analytical studies were conducted to determine the harmony of the level of assimilation of mathematical science in primary classes with international assessment programs.

Key words: quality of education, international studies on the assessment of the quality of education, mathematics.

Janubiy Koreyada o‘tkazilgan Xalqaro ta’lim forumida 2030-yilgacha qabul qilingan “Incheon declaration” da “ta’lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarini aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish” [1, 48]ga alohida e’tibor berilgan. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishida “umumiy o‘rta ta’lim sifatini tubdan oshirish, ... matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo‘lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o‘rganish” [2] vazifalari belgilib berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi № 997-sonli “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida xalqaro tadqiqotlarni joriy etish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish tadbiri doirasida tegishli vazirlik va idoralar hamda ilmiy tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda xalqaro tadqiqotlar bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish ko‘zdautilgan [3].

Jahonda o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini baholashning xalqaro dasturlari (PISA, TIMSS) bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Matematika ta’limining rivojlanish tendensiyalarining ko‘rsatishicha, o‘qitishning zamonaviy shakllari va texnologiyalari global miqyoslarda jadal rivojlanmoqda. Xususan, o‘quvchilar savodxonligini xalqaro baholash dasturlari, o‘quvchilarning intellektual qobiliyatini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish matematik tasvirli masalalar tizimidan foydalanishni taqozo etmoqda. Xalqaro baholash dasturlari yuzasidan tadqiqotlarda berilayotgan topshirilqlarning uchdan bir

qismi tasvirli masalalar yordamida taqdim etiladi. Umumiy o‘rtalim maktablarida matematikani o‘qitish amaliyotida chizmalarning muhim ahamiyatini hisobga olib, o‘quvchilarni tasvirli masalalar yechishga va mustaqil masalalar tuzishga o‘rgatish masalasi ilmiy va amaliy jihatdan o‘rganishni talab qiladi.

Amaldagi davlat ta’lim standartlarining malaka talablari, fan o‘quv dasturi, mavjud darsliklardagi mavzular mazmuni va manbalari, shuningdek, ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlar materiallari, rivojlangan xorijiy davlatlarlarda umumiy o‘rtalimning boshlang‘ich ta’limida matematika fani bo‘yicha o‘quv dasturlarining o‘zaro tavsiyঃ tahlili asosida tasvir ko‘rinishidagi axborotlardan o‘quv materiallari sifatida foydalanishda ob’ektlarni tasvirlashning perspektiva qoidalariga amal qilish, amaliy xarakterdagи topshiriqlar va ular uchun hayotiy muhim namunalardan foydalanish, ob’ektlar va modellar to‘g‘risidagi axborotlarni integratsiya qilish zarurati aniqlandi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining xotiralari ko‘proq ko‘rgazmali-obrazli xarakterga ega bo‘lib, idroki amaliy faoliyat bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. O‘quv materiallarining tasviriy ifodalanganligi amaliy ko‘nikmalar hosil qilishga xizmat qiladi. Matematika darslarida axborotlarning turli ko‘rinishlaridan keng foydalaniladi. Masalan, ona tili darslarida matn ko‘rinishidagi axborotlardan keng foydalanilsa, tasviriy san’at darslarida grafiklardan, tasvirlardan keng foydalaniladi va h.k.

Shuningdek, xalqaro baholash dasturlarida muvvaffaqiyatli ishtirok etishda o‘quv materiallaridan foydalanish bo‘yicha ayrim jihatlarga ahamiyat qaratilishi lozimligi aniqlandi:

- tasvir ko‘rinishidagi axborotlardan o‘quv materiallari sifatida foydalanishda obyektlarni tasvirlashning perspektiva qoidalariga amal qilinishi lozim;
- muhim ahamiyatga ega bo‘lmagan ba’zi tasvir ko‘rinishidagi materiallarning berilishi topshiriqni bajarishda kamchiliklarni yo‘l qo‘yishga olib kelishi mumkin;
- o‘quv materiallarida axborotlarning turli ko‘rinishlaridan foydalanib ma’lumotlarni o‘qish, solishtirish va taqdim etishga o‘rgatish, shuningdek, turli ko‘rinishda berilgan ma’lumotlarni taqqoslash va ulardan foydalanib masalalar yechishga o‘rgatish lozim;
- yangi mavzuni tushuntirishda zarur axborotlarning yetarli bo‘lishi;
- har bir mavzuni tushuntirish va mustahkamlashda amaliy xarakterdagи topshiriqlar berish;
- amaliy xarakterdagи topshiriqlar uchun hayotiy namunalardan foydalanish.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ta’lim sohasida davlat bosh buyurtmachi bo‘lib, u bitiruvchilarga talabni jamiyatning ehtiyojidan kelib chiqib belgilaydi. Kishilik jamiyatni doimiy rivojlanishda bo‘lib, unda erishilayotgan yutuqlar ta’lim samaradorligi bilan bevosita bog‘liq. Shuningdek, jamiyatda erishilgan yutuqlar ta’limda o‘z aksini topib boradi. Ya’ni kishilik jamiyatni va ta’lim jarayoni doimo uzviy aloqada bo‘ladi. Bunda ta’lim jarayonini zarur axborotlar bilan ta’minalash ta’lim, shu bilan birga, kishilik jamiyatining rivojlanishida asosiy omil hisoblanadi. Demak, Matematika fanini o‘qitish jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib, uning talablariga javob beruvchi matematik tayyorgarlik darajasiga ega bitiruvchilarni tarbiyalashni maqsad qilib qo‘yadi.

Boshlang‘ich sinf “Matematika” fan dasturi va “Matematika” darsliklari o‘rganib chiqilib quydagicha xulosaga kelindi: matematika darslarida, ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda, matn ko‘rinishidagi axborotlar (masalalar matni), grafik ko‘rinishidagi axborotlar (masala yoki misollar grafik ko‘rinishida berilishi mumkin), tasvirlar (masalan, masalalarning qisqa shartini tasvirlar va shartli belgilarda ifodalash), jadvallar (masalan, jadvalda berilgan harfli ifodalar asosida sonli ifodalar tuzish va ularning qiymatlarini hisoblash) dan foydalaniladi. Bu esa o‘quv materialining amaliy ko‘nikmalar hosil qilish imkoniyatini taqdim etadi. Matnli axborotlar va sonli axborotlar bilan birga tasvir ko‘rinishidagi axborot (rasmlar, jadvallar, grafiklar, diagrammalar)lardan foydalanish o‘quv materiallarining ko‘rgazmaliligi, yorqinligini ta’minalaydi.

Yana bir muhim jihat shundaki, ko‘p holatlarda o‘zlashtirilgan axborotlar miqdori (hajmi) ta’lim samarasi sifatida qaralib, ta’lim natijalarini baholashda o‘zlashtirilgan axborotlar miqdori hisobga olinadi. Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, axborotlashgan jamiyatning asosiy talabi o‘zlashtirilgan axborotlarni tegishli sohalar hamda hayotiy faoliyatlar davomida qo‘llay olish darajasi bilan belgilanadi. Bir qancha ilmiy tadqiqot ishlarida ham kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’limda ta’limning natijasiga ahamiyat berilishi va bunda o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilgan axborotlar hajmi emas, balki turli vaziyatlarda mazkur axborotlarni qo‘llay olishiga e’tibor qaratilishi lozimligi ta’kidlab o‘tilgan [4, 53]. Demak, ta’lim sifatini

baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarda beriladigan materiallarda e'tibor berilishi lozim bo'lgan eng muhim jihatlardan yana biri ta'lim oluvchilarining o'zlashtirgan o'quv materiallarini hayotiy faoliyatlarda qo'llay olishini baholashidir.

Xalqaro baholash dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish ta'lim oluvchilar savodxonligini baholash metodologiyasining ham yetarli darajada takomillashtirilganligi bilan bog'liq.

Avvalo, baholash nima va nima uchun kerak?

Baholash – o'lhash jarayoni bo'lib, bunda bilim, ko'nikma, kompetensiyalar o'lchanadi. Baholash ta'limiy maqsadlarga qay darajada erishganligini namoyish qilish imkonini beradi.

Amaldagi ta'lim jarayonida o'quvchilarni baholashda chorak davomida olingen baholar asosida choraklik baho chiqariladi. Choraklik baholar asosida yillik baho aniqlanadi. Bu o'rta arifmetik asosiga qurilgan. Ya'ni ta'lim jarayonida shakllantiruvchi (formativ) baholash (o'rganish uchun baholash) dan keng foydalaniladi. Shakllantiruvchi (formativ) baholash o'quvchilar o'rganish jarayonining qaysi bosqichida ekanligi, keyingi qadamlari qanday bo'lishi kerakligi va maqsadga qanday erishishlari mumkinligini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, shakllantiruvchi (formativ) baholash o'quvchilar va o'qituvchilar tomonidan ishlataladigan dalillarni yig'ish va talqin qilish jarayoni hisoblanadi.

Shakllantiruvchi (formativ) baholash (o'rganish uchun baholash):

- dars paytida beriladigan topshiriqlar, savol-javoblar;
- dars paytida o'tkaziladigan nazorat ishlari;
- o'quvchilarning darsdagi faolligini kuzatish;
- uyga berilgan vazifalar va boshqalar hisoblanadi.

Shakllantiruvchi (formativ) baholash qayta aloqa imkoniyatlari ko'proq. Shuningdek, amaliyotda beriladigan topshiriqlarning murakkabligi yoki soddaligiga qaralmasdan bir xil ball berish yo'lga qo'yilgan. Xalqaro baholash dasturlarida beriladigan topshiriqlarning yana bir muhim jihatni topshiriqlarning darajasiga qarab turlicha ball berilishidir.

Ammo bugungi kunda xulosalovchi (summativ) baholash imkoniyatlaridan umumiyligi o'rta ta'limda keng foydalanilmaydi. Xulosalovchi (summativ) baholash – ta'lim dasturi yoki uning bir qismi so'ngida erishilgan natijani rasmiy baholashdir.

Ta'lim sifatini baholash amaliyoti yuzasidan xulosa qilib aytish mumkinki, Xalqaro baholash dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirok etash formativ va summativ baholashning chegaralarini belgilab olish va umumiyligi o'rta ta'limda summativ baholashni yo'lga qo'yishga ham bevosita bog'liq. Kontentni baholashga asoslangan yondashuvdan ko'nikmani baholashga asoslangan yondashuvga o'tish zarurati ham bugungi kunda o'z yechimini kutayotgan masalalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Incheon declaration // Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015. Incheon, Republic of Korea). – 48 p.*
2. *Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириши бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида" ги Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2017. № 6(766), 70–модда // www.lex.uz*
3. *Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маъкамасининг 2018 йил 8 декабрдаги № 997 сонли "Халқ таълими тизимида таълим сифатини баҳолаши соҳасидаги халқaro тадқиқотларни ташкил этиши чора тадбирлари тўғрисида" ги Қарори // Қонун хужжатлари маълумотлари милий базаси, 10.12.2018. 09/18/997/2289-сон / www.lex.uz*
4. *Усаров Ж.Э. Таянч ва фанга оид компетенциялар асосида таълим мазмунини таомиллаштириши ва ўқувчилар компетентлигини ривожлантириши. Пед. фан. док. (DSc) ... дис. – Тошкент, 2019. – 267 бет.*

Abdullayev Abduqayum Abdulxayevich,
TVChDPI Maktabgacha ta'lim kafedrasи mudiri dotsent,

Ilesbayeva Aliya Murod qizi,
Jaylauova Perizat Baxit qizi,
TVChDPI Maktabgacha ta'lim fakulteti talabalari

O'QITUVCHINING MA'NAVIY QIYOFASI, PEDAGOGIK VA AXLOQIY MADANIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik mahoratni egallash hamda o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: pedagogika, mahorat, nazariy bilimlar, amaliyot

Аннотация. В данной статье основное внимание уделяется приобретению педагогических навыков и применению теоретических знаний на практике.

Ключевые слова: педагогика, навыки, теоретические знания, практика.

Annotation. This article focuses on acquiring pedagogical skills and applying theoretical knowledge in practice.

Key words: pedagogy, skills, theoretical knowledge, practice.

Shaxs va mutaxassisning kasbiy yetukligi oliy ta'lim muassasidagi yaxlit pedagogik tizimning mahsuli hisoblanadi. Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashning samaradorligi oliy ta'lim tizimi o'qituvchisi shaxsi va uning kasbiy hamda axloqiy madaniyati bilan chambarchas bog'liqdir. Axloqiy madaniyatni tarkib toptirish, yosh avlod ongida axloqiy qadriyatlar va ideallarni shakllantirish oliy o'quv yurtidagi axloqiy tarbiya tizimining asosiy vazifasidir. Bu jarayonni hal etishda ijtimoiy, maxsus ixtisoslik fanlari yetakchi o'rinn tutadi. Bunda o'qitishning imkoniyatlariga yetarlicha ahamiyat qaratish muhimdir. O'rtaga qo'yilayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan bo'lajak o'qituvchilarining pedagogik va kasbiy madaniyatiga bog'liq. Yoshlarga faqatgina bilim berish bilan chegaralanmay, ta'lim-tarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishish, talabalarning xilma-xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, yuksak madaniyatli, odobli, e'tiqodli, mehnatsevar, barkamol inson sifatida tarbiyalash o'qituvchi zimmasiga yuklatiladi.

O'qituvchi o'zining fidokorona mehnati bilan yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash sifatini oshirishga katta hissa qo'shayotgan ijodkordir. So'nggi yillarda pedagogika oliy o'quv yurtlari hamda kollejlarida o'qituvchilar tayyorlashni yaxshilash borasida bir qator ijobji ishlar amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa, pedagogik mahoratni egallash hamda o'zlashtirilgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Darslarda olib borilayotgan ta'lim-tarbiya jarayonida bo'lajak o'qituvchilarida bu kabi xususiyatlarni tarkib toptirish va rivojlantirish imkoniyati mavjud. Ta'lim jarayonida muammoli mavzular, bahsmunozaralardan foydalanish yaxshi samara beradi.

O'qituvchi kasbiy faoliyatida gnostik, kommunikativ-ta'limiy, amaliy rejalashtirish vazifalarini bajarish asnosida bir qator metodik malakalar egallanish zarur.

Chunonchi o'quv materialini metodik jihatdan tanqidiy tahlil qila olish, lisoniy qiyinchiliklarni aniqlash, chet tili va ona tili hodisalarining o'xshash va tafovutli jihatlarini topish maqsadida taqqoslash, talabalarga mo'ljallangan lingvistik axborotning hajmi va mazmunini aniqlash, til hodisalarini tahlil qilish, umumlashtirish kabilar.

Ushbu malakalarni muvaffaqiyatli shakllantirishda lingvodidaktik qiyosiy tahlil metodlarini, til tajribasining interferentsiyasi va ijobjiy ta'siri qonuniyatlarini bilish, til va nutqda "norma" tushunchasini anglab yetish yuksak ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, o'qituvchi pedagogik kasbiy madaniyatini shakllantirishda sharqning buyuk allomalarining ijodi, ayniqsa, ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalarini o'rganishi talabalar axloqiy madaniyatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Beruniy “...bilim olishda, ilmlarni egallashda shaxsda intilish, qizqish va muhitning ahamiyatini e’tirof etadi, barcha illatlarning asosiy sababi ilimsizlikda”, deb uqtirgan.

Beruniyning ta’kidlashicha, inson kamlotiga to’rt narsa muhimdir, bu – ma’rifat, ilm-fanni e’tirof qiluvchi-irsiyat, ijtimoiy muhit va to‘g’ri tarbiyadir. Yana u inson kamolga yetishi uchun eng muhim omil – o‘qituvchining ilm-ma’rifatli bo‘lishi bilan birga yuksak axloqli bo‘lishi ham kerakligini e’tirof etadi.

Ibn Sino ham ta’lim-tarbiya masalalariga alohida e’tibor qaratib, “...bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo‘ymaslik, ta’limda oddiydan murakkabga borishi orqali bilim berish, mashqlarning bola yoshiga mos bo‘lishi, jamoa bo‘lib o‘qitishga e’tibor berishi, bilim berishda bolaning qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish, o‘qitishni jismoniy mashqlar bilan qo‘sib olib borish zarur”ligini ta’kidlaydi.

Ibn Sino o‘quvchilarga mas’ulyat, burch, muomalada jiddiylik kabi kishining ma’naviy qiyofasini ko‘rsatuvchi xususiyatlarga e’tibor berish zarur deb hisoblaydi.

Biz dars jarayonida o‘rta asr Sharq mutafakkirlarining ana shunday boy ma’naviy merosidan oqilona foydalanishimiz va o‘qitish jarayonini tashkil qilishda psixologiya va fiziologiya manbalariga suyanib ish ko‘rshimiz zarur.

Zero, o‘qituvchi berilgan nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishi, amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishi, tarbiyalashi, bilim va malakallarini chuqr egallashi, o‘z ustida tinmay ishlashi, bilimlarini takomillashtirib borishi lozim.

Bugungi kunda darslik qanchalik mazmunli bo‘lmasin, ta’limda o‘qituvchi asosiy o‘rin egallaydi. U o‘z pedagogik mahorati va yaxshi fazilatlari bilan talabalarga namuna, yaxshi tarbiya ko‘rgan, chuqr bilimli va ma’rifatparvar inson bo‘lishi kerak.

Shuningdek, axloqiy madaniyatga ega bo‘lgan ustoz sifatida faoliyat ko‘rsatishi maqsadga muvofiqdir.

Oliy ta’lim tizimida o‘qituvchining ma’naviy qiyofasi, pedagogik va axloqiy madaniyatining yuksak bo‘lishi talabalarning axloqiy madaniyati yuksak, dunyoqarashi keng, pedagogik faoliyatining muvaffaqiyatli, intellektual jihatdan salohiyatli, zamon bilan hamnafas bo‘lishlarini ta’minlaydi.

Shamiyeva Oybahor Ravshanovna
NavDKI, Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Ermatova Gulnoz Pirimovna
NavDPI, Maktabgacha ta’lim kafedrasи katta o‘qituvchisi

AMIR TEMURNING OILA BOSHQARUVIDAGI IBRATLI JIHATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Amir Temurning ayollarga, oila boshqaruvi va sog‘lom avlod tarbiyalashga bo‘lgan munosabati haqidagi qimmatli fikrlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: oila boshqaruvi, sog‘lom farzand, haqgo‘ylik, adolatparvarlik, fidoiylik, vatanparvarlik, sadoqatlilik, odamiylik fazilatlari.

Аннотация. В данной статье освещены ценные мысли Амира Темура о его отношении к женщинам, семейному управлению и воспитанию здорового поколения.

Ключевые слова: управление семьей, здоровый ребенок, справедливость, справедливость, самоотверженность, патриотизм, лояльность, человеческие качества.

Annotation. In this article, valuable thoughts of Amur Temur about his attitude towards women, family management and upbringing of healthy generation are reflected.

Key words: family management, healthy child, truthfulness, Justice, self-sacrifice, patriotism, loyalty, humanity qualities.

Mamlakatimizda bugungi kunda ayollar va sog‘lom avlod tarbiyasiga juda katta e’tibor qaratilmoqda. Ularning huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinishi va har tomonlama rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish masalasi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biridir.

Ayollarning millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy ahvoli hamda turar joyidan qat'i nazar, barcha huquqlarini ta'minlash masalalari ham hech kimning nazaridan chetda qolayotgani yo'q.

Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti ham: "Qachon ayol baxtli bo'ladi? Avvalambor, uning bolalari, oila a'zolari, turmush o'rtog'i sog'-omon bo'lsa", – degan fikrlarni bildirib, ayollarimizning mamlakatimiz ravnaqiga qo'shgan hissalarini, avvalo, oilada sog'lom va barkamol farzand tarbiyalashda ekanligini aytib o'tganlar [1, 2].

Darhaqiqat, ko'hna tarixga nazar tashlasak, sohibqiron Amir Temur bobomizning ayollarga va sog'lom farzand tarbiyalashga bo'lgan munosabatlari ham diqqatga sazovordir.

Sohibqiron ayollarga katta hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo'lgan. U o'tkazgan majlislarda hech qachon xotin-qizlar haqida uyatsiz, haqoratlari so'zlar aytilmagan. Ayollarni juda e'zozlagan. Agar biror-bir kishi ayollarni haqorat qilsa qattiq jazolagan [2,14]. Ayniqsa, Saroymulkxonim sohibqironning suyukli rafiqasi va maslahatgo'y bo'lgan. Uni "mahdu-ulyo", ya'ni ulug' belanchak sohibasi, deganlar. Bu unvon hammaga emas faqat nufuzli malikalargagina berilgan, lekin Saroymulkxonim sohibqiron saroyida bu unvonning yakka-yu yagona egasi bo'lgan. U siyosiy, maishiy va boshqa masalalarni hal etishda bevosita davlat ishlariga ko'maklashgan.

Temur bobomiz nafaqat davlat boshqaruvida, balki oila bosharuvida ham to'g'ri tadbirlar qo'llay olgan. Farzandlari, qizlari va o'g'illari tarbiyasini tajribali enagalarga, momolarga yuklagan. Masalan, bir oylik nabirasi Ulug'bek mirzoni Bibixonim (Saroymulkxonim)ning tarbiyasiga topshirgan [3,60]. Farzandlari va nabiralariga harbiy san'at sirlaridan ham ta'lim bergen va shu bilan chegaralarini qolmasdan o'zi bilan harbiy yurushlarda ham olib yurgan. Bu bilan bolalarining suyagi qotib ko'zi pishishini xohlagan, dunyonni ko'rishini, hayotni bilishini va chiniqishlarini istagan.

Yuqorida aytib o'tganimizdek farzandlari va nabiralari hamisha o'z tuqqan onalari qo'lida emas, balki Saroymulkxonim, Tuman oqa (opasi) singari nufuzli malikalar qo'lida tarbiyalanganlar. Ular yaxshi axloqli inson bo'lib yetishishlari, bilim olishlari, muomala madaniyati-yu, harbiy sirlarni egallashlari va davlat ishlarini boshqarishni o'rganishlari uchun qulayliklar yaratgan va bu jarayonni kuchli nazorat qilgan. Ular vaqt-vaqt bilan sohibqiron o'tkazadigan xos xonadon majlislarida ishtirok yetishgan va bu majlisga kirishdan mahrum etilgan shahzodalar uchun jazolardan biri hisoblangan [4 208].

Nabiralarini nufuzli malikalar qo'lida tarbiya ko'rishi: birinchidan, ularning yaxshi tarbiya olishlari, ikkinchidan, bo'ljak saltanat egalarini o'z nazoratida bo'lishlari, uchinchidan – mamlakatning turli viloyatlarini boshqarayotgan ularni otalarini ham nazoratda bo'lishlari uchun bir vosita bo'lgan. O'g'illari va nabiralarining iqtidori va salohiyatiga qarab boshqaruvdan lavozim bergen va ularni o'z martabalariga yarasha ish tutishlarini nazorat qilgan. Agarda xizmat vazifasini suiiste'mol qilsa, javobgarlikka tortgan. Buni quyidagi misollarda ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, agar o'g'illaridan biri toj-u taxt uchun davogarlik qilib bosh ko'tarsa, ularni o'ldirishga, qo'llarini bog'lashga yoki boshqa bir jazo, tana jarohati yetkazishga urinmasligini nazorat qilgan, toki ular o'z davosidan kechmaguncha asirlikda ushlab turishlarini va shuning bilan birga, toj-u taxt uchun talashmasliklari qattiq tayinlagan. Bu mol-u davlat bizga emas Ollohg'a tegishli degan va buning uchun urush chiqishini istamagan. Nabiralari yoki qarindoshlaridan biri unga qarshi chiqsa, ularni gado holiga solishini aytgan [5,103].

Bundan tashqari, shahzoda va malikalarni sultanatdagi boy kutbxonadan foydalanishlarini ta'minlagan. Ular esa Temur bobomizning boy kutubxonasida mutolaa qilganlar. U kutubxonada barcha: ilohiyot, hadis, tarix, geografiya, falsafa, fiqh, tibbiyot, falakiyot, riyozot va boshqa fanlarga oid kitoblar bo'lgan. Jumladan, u yerda Xorazmiy, Aby Rayhon Beruniy, Sa'diy Sheroziy va Hasriddin Tusylarning bebabaho nodir asarlari saqlangan.

Bobomiz o'g'illari, nabiralarini uylantirmoqchi bo'lib kelin izlash ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rgan. Kelin bo'lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirgan. Xos, ya'ni kerakli odamlar orqali sog'-salomatligini, jismongan kamolotini, nasli-nasabi, odob-axloqi, sog'lom va baquvvatligini surishtirgan va shundan keyingina u barcha qusurlardan xoli bo'lsagina el-yurtga katta to'y-tomosha berib, kelin tushurgan. Sohibqiron qizlari, o'g'ilari, kuyovlari, kelinlari turish-turmushidan xabardor bo'lgan. Masalan, o'n yetti yoshda turmush o'rtog'idan ayrilgan kelini Xonzodaxonimning taqdiri uni qattiq tashvishga solgan. Uni g'amdan chalg'ishi uchun unga sovg'a-salomlar jo'natgan. Uni qizi va o'g'li o'rnida ko'rib avaylagan. Ozor chektirib qo'yмаган. U bilan suhbatlashganda uning g'amiga sherik bo'lib ko'zlaridan yosh oqqan [5, 82].

Temur bobomiz va uning avlodni ayol zotini ulug‘laganlarini yana bir necha misollar bilan qayd eta olmog‘imiz mumkin. Buni biz Saroymulkxonim uchun barpo etilgan “Bog‘i Chinor”, Tuman oqaga atalgan “Bog‘i bihisht”, kichik malika To‘qalxonim sharafiga barpo etilgan “Bog‘i Dilkusho”, “Bog‘i Shimol” esa nabirasi Beka Sulton nomiga bunyod etilganligida ham ko‘rshimiz mumkin. Yana shuni ta’kidlash mumkinki, Saroymulkxonim nomiga atab Bibixonim madrasasini ham qurdirganlar.

Bizga ma’lumki, bobomizning shoh asari “Temur tuzuklari” ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismda Amir Temur tarjimayi holi, ijtimoiy-siyosiy faoliyati haqida fikrlar bayon etilgan. Ikkinci qismi esa mashhur jahongirning farzandlariga atalgan o‘ziga xos vasiyat, pand-nasihatlari va o‘gitlaridan iborat [7, 162].

Haqiqatan ham “Temur tuzuklari”ning ikkinchi qismini quyidagi: ‘Mamlakatlarni fath etuvchi baxtli farzandlarim va jahonni idora etuvchi qudratli nabiralarim...’ jumlalar bilan boshlangan [7, 64]. Temur bobomiz farzandlari va nabiralariga davlat yuritish bobida o‘zi qo‘llagan ishlarni bir necha qonun-qoidalarga bo‘lgan va saltanatni boshqarish haqida qo‘lyozmani qoldirgan. Farzand va nabiralarini esa shunga muvofiq ish yuritishlarini istagan. Bobomiz o‘zi tuzgan o‘n ikki tuzukni o‘ziga shior qilib, shunday saltanatga erishgan. Farzandlari va nabiralari mana shu o‘n ikki tuzuk asosida davlat va saltanatni unga amal qilgan holda boshqarishlari, shuning bilan birga, o‘zlarini va davlatni ehtiyyot qilishlarini ta’kidlagan.

O‘n birta tuzuk ko‘proq davlat boshqaruvi va turli toifadagi insonlar bilan muomala-munosabat haqida bo‘lsa, o‘n birinchi tuzuk esa farzandlari, qarindoshlari, yor-u birodarlar, qo‘shnilari va do‘sstarida e’tibori, mehr-muhabbati haqidagi fikrlar bayon etilgan.

Mamlakatimiz birinchi prezidenti I.A.Karimov ham bu haqda “Shaxsan men “Temur tuzuklari”ni har gal o‘qir ekanman, xuddiki o‘zimda qandaydir ruhiy kuch-quvvat topgandek bo‘laman. O‘z ish faoliyatimda bu kitobga takror-takror murojaat qilib, undagi hech qachon eskirmaydigan, inson ma’naviyati uchun bugun ham ozuqa bo‘ladigan hikmatli fikrlarning qanchalik hayotiy ekanligiga ko‘p ishonch hosil qilganman...”, – degan fikrlarni bidirganlar [9, 45].

Temur bobomiz olib borgan siyosati va oilasi, farzand tarbiyasiga bo‘lgan e’tibori bugungi kunda ham yoshlаримизни barkamol shaxs qilib tarbiyalashimizda o‘zining tarbiyaviy ahamiyatini yo‘qtgани yo‘q. Sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash uchun asosiy manbaalardan biri bo‘lib kelmoqda.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, sohibqironning ayollarga va sog‘lom avlod tarbiyasiga bo‘lgan e’tibori uning avlodlarida insoniy fazilatlar, haqgo‘ylik va adolatparvarlik, fidoiylik va vatanparvarlik, mehribonlik va sadoqatlilik, el g‘amini yeyish va boshqa odamiylik fazilatlari mujassam bo‘lgan. Mana shu tarbiya natijasida uning sulolasini besh yil hukmronlik qilgan bo‘lsa ajab emas.

Xulosa o‘rinida shuni aytish mumkinki, Amir Temur bobomiz boy ma’naviy merosini qayta-qayta o‘qiganimizda yangi mazmunni uqib olamiz. Sohibqironning har bir olib borgan ishlari bugungi kunda yosh avlodni tarbiyalashdek ulug‘vor vazifani ado etishimizda o‘z samarasini beradi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Халқ сўзи газетаси, 2013 йил, 7 деқабр 2-бет.*
2. *Ибн Арабиоҳ Амир Темур тарихи. – Тошкент: 1992.*
3. *Борибой Ахмедов Амир Темурни ёд етиб. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1996.*
4. *Muhammad Ali Amir Temur chamani. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2006 .*
5. *Темур Тузуклари. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2011.*
6. *O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi 8-tom, 162-bet*
7. *Амир Темур ўғимлари: (Тўплам). Тузувчилар: Б.Аҳмедов, А.Аминов. – Тошкент: Наврӯз, 1992. – 646.*
8. *Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: 2008 й.*

Xudoyerova Oysoat,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Muradov Ikrom,
A.Avloniy nomidagi XTMO 'IBITI ilmiy xodimi

Meyliev Sherdor,
Yakkabog' tuman DSI boshlig'i

BOLALARNI MILLIY, MA'NAVIY VA DINIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy, ma'naviy va diniy qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi o'rni va ta'siri, o'ziga xos yo'nalishlari, mazmuni va mohiyati aks ettirilgan bo'lib, ulardan foydalanishning asosiy qoidalari va yo'llari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: milliy, ma'naviy, diniy qadriyatlar; yoshlar ma'naviyati, axloqiy qiyofa, ezgulik, bunyodkorlik, ezgulik va yuksalish.

Аннотация. В статье отражены роль и влияние национальных, духовных и религиозных ценностей в воспитании молодежи, их конкретные направления, содержание и сущность, показаны основные правила и способы их использования.

Ключевые слова: национальные, духовные, религиозные ценности, молодежная духовность, нравственный образ, доброта, творчество, добродетель и восхождение.

Annotation. This article reflects the role and impact of national, spiritual and religious values in the education of young people, their specific directions, content and essence, and shows the basic rules and ways of their use.

Key words: national, spiritual, religious values, youth spirituality, moral image, kindness, creativity, kindness and ascension.

Ma'lumki, komil insonni tarbiyalashda milliy, ma'naviy va diniy qadriyatlarning o'rni va ta'siri beqiyosdir. **Milliy qadriyatlar** – millatning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy birligini ta'minlaydigan etnik makonda shakllanadigan, kishilarning ongi va hayot tarziga o'ziga xos reallik sifatida ta'sir qiladigan, millatdoshlarning o'zaro munosabatlarida faoliyat, maqsad, ehtiyoj va intilishlar uchun ma'naviy asos bo'ladigan, millatning moddiy, ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy hayotida natija sifatida yuzaga keladigan, millatning ijtimoiy rivojlanishi jarayonida o'zgarib, takomillashib boradigan, doimiy yangilanib turadigan, vorislik orqali avloddan avlodga o'tadigan, meros qoladigan qadriyatlarni ifodalaydigan tushunchadir⁹⁴.

Ma'naviy qadriyatlar – bu inson ma'naviyati va axloqiy qiyofasiga, jamiyatning ma'naviy hayotiga daxldor bo'lib, odamlarni tarbiyalashga, ularning barkamolligini ta'minlashga, millatlar va jamiyatlarni ezgulik va bunyodkorlikka undashga xizmat qiladigan qadriyatlarni tizimi hisoblanadi⁹⁵.

Islom dini – bu ota-bobolarimiz dini, u biz uchun ham iymon, ham axloq, ham diyonat, ham ma'rifat ekanligini unutmaylik. **"Din" arabchadan o'zbek tiliga kirib kelgan so'z bo'lib, "e'tiqod, ishonch" degan ma'nolarni anglatadi.** Mutafakkir Alisher Navoiy farzandni yoshligidanoq tarbiya qilinmasa, unga odob madaniyati o'rgatilmasa, katta yoshga kirganda, qayta tarbiyalash qiyin kechadi. Vaqt o'tib unda xarakter shakllanib bo'ladi deydi. U erkak va ayollarning yaxshi ma'naviy sifatlarini ulug'laydi, aqli, axloqli ota-onagina farzandiga yaxshi tarbiya berishi mumkinligini ko'rsatadi.

Abu Ali Ibn Sino ham aqliy tarbiyaga fanlar asoslarini egallash orqali erishilishini ta'kidlaydi. U bilim olish metodlarni egallashda mantiqiy fikrlashga, shaxsiy kuzatish natijalari va tajribaga asoslanish

⁹⁴ Назаров К.Н. "Аксиология. Қадриятлар фалсафаси" –Т.: "Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти" нашриёти, 2011.-Б. 12

⁹⁵ Назаров К.Н. "Аксиология. Қадриятлар фалсафаси" –Т.: "Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти" нашриёти, 2011.-Б. 91.

lozimligi to‘g‘risidagi fikrlarni ilgari suradi. Uning maktabda bolalarga ta’lim-tarbiya berish borasidagi g‘oyalari bugungi kunda o‘zining yuksak ahamiyatini yo‘qotmagan.

Komil inson g‘oyasi azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, millat ma’naviyatining uzviy bir qismi bo‘lib qolgan. Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”da, Qur‘oni Karim va Hadislarda, tasavvuf falsafasida, Sharq mutafakkirlari asarlarida, shuningdek, xalq og‘zaki va yozma ijodiyoti, xalq yodgorlik obidalari, nasihatnama, pandnoma va vasiyatnomalarda komil inson g‘oyasi o‘zining teran ifodasini topgan. Avesto “Hayot yo‘riqnomasi” deb atalgan kitoblar to‘plami bo‘lib, xalqimizning miloddan oldingi davrdagi hayoti, dunyoqarashi, olam va odam to‘g‘risidagi tasavvur, urf-odat va qadriyatlar, g‘oyalari, diniy qarashlari haqida ma‘lumot beruvchi tarixiy manbadir.”Avesto” kitobida shunday deyiladi: “Ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amalni olqishlayman, Fikr, so‘z va amal olamidan ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amalni tanlayman. Men barcha yomon fikr, yomon so‘z va yomon amaldan yuz buraman”⁹⁶. Mazkur kitob sog‘lom avlod g‘oyasini amalga oshirish borasidagi fikrlari bilan katta ahamiyatga egadir.

Abu Nasr Forobiyning qayd etishicha, inson o‘zida komillik sifatlarini tarkib toptirish uchun. birinchi navbatda, ilmiy bilimlarni egallamog‘i lozim, shuningdek, u shaxs aqliy rivojlanishining asosi sifatida idrok qilish va fikrlash qobiliyatlarining ahamiyatini alohida qayd etadi. Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri”, “Baxtga erishish haqida” kabi asarlarida barkamol shaxsni tarbiyalash ishlarining mazmuni, maqsadi, vazifalari, yo‘llari hamda vositalari to‘g‘risida so‘z yuritadi. Abu Nasr Forobiy “o‘qitish” va “tarbiyalash” tushunchalariga birinchi bo‘lib ta’rif bergan olim sanaladi. U insonning mukammal zot ekanligi, unda aqlning paydo bo‘lishi va uning qudratli kuch ekanligi to‘g‘risidagi g‘oyalarida: “Til va tushuncha sohibi bo‘lgan tirik zot insondan ortiqroq mukammal bo‘lgan tirik zot yo‘qdir” deyiladi⁹⁷.

Beruniyning qayd etishicha, “insonning barkamolligi uning amaliy kuzatishlari natijasi assosida shakllangan holda aqliy faoliyati negizida yuzaga keladi. Demak, inson shu asosda tashqi olamni, borliqni o‘rganadi, bilimlarni egallaydi, haqiqatga yaqinlashadi, haqiqat esa borliq to‘g‘risidagi tasavvurlarning haqqoniyligini talab qildi. Beruniyning ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi qarashlari “Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, “Mineralogiya”. “Geodeziya” va boshqa asarlarida o‘z aksini topgan.

Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyning eng ishonchli hadislar to‘plami – “As-jome’ assahih” bo‘lib, unda buyuk alloma tomonidan jami to‘plangan 600 ming hadisdan, faqat 7275 ta eng “sahih” hadislar bayon etilgan⁹⁸.

Undan namuna keltiramiz: – “Hayo iymondandir”, “Ilm-u hunarni Xitoydan bo‘lsa ham borib o‘rganinglar”, “Nonni hurmatlanglar”, “Jannat onalarning oyoqlari ostidadir”, “Otaga itoat qilish – Allohga itoat qilishdir. Otaga osiy bo‘lish – Allohga osiy bo‘lishdir”⁹⁹.

Shunga alohida e’tiborni qaratish kerakki, ota-onha farzandlariga yaxshi tarbiya berib, munosib rahbarlik qila olsagina oilada tartib intizom, mehnat va orom, o‘zaro hurmat, odob va axloq, axillik, birdamlik, tinchlik bo‘ladi. Tarbiyali ota-onha farzandlariga doimo to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatadigan ustozdir. Ular bolalarga yoshligidanoq nima yaxshi, nima yomonligini o‘rgatib, to‘g‘ri tarbiya beradilar. Farzandlar esa shu oilaning or-nomusi uchun kurashishi, sha’niga dog‘ tushirmasligi, hamma vaqt oilaga, Vataniga, do‘stlariga sodiq, sadoqatli bo‘lib qolishi zarur.

Sog‘lom bola kuchli, go‘zal ham ma’rifatli bo‘ladi. Ma’rifatli bola ko‘p kitob o‘qiydi, tafakkuri charxlanadi, har qanday narsani ongli anglab, mulohaza qiladigan bo‘ladi. Tinimsiz foydali ilm va go‘zal hulqni egallagan bola saodatga erishadi. Bolaning bilimi va iqtidorini to‘liq namoyon bo‘lishida ota-onanining hamda tarbiyaviy muhitning ta’siri kuchlidir. Ota-onha hamisha go‘zal axloqli bo‘lib, va’daga vafo qilishi, so‘z va ish birligiga amal qilgan holda adolatli bo‘lishi, farzandlari bilan chiroyli, mazmunli suhbatlar uysushtirishi, bolaning aqliy va ruhiy o‘sishiga e’tibor qaratishi zarur. Ular bola tarbiyasida juda ziyrak bo‘lib, farzandining o‘zi emas, ishi xato ekanligini tushuntirishi lozim. Oilada farzandlarga singdirgan tarbiya ularda Vatanga, ota-onaga sodiqlik, fidoyilik, mehr-muhabbat, o‘zaro hurmat, sog‘lom dunyoqarash, xulq-atvor, odob-axloq kabi yuksak insoniy fazilatlarni shakllantiradi. Xulosa shuki, ta’lim-tarbiya jarayonida milliy, ma’naviy va diniy qadriyatlar uyg‘unligida bola qalbiga yoshligidanoq e’tiqod urug‘ni sochish assosida qalbi toza, beg‘ubor, ilmlli, dunyoqarashi keng sog‘lom bolani tarbiyalash vazifasini muvaffaqiyatli amalga oshirish muhim hisoblanadi. Farzandlarimiz qanchalik jismoniy va ma’naviy jihatdan sog‘lom bo‘lsa ular baxt-u saodatli,

⁹⁶ Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Аскар Махкам таржимаси. – Т.: Шарк, 2001. – Б.34.

⁹⁷ Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги ҳалқ мероси нашриёти, 1993. – Б. 144.

⁹⁸ Ал – Бухорий, Абу Абдулоҳ Муҳаммад Ибн Исмоил. Ҳадис. 4 – китоб. – Т.: Қомуслар бош таҳририяти, 1991.- Б. 5.

⁹⁹ Ал – Бухорий, Абу Абдулоҳ Муҳаммад Ибн Исмоил. Ҳадис. 4 – китоб. – Т.: Қомуслар бош таҳририяти, 1991.- Б. 17, 18, 20, 36

hech kimdan kam bo‘lmaydilar. O‘z kelajagini o‘zi barpo etadi va hammaning havasini keltiradigan, eng muhimi aqlli, fazilatli, o‘tkir mulohazali, foydalishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishda zo‘r iste’dodga ega bo‘lib, yomon ishlardan o‘zini chetga olib yuradigan mukammal ilm sohiblari bo‘lib voyaga yetadilar. Bolalarni milliy, ma’naviy va diniy qadriyatlarni e’zozlash ruhida tarbiyalash masalalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish barchaning burchidir. Ayniqsa, farzandlarning insonlar bilan xushmuomalali, rostgo‘y, ilm-hunarli, Vataniga sodiq bo‘lishi, Vatanini asrab-avaylashi, unga jonini berishga tayyor insonlar etib tarbiyalashga ota-onas mas’uldirlar.

Farzandlarning yomon xulq va so‘zlardan, qabih ish va yomon odatlardan asrab ularning axloqini go‘zal va pok bo‘lishi uchun ham ota-onas javobgardir. Oilada bolaning qanday inson bo‘lib shakllanishi birinchi navbatda ota-onaga bog‘liq. Ular, avvalo, bolaga chiroyli tarbiya berishi kerak. Demak, oilada hamma bir-biriga chiroyli va xushmuomala bo‘lishi katta ahamiyatga ega. Shundagina tarbiya topayotgan bola ham go‘zal so‘zlashuv odobiga amal qilib ulg‘ayadi. Tarbiyada eng muhim vosita bu mehr va shirinso‘zlik bilan tarbiyalashdir. Bu ikki vosita bir bo‘lib, bolani shakllantiradi.

Foydalanalig'an adabiyotlar ro‘yxati:

1. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Манқам таржимаси. – Тошкент: Шарқ, 2001.
2. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги ҳалқ мероси нашириёти, 1993.
3. Ал - Бухорий, Абу Абдулоҳ Муҳаммад Ибн Исмоил. Ҳадис. 4 – китоб. – Тошкент: Қомуслар боши таҳририяти, 1991.
4. Назаров Қ.Н. Аксиология. Қадриятлар фалсафаси. – Тошкент: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жсамияти” нашириёти, 2011.

Soatov Elmurod Maxmarayimovich,
TVChDPI Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Xusenbayev Ahmadjon G‘aipnazar o‘g‘li,
Yandashasheva Durdonna Kimsanali qizi,
TVChDPI Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda
jismoniy tarbiya va sport talabalari

YOSH SPORTCHILARNI JISMONIY TAYYORLASH

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy sportga mos ravishda yosh sportchilarning maxsus jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishga oid fikrlar berilgan.

Kalit so‘zlar: sport, yosh sportchilar, yutuqlar

Аннотация. В статье представлены идеи развития особых физических возможностей юных спортсменов в соответствии с современными видами спорта.

Ключевые слова: спорт, юные спортсмены, достижения

Annotation. The article presents the ideas of the development of special physical capabilities of young athletes in accordance with modern sports.

Key words: sports, young athletes, achievements

Yosh sportchilarni jismoniy tayyorlash sport mashg‘ulotlarining eng muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanib, organizmni har tomonlama rivojlantirish, sog‘likni mustahkamlash, jismoniy qobiliyatlarini takomillashtirish va tayyorgarlikning barcha boshqa turlari uchun mustahkam funksional baza yaratishga yo‘naltirilgan jarayon sifatida tushuniladi.

Zamonaviy sport sportchilarning jismoniy tayyorgarligiga yuksak talablar qo‘yadi. Buni quyidagi omillar bilan izohlash mumkin:

1) sportdagi yutuqlarning o'sib borishi har doim sportchidan jismoniy qobiliyatlar rivojining yangi darajasini talab qiladi;

2) jismoniy tayyorgarlikning yuqori darjasini mashg'ulot va musobaqa yuklamalarini oshirishning zaruriy sharti.

Qo'llaniladigan vositalarning ta'sir ko'rsatish xususiyati va yo'nali shiga ko'ra jismoniy tayyorgarlikni umumiyligi jismoniy tayyorgarlik, yordamchi hamda maxsus jismoniy tayyorgarlik turlariga bo'lib o'rganiladi.

Yosh sportchilarning umumiyligi jismoniy tayyorgarligi yuksak natijalarga erishish uchun poydevor, zarur asos hisoblanadi. U quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilgan:

1) yosh sportchilar organizmning funksional imkoniyatlarini oshirish;

2) jismoniy sifatlar – kuch, tezkorlik, chidamkorlik, epchillik va egiluvchanlikni rivojlantirish;

3) yosh sportchilar organizmning jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarni yo'q qilish.

Umumiyligi jismoniy tayyorgarlik tarkibiga nihoyatda turli-tuman vositalar kiradi. Ular sirasida snaryadlar bilan bajariladigan, sheriklikda, maxsus qurilmalarda amalga oshiriladigan mashqlar, har hil sport turlari: akrobatiqa, yengil atletika, sport o'yinlari, suzish va boshqalarga xos umumrivojlaniruvchi mashqlar bor.

Yosh sportchilarning yordamchi jismoniy tayyorgarligi maxsus jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan samarali faoliyat uchun zarur bo'lgan funksional asosni yuzaga keltirishga mo'ljallanadi. U maxsus yo'nali shiga ega bo'lib, quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilgan:

1) sportchining tanlangan sport turiga xos harakat faoliyatlarida namoyon bo'ladigan funksional imkoniyatlarini rivojlantirish;

2) organizmning yuqori darajadagi maxsus yuklamalarga chidamliligi qobiliyatini takomillashtirish;

3) tiklanish jarayonlarining kechish shiddatini orttirish.

Yosh sportchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligi tanlangan sport turi bo'yicha musobaqa faoliyatining xususiyatlari qo'yadigan talablarga qat'iy rioya qilgan holda jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Yosh sportchilarini maxsus jismoniy tayyorlash quyidagi vazifalarni hal etadi:

1) tanlangan sport turi uchun xos bo'lgan jismoniy qibiliyatlarini takomillashtirish;

2) tanlangan sport turi buyicha muvaffaqiyatli texnik-taktik takomillashuv uchun zarur bo'lgan harakat ko'nikmalarini chuqurlashtirib rivojlantirish;

3) ixtisoslashtirilgan mashqlarni bajarishda ko'proq qatnashadigan alohida mushak guruhlarini tanlab rivojlantirish.

Yosh sportchilarning maxsus jismoniy tayyorgarlik harakat ko'nikmalarini tizimidagi eng muhim harakat sifatlarini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Shuning uchun maxsus jismoniy tayyorgarlikning asosiy vositalari sifatida musobaqa mashqlari ularning sportchi organizmiga ta'sirini kuchaytiruvchi har turli murakkablashtiruvchi unsurlar bilan birgalikda qo'llaniladi.

Jismoniy tayyorgarlikning barcha turlari muayyan o'xshashliklarga ega. Yosh sportchilarning jismoniy tayyorgarligi sport ixtisosligi bilan chambarchas bog'liq. Mashq jarayonida jismoniy tayyorgarlikning biror turiga yetarlicha baho bermaslik ohir-oqibat sport mahoratining kuchayishiga to'sqinlik qiladi. Yosh sportchilarning mashg'ulotlarida umumiyligi jismoniy tayyorgarlik va maxsus jismoniy tayyorgarlik vositalari nisbati qo'yiladigan vazifalar, sportchilarning yoshi, malakasi, ularning alohida xususiyatlari, mashg'ulot jarayonining bosqich va davrlari, organizmning ayni paytdagi holatidan kelib chiqib o'zgartiriladi. Sportchining malakasi oshib borar ekan, maxsus jismoniy tayyorgarlik vositalarining hissasi ortib, umumiyligi jismoniy tayyorgarlik vositalarining hajmi shunga muvofiq tarzda kamayib boradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Вайцеховский С.М. Книга тренера. – Москва: Физкультура и спорт, 1971.
2. Волков Л.В. Теория и методика детского и юношеского спорта. – Киев, Олимпийская литература. 2002.
3. Зацюорский В.М. Физические качества спортсмена. – Изд. 2-е. – Москва: Физкультура и спорт. 1970.
4. Иванков Ч.Т. Теоретические основы методики физического воспитания. – Москва: "Инсан", 2000.
5. Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва усулияти. – Тошкент: УзДЖТИ. 2001.



Saidkulov Nuriddin Akramovich
Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

OILA TARBIYASIDA YOSHLARNING SIYOSIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlat va jamiyatning yuksak taraqqiyotini ta'minlashda yoshlarning siyosiy madaniyatini shakllantirish samaradorligini ta'minlash, ularning siyosiy jarayonlardan xabardorligini oshirishning ta'sirchan mexanizmlari, shakl va usullari, O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirishning ustuvor yo'naliшhalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: taraqqiyot, yoshlar, siyosiy madaniyat, yo'naliш, yoshlarga oid davlat siyosati, yoshlar, yosh oila, yosh mutaxassis, yoshlar tadbirkorligi.

Аннотация. В статье анализируется эффективность формирования политической культуры молодежи в обеспечении высокого развития государства и общества, формы и методы действенных механизмов повышения их осведомленности о политических процессах, приоритеты развития молодежной политической культуры на высоком уровне. новый этап развития.

Ключевые слова: развитие, молодежь, политическая культура, направление, государственная молодежная политика, молодежь, молодая семья, молодой специалист, молодежное предпринимательство.

Annotation. The article analyzes the effectiveness of the formation of the political culture of young people in ensuring the high development of the state and society, the forms and methods of effective mechanisms for increasing their awareness of political processes, the priorities for the development of youth political culture at a high level.

Key words: development, youth, political culture, direction, state youth policy, youth, young family, young specialist, youth entrepreneurship

Globallashuv jarayonida yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga to'sqinlik qiluvchi omillar ko'payib bormoqda. Natijada bugungi kunda "ommaviy madaniyat" tushunchasi paydo bo'lib, u o'sib kelayotgan avlod dunyoqarashida turli xil yot unsurlarning shakllanishiga ta'sir etib kelmoqda. Xususan, ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar orasida keng tarqalishi tabiiy ravishda bu holatni ilmiy jihatdan asosli tarzda o'rganish, tadqiq etish zaruratini tug'dirmoqda. Bozor munosabatlariga o'tish jamiyat ma'naviy hayotining yuksak darajada bo'lishini, insonning g'oyaviy, siyosiy, huquqiy, madaniy-ma'naviy, ma'rifiy yetukligini taqozo etadigan tarixiy zaruriyatdir. Xalqning ma'naviy-ruhiy yetukligi bozor iqtisodiyotiga o'tishni ta'minlashning eng muhim omillaridan biridir. Yoshlar ijtimoiy-siyosiy faoliydarajasini oshirishga imkoniyat beruvchi va to'sqinlik qiluvchi omillar hozirgi davrda quyidagicha namoyon bo'lmoqda:

1. Yoshlar ijtimoiy-siyosiy faoliydarajasini oshirishga imkoniyat beruvchi omillar:
 - davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatlar;
 - oila, mahalla, ta'lim muassasasi, yoshlar tashkilotining faoliyatida ijtimoiy sherikchilik mexanizmining faol ishlashi;
 - yoshlar tashkilotlari tomonidan yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan tadbirlar;
 - yoshlar iqtisodiy faolligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar.
2. Yoshlar ijtimoiy-siyosiy faoliydarajasini oshirishga to'sqinlik qiluvchi omillar:
 - yoshlar o'rtasida huquqiy madaniyat darajasining pastligi;
 - ota-onalar va jamoatchilik tomonidan yoshlarga nisbatan e'tibor va ma'suliyatning yo'qligi;
 - yoshlar o'rtasida turli xil turdag'i zararli illatlarning keng tarqalishi (narkomaniya, ichkilik, fohishalik);
 - yoshlar o'rtasida erta nikoh qurish holati;
 - destruktiv g'oyalari va g'arb madaniyatiga intilish.

Albatta, yoshlarning jamiyatda siyosiy va ijtimoiy mavqeyini oshirish ham davr talabi hisoblanadi. Shu jihatdan, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga imkoniyat beruvchi va to'sqinlik qiluvchi omillarni tahlil qilish va bartaraf etish dolzarb hisoblanadi. Shu bilan birga, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini

oshirish mamlakatda yoshlardan siyosatining eng muhim qismi bo‘lib, jamiyatda yoshlarga yaratilayotgan barcha imkoniyat va shart-sharoitlardan yoshlardan unumli foydalanishi kelajakda yoshlarni barkamol insonlar bo‘lib yetishishida katta ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarni komillikka yetaklovchi kuch va vositalar jamiyatdagi muammolarning oldini olishga qaratilishi, yoshlarni ma’naviy barkamollikka yetaklovchi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbekistonda avloddan avlodga o‘tib kelgan tarixiy va madaniy qadriyatlar hamda o‘ziga xos an‘analar saqlanib qolgan.

Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faoliyati darajasi asosan siyosiy madaniyatni ta’sirida shakllanadi va rivojlanadi. Yoshlar siyosiy madaniyatni shakllantirishda ijtimoiy adolat muhim shart-sharoit vazifasini o‘taydi. Boshqacha aytganimizda, jamiyatda ijtimoiy adolat prinsiplariga rioya qilinganidagina zamon talablariga javob beruvchi, siyosiy madaniyatli shaxsni shakllantirish imkon yaratiladi. Shu boisdan “adolat g‘oyasi ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarini qamrab olmog‘i lozim”.

Obyektiv adolat ijtimoiy prinsiplariga amal qilinganida esa shaxsning davlat siyosatidan va ijtimoiy tuzumdan qoniqlishi kuchayib boradi. Buning intihosida uning siyosiy fazilatlari shakllanib va rivojlanib boradi. Nihoyat, adolatning siyosiy prinsiplari shaxs siyosiy malakasining oshishiga, siyosiy huquqlarining kengayishiga va shu kabilarga sabab bo‘ladi.

O‘zbekistonda insonparvar, demokratik jamiyat barpo etilishining boshlanishi, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov asarlarida insonparvar, demokratik jamiyat qurish nazariyasining ishlab chiqilishi va targ‘ib etilishi fuqarolarning qurilayotgan jamiyat haqidagi tasavvurlarini kengaytirdi.

Yoshlarning bugungi kunda kelajakka ishonchi ortib borayotgani mamlakatimiz uchun muhim ahamiyatga ega. Chunki yurtimizda istiqomat qilayotgan aholining ko‘pchilik qismini 15 yoshgacha bo‘lgan yigit va qizlar tashkil etadi. Shu boisdan mamlakatimiz yoshlarda kelajakka ishonchning ortib borishi siyosiy ijtimoiylashuv jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Buning uchun yoshlarning kreativ qobiliyatları (ijodiy tafakkuri)ni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlarning natijalari katta ijtimoiy ahamiyatga ega ekani tadqiqotchilarni ijodiy tafakkurni, kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish uchun mo‘ljallangan xilma-xil uslubiy yondashuvlar va maxsus metodikalarni ishlab chiqishga rag‘batlantirmoqda. Shu sababli bugungi kungacha turli konseptual asoslar negizida uslubiy ishning har xil shakllariga tayangan ko‘plab mualliflar shaxs intellektual sohasida kreativlik sifatining darajasini oshirishga yordam beruvchi vosita sifatida turli metodikalarni tavsiya etadilar.

Ijodiy tafakkurni rivojlantirishning usullari sifatida bugungi kunda ko‘pgina mualliflar taklif etayotgan uslubiy yechimlarda kognitiv yondashuv ustuvorligi seziladi. Ko‘pchilik mualliflar ijodiy tafakkurni rivojlantirishning samarali usullari sifatida kreativlik asosini tashkil etuvchi bilish jarayonlari (ijodiy xayol, tanqidiy tafakkur va h.k.)ni faollashtirishga mo‘ljallangan mashq va topshiriqlardan iborat metodikalarni taklif etadilar. Kreativlik qobiliyatini rivojlantirish vositasi sifatida qator mualliflar turli materiallar asosida ijodiy xayolni mashq qildirish uchun mo‘ljallangan metodikalarni taklif etadilar. Jumladan, Y.P.Rogovning amaliy qo‘llanmalarida taklif etilgan, guruhiy shaklda o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan mashqlarda, masalan, trening ishtirokchilaridan biri qandaydir fantastik vaziyatli savol (masalan, “Agar odamlar bir-birining fikrini o‘qiy oladigan bo‘lib qolganda, Yerdagi hayotda qanday o‘zgarishlar ro‘y berar edi?” degan savol)ni o‘rtaga tashlash, guruhning qolgan a’zolariga o‘zlarining imkon qadar rang-barang javoblarini shakllantirish vazifasi berilishi mumkin.

Yuqoridagi qisqacha tahlildan ko‘rinib turganidek, yoshlarda tafakkur kreativligini rivojlantirish ko‘zda tutilgan metodik vositalarning aksariyati odamdan ijodiy yondashuvni talab qiluvchi topshiriqlardan iboratdir. Bu yerda turli bilish jarayonlari yoki kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi mashq va mashg‘ulotlarning ko‘pchiligidagi vazifa va topshiriqlar tegishli jarayonni faollashtiradigan mazmunda bo‘ladi. Masalan, korrektur sinov metodikasini correksion-rivojlantiruvchi maqsadda qo‘llash tavsiya etilishi topshiriq shartiga ko‘ra odam bir tekis fonda yaqqol ajralib turmaydigan biror shaklni aniqlashi uchun atrof-muhitning chalg‘ituvchi ta’siridan cheklanib, muayyan sohada diqqatini jamlashga majbur qilinishiga asoslanadi. Xuddi shuningdek, xotirani rivojlantirish maqsadiga xizmat qiluvchi metodikalar turli mnemik jarayonlarni faollashtiruvchi, xavotirlanish psixokorreksiyasida qo‘llanuvchi uslubiy vositalar tashqi xulq-atvorda dadillik hissini sun‘iy namoyon etish yoki emotsiogen omilga nisbatan kognitiv ustanovkani o‘zgartirishga yo‘naltirilgan psixologik texnikalardan iborat bo‘ladi.

Albatta, tavsiflangan uslubiy yondashuv tegishli psixik jarayon, holat va xususiyatning ichki tabiat, namoyon bo‘lish va rivojlanish xususiyati haqidagi ilmiy tasavvurlarga asoslanadi. Ammo, nazarimizda, ijodiy tafakkur, kreativlik qobiliyatini rivojlantirish haqida gap ketganda, yuqorida tavsiflab berilgan yondashuv bilan chegaralanish kognitiv jarayonlar misolida bo‘lganidek yuqori samarador amaliy ishning yetarlicha kafolati bo‘la olmaydi. Buning asosiy sababi, bizning fikrimizcha, boshqa bilish jarayonlariga nisbatan ijodiy tafakkurning shaxs xususiyatlari bilan o‘ta chuqur va murakkab munosabatda ekanligidadir.

Darhaqiqat, yuksak ijodiy qobiliyatlarni namoyon etuvchi ijodkorni biografik manbalar asosida ham, bevosita empirik tekshiruv asosida ham o‘rganish natijalari qayta-qayta ular nafaqat intellektual sifatlari bilan, balki shaxs xususiyatlari sohasidagi betakror individualligi bilan ajralib turishini tasdiqlamoqda. Bu holat ijodiy tafakkurni rivojlantirish yo‘nalishidagi mazmunida ham aks etishini qator mualliflarning dasturlariga asos bo‘lgan ilmiy qarashlarda ham qayd etiladi. Masalan, B.Klegning ijodiy tafakkurni rivojlantirish bo‘yicha intensiv kursi muallifning kreativlik darajasiga yetish besh omil – madaniy muhitning ijobiya ta’siri, maxsus metodikalardan unumli foydalanish, shaxs sifatida rivojlanish, mental energiya va humor hissining yuqori darajada rivojlangan bo‘lishi lozimligi haqidagi tasavvurlarga asoslanadi. Shu sababli, nazarimizda, tafakkur kreativligini rivojlantirishga qaratilgan amaliy ish samaradorligi nafaqat metodik vositalarning mahsulorligi, balki shakllantiruvchi ta’sir obyekti bo‘lgan odamda tegishli shaxs xususiyatlari qanchalik tarkib topgan bo‘lishiga ham bog‘liqdir.

Yuqoridaq tahliliy mulohazalar va ularga asos bo‘lgan ilmiy dalillar intellektual hissiyotlarni his etishga moyillikni kuchaytirish orqali shaxsning ijodiy faollikka intilish darajasini oshirish mumkinligi haqidagi farazga asos bo‘lmoqda. Biroq ushbu farazni tekshirish uchun o‘tkaziladigan empirik izlanishlar natijalariga qarab, taklif etilayotgan yondashuvning amaliy ish samaradorlik darajasi haqida quyidagi yakuniy xulosani chiqarish mumkin bo‘ladi:

- yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga imkoniyat beruvchi va to‘sinqinlik qiluvchi omillarni tahlil qilish va bartaraf etish dolzARB hisoblanadi;
- yoshlarni ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish mamlakatda yoshlar siyosatining eng muhim qismi bo‘lib, jamiyatda yoshlarga yaratilayotgan barcha imkoniyat va shart-sharoitlardan yoshlar unumli foydalanishi kelajakda yoshlarni barkamol insonlar bo‘lib yetishishida katta ahamiyat kasb etadi;
- yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faoliyati darajasi asosan siyosiy madaniyati ta’sirida shakllanadi va rivojlanadi;
- mamlakatimiz yoshlarida kelajakka ishonchning ortib borishi siyosiy ijtimoiylashuv jarayoniga ijobiya ta’sir ko‘rsatadi. Bunda yoshlarning kreativ qobiliyatlari (ijodiy tafakkuri)ni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi;
- yoshlarda ijodiy tafakkurni, kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish uchun mo‘ljallangan xilma-xil uslubiy yondashuvlar va maxsus metodikalarni ishlab chiqish maqsadga muovifiqdir;
- yoshlarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishning samarali usullari sifatida kreativlik asosini tashkil etuvchi bilish jarayonlari (ijodiy xayol, tanqidiy tafakkur va h.k.)ni faollashtirishga mo‘ljallangan mashq va topshiriqlardan iborat metodikalarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш. Жисмоний ва маънавий етук ёилар – эзгу мақсадларимизга етишида таянчимиз ва суюнчимиздир / “Халқ сўзи” 2017 йил 1 июль.
2. Турдиева Р. Ёшларнинг ҳуқуқий маданиятини шакллантириши. – Т.: “Ўзбекистон”, 2014. – 5-6-б.
3. Рустамова М. Ёшларда тафаккур маданиятини шакллантиришининг фалсафий жиҳатлари. – Т.: Мехнат, 2000. -38 б
4. Каримов И.А. Ўзбекистан ижтимоий — снёсий ва иқтисодий истиқболининг асосий тармойиллари// Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Том 3. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – 10 б.
5. Рогов Е.П. Настольная книга практического психолога: Учеб. пособие: В 2 кн. З-е изд. – М.: Гуманит. Изд. центр. ВЛАДОС, 2000. – Кн. 2: Работа психолога со взрослыми. Коррекционные приёмы и упражнения. С. 377.

Abdulazizov A.X.,

Namangan davlat universiteti dotsenti

OILA TARBIYASIDA MUTOLAA MADANIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada yuz berayotgan jarayonlar mutolaaning funksional o‘zgarishlarini ijtimoiy hodisa va uning kelgusi taraqqiyoti muqobillarining bashorati sifatida ilmiy mushohada qilishga bag‘ishlanadi. Muallif kitobxonlik, uning afzalliklari, oilada mutolaa madaniyatini tarkib toptirish masalalari haqida fikr yuritadi.

Kalit so‘zlar: yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega yoshlar, ommaviy madaniyat, oilada mutolaa madaniyati, mutolaaga intilish, mutolaaning funksional o‘zgarishlari, mutolaa sotsiologiyasi.

Аннотация. Данная статья посвящена процессам научного наблюдения за функциональными изменениями чтения как предсказанию социальных явлений и альтернатив его будущего развития. Автор размышляет о чтении и его преимуществах, формировании культуры чтения в семье.

Ключевые слова: молодежь с высоким интеллектуальным и духовным потенциалом, массовая культура, культура чтения в семье, стремление к чтению, функциональные изменения чтения, социология чтения .

Annotation. The processes taking place in this article are devoted to the scientific observation of functional changes in reading as a prediction of social phenomena and alternatives to its further development.

Key words: youth with high intellectual and spiritual potential, mass culture, culture of reading in the family, striving for reading, functional changes in reading, sociology of reading

O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev millatning yoshlarida kitobxonlik va mutolaa madaniyatiga e’tibor qaratib, “...yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega yoshlar dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun ...” [1] davlatimiz bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etishini ta’kidlagan edi.

Jamiyatning ijtimoiy-madaniy holati va aholi turmush tarzidagi o‘zgarishlar XX asr oxirlarida mutolaaning asosiy vazifalari ham o‘zgarishiga, xususan, ularning axborot berish, o‘rgatish va rekreativ funksiyalarga aylanishiga olib keldi. Yuz berayotgan jarayonlar mutolaaning funksional o‘zgarishlarini ijtimoiy hodisa va uning kelgusi taraqqiyoti muqobillarining bashorati sifatida ilmiy mushohada qilishni talab qilmoqda.

Globallashayotgan dunyodagi hayot lavhalarining jadallahuvini mamlakatimiz hayotida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tezlashtirib yubordi. Bu hol hayotimizga integratsiyalashgan taraqqiyotni olib kirsa, ikkinchi tomondan, ijtimoiy-ma’naviy hayotimizda yoshlar orasida salbiy holatlarning tarqalishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, adabiyot va san’atda mazmunan sayoz, milliy ma’naviyat va qadriyatlar, axloqiy me’yorlarga zid bo‘lgan, yoshlar tarbiyasiga aks ta’sir ko‘rsatuvchi “badiiy mahsulotlar” ko‘paymoqda. Bu hol yoshlarning ma’naviy ehtiyojlarining transformatsiyalashuvi sharotida yoshlarning turmush tarzi va axloqida kitob fenomeni, shaxsning badiiy ehtiyojining pasayishini ko‘rsatmoqda. Afsuski, yoshlarimiz orasida “ommmaviy madaniyat”ga xos musiqa, komeks, video-roliklar tomosha qilish yoki ijtimoiy tarmoqda vaqt o‘tkazishga moyillik kitob mutolaasidan ustunlik qilmoqda. Shu sababli kitobxonlik va mutolaa madaniyatini mamlakatimiz yoshlari hayotida siyosat darajasiga ko‘tarilishi o‘rganilayotgan mavzuning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Kitobxonlik, uning afzalliklari, oilada mutolaa madaniyatini tarkib toptirish masalalari ulug‘ mutafakkirlarimiz Abu Nasr Forobi, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy va boshqalarning asarlarida yoritilgan. Xususan, XX asr boshlarida yashab ijod etgan ma’rifatparvar ziyoli Abdulla Avloniy, “...yoshlikdan boshlab zehn va idrokimizni quvvatlandurmak uchun aziz umrimizni o‘yin-kulgi, safsata, moloya’ni kabi behuda so‘zlar bilan o‘tkarmay, har xil kitob, g‘azita va jurnallarni o‘qub, fikrimizni ochmoq, zehnimizni quvvatlandurmak lozimdu” [2] deydi. Bu nuqtayi nazardan olib qaraganda, o‘zbek xalqida mutolaaga intilish doimo yuqori bo‘lib kelgan

deyish mumkin. Chunki aholining savodxonlik darajasi ancha past bo‘lgan davrlarda ham, odamlarning bir joyga to‘planib, turli kitoblarni birqalikda o‘qish, yoddan she’rxonlik, g‘azalxonlik yoki masnaviyxonlik, dostonxonlik kechalari, bahr-u bayt aytishuvlari uyushtirib turganliklarini o‘ziga xos mutolaa jarayoni deyish mumkin.

Ko‘p asrlar davomida kitob bolalarning rivojlanishi va ta’limining asosiy manbayi bo‘lib kelgan va uyda ovoz chiqarib o‘qish bo‘sh vaqt o‘tkazishning eng ommabop mashg‘ulotlaridan biri bo‘lgan. Kino va televideniyening paydo bo‘lishi bilan oilaviy kitobxonlikning rivojlanayotgan roli orqaga surilib, bolalar filmlari, multfilmlari va o‘quv-ko‘ngilochar teledasturlariga joy berdi. Bugungi kunda ommaviy o‘yinlar, o‘yinchoqlar va elektron vositalar ishlab chiqaradigan butun bir sanoat majmuasi yaratildi. Ular xotira va aqlni o‘rgatishadi, epchillik va nozik vosita mahoratini rivojlantiradi va bolada ko‘plab foydali ko‘nikmalarini singdiradi. Ko‘rinib turibdiki, ushbu yorqin va xilma-xil fonda an’anaviy qog‘oz kitob o‘z ahamiyatini qaytarib bo‘lmaydigan darajada yo‘qotdi. Biroq bolalar psixologlari, o‘nlab yillar o‘tgach, yana oilaviy o‘qishning bola uchun foydalari haqida faol ravishda gapira boshladilar. Ma‘lum bo‘lishicha, bolalarning jismoni va aqliy rivojlanishiga e’tibor qaratish orqali zamonaviy ota-onalar juda muhim bir narsaning – axloqiy tarbiyaning yetishmayotganini ta’kidlamoqdalar. Zero, aynan oilada insonning shaxsiyati, uning dunyoqarashi, o‘zini tutishi va turmush tarzi shakllanadi. Va bu borada hech qanday “xayoliy” elektron o‘yinchoq bolaning eng nozik hissiy torlariga yetib borishda, uni rahmdil qiladigan, hamdard bo‘ladigan va to‘g‘ri xulosalar chiqaradigan oddiy kitobni o‘rnini bosa olmaydi.

Hech kimga sir emaski, senzuraning bekor qilinishi bilan dunyo klassikkari va bizning zamondoshlarimizning durdona asarlari qatorida befoyda, hatto zararli adabiyotlar matbuotda paydo bo‘la boshladi. Agar biz oilaviy o‘qish haqida gapiradigan bo‘lsak, unda kitoblar ehtiyyotkorlik bilan tanlanishi kerakligini ta’kidlamoqchimiz. Bu klassik adabiyot bo‘lishi shart emas, zamonaviy yozuvchi va shoirlarning yorqin, qiziqarli va iste’dodli asarlari juda ko‘p. Asosiy shart shundaki, ular ijobiy va mulohazali bo‘lishi kerak. Va, albatta, biz bolaning yoshiga qarab, uning tushunchasi uchun mayjud bo‘lgan kitoblarni tanlashimiz lozim. Bugungi tezkor dunyodagi hayot lavhalarining jadallashuvini mamlakatimiz hayotida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tezlashtirib yubordi. Bu hol hayotimizga integratsiyalashgan taraqqiyotni olib kirayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomonidan ijtimoiy-ma’naviy hayotimizda yoshlар orasida yetib borishda, uni qaramoqdalar. Bu qarama-qarshiliklarga bir necha omillar sabab bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Prezidentining qarori xalqimiz, avvalo, yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish, joylarda ta’lim muassasalariga o‘z vaqtida va maqbul narxlarda yetkazilishi, milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalaridan tarjimalar qilish farzandlarimizda bolalikdan kitobga, jumladan, elektron kitob o‘qishga ko‘nikmalarini shakllantirish, jamiyatimizda mutolaa va media madaniyatini yuksaltirish masalasini kun tartibiga olib chiqmoqda [3]. Bu vazifa mutolaa sotsiologiyasi doirasida hal etilishi mumkin. Mutolaa sotsiologiyasi madaniyat sotsiologiyasining yirik bo‘limi hisoblanadi. Sobiq ittifoq davrida, XX asrning 70-yillarida u mustaqil yo‘nalish sifatida ajralib chiqdi. Hozircha ilmiy jamoatchilikda uning maqomi to‘g‘risida yagona fikr shakllanmagan. Tadqiqotchilar mutolaa sotsiologiyasini mustaqil fan (I.A.Butenko, V.D.Stelmax), sotsiologyaning mustaqil nazariyasi (A.L.Marshak) hamda kutubxonashunoslikning bo‘linmasi (V.V.Skvorsov) deb qaramoqdalar. Bu qarama-qarshiliklarga bir necha omillar sabab bo‘lmoqda:

1. Ko‘plab tadqiqotlar mutolaa hodisasini ma’naviy madaniyatning murakkab tizimidagi alohida unsur sifatida baholab, uning shu tizimdagи o‘rnini aniqlashga bag‘ishlanmoqda.

2. Mutolaa sotsiologiyasiga sobiq ittifoq davridan qolgan an’analarga mos ravishda, asosan, kutubxonashunoslikning amaliy tadqiqotlar bazasini shakllantiruvchi tarmoq sifatida qaralmoqsa (kutubxonalar, axborot-resurs markazlari fondlarini to‘ldirish yo‘nalishlarini aniqlash, kitobxonlar bilan ishlash shakl va usullarini takomillashtirish va kitob targ‘iboti, aholining kitobxonlik darajasini oshirish va shu kabi holatlarni amaliy tadqiqotlar yordamida o‘rganish). Vaholanki, rivojlangan davlatlardagi mutolaa sotsiologiyasida boshqa ijtimoiy-madaniy jarayonlarni izohlovchi nazariy qoidalar mutolaa madaniyatini tahlil qilishga ham keng tatbiq etilmoqda.

3. Bugungi kunda mutolaa sotsiologiyasining rivojlanishi bilan birga amaliy tadqiqotlar ko‘lamining kengayishi, maxsus sotsiologik tadqiqot sektorlarining ko‘payishi natijasida kutubxonashunoslik sotsiologiyasi ham keng taraqqiy etib borayotir [4].

Garchi bu sohalarning tadqiqot obyekti umumiy bo‘lsa-da (ya’ni kutubxonadagi mutolaa jarayonlari va kitobxon), mutolaa sotsiologiyasi barcha ijtimoiy va demografik guruhlarga xos kitobxonlarni, kutubxonaga kelish-kelmasligidan qat’i nazar o‘rgansa, kutubxonashunoslik sotsiologiyasi kutubxonalarning kitobxonlik sohasiga aloqasi bo‘lmagan muammolarni: kutubxonaning ijtimoiy institut sifatidagi o‘rni, uning vazifalari va aniq ijtimoiy-madaniy jarayonlardagi ishtiroki, tuzilmasi, xodimlari, foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatish darajasi va hokazolarni ham o‘rganadi. O‘zbek xalqining mental xususiyatlarini e’tiborga oladigan bo‘lsak, ijtimoiy munosabatlarning barcha darajasida oila institutining o‘rni yuqori ekanligini ko‘rshimiz mumkin. Xususan, shaxsda, jumladan, o‘smir-yoshlarda ham mutolaa madaniyatini shakllantirishda oilaning o‘rni beqiyosdir. Ma’lumki, o‘smirlar davrining muhim jihatlaridan biri bu yoshda shaxs oilasidan va yaqinlaridan mustaqil bo‘lib shakllana boradi va jamiyatning kengroq qatlamlari, jarayonlari ta’siriga tusha boshlaydi. Bolalar mutolaasidan farqli ravishda, o‘smirlar mutolaasida ijtimoiy muhit, xususan, aholining umumiy mutolaa madaniyati, OAV va umuman, davlat va jamiyatning mutolaa hodisasiga munosabat yo‘nalishi va darajalari kabi holatlar ham ta’sir qiladi.

Shu boisdan o‘smir-yoshlar mutolaasi haqida gap ketganda ushbu jarayonga davlat va jamiyatning e’tibori, huquqiy asoslarning yaratilganligi, maxsus mutolaa xizmatining tashkil etilganligi va bu subyekt manfaatlari va qiziqishlarini qondira olayotganligi bilan bog‘liq holatlar muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Shuningdek, o‘smir yoshida shaxsga yaqin atrofdagilar, xususan, tengdoshlari va o‘qituvchilarining ta’siri sezilarli bo‘la boshlaydi. O‘smirlar davrida tengdoshlarning bir-birlariga ta’siri darajasi yuqori ekanligini e’tiborga olgan holda, bu davrda mutolaa madaniyatini tarkib toptirishda individual ta’sir ko‘rsatish texnologiyalari bilan birga, ommaviy va guruhiy ta’sir ko‘rsatish usullaridan ham keng foydalanish, ya’ni faqat bir shaxsning emas, balki butun guruhning mutolaa madaniyatini o‘stirish lozim bo‘ladi deb o‘ylaymiz. O‘smirlar ma’naviyati tadrijiy rivojlanib boruvchi faol jarayon ekanligini e’tiborga olgan holda, o‘smirlar tarbiyasiga mas’ul ijtimoiy institutlar – oila, ta’lim muassasasi, mahalla va boshqalar ularning kitobxonlik madaniyatini maqsadli va rejali ravishda shakllantirib borishlari lozim deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 146
2. Авлоний, Абдулла. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 31-бет.
3. Китоб маҳсулотларини нашир этиши ва тарқатилиши тизимини ривожлантириши, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириши ҳамда тарзиб қилиши бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори, ПК-№3271
4. Умаров А. Мутолаа маданияти: шахс, жасамият, тараққиёт. – Тошкент: Фан, 2004. – 194 6.

Muhitdinova Dildora Alisher qizi,
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti xodimi

OILA TARBIYASIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya. Maqolada oilaning muqaddas dargoh ekani, u har qanday jamiyatning asosini tashkil qilishi haqida so'z yuritiladi. Oila tarbiyasi haqida gap ketganda, avvalo, oilaning o'zi nima ekani, uning ichki qurilishi, insoniyat taraqqiyotida tutgan o'rni, ahamiyati haqida gapiriladi. Oiladagi tarbiya nimalar asosida qurilishi, bu asosning tarixiy yo'li, o'tmish ajdodlarimizning oilaviy munosabatlar borasidagi izlanishlari yoritib beriladi. Har bir oilaning o'z maktabi, an'analari, urf-odatlari haqida gap boradi. Oila a'zolari, ota-onasi va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'rni va ahamiyati haqida gap boradi.

Kalit so'zlar: oila, er-xotin munosabatlari, ota-onasi va farzandlar munosabati, oiladagi tarbiya, milliy va umuminsoniy qadriyatlari, oila maktabi, oilani qo'llab-quvvatlash, oila barqarorligi, oilada shaxsning shakllanishi.

Аннотация. В статье говорится о семье, о том, что семья – это самое святое, составляющая основа любого общества. Когда мы говорим о семейном воспитании, в первую очередь мы говорим о том, что такое семья, ее внутреннем устройстве, о ее роли и значении в развитии человека. В исследованиях раскрыты на чем строится основа семейного воспитания, исторический путь возникновения этой основы, исследования наших предков в области семейных отношений. Говорится что в каждой семье есть своя школа, традиции, обычаи. Отмечается роль и важность национальных и общечеловеческих ценностей во взаимоотношениях между членами семьи, родителями и детьми.

Ключевые слова: семья, супружеские отношения, отношения между родителями и детьми, семейное воспитание, национальные и общечеловеческие ценности, семейная школа, поддержка семьи, стабильность семьи, формирование личности в семье.

Annotation. The article talks about the family, the fact that the family is a sacred place and it is the basis of any society. When we talk about family upbringing, first of all we talk about what a family is, its internal structure, its role and importance in human development. What is the basis of family upbringing, the historical path of this foundation, the research of our ancestors on family relations. Each family has its own school, traditions, customs. It discusses the role and importance of national and universal values in the relationship between family members, parents and children.

Key words: family, spouse relations, parent-child relationship, family upbringing, national and universal values, family school, family support, family stability, formation of personality in the family.

Oila – har qanday jamiyat va har qanday sivilizatsiyaning asosidir.
Rabindranat Tagor

Oila – muqaddas dargoh. Oila – nikoh munosabatlari bilan chambarchas bog'lanuvchi, shu tariqa er-xotin munosabatlarini tartibga soluvchi, jamiyat ichida kichik jamiyat sifatida shakllanib, jamiyatning asosini tashkil etuvchi poydevordir. Oila jamiyatning tayanchi, uning birlamchi yadrosidir. Oila tarixi Odam Ato va Momo Havodan boshlangani haqida rivoyat qilinadi. Zero, oila ikki insonning chin muhabbat, mehr-u oqibati asosiga quriladi, rivojlanadi, farzandlar tug'iladi, shu tariqa ijtimoiy taraqqiyot vujudga keladi. Dunyodagi har bir insonning o'z tabiatini, xususiyatlari mavjud. Har bir insonning o'zi bir dunyo. Oila ana shunday ikki olamning birlashuvi asnosida qurilar ekan, uning o'ziga xos qirralari namoyon bo'ladi. Ikki inson bir butun bo'lib bitta oila muhitini tashkil qiladi. Har bir oilaning o'z an'analari, qadriyatlari, urf-odatlari shakllanadi. Shu oilada tug'ilgan farzandlar ana shu oila qonun-qoidalari asosida tarbiyalanadi. Oila maktabi o'z farzandini jamiyatga tayyorlab beradi. Farzandlar aynan mana shu oilada jamiyatning butun bo'y-bastini his qiladi, uni anglaydi va qabul qiladi. Binobarin, oila tarbiyasi, oila muhiti, oila qonun-qoidalari, urf-odat va an'analari

farzandlarning jamiyatdagi o‘rnini belgilab beradi. Shu nuqtayi nazardan jamiyatimiz oilaga – uning asosi bo‘lgan er-xotin oldiga qator vazifalarni qo‘yadi. Bu jihatdan jamiyatimizdagi oila maktablarining, oila institutlarining yigit-qizlarni oilaga tayyorlash, oila tutish, uni barkamol oila darajasiga ko‘tarish borasida eng yaxshi dasturlar asosida izchil izlanishlar olib borishi maqsadga muvofiq.

Oila haqida gap ketganda, avvalo, oilaning o‘zi nima ekani, uning ichki qurilishi, insoniyat taraqqiyotida tutgan o‘rni va ahamiyati haqida to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Oila bu inson uchun eng aziz bo‘lgan odamlar – har qanday sharoitda suyanchiq bo‘ladigan, qo‘llab-quvvatlaydigan, mehr beradigan, asrab-avaylaydigan, hayot yo‘llarida yonma-yon odimlaydigan yaqinlardir. Doim xayolning bir chetida turadigan, xursandchilikni bo‘lisha oladigan, qiyinchiliklarda yordam beradigan yaqinlardir. Oila deganda har bir insonning ko‘z oldiga birinchi galda ota-onas, er- xotin, farzandlar keladi. Bir so‘z bilan aytganda, oila tayanch bo‘ladigan, umid beradigan, hayotning mazmunini ifoda etadigan go‘sadir. Ana shu oila kichik bir davlatdir. Jamiyatning bir bo‘lagidir. Tarixga nazar soladigan bo‘lsak, azal-azaldan yangi oila qurilayotganda, avvalo, ota-onadan rozilik olingenining guvohi bo‘lamiz. Ota-onas roziligidini olgan yoshlar bir-birlari oldida burch va mas’uliyatlarini sidqidildan bajarishga va’da bergenlar. Chunki inson hayoti oila deb atalgan poydevor ustiga quriladi. Har bir insonning shakllanishi mana shu oiladan boshlanadi. Xalqimizda oilani asrash azaldan muqaddas vazifa sanalgan. Bu tuyg‘u asrlar osha avloddan avlodga o‘rib kelmoqda. Oilada o‘sayotgan o‘g‘il-qiz o‘z yaqinlarini tez tanib oladi, ularga taqlid qiladi, o‘rganadi, o‘rnak oladi. Oilaning muqaddas ekani yoshligidan ularning ongaga singib boradi. Shu bois ham urf-odatlar, an’analalar, madaniyatimizdan ozuqa olgan farzandlarimiz tafakkuriga yoshligidan ota-onani hurmat qilish, oqibatl bo‘lish, mehr-muhabbat umlahish, o‘z oilasi uchun qayg‘urish hissi singib boradi. Muqaddas zaminimizda qadimdan milliy urf-odatlar va an’analarni yosh avlodning ongiga singdirishda, ularni jismonan barkamol, ma’nан yetuk inson qilib tarbiyalashda oila muhim o‘rin tutgan. Keksalarning ibratli hayot yo‘li, o‘gitlari, tajribalari yoshlarimizni to‘g‘ri yo‘l tanlashlarida yo‘lboshchi bo‘lgan.

Har bir oilada tarbiya nimalar asosida qurilishi juda muhim. Oilaning tinchligi, farovonligi, gullab-yashnashi avvalo er-xotin munosabatlariiga borib taqaladi. Er-xotin munosabatlari farzandlarning qay darajada komil inson, shaxs bo‘lib yetishishlarini belgilab beradi. Oila tinchligi farzandlar tinchligining garovidir. Er-xotin o‘rtasidagi murosa va totuvlik ular o‘rtasida muhabbat, inoqlik va mehribonlik tuyg‘ularini ham paydo qiladi. Har bir inson millati, tili, dinidan qat’iy nazar baxtli va saodatlari yashashga intiladi va bunga haqli bo‘ladi. Bu yuksak orzuga yetishishning sharti va garovi bo‘lgan omillar ko‘p. Shu omillar ichida eng asosiysi hayotimizga mazmun beradigan va uni yanada yorug‘ qiladigani oila baxtidir. Oila mustahkam bo‘lsa, jamiyat, mamlakat ham mustahkam, barqaror bo‘ladi. Bu esa ko‘p jihatdan er-xotin munosabatlari asosiga quriladigan barqarorlikdir. Oilada er-xotin huquqlari, burch va mas’uliyati birdir. Er-xotin oila tinchligi, farovonligi, xotirjamligi, farzandlar tarbiyasi va salomatligi oldida barobar javobgardirlar. Zero, “er-xotin bir tutun”dir. Oiladagi er-xotin munosabati milliy va umuminsoniy qadriyatlargacha suyanganda oiladagi tarbiya to‘g‘ri yo‘nalishda ega bo‘ladi. Oiladagi tarbiyaning milliy qadriyatlargacha suyanishi uning tinchligi va farovonligiga yanada garov bo‘ladi. Oila jamiyatning bir bo‘lagi ekan, uning asosi yuksak darajada milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan sug‘orilgan bo‘lishi lozim.

Oila, oilaviy tarbiya haqidagi tarixiy manbaalarga nazar soladigan bo‘lsak, bu borada salaflarimiz tomonidan asrlar mobaynida ishlab chiqilgan, sayqallangan boy merosining ulkan tarbiya maktabi ekanligiga guvohi bo‘lamiz. Markaziy Osiyoga islom dini kirib kelgunigacha mavjud bo‘lgan ta’limotlar (yahudiylilik, zardushtiylik, buddaviylik, xristianlik); IX-XII asrlarda, ya’ni islom Uyg‘onish davridagi ta’limotlar (Qur’oni karim, hadislar, pandnomalar, mutafakkirlarning ta’limotlari: Farobi, Beruniy, Ibn Sino); XIV-XV asrlar, ya’ni Amir Temur va temuriylar davrida mavjud bo‘lgan ta’limotlar; XVI-XIX asrlarda, xonliklar davridagi ta’limotlar; Markaziy Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingen davridagi ta’limotlar (XIX asr 60-yillarining oxiri va 1917yilning oktyabr inqilobidan 199-yil avgust oyi davrigacha mavjud bo‘lgan ta’limotlar); Ittifoq davridagi ta’limotlar (1917-yil oktyabr inqilobidan 199-yil avgust oyi davrigacha mavjud bo‘lgan ta’limot) ; Mustaqillik davri, ya’ni 1991-yilning sentyabr oyidan hozirgi davrgacha bo‘lgan ta’limotlar.

Millatimiz va xalqimizning 3000 yil avvalgi ko‘hna madaniyatidan saboq beruvchi, ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal ulug‘langan “Avesto” yozma yodgorligida oila mustahkamligini saqlash, nikoh tartiblari, er-xotin majburiyatları, nikoh tuzish va bekor qilish qonun-qoidalari batafsil ko‘rsatib o‘tiladi. Asarning maxsus boblarida Axura Mazda yoki Zardushtning kelin-kuyovlarga da’vati, murojaatlari keltiriladi. Turkiy xalqlarga xos urf-odatlarga ko‘ra, nikoh qat’iy qonun-qoidalalar asosida tashkil etilgan. Oilada qarindosh-urug‘lar,

oqsoqollar, keksa chol-kampirlar maslahati va yo‘l-yo‘riqlariga rioya etilgan. “Avesto” da zardo‘shtiylikning oltin qoidalaridan biri – oila muqaddas sanalgani bois, ayrim sabablarga ko‘ra, ya’ni ig‘vo, tuhmat, erxotinning o‘zaro kelishmovchiligi, ota-onan bilan murosa qila olmaslik kabi bahonalar bilan nikoh bekor qilinishiga yo‘l qo‘yilmagan.

Turkiy xalqlarning yana bir yodgorligi “Irq bitigi” da ramziy lavhalarda oila hayotining turli manzaralari, baxt va baxtsizlik tushunchalari tahlil etilgan. Garchi, ba’zi manzaralar oddiy, sodda tuyulsada, lekin ularda qadimgi davr odamlarining oila muhitidagi ma’naviy-axloqiy prinsiplari aks etadi. Bitigda insonning qadr-qiymati, burchi, jamiyatda tutgan o‘rni, mavqeyi, yaratuvchilik salohiyati, eng avvalo, oiladagi o‘rni bilan belgilanishi ta’kidlanadi. Oilaviy hayot, oila tarbiyasining tarixiy asoslari haqida so‘z yuritilganida, diniy qadriyatlar va xalq pedagogikasiga oid manbalar muhim ahamiyatga molik ekanini eslash joiz. Islom dini oilaviy munosabatlarning hayot haqiqatlariga,adolat tuyg‘usiga va insonparvarlikka asoslangan ma’naviy mezonlarni yaratdi. Ayollarning oila va jamiyatdagi haq-huquqini belgiladi, onalik burchiga, bolalari uchun murabbiylik faoliyatiga yuksak e’tibor berdi. Qur’onda bayon qilinishicha, muslimalar ma’naviy jihatdan erkaklar bilan teng huquqqa ega bo‘lib, jismoniy jihatdan zaif bo‘lganliklari uchun aslo kamsitilmasliklari lozim. Chunki Alloh erkakni erlarga xos, ayolni esa ayollarga xos xususiyatlar bilan yaratdi.

Oilaning jamiyatda tutgan o‘rni, oila tarbiyasi, ota-onan farzandlar o‘rtasidagi munosabatlar, shuningdek, oilaning pokligi va mustahkam bo‘lishiga oid qimmatli fikrlar hadislarda muhim o‘rin egallaydi. Hadislarda islom diniga xos insonparvarlik va adolat mezonlari namoyon bo‘ladi, nikohning ilohiyligi, oilaning muqaddasligi ta’kidlanadi, er va xotin o‘rtasidagi burch, poklik, iffat, o‘zaro bir-birini hurmat qilish tuyg‘ulari ulug‘lanadi. Hadislardan xalq donishmandligi namunalari bo‘lib kelgan og‘zaki ijod namunalari hamda xalq pedagogikasiga kuchli ijobiy ta’sir etib kelgan, boyitgan.

Xalqning oilaviy-maishiy hayot tarzi, axloq-odobga chorlovchi hayotiy yo‘l-yo‘riqlari, ibratli, mazmunga to‘liq og‘zaki ijod namunalari avloddan avlodga, og‘izdan og‘izga o‘tib, takomillashgan chinakam hayot maktabidir. Xalq danishmandligini namoyon etuvchi og‘zaki ijod namunalari bo‘lmish mashhur hind masallar qomusi “Kalilla va Dimna”, Nizomulmulkning “Siyosatnama”, Nosir Xisravning “Saodatnama”, “Ro‘shnoinoma”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk”, Kaykovusning “Qobusnama”, Saadiyning “Guliston”, “Bo‘ston” kabi asarlarida oila tarbiyasi ijtimoiy turmushning eng muhim masalalari sifatida talqin etiladi. Oila tarbiyasi jamiyatdagi tarbiya jarayonining eng muhim, eng nozik nuqtalaridan ekani Amir Temur davriga oid tarixiy manbalar mazmun-mohiyatida yanada yaqqol ko‘zga tashlandi. Sohibqiron jamiyatni olg‘a yetaklovch, rivojlantiruvchi ichki omil – oila ekanini juda teran his etgan. Amir Temur nasl-nasab tozaligi, avlodlar davomiyligi, farzandlarni ahli solih etib tarbiyalash masalalariga alohida e’tibor bergen. Amir Temur raiyatning tinch-osuda hayot kechirishi, xonardonlarning daxlsizligini, yangi barpo bo‘layotgan oilaning har jihatdan benuqson va poklik asosiga qurilishini davlat ahamiyatiga molik masala deb qaragan. Sog‘lom avlod mamlakat kelajagini ta’minlovchi asosiy omil ekanini yaxshi anglagan.

Jamiyat va oila mushtarakligi, oila va kishilik jamoalari dialektikasi so‘z mulkining sultonii Mir Alisher Navoini ham ko‘p o‘ylantirgan muammolaridan ekani sir emas. Mutafakkir shoirning barcha asarlarida insonparvarlik, ezzulik g‘oyalari ilgari suriladi. U farzandning ota-onan oldidagi burchini “majburiyat” deb ataydi. Ota-onan esa farzand uchun har qanday sir-sinoat, mashaqqat-mehnatga tayyor turishi, farzand kelajagi uchun barcha mushkulotlarni yengib o‘tishi ham qarz, ham farz ekanini uqtiradi.

Tarixning burilish pallalarida jamiyat poydevori bo‘lgan oila va uning taqdiri haqida jadid ma’rifatparvarlarining xizmatlari alohida o‘z o‘rniga ega. Jadidchilik namoyondalari inson va mamlakat taqdiri, ularning kelajagi, yutuq yoki kamchiligi, yuksalish yoki tanazzuli oilaviy muhit bilan uzviy bog‘liqligini chuqur his qildilar hamda oilaning jamiyatda tutgan mavqeyi, oila tarbiyasi va ma’naviyati xususida ilmiy tadqiqotlar yaratishga kirishdilar. Jadidchilik namoyondalari Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy va boshqalar tomonidan e‘lon qilingan qator maqolalarda jamiyatning ma’naviy qiyofasi oilalarning qandayligiga bog‘liq bo‘lishi atroflicha tahlil etildi. Ma’rifatchilar jamiyat taqdiri oila muhitiga bog‘liq bo‘lsa, oila madaniyatining o‘zi kimga va nimaga bog‘liq, degan savolni o‘rtaga qo‘ydilar. Ularning fikricha, agar oilada sog‘lom turmush tarzi ustuvor bo‘lib, farzand har jihatdan to‘g‘ri tarbiya topgan bo‘lsa, u, shubhasiz, o‘zidagi ijobiy fazilatlarni xizmat jarayoniga ko‘chiradi, ijtimoiy mehnat faoliyatida qo‘llaydi, natijada jamiyatdagi barcha munosabatlarga ta’sir o‘tkazadi. Zero, oilaning go‘zal odob-axloq, xushmuomalalik, samiyimiylik, mehnatsevarlik, ilm-ma’rifatga hurmat asosiga qurilishi

g‘oyat muhim masala bo‘lib, bu ijtimoiy munosabatlarga muntazam ta’sir etib, unga kuch-quvvat berib turuvchi yagona omilga aylanadi. Bu o‘rinda Maxmudxo‘ja Behbudiyning “Sag‘irlar haqinda”, Hifzi sihati oila” (Oila sog‘lig‘ining himoyasi), Abdusalom Azimiyning “Ta’lim va tarbiya”, Ibratning “Millatni kim isloh etadi?”, Abdurauf Fitratning “Buxoro hukumatining islohhorona qadamlari”, Mirmuhsinning “Ahvoli zorimiz” kabi “Oyna” jurnalida chop etilgan maqolalari oila tarbiyasiga oid muhim muammolarni ko‘tarib chiqqanini ta’kidlash zarur. Jadidchi ma‘rifatchilar yangi davr va yangi tuzum uchun kurashni oilani isloh qilishdan boshlamoq lozim, deb hisoblaydilar.

Oila hayotining shakllarini jiddiy o‘rganish XIX asrda boshlangan. Y.I.Semenovning “Nikoh va oilaning kelib chiqishi” nomli asarida ta’kidlanishicha, “Oila shakllanishining tarixiy bosqichida ishlab chiqarish faoliyati yaxshi bo‘lishi uchun nafaqat ishlab chiqarish munosabatlarining ma’lum tizimi bo‘lishi talab qilingan, ya’ni xususiy mulkchilik munosabatlari, taqsimlash, balki ishlab chiqarish birlashma a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan”. Oila bo‘yicha ko‘tarilgan dastlabki ilmiy masalalar I.Baxoven, L.Morgan, M.Kovalevskiyalar ishlari bilan bog‘liq.

M.Holmatovning yozishicha: “Oila mafkuraviy tarbiyaning muhim ijtimoiy omillaridan biridir. Chunki oila jamiyat negizi bo‘lib, ko‘p asrlik mustahkam ma’naviy tayanchga ega. Milliy mafkuramizga xos bo‘lgan ilk tushunchalar, avvalo, farzandlar ongiga oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o‘giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi. Oiladagi sog‘lom muhit sog‘lom mafkurani shakllantirish manbayidir”. Shu o‘rinda, ta’kidlash kerakki, Sharq xalqlari hayotida zamin, oila, ota-onalik, bolalar, qarindosh-urug‘, umuman olganda, davlat mustaqilligiga sadoqat, insonga hurmat, ishonch, xotira, vijdon, erkinlik kabi tushunchalar keng ma’no kasb etadi. Agar inson o‘zini xalqning bir zarrasi deb hisoblasa, xalqni o‘ylasa va uning manfaati yo‘lida mehnat qilsagina, ma’naviy axloqqa aloqador bo‘ladi.

Mamlakatimizda sog‘lom oilani shakllantirish va oilada yuksak ma’naviy-axloqiy muhitni qaror toptirish uchun zarur shart-sharoit yaratish, yoshlarni oila qurishga tayyorlash, oilalar mustahkamligini va manfaatlarini ta’minalash, sog‘lom farzand o‘stirish, tarbiyalash va voyaga yetkazish masalasi davlat siyosati darajasidagi masaladir. Bunda, avvalambor, oilaning muqaddasligi hamda nikoh mas’uliyati bo‘yicha kelajakda oila quradigan yigit va qizlarimiz tafakkurini, ongini o‘zgartirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Qizlarimiz ongida onalik, o‘g‘illarimizda esa ota bo‘lish ias’uliyatini shakllantirish, bunga ularni tayyorlash, yosh oilalarning huquqiy savodxonligini tubdan yaxshilash va oilada bolaning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan tadbirlar ko‘lami kengaymoqda. Binobarin, oila farovonligi millat farovonligining asosidir. Hayot, taraqqiyot doimiy yuksalishda, yangi-yangi marralar sari odimlayveradi. Yurtimizning ertangi kuni, taraqqiyoti uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir yetuk mutaxassis yoshlar Vatanimiz rivoji yo‘lidagi ezgu sa’y-harakatlarni amalga oshiradigan, ro‘yobga chiqaradigan qudratli kuchdir.

XX asrning 50-yillaridan boshlab jamiyatda yuzaga kelgan global ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy o‘zgarishlar natijasida odamlar ma’lumotlilik darajasining o‘sishi, ayollarning xalq xo‘jaligining turli sohalarida faol ishtiroy etishi, mehnat faoliyati ta’sirida oila sharoitida er-xotin munosabatlarining o‘zgarishi, o‘z navbatida, oila-nikoh munosabatlariga ta’sir ko‘rsatdi. Bu haqda M.N.Shmelev shunday fikr bildiradi: “jamiyatning bir bo‘lagi bo‘lmish oila o‘z rivojlanishining turli bosqichlarini o‘tishida harakat strategiyalarining o‘zgarishi, tashqi tarixiy sharoitlarga bevosita bog‘liq bo‘ladi”. Bugungi kunda oilada jismonan sog‘lom, ma’nana barkamol, axloqan pok va yuksak madaniyatli insonni voyaga yetkazish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Buning uchun, avvalo, oila tarbiyasiga alohida e’tibor berish kerak. Oila tarbiyasi deganda, bola rivojlanishi uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratishga yo‘naltirilgan ijtimoiy hayotga tayyorlashga, har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirishga qaratilgan faoliyat tushuniladi. Sharq axloqshunosligidan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, oila tarbiyasi bolaning tug‘ilgan kunidan boshlanadi, uning to‘la mustaqil, individual va o‘ziga xos bo‘lganicha uzluksiz davom etadi.

Oilaviy tarbiyaning asosiy namunaviy shakli – er-xotinning o‘zaro izzat-hurmati, xushmuomala va shirinso‘zligi, bir-biriga yordam berishi va hamjihatligidir. Bu bolalar tarbiyasida ham muhim ahamiyatga ega. Farzand aytilgan nasihatni esidan chiqarishi mumkin, biroq ko‘rganini hech qachon esidan chiqarmaydi. Olimlarning ta’kidlashicha, oila tarbiyasi mazkur oilaning mustahkamligini saqlashda, undagi munosabatlarni aniq maqsadlarga qaratish va yo‘naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Oila qurishdan maqsad bolalar tarbiyasi bilan bog‘langan bo‘lsa, er-xotinning shaxs sifatida yanada rivojlanib borishini asoslasa hamda oila uchun zaruriy narsalarini – uyning shinamligi va orastaligini ta’minalashga qaratilgan bo‘lsagina, oilaviy

munosabatlar yanada mustahkamlanadi. Oila tarbiyasi asosan ota-onalar va oilaning yoshi katta a'zolari tomonidan amalga oshiriladi. Oila tarbiyasida muvaffaqiyatga erishish ko'p jihatdan oilada ham ota, ham onaning bo'lishi, ularning birdamlik va tenglikka erishishi, kuch-g'ayratlarini birlashtirishlariga bog'liq. Bu borada Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanidagi qahramonlarning bir-birlariga bo'lgan muomalamunosabatlari, ularning hatto kichik farzandlarini ham "siz"lab gapirishlari misolida ota-bobolarimizning oila ma'naviyatiga qanchalar katta e'tibor bergenlarini yodga olishimiz mumkin.

Ma'naviyat, axloq-odob va ma'rifat madaniy merosning tarkibiy qismlari bo'lib, ularda xalqimizning dahlilik quadrati, dunyoqarashi, ma'naviy-ruhiy qiyofasi, ezgulik, yaxshilik haqidagi qarashlari o'z ifodasini topgan bo'ladi. Binobarin, madaniyat, ma'naviyat, axloq, ma'rifat, meros g'oyat keng qamrovli tushunchalar bo'lib, unda tarixan tarkib topgan muayyan xalqning ko'p asrlar davomida to'plagan moddiy va ma'naviy boyliklari, tili, so'z san'ati, qadriyatları, boy tarixi, tarixiy yodgorliklari, an'ana va rasm-rusmlari umumlashgan va mujassamlashgan bo'ladi.

Oila tarbiyasi ana shu umumlashma va mujassamlik zaminida mavjuddir. Oila tarbiyasi – bu umumiy ijtimoiy tarbiya jarayonining shunday bosqichiki, u insonning keyinchalik butun umri davomida oladigan ma'rifat va hayot saboqlari uchun asos, zamin, poydevor vazifasini o'taydi. Oila tarbiyasida oilaning barcha a'zolari ishtirok etadilar, bir-birlariga o'z bilim, tajribalarini o'rgatadilar. Bu jarayon bir umrga davom etadigan jarayondir. Bu jarayon – katta turmush maktabi, malaka va xislatlarni tayyorlovchi dargoh. Shu nuqtayi nazardan oila tarbiysi: iqtisodiy bilimlar berish; xo'jalik yuritishni tashkil etish; axloqiy talablar, normalar, qoidalarni o'rganish va shakllantirish; kasb-hunar o'rgatish; mehnatni to'g'ri tashkil qilish; estetik didni shakllantirish; huquqiy bilimlarga ega bo'lish; diniy ta'limot berish; sog'lom turmush tarziga o'rgatish; oila qurishga tayyorlash; burch va vazifalarni bilishga o'rgatish; tibbiy bilim berish; gigiyena va sanitariya qoidalarni o'rgatish; ruhiy-emotsional muvozanatni tarbiyalash; o'zini idora etishga o'rgatish; boshqalarga zarar yetkazmaslikka o'rgatish; sokinlik va muloyimlikka o'rgatish kabi ko'plab yo'naliishlarda o'qituvchilik qilishi shart va lozim bo'lgan ulkan o'quv maskan – oila institutidir. Bundan tashqari, xalqimizning milliy-madaniy merosi mohiyatini tashkil etuvchi umrboqiy an'analar, halollik, or-nomus, rostgo'ylik, sharm-hayo, mehr-muruvvat, mehr-oqibat, ezgulik, samimiylilik, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar ham mana shu oilada singdiriladi. Oila o'zining tarixiy mazmun-mohiyatiga ko'ra har bir xalq va millat uchun o'ziga xos tabiyatli xususiyatlarni ham o'zida namoyon etib boradi.

O'zbek oilasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri – oilada yoshi ulug' qariya va momolar, bobo va buvilarning yuksak mavqe va martabaga egaligi bo'lib, ular hamisha izzat-ikrom qilinadi, barcha masalalarda ulardan izn olib, so'ng ish boshlashga amal qilinadi. O'zbek oilasiga xos mazkur xususiyat, qadriyat bugungi kunda yanada sayqallanib borayotgani ko'zni quvontiradi. Oila tarbiyasi har qancha o'ziga xos bo'lmasin, u asosan, yagona manbadan oziqlanib, o'sib, o'zgarib boradi. Bu manba milliy-madaniy merosdir. Oila shu merosning ajralmas bir bo'lagidir. Har bir oila jamiyatda paydo bo'lib, shu jamiyat ichida yashaydi, shunga ko'ra, oilaviy munosabatlar jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, mafkuraviy, ma'naviy-ma'rifiy munosabatlar bilan belgilanadi hamda ular ta'sirida takomillashib boraveradi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, oila jamiyatning muhim hujayrasi bo'lib, jamiyatning normal rivojlanishi, aholining ko'payishi, yosh avlodning jismoniy va ma'naviy tarbiyasini, insonning tabiiy ehtiyojlari: sevgi, muhabbat va muloqatni ta'minlaydi. O'zbek xalqi oilaviy turmush, er-xotin munosabatlari, ularning vazifa va burchlari, sifat va fazilatları aks etgan muqaddas diniy manbaalar, o'zbek xalq og'zaki ijodi, Sharqning buyuk mutafakkirlari va ma'rifatparvar ziyyolilari asarlarida jamlangan qimmatli ma'lumotlarga ega. Ulardan hozirgi yoshlarni oilaviy turmushga tayyorlashda va oilaviy turmush amaliyotida samarali foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bundan tashqari, bugungi kunda oila tarbiyasi yo'naliishida milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'zaro uyg'unlik kasb etgan. O'z an'analarini ajoddlarning boy tajribalari asosiga qurgan va ularni muntazam boyitib borishga odatlangan, sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitga ega bo'lgan oila har qanday ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda ham o'zligini yo'qotmaydi va hamisha o'z davri bilan hamnafas va hamkor bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Нажмиодинова К.У.. *Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy ahlok madaniyatiniñg ýrni.* – Тошкент: Адолат, 2016. – 224 б.
2. Махсумов С. *Oilaviy қадрияtlar-жамият мустаҳкамлигининг асосий шарти.* // Халқ сўзи газетаси, 2021 йил 1 май.

3. Умаров Э., Абдуллаев М. Маънавият асослари. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Шарқ НМАК, 2005. – 128 б.
4. Холматова М. Оиласий муносабатлар маданиятини таомиллашириши ва соглом авлодни тарбиялаши муаммолари: ф.ф.д.дис. – Тошкент, Тошкент Давлат аграр университети, 1998. – 270 б.
5. Махмудов Т. Авесто нақида. – Тошкент, Шарқ, 2000, – 32 б.
6. Каримов И. Тарихий хотиралариз келажсак йўқ.//Мулоқот. – Тошкент, 1998. 5-сон, 5-6.
7. Авесто – тарихий-адабий ёдгорлик. – Тошкент.: Шарқ НМАК, 2001, 3-20 бетлар.
8. Куръони Карим. (Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур). – Тошкент: Чўлтон, – 49 б.
9. Маргиноний Б.. Нидоя. I-жилд. Никоҳ китоби. – Тошкент: Адолат, 2000. 645-бет.
10. Алишер Навоий. Найрат ул-аброр. – Т.: G'.G 'улом номидаги Адабиёт ва санъат нашириёти, 1989. 261-262-бетлар.

Jabborova Onaxon Mannopovna,
TVChDPI boshlang'ich ta'lim kafedrasи mudiri

BOSHLANG'ICH 4-SINF O'QUVCHILARINING MATNNI O'QISH VA TUSHUNISH DARAJASINI BAHOLASHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. Maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholashda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishga oid tavsiyalarga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: o'quvchi, bilim, baho, birlamchi xulosa.

Аннотация. В статье даны рекомендации по использованию инновационных педагогических технологий при оценке чтения и понимания текста учащимися младших классов.

Ключевые слова: ученик, знания, оценка, выводы.

Annotation. The article provides recommendations on the use of innovative pedagogical technologies in assessing the reading and understanding of the text by primary school students.

Key words: pupil, knowledge, assessment, conclusion.

О'zbekiston Respublikasi demokratik, huquqiy va fuqarolik jamiyatini qurish yo'lidan borayotgan bir paytda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi va harakatga keltiruvchi kuchi har tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyalashdan iboratdir.

Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin takomillashib borayotgan axborot-ta'lim muhit sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir.

Ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar egallanayotgan bilimlarni o'quvchilar tomonidan o'zlari qidirib topishlari, mustaqil o'rganib, ularni tahlil qilishlari, o'z bilimlarini baholashlari, to'g'ri xulosalar chiqarishga qaratilgan. Bunday o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchi markaziy ishtirokchiga aylanadi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, pedagogik texnologiyalardan foydalanish shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatini kengaytiradi.

Pedagogik texnologiyaning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga:

– o'quvchining dars davomida befarq bo'lmassislikka, mustaqil fikrash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi;

– o'quvchilarning o'quv jarayonida fanga bo'lgan qiziqishlari doimiyligining ta'minlanishi;

– o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirilishi;

– pedagog va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati muntazam tashkil etilishi kiradi.

O‘qituvchi va o‘quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo‘lib, bunda ishlataladigan texnologiya o‘quvchilarning bilim saviyasi, guruh tabiatи va sharoitga qarab tanlanadi.

Boshlang‘ich (4-sinf) sinfda o‘qish savodxonligini oshirishda, o‘quvchilarning o‘qish natijalariga aynan ta’sir qiluvchi omillarni aniqlab olish zarur. Bu o‘qituvchiga o‘rgatishi kerak bo‘lgan materialni tez va oson yo‘l bilan o‘quvchilarga yetkazishda yordam beradi. O‘quvchilar matnni o‘qib, tushunishlarida va qiyalmasdan hikoya qilishlarida dars berishning zamonaviy – “Muammoli vaziyat”, “Rolli o‘yinlar”, “Zinama-zina”, “FSMU”, “Sinkveyn”, “Assesment”, “Bumerang”, “Zanjir” usullaridan foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Har bir o‘quvchini bir darsni o‘zida eshitib, tahlil qilish imkoniyati kamdir. Shuning uchun “Kichik guruhlarda ishslash” usuli ushbu muammoni hal qilishga yordam beradi. Bunda sinfxonasidagi o‘quvchi partalarining joylashuvini o‘zgartirish shart emas. Har ikkita parta ketma-ketligida guruhlar tashkil etiladi. Guruhlarga berilgan topshiriqlarni o‘quvchilar bajarib bo‘lishgunga qadar o‘qituvchi aylanib har bir guruhdagi faoliydarajasi kam bo‘lgan o‘quvchilarni aniqlaydi. Va ularni bu noqulaylikdan xalos qilish uchun mavzuga oid tuzilgan test savollarini hozirlaydi.

Masalan: G‘afur G‘ulomning “Shum bola” asari

1) darsning tashkiliy qismi o‘tkaziladi;

2) “bumerang” usulidan foydalanib ekranda “Shum bola” asarining videoroligidan parcha qo‘yiladi.

Ushbu parchadan o‘quvchilar bugungi mavzuning nomini topishadi;

3) o‘qituvchi muallif ijodi va “Shum bola” kitobi taqdimotini tez, tushunarli qilib o‘tkazadi. So‘ngra asar tahlil qilinadi;

4) “kichik guruhlar bilan ishslash” usulini qo‘llagan holda o‘quvchilarni guruhlarga bo‘ladi;

5) “zanjir” usulini qo‘llagan holda har bir guruhga konvert tarqatiladi. Konvertda 5 qismga bo‘lib solingen “Shum bola” asarini bo‘laklari bo‘ladi. Guruhdagi jamoa ishtirokchilari asarning har bir bo‘lagi bilan tanishib ketma-ketligini topib joylashtirish vazifasi beriladi. Ushbu jarayonga vaqt belgilanadi.

6) o‘quvchilar vazifani bajargunga qadar guruhlardagi faoliydarajasi kam bo‘lgan ishtirokchilar o‘qituvchi tomonidan o‘rganiladi;

7) har bir guruh o‘z ishlarini taqdimot qilishadi;

8) guruhlardagi aniqlangan o‘quvchilarga test ko‘rinishidagi topshiriqlar beriladi.

1-topshiriq

“Shum bola” asari qahramonining xarakteriga izoh bering.



2-topshiriq

“Shum bola” asarining qahramoni o‘rnida bo‘lsangiz siz qanday yo‘l tutgan bo‘lar edingiz? 9) guruh ishtirokchilarining natijalari e’lon qilinadi;



Foydalanilagan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori*
2. *“Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar” R.Ishmuhamedova, M.Yuldashev Toshkent. – 2013.*
3. *“Zamonaviy dars” O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi A.Avloniy nomidagi xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti. –Toshkent. – 2007.*
4. *“O‘qish” kitobi 4-sinf darsligi. – Toshkent. – 2017*



Abdullayeva Barno Pulatovna,
Chirchiq davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi,

Nazarova Surayyo,
BOT-19/1 guruh talabasi

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARING O‘RNI VA ROLI

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich ta’limda pedagogik texnologiyalarning o‘rni va roli haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, pedagogik texnologiyalar.

Аннотация. В статье рассматриваются роль и место педагогических технологий в начальном образовании.

Ключевые слова: начальное образование, педагогические технологии.

Annotation. The article examines the role and place of pedagogical technologies in primary education.

Keywords: primary education, pedagogical technologies.

Keyingi paytlarda pedagogika fani sohasida “pedagogik texnologiya” tushunchasining qo‘llanish doirasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etib borish tendensiyasi kuzatilmoxda. “Texnologiya” atamasining “texnika” so‘zi bilan chambarchas bog‘liqligi, asli sanoatga xos terminligini inobatga olgan holda boshlang‘ich ta’limda qo‘llash o‘rinli yoki nojoiqligi to‘g‘risida bahs-munozara yuritish ham mumkin. Biroq aksariyat olimlar o‘quv-tarbiya jarayonida ham ma’lum bir texnologiyalarning mavjudligi, uning zaruriyat ekanligini e’tirof etishmoqda.

“Pedagogik texnologiya” borasidagi bir-birini inkor etuvchi qarama-qarshi fikrlar, har xilliklar bo‘lishiga qaramasdan, bizning nazarimizda, pedagogik texnologiyalarga o‘quvchi-talabalarning muayyan takrorlanuvchi ketma-ketlikdagi amallarni bajarishlari orqali o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishlarini ta’minlashga xizmat qiladigan, pedagogik va iqtisodiy jihatdan asoslangan yakuniy natijalarini olish manbayi sifatida qarash maqsadga muvofiq.

Ma’lumki, texnologiyalarning o‘ziga xos jihatlari sifatida turli va bir xil sharoitlarda takror va ko‘p marta qo‘llanish- takroriylik, o‘quv-tarbiya jarayoni sifatini diagnostika qilish, bosqichma-bosqich turli sinovlarini amalga oshirish hamda qo‘yilgan maqsadlarning kafolatlangan natijalariga erishish xususiyatiga egaligi qayd etiladi.

Materiallarni o‘zlashtirish algoritmiga asoslangan o‘zlashtirish asoslari mustaqil o‘z-o‘zini rivojlantirishga mo‘ljallangan ko‘plab didaktik o‘quv qo‘llanmalarida pedagogik texnologiyalari elementlari ko‘proq ko‘zga tashlanmoqda. Real amaliyotda esa boshlang‘ich ta’limda zarur ko‘nikma va malakalarni shakllantirish texnologiyalarining ilmiy-uslubiy jihatdan to‘laqonli asoslangan yagona texnologiyalari asoslari ishlab chiqilmaganligi yoki aksariyat pedagoglarning undan xabardor emasligi bois ko‘proq xususiy mualliflik texnologiyalari orqali amalga oshirilmoqda.

Mutaxassislarning e'tiroficha, har qanday pedagogik texnologiyada o'z ifodasini topishi shart bo'lgan uchta daraja mavjud:

- 1)metodologik;
- 2)umumlashgan texnologiyalar;
- 3)konkret-metodik;

Agar metodologik daraja ilmiy pedagogik tafakkur hamda jamiyat ishlab chiqarish kuchlarining yaxlit rivojlanishini o'zida aks etsa, umumlashtirilgan pedagogik texnologiyalar darajasi keng ko'lamli o'qitish jarayonini nazarda tutadi.

Mazkur texnologiyalardan har qanday o'quv predmetini o'qitishda foydalanish imkonи mavjud. Bunday texnologiyalarga axborot, ta'limni dasturlash, modul, maqsadli ta'lim, dialog va boshqalarni kiritish mumkin. Va nihoyat, konkret-metodik daraja ma'lum bir pedagog tomonidan qo'llanadigan va boshqalar o'qituvchilar tomonidan qo'llanishga yaroqli texnologiya, pedagogik metod, vositalar, ularni qo'llashning amaliy usullari tahlilini amalga oshirish imkonini beradi. Tadqiqotchilariga fikrlariga ko'ra, umumlashgan texnologiyalar umumpedagogik nazariyalarni ifodalaydi, faqat uchinchi daraja- konkret-metodik texnologiyalar amaliy faoliyatda qo'llanilishi mumkin.

Texnologiyalarni kechish jarayonidagi o'ziga xosliklariga ko'ra ham turlarga bo'lish mumkin. Bularga maqsadlarga erishish (maqsadni belgilash va o'z oldiga qo'yish hamda uni amalga oshirish), maqsadni qo'yish turlari, madaniy-modul tipidagi texnologiyalar va boshqalarni kiritish mumkin.

O'qitishning pedagogik texnologiyasi bilan ta'lim metodlarining o'zaro chegaralarini ajratishda pedagogik texnologiyalarga yaxlit ishlab chiqarish tizimi sifatida qarash mumkinligi e'tirof etiladi. Buning uchun kutilayotgan samarali pedagogik natijaga erishishda texnologiyalarning barcha zaruriy shartlariga amal qilish talab etiladi.

Boshlang'ich ta'limda pedagogik texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos jihatlari mavjud. Bolalarning turli mashq va topshiriqlarni bajarishga o'rgatish betakror (ba'zan biri-biridan keskin farq qiladi) jarayon bo'lganligi bois texnologiyaning aynan takrorlanishi, shuningdek, kafolatlangan pedagogik natijalarga erishish to'g'risida gapirishda o'ta ehtiyyotkorlik talab etiladi. Aniqroq qilib aytganda, ishlab chiqilgan texnologiyalarning boshlang'ich sinf o'qituvchilar tomonidan aynan qo'llash har doim ham samara beravermaydi. Chunki boshlang'ich sinf o'qituvchilar faoliyati, ular amalga oshiradigan mashg'ulotlar ijodiy xarakterga egaligi, variativligi, har bir darsning sharoiti, bolalarning tayyorgarlik darajasi turlicha bo'lishi tabiiy.

Pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq qilish samaradorligini belgilovchi shart-sharoitlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. o'quvchilarning o'ziga xos qobiliyat, temperament, xarakter, yosh xususiyatlari singari psixofiziologik jihatlarga egaligi. Har bir bolaning faqat o'ziga xos saralangan sifat va fazilatlari, balki ularning alohida rivojlanish xususiyatlari egaligini ham unutmaslik kerak bo'ladi;
2. o'qituvchi va uning o'qitish sifati (kompitentligi, tayyorlanganlik darajasi);
3. ta'lim muassasi va sinfdagi psixologik mikromuhit;
4. o'qituvchining o'quvchilar bilan til topa bilish, ularni o'z ortidan ergashtira olish, bolalarni mashg'ulotga to'laligicha safarbar qila olish qobiliyati.

Texnologiyalarni amaliyotga samarali tatbiq qilishda hamma uchun bir xil sharoit yaratish o'ta murakkab jarayon hisoblanadi. Pedagogika faoliyatning murakkab va o'ziga xos ijodiy jarayoni sanaladi, ayni bir xil pedagogik vositalar har xil sharoitlarda turli natijalarni berishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, pedagogik texnologiyalarni qo'llashni barcha uchun majburiy qilib qo'yish yoki yagona qatiy texnologiyalar tizimini joriy etish maqsadga muvofiq emasligini anglatadi.

Hozirgi sharoitda pedagogikada juda ko'plab texnologiyalar qo'llanilmoqda. Ularning aksariyatidan ona tili ta'limi jarayonida o'qituvchilar, to'garak rahbarlari o'quvchilarni mustaqil va ijodiy faoliyatga o'rgatish jarayonida samarali foydalanib kelishmoqda.

Demak, pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq qilish samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchi-musiqa rahbarining texnologiyalarni bilish va ulardan amalda foydalanish bilan bog'liq metodik tayyorgarlik darajasi bilan belgilanadi. Bunda pedagogik texnologiyalarning davr sinovidan o'tganligi, barcha elementlarining to'g'ri amalga oshirilishi, ta'lim subyektlarining o'zaro munosabatlari qo'llanilayotgan texnologiyaning muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qiladi. Ta'lim-tarbiya maqsadlariga to'la mos keladigan,

ijodiy yondashuv asosida yaratilgan pedagogik texnologiyalar majmuasini ishlab chiqish hamda ta'lim jarayoniga tatbiq qilish ona tili ta'lim sifatining oshishiga, o'qituvchining kasbiy kamol topishiga xizmat qiladigan o'z xususiy texnologiyalari zaxirasini yaratish imkonini beradi.

Karimova Aziza Mamatkadirovna,
SamDU "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi" kafedrasi o'qituvchisi

Xakimova Marhabo O'roqovna,
SamDU "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi" kafedrasi o'qituvchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARINI OILAVIY AN'ANALAR ASOSIDA TARBIYALASH

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni oilaviy an'analar asosida tarbiyalash atroficha yoritilgan.

Kalit so'zlar: an'ana, qadriyat, milliy

Аннотация. В статье освещаются вопросы воспитания детей дошкольного возраста на основе семейных традиций.

Ключевые слова: традиции, ценности, национальное

Annotation. The article highlights the issues of upbringing children of preschool age on the basis of family traditions.

Key words: traditions, values, national.

An'anani bu jamiyatda ijtimoiy hodisa bo'lib, kishilarning ongida, hayotida barcha sohalarni qamrab olgan, o'z o'rnini topgan, ajdodlardan avlodga o'tib turadigan, takrorlanadigan oila hayotida qo'llanadigan umumiy tartib, qoidalar va tajribalar yig'indisi deb ta'riflash mumkin.

Oilaviy an'analar esa ijtimoiy, ommaviy hodisa bo'lib, oila hayotining barcha yo'nalişlarini qamrab olgan, ya'ni turmush tarzi, mehnat, axloq-odob, madaniyat, ma'naviyatlarida o'z o'rnini olgan, avloddan avlodga o'tib turadigan, takrorlanadigan, qo'llanadigan oilaviy tartib-qoidalar yig'indisi deb tushunish zarur. Oilaviy an'analarining hayotda tadbiq qilinish hajmi, ko'lami, doirasi ijtimoiy an'analariga qaraganda nisbatan torroq yo'nalişga ega. Shu nuqtayi nazardan yondashganda oilaviy an'analar davlat miqiyosidagi ta'lim-tarbiya muassasalari, mehnat jamoalari an'analaridan shakli, mohiyati, mazmuni hamda o'ziga xos milliy xususiyatlari bilan ajralib turadi.

O'zbek xalqining oilaviy an'analar o'ziga xos milliy xususiyatlarga ega. An'analar oilaning turmush tarzini bezab, ifodalab uning qadr-qimmatini yuksaltiradi. Har bir oilaviy an'ana o'z shakli, mazmuni, maqsadi va vazifalarni nazarda tutadi. Oilaviy an'analar o'z milliy mazmuni, shakli, mohiyati hamda xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Yosh avlodning muntazam tizimli uzlusiz, shakllanishida to'g'ridan to'g'ri kuchli tarbiyaviy ta'sir etuvchi milliy tarbiya vositasidir. Oilaviy an'analar xalqning boy axloq-odobi, madaniyati, ma'naviyati ijtimoiy, oilaviy tajribalari bilan uzaro uzyviy bog'langan va ularni o'ziga xos tarzda aks ettiradi. O'zbek oilasining oilaviy an'analar quyidagi yo'nalişlarda o'z aksini topgan:

- aqliy;
- axloqiy;
- mehnat;
- nafosat;
- huquq;
- iqtisodiy;

– ekologik.

“Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari”da ikkinchi asosiy rivojlanish sohasi “Ijtimoiy-hissiy rivojlantirish” bo‘lib, unda bolalarning axloq me’yorlarini o‘zlashtirishi, jamoada o‘zini tutish, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot kabilarni o‘z ichiga oladi. [1:12]

“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturining tamoyillaridan biri maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashdan iborat ekanligidir. [2:4]

Maktabgacha yoshdagi bolalar:

- mehmondo‘stlik qoidalari;
- mehmondorchilikda o‘zini tutish;
- barchaga salom berish;
- kattalarga hurmat va kichiklarga mehribon bo‘lish;
- hol-ahvol so‘rash;
- kerak bo‘lganda yordam berish;

Oilada bolalarga singdirilayotgan barcha g‘oya, tajribalar, yangi udumlar, urf-odatlar, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar oilaviy an’analalar orqali o‘tadi hamda ularni barkamol etib shakllantirishga xizmat qiladi. Oilaviy an’analalar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida atrof-olam, nutq o‘stirish, badiiy adabiyot bilan tanishtirish kabi mashg‘ulotlar jarayonida berilayotgan maktabgacha yoshdagi bolalarga bergen bilimlarni hayotga tadbiq etishda yaqindan yordam beradi. Yangi avlod o‘tmish ajdodlarning hayotdagi barcha tajribalarini muayyan darajada oilaviy an’analalar vositasida davom ettiradi. Tarbiya jarayoni ko‘p qirrali bo‘lib, aslida keksa avlodlar bilim, tajribalarini, ko‘nikma va odatlarini yosh avlodga berib, uzatib borishdan ham iborat. Shuning uchun oilaviy an’analalar maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda, oila tarbiyasining maqsad va vazifalarini amalga oshirishda milliy tarbiya vositasi bo‘lib ijtimoiy tarbiyaga xizmat qiladi. Oilada bolalarni tarbiyalashda oila hayotida to‘planib kelinayotgan milliy an’analardan maqsadga muvofiq ravishda foydalanish amaliy ahamiyatga ega.

Haqiqatan ham, jamiyat ijtimoiy hayotida ulug‘ ajdodlarimiz tomonidan oila turmushida milliy, tarixiy, mehnat, axloqiy-ma’naviy tajribalarning yangi avlodga meros bo‘lib an’analalar shaklda o‘tishi maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalaydigan milliy vositaga aylanib qolishi tabiiy bir holdir. An’analarning eng qimmatli jihatlari maktabgacha yoshdagi bolalarni oilaviy va ijtimoiy hayotga tayyorlashda milliy tarbiya vositasi bo‘lib xizmat qilmog‘i lozim ekanligidir.

Oilaviy an’analalar maktabgacha yoshdagi bolalarni barkamol etib tarbiyalashda xalqning asrdan asrga, ajdoddlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan milliy ma’naviy-axloqiy qadriyatlariga aylansa, yanada mukammalroq, amaliyroq ahamiyat kasb etadi. Chunki oilaviy qadriyatlar o‘zbek xalqi tomonidan qadrlanib, e’zozlanib kelinmoqda va shunday bo‘lib qolaveradi. Oilaviy an’analalar ma’anviy-axloqiy qadriyatlarga aylangandagina ularning ta’lim-tarbiyaviy qadr qimmati, o‘quvchi-yoshlarni shakllantirishdagi amaliy ahamiyati yanada ortadi.

Shuning uchun ham oilaviy an’analalar maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda va oilaviy hayotga tayyorlashda tarbiya vositasi bo‘lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Maktabgacha yoshdagi bolalarga qo‘yiladigan Davlat talablari. 2018-yil*
2. *“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. 2018-yil*

Musayeva Nafisa Qudratovna,
NavDPI Maktabgacha ta'lim kafedrasи o'qituvchisi

Murodullayeva Gullola,
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

OILADA ILK YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada ilk yoshdagi bola nutqining o'z vaqtida, to'g'ri, aktiv rivojlanishi, nutqni o'z vaqtida shakillanishiga to'sqinlik qiluvchi sabablar va bartaraf etilishi haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: nutq, go'daklik davri, ilk yosh, to'g'ri nutq, faol muloqot.

Аннотация. В статье описаны своевременное, точное, активное развитие речи на первом году жизни, причины, препятствующие своевременному формированию речи, и идеи, как ее устраниить.

Ключевые слова: речь, младенчество, ранний возраст, правильная речь, активное общение.

Annotation. This article describes the timely, accurate, active development of speech in the first year of life, the reasons that prevent the timely formation of speech, and ideas on how to eliminate it.

Key words: Speech, infancy, early age, correct speech, active communication.

"Tilda insonni va uni o'rabi turgan olamni bilish uchun bitmas-tuganmas hamda hali qo'l tegmagan imkoniyatlar mavjud, biroq unga tilni tavsiflash orqali emas, balki uni o'rganish vositasida erishish mumkin".

V.A.Zeginsev

Til birliklari nutqni hosil qiladi, ya'ni har bir inson o'z fikrini boshqalarga til orqali, til birliklari orqali bayon qiladi, boshqalar fikrini til orqali egallaydi, tushunadi. Ya'ni nutq tevarak-atrofdagi voqeа-hodisalar haqidagi fikr mulohazalarni boshqalarga yetkazishdir. Shuning uchun til va nutq inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'limda bolalar nutqida so'zlarni grammatik va leksik jihatdan tog'ri anglashi, nutq o'stirish usullarini bilish, nutiq tovush madaniyatini shakllantirish har bir yosh guruhda bolalar nutqini o'stirish va so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish vazifalarini to'g'ri hal etish imkonini beradi, bolalarni maktabga tayyorlash vazifasining bajarilishini ta'minlaydi. Ilk yoshdagi davr bolaning jismoni va ruhiy tomonidan tezkorlik bilan (intensiv) rivojlanish bosqichi hisoblanadi. Bu yoshda markaziy nerv sistemasining rivojlanishida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ladi va miya fiziologik jihatdan yetilib bo'ladi.

Ilk yoshdagi bola nutqining o'z vaqtida va to'g'ri rivojlanishi aktiv rivojlanishning asosidir. Nutq vositasida bola bilan kattalar o'rtasida turli munosabatlар o'rnatiladi. Yaxshi rivojlangan nutq ruhiy jarayonlarning (xotira, tafakkur, xayol va boshqalar) rivojlanishiga, bolalarning maktabgacha ta'lim davridagi va undan keyingi faoliyatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Bolalar nutqining rivojlanishi bilan kattalar nutqining tarbiya vositasi sifatidagi roli ortib boradi. Bolaning uch yoshgacha bo'lgan davri uning nutqi, tafakkuri va bilish faoliyatining rivojlanishi uchun eng qulay bosqich hisoblanadi. "Bu davrga kelib miyaning nutq bo'limi anatomik tomonidan yetilib bo'ladi, bola ona tilining asosiy grammatik shakllarini egallaydi, ko'p so'z to'plamiga ega bo'ladi. Agar uch yoshgacha bo'lgan bolalar nutqiga yetarlicha e'tibor berilmagan bo'lsa, u vaqtida kelgusida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish uchun katta kuch va g'ayrat surf etishga to'g'ri keladi"¹⁰⁰, — deb ta'kidlaydi o'zining tadqiqotida M.M.Kolsova.

Yangi tug'ilgan chaqaloqlar tug'ilgan davridan dunyoni tanishga intiladi, u kuzatish bosqichida bo'ladi. Ular ko'proq o'ziga jalb qilgan odamga qarab emotsiyal harakatlar bilan muloqotning ilk ko'rinishlarini namoyon qiladi. Bu davrdagi bolalar bilan muloqot qanchalik ko'p bo'lsa bolada shuncha erta nutq shakllanadi. Chaqaloqlik davri tugab go'daklik davri boshlanishida bolalar har xil tovushlar chiqara boshlashi, 3 oyligidan "gu-gulash" va "chuchulash" davri boshlanadi. Bu davrda bola yaqinlari suyib, erkalashlariga nisbatan

¹⁰⁰М.М.Колосова. Ребёнок учится говорить. – Москва, 1973, – С. 5.

tushunarsiz tovushlar chiqaradi, 4-6 oyligida ilk bo‘g‘inlarini ayta boshlaydi, 10-11 oyligida ilk so‘zlarini talaffuz qila boshlashi va bola 1 yoshga yetganda 5-10 ta so‘zni to‘liq ayta olishi lozim.

Bola bilan ota-onasi va yaqinlarining faol muloqoti bu davrni qisqartirishga sabab bo‘lishi mumkin. Kuzatuvlarimiz shuni ko‘rsatadiki, bolaga doimiy e‘tibor va so‘zlarni to‘g‘ri aytib muloqot qilinishi natijasida 3 oylikda yuzaga keladigan “gu-gulash” davri qisqarishi, bolada erta nutq alomatlar paydo bo‘lishini ko‘rshimiz mumkin. Bunga qaramasdan bolalarda nutqni o‘z vaqtida va to‘g‘ri shakillanishiga to‘sqinlik qiluvchi sabablar bisyor:

- irsiy omillar: ota-onaning kech til chiqarganliklari, nutqiy nuqsonlar bilan gapirishi;
- bolaga e‘tiborsizlik qilish: ota-onaning farzandi bilan suhbatlashmasligi, muloqotga kirishmasligi;
- ortiqcha mehribonlik: ota-onasi va yaqinlarining farzandiga nisbatan mehrning ortib ketishi;
- katta yoshli kishilarning bolalarni erkalatib so‘z va iboralarni chala aytishlari sabab bo‘lishi mumkin.

Bolada nutqning to‘g‘ri shakllanishi atrofdagilar nutqiga, asosan, oiladagi nutqqa va to‘g‘ri nutq muhitiga bog‘liq. Ota-onalar – bu bola uchun nutq odati. Shuning uchun nafaqat nima deyishni, balki qanday aytayotganiga ham diqqat qaratish muhimdir. Birinchi kundan boshlab, chaqaloqning nutqini uyg‘oting:

- bolaga imkon qadar ko‘proq gapiring, so‘zlarni aniq, sekin, ammo hissiy jihatdan talaffuz qiling;
- kundalik nutq bilan cheklanmasdan, qilayotgan barcha harakatlaringizni ovoz chiqarib bajaring;
- bolalar uchun mo‘ljallangan qofiyali, she’rlarni o‘qing, bularning barchasini ritmik va qulqoqqa yaxshi singib ketadigan qilib aytish maqsadga muvofiq;
- birgalikda, aniqrog‘i, farzandingiz yaxshi ko‘rgan kitobdagi rasmlarni o‘rganing, kuzating va rasm yuzasidan savollar bering.

Bu jarayonlarda bola avvaliga, faqat siz so‘ragan narsani ko‘rsatib beradi va davomli suhbatlardan so‘ng sizdan keyin takrorlashga harakat qila boshlaydi.

Sog‘lom bolani tarkib toptirish juda ko‘p omillarga bog‘liq bo‘lib, bolaning kamolot mezonlaridan biri uning psixikasini va nutqini har tamonlama rivojlantirishdir. Bolaning psixik taraqqiyoti unda sezgi, idrok, diqqat, xotira, nutq, xayol va tafakkurning rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq. Bola ruhiy kamolotining ko‘p jihatlari nutq bilan bog‘liq ravishda rivojlanadi, bola muloqotga kirishishi, ya’ni tengdoshlari va kattalar bilan bo‘ladigan muloqotlari jarayonida juda ko‘plab ma’lumotlarga ega bo‘ladi va o‘zining ruhiyatini keyingi rivojlanish bosqichiga ko‘tarib boradi. Shuning uchun bola hayotining dastlabki birinchi oyidan tarbiya faqat uni parvarish qilish bilan chegaralanmasligi kerak. Bolaning ilk yosh davridan eshitish qobiliyatini tarbiyalash, shuningdek, bolaning emosional sohasi – jilmayish, kulish, va ovoz tonini uyg‘otish lozim. Bularning hammasi birgalikda nutqining rivojlantirishga xizmat qiladi. Bolalarda nutq faoliyatining rivoji o‘zgalar nutqini oqilona idrok qilish va tushunish imkonini yaratadi, shaxslararo muomala ko‘lamini yanada kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Mirjalolova L. Bolalarni gapirtirib o‘ynaladigan o‘yinlarga nutqiy jihatdan tayyorlash.* – Тошкент: 2005 .
2. *Shodiyeva Q. Maktabgacha yoshdagi bolalami to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish.* – Тошкент: O‘qituvchi, 1990.
3. *Колсова М.М. Ребёнок учится говорить.* – Москва, 1973, – C. 5.
4. *Qodirova F.R., Kadirova R.M. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi.* – Тошкент: Istiqlol, 2006.
5. *Фозийев Э. Тафаккур психологияси.* – Тошкент: Ўқитувчи, 1990.
6. *Internet saytlari.*



G.P.Ermatova,
Navoiy davlat pedagogika instituti
Maktabgacha va boshlang‘ich
ta’lim fakulteti talabasi

OILADA MILLIY QADRIYATLARLARIMIZ ASOSIDA BOLALARDA SOTSIAL INTELLEKTNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada umuminsoniy, milliy qadriyatlar va ulardan oilada bola tarbiyasida eng yaxshi tarbiya vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etishi haqida qimmatli fikrlar yoritilgan.

Калим сўзлар: milliy an'analar, qadriyatlar, xalq og'zaki ijodi, maqol, matallar, tarbiya vositasi, o'zaro hurmat, bir-birlarini qadrlash, dono fikrlari, eng yaxshi turmush tajribalari.

Аннотация. В данной статье освещены ценные размышления об общечеловеческих, национальных ценностях и их значении как наилучшего средства воспитания ребенка в семье.

Ключевые слова: национальные традиции, ценности, устное народное творчество, пословицы, поговорки, средства воспитания, взаимоуважения, уважения друг к другу, мудрые мысли, лучший жизненный опыт.

Annotation. This article highlights valuable reflections on universal, national values and their significance as the best means of raising a child in the family.

Key words: national traditions, values, oral creativity of the people, Proverbs, mats, means of upbringing, mutual respect, honoring each other, wise thoughts, best living experiences.

Mamlakatimizda oila va bola tarbiyasiga juda katta e'tibor qaratilib, oilaga doir islohotlar olib borilmoqda.

Ko'hna tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak oila muqaddas dargoh va birinchi tabiya maskani sifatida faoliyat ko'rsatib kelayotganligining guvohi bo'lamiz.

Darhaqiqat, inson dunyoga kelib ilk olgan sabog'i va tarbiyasini barchamiz uchun muqaddas bo'lgan oiladan ola boshlaydi. Har bir oilaning esa o'z oldiga qo'ygan eng ezgu maqsadlaridan biri yosh avlodni barkamol shaxs etib tarbiyalashdir. Bu jarayonda ularning o'zligini anglashi, hayotda o'z o'rinni topishiga zamin hozirlashdir. Bu muqaddas maqsad va vazifani ado etish har bir ota-onadan juda katta mas'uliyat va e'tiborni talab etadi. Shu bilan birga, shaxsiy namuna bo'lishga undaydi.

Bu tarbiya jarayonida avlodlarimiz tomonidan qoldirilgan boy merosimiz, milliy an'analarimiz, qadriyatlarimiz asosiy omil, ta'sirchan vositadir. Masalan, bola dunyoga kelgan kundan boshlab oila davrasida bo'ladi. Oilada esa katta yoshdagilar ota-onsa va buvi-bobolari bolaga dunyo, tevarak-atrof haqida tushunchalar bera boshlaydilar. Bola tarbiyasida oilaviy an'analar asosiy tayanch bo'ladi. Chunki bolalarga bu an'analar ilk yoshlikdan boshlab o'rgatiladi va to'g'ridan to'g'ri singdiriladi. Xo'sh oilaviy an'analar o'z ichiga nimalarni qamrab oladi.

Oilaviy an'analar orqali har bir oilada uning a'zolari o'zaro hurmat, bir-birlarini qadrlash, o'zaro hamjihatlikda fikr yuritish, hamkorlikda harakat qilish, bir-birlari bilan murosa qilish, mehribonlik, rahmdillik, mehr-oqibat, sabr-bardoshlilik, insonsevarlik, olivjanoblik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat kabi ma'naviy qadriyatlarni mujassamlashtirish mumkin. Bunday qadriyatlarning oilada e'zozlanishi o'sib kelayotgan yosh avlod shakllanishida o'ta muhimdir. Shu asosda har bir oila a'zosining iste'dodi va salohiyati to'la ro'yobga chiqishi uchun sharoit yaratiladi.¹⁰¹

Yuqorida oilaviy an'analar haqida ma'lumotlar keltirdik. Lekin an'ananing kelib chiqishi va u qanday ma'noni anglatishiga to'xtalmadik. Keling an'anaga biroz urg'u beraylik. "An'ana" asli arabcha so'zdan olingan bo'lib, uzoq zamonlardan beri avloddan avlodga, otalardan bolalarga, momolardan onalarga, onalardan bolalarga o'tib, davom etib kelayotgan urf-odatlar, axloq mezonzlari, qarashlar va boshqalardir¹⁰².

¹⁰¹N.K.Usmonova Oila tarbiyasi milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o'rni. – T.: "Adolat", 2016. – 92 bet.

¹⁰²Qarshiboyeva S., Majidov J., Sharafiddinov Oilada Bolalarni xalq og'zaki ijodi namunalari asosida tarbiyalash – T.: 2018, – 20 bet

An'ana ijtimoiy va madaniy merosdir. Ular iqtisodiy, milliy, kasbiy, jangovar, ilmiy, oilaviy an'analar sifatida jamiyatda, ijtimoiy guruh o'rtasida keng yoyilgan jarayondir. Shuning uchun ijtimoiy hayot va an'analarни o'rganish, ularning mazmunini bilish, odamlarning xulqi va xatti-harakatlariga ta'sir etishini tadqiq etish muhim ahamiyatga egadir.

An'analarning kelib chiqishi va shakllanib borishi murakkab jarayondir. Bunda xalqimizning dono fikrlari, eng yaxshi turmush tajribalari, tarbiyadagi axloq mezonlari, yaqinlarni, insonlarni hurmat-izzat qilish va qadrlashda o'z ifodasini topgan. Shuning uchun ham yosh avlod ajdodlarimiz tomonidan tarixiy sharoitda vujudga kelgan ilg'or an'analarni o'zlashtirishi, unga rioya etishi va uni eng yaxshi tajribalari asosida boyitishi nihoyatda zarurdir.

An'analarni o'zbek xalqining asrlar mobaynida to'plagan xalq og'zaki ijodi bilan chambarchas bog'liqdir. U xalqimiz ma'naviy madaniyatining oltin xazinasi hisoblanadi. Ajdod-avlodlarimiz o'zlarining hayot tajribalari asosida to'plangan, shakllangan dono fikrlarini keyingi avlod vakillariga og'zaki hikoya qilish, alla, doston, ertak (ushuk), afsona, asotirlar, rivoyatlar, topishmoq, maqol, matallar shaklida yetkazib berishga harakat qilganlar¹⁰³.

Xalq og'zaki ijodida inson hayotining hamma qirralari aks etgan. Ularda ota-onalarning bolalarni tarbiyalash, parvarish qilish borasidagi yo'l-yo'riq va usullari ham o'z ifodasini topgan. Shuning uchun ham hozirgi paytda tarbiyaga ta'sir ko'rsatuvchi xalq og'zaki ijodiga bo'lgan e'tibor kuchayib bormoqda.

Xalqimiz o'zlarini tomonidan yaratilgan dostonlar, afsonlar, ertaklar, topishmoq, maqol va matallardan oilaviy tarbiya jarayonida keng qo'llaganlar. Bolalarni ota-onalarining, oiladagi katta yoshdagilari insonlarning gaplariga, pand-u nasihatlariga qulok solishga, ularning maslahatlariga amal qilishga va doston, ertak qahramonlaridan namuna olishga o'gatganlar.

Xalq og'zaki ijodiyoti namunalaridan biri bo'lgan maqollardan namunalar:

*Inson – odobi bilan,
Osmon – oftobi bilan.*

* * *

*Odobli o'g'il – ko'kdagi yulduz,
Odobli qiz – yoqadagi qunduz.*

* * *

*Ota oldidan o'tma,
Odob oldidan ketma.*

* * *

*Otang bolasi bo'lma,
Odam bolasi bo'l.*

* * *

*Yaxshi bola – otaga quvvat,
Yomon bola – uqubat.*

* * *

Husn husn emas, odob – husn.

* * *

Bola – aziz, odobi – undan aziz¹⁰⁴.

Bu maqollarda o'zbek xalqining tarbiyaga oid qarashlari o'z ifodasini topgan. Bu e'tiqod yillar davomida ular ongiga singib ketgan¹⁰⁵. Bola tarbiyasi, inson odobi, odobli farzand, ota-onani hurmat, inson

¹⁰³Qarshiboyeva S., Majidov J., Sharafiddinov Oilada Bolalarni xalq og'zaki ijodi namunalari asosida tarbiyalash – Toshkent: 2018.
– 21 bet

¹⁰⁴O'zbek xalq maqollari, 2005 yil. 225-bet

¹⁰⁵Farmonova M.Qadriyatlar-ma'naviy kamolot asosi. – T. 2019 yil. 20-bet.

husni odobi bilan go'zal ekanligi haqida juda yaxshi tarbiya vositasi sifatida ma'lumotlar keltirilgan. Ota-onalar farzand ko'rish, ularni sog'lom o'stirish bilan birga, ularning odobli bo'lishlarini ham orzu qilishgan. Bola tilga kirishi bilanoq axloqiy tarbiyaning boshi bo'lgan salomlashishni o'rgatishgan. Bolalar uygakirishda, o'zidan kattalar bilan uchrashganda, yo'lda ketayotganda o'ng qo'lini ko'ksiga qo'ygan holda "Assalomu alaykum" deb so'rashadilar. Bu ham xalq tarbiyashunosligining azaliy o'lmas sabog'i bo'lib, o'zbek xonodonida mustahkam o'rin olgan.

Xalqimiz o'zining an'anaviy tarbiya uslublarida bolalardan kattalarga birinchi bo'lib salom berishni, kattalar suhbatiga aralashavermaslikni, ularni turli savollar bilan charchatmaslikni, kattalar o'z joylariga o'tirgunga qadar o'tirmaslikni, uygakirishni, lekin eshikni birinchi bo'lib ochib, ushlab turish, ularga yordam berish kabi odob qoidalariiga rioya etishni har doim talab qilgan.

Ota-onada dasturxonadagi taomga qo'l uzatmaguncha hech kim qo'l uzatmagan. Dasturxon atrofida o'tirganda choyni yoshi kichiklar quyishgan. Piyolani o'ng qo'liga ushlab, chap qo'lini ko'ksiga qo'yib, piyolani oluvchiga uzatgan. Dasturxon atrofida o'tirganlar ovqatini yeb bo'lsa yoki biror yoqqa bormoqchi bo'lsa, faqat yoshi katta kishilardan kechirim va ruxsat so'rabb, keyin joyidan turganlar. Bunday qoidalarga rioya qilgan bolalarga, tarbiya ko'rgan bolalar sifatida baholangan. Bolalar xulq-atvoriga qarab ota-onalarning tarbiyaviy iqtidorlariga baho berilgan.

Bu muqaddas dargohda kelajak kishisi kamolga yetadi. Keksalar ko'pincha "Bug'doy eksang – bug'doy olasan, arpa eksang – arpa olasan", deyishadi. Shuning uchun ham kelajagimizning qanday bo'lishi bugun qanday hayot kechirayotganimizga, bolalarimizga qanday tarbiya berayotganimizga, ular qalbini qanday tuyg'ular, qanday orzular bilan to'ldirayotganimizga bog'liq.

Oilada bolalarni tarbiyalash uchun xalq pedagogikasi qo'l kelishini yaxshi biladilar. Ularda xalqning ilg'or an'analari urf-odatlari, ertak va maqollari, qo'shiq va dostonlari, topishmoq va matallari mujassamlashgan bo'ladi. Xalq og'zaki ijodida aqliy, axloqiy va jismoniy kamolot, ilm va hunarga muhabbat, insonparvarlik va mehnatsevarlik, rostgo'ylik va mardlik kabi tarbiyaning hamma tarkibiy qismlari mavjud.

Xalqning donoligi shundaki, u bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, oilaviy tarbiyani xalq faoliyati va o'gitlari bilan chambarchas bog'liq holda olib borilgan.

Oilada ota-onada sifatida asosiy faoliyatimiz bola tarbiyalash bo'lib, bizning bugunimiz va ertamizning negizini ana shu tashkil etadi. Oiladagi tarbiya orqali milliy qadriyatlarni bola xulq-atvori va ongiga singdirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, bejizga xalqimizda, "Qush uyasida ko'rganini qiladi", degan naql mashhur emas. Agar oiladagi ahillik oilalarning mustahkamligining garovi bo'lsa, o'z navbatida, mustahkam oila mahallalarning obodligi va tinchligi, aholining totuv yashashi uchun zarurdir. Bu esa yurt tinchligining garovidir.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Usmonova N.K. Oila tarbiyasi milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o'rni. –Toshkent: "Adolat" 2016 yil, 92-bet.
2. Qarshiboyeva S., Majidov J., Sharafiddinov. Oilada Bolalarni xalq og'zaki ijodi namunalari asosida tarbiyalash. – Toshkent: 2018 yil, 20-21-bet.
3. O'zbek xalq maqollari. 2005 yil, 225-bet
4. Farmonova M. Qadriyatlar – ma'naviy kamolot asosi. – Toshkent: 2019 yil, 20-bet

Nasirov I.Z.,
t.f.n., dos. Andijon mashinasozlik instituti,

Zokirov I.I.,
Dombrova Gurnicha Biznes akademiyasi (Polsha)

OILAVIY MUHITDA BOLALARGA IJODIY FIKRLASHNI O'RGATISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada oilada ota-onada va bolalarning o'rtaida ijodiy aloqalarni o'rnatish yo'llari bayon etilgan. Oiladagi ijodkorlik kundalik hayotning bir qismi bo'lib, unda kundalik turmush tartibi, ishlar va oilaviy vazifalarni ijodkorona bajariladi. Masalan, uylarni bezash, ovqat pishirish, tomorqada ekinlar yetishtirish yoki uni begona o'tlardan tozalashga ozgina fantaziya qo'shish bu ishlarning qiziqarli, ya'ni ijodiy bo'lishiga olib keladi.

Kalit so'zlar: internet, ota-onada, bola, axborot oqimi, g'oya, fantaziya, yaratish, ijodkorlik, g'ayritabiyy, odatiy, nisbiy, yaxshi, foydali, kundalik hayot, keljak.

Аннотация. В статье описаны способы установления творческих связей между родителями и детьми в семье. Творчество в семье – это часть повседневной жизни, в которой повседневные порядок, работа и семейная деятельность решаются творчески. Например, украшение домов, приготовление пищи, выращивание и прополка сельскохозяйственных культур в саду с добавлением немного фантазии, что может быть забавным, то есть творческим.

Ключевые слова: интернет, родители, ребёнок, поток информации, идея, фантазия, создание, творчество, неестественный, обычный, относительный, хороший, полезный, повседневная жизнь, перспектива.

Annotation. The article describes the ways of establishing creative ties between parents and children in families. Creativity in the family is a part of everyday life in which daily routines, work and family activities are handled creatively. For example, decorating houses, preparing food, growing and weeding crops in the garden with a little imagination added, which can be fun, that is, creative.

Key words: internet, parents, child, information flow, idea, fantasy, creation, creativity, unnatural, ordinary, relative, good, useful, everyday life, perspective.

Zamonaviy bolalar – o'spirinlar endi musiqa va san'at muktablariga unchalik qiziqish bildirmayaptilar. Ularning aksariyat faoliyati internet, ijtimoiy tarmoqlar va kompyuter o'yinlariga yo'naltirilgan bo'lib, bu ko'plab ota-onalarни tashvishga solmoqda. Bolalar va o'spirinlar iqtidorli bo'lishlari va tobora o'sib borayotgan axborot oqimida mohirlik bilan harakat qilishlari uchun oilada ularga ma'lumotlarni oson, tez idrok etish, tahlil qilish va yangi texnologiyalarni o'zlashtirish hamda turli vaziyatlarda g'ayrioddiy yechimlarni topishni o'rgatish kerak. Bundan tashqari bolalarda mustaqil ravishda predmetlarni fantaziya qilish, yaratish va yasash qobiliyatini shakllantirish kerak bo'ladi. Bularning hammasi ijodkorlik deb yuritiladi.

Ijodkorlik (kreativlik, inglizcha "creativity" – yaratuvchanlik so'zidan olingan) – bu ta'riflash oson bo'lmagan so'z. Agar inson qandaydir bir g'ayritabiyy va shu bilan bir vaqtida, ahamiyatli va foydali narsa yaratgan bo'lsa biz uni "ijodkor" deymiz.

G'ayritabiyylik mezoni – odatiylik mezoni sifatida muhokamaga muhtoj. Masalan, g'oya qanchalik g'ayritabiyy va u qanday darajada odatiy deb berilgan savollarga muhokama davomida javob berilishi kerak.

Bu mezonlarning har ikkalalari ham nisbiy bo'lganligi uchun ijodkorlik tushunchasining o'zi ham nisbiy.

Bu degani har qanday faoliyatni ozmi-ko'pmi darajada ijodiy deb, atash mumkin. Ijodkorlik qobiliyatni odamda bor yoki yo'q bo'lishi mumkin bo'lgan xususiyat emas. Ijodkorlik – bu kontekstda qarash zarur bo'lgan bir qator jarayonlardir. Shu jarayonlarning bittasi yoki bir nechta ko'nikib qolingga faoliyatlarga yangilik olib kiradi. Masalan, bunday harakatlar qatorida masalani aniqlashtirish va shakllantirish mumkin bo'lgan turli yechimlarni ishlab chiqish va baholashni ko'rsatish mumkin [1].

Ijodkorlik tushunchasining yagona ta’rifini yo‘qligi shu bilan bog‘liqki, odamlar “g‘ayritabiyy”, “yaxshi” va “foyndali” deb nimani atash mumkinligi haqida yagona fikrga ega emaslar, shu sababli bu tushunchalar juda nisbiy. Kuzatuvchining pozitsiyasiga butunlay bog‘liq. Shu sababli nima uchun ijodkorlik tutqich bermaydigan, sirg‘alib chiqib ketadigan muhokama predmeti ekanligini oson tushunish mumkin. G‘oya yoki qandaydir bir faoliyat natijasi ijodiy deb e’tirof qilinishi uchun birinchi navbatda uni atrofidagilar g‘ayritabiyy, yaxshi va foyndali, deb tan olishlari zarur. Yana shuni ta’kidlash zarurki, ijod tushunchasida vaqtlar o‘tgan sayin muhim o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Masalan, bizning zamonamizda eng, monumental hisoblanuvchi Yerning aylanishi haqidagi tushuncha o‘z vaqtida “ahmoqona fikr”, deyilgan edi.

Gardner ijodga bergen ta’rifida yana bir shartni qo‘shti. U ijod odami, albatta, uzlusiz ravishda ijodiy masalalarni hal qilishi va ijod mahsulotlarini yaratishi shart deb hisobladi. Bu qo‘sishimcha shart ijodiy jarayondagi “omad” tushunchasini siqib chiqaradi, chunki uzlusiz natijani hisoblanayotganda favqulodda va juda kam bajaradigan harakatlarni e’tiborga olinmasligi kerak. Lekin biz qaysi ta’rifni tanlab olmaylik, baribir barchamiz ijodga ehtiyoj sezamiz va u bilan u yoki bu darajada shug‘ullanamiz. Ijodiy faoliyat bizning kundalik hayotimizni jozibaliroq qiladi; fan va san’atni ijodsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi; usiz matematika va boshqa fanlarning taraqqiyoti mumkin emas. Biz har doim murakkab fikrni ifodalaganimizda yoki oqqog‘ozni matn bilan to‘ldirganimizda ijod bilan shug‘ullanamiz. Agar biz shu ishni samarali va g‘ayriodatiy tarzda udallay olsak, bizni to‘laqonli “ijod kishisi” deb atash mumkin.

Ijodkorlikni qanday qilib oilaning sevimli mashg‘ulotiga aylantirish mumkin. Buning uchun ota-onada va bola munosabatlariga ijodiy tus berish kerak, ya’ni ota-onada bolaning sevimli mashg‘ulotlarini ijodiy mashg‘ulotlarga aylantirishga harakat qilishlari kerak.

Masalan, bolaning kompyuterda ishlashini “vaqtini behuda sarflash” deb hisoblamaslik va aksincha, bolaning bu ishlarini qaysi sohada qo‘llash mumkinligini topishga intilish kerak.

Shunda ota-onada va bolaning o‘rtasida ijodiy aloqalarni o‘rnatalishga muvaffaq bo‘linadi. Axborot sohasidagi ushbu yangi yo‘nalish barcha oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarni do‘stona qiladi va yangi rivojlanish vektoriga ega bo‘ladi, chunki endi ular birgalikda vaqt o‘tkazish uchun umumiy xobbiga aylanadi.

Oiladagi ijodkorlik kundalik hayotning bir qismi bo‘lib, unda kundalik turmush tartibi, ishlar va oilaviy vazifalarni ijodkorona bajarishdir. Masalan, uylarni bezash, ovqat pishirish, tomorqada ekinlar yetishtirish yoki uni begona o‘tlardan tozalashga ozgina fantaziya qo‘sish bu ishlarning qiziqarli, ya’ni ijodiy bo‘lishiga olib keladi.

Keling, qanday qilib o‘zingiz va yaqinlaringiz hayotini yanada qiziqarli, ya’ni ijodiy qilishni ko‘rib chiqaylik? Ijod: kundalik hayotda siz bajarayotgan ishlarni o‘zgartirib bajarish bo‘yicha tajriba qilishingiz mumkin va kerak. Axir ijodkorlik sizga ishlarni bajarishda muqobil yechimni topishga, tanlov qilishga, muammolarni hal qilishga va natijalarni baholashga o‘rgatadi. Ijod – bu ozgina g‘ayrioddiy go‘zallik va ilhom bilan to‘ldirib bajarilgan har qanday ishdir [2].

Odam o‘z tasavvuri bilan mutlaqo hamma narsani yaratishi mumkin. Psixoterapevtlar ijodkorlik hamma uchun ayniqsa, bolalar uchun foyndali ekanligini isbotladilar, chunki u hammani qo‘rquv bilan qanday kurashish kerakligini o‘rgatadi va hissiyotlarni uyg‘otadi. Ijodiy qobiliyat tobora ko‘proq inson uchun ham, jamiyat uchun ham muvaffaqiyatning muhim omillaridan biri sifatida keltiriladi. Ijodiy jarayon barcha hislar: ko‘rish, eshitish, teginish, hidlash va ta’mni o‘z ichiga olishi mumkin. Bu vaqtida miyada yangi fikriy bog‘lanishlar vujudga keladi va o‘rnataladi. Ijodkorlik o‘zingizni va atrofingizdagagi dunyonni bilishga yordam beradi. Bu, ayniqsa, bolalar uchun juda muhimdir. Ular juda ajoyib ma’lumotlarni o‘zlashtiradilar, shuning uchun ular olingan bilimlarni qanday ishlashni o‘rganishlari kerak. Harakat, tasvir, rang, chiziq, xayol – bularning barchasi yordamida bolalar o‘zlarini ifoda etadilar.

Uyingizda ilhomlantiruvchi muhitni qanday yaratish kerak? Buni oila a’zolarini ijodiy jarayonga ehtiyojkorlik bilan jalb qilish uchun qiling. Har kuni uyning bunday joylaridan o‘tayotganda ular, albatta, o‘z qo‘llari bilan biror narsa qilishni xohlashsin.

Ijodkorlik bolalarda kundalik hayotda, kelajakda foyndali bo‘ladigan quyidagi ko‘nikma va qobiliyatlarni shakllantira boradi:

- fazoviy fikrlash;
- matematik va fizik mahorat;
- ijodiy va mantiqiy fikrlash;
- tasavvur qilish va zukkolik;

- mas’uliyat va mehnatsevarlik;
- loyihalash qobiliyati;
- kognitiv qiziqish;
- muvaffaqiyatga intilish va o‘z imkoniyatlariga ishonish hissi;
- jamoada ishlash qobiliyati.

Hozirgi zamon psixologlari shunday xulosaga kelishdiki, Eynshteyn, Mariya Kyuri va Mosart kabi ijodiy gigantlarda “hech qanday g‘ayritabiiylik” mayjud bo‘lmay, ularning ijodini kundalik odatiy jarayonning davomi deb qarash mumkin. Vaysberg har doim ijodni “oddiy xohish” deb qarashni himoya qilar edi. Bunga misol tariqasida u temir va simlardan yasalgan abstrakt skulpturalari bilan mashhur bo‘lgan rassom Aleksandr Kaldera (1898-1976)ning biografiyasini keltiradi [3]. Yoshligida Kaldera simlardan o‘z singlisiga bezaklar yasagan. Uning ota-onalari rassomlar bo‘lib, farzandalari san’at darsini o‘tishar va bola yoshligidan otasining skulpturalari va onasining chizgan rasmlari bilan o‘ralgan edi.

Ijodiy jarayonda biz ko‘p ham biror-bir narsani isbot qilishga harakat qila bermaymiz, balki barcha imkoniyatlarimizdan foydalanib, muammoning yechimini ilgarilatishga urinamiz. Gipotezlar, farazlar yoki provakatsion g‘oyalardan foydalanib ijodiy keskin intilish (revok)ni amalga oshirish mumkin. Ayrim hollarda axborot yetakchiligidagi biz yetishmayotgan tafsilotlarni o‘ylab topishga majburmiz.

Ijodiy fikrlash jarayonida farazlar va taxminlarni ilgari surish axborotlar olishga va g‘oyalarni paydo bo‘lishiga yangi yo‘llar ochadi.

Faqat axborotlarni tahlil qilishgina yangi g‘oyalarni paydo bo‘lishi uchun yetarli emas. Bunda aql foydalanishga oldindan tayyor qilib qo‘yilgan, ya’ni eski g‘oyalarnigina ko‘rishi mumkin. Shuning uchun farazlarni ilgari surish san’atini rivojlantirish zarur. Ularni diapazoni yetarli darajada keng, ya’ni to‘la asoslangan tasdiqdan tortib to ko‘p hollarda, hatto to‘g‘riga o‘xhashlikka ham da’vo qila olmaydigan absurd farazlargacha bo‘lishi mumkin.

Absurd g‘oya muammoga boshqa tomondan nigoh tashlashga imkon beradi. U yangi yo‘llarni taklif qilmaydi, lekin eski va toptalgan yo‘llardan chiqaradi. Ijodiy fikrlash yangi yaratuvchan konstruktiv g‘oyalari (ayrim hollarda mantiq chegarasidan chiquvchi)ni intellekt, intuitsiya va ijodiy tasavvur yordamida generatsiyalash va ro‘yobga chiqarish jarayonidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aysacheva Z.A., Ibroximova M.M., Nasirov I.Z. *Parallel management of educational and scientific materials for students// Proceedings of the ICECRS “Generating knowledge through research” 04 aprel 2019 JL.Monopahit 666B, Sidoarjo, Jawa Timur 61215, Indonesia ISSN: 2548-6060. P. 298-305.*
2. Насиров И.З. Техник ижодкорлик асослари. Ўқув қўлланма. – Андижон: “Step by steep print”, 2020. – 124 б.
3. Lipman J., Aspinwall M. *Alexander Calder and his magical mobiles*. New York: Hudson Hills Pres
4. s; Whitney Museum of American Art, 1981.

Narzullaeva B.X.,
Toshkent shahar 328-maktab o'qituvchisi,
mustaqil tadqiqotchi

**MAHALLA VA XOTIN-QIZLAR BILAN ISHLASH VA OILADA MA'NAVIY-AXLOQIY
QADRIYATLARNI MUSTAHKAMLASH BO'YICHA MUTAXASSIS FAOLIYATINI
TAKOMILLASHTIRISH**

Annotatsiya. Mahallada xotin-qizlar bilan ishlash va oilalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha mutaxassis faoliyatini takomillashtirish vazifalari, mamlakatimiz tarixida xotin-qizlarning jamiyatdagi faoliyati va zamonaviy namunali oilaning mezonlari tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: oila, mahalla, xotin-qizlar, ijtimoiy faollilik, faoliyat, iqtisodiy-ijtimoiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, sohalar.

Аннотация. В данной статье излагаются рекомендательные задачи по совершенствованию работы специалистов по работе с женщинами в махаллях и укреплению духовно-нравственных ценностей в семьях, роли женщины в истории нашей страны и критериям современной образцовой семьи.

Ключевые слова: семья, махалля, женщины, социальная активность, деятельность, социально-экономическая, социально-политическая, духовно-нравственная сфера.

Annotation. The tasks of improving the work of a specialist in working with women in the neighborhood and strengthening the spiritual and moral values in families, the role of women in society in the history of our country and the criteria of a modern exemplary family are proposed.

Key words: family, neighborhood, women, social activism, activity, economic-social, socio-political, spiritual-moral, spheres.

Mamlakatimizda olib borilayotgan izchil islohotlar natijasida yurt istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor mahallada faoliyat yuritayotganlarning ijtimoiy faolligini oshirish jarayoni ko'lами kengaytirish zarurati mavjud. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risidagi (2021-yil 3-fevral) Farmonida mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish va oilaning ijtimoiy holatini yaxshilash maqsadida kambag'allikni qisqartirish va uzoq muddatli barqaror iqtisodiy-ijtimoiy va ma'naviy o'sishning poydevorini yaratishda mahallalarda "Ayollar" va "Yoshlar" daftariga kiritilgan fuqarolarga yer maydonlari va mehnat qurollarini xarid qilish uchun subsidiyalar ajratish amaliyoti yo'nga qo'yiladi. Farmonda "Markaz-Mahalla-Fuqaro" tamoyili bo'yicha davlat xizmatlari orqali ko'rsatib borishini ta'minlash bo'yicha va "Bir ziyoli – bir mahallaga ma'anaviy homiy" g'oyasini amalga oshirish vazifalari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonda (2018-yil 2-fevral). Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, ushbu sohadagi ishlarning holati xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ular bilan maqsadli ishlarni tashkil etish, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash va sog'lomlashtirishning samarali mexanizmlarini yaratishga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammo va kamchiliklar mavjudligi qayd etilgan.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashi, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2018-yil 1-apreldan fuqarolar yig'inlarining diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha

maslahatchisi lavozimi o‘rniga tegishli shtat birliklarini tuman (shahar) xotin-qizlar qo‘mitalari tuzilmasiga o‘tkazgan hamda mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish tartibini saqlagan holda xotin-qizlar bilan ishslash va oilalarda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo‘yicha mutaxassis lavozimini joriy etildi va mutaxassis lavozimi har bir fuqarolar yig‘inida bittadan, oilalar soni 2000 va undan ortiq bo‘lgan fuqarolar yig‘inlarida esa ikkitadan bo‘lish tasdiqlanadi.

Xalqimizdan azal-azaldan “mahalla-Vatan ichra Vaatndir”, “Otang – mahallang, onang – mahallang”, – degan hikmatlar bejiz tilga olinmagan va ularga izchil rioya qilib kelingan. Darhaqiqat, mahalla fuqarolarni, birinchi navbatda, o‘g‘il-qizlarni odob-axloq, or-nomus, birdamlik, umuman, milliy an’ana ruhida tarbiyalash o‘chog‘idir.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev rahbarligida 2020-yil 12-fevral kuni mahalla tizimini takomillashtirish, mahallalarda tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, jinoyatchilikning oldini olish masalalari bo‘yicha videoselektr bo‘lib o‘tdi. Ushbu yo‘nalishda rejalahtirilgan chora-tadbirlardan biri: “Mahalla va oila masalalari vazirligini tashkil etish”. U mahalladan tortib respublika darajasigacha qirq mingdan ortiq xodimni birlashtiradi. Vazir – “Mahalla” jamg‘armasiga, vazirning birinchi o‘rinbosari – “Xotin-qizlarni va oilani qo‘llab-quvvatlash” jamoat fondiga, Keksalar va faxriylar bo‘yicha o‘rinbosar “Nuroniy” jamg‘armasiga raislikni ham bajaradi.

“Xotin-qizlarni qo‘llab quvvatlash va oila institutini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturida”gi va yuqoridagi farmonda belgilab berilgan ustuvor yo‘nalishlar va vazifalar belgilab berilgan.

Respublikamiz 1991-yil mustaqilikka erishgandan keyingi yillarida mahallaning mahalla tushunchasi, ishlarini tashkil etish, uning mohiyati va maqsadi hamda o‘zini o‘zi boshqarish, uning vakolatlari, mahalla oqsoqolining va xotin-qizlar kengashining vazifalari bo‘yicha A.M.Meliyev, T.Shukurov, N.Abdullayev, D.G‘ulomova, T.Sattarov, F.S.Ayupovlar tomonidan nazariy va amaliy ishlar qilingan.

Pedagogika, psixologiya olimlaridan O.Musurmonova tomonidan oila, oilani turlari, oilani o‘rganish algoritmi, O.Safarov, N.Mahmudovlar oila ma’naviyati, M.Kuronov oilada milliy tarbiya, V.Karimova, E.G‘oziyev, M.Davletshinlarning oila psixologiyasi masalalari o‘rganilgan.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar tahlili mahalla xotin-qizlar bilan ishslash mutaxassis faoliyatining vazifalari to‘liq ochib berilmagan, bu alohida tadqiqot muammolari sifatida o‘rganilmagan.

Bizlar quyidagi ilmiy-tadqiqot vazifalarini belgilab oldik:

- mamalakatimiz tarixida xotin-qizlarning jamiyatdagi faoliyatini o‘rganish va tahlil qilish;
- xalqimizning milliy va madaniy an’analarini tiklashda xotin-qizlarning o‘rni;
- mahalla xotin-qizlar bilan ishslash va oialalarda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo‘yicha mutaxassisning pedagogik-psixologik optimal prinsiplarini ishlab chiqish;
- zamonaviy namunali oilaning mezonlarini va tadqiqot natijasida tavsiyalar ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янда ривожлантириши бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони, Ўзбекистон Республикаси Конун хужжастлари тўплами. 2017. Б-39.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Хотин-қизларни қўллаб-кувватлаш ва оила институтини мустаҳкамлаш соҳасидаги фаолиятини тубдан токомиллаштириши чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5325-сонли фармони. //Халқ сўзи газетаси, 2018 йил 2 февраль.
3. Баркамол авлодни тарбиялашда “Оила, маҳалла ва таълим муассасалари” ҳамкорлиги Концепцияси. – Тошкент: 2012 йил.
4. Сафаров О., Маҳмудов М. “Оила маънавияти”. – Тошкент: Маънавият. 1998 йил. 191 бет.
5. Куронов М. Миллий тарбия. – Тошкент: Маънавият. 2018 й. 163 б.
6. Мелиев X.A., Буранова Ш. Манаалла, оила ва мактабгчнча таълим ташкилоти ҳамкорлик тизими ишларини токомиллаштириши. Жиззах ш. 2021й. ЖДПИ, Таҳририй-нашириёт бўлими. Монография. 108 б.

Muxsiyeva Aziza,
Nizomiy nomili TDPU dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi

OILADA BOLALARNI MA'NAVIY-AXLOQIY FAZILATLARINI TARBIYALASH – MAMLAKAT TARAQQIYOTI OMILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy fazilatlarini tarbiyalashning milliy xususiyatlari, oilaning ijtimoiy mavqeyi hamda ota-onalarining farzandlar tarbiyasida etnopsixologik va pedagogik g'oyalarga tanishlari o'sib kelayotgan avlodda milliy o'zlikni anglash, milliy qadriyatlarga sodiqlik hissini tarbiyalashdagi o'rni yoritib berilgan. Jamiatning taraqqiy etishida oilaviy tarbiyaning ahamiyati tahlil etilgan.

Tayanch so'zlar: oila, milliy qadriyatlar, barkamol shaxs, tarbiya, milliy g'urur, milliy tarbiya, insonparvarlik, milliy madaniyat, ona mehri, ma'naviy-axloqiy fazilatlar.

Аннотация. В статье освещаются национальные особенности воспитания детей в семье, социальный статус семьи и роль знакомства родителей с этнопсихологическими и педагогическими идеями в воспитании у подрастающего поколения осознания национальной идентичности, верности национальным ценностям в воспитании детей. Анализируется значение семейного воспитания в развитии общества.

Ключевые слова: семья, национальные ценности, гармоничная личность, воспитание, национальная гордость, национальное воспитание, человечность, национальная культура, материнская любовь, духовно-нравственные качества.

Annotation. The article highlights the national characteristics of raising children in the family, the social status of the family and the role of acquaintance of parents with ethnopsychological and pedagogical ideas in the upbringing of the growing generation of awareness of national identity, loyalty to national values. The importance of family education in the development of society is analyzed.

Key words: family, national values, harmonious personality, upbringing, national pride, national upbringing, humanity, national culture, motherly love, spiritual and moral qualities.

Mamlakatimizda pedagogika fani taraqqiyotida yangi bosqich boshlandi. Bu bosqichning o'ziga xos xususiyati milliy qadriyatlarni tiklash, ularni chuqur o'rganish, asrab-avaylash hamda boyitish yo'lida amalga oshirilayotgan ijtimoiy harakatga uyg'un tarzda milliy pedagogik yondashuvlarni tadqiq qilish, oilada shaxsga tarbiya berish borasidagi Sharq va G'arb tajribalarini o'zaro muvofiqlashtirish, milliy-etnik qarashlarga tayangan holda mayjud yutuqlaridan samarali foydalinishga alohida e'tibor qaratilayotganligida aks etadi. Ayni vaqtda bu yo'lida bir qator ibratli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, oilada milliy tarbiya imkoniyatlarini o'rganish, xalqning boy pedagogik tajribasini tadqiq etish asosida yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga yo'naltirilgan keng ko'lamli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Oilalarda tashkil etilayotgan tarbiya o'zining tub mohiyatiga ko'ra milliy xususiyatlarni namoyon etish bilan birga ijtimoiy maqsadning amalga oshishiga xizmat qiladi. Shu bois pedagogika fanida oila tarbiyasi ijtimoiy pedagogikaning muhim yo'nalishi sifatida o'rganiladi. Mamlakatimizning taraqqiy etish yillarida oila muammolari va oila tarbiyasini tashkil etishda samaradorlikka erishish masalalarining tadqiq etilishiga davlat siyosati darajasida ahamiyat berib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Hayot oldimizga yana qancha sinov va muammolarni qo'yishi mumkin va biz har qanday holatga tayyor turishimiz zarur. Lekin qanchalik qiyin va murakkab bo'lmasin, demokratik islohotlar yo'lidan hech qachon ortga qaytmaymiz. Oldinga, faqat oldinga qarab boramiz. Va biz bunga har tomonlama qodirmiz. Chunki bugungi xalqimiz – kechagi xalq emas. Bugungi O'zbekiston ham – kechagi O'zbekiston emas¹⁰⁶" – deb ta'kidlab o'tdilar.

¹⁰⁶ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга мурожаати. <https://president.uz/uz/lists/view/3324>.

Mazkur g‘oyalar, davlat siyosatini yorituvchi manbalarda ham o‘z aksini topdi. Xususan, murojaatnomada oilaning jamiyatda tutgan ijtimoiy mavqeyi, uning demokratik va insonparvarlik g‘oyalariga asoslanuvchi jamiyatni barpo etishdagi roli aniq ifodalab berilgan. Chunonchi, oila – ma’naviy-axloqiy tarbiyaning eng muhim ijtimoiy omillaridan biridir. Chunki oila – jamiyat negizi bo‘lib, ko‘p asrlik mustahkam ma’naviy tayanchlarga ega. Milliy madaniyatimizga xos bo‘lgan ilk tushunchalar, avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o‘giti, ona mehri orqali amalga oshadi.

Oilani “tarbiya o‘chog‘i” sifatida farzandlarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash milliy tarbiya samaradorligini ta’minlashning muhim tamoyil ekanligiga e’tiborni qaratdi. Har bir oilaning mustahkamligi, farovonligini, o‘zaro hurmat va ahillikni ta’minlash – milliy mafkurada ko‘zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirishda tayanch bo‘ladi.

Oila muhitida tashkil etilayotgan tarbiyaviy faoliyatning milliy tarbiya g‘oyalariga asoslanishi shubhasizdir. Zero, ma’naviy-axloqiy tarbiya deganda ham milliy, ham zamonaviy talablarga mos an’ana va tajribalar vositasida amalga oshirilayotgan tarbiya jarayoni tushuniladi.

Oilada ma’naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida milliy tarbiya asoslaridan o‘rinli foydalanish, ota-onalarning farzandlar tarbiyasida etnopsixologik va pedagogik g‘oyalarga tanishlari o‘sib kelayotgan avlodda milliy o‘zlikni anglash, milliy qadriyatlarga sodiqlik hissini tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi. Oilada ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonida ota-onalarning samarali metodik yondashuv asosida ish ko‘rishlari farzandlarda milliy mentalitetga xos sifatlarni tarbiyalash, ma’naviy-axloqiy tarbiya asoslarini avloddan avlodga uzatish imkonini beradi. So‘nggi yillarda pedagogika va psixologiya yo‘nalishlarida olib borilgan ilmiy izlanishlar hamda aholi, shu jumladan, yosh ota-onalar o‘rtasida tashkil etilgan ijtimoiy so‘rovlar natijalarining qayd etishicha, ularning aksariyati milliy tarbiya asoslari, xususan, farzandlar tarbiyasini yo‘lga qo‘yishda milliy-metodik g‘oyalardan foydalanish tajribasiga ega emasliklarini ko‘rsatdi.

Oila tarbiyasini samarali tashkil etishda ularning mazmunida ilg‘or, ta’sirchan, bolalarda o‘z-o‘ziga ishonch, olg‘a intilish, tirishqoqlik, har bir faoliyatni tashkil etishda qat‘iyatli bo‘lish, ulardagi xavotir va qo‘rquv hissini bartaraf etish, mustaqil fikrlash olish, o‘z qarashlarini erkin bayon eta olish va uni isbotlay bilish kabi sifatlarni tarbiyalashga yordam beruvchi tarbiya metodlaridan keng foydalanishga imkon beruvchi pedagogik shartt-sharoitlarni ilmiy asosda o‘rganish o‘ziga xos davom etadi.

Oila va uni boshqarish masalalari Abdurauf Fitrat tomonidan yaratilgan “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asarining asosi g‘oyasi sifatida tanlangan bo‘lib, unda muallif asosi e’tiborni uylanish, umr yo‘ldoshi tanlash, oilaviy hayotni yo‘lga qo‘yish, oila a’zolarining ahil bo‘lishlari, oilaviy farovonlikni ta’minlash shartlari, farzand tarbiyasi, ota-onalarning haq-huquqlari va hokazolarga qaratadi. Asarda, shuningdek, oila tarbiyasini yo‘lga qo‘yishda qo‘llaniluvchi uslublar borasida ham so‘z yuritiladi. Tushuntirish, hikoya qilish, namuna ko‘rsatish, rag‘batlantirish, bolani haqoratlash va qo‘rqtishdan saqlanish kabi uslublardan foydalanish oilada bolalar tarbiyasini tashkil etishda samarali ekanligiga e’tibor qaratiladi. Muallifning qayd etishicha, “ertak orqali bo‘lsa ham ularga (bolalarga) doim fidokor odamlar haqida, muruvvatli shaxslarning fe’llari haqida, mo‘min va Allohdan qo‘rquvchi odamlar haqida hikoya qilib, yaxshi amallarning foydasini eslatib turish lozim. Dev-u pari, jin va cho‘l-u biyobonlar haqidagi qissalarni bolalarga aytmanglar. Yomon xulq va ishyoqmaslikning zararlari haqida bolalarga aytib berish va zehniga buni joylash ota-onha uchun ajibdur. Bunday qissa va hikoyalar vaqt o‘tishi bilan eslaridan chiqsa, ta’siri zehnlarida qoladi va hayotlariga katta ta’sir ko‘rsatadi”¹⁰⁷.

Oila qanday bo‘lsa, jamiyat ham shunday bo‘ladi. Oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish ko‘pgina omillar ta’sirida tarkib topadi. Bu omillarning asosi oilaviy munosabatlar xarakteri, ota-onalarning shaxsiy namunasi, ulardagi umumumtlum darajasi va saviyasi hamda ularning pedagogik madaniyati va oilaviy hayotning tashkil eta olishidan iborat. Ma’naviy-axloqiy tarbiya odam axloqini kamolga yetkazish demakdir, ya’ni odamni shunday tarbiya qilish kerakki, uning fe’li va amali o‘ziga ham, boshqalarga ham foydalni va manfaat keltiradigan bo‘lsin.

Xulosa qilib aytganda, oilaning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyi, oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish va uning samaradorligini ta’minlash, farzandlar tarbiyasini tashkil etishda qo‘llaniluvchi uslublar, oilaning muqaddasligi va jamiyatning asosi, oilada amalga oshirilayotgan tarbiya mazmunida farzandlarning aqliy, ma’naviy-axloqiy kamoloti jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi muhim omil ekanligi e’tirof etiladi.

¹⁰⁷ Фитрат А. Оила ёки оила башқарыш тартиблари. – Т.: Маънавият, 1998. – 80-81-бетлар.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга мурожсаати. <https://president.uz/uz/lists/view/3324>.
2. Фитрат А. Оила ёки оила бошқарии тартиблари. – Тошкент: Маънавият, 1998. – 80-81-бетлар.
3. Иномова М. Оиласда болаларни маънавий-ахлоқий тарбиялашда миллий қадриятлар. – Тошкент, 1995.

Xidirova Nargiza O‘rinovna,
tarix fanlari nomzodi, yetakchi ilmiy xodim,
O‘zMU “Ijtimoiy fanlar” fakulteti

O‘ZBEK XALQI MILLIY URF-ODAT VA AN’ANALARIDA YETIM BOLAGA MUNOSABAT MASALALARI

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek milliy urf-odat va an’analari asosida shakllangan yetim bolaga munosabat masalalari xalq og‘zaki ijodi va arxiv hujjatlari asosida tahlil etilgan. Ertak, doston, maqollarda aks etgan jihatlar, islom shar’iy qoidalari asosida shakllangan yetim bolaga munosabat masalalari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: yetim bola, xalq og‘zaki ijodi, arxiv hujjati, urf-odat, an’ana, ona, ota, xola, qarindosh.

Аннотация. В статье анализируются вопросы обращения с детьми-сиротами, сформированные на основе узбекских национальных обычаяев и традиций, на основе фольклорных и архивных документов. Изучались аспекты, отраженные в сказках, былинах, пословицах, вопросы лечения ребенка-сироты, сформированные на основе норм исламского шариата.

Ключевые слова: ребенок-сирота, фольклор, архивный документ, обычай, традиции, мать, отец, тетя, родственник.

Annotation. The article analyzes the issues of treatment of orphans, formed on the basis of Uzbek national customs and traditions, on the basis of folklore and archival documents. The aspects reflected in fairy tales, epics, proverbs, issues of treatment of an orphan child, formed on the basis of the norms of Islamic Sharia, were studied.

Key words: Orphan child, folklore, archival document, customs, traditions, mother, father, aunt, relative.

Ma’lumki, o‘zbek xalqi orasida azaldan turli xil an’ana va urf-odatlar keng tarqalgan. Ular odamlarning kundalik turmush tarzi, ijtimoiy hayotdagi ishtiroki, o‘ziga xos mentaliteti, yozilgan va yozilmagan qonun-qoidalarni o‘zida ifodalaydi. Ushbu an’analalar avloddan avlodga o‘tib, asrlar osha hozirgi kungacha yashab kelmoqda. Xususan, yetimning boshini silash, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, unga bag‘rikenglik bilan munosabatda bo‘lish an’anasi ham qadimdan shakllangan. Lekin, afsuski, ushbu an’analarning o‘ziga xos jihatlari, huquqiy asoslari, manbalari aniqlanib hozirgi kungacha tizimli ravishda ilmiy tadqiq etilmagan. Ayniqsa, o‘rta asrlar davrida yashagan yetim bolalarning ahvoli, ularga oid qonun-qoidalalar masalasi ko‘philikni qiziqtirsa-da, bu borada ham amalga oshirilgan tadqiqot ishlarini topish qiyin. Borlari esa allaqachon oltin fonddan joy olib, nodir tadqiqotlar ro‘yxatiga kiritilgan¹⁰⁸.

Yetim bola va xalq og‘zaki ijodi

Barcha xalqlarda bo‘lgani kabi o‘zbek xalqi orasida ham turli xil ertaklar, maqollar, dostonlar, topishmoqlar keng tarqalgan. Ular og‘izdan og‘izga o‘tib hozirgi kungacha xalqning bebafo boyligi sifatida

¹⁰⁸ Ушбу мавзуга оид ишлар қаторига А.Л. Троицкаянинг тадқикотини киритиш мумкин. Қаранг: Троицкая А.Л. Сагира в Кокандском ханстве (XIX в.) // Исследования по истории культуры народов Востока. – Москва-Ленинград. 1960. – С.271 – 279.

asrab kelinmoqda. Xususan, o‘zbek xalqi og‘zaki ijodida yetim bola obrazi alohida o‘rin tutadi. U ko‘plab rivoyatlar, ertaklar va hikoyalarning asosiy qahramoni sifatida gavdalanadi. Ayniqsa, onasidan yetim qolgan qiz va o‘gay ona to‘g‘risidagi ertaklarda ikki qahramon bir-biriga qarama-qarshi qo‘yiladi. Qiz oqila, odobli, mehribon bo‘lsa, o‘gay ona, aksincha, berahm va zolim ayol qiyofasida ko‘z oldimizga keladi. Bunga o‘zbek xalq ertaklaridan biri “Zumrad va Qimmat”ni misol qilib keltirish mumkin. Bu ertak yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo‘lgan odamlar orasida hozirgacha juda mashhur. Albatta, Zumradga o‘xshagan ertak qahramonlari asrlar davomida bolalarda mehnatsevarlik, mehribonlik kabi xislatlarni shakkantirishga xizmat qilib kelmoqda.

Otasi yoki onasidan yetim qolgan o‘g‘il bola ertak qahramoni sifatida kamdan-kam uchrasa-da, ular xalq eposlarining asosiy qahramonlaridir. Jumladan, O‘rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan “Go‘ro‘g‘li” dostonini ana shunday dostonlar qatoriga kiritish mumkin. Bu dostondagи asosiy obraz Go‘ro‘g‘li bo‘lib, u nafaqat o‘zbek, umuman, O‘rta Osiyo xalqlari, balki Sibir tatarlari, Bulg‘or turklari, ozarbayjonlarning ham epik qahramonidir¹⁰⁹. Ushbu dostonning bir necha xil variantlari O‘rta Osiyoda keng tarqalganligini alohida ta’kidlash zarur. Dostonda keltirilishicha, Go‘ro‘g‘li olti oylik homilasi bilan vafot etgan *Bibi Hiloldan* tug‘ilib, qabr ichida dunyoga keladi. U dastlab onasini, keyin Rustam degan cho‘ponning biyasini emib ulg‘ayadi. Keyinchalik uni Rustam cho‘pon o‘z tarbiyasiga oladi. Go‘ro‘g‘li baquvvat, aqli, pahlavon yigit bo‘lib yetishadi. U o‘z qahramonliklari bilan xalq olqishiga sazovor bo‘ladi. Ushbu dostonnda qadimgi turkiy xalqlarga xos otni e‘zozlash, unga o‘zgacha mehr ko‘rsatish masalasi ham alohida o‘rin tutadi. Asar qahramoni bilan uning oti o‘rtasidagi o‘xshashliklar juda chiroyli tarzda tasvirlanadi. Jumladan, Go‘ro‘g‘lining oti G‘irko‘k yetti kunligidayoq onasidan yetim qoladi. Bu ot Go‘ro‘g‘lini o‘z suti bilan katta qilgan biyadan tug‘ilgan edi. Shu bois Go‘ro‘g‘li unga alohida mehr ko‘rsatib parvarishlaydi¹¹⁰.

Go‘ro‘g‘lida xalq orzu qilgan yuksak axloqiy tushunchalar mujassamlashgan bo‘lib, u ideal obrazdir. Xususan, uning g‘ayritabiyy ravishda tug‘ilishi, bolaligi kabi voqealar nihoyatda badiiy to‘qima va fantaziyaga boy tarzda tasvirlanadi. Dostonning ushbu qismlari baxshi tomondan jonli tarzda aytilganda yuraklarni sel qilib, odamlarni hayajonga solgan. “Go‘ro‘g‘li” dostoniga o‘xshagan dostonlar asrlar davomida o‘tmish bilan kelajakni bog‘lovchi, odamlar qalbiga mehr urug‘larini qadovchi bir vosita vazifasini bajargan. Shuningdek, ular bolalarni mard, jasur, sadoqatli qilib voyaga yetkazishda ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

O‘zbek xalqi og‘zaki ijodida maqollar ham muhim o‘rin tutadi. Ular xalq donoligi va hozirjavobligini o‘zida ifoda etish bilan birga, qaysidir ma’noda amaliy hayotdagi ulkan tajribani ham ko‘rsatadi. Jumladan, o‘zbek xalqi og‘zaki shevalari va adabiyotida hozirgacha maqollar vaziyat hamda yuz berayotgan voqealarga qarab qo‘llaniladi. Xususan, yetim bola haqida ham ko‘plab maqollarni uchratish mumkin. “Otasis yetim – gul yetim, onasiz yetim – o‘lyetim”. Ushbu maqolni bir tomondan yuqorida keltirilgan Zumradga o‘xshagan qizlarning taqdirdan kelib chiqilgan xulosa tarzida ham qabul qilish mumkin. Ikkinci tomondan, yosh bolani tarbiya qilishda onaning mehri, fidoyiligi otanikidan biroz ustun degan ma’noni ham uqib olish mumkin. Axir onani butun mehr-muhabbati bolaga ko‘krak suti orqali kiradi. Xususan, islom ulamolari ham o‘z amaliy ish tajribalaridan kelib chiqib, shunga ishora qilishadi: “*onanining suti ko‘kragidan to‘kilgay, ul joy esa dilga yaqindir. Dil esa mehribonlik mavzesi va muhabbat joyidir. Shuning uchun ona farzandga mehribon bo‘lgay. Otaning suvi orqasining ustuxonidan to‘kilgay va ul suv keladigan joy dildan uzogroqdir*”¹¹¹. Bu yerda bolalarni tarbiya qilishda otaning ham o‘ziga xos o‘rnini e‘tirop etish zarur. Bundan tashqari “*Yetimcha – yetti kulcha*”, “*Yetimning og‘zi oshga yetganda burni qonabdi*” (va boshqalar) kabi maqollar ham mavjud. Maqollar asosan kundalik hayotda ma’lum bir hayotiy tajribaga ega bo‘lgan kishilar bobo yoki buvi, ota yoki ona tomonidan tez-tez qo‘llanilgan. Bu esa bolalarni hushyor, kamtar bo‘lishga undash bilan birga kundalik hayotda yuz berishi mumkin bo‘lgan noxushliklarning oldini olishga, vaziyatni to‘g‘ri baholashga yordam bergan.

Yuqorida keltirilganlardan tashqari O‘rta Osiyo xalqlari urf-odat va an’alariga ko‘ra, yetimning haqiga xiyonat qilish og‘ir gunoh deb qaraladi. Bunday qarashlar, albatta, islom dini omili bilan bog‘liq. Hattoki yetim bolaning otasi yoki onasi vafot etsa, qadimgi urf-odatga muvofiq dafn marosimiga kelgan odamlar dasturxonga qo‘l uzatmaganlar. Bu ham yetimning haqidan tiyilishning bir belgisi hisoblanardi¹¹².

¹⁰⁹www.kitob.uz

¹¹⁰www.kitob.uz

¹¹¹Максудхўжа ибн Мансурхўжа. Мажмаъ ул-мақсуд ёки Мухтасар ул-виқоянинг ўзбекча шархи. – Б.528.

¹¹²Шомақсудов Ш. Шораҳмедов Ш. Маънолар маҳзани. – Тошкент. 2001. – Б.92.

Shu bois “*Sag‘irning eshididan o‘tsang, chang yuqsa, kavushingni qoqib o‘t*”, “*Yetimning haqi yetti daryoni quritadi*”, “*Sag‘irning haqi – tangrining o‘qi*” degan maqollar keng tarqalgan.

Yetim bolalarga oid arxiv hujjatlari

O‘rtा Osiyo hududida tashkil topgan Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklariga tegishli arxiv fondlarida yetim bolalarga oid hujjatlarning katta qismi XIX-XX asr boshlariga oiddir. Hujjatlarning mazmuni va tuzilishi jihatdan turli xil bo‘lib, ularni quyidagi qismlarga ajratish mumkin:

1. Yetim bolani farzandlik yoki *vasiylikka* olish.
2. Yetim bolaning merosiy mulkidan foydalanish.
3. Yetimlarning nikohi.
4. Saroyda tarbiyalangan yetim bolalar.

Yuqorida keltirilgan hujjatlarning asosiy qismi *qozilik* tizimida rasmiylashtirilgan. Qozilik hujjatlarida asosan ota-onasi, otasi yoki onasi yo‘q bolalarga nisbatan *sag‘ir* (arabcha – kichik, go‘dak, yosh bola) termini qo‘llaniladi. Ushbu so‘z O‘rtा Osiyo xalqlari, xususan, o‘zbek va tojiklar orasida yetim degan ma’noda qo‘llanilgan¹¹³. X-XIII asrlarga oid ayrim qozilik hujjatlarida arabcha yetim (yatimun – يَتِيمٌ) terminining o‘zi ham uchraydi. Ota-onasi bor, lekin voyaga yetmagan bolalarning ismi yoniga ham kamdan kam hollarda *sag‘ir* so‘zi qo‘shib yozilgan. Shu bois bu masalalarni hujjatlar mazmuniga qarab bir-biridan farqlash mumkin.

Qozilik amaliyotiga ko‘ra, yetim bolani parvarish qilish va tarbiyalash asosan yaqin qarindoshlar zimmasiga yuklatilgan. Bu huquq, eng avvalo, ota vafot etgan bo‘lsa, onaga yoki ona vafot etgan bo‘lsa, otaga berilgan. Agar har ikkalasi vafot etgan bo‘lsa, bolani ona tomonidan buvisi tarbiya qilishga haqli bo‘lgan¹¹⁴. Bunday holat bolani o‘z onasi tarbiya qilishga qabul qilmagan yoki ona nomahram (begona) erga turmushga chiqqan vaqtlarida ham amalga oshirilgan. Shuningdek, bu yerda bolaning yoshi ham hisobga olingan. Bola hali yosh, emizikli bo‘lsa, ota yoki ona tomonidan buvisining tarbiyasiga topshirilgan. Ular qandaydir sabab bilan bolani qabul qilmasa, u ona tomonidan xolasi yoki ota tomonidan ammasi qaramog‘iga berilgan.

Yetim bolaning qarindoshlari (ayrim hollarda begonalar) tomonidan farzandlikka olinishi maxsus hujjatlar orqali rasmiylashtirib qo‘yilgan. Ushbu jarayonda bolaning ota va ona tomonidan yaqin qarindoshlari, bolaga talabgor bo‘lgan shaxslar, guvohlar va *qozi* ishtirot etgan. Bolani farzandlikka olayotgan shaxslarga nisbatan ham o‘ziga xos talablar qo‘yiladi. Xususan, aqlan sog‘lom, ma’lum bir hayotiy tajriba ega, axloqiy jihatdan tarbiyali va imkon qadar yoshi ulug‘ kishilar bunday ishlarga loyiq deb topilganligi kuzatiladi.

Bolani farzandlikka olish va unga vasiylik qilishda yuqorida aytiganidek, meros masalasi ham hisobga olingan. Ya’ni unda merosiy mulkni begonalar qo‘liga o‘tib ketmasligi ham nazarda tutiladi. Lekin hanafiy ulamolar har qanday holatda ham farzandga ona tomonning eng yaqin qarindoshlari, birinchi o‘rinda, da‘vogar deb bilgan va shunga yarasha hukmlar chiqarishgan. Agar ota va ona qarindoshlari o‘tasida vasiylik masalasida tortishuvlar kelib chiqsما، u imkon qadar kelishuv yo‘li bilan hal etilgan. Xususan, bolani ona tomondagи qarindoshlar vasiylikka olsa, ularni nazorat qilish uchun ota tomon qarindoshlaridan bir kishi vakil sifatida tayinlangan¹¹⁵.

Ota o‘z farzandlariga yaqin qarindoshlaridan biron kishini *vasiy* sifatida tayinlab vasiyat qilishi ham mumkin bo‘lgan. Bolalarning vasiysi ba’zi hollarda qozilar tomonidan ham belgilangan. Bu quyidagi ikki holatda yuz beradi: Birinchidan, bolalarga ota-ona tomonidan vasiy tayinlanmagan bo‘lsa, ikkinchidan, tayinlangan vasiy yetim bolalarning haqiga xiyonat qilsa. Chunki vasiylikka olingan bolalarga tegishli mol-mulk qozilar tomonidan ro‘yxatga olingan va uning sarflanishi ham nazorat qilinardi. Vasiy etib tayinlangan shaxslar belgilangan ma’lum bir muddatda yetim bolalarning mol-mulkidan sarflangan xarajatlar haqida qoziga hisobot berib borgan. Hozirgacha men tanishib chiqqan Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklariga oid qozilik hujjatlarida ushbu hisob muddati aniq keltirilgan emas. Lekin Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston general-gubernatorligiga qarashli bo‘lgan hududlarda faoliyat yuritgan qozilar vasiylardan har shanba hisob olganligini aytib o‘tadi. O‘z navbatida, bu hisobotlar maxsus daftarlarga (balki “*sag‘ir daftarlari*”ga ham) yozib borilgan va yil oxirida qozilar majlisida ko‘rib chiqilgan. Bu majlisda u-to‘rt qozi yig‘ilib vasiylarning ishlarini taftish qilgan. Qozilar hisob davrida vasiylardan ma’lum bir miqdorda haq olgan bo‘lsa kerak. Chunki hisobotlar, yuqorida aytib o‘tganizdek, yozib borilgan. Vasiyning o‘zi ham yetim bolalar mol-mulkiga

¹¹³ Троицкая А.Л. Сагира в Кокандском ханстве (XIX в.) // Исследования по истории культуры народов Востока. – С. 271.

¹¹⁴ Максудхўжа ибн Мансурхўжа. Мажмаъ ул-максуд ёки Мухтасар ул-викоянинг ўзбекча шархи. – Б.523.

¹¹⁵ Махмудхўжа Бехбудий. Сагирлар ҳақинда. Ойна журнали. 1915 йил. №15. – Б.204.

tegishli maxsus daftar yuritgan bo‘lishi kerak. Ular ham “sag‘ir daftarlari” qatoriga kirganligi ehtimoldan xoli emas. Chunki O‘zbekiston Respublikasi Milliy Arxivida ana shunday daftarlardan biri saqlanadi¹¹⁶.

Saroyda tarbiyalangan yetim bolalar turli tabaqaga mansub edi. Ular o‘z tabaqasi va iqtidoriga qarab saroy devonxonasida (kotib yoki biron kichikroq lavozim egasi), omborxona, xazina, mакtab va haram (ichkari)da xizmat qilgan. Ular orasidan ov qushlarini o‘rgatuvchi mohir ovchilar, hunarmandlar ham yetishib chiqqan¹¹⁷.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

1. O‘zbek milliy urf-odat va an’analari asosida shakllangan yetim bolaga munosabat masallalarini tizimli ilmiy tadqiq etish.

2. Islom dini qonun-qoidalari va mahalliy odatlarda aks etgan yetim bolaga munosabat masallalarini tarixiy rakursda o‘rganish va yosh avlodga yetkazish.

3. Yetim bolalarga oid qo‘lyozma manba va arxiv hujjatlarini ilmiy iste’molga kiritish.

Tursunov Ramziddin Abduhalil o‘g‘li,

*Namangan davlat universiteti Yuridik
fakulteti 3-bosqich talabasi*

MILLIY QADRIYATLAR HAMDA MA’NAVIYAT RUHIDA SHAKLLANTIRILGAN OILADA IJTIMOIY MUHIT VA TARBIYA MASALASI

Annotatsiya. Ushbu maqola jamiyat hayotida oilaning roli hamda ahamiyati, oilaning mustahkam bo‘lishida milliy qadriyatlar va ma’naviyatning o‘rni, milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan oilada ijtimoiy muhit va tarbiya masalalariga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: nikoh, oila, ijtimoiy tarmoq, messenger, qadriyat, ma’naviyat, tarbiya.

Аннотация. Статья посвящена значению семьи в обществе, национальных ценностей и духовности в устойчивости семьи, воспитанной в духе национальных ценностей.

Ключевые слова: брак, семья, социальная сеть, мессенджер, духовность, воспитание

Annotation. This article is devoted to the role of the family in society, the of national values and spirituality in the stability of the family, the social environment and upbringing in the spirit of national values

Key words: marriage, family, social network, messenger, value, spirituality, upbringing

Oila azal-azaldan jamiyatning asosiy bo‘g‘ini, muqaddas maskan sifatida qaralib kelinadigan hamda insoniyat taraqqiyoti va mayjudligining zaruriy sharti bo‘lgan bo‘g‘in hisoblanadi. Oila nafaqat ikki jins vakili bo‘lgan kishilarning erkin ittifoqi, balki muayyan ijtimoiy hodisa hamdir. Sharq xalqalarida, ayniqsa, oilaga jiddiy masala sifatida qaraladi. Shu qatori bizning yurtimizda ham. Qadim qadimdan biz yashab kelayotgan diyorda yashab kelgan insonlar oila, uning o‘rni va ahamiyatiga juda katta e’tibor bilan qarab kelishgan. Davlat tarkibi viloyatlar, viloyat shaharlar, shaharlar mahalla, mahallalar esa oilalardan boshlanishi hech kimga sir emas. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, oila jamoiyat taraqqiyoti hamda rivojida juda katta harakatlantiruvchi kuchga va ahamiyatga ega bo‘lgan bo‘g‘in hisoblanadi. Daryolar kichik-kichik jilg‘alardan boshlanishi, uning ulkan dengizlarga borib quylgani singari, har qaysi millat va davlatning dastlabki negizi ham bevosita oilalar hisoblanadi. Yurtimizda ham Oila masalasi, ularga yordam hamda qo‘llab-quvvatlash, ularning tinch hamda osoyishtaligi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish tizimiga kata e’tibor qaratiladi. Xususan, mamlakatimizning birinchi Prezidenti Islom Karimov oila masalasiga to‘xtalar ekan, uning jamiyat hayotidagi o‘rni haqida shunday fikr bildiradi: “Oila sog‘lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam

¹¹⁶ЎзР МА. Фонд-И-125. 2-рўйхат. Хужжатлар жилди №582. Хужжат №13.

¹¹⁷ЎзРМА. Фонд-И-1043. 1-рўйхат. Хужжат №.2856.

ekan, mamlakat barqarordir”¹¹⁸. Asrlar davomidagi davlatchiligimiz tarixidan milliy fenomen sifatida o‘rin olgan hamda taraqqiy etgan oila instituti sohasidagi tajriba natijasi o‘laror, mamlakatimiz bosh qomusi – Konstitutsiyamizda ham oila masalasiga alohida e’tibor natijasi sifatida, maxsus XIV bobning Oila bobi deb nomlanishi ham unga bo‘lgan munosabatning yorqin ifodasi hisoblanmadni. Bu holat jahon hamjamiyati tomonidan ham ko‘plab e’tiroflarga sabab bo‘lgan deyish mumkin.

Bugungi kunda ko‘plab jihatlarda jamiyat taraqqiy etayotgan bo‘lsa, yana ba’zi jihatlarda o‘zligi boy berish hollarini ham ko‘rish mumkin. Bu jarayonlar oila insitituga ham ta’sir etmay qolmaydi. Xususan, hozirgi kunda jamiyatning turli qatlamlari o‘rtasida, deyarli ko‘pincha oilalarning buzilish hollarini uchratish mumkin. Sabab sifatida esa oddiy elementar hodisalar keltirilayotganligini ko‘rish mumkin. Bu jarayonlarga sabablardan biri yangi davr yoshlaringin yot g‘oyalar, milliy ma’naviyatimiz hamda axloq normalarimiz, mental xususiyatlarimiz hamda qadriyatlarimizga zid bo‘lgan fikrlar, axborotlarning umumiy oqimidan faol tarzdagagi iste’molchi sifatida bahramand bo‘layotganligi, uning bevosita yoshlari dunyoqarashi hamda fikrlashiga ta’sir qilayotganligi, axbort filtri vazifasini o‘tovchi ma’naviy immunitet mavjud emasligi hisoblanadi. Bu holat yoshlarni o‘z an’analariga sodiqlik ruhidan ayirgan holda, ma’naviy tubanlik va inqirozga tomon ketishiga sabab bo‘lmoqda. Bu nafaqat odob-axloq normalarni, balki barqaror rivojlanish, millatning ichki ijtimoiy muhiti, demografik tizimiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Axborot oqimi hozirgi kunda shu qadar shiddatli tarzda amalga oshmoqdaki, uning yo‘lini to‘sish yoki undan chetda qolish xuddi tabiiy ehtiyojlarsiz yashash singari bo‘lib qoldi. Tanganing ikki tomoni bo‘lgani singari bunda turli tuman axborotlar oqimi inson ongi va dunyoqarashini boshqa bir o‘zanga hech qanday qiyinchiliklarsiz bura olmoqda deyish mumkin. Shuningdek, ushbu jarayonlarga yangidan yangi texnologiyalarning yaratilishi, xususan, mobil aloqa vositalari, internet, ommaviy ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, yengil hayot tarzi kabi holatlar ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmayapti. Shu xususida, Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2000-yilda mamlakatimiz bo‘yicha nikohdan ajrimlar soni **19903** tani tashkil etgan bo‘lsa, 2019-yilda bu ko‘rsatkichlar **31389** va 2020-yilda **28233** tani tashkil qilmoqda. Bu ko‘rsatkich qayd etilgan nikoh holatlarining anchayin qismini tashkil etishi achinarli holat hisoblanadi.

Mashxur Amerikalik siyosatchi hamda jamiyatshunos yozuvchi Patrik Jozef Byukennon o‘zining uzoq yillik izlanishlari hamda aholi demografik o‘sish suratlari haqidagi tadqiqotlari natijasida yozgan “G‘arbning halokati“ asarida, bevosita muayyan bir yoki har qaysi mamlakat va millat taqdiri, uning kelajagi, millat sifadia saqlanib qolishi hamda ertangi kun uchun zamin yaratishi oilaga, uning milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga amal qilishida ekanligi, oila instituti o‘z ahamiyatini yo‘qotgan taqdirda butun bir millat ham butunlay yo‘q bo‘lib ketishiga aniq dalil hamda statistik ma’lumotlar bilan keltiradi. Bunda asosiy hal qiluvchi vosita oila ekanligiga alohida urg‘u beriladi. Shuni alohida aytib o‘tish kerakki, mazkur asar muallifi sharq xalqlarining o‘z milliy hamda axloqiy qadriyatlariga sodiq ekanligi natijasi o‘laror oila instituti o‘zining jamiyat hayotida yuksak va mustahkam o‘ringa ega ekanligi dunyo hamjamiyati uchun o‘rnak olsa arzigelik ekanligini ta’kidlab o‘tadi. Bu ham bevosita oilaning jamiyat taqdirida o‘rni hamda ahamiyati beqiyos ekanligining yorqin isboti hisoblanadi. Mamlakatimizda ushbu masalalar hamda jamiyatda oila hamda uning muammolari bilan shug‘ullanuvchi maxsus insitut, oila ilmiy tadqiqot markazi tashkil etish hamda uning faoliyati to‘g‘risida fikr bildirar ekan, davlat rahbari: “Hammamiz yaxshi tushunamiz, bugungi tez o‘zgarayotgan, ziddiyatli davrda oilaviy masalalarni ilmiy asosda chuqur o‘rganmasdan turib, ijtimoiy hayotdagi ko‘plab murakkab savollarga javob topish qiyin”¹¹⁹ deb haqli ravishda ta’kidlaydi.

Har qaysi davrda ham jamiyatning qaysidir sohasini tadqiq qilish, uning muammo hamda kamchiliklarini o‘rganish va unga yechim topish shu davr ijtimoiy hayotining xarakterli jihatni hisoblanadi. Mamlakatimiz Prezidenti oila masalasiga to‘xtalar ekan: “Biz uchun muqaddas bo‘lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonodonlarda tinchlik-xotirjamlik, ahillik va o‘zaro hurmat muhitini yaratish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to‘ldirishdan iborat bo‘lmog‘i zarur”,¹²⁰ deb ta’kidlaydi. Hozirgi kunda yurtimizda oila mustahkamligini saqlashda aholi orasida, ayniqsa, yosh avlod qalbida uzoq yillar davomida shakllanib kelgan milliy qadriyatlarimiz, xususan, oila instituti borasida, uning muqaddasligi hamda jamiyat kelajagini belgilab beruvchi eng muhim omil ekanligi borasidagi fikrlarni singdirib borish samarali vosita hisoblanadi. Jamiyatda

¹¹⁸ Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. I. Karimov. – Toshkent 2008. 36-37-betlar

¹¹⁹ Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Sh.Mirziyoyev. – Toshkent 2018. 464-bet.

¹²⁰ Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning asarlari va ma’ruzalaridan olingan fikrlar. – Toshkent-2019. 96-bet

axloqiy va milliy tamoyillarning shakllanishi hamda ma’naviy qarashlar bilan muhofaza qilinganligi unda sodir bo‘ladigan har xil salbiy jihat hamda oqibatlarning oldini olish va kamaytirish kabi ijobjiy natijalarga olib keladi deyish mumkin. Uzoq yillik tarixiy tajriba ham buning yaqqol tasdig‘i hisoblanadi. Milliy an’ana va qadriyatlar ruhining singdirilishi yangi oilalarda millat taqdiriga daxldorlik hamda uning istiqboli uchun, kelajak uchun oilaning o‘rni hamda ahamiyati nechog‘lik muhim ekanligini anglab yetishga zamin yaratadi deyish mumkin. Xususan, bu masalada asosiy e’tibor qaratiladigan jihat sifatida oila va mahalla institutlari hamkorligida yangi turmush qurish arafasida turgan yoshlarni oila masalasida, uning muqaddas va qadrli e’kanligi, milliy mental xususiyatlarimiz va milliy qadriyatlarmizda oilaning ahamiyati va “oila ma’naviyati” borasida o‘qitish bilan shug‘ullanuvchi mahalla qoshidagi maxsus o‘quv kursalarini tashkil etish va qisqa muddat davomida asosiy tushuncha va mezonlarni singdirish, ushbu vazifa doirasida mahallalarda yashovchi yoshi ulug‘ insonlardan hayot tajribalarini jamoatchilik asosida yoshlarga yetkazish tizimini joriy qilish lozim. Bu bevosita jamiyat hayotida oilaning rolini kuchaytirish hamda ajrimlar sonini qisqartirishda samarali natija beradi deyish mumkin.

Milliy qadriyatlар va ma’naviy tamoyillar hamda me’zonlar asosida shakllantirilgan hamda birlashgan oilada o‘zaro ijtimoiy muhit hamda tarbiya jarayoni ham bevosita ma’naviyat va milliy ruhda bo‘lishi shubhasiz. Azal-azaldan ma’lumki, milliy an’ana va qadriyatlarmiz ruhida tarbiyalangan har bir inson jamiyatga daxldorlik, yuksak insoniy hamda umumbashariy qadriyatlarga hurmat hamda ehtirom ruhida shakllanadi hamda ushbu fazilatlarni bevosita hayot faoliyati davomida amaliy jihatdan ham namoyon qiladi. Bu ham o‘rnak, ham ibrat asosida oilaviy ijtimoiy muhitda o‘z aksini topadi deyish mumkin. Birinchi Prezidentimiz ham bejizga: “har qaysi millatning o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o‘rni va ta’siri beqiyosdir”¹²¹ deb ta’kidlamagan edi. Darhaqiqat, unib o‘sayotgan yosh avlod uchun tarbiya va ma’rifat o‘chog‘i bu hech shubhasiz oiladir. Shuningdek, milliy qadriyatlар asosidagi tarbiya tizimi ham bevosita eng dolzarb hamda bugungi davr uchun muhim masalalar qatoriga kiradi. Jamiyatning va davlatning ertasi bo‘lgan kelajak avlod tarbiyasida oilaning o‘rni beqiyos hisoblanishini inobatga oladigan bo‘lsak, bu jihatlarda ham yuqorida ta’kidlangan fikrlar o‘z isbotini topadi deyishimiz mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, qaysiki jamiyat va millat o‘z taraqqiyotini belgilar, ertangi kunidan umid qilar ekan, birinchi navbatda, asosiy e’tiborni yoshlarga, ular tarbiyasiga qaratishi, agarki o‘zligini saqlab qolmoqchi bo‘lsa, ular ma’naviyatiga va milliy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatiga e’tibor qaratishi lozim hisoblanadi. Ushbu jarayonlarga qaratilgan e’tibor ta’siri ostida shakllangan oilalar esa o‘z samarasini millatning porloq kelajagi tomon intilishida namoyon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng olyi bahodir. Sh. Mirziyoyev. – Toshkent, 2018.*
2. *Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning asarlari va ma’ruzalaridan olingan fikrlar. – Toshkent, 2019.*
3. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. I. Karimov. – Toshkent, 2008.*
4. *G‘arbing halokati. Patrik Jozef Byukemon. 2000.*
5. *Stat.uz/uz/demography2. Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sahifasi*

¹²¹ Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. I. Karimov. – Toshkent 2008. 33-betlar

Toshpo'latova Naimaxon Obiddinova,
Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumani
28-umumiyl o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

Qoriyev Abdumalik Ubaydullayevich,
Namangan viloyati XTXQTMOHM o'qituvchisi

TA'LIMDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVGA ASOSLANGAN TA'LIMNING O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim va tayanch kompetensiyalarga to'xtalib o'tilgan hamda tarix darslarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, metodologiya, prinsip, kompetensiyaviy yondashuv, kommunikativ kompetensiya, axborot, matematik savodxonlik.

Аннотация. В этой статье основное внимание уделяется обучению основным компетенциям, а также обсуждаются способы развития основных компетенций на уроках истории.

Ключевые слова: образование, методология, принципы, компетентностный подход, коммуникативная компетентность, информация, математическая грамотность.

Annotation. This article focuses on competency-based learning and core competencies, and discusses ways to build core competencies in history lessons.

Key words: education, methodology, principle, competency approach, communicative competence, information, mathematical literacy.

Bugungi kunda ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining tez sur'atlarda jadal rivojlanishi kuzatilmoqda. Ta'lism-tarbiya jarayoniga umumta'lim fanlarini o'qitishning prinsipi yangi metodologiyasi sifatida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limni joriy etish siyosi, umum davlat va didaktik ahamiyatga ega bo'lgan hodisa hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli Qarorida Davlat ta'lim standartlarining asosiy prinsiplari berilgan. Unda bir qator talablar belgilab qo'yilgan. Xususan, "O'quvchilarda fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun tayanch va fanlarga oid umumiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ta'minlanganligi" prinsipi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida olib borilayotgan fanlarni o'qitish orqali o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni, ya'ni kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim nima? Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim – egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish layoqatini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim bo'lib, o'quvchilarda mustaqil fikr lash, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarni hosil qiladi. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni alohida shakllantirishni emas, balki ularni kompleks ravishda egallahni taqozo etadi. Shunga ko'ra, o'qitish metodlari ham o'zgaradi.

Hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan o'zgartirishda ta'limdag'i kompetenttsiyaviy yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. "Kompetensiya" tushuncha lotincha "campetere" – munosib bo'lmoq so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u Yevropada birinchi marta 1596-yilda Vikipediya lug'atida ishlatalgan. Hozirda Vikipidiyada elektron lug'atda "kompetensiya" tushunchasi bu xodimning lavozim talablariga muvofiq ishslash qobiliyatidir, deya izohlangan. "Kompetensiya", "kompetentlilik" tushunchalari tilshunoslikda ilk bor XX asr o'rtalarida N.Xomskiy tomonidan qo'llangan bo'lib, tilni ishlatish jarayonida "faoliyatga yo'naltirilgan bilim, ko'nikma va malakalar majmuyi sifatida", ta'lim sohasida esa "kompetensiyaviy

yondashuv” sifatida talqin etilgan bo‘lib, ta’limda natijaviylikni ko‘rsatuvchi omillar sifatida qayd etilgan [1, 34-42].

Kompetensiyalar ikkita asosiy turga: tayanch va xususiy kompetensiyalarga bo‘linadi. Mamlakatimiz ta’lim tizimida o‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya sifatida kommunikativ kompetensiya, axborotlar bilan ishslash kompetensiyasi, o‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, milliy va umummadaniy kompetensiya, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi belgilab qo‘yilgan.

Ushbu tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda tarix fani o‘qituvchilari quyidagilarga e’tibor qaratishi lozim:

Kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda o‘quvchilarga mavzuni gapirtirish, tezkor savol-javoblar qilish, o‘quvchilarni bir-biri bilan bahslashtirish, muammoli savollarni qo‘yib uni tahlil qilish kabi usullardan foydalanish kerak.

Axborotlar bilan ishslash kompetensiyasi shakllantirish uchun tarix fanidan o‘quvchilarga mustaqil ishslash uchun media mahsulot (video, audio, taqdimot va gipermatn)lardan foydalanib qidirib topadigan mavzuli topshiriqlar, tarixiy filmlar, qiziqarli savollardan berib borish maqsadga muvofiq. Ushbu topshiriqlar o‘quvchilarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishga oid bilimini rivojlantiradi.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish uchun har bir pedagog darslarida juftlikda, jamoada yoki yakka tartibda ishslashga odatlanishi, “Juftini top”, “Zanjir”, “Tarixiy alifbo”, “T-jadvalli o‘yin” kabi ta’limiy o‘yinlar, “3x4”, “Kichik guruhlarda ishslash”, “Intervyu” kabi interfaol metodlardan foydalanib o‘quvchilarni kreativ fikr lashini, intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga e’tibor qaratish lozim.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini shakllantirish uchun, avvalo, o‘qituvchi pedagoglarni o‘zi mamlakatimizda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarda faol bo‘lib, jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi orqali o‘quvchilarga o‘rnak bo‘lishi, har bir darsni boshida 5 daqiqa ma’naviy-siyosiy daqiqani o‘tkazishi, darsdan bo‘sh vaqtda ota-onasi va tengdoshlari bilan muhokama va tahlil qilishi uchun hayotiy voqealardan, buyuk muhaddislarning hadislaridan foydalanish tavsiya etiladi. Ushbu kompetensiyani shakllantirishda tarix fanidan o‘tkaziladigan darslarni tarbiya va huquq fanlari bilan integratsiyalashgan holda amalga oshirish ham ijobiy samara beradi.

Milliy va umummadaniy kompetensiyasini shakllantirishda Vatanimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan qahramonlar To‘maris, Shiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi buyuk ajdodlarimiz haqida keng ma’lumot berish, ilm-fan, din va madaniy sohalarda yetuk xizmat qilgan allomamimizdan ibrat olishga chaqirish lozim. Vatanparvarlik deganda nafaqat davlat manfaatlari, balki shu yurtda yashayotgan barcha millat va elatlarni, yosh-u qarini, erkak-u ayolni dini va irqidan qat’i nazar teng ko‘rib, ular bilan yagona xalq sifatida birlashish lozimligini o‘quvchilarga anglatish darkor.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish kompetensiyasi talablarini bajarishda “T-jadval”, “BBB”, “Toifali sharx” “Venn diagrammasi”, “Nilufar guli” kabi grafikli organayzerlardan unumli foydalanish hamda 9-11-sinf jahon tarixi darslaridagi ilm-fan va madaniy taraqqiyotga oid mavzular orqali o‘quvchilarda yangilik va ixtirolarga qiziqishni uyg‘otish lozim. Bunda Youtube, Facebook kabi internet saytlaridan ham foydalanib borish kerak.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim sifatini amalga oshirish uchun hamda o‘quvchilarni mustaqil dunyoqarashini shakllantirish uchun, umumiyl o‘rtta ta’lim tizimida faoliyatli yondashuvga asoslangan ta’lim bugungi kun talablariga mos kelishi uchun, o‘quvchilar tomonidan olinayotgan har qanday axborotni tahlil eta olish uchun ta’lim muassasalarida fanlarni o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim joriy etilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Зимняя И.Н. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Ж. Высшее образование сегодня, №5. – Москва, 2003.

Bo'stonov Abdurahmon Sodiqovich,
Namangan viloyati XTXQTMOKM katta o'qituvchisi

O'QUVCHI-YOSHLAR TARBIYASIDA OILA VA IJTIMOIY MUHITNING O'RNI

Annotatsiya. Maqola muallifi yoshlar tarbiyasida davr va uning xususiyatlari, oila va ijtimoiy muhitning muhimligiga, yoshlar ta'lif-tarbiyasida ularning hayotiy qiziqishlari va mo'ljallari hisobga olinishi kerakligiga e'tibor qaratgan. Hozirgi paytda mamlakatimizda tarbiyaviy ishlarning dolzarb masalalari, tarbiya sohasidagi faoliyatning asosiy tamoyillari va yo'nalishlari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy muhit, yoshlar, tarbiya, oila, globalizatsiya, ota-onalarda, pedagoglar, jamiyat, qadriyatlar, tamoyil.

Аннотация. Автор статьи рассматривает влияние времени и его особенностей, семьи и социальной среды, необходимости учёта жизненных интересов молодых людей на обучение и воспитание молодежи. А также освещает актуальные вопросы образовательной работы в нашей стране на современном этапе и основные принципы и направления в сфере Воспитания.

Ключевые слова: социальная сфера, молодёжь, воспитание, семья, глобализация, родители, педагоги, общество, ценности, принцип.

Annotation. The author considers the influence of time and its features, family and social environment, the need to take into account the vital interests of young people on the education and upbringing of young people. It also covers topical issues of educational work in our country at the present stage and the main principles and directions in the field of education.

Key words: social sphere, youth, education, family, globalization, parents, teachers, society, values, principle.

Har bir inson taraqqiyotning ma'lum bir bosqichidagi jamiyatda, ya'ni zamon va makonda yashaydi, davr va ijtimoiy muhit shaxs shakllanishida asosiy rol o'ynaydi. Yoshlar tarbiyasida davrning xususiyatlari va talablaridan kelib chiqish zarur. Hozirgi davrning asosiy xususiyati – bu globalizatsiya va o'ta axborotlashgan jamiyatda yashayotganligimizdir. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev so'zları bilan aytganda, “bugungi kunda shiddat bilan o'zgarib borayotgan hayot oldimizga qo'yayotgan bir-biridan murakkab va muhim masalalarni hal qilish haqida o'ylar ekanmiz, ularning yechimi aynan ta'lif-tarbiya bilan, yoshlarning dunyoqarashini zamonaviy bilim, yuksak ma'naviyat va ma'rifat asosida shakllantirish bilan bog'liq ekaniga yana bir bor ishonch hosil qilamiz”¹²².

O'quvchi-yoshlar tarbiyasida, ularni kelgusida mustaqil yashashga tayyorlashda, jamiyatda o'z o'rnni topishida oila muhiti birlinchi o'rinda turadi. Ta'kidlash lozimki, oila va mahalladagi katta yoshlilar barchasi o'zları bilgan-bilmagan, tushungan-tushunmagan holda pedagog, psixolog, tabib, kasb o'rgatuvchi usta, huquqshunos va boshqa ko'plab ijtimoiy-kasbiy vazifalarni bajaradilar. Bundan xulosa shuki, ota-onalarda va umuman oila muhiti pedagogik-psixologik savodxonlikni oshirish lozim. Oilada va jamiyatda zamonaviy pedagogik savodxonlikni oshirishning bir qator yo'llari mavjud. Fikrimizcha, ulardan eng samarali va ommabop shakli – o'zbek xalqining milliy mentalitetidan, etnopsixologik xususiyatlaridan kelib chiqib, hozirgi davrning muhim xususiyatlarini hisobga olgan holda oila pedagogikasi uchun umummamlakat miqyosida foydalaniladigan ijtimoiy-tarbiyaviy dasturlar ishlarning chiqish, shu dasturlar asosida telemashg'ulotlar olib borishdir.

Ta'lif-tarbiyada yoshlarning hayotiy qiziqishlari va mo'ljallari, albatta, hisobga olinishi kerak. Bunda masalaning ikki jihatini bilish va e'tiborga olish zarur. Birinchidan, o'quvchi va talaba yoshlarning hayotiy qiziqishlari va mo'ljallari ularning ehtiyoj va maqsadlari bilan bog'liq ekanligi. Ikkinchidan, yoshlar hayotiy qiziqishlari va yo'nalishlarini istiqbolli tarzda to'g'ri shakllantirish masalasi. Bu, avvalo, ta'lif-tarbiyada (nafaqat ta'lif muassasalarida) shakllanadi. Ya'ni o'quvchi, farzand o'zicha nimaga qiziqlasa va nimani

¹²²O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston o'qituvchi va murabbiylariga bayram tabrige. “Ma'rifat”, 2017-yil 78-son.

xohlasa, shu narsaga yo‘naltirish emas, balki unda hayotiy (avvalo, kasbiy) motivlarni maqsadga muvofiq istiqbolli shakllantirish lozim.

Bizning fikrimizcha, hozirgi glaballashuv sharoitida tarbiyaviy ishlarning dolzarb masalalari quyidagilardan iborat:

– fuqarolarda O‘zbekiston Respublikasining yoshlarga oid qonun hujjatlari va ular asosida ishlab chiqilgan tarbiyaviy ishlarning huquqiy-me’yoriy asoslari bo‘yicha bilim darajasini oshirish;

– tajribali pedagoglar va mutaxassislar tomonidan yoshlar tarbiyasiga oid huquqiy-me’yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish;

– bolalar va yoshlar tarbiyasiga qo‘yilayotgan asosiy talablar ta’lim muassasasida, oilada va ko‘chada har doim ham bir-biriga mos kelavermaydi. Shundan kelib chiqib, olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning, shuningdek, bu yo‘nalishda ta’lim muassasasi-oila-mahalla hamkorligidagi ishlarning uzziyligi, uzlusizligi va izchilligini ta’minalash masalasi. Zatan, bugungi kunda mamlakatimizning yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari, ta’lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish vazifasi qo‘yilgan¹²³;

– nazariyotchi olimlar va tajribali amaliyotchi pedagoglar hamda psixologlar hamkorligida yoshlar muammolarini, ularning hayotiy mo‘ljallari, ehtiyoj va qiziqishlarini maxsus o‘rganilishi lozim. Aniqlangan xulosalar asosida tarbiyaviy ishlarni ham tashkiliy-boshqaruv jihatdan, ham mazmun-mohiyatan to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish lozim;

– kattalar va bolalar o‘rtasida, ya’ni ota-onva farzand, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda ziddiyatli holatlarni pedagogik-psixologik jihatdan tadqiq qilinishi kerak. Ota-onalar bilan ishlashda oiladagi shaxslararo munosabatlar va ularning bola shaxsi shakllanishiga ta’siri haqida pedagogik-psixologik bilimlardan foydalanish kerak;

– ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlari samaradorligining ilmiy asoslangan monitoringini ta’minalashga qaratilgan sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazishni muntazam yo‘lga qo‘yish¹²⁴.

Har bir shaxs jamiyatda uyg‘un yashashi, jamoaga sig‘ishi uchun uning xatti-harakatlari, shu jumladan, fe’l-atvori, u yashayotgan jamiyatda amal qilayotgan qadriyatlarga, umummaqbul qilingan ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy normalarga va ustanovkalarga mos bo‘lishi kerak. Tarbiya jarayoni tahlil qilinsa, uning asosini qadriyatlarni shakllantirish tashkil qilishi ma’lum bo‘ladi¹²⁵. Qadriyatlar esa dastlab oilada shakllana boshlaydi. Ming yillar mobaynida shakllangan milliy qadriyatlarni hozirgi davrda yaratilgan madaniy-ma’naviy boyliklar bilan qo‘silib, taraqqiyotimizni tezlatadi, g‘oyaviy va ma’naviy poklanishni ta’minalashga ko‘maklashadi. Qadriyatlarning barcha turlari insонning farovon hayot kechirishi, erkin yashashi, ma’naviy-axloqiy kamol topishi uchun xizmat qiladigan vositalar bo‘lib hisoblanadi.

Tarbiya masalasi bir jihatdan olib qaralsa, juda jo‘n va oddiy, uni hammamiz har doim har joyda bajaramiz. Bu borada go‘yo hamma narsani bilamiz. Ammo tarbiya ishining o‘ziga xos tomoni shundaki, u “igna bilan quduq qazish”ga o‘xshaydi. Bu borada “har kuni, har soatda fidoiy bo‘lish, o‘zini tomchi va tomchi, zarrama-zarra buyuk maqsadlar sari charchamay, toliqmay tinimsiz safarbar etib borish, bu fazilatni doimiy kundalik faoliyat mezoniga aylantirish” talab etiladi.¹²⁶

Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi davrida oila jamiyat taraqqiyotining faol subyekti, yoshlar tarbiyasingin asosiy o‘chog‘i sifatida baholanmoqda. Oilada inson kamoloti uchun eng muhim bo‘lgan omillarning barchasi mavjud. Bolaning shaxs sifatida shakllanishida oilaning o‘rnini bosolmaydi. Oilada an’analar, tajribalar, qadriyatlarning vorisyligi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Biz kattalar, o‘qituvchilar ko‘pincha farzandlarimizga, o‘quvchilarimizga nazorat qilinishi, ta’sir o‘tkazilishi kerak bo‘lgan obyekt sifatida qaraymiz. Natijada bolalar asosiy diqqat-e’tibori va harakatini o‘z-o‘zini rivojlantirishga emas, balki tashqi ta’sirlardan, ya’ni kattalardan himoya qilishga qaratadi¹²⁷.

¹²³O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” farmoni.

¹²⁴O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlari samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida” 3160-sonli qarori

¹²⁵“Xalq ta’limi” jurnali 2015-yil, 5-son. – 58 b.

¹²⁶Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B. 165-166

¹²⁷“Maъrifat” gazetasи, 2013-йил 13-mарт, 21-сон.

Ma’naviy – ma’rifiy tarbiya sohasidagi faoliyatimizda quyidagi tamoyillar asosida ish olib borish muhim ahamiyatga ega:

– Oddiylik va doimiylik. Tarbiyaviy ishlar mazmun-mohiyatan o‘quvchining yoshi, psixofiziologik xususiyatlarga mos bo‘lishi lozim. Shu bilan birga, oila muhiti, mahalliy ijtimoiy muhit, albatta, diqqat e’tiborda bo‘lishi talab etiladi. Ma’naviy – axloqiy tarbiya jarayoni uzlucksiz, izchil va sobitlik bilan olib borilsagina, o‘quvchi yoshlar qalbi va ongiga yetib boradi.

– Tarbiya ishida rasmiyatchilikka, to‘rachilik va shiorbozlikka yo‘l qo‘ymaslik tamoyili. Aks holda, o‘zimizni o‘zimiz aldagani bo‘lamiz. Asosiy e’tibor jarayonning o‘zigagina emas, pirovard natijaga, samaraga qaratilishi kerak.

Tizimlilik, fikr, so‘z va amal birligi, shaxsiy o‘rnak ko‘rsatish tamoyili. Tarbiyaviy jarayon kontseptual asosda, yaxlit tizim va aniq chora-tadbirlar ko‘lamida, barcha bosqich va yo‘nalishlarda, ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab olgan bo‘lsagina ko‘zlangan natijaga erishish mumkin¹²⁸.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, nafaqat yuqori darajada bilimli, shu bilan birga, yaxshi tarbiya ko‘rgan, keng dunyoqarashli, o‘z hayotiy pozitsiyasiga ega bo‘lgan, ma’naviyati yuksak yoshlar har qanday murakkab muammolarni hal etishga qodir bo‘ladi. Shu bois o‘quvchilarни dunyonи to‘g‘ri idrok etishga o‘rgatishda sifatli ta’lim bilan birga samarali tarbiya beradigan tizim ham nihoyatda zarur. Ta’lim-tarbiyaning jamiyat rivojidagi yuksak mavqeyini to‘liq anglatish orqali bilim olish va tarbiyali bo‘lishga intilishni yosh avlod uchun eng muhim vazifaga aylantirish zarur.

Bugungi kunda dunyoda globallashuv jarayonlari kuchayib, tinchlik va barqarorlikka yangi tahdid va xatarlar tobora ko‘payib bormoqda. Bunday murakkab va tahlikali vaziyat ta’lim-tarbiya sohada amalga oshirilgan ishlarni tanqidiy baholab, uning faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston o‘qituvchi va murabbiylariga bayram tabrigi. // “Ma’rifat”, 2017-yil 78-soni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” farmoni. 2017 yil 7-fevral.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida” 3160-soni qarori.
4. “Xalq ta’limi” jurnali. 2015 yil 5-soni, – B. 58
5. “Маърифат” газетаси, 2013-йил 13-март, 21-сон.



¹²⁸“Маърифат” газетаси, 2012-йил 4-апрель

Jo‘rayeva Iqbolxon Po‘latovna,
Namangan VXTXQTMOMH o‘qituvchisi

FARZAND TARBIYASIDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING ILMIY MEROSIDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oilada farzand tarbiyasida sharq mutafakkirlarining ilmiy merosidan foydalanish yo‘llari haqida berilgan.

Kalit so‘zlar: tarbiya, oila, Sharq mutafakkirlari, ma’naviy barkamollik.

Аннотация. В этой статье представлены способы использования научного наследия восточных мыслителей в семейном образовании.

Ключевые слова: воспитание, семья, мыслители Востока, духовное совершенство.

Annotation. This article provides ways to use the scientific heritage of Oriental thinkers in the family education.

Key words: cash, family, thinkers, spiritual perfection.

Tarbiya har qanday jamiyatning muhim vazifasidir. Tarbiya – bu shaxsning ijtimoiy ma’naviy va ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlash maqsadida uning ma’naviy, jismoniy kamolotiga muntazam ravishda ta’sir ko‘rsatish jarayonidir.

Bugungi globallashuv davrida farzand tarbiyasi eng dolzarb mavzularidan biridir. Qadim davrlardan to hozirgi zamonamizgacha yaratilib, avlodlarning ezgu ishlariga xizmat qilib kelgan boy axloqiy, siyosiy, huquqiy merosimizni, milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni o‘rganib, xalqqa yetkazish, keljak asoslarini yaratishga xizmat qildirish muhim vazifalardan biri bo‘lib, ulug‘ allomalarimizning xulq, odob-axloq, ta’lim-tarbiya masalalariga oid asarlari, dono va ibratli so‘zlar, pand-nasihatlari yosh avlodni barkamol insonlar qilib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Avloddan avlodga shakllanib o‘tayotgan axloqiy qarashlar va ularning ijtimoiy-ma’naviy ildizlari, jahonda va mintaqada axloqshunoslik ilmining turli yo‘nalishlari va ularda ma’naviyatga oid muammolarning in’ikos topishini o‘rganish orqali O‘zbekistonda ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalarini jahon axloq ilmining yutuq va kamchiliklarini qiyosiy tahlili va xalqimiz ma’naviy-axloqiy merosiga tayangan holda hal qilish yo‘llarini izlab topish va ularni hayotga tatbiq etish ushbu fan yo‘nalishining asosiy maqsadi hisoblanadi. Shu asosiy maqsadning ijrosi yo‘lida quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutiladi:

Tarbiya kishilik jamiyatni paydo bo‘lishi bilan boshlandi va rivojlanib bordi. Bola tug‘ilishi bilanoq ota-onasining parvarishi orqali atrof-muhit bilan tanishadi. Insonning shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan muhitdan, ya’ni ichkilikbozlik, giyohvandlik, kashandalik va boshqa illatlardan himoya qilish esa niroyatda murakkab jarayondir. O‘zbek xalqining yosh avlodni hayotga tayyorlashda qo‘llagan usul va vositalari, tadbir shakllari, o‘ziga xos urf-odati va an’analari, tarbiya g‘oyalari va hayotiy tajribasi yillar davomida mukammallashib keldi. Hali tarbiya muassasalari bo‘limgan davrdayoq, qabila a’zolarining bolalarda mehnatsevarlik, jangavorlik, axloq-odob, nafosat, do’stlik, mehr-shafqatlilik, insonparvarlik xislatlarini shakllantirish va o‘stirish sohasidagi aql-idroki va usullari o‘sha davrdagi hayotiy tajribaning mevasi sifatida ijtimoiy hayotga bog‘liq holda shakllandi va rivojlandi. Bola, asosan, oila muhitida tarbiyalanib, inson sifatida shakllanadi. Tarbiya esa hayotning eng muhim tirdagi, ya’ni tayanchi hisoblanadi. Har bir bolani shunday tarbiyalash lozimki, u, avvalo, yaxshi o‘qishi va so‘ngra esa yozishni o‘rganishi bilan eng yuksak pog‘onaga ko‘tarilsin. Ma’lumki, sharqning buyuk allomalari ta’lim va tarbiya masalalariga alohida e’tibor berishgan.

Farobiy bilimidan ma’rifatli yetuk odamning obrazini tasvirlar ekan, bunday deydi: “Har kimki ilm hikmatni o‘rganmagan desa, uni yoshligidan boshlasin, sog‘-salomatligi yaxshi bo‘lsin, yaxshi axloq va odobi bo‘lsin, so‘zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlangan bo‘lsin, barcha qonun-qoidalarni bilsin, bilimdan va notiq bo‘lsin, ilmli va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin, barcha real moddiy narsalar to‘g‘risida bilimga ega bo‘lsin” [1].

Bu fikrlardan Forobiyning ta’lim-tarbiyada yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda, xususan, aqliy-axloqiy tarbiyada alohida e’tibor bergenligi ko‘rinib turibdi, uning e’tiqodicha, bilim, ma’rifat, albatta, yaxshi axloq bilan bezatmog‘i lozim, aks holda, kutilgan maqsadga erishilmaydi, bola yetuk bo‘lib yetishmaydi.

Farobiyning mantiq va mantiqiy fikrlash haqidagi va umuman barcha qarashlari insoniyat uchun eng katta boy meros hisoblanadi. Bu merosdan qanday foydalanish esa, albatta, foydalanuvchiga, uning bilim savyasiga bog‘liq bo‘ladi. Forobiy asarlarini o‘rganish orqali ko‘p narsalarga erishish mumkinligi, tabiatni bilish cheksizligini va ilmnинг borgan sari ortib borishi haqida o‘ziga xos fikrga ega bo‘lib boradi. Shu bilan birga, insonning fikrlash doirasi kengayib, olgan bilimlari rivojlanib boradi.

Ibn Sino bola tarbiyasi va tarbiya usullari haqida qimmatli fikrlarini bildirgan. **Ibn Sino** bolaning axloqiy tarbiyasi haqida bildirgan fikrlarida uy-ro‘zg‘or tutish masalalari xususida ham so‘z yuritadi. Bolani tarbiyalash oila ota-onaning asosiy maqsadi va vazifasidir. O‘z kamchiliklarini tuzatishga qodir bo‘lgan ota-on tarbiyachi bo‘lishi mumkin. Abu Ali ibn Sino ham mazkur ustuvor masalalarga doir bir qancha asarlar, o‘zidan boy ilmiy meros qoldirgan. Ibn Sino bolani maktabda o‘qitish oila jamiyatning asosiy instituti hisoblanishi, u tarbiya o‘chog‘i sifatida shaxsning shakllanishida muttasil ishtirok etadi.

Axloqiy tarbiyada eng muhim vositalar bolaning nafsoniyatiga, g‘ururiga tegmagan holda, yakkama-yakka suhbatda bo‘lish unga nasihat qilishdir.

Ibn Sino bolada axloqiy xususiyatlarni mehnat, jismoniy, aqliy tarbiya bilan uzviy birlikda shakllantirishni, uni inson qilib kamol toptirishda asosiy omil deb biladi.

Yusuf Xos Xojibning uqtirishicha har bir kishi jamiyatga munosib bo‘lib kamol topmog‘i kerak. Buning uchun u tug‘ilgan kundan boshlab zarur tarbiyani olmog‘i lozim. U qobil qizning tarbiyasi haqida fikr yuritar ekan, ularning o‘zlariga xos xususiyatiga e’tibor berishni ta’kidlaydi [2].

Farzandlar tarbiyasi nihoyatda erta boshlanmog‘i shart. Shundagina ularning noo‘rin xatti-harakatlariga berilishining oldi olinadi.

Mirzo Ulug‘bekning oila muhiti sog‘lom avlodni yetishtirish haqidagi fikrlari shundan iboratki, alloma uqtirishicha, bolaning bilim olishiga bo‘lgan qiziqish, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o‘rinni egallaydi. Oilada ota-onalar, ayniqsa, o‘qimishli ota-onalar o‘z farzandlarining haqiqiy inson bo‘lib kamol topishiga alohida e’tibor berishlari lozim.

Alisher Navoiy bolaning voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuchi va qudratiga alohida e’tibor beradi. Tarbiya natijasida bolaning foydali va yetuk kishi bo‘lib o‘sishiga ishonadi. Yosh bolaning juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarur. Tarbiya insonga o‘zida yaxshi odat va fazilatlar hosil qilishga yordam beradi. U odam shaxsi kishilar bilan munosabatda, ayniqsa, kishilarning bir-birlariga bo‘lgan ruhiy ma’naviy ta’sirlari natijasida tarkib topadi deb voyaga yetkazishda asosiy omillardan biri tarbiya ekanligi o‘qtiradi.

Voiz Al-Koshifiyning uqtirishicha, insonni ta’lim-tarbiya orqali aqliy qobiliyatni o‘stirish mumkin. Koshifiy o‘zining pedagogik qarashlaricha, bolalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini o‘stirish masalasiga alohida e’tibor beradi. Ota-onalar muallimlardan bu masalaga alohida ahamiyat berishni talab etadi. Bu masalada oilaviy hamda tashqi muhit muhim o‘rin tutadi. Bola to‘g‘ri so‘zli, va’daga vafodor, yaxshi xulqli qilib tarbyalanishi kerak.

Jaloliddin Davoniy ota-onaning bolani tarbiyalashdagi ahamiyatiga keng to‘xtalgandi. Uning fikricha, oila tarbiyasida ota ham, ona ham teng huquqli, teng ishtirok etishi bolaning yaxshi xulq – odob qoidalarini muayyan bir kasbni egallashiga ko‘maklashishi ilm-fan va kasb-hunar egallashining moddiy asosi bo‘lmish oziq-ovqat, kiyim-kechak, kerakli buyum va jihozlarni yetkazib berish uchun jozibalik ko‘rsatishi kerak.

Sharq mumtoz adabiyotining buyuk namoyondalaridan biri Muslihiddin Sadi Sheroyi Sheroy shahrida 1184-yilda tug‘ildi. Sadining fikricha, oila, bolaning baxti, kelajagi uchun zamin yaratuvchidir. Oilada asosiy tayanch otadir. U mas’uliyatlari tarbiyachidir. Ota o‘z bolalarini tarbiyalashi, o‘qitishi, hunarga o‘rgatishi, jismonan chiniqtirishi kerak.

Sadining pedagogik qarashicha bola qobiliyatli va kamqobiliyatli bo‘lishi mumkin. Qobiliyat o‘z-o‘zidan rivojlanmaydi. Uning rivojlanishi uchun bolani tarbiyalash kerak, tarbiya bo‘lmasa, boladagi qobiliyat so‘nadi, tarbiyani 3 asosiy – aqliy, nafosat va jismoniy mehnat tarbiyasiga bo‘ladi. Adib bolani tarbiyalash vazifasini ularning ota-onalariga, ya’ni oilaviy tarbiyaga kata e’tibor beradi.

Sadi ota-onalarga xarakterini hisobga olgan holda axloqiy tarbiyani bolaning yoshligidan boshlashni tavsija etadi, xarakter shakllangach, bolaga ta'sir etmaydi.

XIX asr o'zbek ijtimoiy va adabiy hayotning yirik vakillaridan biri Komil Xorazmiy o'z asarlarida ma'rifat axloqiy kamolot, vatanparvarlik g'oyalarni olg'a surdi. U ilm-ma'rifatning xalq, jamiyat farovonligiga, insonning axloq kamolotida tutgan o'rni, axloqiy va nafosat tarbiyasini uzviy birligi haqidagi pedagogik fikrlarini ham bayon etadi.

Komil Xorazmiyning fikricha, ilm-hunar, ilm-ma'rifat inson axloqiy kamoloti, ijtimoiy ma'naviy hayotning rivoji uchun xizmat qilishi kerak. Kamtarlik eskirmaydigan, eng go'zal insoniy fazilatdir. Bu fazilatlarga ega bo'lganlar obro'-e'tiborli komil insonlardir. Kamtarlik insonni turli noxushlikdan xijolatdan saqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Farobiy, Ibn Sino, Munis Xorazmiy kabi Sharq mutafakkirlarining boy ilmiy merosidan har bir ota-onada farzand tarbiyasida yosh va individual psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib foydalanishlari ularning komil inson bo'lib voyaga yetishiga yordam beradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Shoumarov G'. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Sharq, 2010.*
2. https://tt.me/ertaklar_uzz

Xurshid Abdirashidovich Mirzahmedov,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

YOSHLAR TARBIYASIGA INNOVATSION YONDASHUV

Annotatsiya. Pandemiya davrida dunyo mamlakatlari taraqqiyoti yangi ta'lim-tarbiya qobig'i, ya'ni onlayn tarbiya makonini paydo qildi. Bugungi innovatsion kapital dunyoda rivojlanib kelayotgan davlatlar aholisi pul topish va iste'molchilik jamiyatida yashash kayfiyatini oshib ketishi yoshlar ma'naviyatida transformatsiya muhitini keltirib chiqarmoqda. Yoshlarни оғанда оларни сақлаш кундан кунга tarbiya mehnatini og'irlashib bormoqda. Bunday vaziyatda bola tarbiyasi oddiylikdan qochib innovatsion yondashish yangi (oilaviy) yuvenologik immun muhitini yaratish har qachongidan ham dolzarb masala hisoblandi.

Kalit so'zlar: globallashuv, yoshlar, tarbiya, innovatsiya, tahdid, internet, milliy o'zlik.

Аннотация. Во время пандемии развитие стран мира создало новую образовательную оболочку, то есть онлайн-образовательное пространство. Сегодняшний инновационного капитального мира создает атмосферу трансформации в духе молодежи, поскольку у населения развивающихся стран мира растет желание зарабатывать деньги и жить в обществе потребления. Сохранять целомудрие в умах и сердцах молодых людей с каждым днем становится все труднее. В таком ситуации подход к детей инновационный воспитанием и созданию новой (семейной) ювенальной иммунной среды всегда считался актуальным вопросом.

Ключевые слова: глобализм, молодежь, воспитание, инновации, угроза, интернет, национальная идентичность.

Annotation. During the pandemic, the development of the world's countries created a new educational shell, that is, an online educational space. Today's innovative capital world creates an atmosphere of transformation in the spirit of youth, as the population of the developing world is growing the desire to earn money and live in a consumer society. Keeping chastity in the minds and hearts of young people is becoming more difficult every day. In this situation, the approach to children's innovative upbringing and the creation of a new (family) juvenile immune environment has always been considered an urgent issue.

Key words: globalism, youth, upbringing, innovation, threat, online, national identity.

Globallashuv zamonga innovatsion muhit yaratib, davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni yangi pog'onasi onlayn shakliga o'tkazdi. Dunyo mamlakatlari taraqqiyoti yangi ta'lim-tarbiya qobig'i, ya'ni onlayn tarbiya

makonini keltirib chiqarmoqda. Insoniyat tarixida sovuq urush tugab uni yangi gibrildi ko‘rinishlari paydo bo‘layotgani dunyo xalqlarini tahlikaga solib qo‘ymoqda. Dunyo davlatlari o‘rtasidagi nizo va urushlarni gibrildi onlayn shakli yoshlari ma’naviyatida “yo‘q qilish” nazariyasi va texnologiyalarini sinab ko‘rishi, rivojlanib chiqayotgan davlatlar uchun kuchli tahdidiga aylanmoqda. Masalan, “Overton oynasi”ga ko‘ra [4], istalgan narsani, hattoki ilgari aql bovar qilmagan narsa va hodisalarini qonuniylashtirish (xayotiylashtirish yoki tabiylashtirish) va hattoki, butun boshli millatlar uchun “qadriyat” darajasiga olib chiqish mumkinligi yoki «FFF» nazariyasida esa 3 bosqichli yo‘q qilish nazariyasi: Birinchi bosqichda jamiyat a’zolari avval futbol fanatiga aylantiriladi. Ikkinci bosqich – “fiesta” – jamiyat a’zolarini faqat ko‘ngilxushlikka, iztirob chekmasdan, faqat o‘yin-kulguga o‘rgatadi. Uchinchi bosqichda – jamiyat a’zolari “F” – fahshni ehtiyojmandlashtiradi.

Bugungi innovatsion kapital dunyoda rivojlanib kelayotgan davlatlar aholisi pul topish va iste’molchilik jamiyatida yashash kayfiyatini oshib ketishi yoshlari ma’naviyatida transformatsiya muhitini keltirib chiqarmoqda. Ya’ni yoshlari fenomenining kashfiyotchilik qobiliyati keskin sur’atda tushib ketishi, iste’molchilik kayfiyati esa 99 % ga oshib ketishga guvohi bo‘lishimiz mumkin. Davlat kelajagini belgilovchi yoshlarni ong va qalbini iffatli saqlab qolish kundan kunga tarbiya mehnatining og‘irlashib borayotgani har bir ota-onaning tarbiyada keskin innovatsion yondashish kerakligini talab etmoqda. Bunday vaziyatda bola tarbiyasida oddiylikdan qochib innovatsion yondashish, yangi (oilaviy) yuvenologik immun muhitini yaratish har qachongidan ham dolzarb masala hisoblanmoqda.

Shu ma’noda O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev yoshlarning ma’naviy tarbiysi “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlari. Mayli, yoshlari o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”, deya ta’kidladi [3].

Tahsil va natija.

Jamiyatimiz yoshlarini ehtiyoj va xohish-istiklari zamonaviy hayotda yuqori ijtimoiy maqomga ega bo‘lish hisoblanib, bu faoliyatini to‘g‘ri yo‘naltirish uchun ta’lim va tarbiyada chet el tajribasidan milliy xususiyatni saqlagan holda unumli foydalanish, millat kelajagini belgilovchi yoshlari immun taqdirini saqlab qolish orqali yoshlarda turli xil gibrildi illat va taxdidlarni shakllanishini oldini olgan bo‘lamiz. Masalan, Yapon tajribasi: oilada ota-ona o‘z farzandini “Ikudzi” nomli tarbiya berish usuli bilan voyaga yetkazadi. Bunda inson tabiyatida vatanparvarlik, millatparvarlik, insonpavarlik sifatlarini shakllanishi kuzatilgan.

Yaponiya tajribasi: “Ikudzi” tarbiya texnologiyasi:

Yapon oilalarida dunyoga kelgan farzandga nisbatan besh yoshgacha farzand – poshsho, o‘n besh yoshgacha – quil, o‘n besh yoshdan keyin – do‘st sifatida munosabat bo‘lishadi. Ayniqsa, bu faqat pedagogik ta’lim berish majmuyi bo‘libgina qolmay, yangi avlod ta’lim olishiga yo‘naltirilgan falsafadir [2].

Ona va bola birdamligi:

Yaponiyada ona “amae” deb nomlanib, ma’nosи “amaeru” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “erkalash”, “homiylik qilmoq” ma’nolarini anglatadi. Yaponiyada ona obraqi kasblashtirilgan, yapon ayolini onalik kasbiga hech kim xalaqit bermaslik kerak. Yapon ayolning asosiy majburiyati – onalikdir, o‘zini butunlay oilaga bag‘ishlashi yapon ayoli uchun tabiiydir. XX asrgacha yapon ayoli bola tarbiyasi va xonodon ishlari bilan shug‘ullanishgan bo‘lsa, bugungi kunda zamonaviy yapon ayollarini bola tarbiyasidan ortgandan so‘ng ta’lim olishadi, ishlashadi va sayohat qilishadi. Yaponiyada o‘z majburiyatlarini birovning zimmasiga yuklab qo‘yish tartibi bo‘lmaganligi uchun kichkintoy bir yoshta to‘limganiga qadar ona va bola – bu bir butunlikni tashkil qiladi. Ona qayerga bormasin, nima ish qilmasin, chaqaloq doim ona bilan bo‘lishi zarur. “Amae” – o‘z farzandining yillar davomida soyasiga aylanadi, muntazam jismoniy va ruhiy munosabat, bolada onaga bo‘lgan mustahkam obro‘-e’tibor negiziga aylanadi.

Bola – poshsho:

Ikudzi nuqtayi nazarlariga ko‘ra, besh yoshgacha bolaga farishtadek munosabatda bo‘lishadi. Yapon bolasiga hech narsa ma’n qilinmaydi. Natijada yapon bolasi o‘zining bilim orttirish dunyosida erkin hayot kechiradi. Ona bola qilayotgan hamma narsani mehr, sabr va g‘amxo‘rlik bilan qabul qiladi.

1994-yil Amerika va Yaponiya o‘rtasida bolalarga tarbiya hamda bilim berish bo‘yicha tafovut ilmiy-tekshirishi o‘tkazilgan. Olim Azuma Xiroshi ikki xil madaniyat vakillari ona-bolasidan piramida-konstrukturini yig‘ish shartini e‘lon qildi. Natijada yapon ona avval konstruktorni o‘zi yig‘ib, buni o‘z farzandiga ko‘rsatgan. Keyin bolasidan o‘zi – mustaqil ravishda yig‘ib ko‘rshini so‘ragan. Bolaning qo‘lidan kelmasa, ona yana bir marotaba yasab ko‘rsatib bergan. Amerikaliklar esa konstruktorni yasashdan avval, uning yasalish algoritmi haqida bolasiga tushuntirgan, so‘ngra ona-bola konstruktorni birligida yasashni boshlashgan [5].

Pedagogik usullarning sezilarli farqini Azuma ota-onalikning “tushuntiruvchanlik” turi deya sharhladi. Ya’ni yapon ayollari o‘z farzandlariga muomala va ish-harakatlari orqali “tushuntirishadi”. Shu bilan birga, farzandlariga yoshligidanoq o‘z hissiyotlarga, yaqinlari va hatto buyumlarga ham e‘tiborli bo‘lishni o‘rgatishadi. Sho‘x kichkintoyni hech qachon issiq choynak oldidan haydashmaydi, bolakay kuyib qolsa, “amae” ish-harakatlari bilan band bo‘lib e‘tiborsizlikdan unga og‘riq yetkazganini eslatib undan uzr so‘rab qo‘yadi. Boshqa misol: erkalanib ketgan bolakay hamma o‘yinchoqlarini sindirib tashlaganda rus yoki o‘zbek onalar qanday yo‘l tutadilar? Taxmin qilish mumkinki, qo‘lidan o‘yinchoqni tortib olib, uni sotib olish uchun qancha mehnat qilganligi haqida “ma’ruza” o‘qib, keyin jismoniy jazo bilan boshqa qimmatbaho o‘yinchoq olib bermaslikni aytadi. Yapon ayoli esa hech qanday chora qo‘llamaydi. Farzandiga “Sen uning jonini og‘rityapsan”, deydi xolos. Buning natijasida yapon bolalarida “Men” timsoli hamda “yaxshi” – tarbiyalı va chin dildan sevuvchi ota-ona fikri shakllanadi.

Bola — qul:

Yapon jamiyatida jamoa bo‘lib yashash va jamoaviy qiziqishlar barcha narsalardan ustun urf-odat hisoblanib, aynan shu sabablarga ko‘ra, bolalarga 5 yoshgacha ushbu guruh a‘zosi bo‘lishni o‘rgatishadi. Doim o‘zgaruvchi tarbiyachi yoki maxsus tayyorlovchi maktab o‘qituvchisi ham murabbiy yoki tarbiyachi rolini emas, “yo‘naltiruvchi” vazifasini bajaradi. Ya’ni bolani ongida oilaviy tarbiya mexanizmi va ota-onaliga zarar keltirmaydi. Yapon bolakaylarining sevimli mashg‘uloti komandada bajariladigan sport o‘yinlari, estafeta va xor qo‘shiqlarini kuylashdir.

Bola — do‘st:

Yapon farzandi 15 yoshdan keyin to‘laqonli shakllanib voyaga yetgan shaxs sanaladi. Ikudzi – tarbiya berish shakli bilan Vataniga sodiq, qonunlarga rioya qiluvchi tarbiyalı fuqaroni katta qilishda yordam beradi.

Taklif va tavsiya.

- jamiyat ijtimoiy komillik talabalarini shakllantirish va rivojlantirish kerak;
- yoshlarni qo‘lidagi smartfon va zamonaviy qurilmalarga ta’lim-tarbiyaviy dasturlar yaratish kerak;
- oilada farzandni tarbiyasida jins subektiga ham e‘tibor berish kerak;
- tarbiya maskani sifatida faqat oila saqlanib, mahalla va ta’lim muassasalari yo‘naltiruvchi maskanga o‘tish kerak;
- farzand idealida ota-onalide obrazini saqlab qolish kerak;
- yoshlarni tarbiyasida mustaqillik g‘oyasini saqlagan holatida milliy xususiyatdan kelib chiqib, tarbiyanini tizimli texnologiyalashtirish kerak;
- mакtab o‘quvchilari smartfon va zamonaviy qurilmalarida dars jadval va fan darslari bo‘yicha dasturlar yaratish kerak;
- kelajakda o‘g‘il bola tarbiyasida namunali ota bo‘lish xususiyatini, qizbolada esa ona bo‘lish xususiyatini saqlab qolish zarur.
- o‘quvchi-talabalarni ta’lim formasini g‘ururlantiruvchi va faxrlantiruvchi shaklini tanlash kerak (masalan, matros yoki uchuvchilarni keyim formasи).

Xulosa.

Xulosa qilib, Yaponiyada yoshlarni tarbiya kayfiyatini yo‘qolib qolmasligi uchun mакtab o‘quvchilariga ko‘p asrlar davomida yashab kelayotgan millat milliy o‘zligi va qadriyatlarni ifodalovchi Shodo va xayku she’riy sa’natini dars mashg‘ulotlaridan tashqari o‘rgatiladi. Fransiyada esa ta’lim sohasida dunyodagi eng yaxshi arxitektorlar chiqan mamlakat sifatida dars mashg‘ulotlaridan tashqari o‘quvchilarga dizayn va arxitektorlik qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish uchun to‘garaklar tashkil qilinadi. Italiyada qo‘srimcha darslarni ta’lim sohasida o‘zgachaligi rassom va haykaltarshlar vatani maqomini saqlab qolish uchun ham dars mashg‘ulotlaridan keyin o‘quvchilarga to‘garaklar tashkil qilinadi. Rossiyaning tarixdan

mudofaa ehtiyoji yuqorligi va ta'lim tizimida harbiy litseylarni tashkili orqali yoshlarda vatanparvarlik va jangovarlik ruhini saqlab qolish va rivojlantirish uchun qo'shimcha darslarni tashkil qiladi.

Oilaviy tarbiyani jamiyatda yo'qolishi yoshlardagi vatanga sodiqlik kayfiyatining o'lishiga olib keladi. Er-yigitni harbiy xizmatga bormasa davlat kuch-qudrati kuchsizlanadi. Davlatga nisbatan urush va bosib olish kayfiyat paydo bo'ladi. Oilaviy tarbiyani qiz bolada yo'qolishi ona bo'lish, halol turmush o'rtoq bo'lish kayfiyati o'ladi. Bunday jamiyat va davlat halokatga uchraydi. Shu sabab yoshlarni oilada xush fe'l va ezgu fazilatli qilib tarbiyalash davlat siyosati darajasidagi muhim masala hisoblanadi. Bugungi globallashuv davrida qo'l-oyog'i, til-so'zi, ko'zi-qulog'i iffatli avlodni tarbiyalash yoki bir farzandni voyaga yetkazish eng buyuk jasoratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев, Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2018. – 508 б.
2. Японларда болалар тарбияси қандай? URL: <https://farzand.uz/post/yaponlarda-bolalar-tarbiyasi-qanday> [кўрилган муддати: 22.04.2021]
3. Шавкат Мирзиёев: ёилар тарбияси – энг муҳим масалалардан. URL: <https://sogлом.уз/archives/8338> [кўрилган муддати: 22.04.2021]
4. “Овертон ойнаси” ёхуд “йўқ қилиши технологияси” URL: <http://info.islom.uz/jamiyat/item/86-overton-ojnasi-jo-ud-j-ilish-tehnologiyasi.html> [кўрилган муддати: 22.04.2021]
5. Как правильно расстить детей или секреты японского воспитания! URL: <https://hronika.info/obwestvo/21135-kak-pravilno-rastit-detey-ili-sekrety-yaponskogo-vospitaniya/> [кўрилган муддати: 22.04.2021]

Турдиева Наргиза Мардоновна,
Международный университет туризма
“Шёлковый путь”, старший преподаватель

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В СЕМЕЙНОМ ВОСПИТАНИИ

Annotatsiya. Maqolada milliy qadriyatlarning oila tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati, oilaning jamiyatdagi o'rni ochib berilgan. Ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashda mahalla muhim o'rinn tutadi. Mahalla bugungi kunda nafaqat fuqarolarning siyosiy qarorlarni qabul qilishda ishtirok etishini ta'minlovchi asosiy bo'g'in, balki yoshlarning mamlakat ijtimoiy hayotidagi faolligini oshirishga va ma'naviy rivojlangan yoshlarni tarbiyalashga qodir yagona tizimdir.

Kalit so'zlar: oila, ta'lim, axloqiy tarbiya, urf-odatlar, marosimlar, urf-odatlar, milliy ta'lim, mahalla, islom.

Аннотация. Статья раскрывает роль и значение национальных ценностей в семейном воспитании, роль семьи в обществе. Большую роль в воспитании духовно развитого поколения является махалля. Махалля сегодня это не только основное звено, обеспечивающее участие граждан в принятии политических решений, но и единственная система способная повысить участие молодёжи в социальной жизни страны и воспитать духовно – развитую молодёжь.

Ключевые слова: семья, воспитание, нравственное воспитание, традиции, обряды, обычаи, народное воспитание, махалля, ислам.

Annotation. The article reveals the role and significance of national values in family education, the role of the family in society. The mahalla plays an important role in the upbringing of the spiritually developed generation. Today, the mahalla is not only the main link that ensures the participation of citizens in political

decision-making, but also the only system that can increase the participation of young people in the social life of the country and educate spiritually developed youth.

Key words: family, upbringing, moral education, traditions, rituals, customs, folk education, mahalla, Islam.

Введение: Семья – это самое главное, что есть у каждого из нас. В Республике Узбекистан издревле почитают и берегут семейные узы как одно из богатств народа, ибо здоровое общество и сильное государство формируются на основе прочной семьи.

Семья – это главный социум общества, на ней основывается общество и государство. Семья – это не только ячейка общества, это своеобразное мини государство со своими правами и законами. В Узбекистане основным составляющим общества является семья. Узбекские семьи в течение веков выполняют функцию хранилища и обогащения таких понятий, как честь и совесть, доброта и милосердие.

Основная часть: Придавая особое внимание семье, определяя ее место и роль в обществе, необходимо признать, что семья является базовой ячейкой общества, которой свойственны свои экономические, культурные, морально-этические отношения, сложившиеся между членами семьи. А ведь основная часть семей в Узбекистане состоит из нескольких поколений. А управлять и сохранить ее - немалый труд. В Узбекистане насчитывается более 4 миллионов семей, из которых 2,2 миллиона в сельской местности, и средний состав ее 5-7 человек. В республике более 12% семей имеют 10 и более детей. Многодетность является характерной особенностью узбекской семьи. Воспроизводство населения, продолжение человеческого рода является основной функцией семьи, свойственной только узбекской семье. Эта важная миссия семьи – репродуктивная — определяет и другие не менее важные ее функции: экономическую, хозяйственно-бытовую, коммуникативную, воспитание и социализацию подрастающего поколения, и, конечно, протекторную и рекреационную для всех членов семьи. Каждая семья, в которой рождаются дети, несет огромную ответственность перед обществом, осуществляя их воспитание. Образованные, хорошо воспитанные, здоровые дети – это огромное достижение старших поколений, это достояние общества, строящее свою независимость. А ведь большую часть населения Узбекистана составляют дети и подростки, которых насчитывается более 10 миллионов. Правильное воспитание будущего поколения это гармонично развитая, здоровая будущая ячейка нашего общества.

На Востоке во все времена особое почтение воздавалось семье, семье клановой, традиционной. Семья священна, и потому она неприкосновенна. Являясь неоспоримой ценностью общества при любых формах государственного строя, узбекская семья проявляет и поныне удивительную жизнеспособность, — в то время как в западных обществах наблюдается нарастающий кризис института моногамного брака и семьи. В чём причина жизнеспособности традиционной узбекской семьи? В первую очередь в нашем государстве и большую роль для развития полноценной семьи играет махалля.

Духовно и физически здоровая, гармонично развитая личность может формироваться только в здоровой и благополучной семье. Здоровая атмосфера и благополучие в семье – основа духовного совершенства всего общества. В повышении духовной жизни народа место и значение исторически сложившейся махалли, основанной на родственных и близких отношениях, считается бесценной. Махалля сегодня это не только основное звено, обеспечивающее участие граждан в принятии политических решений, но и единственная система способная повысить участие молодёжи в социальной жизни страны и воспитать духовно – развитую молодёжь.

Сегодня нам нужна молодёжь с глубокой духовностью, обладающая самостоятельным мышлением. Решение этой важной стратегической задачи на сегодняшний день требует эффективного совместного действия семьи, махалли, общеобразовательных учреждений и институтов гражданского общества, так как духовность, мировоззрение, навыки, связанные с представлениями и верой молодёжи, формируются именно в семье, в махалле.

Совершенствование духовного воспитания в семье и махалле считается одним из его основных вопросов, это всегда отмечалось нашими великими предками. Усиление духовно-нравственного воспитания остается актуальной задачей для каждого периода. Демократические ценности общества нашли своё отражение в семье, махалле такие как, толерантность и милосердие. Поэтому большую роль в формировании благополучной семьи играет махалля.

Формирование чувства преданности народу и стране с детства занимает особое место в воспитании. Для этого с ранних лет жизни ребенка необходимо знакомить его с материальным миром и использовать формы, соответствующие нашим национальным традициям.

Система воспитания, созданная народом Узбекистана, на протяжении многих исторических эпох всегда служила могучим средством передачи социального опыта, накопленного прежними поколениями. Узбекская народная педагогика обладает исключительно богатым фольклорным материалом: эпические поэмы, разнообразные сказки, песни, пословицы и поговорки, загадки. Все они имеют непрекращающее познавательное и воспитательное значение, не утратившее своей актуальности и в настоящее время.

Жизнь и подвиги наших великих предков, не жалевших себя во имя чести и достоинства, донесла до нас наша история. Тумарис боролась с захватчиками, защищая честь и достоинство своей семьи. Легендарный полководец Амир Тимур больше всего ценил семейные традиции и семейные достоинства. Великий Мангуберды оберегал честь своей матери. Алпомыш отправился в далёкие края, чтобы спасти свою возлюбленную.

Великий узбекский педагог Абдула Авлоний сказал: «Воспитание для нас вопрос жизни и смерти, чести и бесчестия, счастья и отсутствие его. Если ребенок вырастет воспитанным, свободным от коррупционного поведения и приученным к хорошим манерам, каждый окажется приемлемым, счастливым человеком. Если он вырастет без дисциплины и морали, он станет невежественным, позорным миром, который не слушает советов и совершает всевозможные злые дела». Этими словами великий мыслитель хочет сказать, что воспитание в семье это главная ценность будущего поколения. А хорошее полноценное воспитание можно получить в здоровой и гармонично – развитой семье.

Ребёнок большую часть времени находится в семье. Во время общения с родными и близкими у ребёнка с первых дней жизни начинает формироваться структура личности. Он видит, как родители относятся друг к другу, к окружающим, как мать относится к отцу, на основе этого у ребёнка складывается внутренний мир, своя система отношений. Нравственный климат семьи складывается и таких составных, как гармоничное взаимоотношение супругов, их взаимопонимание. И в этом процессе огромную роль играет мать, являющаяся хранительницей очага, доброты и уюта. До сих пор сохранилась традиция петь колыбельную «Алла». Хотя младенец не понимает суть «Алла», но ласковая нежная мелодия тепло воздействует на него. Когда ребёнок повзрослеет, он поймёт суть и смысл «Алла», наставления и пожелания матери. Отношения, обстановка, тёплая атмосфера в семье – вот что важно для ребёнка, как для будущего полноценного успешного человека. Основатель узбекской литературы Гафур Гулям говорил, что именно от родителей зависит, каким вырастет ребёнок, займёт ли в обществе достойное место. А также сказал, что важно контролировать ребёнка во время учёбы, воспитать в нем любовь к труду, и опираться на проверенные веками традиции народной педагогики. Поведение родителей, отношения между отцом и матерью, уважение к родным и близким – важные факторы, обеспечивающие формирование ребёнка.

Отказ от чуждых нашему нациальному быту «боевых» игрушек, мультильмов, кинофильмов является требованием времени. Игры, игрушки, художественные книги, мультильмы, созданные на основе национальных сказок, отражающие восточную воспитанность и позитивные стремления человечества, считаются основным средством правильного формирования внутреннего мира ребенка. По этой причине необходимо сохранение священности, единства семьи, воспитание детей патриотами, гуманными, высокодуховными и развитыми. Здесь в целях объединения стремлений всех участников воспитательного процесса и сотрудничества имеет значение координация деятельности широкой общественности.

Заключение: В заключении хочу обобщить вышеизложенное. Во – первых, в формировании духовно – развитого, гармоничного поколения играет огромную роль наши национальные ценности. В первую очередь в воспитании будущего поколения является мать-хранительница очага и уюта в доме. Мать сама должна быть воспитанной, образованной, духовно – развитой женщиной, чтобы воспитать полноценную личность, это очень важно.

Во – вторых, махалля. Махалля – это важная ячейка общества. «Это целая система отношений между жителями одного квартала, улицы. Она существенно повлияла на становление и развитие узбекских традиций, быта. В некотором роде, это форма общины только на меньшей территории, махалля является самой маленькой административной единицей в системе местного самоуправления.

Она также выполняет функцию контроля посредством разветвлённой сети из добровольных «помощников» она всё видящая, всё слышащая и всё знающая» (Абдувахид Сулейманов).

В – третьих, в воспитании ребёнка большую роль играет педагогика наших великих предков, наша история. Наша незабываемая история должна быть примером для каждого. Родители должны заставлять читать книги наших великих мыслителей, так как на великой истории рождается великая личность. Например, узбекский писатель Абдулла Кадыри в своих произведения писал, об узбекской семье, о гостеприимстве, об этике семьи, оуважении старших, о родственных тёплых отношений, оуважении к женщине – матери. Как не прочитав, произведения великих узбекских писателей можно сформировать и воспитать в себе достойную личность.

Список использованной литературы:

1. Топилдиев О.Р. «Роль семьи, махалли и образовательных учреждений в воспитании молодёжи» 2015. – Ташкент: «Педагогика».
2. Абдувахид Сулейманов «Моя улица – моя махалля» Stend Land Bruch 2019. – Ташкент.
3. 3. Абдуллаев Д. Семейная психология, основа мышления. 2015. – Ташкент.
4. 4. Абдулла Авлоний. «Гулистан или этика в Турции». – Ташкент 1992.
5. 5. Исматуллаева Г.Э. Традиции и ценности в узбекских семьях. Молодой учёный. – Москва, №5 2015.
6. 6. Сафиязова Д.Ж. «Влияние национальных традиций на воспитание детей в узбекских семьях». – Санкт-Петербург-2013. Народное образование и педагогика за рубежом.



G‘iyosov Bobur,
TDTU dotsenti, tarix fanlari nomzodi

OILA INSTITUTIDA OTA-ONANING FARZAND TARBIYASIGA E'TIBORI MASALASI

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasida Sharq mutafakkirlari ilmiy-ma’rifiy merosidani samarali foydalanish, ularni milliy g‘oya va milliy ma’naviy meros asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: yoshlar tarbiyasi, barkamol avlod, milliy g‘oya, istiqlol mafkurasi, O‘rta Osiyo mutafakkirlari, ma’naviy va madaniy meros, milliy o‘zlikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

Аннотация. В статье анализируются вопросы эффективного использования научно-просветительского наследия мыслителей Востока, их воспитание в духе патриотизма на основе национальной идеи и национального духовного наследия.

Ключевые слова: воспитание молодежи, совершенное поколение, национальная идея, идеология независимости, просветители Центральной Азии духовное и культурное наследие, национальное самосознание, национальные и общечеловеческие ценности, патриотизм.

Annotation. The article analyzes the issues of effective use of the scientific and educational heritage of the thinkers of the East, their education in the spirit of patriotism on the basis of the national idea and national spiritual heritage.

Key words: education of youth, a perfect generation, national idea, ideology of independence, enlightened Central Asia’s spiritual and cultural heritage, national identity, national and universal values, patriotism.

Tarix saboqlari shuni ko‘rsatadiki, oilada ota-onan farzandi tarbiyasida asosiy o‘rinni egallaydi. Oila – muqaddas dargoh, u jamiyatning muhim bir bo‘g‘inidir. Oila mustahkam, madaniyatli, milliy qadriyatlarimizga asoslangan, ongli va bilimili farzandlarni jamiyatga yetkazib bera olsagina, uning mavqeyi

yuqori bo‘ladi hurmati oshadi. Sharqda azal-azaldan davom etib kelayotgan ajoyib an’analarmiz, udumlarimiz va qadriyatlarimiz borki, ularga tan bermasdan iloj yo‘q. Xususan, yigit yoki qiz yaxshi amallari, axloq odobini namoyon eta olsa, unga “otangga rahmat” deyishadi, agar badharakatlari, axloqsizligini ko‘rsatsa, “padaringga la’nat” iborasini qo‘llashadi.

Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, o‘zbek xalqi o‘zining juda boy va qadimiy tarixiga ega. Bu o‘lka inson madaniyati dastlabki kurtak o‘tgan ko‘hna zaminlardan biri sanaladi. U butun tarix davomida umumbashariy qadriyatlarning takomillashuviga salmoqli hissa qo‘shib kelgan. Bu hol ana shu sarhadlarda ming yillar davomida qad ko‘targan va tarix taqozosiga ko‘ra birin-ketin faoliyat ko‘rsatib o‘tgan o‘nlab davlatlarning serqirra va mazmundor tajribasida ham yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. Ota-onu o‘z farzandining tarbiyasi, odobi bilan tug‘ilgan uning kezlaridan boshlab shug‘ullanishi lozim. Negaki bu oila qurgan insonlarning asosiy burchi va vazifasidir. Buning uchun, avvalo, ota-onalarning o‘zlari yuqori ma’naviyat va madaniyat sohiblari bo‘lmog‘i, savodxon va xushxulq bo‘lishlari talab etiladi. Oilada farzand kamol topar ekan, uni dunyoga keltirgan insonlar ovqat yeyish madaniyati, suhbat qilish madaniyati, o‘zidan kattalarga hurmat va e’tiborli bo‘lishi, kitobga va ilmga mehr qo‘yish, tariximizni o‘rganib borish, Sharq madaniyati va qadriyatlari, buyuk va betakror madaniy merosimiz va hokazolar yuzasidan saboqlar berib borishi hayotiy ahamiyat kasb etmoqda. Ota-onu o‘z farzandiga tarix ilmi hamda badiiy adabiyotga mehr uyg‘otmas ekan, hech qachon munosib farzandni tarbiyalay olmaydi. Zotan, “ilm-ma’rifat va kasb-hunarga intilish, oilani muqaddas bilish, ma’naviy poklik, kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat, qadriyatlarni sadoqat kabi ezgu fazilatlar azaldan xalqimiz, millatimizning qonida bo‘lib kelgan”¹²⁹, yurtboshimiz Mirziyoyev Sh.M. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozil-u fuzalolar, olimlar-u ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu azim zaminda yaratilgan, sayqal topgan”.

Shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, ayrim ota-onalar farzand tarbiyasi masalasida “nihoyatda bandligi va vaqt ozligini” ro‘kach qiladilar. Vaqt kelib farzandi nomaqbul ish qilib qo‘ysa yo jinoyat sodir etsa, men bexabar qolibman, xizmat bilan bo‘lib e’tibor bermagan ekanman” deya pushaymon bo‘ladilar. Endi psixologik tadqiqotlar ko‘rsatkichlariga e’tibor qaratsak: “yo‘lbars o‘z bolasi voyaga yetguniga qadar har kuni 20 soat vaqt ajratar ekan (hujum qilish, himoyalanish, boshqa hayvonlar bilan munosabatlar va hokazolar), yo‘lbars o‘rgatuvchisi esa 16 soat, yurtimizdagi ota-onalar esa bor-yo‘g‘i 12-15 daqiqa vaqt ajratar ekan (bu qisqa muloqotlar, asosan, kechki ovqat vaqtida, bolam qo‘lingni yuvib keldingmi, o‘qishga qatnab turibsammi, telefoning hisobida pul bormi? singarilar bilan cheklanib qolgan”).¹³⁰ Endi boshqa bir fakt: AQShning sobiq prezidenti Bill Clinton o‘z qizi Chelsi tarbiyasi va o‘qishni o‘zlashtirishiga har kuni kamida bir soatdan vaqt ajratar edi. Hozirgi davrda davom etayotgan murakkab globallashuv jarayonida voyaga yetayotgan farzand ikki dilemma o‘rtasida qolib ketmoqda: yo ota-onu o‘z farzandini barkamol inson sifatida o‘qitish, bilim berish va jamiyatga foydali inson sifatida shakllantirish yo bo‘lmasa global tahidilari, axloqsizlik, hayosizlik va ommaviy madaniyatning salbiy jihatlari ta’siriga berilib ketish, ayrim kezlarlarda turli diniy oqimlar va terroristik guruhlar safiga kirib ketish holatlari barchamizga ayondir. Achinarli holat shundaki, ko‘p ota-onalar o‘z farzandiga 500 dollar narxdagi uyali telefonlar olib berishyapti, lekin 5000 so‘m turadigan foydali kitoblarni sotib olib berishni o‘zlariga ep ko‘rmayaptilar. Rasmiy faktlarga samimiy munosabatda bo‘lgan holda tan olaylik, yurtimizda buzilib ketayotgan yosh oilalarning miqdori kishini tashvishga solmay qo‘ymaydi. Ayrim mahallalarda ajrashgan yosh oilalarning miqdori 40% dan oshgan. Bularning asosiy sabablari turmushga tayyor bo‘lмаган yoshlarning muqaddas dargoh hisoblangan oilaga yengiltaklik-la munosabat, oila qurishga tayyor emaslik ko‘zga tashlanyapti. Bu baxtsizliklarning asl sabablari yana ota-onu, qolaversa, oila tarbiyasining sust ekanligiga borib taqaladi.

Oilada katta g‘oyaviy-tarbiyaviy hamda axloqiy bo‘shliq natijasida voyaga yetayotgan o‘quvchi yo talaba o‘quv muassasalariga kelganidan so‘ng, pirovardida asosiy yuk pedagoglar va murabbiylar yelkasiga tushmoqda. Natijada o‘quv dargohlaridagi yoshlar o‘qishga kelmaydi, kelsa ham doskaga chiqib to‘rt qator jumlanı bexato yoza olmaydi va ustozlar bilan sen emas, men, deya talashib tortishadi. Asosiy qonunimizda ta’kidlanganidek, “ota-onalar o‘z farzandlarini boqishi va voyaga yetguniga qadar tarbiyalashga

¹²⁹ Шавкат Мирзиёев: Ёшлар келажаги билан боғлиқ ҳар қандай вазифа бирламчи аҳамиятга эга. UZA/UZ/UZ/POSTS/ 25.12.2020.

¹³⁰ Бобур Ғиёсов. Оила мустаҳкамлигининг муҳим омили. // “Гулистон”. 2019/6. 27-бет

majburdirlar”.¹³¹ Lekin ko‘pgina ota-onalar o‘zlarining ana shu majburiyatlarini bajarmayaptilar. Ommaviy axborot vositalari o‘z-o‘zini boshqaruV organlari, huquq-tartibot organlari, jamoatchilik tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va pedagoglar ushbu masalada allaqachon bong urib kelmoqdalar. Biroq ijobji o‘zgarishlar ancha oz.

To‘g‘ri, farzand tarbiyasiga jiddiy ahamiyat qaratayotgan ota-onalar oz emas. Ular o‘z farzandlarining qiziqishlari, iqtidori va manfaatlarini hisobga olgan holda qo‘llab-quvvatlamoqdalar, sportga, hunar sirlarini o‘rganishga, san‘atga, ilm-fan cho‘qqilarini egallashga bo‘lgan intilishla-rida qamarbasta bo‘layaptilar. Ushbu sa’y-harakatlar, albatta, o‘z samaralarini bermoqda. Hozirgi davrda yurtimizni “polvonlar mamlakati”, “championlar yurti”, deya atayotganliklari bejiz emas. Mamlakatimizning xalqaro mavqeyini yuksaklarga ko‘tarishda yosh avlodning buyuk xizmatlarini aslo kamaytirib bo‘lmaydi.

Ajdodlarimiz asrlar davomida yaratgan ma’naviy meros shu qadar ulkan, shu qadar qamrovi benihoyaki, uni yaxlit idrok etishga uringan har qanday ilm sohibining aqlini shoshirib qo‘yadi. Jahonning birorta mintaqasi Markaziy Osiyoda yetishib chiqqan dono mutafakkirlarimiz, olimlar va kashshoflarimiz miqdorida mutafakkirlar yetishtirib chiqargan emas. Ma’naviy merosimiz tarkibiy qismlari o‘rtasidagi ichki uyg‘unlik, uning jahon madaniyatida tutgan o‘rni va mavqeyi aniq ifodasini topmasa, turli soha mutaxassislari alohida tadqiqotlarini bir joyga jamlash bilan ish bitmaydi, yaxlit manzara hosil bo‘lmaydi. Jahonga mashhur bobokalonlarimiz – O‘rta Osiyo mutafakkirlari qoldirgan ilmiy va ma’naviy meros tariximizni, qolaversa, o‘zligimizni anglashda muhim hayotiy ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, yoshlar ongiga milliy g‘oya, istiqlol mafkurasi hamda boy ma’naviy merosimizning asl mohiyatini singdirishda ko‘p tomonlama sa’y-harakatlar amalga oshirildi va oshirilmoxda. Istiqlol tufayli ardoqli va shodiyona ayomimiz “Navro‘z” bor bo‘y-basti bilan tiklandi, pirovardida Mustaqillik sharofati bilan tantanavor nishonlanadigan eng ardoqli xalq bayramiga aylandi.

Darhaqiqat, xalqning yuzlab yillar mobaynida yaratgan asarlarni o‘rganmay, ma’naviy va madaniy merosni anglamay va tushunib yetmay, milliy o‘zlikni anglab yetmay, qolaversa, umuminsoniy qadriyatlar ummonida o‘z mavqeyini aniqlab olmay turib asl vatanparvarlarni tarbiyalab bo‘lmaydi,”¹³² – deya mulohaza yuritadi taniqli sharqshunos olim, tarix fanlari doktori Bahrom Abdualimov. Yoshlar va talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularni barkamol inson bo‘lib yetishishiga hissa qo‘sish, yoshlarda milliy istiqlol g‘oyalariga sadoqat, milliy va umumbashariy qadriyatlarga nisbatan hurmat tuyg‘ularini singdirib borish, ularning ongi va tafakkurida yuksak insoniy fazilatlarni, Ona Vatanimizga va jonajon xalqimizga sodiqlikni shakllantirib borish bizning oldimizdagи muhim vazifalardan biridir. Ko‘p asrlardan buyon Buyuk Ipak yo‘li vazifasini bajarib kelayotgan mintaqamizning xalqaro ahamiyati ortsa ortib boryaptiki, aslo kamayayotgani yo‘q. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizning kamol topayotgan farzandlarimiz ongiga singdirib borilishi ham mudofaa qudratimizning yuksalishida o‘z ahamiyatiga egadir.

1990-yillarda jahondagi ayrim siyosiy doiralar g‘arazli maqsadlarini ko‘zlagan holda o‘sha davrdagi yosh davlatimiz, endigina shakllanayotgan davlatchiligidimizga qarshi mafkuraviy xurujlarni amalga oshirishga harakat qilib ko‘rdilar. Lekin “Xizb ut-tahrir”, “Vahobiylik” va “Nur” deb atalmish ekstremistik guruuhlar qabih rejalarini amalga oshira olmadilar. Chunki mamlakatimiz rahbariyatining dono va bunyodkorlik siyosati, qo‘llagan tezkor chora-tadbirlari tufayli o‘z vaqtida ularning manfur faoliyatiga zarba berildi. Hukumatimiz, albatta, xorijiy mamlakatlar bilan o‘zaro manfaatlari teng huquqli do‘stona munosabatlarni rivojlantirish tarafdiridir. Lekin davlatimiz do‘stona munosabatlarga rahna soluvchi mafkuraviy xurujlarni amalga oshirishga intiluvchi siyosiy kuchlarning qonunchiligidimizga qarshi qaratilgan xatti-harakatlariga chek qo‘ya oladi. Darhaqiqat, hayot tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, ma’naviy barkamollik har qanday mafkuraviy tahdidlarga qalqon bo‘la oladi, oliy maqsadlar sari yetaklay oladi.

Har bir xalqning milliy va diniy qadriyatlari o‘zi uchun aziz, ularni kamsitishga xech kimning haqqi yo‘q. Shu bilan birga, bir xalq udumi ikkinchisini kiga mos kelmasligi ham mumkin. Bunday holda har kim o‘z mentalitetini, o‘z milliy qadriyatlarni yot unsurlar ta’siridan himoya qilishga haqlidir. Ma’naviyat nafaqat ijobji hislatlar majmuyi, balki tashqi salbiy ta’sirlardan himoya qiluvchi immunitet hamdir. Ma’naviyati butun insonlar tashqaridan kelayotgan turli isyonkorlik ruhidagi da’vatlar-u targ‘ibotlarga aldanib, ergashib ketmaydilar. Iroqda va Liviyada yuz bergen xunrezliklar-u davlat to‘ntarishlari, hozirgi Suriya Arab

¹³¹ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси (64-модда). – Т.: Ўзбекистон, 2016.

¹³² Абдухалимов Б.А. “Байт аль-хикма” и научная деятельность среднеазиатских ученых в Багдаде.// Автореферат диссертации на соискании ученой степени доктора исторических наук. – Т., 2001. С.3.

Respublikasi yoki Ukrainada namoyon bo‘layotgan siyosiy bo‘hrunu parokandaliklar global tahdidlarning ko‘lamni tobora kengayib borayotganligini ko‘rsatdi. “Arab bahori” deya atalmish qabohat va zalolat ushbu mamlakatlarning boshiga ozmuncha kulfat keltiryaptimi?! Xalq xo‘jaligi-chi, ozmuncha zarar ko‘rdimi?! Halok bo‘lgan begunoh bolalar, ayollar va qariyalarda nima ayb? Soxta g‘oyalar va mafkuralar orqali amalga oshirilgan va shu kunlarda yuz berayotgan fuqarolar urushlari arab xalqlariga barqarorlik, tenglik, farovonlik, xavfsizlik va osoyishtalik olib kelayotgani yo‘q.

Bizning har birimiz – o‘zbek diyorining har qaysi farzandi tarixda kim edig-u, yaqin o‘tmishda kim bo‘lib qolganimizni aniq va ravshan tasavvur qila bilishimiz lozim. Vatanni sevmoq uchun, avvalo, uning shonli kechmishi, yaxshi yomon kunlari, ajdodlar o‘tmishini va ko‘hna tarixini mufassal o‘rganmoq kerak. Chunonchi, Vatanni sevmoq uchun tarix va adabiyot bilan oshno bo‘lish shakllanib borayotgan barkamol inson uchun nihoyatda muhimdir. Tarix va adabiyot inson ongi va tafakkurida bir-biri bilan uyg‘unlasha oluvchi, hamohanglikda noyob xazinaga aylana oluvchi bebafo ma’naviy boylikdir. Bunday ma’naviy boylik insonni oliy maqsadlar sari yetaklashda kamarbasta bo‘la oladi.

Istiqlol sari dadil yo‘l olgan O‘zbekiston Respublikasining kelajak kunlari farovon bo‘lmog‘iga, uning bag‘rida haqiqat nurlari to‘la porlamog‘iga, har bir insonning orzu-umidlari ushalmog‘iga har birimiz, albatta, ishonmog‘imiz kerak. Faqat ishonishgina emas, bu yo‘lda halol mehnat, yaxshi niyat bilan samarali faoliyat ko‘rsatmog‘imiz muhim ahamiyat kasb etadi. Elni deb, yurtni deb yashagan har bir insonning taqdiri yorqin, topgani baxt-u saodat, erishgani kamolot cho‘qqisi bo‘ladi. Xalqimizning ma’naviy yuksalishi nafaqat yurtimiz go‘zalligi, balki davlatimizning ijobiliy xalqaro imidjini namoyon etadi. Shak-shubha yo‘qli, kelajakda ulug‘vor tarixiy o‘zgarishlarning faol ishtirokchisi – xalqimiz o‘z g‘oyalariga doimo sodiq bo‘lib qoladi.

Beknazarova Lola,
*Qarshi davlat universiteti
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent*

O‘ZBEK XALQINING MA’NAVIY MEROSI OILA RAVNAQINI TA’MINLOVCHI TARBIYA VOSITASI SIFATIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada oilaning ijtimoiy insititut sifatida rivojlanishi, oilaviy munosabatlar, oilaviy turmushning asosiy maqsadi, farzand tarbiyasida ota-onaning o‘rni, bolaning shaxs sifatida o‘zini anglashi hamda Sharq mutafakkirlarining oilada farzand tarbiyasi to‘g‘risidagi fikrlari mujassamlashgan.

Tayanch so‘zlar: oila, fenomen, ota-ona, farzand, tarbiya, shaxs, munosabat, xalq, millat, ma’naviy meros, qadriyat, xulq-atvor, o‘z-o‘zini anglash.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы развития семьи как социального института, семейных отношений, основных целей семейной жизни, роль родителя в воспитании детей, восприятие ребенком себя как личности, взгляды восточных мыслителей на воспитание детей в семье.

Ключевые слова: семья, феномен, родитель, ребенок, воспитание, личность, отношение, люди, нация, духовное наследие, ценности, поведение, самосознание.

Annotation. The article discusses the development of the family as a social institution, family relations, the main goals of family life, the role of the parent in the upbringing of children, the child’s perception of himself as a person, the views of oriental thinkers on the upbringing of children in the family.

Key words: Family, phenomenon, parent, child, upbringing, personality, attitude, people, nation, spiritual heritage, values, behavior, self-awareness.

Oila fenomeni dunyodagi eng umrboqiy qadriyatlardan biri hisoblanadi. Oila insoniyatning ibridoib hayotidan madaniyashgan, sivilizatsiyalashgan hayotga o‘tishini ta’minlagan eng muhim omillardan biridir. Oila o‘ziga xos ijtimoiy institut sifatida juda uzoq tarixiy davrni bosib o‘tganligi va takomillashganligi bilan

ijtimoiy ahamiyati hamda vazifalari ortib boradi. Oila doimo rivojlanib boruvchi, takomillashuvchi, yangi mazmun, mohiyat bilan boyib boruvchi maskan bo‘lib, dunyoda birorta inson o‘zini oilasiz tasavvur eta olmaydi. Shuning uchun ham oila fenomeniga qiziqish katta.

Oila ijtimoiy insititut sifatida, insoniyatning ongli hayoti bilan qadam baqadam mavjud, hamda juda qadimiy tarixga ega bo‘lsada, biroq uni shakllantirish, rivojlantirish, birlashtirish, jipslashtirish, oila a’zolarining yagona maqsad sari safarbar etishning yagona tashxisi hozirgacha ishlab chiqilmagan. O‘zbek milliy xarakterida oilaning buyuk qadriyat ekanligini e’tiborga olgan holda uning mustahkamligi va sofligini saqlab qolish barchamizning burchimiz ekanligini to‘liq anglab yetish eng muhim masala bo‘lib hisoblanadi.

Oila va oilaviy munosabatlar ayniqsa, ota-onha va farzandlarning o‘zaro aloqalari jamiyat yuzaga kelgan ilk davrlardan buyon eng muhim muammolardan biri bo‘lib kelgan. Jamiyat rivojlanib borgan sari bu muammoning ahamiyati yanada ortib boraveradi. Chunki insoniyat tomonidan erishilgan yutuqlar aynan, oila muhitida ota-onha va farzandlar munosabatlari tizimida boshqa har qanday ijtimoiy insititular orasidagi uzviylik sifatida olib qaralganda ko‘proq darajada o‘zlashtiriladi va an’anaviy ma’naviy meros tarzida avloddan avlodga o‘tadi. Shunday ekan, u yoki bu jamiyat xalq va millatning istiqboli ko‘p jihatdan shu munosabatlarning holatiga bog‘liq. Buning uchun oiladagi ichki muhitning har tomonlama sog‘lom, ma’naviy mustahkam bo‘lishiga erishish lozim.

Oila inson uchun muqaddas maskan, kishilik jamiyatining ijtimoiy poydevoridir. Oilaviy turmushning asosiy maqsadi – bu farzand ko‘rish orqali shaxslararo munosabatlar ahvolini qayta tiklash, shuningdek, avlodlar bilan ajdodlar vorisligining davomiyligini hamda yer yuzida insoniyatning tarixiy taraqqiyotini ta’minlashdan iboratdir. Darhaqiqat, oila har bir shaxsning ilk yoshligidan boshlab shakllanuvchi insoniy fazilatlar, ezgu-istiklar, qadriyatlar, ming yillar davomida tarkib topuvchi o‘zbek xalqining ma’naviy merosi ravnaqini ta’minlovchi tarbiya maskanidir.

Oilaviy munosabatlarni qadimgi xalqlardan qolgan muqaddas diniy manbalarda, o‘zbek xalqining og‘zaki ijodiyotida, sharqning buyuk mutafakkirlari asarlarida, o‘zbek xalqning shaxslararo munosabatlardagi odob-axloq qoidalari, me’yorlari, insoniy fazilatlar mohiyati to‘g‘risidagi qimmatli manbalarda ham uchratish mumkin.

Aqlan yetuk, axloqan pok, jismonan baquvvat farzandlar esa yaxshi oilalarda kamol topadi. Shuning uchun ham oilada sog‘lom ma’naviy, axloqiy muhitni vujudga keltirish va uni mustahkamlash umum davlat ahamiyatiga molik masaladir. Chunki ijtimoiy hayotda yuz beradigan barcha o‘zgarishlar, ya’ni undagi yutuq va kamchiliklar murakkabliklar va ziddiyatlar oilada o‘z aksini topadi. Shunga ko‘ra, oila va oilaviy tarbiya masalalari har doim ham dolzarb muammo sifatida e’tirof etiladi. Ayniqsa, bola shaxsida o‘z-o‘zini anglashning tarkib topishida ota-onha tomonidan berilayotgan tarbiyaning ta’siri muhimligi alohida ahamiyatga ega.

Ota-onalarning bolaga munosabati o‘zining o‘ziga munosabatidan oldin keladi, uning boshqalar tomonidan anglanishi o‘zini o‘zi anglashdan oldin keladi. Boshqalar munosabatlarining ichki kechinmalarga o‘tishi odamlar bilan o‘zaro ta’sirlashuv va birgalikdagi faoliyat jarayonida amalga oshadi. Biroq boshqaning fikrini qabul qilish fenomenining ahamiyatiga doir ikkinchi nuqtayi nazarga ko‘ra, to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zlashtirish emas, balki boshqa odamlarning munosabatlariga tayanib, o‘zini baholash, o‘ziga munosabatini shakllantirish qobiliyatining yuzaga kelishidan iboratdir.

Boshqa odamlar baholarini o‘zlashtirishning quyidagi yo‘llari mavjud: to‘g‘ridan to‘g‘ri so‘zli shakl va xulq-atvor shakli. Mazkur mexanizmlar bolani tarbiyalayotgan kattalar tomonidan tarbiyaviy maqsadda ongli ham, ongsiz holda ham ishga tushirilishi mumkin.

O‘zini o‘zi anglash va baholash jarayoni xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha O‘zbekiston psixologiya fanida ham muayyan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lib, ularda o‘zini o‘zi baholash jarayonining ijtmoiy-psixologik omillari, o‘smirlarning o‘zini o‘zi baholashiga oilaviy muhitning, o‘rtoqlari davrasining, maktab ta’limining, ota-onaning va nihoyat shaxsga xos bo‘lgan individual-psixologik xususiyatlar, ya’ni intilishi, maqsadlari va hayotiy pozitsiyalarining o‘rnii masalasi ilmiy tahlil qilishga harakat qilinadi.

Professor V.M.Karimovaning tadqiqotlarida oila bola shaxsining shakllanishi va uning ijtimoiylashuviga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi, deb ta’kidlanadi. Shu bilan bir qatorda, uning ko‘rsatishicha, boladagi o‘zi to‘g‘risidagi barcha tasavvurlarning shakllanishida u tarbiyalanayotgan oiladagi munosabatning xususiyatlari, oila tiplari va ota-onalik maqomlarining ular tomonidan qay darajada anglanishining roli kattadir.

Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosida oila va oilada farzand tarbiyasiga katta e'tibor berganlar. Zero, yosh avlod tarbiysi insoniyatning kelajak taqdirini belgilaydigan, ularni ijobiy mezon bilan qurollantiradigan sifatlar bo'lganligi uchun ham mutafakkirlar bu muammoni hal qilishga harakat qilib kelganlar. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad Qoshg'ariy, Yusuf Xos Xojib, Kaykovus, Umar Xayyom, Ahmad Yugnakiy, Husayn Voiz Koshify kabi mutafakkirlarning qator asarlarida bolalarni oilada tarbiyalash masalalariga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Abu Nasr Forobiyning uqtirishicha, insonning barcha qobiliyat va fazilatlari ikki turli bo'ladi. Birinchisi, tug'ma irsiy tabiiy xislatlar bo'lsa, ikkinchisi, tajriba, amaliyat, sharoit ta'sirida tarkib topadigan xislatlardir. Shuningdek, bola tarbiyasida bir-biri bilan bog'liq bo'lgan xislatlarni hisobga olish lozimligini ta'kidlaydi.

Oilada bola tarbiyasi masalasi Abu Bakr Muhammad ibn Al-Abbos Al-Xorazmiy qarashlarida ota-onalar ikki xil – tug'ilish otasi va ta'lim berish otasi: birinchisi jismoniy hayot sababli, ikkinchisi ruhiy hayot sababli. Shunga ko'ra, ularni uzviy birlikda olib qarash tarbiya ishida muhim ahamiyatga molikdir. Uning, "Zamondan yaxshiroq muallimni, insondan yaxshiroq ta'lim oladigan o'quvchini ko'rmadim", degan so'zlaridan, bir tomondan, ijtimoiy muhitning bola tarbiyasi uchun hal qiluvchi ta'sirini anglasak, ikkinchi tomondan, inson shaxsi ta'lim natijasida kamolotga erishib borishi mumkinligini sezamiz.

Beruniy ota-onalarga qarata bolani mo'tadillikda saqlashni tavsiya etadi. Bunga asosan, qattiq g'azablanish, qo'rqish va xafalikdan, uyqusizlikdan saqlash orqali erishishini aytib, ularni xohlagan va foydalı narsasini topib berishga, sevmagan narsasidan uzoqlashtirishga harakat qilish kerakligi uqtiriladi. Ota-onaning bolaga turli munosabati turlicha xulqlarni keltirib chiqaradi. Yaxshi xulqlarning paydo bo'lishi, bola ruhiyatiga ta'sir qilibgina qolmasdan, uning fiziologik o'sishiga ham yordam beradi. Yomon xulq esa turli mijoz buzilishilariga olib keladi. Aksincha, bola organizmidagi o'zgarishlar uning ruhiyatidagi xatti-harakatidagi o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Mutafakkir bola xulq-atvorining mo'tadilligi natijasida tan va ruh sog'lomligi kelib chiqishini ham ilmiy asoslab beradi.

Ibn Sino oilada bola tarbiyasi ancha murakkab va nozik bo'lib, uni bolaning yoshligidan boshlash va izchillik bilan olib borish lozimligini uqtiradi. U ona allasining tarbiyaviy ahamiyati haqida to'xtalib, "Alla" ikki vazifani bajaradi, deydi. Birinchisi, uni tebratish orqali bolaga jismoniy orom bag'ishlaydi; ikkinchisi, beshikni bir maromda tebratishdan onaning mehri jo'sh uradi, bolasiga bo'lgan muhabbatidan onaning orzu umidi yurak turidan silkinib chiqadi. Bu o'ziga xos qo'shiq bolasiga qasidadek yangraydi va u farzandining murg'ak qalbiga butun shuuriga singib boradi. Shu tarzda bolada o'zi anglamagan holat paydo bo'ladi. U asta-sekin bu yorug' olamni anglay boshlaydi. Ana shu anglashdan o'rganish boshlanadi. Xuddi shu o'rganish tarbiyalanishdir. Zotan, o'rganish sezishdan kelib chiqadi. Ibn Sino ana shu holatga e'tiborni qaratib "yosh bolaning sezgirlik quvvati katta odamga teng keladi", degan fikrni bildiradi.

Yusuf Xos Xojib "Qutadg'u bilig" asarida bola tarbiyasi haqida to'xtalib, shunday deb yozadi: "Farzand qanchalik bilimli, aqli, hushli bo'lsa, ota-onaning yuzi shunchalik yorug' bo'ladi". U bola tarbiyasida otaning mas'uliyatiga asosiyligi e'tibor beradi. "Kimning o'g'il qizi erka bo'lsa, – deb yozadi u, – unga shu kishining o'zi mungli bo'lib yig'laydi. Ota bolani kichikligida bebosh qilib qo'ysa, bolada gunoh yo'q, barcha jafo otaning o'zida. O'g'il-qizning xulq-atvori yaramas bo'lsa, bu yaramas ishni ota qilgan bo'ladi. Ota bolalarni nazorat qilib turli hunarlarni o'rgatsa, ular ulg'aygach o'g'il-qizim bor deb sevinadi, o'g'il qizga hunar va bilim o'rgatish kerak, toki bu hunar bilan ularning fe'l-atvorlari go'zal bo'lsin". Bola asta-sekin hunar o'rganib hayotdan ta'lim olib, bilimdon bo'ladi, chinakam insoniy go'zallikka erishadi.

Oilada bola tarbiyasi buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy merosida ham munosib o'rinni egallaydi. U o'zining qator asarlarida ta'lim-tarbiya masalalari umuminsoniy g'oya ekanligini o'rtaga tashlaydi. Uning fikricha, jamiyatning yetukligi uning taqdiri va kelajagi yoshlar kamoloti bilan bog'liqidir, shunga ko'ra, bola tarbiyasi ota-onalar oldida turgan oliyanob vazifadir.

Alisher Navoiy ota-onalarning yaxshi sifatlarini ulug'laydi. Bunday sifatlarning ularda jamuljam bo'lishi bola tarbiyasida muhim rol o'ynashini ko'rsatib o'tadi. Masalan, uning xotinlar haqidagi fikrlari diqqatga sazovordir: "Yaxshi xotin deydi Navoiy – oilaning davlati va baxti uning osoyishtaligi, undan uy egasining xotirjam va osoyishtaligi, undan husnli bo'lsa, ko'ngil ozig'i, xushmuomala bo'lsa, jon ozig'idir. Oqila bo'lsa, ro'zg'orda tartib-intizom bo'ladi. Beandisha shallaqi bo'lsa, ko'ngil undan ozor chekadi, yomonlik axtaruvchi bo'lsa, undan ruh azoblanadi. Agar mayxo'r bo'lsa, uy obodligi yo'qoladi, aqlsiz bo'lsa oila rasvo bo'ladi". (10)

Davoniy ota-onaning bola tarbiyalashdagi uning dunyoqarashini tarkib toptirishdagji rolini alohida ta'kidlagan. Uning e'tiqodiga ko'ra, bola tarbiyasida ota ham ona ham teng ishtirok etishi, ikkovi ham barovar mas'uliyat sezishi lozim. Ota bolaning go'zal fazilatlarini egallashiga, sevgan kasbini puxta o'rganib olishga yordam ko'rsatishi, kamolotga yetishini, ilm-fan kasb-hunarni egallashi uchun moddiy baza hisoblangan oziq-ovqat, kiyim-kechak, kerakli buyum va jihozlarni yetkazib berish ustida ham bosh qotirishi kerak. Davoniy otaning bola tarbiyasidagi roliga katta baho bersa ham, baribir, tarbiya masalasida asosiy qiyinchilik onaning zimmasiga tushadi, deb hisoblaydi. Chunki u homiladorlik mashaqqatini, tug'ish azobini boshdan o'tkazadi. Ona bolaning yashashiga sabab bo'ladigan, birinchi quvvatni o'z badanidan beradi, uzoq vaqt ehtiyyotkorlik bilan asraydi, bola tarbiyasi bilan shug'ullanadi va o'zining cheksiz mehr-shafqatini bolaga fido qiladi.

Ota-onsa bolaga birinchi o'rinda oddiy axloq normalarini singdirishga: yurish, turishi, yeyish, ichish, qoidalariga o'z qilmishi uchun mas'uliyatni his qilishi, yomon qiliqlari uchun uyalishga o'rgatishi lozim. Shunday qilib, Davoniy bolalarning tarbiyasi bilan shug'ullanish ota-onalarning asosiy burchi ekanligini qayd etadi.

Yuqorida fikrlardan ko'rindan, oila va uning ma'naviy merosi shaxsga oilada beriladigan ta'limgar tarbiya o'ziga xos bo'lib, bu jarayonda asosiy ta'sir obyekti sifatida ota-onaning o'rni beqiyosdir. Shu bois, bola shaxsining kamolotida o'z-o'ziga bo'lgan munosabatni tarkib topishida oila va oilaviy tarbiyaning muhim o'rin egallashini yanada takomillashtirib borishda o'zbek xalqining ma'naviy merosidan unumli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдурауф Фитрат. Оила. – Тошкент: Маънавият, 2000. 112-бет.
2. Абу Райхон Беруний. Ҳикматлар. – Тошкент, 1973. 174-бет.
3. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент, 1993. 224-бет.
4. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. Танланган асарлар тўплами 13 т., – Тошкент, 1996. 224-бет.
5. Буюк сиймолар, алломалар. 2-китоб. Нашрга тайёровчи Хайруллаев М.
6. Каримова В.М. Оиласий ҳаёт психологияси. – Тошкент, 2006. 172 бет
7. Узоков X., Фозиев Э, Тожиев А. Оила этикаси ва психологияси. – Тошкент: Ўқитувчичи. 1992.

Shukurova D.,
QarshiDU psixologiya
kafedrasi o'qituvchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR MILLIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHDA OILAVIY TARBIYANING O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalar tafakkurini shakllantirishda axloqiy tarbiyaga alohida e'tibor qaratish va bolaning jamiyatga, odamlarga, o'ziga bo'lgan munosabatlar tizimida milliy tafakkurini shakllantirishni tarkib toptirishga qaratiladi.

Kalit so'zlar: ota-onsa, farzand, oila, ta'limgar tarbiya, aqliy fikr, dunyoqarash, tasavvur, tafakkur, nutq, faoliyat, milliy, axloqiy xususiyat

Аннотация. Эта статья посвящена нравственному воспитанию в формировании мышления детей, формирование национального мышления в системе взаимоотношений ребенка с обществом, людьми и самим собой.

Ключевые слова: родитель, ребенок, семья, образование и воспитание, умная мысль, мировоззрение, воображение, мышление, речь, деятельность, национальная, нравственная особенность.

Annotation. This article is devoted to moral education in the formation of the thinking of children, the formation of national thinking in the system of the child's relationship with society, people and himself.

Key words: parent, child, family, education, mental thinking, outlook, imagination, thinking, speech, activity, national, ethical, peculiarity.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash-davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqlarida shunday so‘zlarni keltirib o‘tganlar: “Bola ota-oni qo‘lida bir omonatdir”, – deydi buyuk allomalarimiz. Bolalarimiz, ularning taqdiri, kelajagi haqiqatan ham juda omonat ekanini bugungi hayot har tomonlama isbotlamoqda. Agar farzandimizga to‘g‘ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada uning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo‘lib turmasak, ularni ilmu hunarga o‘rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo‘yishimiz hech gap emas”.

Oiladagi to‘g‘ri va asosli tarbiya inson umrining asosli poydevoridir. Inson fazilati, hayot go‘zalligi ota-onaning farzand tarbiyasidagi uzuksiz mehnati aql-idrok bilan uzoqni bilib ish ko‘rishiga bog‘liqdir.

Bolalarning asosiy faoliyatları o‘yin, uy yumushlariga yordam berish, o‘qish va shu kabilardan iborat bo‘lib, ularning aqliy tarbiyasini shakllantiradi va ularning milliy axloqiy xususiyatini o‘stiradi. Bolalarning aqliy fikrlashi o‘yin yoki kattalar bilan shug‘ullanayotganda, uy yumushlarini bajarayotganda, ota-onasi bilan bo‘lgan muloqotda, sayr qilganda rivojlanib boradi. Ota-onalar atrofdagi narsalarga, tabiatda bo‘layotgan o‘zgarishlarga bolalar e’tiborini qaratib, ularni to‘g‘ri anglash va taqqoslashga o‘rgatadi. Shu asosda bolaning so‘z boyligi va dunyoqarashi kengayib boradi.

Bolalar tafakkurini shakllantirishda axloqiy tarbiyaga alohida e’tibor qaratish lozim. Buning mohiyati bolaning jamiyatga, odamlarga, o‘ziga bo‘lgan munosabatlar tizimini o‘zida tarkib toptirishga qaratiladi. Masalan, kattalarga hurmat, salomlashishi odobi, tozalikka rioya qilish, dasturxon atrofida o‘tirish kabilar. Insonning axloqiy fazilatlari bolalikdan boshlab qanchalik rivojlanib borsa, fikrlar doirasi shunchalik kengayib boradi. Bola kattalar bilan qanchalik ko‘p munosabatda bo‘lsa, uning atrof-muhitni idrok qilishi shunchalik rivojlanib boradi. Bu jarayonda kattalar tomonidan bola ko‘zga tashlanadigan ish qilmasa ham, u tirishib harakat qilgani uchun ham uni rag‘batlantirilib borilishi maqsadga muvofiq.

Oilada mehnat faoliyatlariga taqlid qilish dastavval bolalarning milliy o‘yinlari, “mehmon-mehmon”, “dasturxon bezatish”, kabi o‘yinlarida namoyon bo‘ladi. Bolalar bu bilan cheklanib qolmaydilar. Ular kattalar mehnatida bevosita ishtirok etish uchun harakat qila boshlaydilar.

Bog‘cha yoshidagi bolalarning mehnatlariga baho berib borish ularda mehnatga nisbatan ijobiy munosabatni tarbiyalashda katta rol o‘ynaydi. Bolalar kuchlari yetadigan ishlarni bajarayotganlarida ko‘p xatolarga yo‘l qo‘yishlari mumkin. Lekin bundan bolalarni mehnatga jalb qilmaslik kerak, degan ma‘no kelib chiqmaydi. Bolalarga biror yumush buyurilganda, uni qanday bajarayotganliklarini nazorat qilib turish, sabr bilan tuzatib turish kerak, shundagina oilada milliy urf-odatlarga nisbatan ham fikrlash ya’ni tafakkur qilish jarayonlari shakllanib boradi.

Ota-onalarning ish bilan band bo‘lib, farzand tarbiyasiga vaqt ajrata olmayotganliklari bizning jamiyatimizda ham mavjudligidan ko‘z yuma olmaymiz. Ba’zi oilalarda bolalar otalarining dam olish kuni qachon kelishini hisoblab yurishlari ham bu fikrimizning eng oddiy dalili bo‘la oladi. Ayrim ota-onalar har qanday ish sharoitida ham farzandalariga vaqt ajratishning uddasidan chiqadi. Bunday holat ish tartibi bilangina bog‘liq bo‘lib ko‘rinsa-da, aslida, ota-oni, farzand, oila va jamiyat kelajagi bilan bog‘liqdir. Ayniqsa, oilaviy sayr o‘zaro yaqinlik, ahillikni yanada ortishiga sabab bo‘ladi. Bir-birini tushunish, bir-birining ishi, tashvishi, yutug‘idan xabardor bo‘lish oilaviy sayr chog‘ida ro‘y berishi mumkin. Ranglarga boy, go‘zal, xushmanzara tabiat inson didini, nutqi, tasavvur va tafakkur qilish faoliyatini o‘stiradi. Bunday sayr davomida uy-ro‘zg‘orga oid gaplarni kelishib olish, ertangi kun rejalarini tuzish yoki o‘qilgan kitoblar haqida bahslashish mumkin. Uyqu oldidan oilaviy sayr qilish-tinch, oromli uyqu baxsh etadi. Dam olish kunlarini, mehnat va o‘quv ta’tillarini samarali o‘tkaza bilish salomatlik va uzoq umr ko‘rish kabi fikrlarni yanada shakllantiradi.

Yuqorida fikrlardan ko‘rinib turibdiki, oilaviy tarbiya bola shaxsini to‘g‘ri yo‘lga soluvchi muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Shaxsning axloqiy, ijtimoiy, emotsiyonal, xulqiy va boshqa sifatlariga oila asos soladi, shakllantiradi va kamol toptiradi.

O‘zbek oilalarida milliy tarbiya va milliy tafakkurning rivojlanishida o‘ziga xos hikmatli so‘zlarning o‘rnini ham alohida ahamiyatga egadir. Masalan, “Bola aziz, odobi undan aziz”, “Nima eksang, shuni o‘rasan” maqollarida bola tarbiyasiga e’tibor qaratilganligi.

Shuningdek, bola tafakkurini shaklantirishga xos ko'nikma va odob, e'tiqod, dunyoqarash, ijobji his-tuyg'ular vaqt o'tishi bilan bola xulqida mujassamlashib boradi. Bola xulq-atvoriga qarab ota-onu tomonidan ishlatilgan maqtov yoki tanqid usullarni to'g'ri qo'llay olish ularning tafakkuri va dunyoqarashini shakllanib borish imkonini yaratadi.

Demak, maqsadga yo'naltirilgan maqtovli so'zlar bola shaxsiga tez ta'sir ko'rsatuvchi omil bo'lib, bola ruhini baquvvat qiladi, qon aylanishini yaxshilab, kislorod miqdorini oshiradi va sog'lom fikrlash qobiliyatiga ijobji ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Рустамова А., Фозилова В. Оилашуновлик. – Тошкент, 2004.
2. Холматова М. Оиласий муносабатлар маданияти ва соглом авлод тарбияси.
3. Мусурмонова О. Оила маънавияти миллий гурур. – Тошкент, 2001.

Ergasheva Sayyora,

Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi

OILA TARBIYASIGA XOS SHARQ MUTAFAKKIRLARINING QARASHLARI

Annotation. Maqolada sharq mutafakkirlarining oilada farzand tarbiyasida milliy qadriyatlarning o'rni, ma'naviy va aqliy xislatlari, oilaning ijtimoiy muhiti haqida qimmatli fikrlar bayon etilgan.

Калит so'zlar: oila, farzand, tarbiya, ota-onu, qadriyat, muomala madaniyat, ijtimoiy – muhit, sog'lom fikr, millat

Аннотация. В статье собраны ценные размышления восточных мыслителей о роли национальных ценностей в воспитании детей в семье, духовных и интеллектуальных качествах, социальной среде семьи.

Ключевые слова: семья, дети, воспитание, родители, ценности, культура поведения, социальная среда, здравый смысл, нация.

Annotation. The article contains valuable reflections of oriental thinkers about the role of national values in raising children in the family, spiritual and intellectual qualities, and the social environment of the family.

Key words: family, children, upbringing, parents, values, culture of behavior, socio-environment, common sense, nation.

Sharq mutafakkirlari o'z ilmiy meroslarida oila va oilada farzand tarbiyasi masalalariga katta e'tibor bergenlar: Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Muhammad Qoshg'ariy, Yusuf Xos Xojib, Kaykovus, Alisher Navoiy, Xusayn Voiz Koshifiy kabi mutafakkirlarning qator asarlarida oilada farzand tarbiyasi masalalari o'rtaga qo'yilgan va ularni hal etish yo'llari ko'rsatib berilgan.

Sharqda oilalarning mustahkam bo'lishiga tarixan jiddiy va katta e'tibor berilgan: oila qurishda ikki tomonning roziligi, nasl-nasabi, din-u diyonati, mol-dunyosi va husni inobatga olingan; oila oyoqqa turguncha ota-onu, yaqin qarindoshlar o'z ko'mak va maslahatlarini ayamaganlar; oilada farzandni komil tarbiya qilish uchun 3 narsaga asosiy diqqat qaratilgan:

- yaxshi ism qo'yish va sog'lom o'stirish;
- sog'lom fikr va mushohadali etib tarbiyalash;
- axloq va mehnat tarbiyasini o'rgatish;
- oilalarning mustahkam bo'lishida ota-onu, qo'ni-qo'shni va qarindosh-urug' ibrati muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, qush uyasida ko'rganini qiladi.

Imom al-Buxoriy (810-870) bir o‘rinda ota-onan farzandiga zulm qilsa ham farzandlari ularga yaxshilik qilaverishlari kerak, deb ta’kidlasa, boshqa bir o‘rinda “Qaysi bir musulmon farzand savob umidi bilan ertalab ota-onasini ziyyarat qilsa, Olloho taolo unga jannatning ikkita eshigini ochadi. Oila va oilada bola tarbiyasi juda muhim. Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini yaxshilangiz. Bolalaringizni suzishga va o‘q otishga o‘rgatinglar, qiz farzandlaringiz uyda tikish-bichish ishlari bilan shug‘ullangani yaxshi.

Agar ota-onan birdaniga chaqirib qolishsa, avval onaga javob qil, ota-onasi qarg‘aganni tangri qarg‘aydi. Kimning go‘dagi yosh bo‘lsa, uni go‘daklarcha qiliq qilib erkalatsin. Hech bir ota-onan o‘z farzandiga xulq-u odobdan buyukroq meros bera olmaydi”, degan fikrlarni ilgari surgan.

Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziyning (824-892) oila va oilada bola tarbiyasi o‘rtasidagi “Ota-onan va farzand burchi”, “Ota-onani, oilani va qarindoshlarni hurmatlash” va hokazo kabi nodir hadislari bizgacha yetib kelgan. At-Termiziham “Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilangizlar, yoki ota-onalariningizga qanday yaxshi muomalada bo‘lsangiz, farzandlaringiz ham sizga shunday muomalada bo‘ladi” kabi hadislari bilan hadis ilmining rivojlanishiga juda katta hissa qo‘shgan siymolardan biri hisoblanadi.

Abdurauf Fitrat 1916-yilda “Oila” nomli falsafiy asarini yozgan bo‘lib, unda oilaviy hayotni islohotidan baxs yuritigan va adib najot yo‘llarini axtarib, xalqlarning umuminsoniy qardoshlik g‘oyasini targ‘ib etgan. Fitrat oilaning ijtimoiy vazifalari deb, “Avlod tarbiyasi”, “Fikriy tarbiya”, “Axloqiy tarbiya” kabi qismalarga bo‘ladi.

Insonning ma’naviy va aqliy xislatlarini, asosan, uning olgan tarbiyasi, yashagan muhiti belgilaydi, deb hisoblagan. Agar yaxshi tarbiya insonning eng qimmatli boyligi bo‘lsa, noto‘g‘ri tarbiya uning uchun chinakamiga baxtsizlikka, hatto halokatga aylanishini uqtirgan. Shuning uchun mакtab tarbiyasi bilan bir qatorda oila tarbiyasiga ham katta ahamiyat bergen. Oilada to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan tarbiya mакtab uchun katta madaddir va aksincha, oilada tegishli tarbiya ishlari olib borilmasa, bu holda mакtabning ta’lim-tarbiya ishlini juda qiyinlashtirib qo‘yadi.

Oilada bola tarbiyasi masalasi Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy qarashlarida ham mavjuddir. Uning aytishicha, “Ota-onalar ikki xil: tug‘ilish otasi va ta’lim berish otasi: birinchisi jismoniy hayot sababli, ikkinchisi ruhiy hayot sababli”. Shunga ko‘ra, ularni uzviy birlikda olib qarash tarbiya ishida muhim ahamiyatga molikdir. Uning quyidagi so‘zлari anchayin ibratlidir: “Zamondan yaxshiroq ta’lim beruvchi muallimni, insondon yaxshiroq talim oladigan o‘quvchini ko‘rmadim”. Uning bu so‘zlaridan bir tomonidan ijtimoiy muhitni bola tarbiyasi uchun hal qiluvchi ta’sirini anglasak, ikkinchi tomonidan inson shaxsi ta’lim natijasida kamolotga erishib borishi mumkinligini sezamiz.

Oilada bola tarbiyasi masalasi Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy qarashlarida ham mavjuddir. Uning aytishicha, “Ota-onalar ikki xil: tug‘ilish otasi va ta’lim berish otasi: birinchisi jismoniy hayot sababli, ikkinchisi ruhiy hayot sababli”. Shunga ko‘ra, ularni uzviy birlikda olib qarash tarbiya ishida muhim ahamiyatga molikdir. Uning quyidagi so‘zлari anchayin ibratlidir: “Zamondan yaxshiroq ta’lim beruvchi muallimni, insondon yaxshiroq talim oladigan o‘quvchini ko‘rmadim”. Uning bu so‘zlaridan, bir tomonidan, ijtimoiy muhitni bola tarbiyasi uchun hal qiluvchi ta’sirini anglasak, ikkinchi tomonidan, inson shaxsi ta’lim natijasida kamolotga erishib borishi mumkinligini sezamiz.

Beruniy tan va ruh pokligi masalasini ham o‘rtaga tashlaydi. Oilada tozalik, poklik va tartiblilik mavjud ekan, u yerda ma’naviy poklik ham bo‘ladi. Bu fikrni, tanani toza tutish bilangina cheklab bo‘lmaydi, balki ko‘p harakat qilishga chaqiradi. Bu harakat mehnat qilish demakdir. Uning qalb va harakat haqidagi fikri insonning tani bilan ruhi pokligini bir butunligi to‘g‘risidagi g‘oya bilan bog‘liqdir. Bu narsa bola tarbiyasi jismoniy sog‘lomlik bilan ma’naviy-axloqiy boylik o‘rtasidagi o‘zaro muvofiqlik haqidagi bugungi kun talabi bilan hamohangdir. Beruniy ota-onalarga qarata bolani mo‘tadillikda saqlashni tavsiya etadi. Bunga asosan, bolani qattiq g‘azablanishdan, qo‘rqish va xafalikdan, uygusizlikdan saqlash orqali erishilishini aytib, ularni xohlagan va foydali narsasini topib berishga, sevmagan narsasidan uzoqlashtirishga harakat qilish kerakligini uqtiriladi. Beruniy bola tarbiyasida irlisyat muhit va tarbiya ta’sirini birdek muhim ekanligini ta’kidlab o‘tgani edi. Beruniy axloqiy tarbiyaga musulmon dini talablaridan kelib chiqqan holda yondoshadi. Axloqiylik yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurash natijasida namoyon bo‘ladi va shakllanadi. Uning bu fikri o‘z davri uchun yangi va ilmiy bashorat edi.

Bola, asosan, oilada tarbiyalanadi. Oila o‘z muhiti orqali bolaning dunyoqarashiga va xulqiga doimo o‘z ta’sirini o‘tkazib turadi. Ibn Sino ta’biricha, ota-onan bola tarbiyasini unga ism qo‘yishdek oliyjanob vazifadan

boshlaydi. A.Avloniy esa bu sohada birinchi navbatda bolaning sog‘ligi haqida qayg‘urish lozimligini ta’kidlaydi. Ta’lim faqat so‘z va o‘rgatish bilan bo‘lsa, tarbiya esa amaliy ish va tajriba vositasida amalga oshirilishi bilan tarkib topishini alohida ta’kidlab o‘tganlar.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga ko‘ra, bugungi kunda ham milliy qadriyatlarimizdan oilada bolaning jismongan sog‘lom, axloqan pok, mehnatsevar, madaniyatli intellektual salohiyatlari bo‘lib o‘sishi uchun keng foydalanishimiz lozim. O‘quv tarbiyaviy muassasalarining tarbiya borasidagi ishlari qanchalik yaxshi yo‘lga qo‘yilishidan qat‘i nazar, tarbiya masalalarini oila hal qiladi. Bog‘cha va maktablar bolaga ta’lim bersa va tarbiyalasa, ota-onalar faqat tarbiyalabgina qolmay, ular bilan birga yashaydilar ham. Shu sababli oilaning ta’siri kuchli va uzoq davom etadi. Ota-onalarning farzand uchun fidoyi bo‘lishi o‘zbek millatiga xos bo‘lgan ajoyib fazilatdir.

Xulosa qilib aytganda, ma’rifatli oilada tarbiya topgan farzand, inson qadrini, millat qadriyatlarini, o‘zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib, obro‘li o‘rin egallashi uchun fidoiylik bilan kurashishi mumkin. Bu, shubhasiz, ota-onalar va mustaqil, buyuk kelajakka intilayotgan davlatimiz zimmasiga juda katta vazifalar va mas’uliyat yuklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Авлоний А. Туркий ҳулистан ёхуд ахлоқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 160 б.
2. Қосимов Б., Долимов У. Маърифат даргалари. – Тошкент, 1990. – 176 б.
3. Гозиев Э.Ф. Муомала психологияси. – Тошкент: Университет, 2001. – 140 б.



Ernazarov R.,
Qarshi davlat universiteti
psixologiya kafedrasи o‘qituvchisi

OILAVIY MUNOSABATLARDA BOLALAR TARBIYASIGA MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA YONDASHISH

Annotatsiya. Maqolada oilada ota-onsa va bolalar o‘rtasidagi munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, oilaviy munosabatlarda sog‘lom muhitning yuzaga kelishi, bolalar tarbiyasining to‘g‘ri olib borilishi, individual-psixologik xususiyatlarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: oila, tarbiya, muomala, munosabat, muloqot, muhit, xarakter, qiziqish, individual-psixologik xususiyat, emotsional holat.

Аннотация. В статье проанализированы взаимоотношения между родителями и детьми в семье, направленные по правильному пути; возникновение здоровой среды в семейных взаимоотношениях, правильное воспитание детей, способствующих формированию индивидуально-психологических особенностей.

Ключевые слова: семья, воспитание, общение, среда характер, интерес, индивидуально-психологических особенностей.

Annotation. The article analyzes the relationship between parents and children in the family, directed along the right path; the emergence of a healthy environment in family relationships, proper upbringing of children, contributing to the formation of individual psychological characteristics.

Key words: family, upbringing, communication, environment, character, interest, individual psychological characteristics.

Buyuk ma’rifatparvar Abdulla Avloniyning fikricha, odam tug‘ilishidan yomon xulq bilan tug‘ilmaydi. Muayyan bir sharoitda yomon tarbiya natijasida ularda yomon xulq faydo bo‘ladi va shakllanib boradi. Insondagi qobiliyatni kamolga yetkazish tarbiya bilan amalga oshadi. Avloniyning ta’kidlashicha, agar inson yaxshi tarbiya topib, yomon xulqlardan saqlansa, go‘zal xulqlarga odatlanib, voyaga yetsa, u barchaning

hurmati va e'tiboriga sazovor bo'lgan baxtiyor inson bo'lib shakllanadi. Agar aksincha bo'lsa, uning har qanday buzuq ishlarni qiladigan, nodon, johil, yovuz bir odam bo'lib yetishishiga olib keladi.

Avloniy tarbiyaning barcha xususiyatlarini tahlil qilar ekan, birinchi navbatda, tarbiyaning amalga oshirish vaqtiga katta ahamiyat beradi. U "tarbiyaning zamoni" to'g'risida fikr yuritib, tarbiyani farzand tug'ilgan kundan boshlash muhimligini o'qtiradi. Shu bilan bir qatorda, tarbiyaning kim tomonidan va qayerda amalga oshirilishi ham muhim masala ekanligiga e'tibor qaratadi. Alloma bu masalaga oydinlik kiritib, uni "uy tarbiysi" va "o'quv dargohlari tarbiysi" kabi ikki guruhga ajratadi. Uy tarbiyasida onaning tarbiyasi muhim ekanligini ko'rsatadi [1,].

Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiatini va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezzulik, olyjanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarining poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiyidir. Shuning uchun ham aynan oila muhitida paydo bo'ladigan ota-onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarz dorlik burchini chuqur anglash har qaysi insonga xos bo'lgan odamiylik fazilatlari va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning ma'naviy olamini tashkil etadi [2, 52].

O'zbekiston respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Oila hayotning abadiyligi, avlodlarning davomiyigini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanligini tan olishimiz darkor. Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimmi farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi"¹³³.

Darhaqiqat, oilada ota-onasi va bolalar o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri yo'lgan qo'yish, oilaviy munosabatlarda sog'lom muhitning yuzaga kelishiga, bolalar tarbiyasining to'g'ri olib borilishiga, bolalarda ijobjiy fazilatlarning va individual-psixologik xususiyatlarning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda yoshlari o'rtasida yuzaga kelayotgan turli xil stressli holatlarning yuzaga kelishi natijasida jamiyatimiz uchun yot bo'lgan illatlar va shaxslararo munosabatlarning to'g'ri yo'lgan qo'yilmaganligi, ota-onalarning bolalar psixologiyasini, ularga xos munosabatlarni bilmasliklari tufayli sodir etilayotganligi, ota-onasi va bolalar o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos tomonlarini psixologik pedagogik qonuniyatlarini ochib berishni taqozo etadi.

Oilaviy munosabatlarda shaxslararo munosabatlarning izdan chiqishi bolalar tarbiyasida va ularning shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois bolalar bilan to'g'ri munosabatga kirishishda oilada tarbiyalanayotgan bolalarga ta'sir doirasini ijtimoiy doira kabi kengdir. Oila bolalarni vatanga muhabbat, mehnatga va xalq boyliklariga ongli munosabat, nuqsonlarga murosasizlik ruhida tarbiyalash uchun katta imkoniyatlarga ega bo'lishi, xususan, bolaning hissiyoti va emotSIONAL holatlarini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilada, ayniqsa, katta yoshli kishilar, 12-15 yoshli bolalar bilan to'g'ri munosabatda bo'lishi muhim ahamiyatga egadir. Negaki har qanday bola ulg'aygan sari kattalar buyrug'ini va ko'rsatmalarini yoqtirmaydigan bo'la boradi. Bu buyruq va ko'rsatmalar ko'pincha qarshilik ko'rsatish, hatto oqilonalarni bajarishdan bosh tortish holatlarini ham keltirib chiqaradi. Bunday vaziyatlarda bolaga nisbatan muomala tarzini o'zgartirish maqsadga muvofiqidir. Buyruq o'rniga ishontirish usulini qo'llash kerak, toki bola ana shu qilinishi kerak bo'lgan faoliyatni bajarishi shart ekanligini ongli tarzda tushunib yetsin. Shunday holatdagina bola har bir ishni ongli tarzda bajarishga odatlanadi. Agar katta yoshdagagi bolaga pand-nasihat qilinaversa, uning g'ashiga tegish bilan stressga moyillik darajasini orttirish mumkin. Ayni hollarda bolaning qalbiga kira oladigan pedagogik, psixologik usullarni qo'llash yaxshi samara beradi.

Ota-onalar yoki oilaning katta yoshli a'zolari bunday munosabatning o'rniga bolalar bilan hamfikr, do'stona munosabatda bo'lsalar, bolalarda o'z-o'zini baholash, berilgan topshirilgarga mas'uliyat bilan yondashish hissining shakllanishi kabilalar yuzaga keladi. Oilada bolalarga ta'sir etish sifatini oshirish uchun oilada katta yoshli a'zolarning bolaga qo'yadigan talablari hamda ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda so'z bilan ishning bir bo'lishi lozim. Oilada bunday birlikniing bo'lmasligi bola xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularda ko'proq axborot uzatish bilan bog'liq bo'lgan psixologik stress holatini vujudga keltirishga sabab bo'ladi. Shu narsani ta'kidlash kerakki, bola bilan muomala va munosabatga kirishishda ularning

¹³³Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.

psixologiyasiga e'tibor bermaslik, oiladagi nosog'lom psixologik muhit – bir-birini haqoratlash, do'q-po'pisa va zulm o'tkazish asosida qilinadigan xatti-harakatlar bolaning xarakterida odam yoqtirmaslik, tez hissiyotga berilish, irodasizlik, qo'rkoqlik, asabiylik, yolg'onchilik, mehrsizlik, qo'pollik ma'naviy zaiflik xislatlarining tarkib topishi bilan ularda stresli holatlarning yanada keskinlashib borish imkoniyatini oshiradi.

Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatning ijobiylar tus olishi uchun ota-onalar farzandlari bilan muomala-munosabatga kirishayotganlarida pedagogik odobga rioya qilmoqlari darkor. Ota-onaning aytgan har bir so'zi ta'sir qiladigan bo'lmog'i, so'zning aytishli formasi, shu so'zning formasiga mos keladigan holda chehraning ochiq yoki vajohatli bo'lishi pedagogik-psixologik ta'sirchanlikni oshiradi. Aksincha, psixologik-pedagogik odobga rioya qilmaslik, bolani haddan tashqari ortiq sevish yoki berahmlik, qattiqqo'llik bilan munosabatda bo'lish ota-onalar bilan bola o'rtasidagi o'zaro muomala munosabatining buzilishiga sabab bo'ladi.

Ota-onalar va bolalar o'rtasida muomala munosabatlarining ijobiyligini ta'minlashda har bir bolaning psixologik xususiyatlariga xos muomala va munosabatda bo'lish zarur. Bunda bolaning yoshi, psixik jarayonlari, indiviudal-psixologik xususiyatlari, psixik holatlari oiladagi tarbiyaviy muhitning milliy psixologik qonuniyatlarini hisobga olinishi zarur. Bolaning yoshini, ma'lum vaziyatdagi holatini yaxshiroq tushunish uchun o'zimizni bolaning o'rniga qo'yib ko'rishimiz kerak. Shunda biz bolaning psixik olamini, xohish-istagini anglab yeta olamiz. Bolaning psixik olami, hayajon va quvonchlarini, o'y-xayollarini o'zimizda ifodalab ko'rishimiz esa bolalarni tushunishda bosh mezon bo'lib xizmat qilishi lozim.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga ko'ra, o'zbek xalqining o'ziga xos etnopsixologik xususiyatlari bilan bog'liq bolaning xulqi va dunyoqarashi shakllanishida oilada qaror topgan sog'lom muhit, avvalo, oila a'zolarining o'zaro munosabatlari, hamkorligi, oilaviy milliy qadriyatlarni e'zozlashiga bog'lanadi. Bunday holatlarni to'g'ri talqin etish oilada tarbiyalanayotgan bolalarda turli xil stressli holatlarning oldini olishga zamin yaratadi. Buning uchun har bir ota-onalar yoki oila a'zolarining zamonaviy oila psixologiyasiga xos savodxonlik darajasini oshirib borish maqsadga muvofiqdir.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Авлоний А. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2-жилд, 1998.
2. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч, – Тошкент: Маънавият, 2008.
3. Гозиев Э. Ёш даврлар психологияси. – Тошкент: "Ўқитувчи" нацириёти, 1998.
4. Гозиев Э. Муомала психологияси. – Тошкент: Университет, 2001.

Abdinazarova Nilufar,
Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi

OILADA BOLALARINI MILLIY RUHDA TARBIYALASH

Annotatsiya. Maqolada o'zbek xalqining ma'naviy boyligi milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asosida tarkib topishida oilada bolalarning umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayangan holda ta'lim-tarbiya mazmunini insonparvarlik tamoyillari asosida tashkil etish va uning uzviyiligi, izchilligi, ilmiyiligi va dunyoviyiligi asosida yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash nazarda tutilgan.

Tayanch so'zlar: oila, ota-onalar, farzand, milliy qadriyat, milliy ruh, umuminsoniy, ta'lim-tarbiya, insonparvarlik, muhit.

Аннотация. В статье говорится, что духовное богатство узбекского народа основано на национальных и общечеловеческих ценностях, правильной организации воспитания подрастающего поколения на основе гуманных принципов и духовно-нравственных ценностей.

Ключевые слова: семья, родители, дети, национальные ценности, национальный дух, человечность, образование, человечность, окружающая среда.

Annotation. In the article it is said that the spiritual wealth of the Uzbek people is based on national and universal values, the correct organization of the upbringing of the younger generation on the basis of humane principles and spiritual and moral values.

Key words: family, parents, children, national values, national spirit, humanity, education, humanity, environment.

Mustaqil O'zbekiston zaminida yashayotgan har qaysi inson o'z farzandining baxt-u saodati, fazl-u kamolini ko'rish uchun butun hayoti davomida kurashadi, mehnat qiladi va o'zini ayamaydi. Oilaviy munosabatlar inson shaxsining rivojlanishi va ijtimoiylashuvida asosiy omil hisoblanadi. Oila inson shakllanadigan dastlabki ijtimoiy muhitdir. Oilaviy munosabatlar natijasida shakllangan xususiyatlar insonning atrofdagilar bilan bo'ladigan muloqotiga asos bo'ladi. Oilada ota-onalar va bolalarning o'zaro munosabatlarida milliy psixologik bilimlarning qo'llanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash masalasiga e'tibor har doimgidan ham kuchaytirildi. Yoshlar tarbiyasiga milliy ruhni singdirish ham nazariy, ham amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Milliy ruh shaxsni shakllantirishda muhim va asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Bolalarni milliy ruhda tarbiyalash jarayonining mazmuni va o'ziga xosligi Sharq mutafakkirlaridan Abu Nosir Forobiy, Abu-Rayxon Beruniy, Ibn-Sino, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus va boshqalarning ta'lim-tarbiyaga oid asarlarida o'z ifodasini topgan. Mutafakkirlarning ta'lim-tarbiyaga oid asarlari qadriyat sifatida milliy tarbiyaning asosiy xususiyatlarini o'zida mujassam etgan milliy ruhni shakllantirishda muhimdir.

Oilada bolalar oladigan tarbiyaning eng birinchi odob-axloq tarbiyasidir. Bu bolalarni go'daklikdan boshlab to'g'ri tarbiyalashdan boshlanadir. Bu haqida Ibn-Sinoning o'zining "Tib qonunlari" asarining 1-jildi "Farzand tarbiyasi" bo'lib, bolalarni tarbiyalashning ana shu muhim jihatiga bag'ishlanadi.

Ma'lumki, har bir millatning ma'naviy boyligi milliy va umuminsoniy qadriyatlardan tarkib topadi. Asrlar davomida xalqning ma'naviy ehtiyojlari asosida shakllangan qadriyatlarda olg'a surilgan ilg'or g'oyalarni o'z ongida shakllantirgan, ularning mohiyatini amaliy faoliyatida namoyon qila oladigan, yoshlargina mustaqil respublikamiz tarraqqiyotiga o'z hissasini qo'sha oladi.

Bu esa, o'z navbatida, umuminsoniy va milliy qadriyatlarning mazmun-mohiyatini chuqur o'rganish oiladan boshlashni talab etadi. Mazkur vazifani amalga oshirish vazifasi ta'lim-muassasalari zimmasiga yuklatilgan, ammo barchamizga ma'lumki har qanday tarbiya, avvalo, oiladan boshlanadi. Bu maqsadlarni amalga oshirishda oila yetakchilik qilishi lozim. Ta'lim-tarbiya oldiga qo'yilgan muhim maqsad ham umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayangan holda ta'lim-tarbiya mazmunini insonparvarlik tamoyillari asosida tashkil etish va uning uzviyligi, izchilligi, ilmiyligi va dunyoviyligi asosida yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashni nazarda tutadi. Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar insonlarning talab va ehtiyojlari asosida aql-zakovat bilan yaratilgan, ularning tasavvuri, tafakkuri, kelgusi orzu-istiklari, e'tiqodi, axloq qoidalalarini o'zida mujassam etgan, amaliy hayotda sayqal topgan ma'naviy boylik bo'lib, tarbiyaning tayanch vositasi hisoblanadi.

Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar tarixiy bosqichiga ega, hayot sinovidan o'tgan, avloddan avlodga o'tib ijtimoiy taraqqietda xizmat qiluvchi ijtimoiy hodisadir. Shuningdek, jamiyat rivojining negizi, xalqning tarixiy taraqqiyotida erishilgan barcha yutuqlarini ifodaluvchi va saqlovchi qudratli omildir. Demak, ta'lim-tarbiya jarayonida umuminsoniy va milliy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish yosh avlod tarbiyasining omilidir.

Jamiyatimizda yuksak ma'naviy komolotga erishgan oilalar ham talaygina. O'zbekistonni, o'zbek xalqini dunyoga tanilishiga hissa qo'shayotgan yoshlar bizning nazarimizda ana shunday oilalardan yetishib chiqmoqda. Juda ko'plab ota-onalar o'z farzandlarini millat sharafini yuqori darajaga ko'tarish maqsadida farzandlarini tarbiyalab voyaga yetkazadilar. Va albatta, ko'pchiliklari o'z orzu maqsadlariga erishadilar.

Yana bir muhim masala – yoshlarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rgatishdir. Tariximizda axloqiy qadriyatlarning sarchashmalari uzoq-uzoq davrlarga borib taqaladi. Zardushtiylik ta'limoti islonning axloqiy tamoyillari xalq pedagogikasining axloq-odobga doir o'gitlari ham tarbiya mezonlari bo'lib hisoblanadi.

Yana bir muhim jihat bu inson omili masalasidir. Mazkur omil axloqiy va aqliy kamolot muammosidir. Ana shu omil vatan millat manfaatlari bilan bog'liq bo'lib, insonda fidoiylik, milliy iftixor tuyg'ularini kamol toptiradi.

Oilada bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning yana bir muhim jihat – bu ularni mehnat qilishga, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, xususiy mulkchilik xislatlarini o‘rgatishda adolatlilik, e’tiqodlilikni tarkib toptirishdir. Bu esa yoshlarda Vatan, xalq manfaati uchun fidoiylik ko‘rsatishda eng muhim fazilatlar bo‘lib hisoblanadi.

Bu muhim vazifalarni amalgalashda ba’zan ma’lum negativ holatlar ham yuz berishi shubhasizdir. Chunki oilada, ta’lim muassasalarida tarbiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlardan samarali foydalana olmaslikdir.

Oilada bolalarning milliy qadriyatlar asosida tarbiyalab, ularning ongida milliy ruhni shakllantirishning ta’lim-tarbiyaga xizmat qilishiga daxldor yana bir xususiyati yoshlarga uning mehr-muruvvat, xayr-ehson xislatlarini singdirishdan iboratdir. Mazkur fazilatlar ham jamiyat taraqqiyoti, Vatan ravnaqi bilan bog‘liqidir. Oilada, ta’lim muassasalarida bu fazilatlar yosh avlod ongiga singdirilsa, ular ertangi mutaxassis sifatida Vatanimizni obod etish, xalqimiz farovonligiga o‘z hissalarini qo‘sha oladigan bo‘lib voyaga yetadilar.

Oilada milliy qadriyatlardan tarbiya jarayonida foydalanishning yana bir jihat ularning yosh avlodda milliy g‘ururni shakllantirish bilan bog‘liq masalalardir. Har bir yoshga shu vatanda yashash tuyg‘usini, ona-zamin, yer-u osmonni sevish, atrof-olam barchasi insonga xizmat qilishini his etish va bundan g‘ururlanish tuyg‘ularining paydo bo‘lishiga undaydigan qadriyatlar san’at va tarixiy asarlar, badiiy adabiyot, xalq og‘zaki ijodi, kino, teatr va boshqalarda o‘z ifodasini topgan va bular yosh avlod ongi va qalbiga bevosita samarali ta’sir etadi. Demak, oilada bolalarni milliy ruhning shakllanishiga xizmat qiluvchi barcha omillarni hisobga olish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Каримов И.А.Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. –Т.: Ўзбекистон, 1997.
2. Боймуродов. Н. Амалий психология . – Т.: Янги аср авлоди, 2009. – 316 б.
3. Гозиев. Э.Умумий психология. – Т.: Университет, 2010. – 544 б.

Orifova Saboat Yakubovna,
Namangan viloyati XTXQTMOHM katta o‘qituvchisi

OILADAGI RUHIY MUHITNING O‘SMIR TARBIYASIGA TA’SIRI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘smir yoshidagi bolalar tarbiyasida oiladagi ruhiy muhitning ta’siri masalalari xususida fikr mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: oila, ruhiy muhit, o‘smirlilik yoshi, shaxs, o‘zgarish, munosabat.

Аннотация. В данной статье высказана точка зрения вопросов влияния духовной атмосферы семьи на воспитание детей-подростков.

Ключевые слова: семья, духовная атмосфера, подростковый возраст, личность, изменение, отношение.

Annotation. This article expresses the point of view of the issues of the influence of the spiritual atmosphere of the family on the upbringing of teenage children.

Key words: family, spiritual atmosphere, adolescence, personality, change, attitude.

Ma’lumki,oila ijtimoiy institut sifatida hozirgi paytda bir qator o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. U bugun juda ko‘plab ta’sirlar qurshovida qolmoqda. Xususan, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ma’naviy sohadagi o‘zgarishlar, oilaviy ajrimlarning ko‘payishi va boshqalar oilaviy tarbiya ta’sirchanligining susayishiga olib kelmoqda. Bular, o‘z navbatida, oilaviy muhitning buzilishiga, farzandlar tarbiyasidagi nuqsonlarning kelib chiqishiga zamin yaratmoqda. Oqibatda oilaviy tarbiyaga bog‘liq bo‘lgan bolalar va o‘smirlarda hissiy zo‘riqishlar natijasida stress holatlari va jinoiy ishlar ko‘rsatkichi ortib bormoqda.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, bolalar va o'smirlar o'rtaida sodir etilayotgan jinoyatchiliklarning 60% dan ortig'i bevosita yoki bilvosita oilaviy muhitning nosog'lomligiga bog'liq holda sodir etilmogda.

Oilalarda nosog'lom psixologik muhitning mavjudligi oilaviy munosabatlar noxushligi, oilaviy ajralishlar, ota-onalardan birining yo'qligi, oilaviy tarbiyatagi yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar bolalar va o'smirlar tarbiyasida o'ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi. Ma'lumki, oilaviy tarbiya bola hayotida muhim o'rinni tutadi. Oilaning bolalarga tarbiyaviy ta'sir doirasi ijtimoiy ta'sir doirasi singari o'ta kengdir. Oila bolalarni Vatanga muhabbat, ota-onsa va atrofdagilarga sadoqat, mehnat va xalq boyliklariga ongli munosabat, nuqsonlarga murosasizlik, yuksak axloqiy va ma'naviy sifatlarni shakllantirishda, turmushga, ijtimoiy faoliyatga nisbatan psixologik va amaliy jihatdan tayyorlashda katta imkoniyatlarga egadir. Biroq keyingi yillarda oilada farzandlarimizni tarbiyalashda, ularni kamol toptirishda bir qator muammolar, nuqsonlarga duch kelinmoqda. Tabiiyi ushbu muammolar bolalar va o'smirlar xulq-atvoriga, shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Kuzatishlarga qaraganda, keyingi yillarda oilalarda turli xil sabablarga ko'ra, xususan, yurtimizda kechayotgan islohotlar, bozor munosabatlariga o'tish, kishilarda kundalik turmush tashvishlariga barham berish, qiyinchiliklarni yengib o'tish va kelajakka nisbatan yangicha qarash layoqatining yetishmasligi va shu kabilalar oilada farzandlar tarbiyasiga e'tiborning biroz susayishiga sabab bo'lib, ota-onalar farzandlari bilan kam muloqotda bo'lishga to'g'ri kelmoqda. Shu boisdan yurtimizda oiladan tashqarida farzandlar kamoloti, tarbiyasi bilan mashg'ul bo'ladigan turli xil mashg'ulotlarga, (sport, kasb-hunar) to'garaklarga nisbatan bo'lgan ehtiyojning ortib borayotganligi kuzatilmogda.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, bu borada mamlakatimizda olib borilayotgan tadbirlar maqtovga sazavordir. Joylarda foydalanishga topshirilayotgan sport inshootlari, zamonaviy talablarga javob beradigan ta'lim maskanlarining bunyod etilishi, yoshlarimizning bo'sh vaqtlarida shug'ullanishlari uchun turli xil to'garaklarning barpo etilishi bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlarning namunasidir. Ammo bu sohada hali qilinadigan ishlar ham bisyordir.

Oilada yetarlicha tarbiya ko'rmagan bolalar turmush qiyinchiliklaridan qoqiladi. Turli xil nizoli vaziyatlarga duch keladi. Tarbiyazizlik o'smirni yaxshi o'rtoqlaridan, davralardan ayiradi. Oqibatda o'smir uchun birdan bir yo'l nosog'lom xulqli o'smirlar davrasiga qo'shilib ketish bo'lib qoladi. Qarabsizki, o'smirda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishi uchun shart-sharoit yaratiladi.

Bolalar va o'smirlarda hissiy zo'riqishlar va xulq og'ishining kelib chiqishiga sabab bo'luvchi oilaviy tarbiyaga bog'liq bo'lgan omillardan yana biri "oilaviy tarbiyada primetiv (eskirgan, noma'qul) usullardan foydalanish" bo'lib hisoblanadi. Bunday tarbiya usulida tarbiya o'ta qattiqqo'llik, avtoretar, bolalarning fikr va qarashlarini inobatga olmaslik asosida olib boriladi. Bunday usulda bolalarni tarbiyalashning noto'g'ri ekanligini bugun hayotning o'zi ko'rsatib turibdi. Chunki bugungi yosh mustaqil fikrlashga intiluvchan, o'z qarashlariga ega bo'lgan, aqlan yetuk yoshlardir. Bunday yoshlar bilan hisoblashish, ularning fikr va mulohazalarini eshitish, kerakli joylarda maslahat berish yaxshi natijalar berishligini unutmasligimiz kerak.

Oilaviy tarbiyada qo'pollik, andishasizlik, haqorat, do'q-po'pisa va jismoniy jazolash singari usullardan foydalanish ko'pincha bolalar va o'smirlarning uydan qochishiga, biron ish qilib qo'yib ota-onasidan qo'rqqanidan ko'chalarda daydib yurishiga, qayerlardadir tunab qolishiga olib keladi. Bunday bolalar oila muhitiga nisbatan ijtimoiy psixologik dezadaptatsiyalanish jarayoniga duch keladilar. Oqibatda o'ziga ma'qul bo'lgan oiladan tashqari guruh yoki ko'cha muhitini qabul qiladi. Bu muhit o'zining xarakteriga ko'ra, bolaga salbiy yoki ijobjiy ta'sir qilishi mumkin.

Oilaviy tarbiyada bolalar va o'smirlarning yosh va individual-psixologik xususiyatlarini inobatga olmasliklari holati ko'pincha ko'zlagan tarbiyada teskari natija beradi.

Ma'lumki, balog'at yoshi hisoblangan (12-14 yosh davrida) o'smirlilik davrida keskin psixofiziologik o'zgarishlar sodir bo'ladi. Ushbu o'zgarishlar o'smir ruhiyatiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu o'smirda tajanglik, serzardalik, injiqlik, ta'sirlanuvchanlik holatlarining kelib chiqishiga sabab bo'ladi. O'smir ruhiy dunyosida paydo bo'lgan bunday o'zgarishlar balog'at davri o'tishi bilan bir me'yorga kelib qoladi. Shuning uchun ota-onalar o'smirlar tarbiyasiga alohida e'tibor berishlari, ularda kechayotgan psixofiziologik o'zgarishlarni hisobga olishlari maqsadga muvofiqdir. Ko'pincha oilaviy tarbiyada bolalarning yosh va individual-psixologik xususiyatlarining inobatga olinmasligi ularning noto'g'ri, yomon yo'llarga kirib ketishlariga sabab bo'ladi. Shu boisdan ota-onalar oilaviy tarbiyada, farzandlari bilan bo'ladigan shaxslararo

munosabatlarda, ular bilan muomala qilishda shaxs va yosh davri xususiyatlarini hisobga olgan holda ish tutsalar oilaviy tarbiyaning samarasi yuqori bo'lishligini ta'minlagan bo'lar edi.

Tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'lishicha, ota-onalarda bolalarning yosh va individual psixologik xususiyatlari va oilada bolalarni milliy ruhda tarbiyalash to'g'risidagi bilimlarning yetishmasligi hamda tarbiya jarayonida milliy qadriyatlardan foydalanish borasidagi kamchiliklar bolalar tarbiyasida jiddiy nuqsonlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Oilada ota-onalar ko'pincha farzandlari biron bir yomon ish qilib qo'ysa, uni qattiq jazolash, taqiqlash va ularni uydan chiqarmay qo'yish usullari orqali tarbiyalamoqchi bo'ladilar. Farzandi o'zlariga yoqadigan ishga qo'l ursa, uni haddan ortiq maqtaydilar va mukofotlaydilar. O'zlar qo'llayotgan usullarning qay biri to'g'ri, qay biri noto'g'ri ekanligini anglab yetmaydilar. O'zlaricha tarbiya shunday beriladi deb o'ylaydilar. Natijada o'zlar bilmagan holda bolalarining tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadilar. Shuning uchun ota-on, eng avvalo, oilada bolalarni tarbiyalash to'g'risidagi nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishi lozim bo'ladi. Buning uchun esa ular tarbiya to'g'risidagi pedagogik va psixologik kitoblarni, gazeta va oynomalarni ko'proq o'qishlari zarur bo'ladi.

Kuzatishlarimizga asoslanib hamda o'smirlarda hissiy zo'riqishlarning oldini olish va turli salbiy oqibatlarning oldini olish maqsadida bir qancha tavsiyalar ishlab chiqdik.

Xususan, ota-onalar bola bilan munosabatlarda quyidagilarga e'tibor berish tavsiya etiladi:

1. Bolaga nisbatan munosabat bildirishda uning o'quv faoliyati ko'rsatkichlarini bosh mezon qilib olmaslik va shu tariqa uning uchun o'quv faoliyatini xavotirlanish omiliga aylantirmaslik maqsadga muvofiq.

2. Bolani tarbiyalashda shaxs bilan bog'liq hissiy zo'riqishlarning yuzaga kelishiga zamin yaratmaslik maqsadida qo'rqtish usulining tezkor samaradorligini suiste'mol qilmaslik, og'zaki tushuntirish va o'rnak bo'lishi orqali yondashish usulining imkoniyatlaridan kengroq foydalanish zarur.

3. Bolani imkon boricha qo'llab-quvvatlab, rag'batlantirish usullaridan kengroq foydalanish.

4. Ota-on va yaqinlarining mehrini his qilib turishini ta'minlash.

5. Bolaga haddan tashqari ko'p talab qo'ymaslik, bola xulq-atvoridagi, o'zlashtirishidagi faqat salbiy jihatlarga e'tibor bermay, balki ijobji taraflarini ham ko'ra olishga ahamiyat berish.

6. Kun tartibiga qat'iy rioya qildirish.

7. Bolani qiziqqan faoliyati bilan shug'ullanishga sharoit yaratib berish orqali o'z imkoniyatlaridan foydalanishga o'rgatish.

8. Turli hayotiy vaziyatlarda o'z-o'zini boshqarishga va o'zini qo'lga ola bilishga o'rgatish kabilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yosh avlod shaxsini shakllantirishda oilaviy munosabatlarni, ya'ni oilaning ma'naviy dunyosini takomillashtirish uchun unga zarur ruhiy xotirjamlik, ibratli ruhiy munosabat, o'zaro totuvlik yaratilgan bo'lishi zarur. Oilaviy munosabat, ya'ni ota-onalar o'rtasida o'zaro munosabatda hamjihatlik, mehr-oqibat, o'zaro hurmat, shirinsuxanlik, bir-biriga g'amxo'rlik mavjud bo'lsa bunday muomala-munosabat bola tarbiyasiga ijobji ta'sir qiladi. Ular o'z farzandlariga chinakam baxt va quvonch hadya etadilar.

Oila a'zolarining did-farosati, qiziqishi, mayllari, intilishlari o'zaro bir-biriga munosib bo'lsa, oilaning inoq, kechirishlariga, oilaviy munosabatlarning mustahkam bo'lishiga tayyorlaydi. Natijada esa yosh avlodni mukammal shaxs bo'lib shakllanishida ijobji rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *B.M.Umarov – psixologiya fanlari doktori, professor. Bolalar va o'smirlarda xulq og'ishi va uni oldini olish yuzasidan maslahatlar.* – Toshkent, 2011.
2. *Игошев К.Е. Опыт социально-психологического анализа личности несовершеннолетних правонарушителей.* – Москва, 1967, – С. 67-68.
3. www.uzedu.uz

Ergashev Hasanboy Akbarali o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Xalqaro hamkorlik bo‘limi katta ofitseri

OILA TARBIYASIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING O‘RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada, asosan, oila muhitini yaxshilash bo‘yicha Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, qilingan ishlar, oila nimaga asoslanib qurilishi hamda oilada tarbiyani farzandlarga chuqurroq singdirish bo‘yicha nimalarga ko‘proq e‘tibor berish kerak ekanligi yozilgan.

Kalit so‘zlar: islohotlar, paradigmalar, qatlam, birinchi prezidentimiz, oila, bola, silsila, Markaziy Osiyo, Chor Rossiyasi, islom dini.

Аннотация. В этой статье в основном написано о том, чему следует уделять больше внимание на масштабные реформы, проводимые в республике для улучшения семейной среды, проделанной работе, построению семьи на основе того, что сделано, и более глубокой интеграции образования в семье в детей.

Ключевые слова: реформы, парадигмы, страта, первый президент, семья, ребенок, сериал, Центральная Азия, Царская Россия, религия ислам.

Annotation. This article is about that it should be paid more attention to the large-scale reforms carried out in the republic to improve the family environment, the work done, building a family based on what has been done, and deeper integration of education in the family into children.

Key words: reforms, paradigms, stratum, the first president, family, child, series, Central Asia, Tsarist Russia, the religion of Islam.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, jamiyat hayotining barcha sohalarida ma’naviy omillar ustuvorligini ta’minlashga qaratilgan. Mazmun-mohiyatini milliy istiqlol g‘oyasining maqsad va manfaatlari tashkil etgan bu jarayonda ijtimoiy munosabatlarning demokratik qadriyatlar asosida qaror topishi, erkin fuqarolik jamiyatni asoslarining mustahkamlanishiga alohida ahamiyat berilishi natijasida: bir tomonidan, jamiyat taraqqiyotiga xos ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ma’naviy paradigmalari shakllanmoqda, shuningdek, boshqa tomonidan, jamiyatda ijtimoiy qatlamlar o‘rtasida yangi munosabatlarni uyg‘unligi qaror topmoqda. Bu esa, oila, oilaviy munosabatlarni milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlar negizida rivojlantirishni taqozo qilmoqda.

Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov oilaning jamiyat hayotidagi roli haqida quyidagicha to‘xtlib o‘tgan: “Har qaysi millatning o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o‘rni va ta’siri beqiyosdir. Chunki, insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag‘rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiatini va dunyoqarashini belgilaydigan ma’naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va e兹gulik, olivjanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiyidir. Shuning uchun ham aynan oila muhitida paydo bo‘ladigan ota-onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chuqr anglash har qaysi insonga xos bo‘lgan odamiylik fazilatlari va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning ma’naviy olamini tashkil etadi” [1], degan edi.

Oila nikoh munosabatlari, urug‘ ichi munosabatlari va urug‘lararo munosabatlarni tartibga solish zaruriyati bilan yuzaga keladi. Oila jamiyatning tayanchi, uning birinchi va birlamchi qismi hisoblanadi. Ongli oila bo‘lib yashash dunyodagi barcha jonzotlar orasida faqat inson zotiga xosdir.

“Bola tug‘ilgan kunidan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an‘analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimmi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi” [2]. Shuning uchun ham, oila muammolari, unda yuritiladigan ta‘lim-tarbiya masalalari azal-azaldan barcha ijod ahlining diqqat-e‘tiborini jalb etib kelmoqda. Oila qanday barpo etilishi lozim,

uning tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma’naviy asoslarini nima tashkil etadi, oila tarbiyasi qanday qonuniyatlar asosida vujudga keladi kabi savollar kishilik tarixining barcha davrlarida dolzARB masala bo‘lib kelgan, desak xato qilmaymiz.

Mustaqillikning ilk yillaridayoq oila qadriyatiga bo‘lgan e’tibor judayam rivojlantirildi. Buning isboti sifatida judayam ko‘p oilaning falsafiy-ilmiy mazmun-mohiyati haqida hamda oilaning tayanch tarbiyasi xususida bir qator asarlar, maqola va tadqiqotlar amalga oshirilganligini, shuningdek, oilaning sog‘lom va barkamol avlodni shakllantiruvchi asosiy bo‘g‘in ekani, bu muhim vazifa esa, o‘z-o‘zidan ota-on, farzandlar va nuroniy keksalar silsilasini yaxlit bir jarayon sifatida olib o‘rganilgandagina, kutilgan samaralarni berishligi isbotlandi.

Xulosa qilib aytganda, oila tarbiyasi to‘g‘risida, oilaviy tarbiya haqidagi tarixiy manbalardan ko‘proq o‘rgangan maqsadga muvofiq deb o‘layman. Bunda asosan, Markaziy Osiyoga islom dini kirib kelgungacha mavjud bo‘lgan ta’limotlar (yahudiylit, zardushtiylik, buddaviylik, xristianlik), IX-XII asrlarda, ya’ni islom Uyg‘onish davridagi ta’limotlar (Qur’oni karim, hadislar), xonliklar davridagi ta’limotlar va Markaziy Osiyoni Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingan davrdagi ta’limotlarni o‘rganish aynan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni oila muhitiga nechog‘lik katta ta’sir o‘tkazishi to‘g‘risida batafsil ma’lumot beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. И.А.Каримов. Юксак маънавият – енгилмас күч. – Тошкент: Маънавият, 2008. 52–53-б.
2. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: Шарқ, 1998.
3. <https://library.ziyonet.uz>; <https://lex.uz>

Bekova Shamsiya Jabbarovna,
QarshiDU, psixologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)

OILADA BOLA TARBIYASINING PSIXOLOGIK – PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada oilada bola tarbiyasining milliy psixologik-pedagogik jihatdan yondashish, ya'ni yosh avlodga maqsadga muvofiq tarbiya berish uchun ota-onalar tarbiyasining vazifasi, maqsadi, vositalari shart-sharoitlari yuzasidan har tomonlama bilimga ega bo'lishlari farzandlarining yoshi va o'ziga xos psixologik xususiyatlarini e'tiborga olish ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: xalq, millat, milliy, ma'daniy meros, ta'lim-tarbiya, pedagogik-psixologik, ota-ona, farzand, hurmat, e'tibor, muhit, yosh davri, xususiyat.

Аннотация. В статье учтены отечественный психолого-педагогический подход к воспитанию детей в семье, возраст и специфические психологические особенности детей для комплексного понимания роли, цели, средств и условий родительского воспитания подрастающего поколения. Предназначен для получения.

Ключевые слова: народ, нация, национальность, культурное наследие, образование, педагогико-психологический, родитель, ребенок, уважение, внимание, окружающая среда, возраст, характер.

Annotation. The article takes into account the national psychological and pedagogical approach to child rearing in the family, age and specific psychological characteristics of children to have a comprehensive knowledge of the role, purpose, means and conditions of parental upbringing for the younger generation. intended to receive.

Key words: people, nation, national, cultural heritage, education, pedagogical-psychological, parent, child, respect, attention, environment, age, character.

O'zbek xalqining ko'p asrlik boy madaniyati va tarixi bor. Mazkur madaniy meros jamiyatdagi jamiki ma'nnaviy boyliklarni o'z ichiga qamrab oladi. Dono xalqimiz "Bola – boshidan, nihol – yoshidan", degan naqlni beziz aytmagan. Ayniqsa, O'rta Osiyo xalqlari pedagogikasi va psixologiyasi ma'naviy-madaniy tarixi boy merosga ega bo'lib, ularning mohiyati, mazmuni xalq ijodiyotida, ilg'or mutafakkirlarning asarlarida aks etgan. Hatto bir necha asrlar ilgari At-Termiziy, Ismoil Buxoriy kabi allomalarining inson ma'naviy olamini boyitadigan durdona yodgorliklari, hususan, "Qur'oni karim" mazmunini yoritadigan suralaridan yoshlarmiz, farzandlarimizni bahramand etish lozim.

Ma'lumki, yosh avlodga maqsadga muvofiq tarbiya berish uchun ota-onalar ham tarbiyaning vazifasi, maqsadi, vositalari shart-sharoitlari yuzasidan har tomonlama bilimga ega bo'lishlari farzandlarining yoshi va o'ziga xos psixologik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ish yuritishlari lozim. O'zbek oilasida bola tarbiyalashning ishontirish, tushuntirish, nasihat, ibrat-namuna ko'rsatish, yaxshi fazilatlarni mashq qilish rag'batlantirish, tanbeh berish, ogohlantirish, jazolash kabi usullari qo'llaniladi. Oilada bola tarbiyasining o'ziga xos qoidalari mavjud bo'lib, ota-onalar ulardan o'rinali foydalanishlari lozim.

Oila a'zolarining did-farosati, qiziqishi, mayllari, ehtiyojlar, intilishlari o'zaro bir-biriga munosib bo'lsa, onaning inoq, ahil turmush kechirishlariga, oilaviy munosabatlarning mustahkam bo'lishiga puxta zamin hozirlaydi. Muayyan darajada shart-sharoitlarning mavjudligi, ota-onaning o'zaro bir-birlarini tushunib turmush kechirishlari, maqsad va vazifalardagi birlik, yuzaga keladigan ziddiyatlarni birgalikda bartaraf eta olishlari mustahkam oila muhitini shakllantiradi.

Oilada qat'iy intizom va kun tartibining bo'lishi bolalar tarbiyasiga ijobjiy ta'sir qiladi. Bolalarning bilim olishdagi yutug'i, axloqi, salomatlik darajasi ko'p jihatdan oilada qaror toptirilgan oqilona rejimiga bog'liq. Shuning uchun ota-onalarning o'zлari ham bu borada ibrat ko'rsatishlari, oqilona tuzilgan oila rejimiga qat'iy amal qilishlari, farzandlarga ham o'rgatishlari darkor. Bu narsa, ayniqsa, qiz bolalar tarbiyasi uchun juda zarurdir. Chunki u katta bo'lgach, nihol kabi boshqa uyga kuchib o'tadi – oila quradi.

Oilada bola tarbiyasi ikkiyoqlama ahamiyat kasb etib, faqat farzandlariga ruhiyat va ma'naviyat bilimidan saboq berish bilan qanoatlanib qolmasdan, balki o'zları ham tarbiya sechlari, xususiyatlari, holatlari mohiyati va ma'nosi yuzasidan yangi-yangi ma'lumotlardan xabardor bo'lib turishlari kerak.

Bola tarbiyasi ota-onalardan maxsus pedagogik va psixologik bilimlar, alohida ko'nikmalar bo'lishini qat'iy ravishda talab qilmasa-da, doimiy yuz berayotgan tarbiya muammolarini to'g'ri hal qilish ustida fikr yuritishni taqozo etadi. O'z farzandlariga ajoyib, go'zal, orzu qilgudek tarbiya berish imkoniyatiga ega bo'lgan ota-onalar umrlarini rohat va farog'atda o'tkazadilar, bolalaridan hamisha olivjanoblik, mehribonlik, yaxshilik ko'radilar, dillari aslo jarohat azobini sezmaydi; o'kinish hissiga duchor bo'lmaydilar. Bu borada oilada otaning rahbarlik va yo'lboshchilik roli to'g'risida ulug' insonlar, buyuk siymolar hikmatli so'zlar aytishgan. Jumladan, bobokalon shoir Alisher Navoiy farzandlarni o'z ota-onalarini qadrlashga da'vat etib: "Birisin oy angla, birisin quyosh", – deya madh etar ekan, otani quyoshga o'xshatadi.

Muhammad Payg'ambar qoldirgan hadislardan birida: "Otangning do'sti bilan do'stlik aloqasini davom ettirishing otangga qilgan yaxshililing hisoblanadi", – deyiladi. Xalq orasida "bir ota o'nta o'g'ilni boqishga qurbi yetadi, biroq o'nta o'g'il bitta otani boqa olmaydi", degan naqlida chuqur ma'no bor. Demak, ota yo'lini davom ettirish, uni qadrlash o'g'il uchun farzandlik burchidir.

Ota oila boshlig'i, posbonidir. Zero, oilaning har bir ko'z ilg'amas yumushlaridagi muammolarning miridan-sirigacha aralashib, unga faqat to'g'ri yo'l ko'rsatib turishdek insoniy mas'uliyat ota yelkasida turadi. Buni mohiyat jihatdan tushungan erkak o'z ma'nosida ota hisoblanadi, aksincha, bu mo'tabar so'zga faqat isnod keltiradi. Shu o'rinda otaning oiladagi obro'si masalasi atrofida fikr yuritish joizdir. Ota obro'ni dastlab oilada mustahkamlaydi. Xotini, bola-chaqasi orasida obro' topgan ota jamoat orasida ham, shubhasiz, e'tibor topadi, obro' orttiradi.

Tasavvurimizdagagi izzat-ikromga sazovor otalar hayotning har bir katta va kichik detallarida ham bosh mexanizmlik rolini o'taydigan, yagona figura sifatida gavdalanuvchi murabbiylardir. Bularsiz hayoti kechgan oilani oila hisoblamaymiz. Chinakam insoniy tarbiya iplarini oilada pishiq va mustahkam etuvchi va yigiruvchi ham yagona ota; uning ruhiy hokimligi, erkaklik g'ururi, olam-olam oriyatini esa haqiqiy ideal desa bo'ladi. Ha, bunday otalarning ulug'vor siyomasi butun borlig'imiz, hayotimiz uchun haqiqiy izzat-hurmat nimaligidan dalolat beruvchi yagona namunadir.

Ota oilada o'z farzandlariga har tomonlama: yurish-turishda, nutq odobida, so'z madaniyatida, o'zaro muomala jarayonida, eng muhimi, amaliy ish faoliyatida to'g'rilik va haqqoniylilik, samimiylilik va xolislik yuzasidan namuna ko'rsatmas ekan, bunday oiladagi otada na burd, na hurmat va na obro' bo'ladi. Bunday ota "hurmat" va "obro'" degan mo'tabar so'zlardan yiroqlashib, dastlab xotini oldida, qolaversa, farzandlar orasida beburd, tuturuqsiz, qadr-qimmatsiz, omonat bir begona shaxsga aylanib qoladi. Boshqacha qilib aytganda, bunday otalar qadrsizlanadi.

Oilada obro'siz ota tarbiyasini olgan bola ko'pincha o'g'ri, muttaham, bosqinchi, yo'lto'sar va g'irt bezori bo'lib yetishishi shubhasizdir.

Murg'ak tasavvurli bola ilk tarbiyani oilada oladi. Bola tarbiyasining ilk saboqlari haqida atoqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud Axloq" kitobida quyidagi ibratli o'gitlarni aytgan edi: "Tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamak, vujudimizni quvvatlantirmak, zehnimizni ravshanlashtirmak lozim".

Bola ota-onaning og'ushidan, iliq nafasidan, qalb haroratidan bahra olib o'sadi. Olam sirlarini farzand dastavval o'zining nuridiydalaridan o'rganadi. Shuning uchun ota-onani birinchi tarbiyachi muallim deyishadi.

Oilada farzand tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yishning asosiy vositasi uning ma'naviy olamida e'tiqodni shakllantirishdir. Bunga bolani faqat ishortirish yo'li bilan erishish mumkin. Shuning uchun ota-onasi o'g'il-qizlarni tarbiyalashda ularni qo'rqtishda yoki asossiz buyruq berishga tayanmasdan ish tutish kerak. Binobarin, oilaviy va pedagogik tarbiyada otaning obro'si alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli oilada ota obro'si muammosini keng jamoatchilik hukmiga havola qilish maqsadiga muvofiqdir.

Turmush tajribalaridan shu narsa ma'lumki, ota-onaning obro'si davlat va oila a'zolari oldida javobgarlikni his qilishdan boshlanadi. Agar ota-onasi o'z ishi, o'z burchi uchun javobgar ekanligini his qilsa va unga amal qila olsa, bu ularning obro'sidir. Ular o'zlarining xulqida, xatti-harakatlarida bularga rionya qilsalar, yetarli obro' qozona oladilar.

Ota va ona obro'si butun hayot davomida kundalik ibratli xulqi, axloqi, intizomi, kamtarligi, ishbilarmonligi bilangina qo'lga kiritiladi. Ibrat-namuna, zahmat, chin ezgu-niyat evaziga yuzaga kelgan

obro‘ haqiqiy obro‘ hisoblanadi. U farzandlar diqqat-e’tiboriga mehr-muhabbat bilan yugriladi. Natijada oila a’zolari totuv, osoyishta, inoq hayot kechiradilar; oilada farzandlar orzu qilguday, zamona ruhiga mos tarbiya oladilar. Ular ota-onalari bilan behad faxrlanadilar va shu tuyg‘u bilan yashaydilar. Bu, o‘z navbatida, yoshlarda kelajak hayoti uchun, turmush uchun ibratli axloq ko‘nikmalarini tarkib toptiradi.

Oila tarbiyasi jarayonida bolalar ongiga singdiriladigan axloqiy qoidalar, urf-odatlar, an’analarga rioxoya qilish yo‘l-yo‘rig‘i zerikarli, quruq nasihatgo‘ylikdan iborat bo‘lib qolmasligi lozim. Aksincha, eng yaxshi omillardan biri – aniq hayotiy omillarni tashkil qilish orqali to‘g‘ri tushuncha va tasavvurlarni hosil qilishdir. Ushbu vazifani amalgalash uchun hayotiy misollardan, badiiy adabiyot materiallari, mashhur kishilar haqidagi xotiralar, esdaliklar va ularning tarjimayi hollaridan foydalanish yaxshi natija beradi. Ota-onalar farzandlariga xalq marosimlariga to‘g‘ri munosabatni tarbiyalash, chunonchi, milliy to‘y, uloq, milliy kurash, navro‘z bayrami, sayllarni o‘tkazish yo‘llari va ularda ishtirok etish qoidalari to‘g‘risida tushuncha berish zarur. Shuningdek, ota-onalar, oilaning katta yoshdagagi a’zolari kichik yoshdagilarini mehmon kutish, dasturxon bezash, mehmonga borish, ovqatlanish qonun-qoidalardan xabardor qilishlari lozim.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Azarov Y.P. *Oila pedagogikasi*. – Toshkent: O‘qituvchi, 1988.
2. Hoshimov K. va boshq. *Pedagogika tarixi*. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
3. Zunnunov A. *O‘rta Osiyoda pedagogik fikrlar taraqqiyoti*. – Toshkent: Fan, 1996.

Abdurasulova F.R.,
Nizomiy nomidagi TDPU
“Ijtimoiy pedagogika” kafedrasи o‘qituvchisi

Muxsumova Z.Z.,
1-bosqich pedagogika va psixologiya
ta’lim yo‘nalishi talabasi

OILA – MA’NAVIY TARBIYA O‘CHOG‘I

Annotatsiya. Ushbu maqolada oila, oila haqidagi turli xil fikrlar, oilaning asosiy jihatlari, tarbiyaning turli xil tomonlari, hozirgi zamon oilalarining farqli jihatlari, ajrim mummolari va ularni bartaraf etish usullari, farzand tarbiyasi muhimligi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: oila, oila bardavomligi, qadriyat, komil inson, zardushtiylik, Avesto, Amir Temur, tarbiya, farzand, ota-onsa, Alisher Navoiy, Mahbub ul-qulub.

Аннотация. В данной статье освещается понятие семьи, различные представления о семье, об основных аспектах семьи, о различных особенностях воспитания, о различиях между современными и историческими семьями, о разводе и методах его предотвращения, о важности воспитания детей.

Ключевые слова: семья, семейное благополучие, ценность, совершенный человек, зороастризм, Авесто, Амир Темур, воспитание, ребенок, родители, Алишер Навои, Махбуб уль-Кулуб.

Annotation. This article covers the concept of the family, various ideas about the family, the main aspects of the family, the various features of upbringing, the differences between modern and historical families, divorce and methods of preventing it, and the importance of raising children.

Key words: family, family well-being, value, perfect person, Zoroastrianism, Avesto, Amir Temur, upbringing, child, parents, Alisher Navoi, Mahbub ul-Kulub.

Oila bu hayot va kelajak poydevoridir. Yangi oila paydo bo‘layotgan davrda, qaysi zamon bo‘lishidan qat‘i nazar ularni bu jihatlari o‘zgarmas qoladi. Chunki o‘tmish va kelajakni oilasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, aks holda, hayot oilasiz tanazzulga yuz tutgan bo‘lar edi. Oilaning bardavomligi bu, birinchi navbatda, oila

qurayotgan insonlar ko‘p yillar davomida birga hayot kechirib, hayotning qiyinchiliklarini birga yengib o‘tishlari kerakligi bo‘lsa, ikkinchidan, oila milliy qadriyatlar va urf-odatlarni o‘zida mujassamlashtirganligidadir. Milliy qadriyatlarimiz, barcha ajdodlarimizning o‘gitlari, pand-nasihatlari, o‘zbekona tarbiyaning ildizlarini o‘z ichiga oladi.

Oilada tarbiyaga azaldan katta e’tibor qaratilgan, buni turli tarixiy manbalar va qo‘lyozmalarda keltirilgan oila borasidagi qarashlarda ko‘rshimiz mumkin. Bunga misol qilib, qadimgi zardushtiylik dini “Avesto” kitobining oltin qoidalardan biri bu oila muqaddasligi hisoblanadi. Bundan tashqari mazkur kitobda ota-onaga bo‘lgan hurmatning muhimligi va ayollarning axloq-odoblariga alohida to‘xtalib o‘tilgan.

Bizga ma’lumki, Islom dinida ham oila masalasiga doir ko‘p oyat va hadislar mavjud. Dinimizda oilada ayol kishi juda ardoqlanadi, shuningdek, oilani pokligini, mustahkamligini saqlashda ayol kishining o‘rni muhim ahamiyatga egaligi ko‘pgina hadislarda keltirib o‘tilgan. Erkak kishi esa oilaning boshi bo‘lib, unga oilaning har tomonlama mustahkamligini hamda iqtisodiy tomonдан ta’minalash mas’uliyati berilgan. Shuningdek, ota-onaning oilada naqadar muhim o‘ringa ega ekanliklarini “Ota rozi- Xudo rozi”, “Jannat onalarining oyog‘i ostida” degan so‘zlardan anglashimiz va ularning ko‘ngillarini og‘ritish juda katta gunohligi ko‘p marotaba takrorlanishidan tushunishimiz mumkin.

Buyuk tarixiy shaxslardan biri Amir Temur ham oilaga davlat darajasidagi masala deb qaragan. Biz buni uning o‘z farzandlari va nabiralariga kelin tanlashdagi qo‘ygan talablarini quyidagi fikrlaridan bilishimiz mumkin: “O‘g‘illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoqchi tashvishida kelin izlamoqqa e’tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko‘rdim. Kelin bo‘lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirdim. Xos odamlar orqali salomatligini, jismonan kamolotini aniqladim. Kelin bo‘lmish nasl-nasabi, odob-axloqi, sog‘lom va baquvvatligi bilan barcha qusurlardan holi bo‘lsagina el-yurtga katta to‘y tomosha berib, kelin tushurdim”¹³⁴. Amir Temurning bunday yuqori talabchanlik bilan kelin tanlashining asosiy sababi, mamlakat kelajagini ta’minlovchi sog‘lom va yetuk kelajak avlodni yaratish istagidir.

“Tarbiyaning yana biri ota-onani hurmat qilish, buni bajarish uning uchun majburiyatdir. Bu ikkisiga xizmatni birdek qil, xizmating qancha ortiq bo‘lsa ham kam bil. Otang oldida boshingni fido qilib, onang boshi uchun butun jismingni sadaqa qilsang arziyi!”. Mazkur go‘zal fikr buyuk shoir va davlat arbobi Alisher Navoining farzandning ota-onalidagi majburiyatlarini hisoblanadi. Navoiy shu majburiyatlarini yoshlар chuqur anglashlari va ularning ota-onalarining hurmatini joyiga qo‘yishlari kerakligini, bu ularning farzandlik vazifalari ekanligini ta’kidlagan. Navoiyning asarlari ichida “Mahbub ul-qulub”, ya’ni “Qalblarning sevgani” asari turmush madaniyati, odob-axloq, sevgi-muhabbat borasida o‘ziga xos fikrlarni jamlagan.

Hozirgi davrga kelib, oila va turmushga haqidagi fikr va qarashlar bir muncha o‘zgargan, ammo albatta, o‘z o‘zagida aynan shu mulohaza va jihatlarni saqlaydi. Qarashlarning o‘zgarganligiga yorqin misol sifatida hozirda qizlarning ta’lim olishi individual rivojlanishiga katta e’tibor qaratilib, bugungi davr ayollarli mustaqil hayot kechirishi, tadbirkorliklik bilan shug‘ullanishi oddiy holatga aylangan. Hozirgi zamon oilalarida qadriyatlarga bo‘lgan munosabat va tarbiya usullarida o‘zgarishlar mavjud. Qadriyatlarga munosabatning o‘zgarishi deganda oilalarning ajrashish holatlari oldingi davr bilan solishtirilganda katta farqni ko‘rish mumkin. Bunga ko‘ra, olti oy davomida 12 ming 810 ta, o‘tgan yilning shu vaqtiga nisbatan 3 ming 151 ta kam oilaviy ajralishlar ro‘yxatga olingan. Mamlakatimizdagi mavjud oilalarning 0,03 foizining taqdiri ajralish bilan yakun topgan. Yuzaga kelgan mazkur ajrimlar natijasida joriy yilning o‘zida Respublika bo‘yicha 8 ming 725 nafardan ortiq voyaga yetmagan bolalar ota yoki ona mehridan mahrum bo‘lgan. Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi tomonidan joriy yilning shu vaqtiga qadar 15 ming 413 ta ajrim yoqasiga kelib qolgan oilalarning 9 ming 980 tasi ya’ni, 60 foizi yarashtirildi. Shuningdek, 11 ming 985 ta nikohi qonuniy rasmiylashtirilmagan oilalar aniqlanib, ularning 5 ming 960 tasi yoki 57,8 foizining nikohi qonuniy rasmiylashtirildi.¹³⁵ Mazkur 2020-yil statistikasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bu holatning sababi aynan oila muqaddasligiga va oila qurishga bo‘lgan yengil munosabatni olsak bo‘ladi. Bu sonlarning kamayishi uchun quralayotgan yosh oilalar bilan to‘liq tushuntirish ishlari olib borilishi, bunga mahallalardagi raislarning mas’ul bo‘lishi darkor. Aynan shu sababdan bugungi kunda yangi oila qurish ostonasida bo‘lgan yoshlар FHDYO bo‘limiga ariza topshirishga borgan vaqtlarida ular bilan psixolog uchrashuv o‘tkazishi va ularning mosligini tekshirgandan so‘ng nikoh qurishga ruxsat berishi yo‘lga qo‘yilgan.

¹³⁴ Alqarov I.Sh., Mamatqulova R.Sh. Oila tarbiyasining pedagogikasi. – Toshkent. 2007y.13-bet

¹³⁵ <https://zarnews.uz/uz/f86>

Oilada farzand tarbiyasi bu dolzarb va asosiy masala hisoblanadi. Chunki bir farzandni voyaga yetkazib, uning o‘z hayotiga mas’uliyat bilan yondashib, elga xizmat qiladigan mustaqil fikr egasi bo‘lishi uchun har tomonlama tarbiyalanib, puxta ta’lim olishi kerak.

Prezidentimiz aytganlaridek: “Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor, qayerda ishlashidan qat’i nazar, kim bo‘lishidan qat’i nazar, agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e’tibor bermasa, hech qachon natija bo‘lmaydi. Shuning uchun men farzandlarimning tarbiyasiga juda katta e’tibor beraman. Har bir farzandimga ham, nevaramga ham alohida o‘zimming munosabatim bor. Har bir nevaramning alohida xarakterini bilaman, orzusini, istagini bilaman”¹³⁶. Darhaqiqat, har bir farzand bu alohida hech kimga o‘xshamaydigan dunyo egasidir, shu sababdan eng ma’qul tarbiya uslubi, muqaddas Islom dinimiz va milliy qadriyatlarimizga ko‘ra tanlangandagina katta samara beradi.

Xulosa qilib aytganda, oilani bir go‘zal bog‘ga, farzandlarni esa uning bir-biridan shirin-shakar mevalariga o‘xshatish mumkin. So‘lim bog‘ aro pishib-yetilgan, ko‘zni quvontiradigan ne’matlarni ko‘rganda inson qalbi yayraydi, bahri dili ochiladi. Sog‘lom oila jamiyatning mustahkam poydevori. Ma’naviyat va ma’rifat, salomatlik nuqtayi nazaridan nazar tashlasak, oila insoniyat naslini pok saqlovchi, sha’ni va odamiyigini ta’minlovchi asosiy vosita, yuksak tarbiya o‘chog‘idir. Oila rishtasining asosini esa, albatta, oila a’zolarining bir-biriga bo‘lgan mehr- muhabbat tashkil etadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Alqarov I.Sh., Mamatqulova R.Sh. Oila tarbiyasining pedagogikasi. – Toshkent. 2007.
2. <https://zarnews.uz/uz/f86>
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2018/07/25/prezident/>.

Voxidova N.X.,

TDPU Ijtimoiy pedagogika kafedrasи professor v.b.,
pedagogika fanlari nomzodi;

Saydazimova M.,

Toshkent shahrining 131-maktab o‘qituvchisi

OILA MA’NAVIY – AXLOQIY TARBIYA MASKANI SIFATIDA

Annotatsiya. Maqolada oila jamiyat uchun yetuk va komil shaxslarni tarbiyalovchi maskan ekanligi, oilada farzandlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashga e’tibor qaratish zarurligi hamda ma’naviy-axloqiy tarbiyada muvaffaqiyatga erishishning ayrim jihatlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: oila, tarbiya, jamiyat, jihat, shaxs, farzand, muvaffaqiyat, kodeks, bola, huquq, qonun jamiyat, davlat, omil, ma’naviy-axloqiy tarbiya.

Аннотация. В статье рассказывается о том, что семья является местом воспитания зрелых и зрелых личностей, о необходимости уделять внимание духовно-нравственному воспитанию детей в семье, а также о некоторых аспектах достижения успеха в духовно-нравственном воспитании.

Ключевые слова: семья, воспитание, общество, аспект, личность, ребенок, успех, кодекс, ребенок, право, право общества, государство, фактор, духовно-нравственное воспитание.

Annotation. The article describes the fact that the family is a place of education of mature and mature individuals, the need to pay attention to the spiritual and moral education of children in the family, as well as some aspects of achieving success in spiritual and moral education.

Key words: family, upbringing, society, aspect, personality, child, success, code, child, law, law society, state, factor, spiritual and moral education.

¹³⁶<https://www.gazeta.uz/oz/2018/07/25/prezident/>

O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksida farzandlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida oilaviy muhitning, ya’ni ota-onaning o‘zaro samimiy munosabatlari, ularning farzandlari bilan yaqin, do’stona munosabatda bo‘lishlari kerakligi ta’kidlanadi. Shuningdek, Oila kodeksining 4-moddasida farzandlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida bolaga ta’lim-tarbiya berishda otaning o‘rni onanikidan kam emasligi uqtiriladi. Shuningdek, mazkur kodeksining 19-moddasidagi oilada er va xotin huquqlaridan teng foydalanishi va teng majburiyatlarga ega ekanligiga urg‘u berilgan holda ularning farzandlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida ham birdek ma’sul ekanliklariga ishora qilinadi.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev 2018-yil 2-fevral kuni “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qabul qilgan Farmonida ham xotin-qizlar turmushini yaxshilash bilan birga ularni yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalash jamiyatimiz tayanchi bo‘lgan oilani mustahkamlashga xizmat qilishi xususida shunday deydi: “Odamlarimiz bilishi kerak, oila muqaddas biz uchun. Oilani saqlab qolmasak, biz o‘zligimizni yo‘qotamiz” .

Bugun yurtimizda jismonan sog‘lom, ma’nan yetuk avlodni tarbiyalash, sog‘lom bolalar tug‘ilishiga zarur shart-sharoitlar yaratish borasida uzoqni ko‘zlab amalga oshirilayotgan sa‘y-harakatlar o‘z natijalarini bermoqda. Zero, sog‘lom millatgina sog‘lom kelajakni barpo eta oladi. Davlatimiz rahbari 2014-yilni “Sog‘lom bola yili” deb e‘lon qilar ekan, sog‘lom bolaning dunyoga kelishi, baquvvat bo‘lib o‘sib ulg‘ayishi ko‘pgina talab va omillarga bog‘liq ekanini alohida ta’kidlab o‘tdi. Oilalarni mustahkamlash, sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, ta’lim va sportni rivojlantirish, ushbu sohalardagi davlat siyosatini kuchaytirish, mahallaning rolini oshirish kabi jihatlar ana shular jumlasidandir. Yurtimizda mustaqillikning ilk yillardanoq mana shu yo‘nalishlarni rivojlantirish borasida aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilib, ular hayotga izchil tatbiq etib kelinayotir. Har bir yil shu ezgu maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan islohotlarning mantiqiy davomiga aylanayapti. Oila, Ayollar, Sog‘lom avlod, Ona va bola, Obod mahalla, Mehr-muruvvat, Homiylar va shifokorlar, Ijtimoiy himoya, Yoshlar, Barkamol avlod, Obod turmush yillari va shu asosda amaliyotga joriy etilgan Davlat dasturlari samaralari farzandlarimizning barkamol voyaga yetishlarida muhim omil bo‘ldi.

Jamiyat – oiladan boshlanadi. Oilaning asosini esa ota-onasi tashkil qiladi. Ota-onani ulug‘lash va ularni qadrlash bilan birga hadislarda ota-onasi o‘z farzandlariga ta’lim-tarbiya berishga mas’ul ekanliklari xususida shunday deyiladi: “Har biringiz tarbiyachisiz va har bir tarbiyachi qo‘l ostidagilarga javobgardir”, yoki “Farzandlaringizga ta’lim bering, chunki ular sizniki bo‘lmagan vaqt uchun tug‘ilganlar”, deb har bir ota-onani bolaning o‘z zamonasi ilm-fani, ta’limiga befarq qaramaslikka chaqirganlar.

Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”da – oila muqaddas sanalib, yoshlarga beriladigan ma’naviy-axloqiy tarbiyada oilaning o‘rni beqiyos ekanligi ta’kidlanadi¹³⁷.

Tarbiya jarayonida har bir ota-onasi Imom Buxoriy, Mirzo Ulug‘bek, A.Navoiy, Amir Temur, Z.M.Bobur kabi buyuk allomalar va sarkardalarni ham onalar tarbiyalab, voyaga yetkazganliklarini bilishi zarur.

A.Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur? degan savolga, “birinchi uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidur. Ikkinci, maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidur”, – deb javob bersak, bir kishi deyurki, “qaysi onalarni aytursiz, bilimsiz, boshi paqmoq, qo‘li to‘qmoq onalarmi? O‘zlarida yo‘q tarbiyani qaydan olib berurlar”, der . Mana, bu so‘z kishining yuragini ezar, bag‘rini yondurar. Otasiga nima dersiz, desak, qaysi ota? To‘ychi, uloqchi, bazmchi, do‘mbirachi, karnaychi, surnaychi, ilm qadrini bilmagan, ilm uchun bir pulni ko‘zları qiymagan, zamondan xabarsiz otalarni aytursizmi? Avval o‘zlarini o‘qitmak, tarbiya qilmak lozimdu”, – deb oilaning tarbiyadagi yetakchilik kuchiga ishora qiladi. Shuningdek, “Alloh taolo insonlarni asl xilqatda iste’dod va qobiliyatli, yaxshi bilan yomonni, foyda bilan zararni, oq bilan qorani ajratadigan qilib yaratgan. Lekin insondagi bu qobiliyatni kamolga yetkazish – tarbiya bilan bo‘lur”,¹³⁸ – deb tarbiyaning zaruriy shart ekanligini bildiradi. Farzandga to‘g‘ri tarbiya berish esa oiladan boshlanadi. Oilada farzandlarning har tomonlama kamol topishi uchun ma’naviy- axloqiy sharoitlar yaratilsagina muvaffaqiyatlarga erishiladi.

Abdurauf Fitrat “Oila” asarida “Qayerda oila, oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo‘ladi”, deganlar.

Har bir ota-onasi oilada farzandning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida muvaffaqiyatga erishish uchun bir qator jihatlarga e’tibor berish zarur:

1. Oila tarbiyasida umuminsoniy, milliy-ma’naviy qadriyatlar qoidalarga rioya qilish.

¹³⁷ Avesto – tarixiy-adabiy yodgorlik. – T.: “Sharq” NMAK, 2001, 3–20-betlar.

¹³⁸ A.Avloniyyi. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent, 1992.

2. Oila a'zolari orasidagi munosabatlarda o'zaro bir-birini tushunish, o'zaro yordam berish, o'zaro ishonch, o'zaro bardosh kabilarga rioya qilish.

3. Oila a'zolarining har biri o'zlarining ijtimoiy-rollarini to'laqonli bajarishlariga erishish.

4. Oila a'zolarining bir-birlariga mehr-muhabbat va o'zaro hurmatga asoslanishi.

5. Oila a'zolarining o'zaro munosabatlarida emotsional qulaylikni saqlab qolishiga intilishlari, ya'ni oilaviy munosabatlarda moslashishlari.

6. Har qanday sog'lom oilaning ajralmas qismi – bu oilaviy maqsadlarning yagonaligidir. Maqsadga erishish usullarini tanlash va uning shakllanishi hamda kutilayotgan natijalarda har bir oila a'zosining ehtiyojlari, qiziqishlari, intilishlari, istak-xohishlari inobatga olish yaxshi natijalarni berishini yoddha saqlash zarur.

7. Oilaning yakdilligi va barqarorligi. Oilaviy yakdillik – bu oilaning emotsional uyushganligidir. Oilaviy yakdillik shaxsning o'z-o'zini anglashi bilan bog'liq. Oilaning ruhiy salomatligini ta'minlashda oila a'zolarining bir-birlariga bo'lган samimiy iliq, sog'lom munosabatlari hamda birgalikdagi amalga oshiriladigan umumiy maqsadlar ijrosiga bog'liq bo'ladi.

Bir so'z bilan aytganda, mustahkam ma'naviy immunitetli, o'zining fikrlarini ravon ayta oladigan, yuqori marralarga erishuvchan avlodni tarbiyalash uchun ota-onas, oila muhiti juda katta ahamiyat kasb etadi. Hech kimga sir emas, insонning qalbi va ongini egallash, ayniqsa, yoshlarning ma'naviy dunyosini zaharlashga qaratilgan turli xavf-xatarlar ham kuchayib borayotgan bugungi kunda o'zining kimligini, qanday bebaho meros vorislari ekanini teran anglab, ona yurtga muhabbat va sadoqat hissi bilan yashaydigan, iymone'tiqodi mustahkam yosh avlodgina muqaddas zaminimizni yot va begona ta'sirlardan, balo-qazolardan saqlashga, Vatanimizni har tomonlama ravnay toptirishga qodir farzandlarni tarbiyalash o'z qo'limizda. Farzandlarimizga shunday tarbiya beraylik, ular o'z ota-bobolariga, o'z tarixi, Vatani, ona tiliga, millati, diniga va an'nalariga sodiq bo'lib kamol topishsin.



Ro'ziyeva Gavhar,
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktori
Mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning
malakasini oshirish instituti doktoranti

OILADA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI AXLOQIY TARBIYALASH MASALALARI

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha yoshdagagi bolalarning ijtimoiylashuvi, ularni intellektual rivojlanirish muammolari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. Muammolarning yechimi ustida izlanish olib borildi. Maktabgacha yoshdagagi bolalarni intellektual rivojlanishida ota-onas, oila o'rni va roli, maktabgacha ta'lim muassasalarining, tarbiyachilarining o'rni va roli, ularning burch va mas'uliyatlari haqida fikr yuritildi.

Kalit so'zlar: intellektual rivojlanish, maktabgacha ta'lim, ota-onas, bola tabiat, intellektual o'yinlar, adaptatsiya, pedagogik qarashlar, shaxs sifatida shakllanish, nutq boyligi, tafakkur, ijtimoiylashuv.

Аннотация. В статье дан анализ проблемы социализации дошкольников, их интеллектуального развития с теоретической и практической точки зрения. Рассмотрено роль и место родителей, семьи, воспитателей, их обязанности и ответственность в интеллектуальном развитии дошкольников,

Ключевые слова: интеллектуальное развитие, дошкольное образование, воспитание, интеллектуальные игры, адаптация, педагогические установки, развитие личности, речь, мышление, социализация.

Annotation. The article analyzes the problem of socialization of preschoolers, their intellectual development from a theoretical and practical point of view, the role and place of parents, family, educators, their duties and responsibilities in the intellectual development of preschoolers.

Key words: intellectual development, preschool education, intellectual games, adaptation, pedagogical attitudes, personality development, speech, thinking, socialization.

Inson hayotining dastlabki davrlarida oladigan ma'lumotning yetmish foizini besh yoshgacha bo'lgan davrda olishi aniqlangan. Bunda inson bolasi dunyoni anglaydi, o'z ona tilini o'zlashtiradi, ota-onasini, oilasini, mahallasini taniydi va ona Vataniga mehri uyg'onadi. Demak, bu davrda olgan tushunchalari umr davomida oladigan bilimlarga poydevor hozirlaydi. Oila bilan birga maktabgacha ta'lim muassasasining roli yuqori bo'ladi. Shuning uchun ham aynan maktabgacha ta'lim uzuksiz ta'lim tizimining ajralmas bo'lagiga aylangan bo'lishi kerak.

Aflatundan: "Qancha vaqtgacha ta'lim olish va ilm o'rganish yaxshi?", – deb so'rabdilar. U: "Nodonlikning va johillikning ayb ekanligi qay vaqtgacha bo'lsa, ilm o'rganish o'sha vaqtgacha yaxshidir",¹³⁹1 – deb javob bergen ekan.

Shuning uchun maktabgacha ta'lim uzuksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga va ilmga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. 6-7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha ta'lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarida va oilada amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'limning maqsadi – bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash, bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, qobiliyatlarini oshib berish, o'qishga, tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir.

Maktabgacha ta'lim muassasalarini – O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim muassalarining turi bo'lib, turli yo'nalihsidagi maktabgacha bo'lgan davrdagi umumta'lim dasturlarini amalga oshiradi. Maktabgacha ta'lim muassasalarini 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni tarbiyalashni, o'qitishni, nazorat qilishni, parvarishlashni va sog'lomlashtirishni ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasasining vazifalari:

- bolaning ijtimoiylashuvi, bola shaxsi asoslarini shakllantirish;
- oila bilan ta'lim-tarbiyaviy hamkorligini kuchaytirish;
- bolaning intellektual va jismoniy rivojlanishini ta'minlash;
- bolaning rivojlanishidagi nuqsonlarni zarur tarzda tuzatish;
- bolalarni xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida aqliy va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash;
- bolalarda milliy g'urur, vatanparvarlik hislarini shakllantirish;
- bolalarning tafakkurini rivojlanishidagi o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish;
- bolalarni bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish manbalarini shakllantirish, ularni muntazam ravishdagi ta'lim jarayoniga tayyorlash.

Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ushbu tizim faoliyatini yangi bosqichga ko'tarish, sohani bugungi kun talablari darajasida modernizatsiya qilishga xizmat qilmoqda. Bu borada, ayniqsa, maktabgacha ta'lim muassasalarini tizimini rivojlanishidagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga jalg etish, maktabga tayyorlash masalalari ta'lim sohasidagi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri deb qaraldi. Mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash uchun, eng avvalo, qulay tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratildi.

Shu o'rinda maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarni intellektual, jismoniy, axloqiy jihatdan tarbiyalash, umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish, bolalarni maktabga sifatli tayyorlash maqsadida turli to'garaklar, ma'naviyat va ekologiya xonalari, kichik muzey, kutubxonalar tashkil etish borasidagi an'analarni izchil davom ettirish maqsadga muvofiq. Chunki kitobga, san'atga, ilmga, umuman, kelajakda muayyan kasbni egallashga bo'lgan qiziqish bolalarda ayni shu davrda shakllanadi.

Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" kitobida ilm to'g'risida bunday deydi: "Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidur. Ilm inson uchun g'oyat oliy, muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyina kabi ko'rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkur qilmoq, ... Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabitur...". Avloniy ilmni umuman emas, balki uning amaliy va hayotiy foydalarini aytib, "Bizlarni jaholat, qorong'ulikdan qutqarur. Madaniyat insoniyatni ma'rifat dunyosiga chiqarur, yomon

¹³⁹ Аликулов Х., Омонбоева Р. Жомий ва Давоний таълим-тарбия ҳақида. – Т.: "Ўқитувчи", 1981. 36-бет.

fe'llardan, buzug' ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va odob sohibi qilur... Alhosil, butun hayotimiz, salomatimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilma bog'lidur"¹⁴⁰.

Oilada bolalarni axloqiy tarbiyalashning usullarini xalq pedagogikasida manbalaridan o'rganishimiz lozim. Jumladan, tushuntirish, namuna ko'rsatish, odatlantirish, iltimos qilish, tilak-istik bildirish, maslahat berish, ko'ndirish, undash, ma'qullah, rahmat aytish, duo qilish, olqish, koyish, uzr so'rash. Lekin insonni g'oyaviy, axloqiy tarbiyalashda eng kuchli tarbiyaviy vosita sifatida o'git-nasihat, ibrat ko'rsatish, ma'qullah va maqtash, mukofotlash kabilardan foydalanish samarali natijalar berishi kuzatishlardan ma'lum.

Oilada bolalarni axloqiy tarbiyalashda insonparvarlik asosiy masalalardan biri, xalq donishmandlarining axloq va odob yuzasidan aytildigan hikmatli so'zлari, maqollari, u yoki bu ertak orqali hal qilinishi kerak bo'lgan muammo sifatida ishlatalishidir. Aniqrog'i axloq-odob masalalariga bag'ishlangan xalq maqollarining naqadar hayotiy ekanligini ma'lum ertak orqali aytib berilishidir.

Ko'pchilik ertak, dostonlarda ota-onva keksalarning turmush tajribalarini ifodalash bilan birga yoshlarni unga bevosita amal qilishlariga undaydigan maslahat va pand-nasihatlar ham asosiy o'rnlardan birini egallaydi. Masalan, "Qorasoch pari" ertagida ona o'z o'g'li Nodirni safarga jo'natishdan oldin shunday deydi: "Mening uch nasihatimni esingdan chiqarma, birinchisi – birovga xiyonat qilma, ikkinchisi – birovning dilini og'ritma, uchinchisi – qaysi shaharga borma, eng avval, o'sha shaharning qariyalari bilan suhbatlashib ish qil", mazmunida nasihat qiladi. Nihoyat ona nasihatiga amal qilgan farzand bir umrga murod-maqсадига yetib yashaydi.

Xalq og'zaki ijodiyotining barcha janlarida bolani atrofidagi kishilarga yordamlashish, hamdardlik qilish ruhida tarbiyalash g'oyalari o'rtaga tashlanganini ko'ramiz. O'zbek xalqi o'rtasida kundalik ehtiyojga aylangan amaliy san'at turlaridan yog'och, ganch va mis o'ymakorligi, zargarlik, zardo'zlik, kashtado'zlik, kulolchilik, milliy liboslarni tikish kabilar o'zbek oilalarida birinchidan, moddiy ehtiyojni qondirish bo'lsa, ikkinchidan, farzandlarni mehnatga o'rgatishda, bo'sh vaqtdan unumli foydalanishni tarbiyalashda muhim tarbiya vositasi sifatida foydalanib kelingan.

Tajribadan ma'lumki, bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy musiqa, qo'shiqlar muhim o'rinni egallaydi. Chunki barchaga ayonki, musiqa tarbiya manbayidir. Masalan, Alla o'zbek xalqining qadimiy, muhim tarbiyaviy xarakterga ega bo'lgan qo'shiq turlaridan biridir. Ona allasidan bahramand bo'limgan bola qalbida ota-onaga, Vatanga nisbatan mehr-muhabbat hissi bo'lishi qiyin. Alla aytmagan yoki alla eshitib katta bo'limgan qiz bola bo'lmasa kerak. Alla tinglab katta bo'lgan boladan ota-onaga nisbatan o'zgacha muhabbat, hurmat hissi shakllanadi.

Ota-bobolarimizdan meros qolgan chiroqli va ramziy ma'noga ega bo'lgan urf-odatlarni bilish, bevosita ularda ishtirok etish va aynan ana shu urf-odatlarni o'tkazish tartibini bilish yoshlarning ma'naviy-axloqiy shakllanishida muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

San'at bolaning hayotida katta ahamiyatga ega ekanligi, barcha holatlarda yaqqol namoyon bo'lib turibdi. Keksalarning aytishicha, san'at insonlarni yovuzlikdan saqlab qolar ekan.

Buyuk olim, tibbiyot fanining asoschilaridan bo'lgan bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari" kitobida musiqaning ruhiy ta'sir kuchiga baho berib, go'dakning tarbiyasidagi ahamiyatini oddiygina ta'riflaydi: "Go'dak vujudi chiniqishi uchun ikki narsa zarur: biri uni asta qimirlatib tebratish, ikkinchisi – onaning allasi. Birinchisi bolaning tanasiga, ikkinchisi ruhiga tegishlidir". San'atning va musiqaning inson hayotidagi o'rni borasida ko'p yozilgan va u, shubhasiz, davolovchi, aniqrog'i, jism va ruhni muolaja qilish usullaridan bo'lishi bilan birga, ma'naviy tarbiyaning bag'oyat muhim yo'nalishlaridan biri hamdir.

Bolaning yangi joyga ko'nikishi-adaptatsiyaning silliq o'tishi uchun ota-onalar ko'magi va harakati juda muhim. Ota-onaning mas'uliyati bolani ta'lim muassasasiga topshirish bilan yakuniga yetmaydi. Bola maktabgacha ta'lim muassasasida bo'lgan vaqtida ham ota-onva bolaga to'liq javobgar. Ota-onva bolani hayotga, kollektivga tayyorlashi lozim. Ikki, ba'zan uch-to'rt yoshgacha uyda, yolg'iz ota-onva, boba-buvi qo'lida katta bo'lgan bolalarning birdan yangi guruhga, ko'pchilikka qo'shilib ketishi og'ir jarayon ekanini hisobga olish darkor. Bolani doimiy ravishda sayrga olib chiqish, ko'chada o'ynayotgan bolalarga qo'shish, turli o'yinlarda ishtirok etishiga ruxsat berish yaxshi samara beradi. Bolalar yoshligidan jamoaga o'rganishi lozim.

Bolalar bilan o'ynayotganda, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kelishmovchilikda o'zini qanday tutish, yonida kattalar bo'limgan vaqtda, uyda yolg'iz qolgan vaqtda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ba'zi holatlar, masalan, yiqilib tushish, oraliqqa qisilib qolish, suv toshib ketishi, yong'in chiqishi, chiroq o'chib qolishi va

¹⁴⁰ А.Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлок. – Т.: "Фан", 1994. 17-бет.

shu kabi holatlarda bola o‘zini qanday tutishi lozimligidir. Bularning barchasi ota-onas tomonidan o‘rgatilishi, bolani har qanday sharoitga tayyorlab borish shart va muhim.

Bundan tashqari maktabgacha yoshdagi bolalarga oddiy kundalik turmushda uchraydigan eng oddiy holatlar va vaziyatlarda o‘zini qanday tutish kerakligini ota-onalar o‘z farzandlariga quyidagilarni tushuntirib, o‘rgatib borishlari kerak:

- kattalar va o‘zidan kichiklar oldida o‘zini qanday tutish;
- ikki va undan ortiq bolalar bilan o‘yinchoqlarni qay tarzda kelishib o‘ynash;
- gigiyena qoidalariga rioya qilish;
- ovqatlanish madaniyati;
- suhbatlashish madaniyati;
- tabiatni muhofaza qilish madaniyati;
- ota-onaga, yaqinlarga bo‘lgan munosabat madaniyati;
- hayotdan mammuniyatlik madaniyati;
- o‘z-o‘zini boshqarish madaniyati;
- atrof-muhitni kuzata bilish madaniyati;
- tashqi ta’sirlardan kerakli narsani o‘zlashtira bilish madaniyati va boshqalar.

Maktabgacha ta’lim muassasalaridagi pedagogik ish uslubining asosiy kalitlaridan biri aynan ana shu qarashlar bilan bog‘liq, ya’ni bolalikning qadr-qiyomatini, o‘ziga xosligini tan olish, uning manfaatlarini ro‘yogba chiqarish. Bolalik g‘am-tashvishsiz, samoviy bir ertak davri emas. Bolalar hayotida xuddi kattalarniki singari muammolar bo‘ladi. O‘z tengqurlari orasidagi kelishmovchilik va tushunmovchiliklar, kattalar bilan o‘zaro munosabatlar, dunyoni qabul qilish munosabatlari. Ba’zan bu munosabatlar oddiy holatdek ko‘rinadi, bolalar bekorga yig‘layotgandek, bekorga bir-biri bilan urishayotgandek, erkalik yoki qaysarlik qilayotgandek tuyuladi. Bunday munosabat va qiyinchiliklar bolani azoblaydi, bu holatlar bola uchun arzimas narsalar emas, balki uning hayot mazmuni. Shuning uchun ham bola bu qiyinchiliklarni yengishga, hal etishga, kurashishga, oldinga qarab yurishga harakat qiladi. Bu o‘sish, katta bo‘lish, har tomonlama rivojlanish jarayonidir. Aynan ana shu jarayonda kattalarning to‘g‘ri tarbiyasi nihoyatda muhim. Bola o‘z muammolarini kattalarning ko‘magisiz bartaraf eta olmaydi.

Asl inson – axloqli inson. U boshqalarning his-tuyg‘ularini hurmat qiladi, o‘z qilmishlari boshqalarga zarar yetkazmasligi haqida o‘ylaydi, boshqa odamlarni tushunishga harakat qiladi, yordam beradi, yo‘l ko‘rsatadi, kuchsizlar, bemorlar, qiynganganlar uchun qayg‘uradi. Bolalarda aynan ana shu asl inson qiyofasini tarbiyalash, insoniylik saboqlarini singdirish ularning intellektual rivojlanishida katta omil bo‘ladi. Bolalarda asl inson qiyofasini tarbiyalashda ertaklarning ahamiyati katta. ertaklar, eng avvalo, his-tuyg‘ularga va aqlga ta’sir etadi. Bola ertak qahramonlaridagi yaxshi fazilatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Yaxshi bilan yomonni farqlashni o‘rganadi.

Maktabgacha davrda bolalar o‘z xonalarini tartibli tutish, o‘z tengqurlari va o‘zidan kattalar bilan madaniyat chegarasidan chiqmagan holda muloqot qilish, atrofdagilar bilan do‘stona munosabatda bo‘lish, guruh bilan birgalikda ishslash, xulq-atvor normalarga rioya qilish kabi masalalarda tarbiyachilarining ko‘magi, rahnamoligi, boshqaruvi hamda nazoratida bo‘ladilar.

Bolalarga tartib qoidalar, axloq va insonparvarlik tushunchalari asta-sekinlik bilan singdirib boriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda mehribonlik, halollik, madaniyatlichkeit, axloq-odob qonun-qoidalari turli suhbatlarda yaxshi va yomonni, to‘g‘ri va noto‘g‘rini bir-biriga solishtirish, baho berish orqali tushuntiriladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktabgacha bo‘lgan davr bolalarning intellektual va ijodiy rivojlanishi uchun eng ma‘qul va qulay fursat hisoblanadi. Bu davr bolalarning eng sezgir davri bo‘ladi. Aynan shu davrda bolalarning ongida barcha sohalarda progressiv o‘zgarishlar sodir bo‘ladi, aqliy jarayon (diqqat, xotira, idrok, fikr, nutq, tasavvur)lar takomillashadi, shaxsiy fazilatlar faol rivojlanadi, ular asnosida qobiliyat va moyillik oshadi. Aynan maktabgacha yoshdagi bolalarda intellektual o‘sish o‘zining yuksak rivojlanishining in’ikosini topadi.

Har bir ota-onasi, har qanday jamiyat farzandlarini-o‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, aqlan komil inson bo‘lib voyaga yetishini istaydi. Har tomonlama komil farzandlarni jamiyatga yetkazib berish uchun esa faqat istakning o‘zi kamlik qiladi. Farzandlarimizni intellektual jihatdan yetuk inson bo‘lib yetishishlari uchun qo‘ldan kelgan barcha sharoitni yaratish ham ota-onalar, ham jamiyat oldida turgan ulkan va sharaflı burchdir.

Xolmatova Salima Qo‘zibaevna,
TVChDPI Maktabgacha ta’lim kafedrasи o‘qituvchisi,

Abdujalilova Madinaxon Muxiddin qizi,
TVChDPI Maktabgacha ta’lim 19/7 gurux talabasi,

Seidova Svetlana Madaminovna,
TVChDPI Maktabgacha ta’lim 19/7 gurux talabasi

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARIDAGI PISA DASTURINING VAZIFALARI VA IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Prezident qaror va farmonlari asosida Xalqaro baholash dasturlari va ular doirasidagi tadqiqotlarga qisqacha tushuncha berilib, asosan, PISA xalqaro baholash dasturining asosiy maqsadi, vazifalari va imkoniyatlari to ‘g‘risida keng to ‘xtalingan. Shuningdek, maqolada kelajakda Xalqaro baholash dasturlarida qatnashish natijasida mamlakatimizni yuksak imkoniyatlarga erishishi nazarda tutilgan.

Tayanch so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, xalqaro baholash dasturi, assotsiatsiya, inspeksiya, davlat, standart, o‘quvchi, ta’lim mazumuni, modernizatsiyalash, davriylik.

Аннотация. В этой статье представлен краткий обзор международных программ оценки и их исследований, основанных на указах и постановлениях президента, и основное внимание уделяется основным целям, задачам и возможностям Международной программы оценки PISA. В статье также предусмотрено, что в будущем в результате участия в международных оценочных программах наша страна раскроет больший потенциал.

Ключевые слова: начальное образование, международная программа оценки, ассоциация, инспекция, государство, стандарт, студент, содержание образования, модернизация, периодичность.

Annotation. This article provides a brief overview of international assessment programs and their research based on executive orders and decrees, and focuses on the main goals, objectives and opportunities of the PISA International Assessment Program. The article also provides that in the future, as a result of participation in international assessment programs, our country will reveal great potential.

Key words: primary education, international assessment program, association, inspection, state, standard, student, educational content, modernization, frequency.

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo‘lidan shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo‘lmish yoshlarni ijodiy g‘oyalarini va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bilim, ko‘nima va malakalarini shakllantirish hamda milliy istiqlol g‘oyalarini o‘quvchilar ongiga singdirishda ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo‘lda xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizimini qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo‘nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora- tadbirlari to ‘g‘risida “2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiysi huzurida Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi. Shu bilan birga, ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtiroy etish vazifalari belgilandi.

PISA-15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonligi darajasini baholash.

TIMSS-4 va 8 sinf o‘quvchilarining tabiiy-ilmiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonligini baholash.

Shunday ekan, umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning matematik, tabiiy-ilmiy fanlar va o‘qish savodxonligini oshirishda PISA testlaridan unumli foydalanish tavsiya etilmoqda. Tabiiy fanlar turkumiga kiruvchi geografiya fanini o‘qitishda ham xalqaro baholash tizimidan foydalanish o‘quvchilarni shu fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishi, dunyo qarashini kengaytirishi, mantiqiy fikrlashni oshirishi, o‘rganilayotgan obyektlarni tez farqlay olishda amaliy yordam beradi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar kun tartibida ta’lim tizimi, uni isloh etish, rivojlantirish hamisha ustuvor vazifalardan biri bo‘lib turadi. Ta’lim bor joyda tarbiya bor bo‘lganidek, ta’lim sifatli bo‘lsa, mamlakat tayanchi – yoshlar har tomonlama bilimli, kuchli va tarbiyalı bo‘lib voyaga yetadi. Shu o‘rinda ta’lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini o‘rganish, tajribada sinab ko‘rish, ularni amaliyotga tatbiq qilish orqali ta’lim muassasalari sifati va samaradorligini yanada oshirish zarur. Xalqaro baholash dasturlari va ular doirasidagi tadqiqotlar Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) Ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan muayyan davriylik asosida dunyo mamlakatlari bilan hamkorlikda tashkil etiladi.

Prezident Sh.Mirziyoyevning joriy yil 6-noyabrda qabul qilingan “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari belgilab berilgan. Ushbu farmon loyihasi bo‘yicha joriy yilning 30-oktabr kuni Prezidentimiz raisligida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida mакtab ta’limi bo‘yicha ilg‘or davlatlar tajribasini, xususan, Finlandiya ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlari, xalqaro baholash dasturlarida erishayotgan muvaffaqiyatlarini o‘rganish, ta’lim sifatini oshirish, mакtablarda o‘quv yuklamasi, darslar sonini qayta ko‘rib chiqish, o‘quvchilarni faqatgina yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiysi huzurida Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazini tashkil etishga qaror qilinib, uning asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari etib ta’lim tizimida o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish va joriy etishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish; ta’lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o‘rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, xalqaro ilmiy anjumanlar va simpoziumlarni tashkil etish va o‘tkazishda ishtirok etish; umumiyo‘rtta ta’lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta’minalash; O‘zbekiston Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida qayd etgan natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash belgilandi. Ta’lim inspeksiysi tomonidan Xalq ta’limi vazirligi va boshqa tegishli vazirlilik va idoralar bilan hamkorlikda xalqaro tadqiqotlarni joriy qilishga tayyorgarlik ko‘rish ishlari reja asosida tizimli ravishda olib borilgan.

Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiysi bilan OECD hamda IEA tashkilotlari o‘rtasida imzolangan kelishuv hujjatlariga binoan O‘zbekiston Xalqaro o‘quvchilarni baholash PISA-2021 hamda O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunish darajasini baholash xalqaro dasturi PIRLS-2021 da ishtirok etishga kirishilgan. Shuning bilan birga, TIMSS-2023 xalqaro dasturida qatnashishga kirishildi.

Yuqorida ko‘rsatilgan xalqaro baholash dasturlardan PISA xalqaro baholash dasturiga kengroq to‘xtalamiz. PISA (The Programme for International Student Assessment – O‘quvchilarni Xalqaro Baholash Dasturi) o‘quvchilarni ta’lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo‘yicha xalqaro dastur bo‘lib, undagi test jahon davlatlaridagi mакtab o‘quvchilarining bilimi va ularni amaliyotda qo‘llay olish mahoratini baholaydi. Dasturning asosiy maqsadi – 15 yoshli o‘quvchilar ta’lim dargohida olayotan bilim va tajribalarini ijtimoiy ko‘nikmalarda va inson faoliyatida uchraydigan turli xil hayotiy vazifalarni yechishda qanchalik foydalana olish qobiliyatini baholashdir. Ushbu sinov har uch yilda bir marotaba o‘tkaziladi. Testda faqat 15 yoshdagisi o‘smirlar ishtirok etadi. Maktabdagi ta’lim sifatini monitoring qilishga qaratilgan PISA dasturi asosiy uch yo‘nalishda: o‘qish, matematika va ijtimoiy fanlar savodxonligi bo‘yicha olib boriladi. Birgina 2015-yilning o‘zida 70 dan ortiq davlatlar PISA xalqaro dasturi sinovida ishtirok etgan. Umuman olganda, PISA dasturi davatlarning ta’lim sohasidagi siyosatiga sezilarli darajada ta’sir o‘tkazadi. Har bir davlat o‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida o‘zining ta’lim sohasidagi kuchli va kuchsiz tomonlarini xolisona aniqlab, boshqa

davlatlarga nisbatan mavqeyini ko‘radi hamda ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini takomillashtirishda o‘z yo‘nalishlarini va strategiyasini belgilab oladi. [6; 4]

PISA baholash dasturining vazifasi unda ishtirot etuvchi davlatlarning ta’limga mas’ul vazirlik va idoralarining oldida turgan quyidagi savollarga javob topishida yetarli ma’lumotlar bilan ta’minlashdan iboratdir:

- o‘quvchilar majburiy ta’lim so‘ngida demokratik jamiyatda faol fuqarolik rolini olishga yetarli tayyorlanganmi?
- o‘quvchilar o‘z g‘oya va tasavvurlarini tahlil qilish, asoslash va shular asosida muloqot qila olish ko‘nikmasiga egami?
- o‘quvchilar hozirgi mehnat bozori talablari asosida maktabda ta’lim olayaptimi?
- o‘quvchilar “butun hayot davomida o‘qish” talablariga javob beradimi? [3, 9].

PISA baholash dasturi maktab ta’limini tahlil qilish bilan birga, ta’limning boshqa bosqichlari uchun ham zaruriy ma’lumotlar olish imkoniyatini beradi. Uzluksiz ta’lim tizimida esa bu kabi ma’lumotlar katta ahamiyatga ega. 2000-yilda 32 davlatdan jami 250000 o‘quvchi mazkur dasturda ishtirot etishdi [3, 10].

Siyosiy jihatdan PISA baholash dasturi xalqaro doirada PISA Governing Board (PGB) tomonidan boshqariladi. PISA baholash dasturi 1997-yilda Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (IHTT) tashabbusi bilan amaliyotga joriy etildi va 2000-yildan buyon joriy etila boshlandi va har uch yilda bir marotaba o‘tkaziladi, ya’ni bunda 2000-yilda o‘qish fani bo‘yicha o‘tkazilgan bo‘lsa, 2003-yilda matematika fani bo‘yicha o‘tkazilgan va 2006-yilda esa tabiiy fanlar yo‘nalishi bo‘yicha o‘tkazilgan. Shuningdek, 2009-yilda o‘qish fani bo‘yicha o‘tkazilgan bo‘lsa, 2012-yilda matematika fani bo‘yicha o‘tkazilgan va 2015-yilda esa tabiiy fanlar yo‘nalishi bo‘yicha o‘tkazilgan. Bu davriylik yana qaytalanib, 2018-yilda o‘qish fani bo‘yicha o‘tkazilgan bo‘lsa, bu yil, ya’ni 2021-yilda esa 8-davriylik matematika fani bo‘yicha o‘tkaziladi. [5, 9].

PISA baholash dasturida 2018-yilda 78 ta davlat (iqtisodiyot) qatnashgan bo‘lsa, 2021-yilda 88 ta davlatlar (iqtisodiyotlar) ishtirot etishi rejalashtirilgan. Bu esa, o‘z navbatida, PISA baholash dasturining ta’limni modernizatsiyalashdagi o‘rni va qamrovi ortib borayotganidan dalolat beradi.

Ishtirot etmoqchi bo‘lgan 88 ta davlatdan 83 tasida kompyuterga asoslangan baholash dasturlari o‘tkaziladi.

O‘zbekistonning PISA baholash dasturida ilk bor ishtirot etayotganligi o‘z navbatida maktab o‘qituvchilari va o‘quvchilariga mazkur dasturning mazmun-mohiyati, nazorat-sinov instrumentlari haqida tizimli malaka oshirish zaruriyatini tug‘diradi va bu dasturda yuqori natijalar bilan ishtirot etishda muhim omil hisoblanadi. PISA xalqaro baholash dasturini tashkil etishda pedagogika yo‘nalishlari bitiruvchi talabalarni umumiy o‘rtta ta’lim muassasalariga ishga kelishda baholash dasturiga tayyor holda kelishlarini ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, PISA xalqaro baholash dasturi yo‘nalishidagi fanlar o‘qituvchilari uchun ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasini joriy etish bo‘yicha qisqa muddathli malaka oshirish kurslarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. O‘z navbatida, PISA xalqaro baholash dasturi tizimli ravishda ilmiy-dastur ishlari o‘tkazishni taqozo etadi va mazkur dastur ishlari ta’lim tizimini yo‘nalishini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro baholash dasturlarida ishtirot etish O‘zbekistonga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- dasturlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta’lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallangan o‘rni to‘g‘risida xulosalar chiqarish imkonini beradi;
- milliy ta’lim tizimini isloq qilish, ta’lim mazumunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qo‘llaniladi;
- xalqaro dasturlar ta’lim sohasidagi milliy dasturlarni sifatli o‘tkazishga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi;
- O‘zbekistonda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda xalqaro dasturlarda ishtirot etish orqali mahalliy mutaxassislarimizda monitoring dasturlarini o‘tkazish madaniyati rivojlanadi, ta’lim sifatini baholashning xalqaro standartlarga moslushuviga olib keladi;
- milliy ta’lim sifatini baholashdagi nazorat materiallarini xalqaro dasturlarda qo‘llaniladigan nazorat materiallari sifati darajasida ishlab chiqarish imkonini beradi.

O‘tkaziladigan xalqaro tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari hamda o‘quv adabiyotlari mazmuniga

o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishni yo‘lga qo‘yish va PISA baholash dasturi yo‘nalishidagi savollarni o‘zida mujassam etgan o‘quv dasturlari asosida qo‘shimcha metodik qo‘llanma va adabiyotlar yaratishi lozim.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O‘zbekiston TIMSS va boshqa xalqaro tadqiqotlarda qatnashish orqali rivojlangan mamlakatlar tajribalarini O‘zbekiston ta’lim tizimida qo‘llash, o‘z natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash hamda ta’lim tizimida turli ta’lim texnologiyalari, o‘qitish va ta’lim-tarbiyaning yangi metodlarini joriy qilish imkoniyatlarga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Oliy talim muassasalarida talim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son. 2018.05.06.*
2. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – B.71.*
3. *Bildungsmonitoring Schweiz: Für das Leben gerüstet? Die Grundkompetenzen der Jugendlichen-Nationaler Bericht der Erhebung // PISA 2000, p.9*
4. *PISA 2009// <https://www.oecd.org/pisa/pisaproducts/46619755.pdf>, p.9.*
5. *Reiss K., Weis M., Klieme E., Köller O. PISA 2018 Grundbildung im internationalen Vergleich// Waxmann Verlag 2019, p. 266.*
6. *OECD PISA Strong Performers and Successful Reformers in Education. Paris 2014- 193-p 4. Vaxobov M. M. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘qitish sifati monitoringi modelini takomillashtirish. – T., 2016. – 61b 5. © 2016 TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Education, Boston College, and International Association for the Evaluation of Educational Achievement. All rights reserved.*

MUNDARIJA

BIRINCHI SHO'BA: YANGI O'ZBEKISTONDA OILA INSTITUTINI RIVOJLANTIRISH VA XOTIN-QIZLARNI IJTIMOIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING MAZMUN VA MOHIYATI

Narbayeva T.K. Oilaviy zo'ravonlikning kelib chiqish sabablari va uni bartaraf etishning innovatsion mexanizmlari	4
Шин В.А. Современные тенденции партнерства с семьей системы дошкольного образования Республики Узбекистан	9
Shotursunova N.N. Ayolga hurmat – oilaga, jamiyat kelajagiga e'tibor ifodasi.....	12
Egamberdiyeva N., Mamanova N.K. Baxtlilik darajasini aniqlash – zamonaviy kishilik jamiyatining rivojlanish ko'rsatkichi sifatida.....	15
Мамедова Г. Развитие государственной семейной политики в Азербайджане: современная Азербайджанская семья и национально-нравственные ценности.....	18
Мелентьев Д.В. Актуальные проблемы института семьи в Узбекистане: поиск баланса между гендерным равенством и национальными ценностями.....	21
Shoumarov G'. O'zbekistonda oilaning ijtimoiy-psixologik muammolari va yechimlari.....	26
Nurmatova M.A. Oilalarni mustahkamlashda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlarining o'rni.....	29
Jamoldinova O.R. Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikka qarshi kurashish masalalari.....	32
Aburahimova F.Y. Xotin-qizlarni ijtimoiy muhofaza qilishning huquqiy asoslari	35
Alimjanova D.M., Kuldasheva G.D. Barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lif muassasalari hamkorligining ahamiyati.....	38
Musurmonova O. The modern family and its spiritual and moral foundations.....	41
Xoliqova M. Oila mediatsiyasining g'arb davlatlarida rivojlanish tendensiyalari.....	45
Xakimova M.F., Mamatqulova M.M. Oila mustahkamligini ta'minlashda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish.....	49
Baybayeva M.X. Ta'lif muassasalarida rahbar ayollarning o'quv jarayoni samaradorligini oshirishdagi roli	52
G'afforova M., Jo'rayeva N. Yosh oila tushunchasi, mohiyati va uning o'ziga xos xususiyatlari	55
Алимова Г. Усиление роли женщины в предпринимательской деятельности – как фактор повышения благосостояния семьи	59
Nurmatov E.A. Maktabda chizmachilikni o'qitishda hamkorlik pedagogikasining o'rni	62
Nurmatova N.U. O'quvchi-qizlar ijtimoiy faolligini oshirishda mehnat tarbiyasining tutgan o'rni	65
Qoriyev A.U. Oilada ta'lif olish huquqining "ta'lif to'g'risida"gi qonunda mustahkamlanishi	67
Roziqova G. Maktabgacha ta'lif muassasalarida oila bilan olib boriladigan ishlar.....	69
Кубатов Ш. Вопросы прогрессивного исламского феминизма:	
диалог западных и восточных культур	71
Axmadaliev B.S. O'quvchilarni innovatsion yondashuv asosida tarbiyalashning mazmuni va tarkibiy qismlari ko'rinishlari	76
O'tanov X. Erkin jamiyat xotin-qizlari ilm-fan yo'lida	78
Beketov N.A., Yesirkepova B.T., Ergashova F.A. Boshlang'ich sinflarda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi	81

IKKINCHI SHO'BA: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OILA FAROVONLIGI VA DEMOGRAFIK RIVOJLANISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Tuychiyeva G.U. O'zbekistonda oilaviy mojarolarning oldini olishda konfliktologiya imkoniyatlari	84
Xojayev S.J., Sodiqov F.F. Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod bo'lganlarning oilaviy muammolari va uni bartaraf etish yo'llari	89
Babashev F. Oilada axborot xavfsizligini ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari	92
Isamutdinov R.R. "Xafvsiz mahalla" tamoyilini joriy qilishda "xafvsiz oila" mezonining o'rni va roli..	95
Bayjonov F.B. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining joriy holati va me'yoriy-tashkiliy bazasini mustahkamlash yo'llari	99
Mirakbarova D.A. Ajrim sabablari va ularning diniy va dunyoviy bilimlar asosidagi tahlili	101
Maxsudova M. Oila farovonligiga salbiy ta'sir etuvchi psixologik omillar.....	105
Mustanov U.Z. Barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi konsepsiysi	109
Imomov I.A. Oliy ta'lif muassasalari talabalari o'rtasida uchraydigan ziddiyatlarni pedagogik tashxis etish	111
Karimova A.M., Ma'rufova M.E. Maktabgacha yoshdagি bolalarda oila haqidagi tasavvurlarni boyitish.....	114
Berdiyev D.N. Oila va xotin-qizlar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni targ'ib etish.....	116
Farmonov O'.N. Kreativ yondashuvlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik tushunchalarni shakllantirish.....	117
Мухаматкулова П.М., Бурханова Л.М. Актуальные проблемы и особенности государственной регистрации расторжения брака и перспективы законодательства Республики Узбекистан в этом направлении.....	120
Babajanova D.I. Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvni fuqarolik-huquqiy tartibga solishning asoslari.....	123
Xolov A.X, Mahmudov Sh.P. Mavjud muammolarni hal etish uchun mahallalar tizimida iqtisodiy dastaklarni qo'llash zaruriyati.....	126
Mansurova M.A. Yosh oilalarda nizo va ajirlarning asosiy omillari	131
O'tayev A.Y., Sobirova S.R. Xiva – sharq memorhiligining yuksak namunasi.....	134
Umirzakova N.A. Tashqi mehnat migratsiyasi va oiladagi munosabatlar deformatsiyasi	136
Sobirova S.R. Chizmachilik mashg'ulotlarida o'quvchilarga mustaqil grafik topshiriqlar to'plami mazmunini shakllantirish va tayyorlashni o'rgatish.....	138
Kabirova M.Sh. O'zbekistonda oila institutining rivojlanishida nikoh-ajralish jarayonlari va ularning hududiy jihatlari.....	140
Mirzayeva F.O. Oilaviy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari	143
Даукаева Х.В. Влияние пандемии covid-19 на родителей, детей и функционирование семьи.....	145
Ochilov F.I., Axunova D.U., Solixova Sh.A. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining shaxsiy-insoniy va fuqarolik xususiyatlari.....	148
Xaydarova X.X. Shahar qiyofasi oila farovonligi timsolida	150
Narimbetova Z.A., Yuldashev S.U., Masalseva T.V. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ongida tolerantlik tushunchalarini shakllantirish.....	152

UCHINCHI SHO'BA: OILADA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASHNING HUQUQIY, IQTISODIY VA IJTIMOIY ASOSLARI

Ismaylova R. Oiladagi gender munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari	155
Narimbayeva L.K., Dexqonboyev Sh.M. Iqtidorli bolalarni izlash, aniqlash va qobiliyatlarini rivojlantirish	157
Ишанханова Г.А. Правовые основы предотвращения семейного насилия: международные и национальные механизмы	159
Tovboyeva M.S. Oiladagi nizolarga despotizmning psixologik ta'siri	167
Shayakubov Sh.Sh. Ensuring gender equality – increasing the rights and opportunities of women	169

Oribboyeva D. Oilada zo'ravonlik va uning ko'rinishlari	172
Ismailova Z.K., Baybayeva M.X. Boshqaruv faoliyatida gender tenglikni ta'minlash va xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish	175
Saribaeva U.S., Norqulov H.D. Oiladagi ruhiy-jismoniy zo'ravonlik va uning bartaraf etilishida psixologik bilimlarning roli	177
Мадаева Ш.А., Кумушева М.М. Фактор ислама в формировании гендерных отношений в Узбекистане: историко-философский анализ	179
Yusupova D.D. Gender stereotiplarining xotin-qizlar hayotiga ta'siri	183
Эгамбердиев Э.Х., Аширбоева М.Н. Соотношение принципа равенства прав мужчины и женщины в семейных отношениях и вопросах гендерного равенства с объективными реалиями в Республике Узбекистан	186
Muxitdinova F.A. O'zbekiston yangilanish jarayonida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlashning dolzarbligi	188
Eshmanova N.N. Yoshlarning barkamolligini ta'minlashda ayol pedagoglarning tutgan o'rni	197
Shamsiddinova O.B., Karimova Z.L. Er-xotin va boshqa oila a'zolarining mol-mulkdan foydalanish huquqi.....	198
Shomurotova N.N. Oilaviy zo'ravonlikning ijtimoiy psixologik xatarlari	202
Sobirova S.R. Yoshlarning ma'naviy bilimlarini shakllantirish masalasi.....	205
Imomova U.M. Oilada gender tenglikni ta'minlashning huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy asoslari	207
Agzamkhodzhayeva S. Formation of gender identity in the process of socialization	209
Абдуллаева М.С., Анаркулов А.Д. Взаимообусловленность показателей гендерного равенства и экономического роста	214
Akramova F.A. Oilada ijtimoiy ustaganovka va stereotiplarning gender tafovutlari	217
Ermatova G.P., Ergasheva L. Jamiyatda ayollarning mavqeyi, huquq va erkinliklari	221
Tashpulatova D.M., Salomova M.X. Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining uslubiy-matematik tayyorlarligining tashkiliy va psixologik-pedagogik shart-sharoitlari	224
Xaydarov I.O. Yoshlarni olilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy psixologik muammolari	226
Riskulova K.D., Ismailova Z. The impact of gender approaches on educational effectiveness.....	229

TO'RTINCHI SHO'BA: OILA TARBIYASIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Ibraimov X.I. Oilada milliy fazilatli shaxsni tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlari	235
Gimazutdinov R.G., Manzurov A.X. Talabalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish	238
Xudoyerdiyeva Z.X., Ravshanbekova B. Ta'lim sifatini takomillashtirishda xalqaro baholash dasturlarini joriy qilish.....	240
Abdullayev A.A., M.Ilesbayeva A., Jaylauova P.B. O'qituvchining ma'naviy qiyofasi, pedagogik va axloqiy madaniyati	243
Shamiyeva O.R., Ermatova G.P. Amir Temuring oila boshqaruvidagi ibratli jihatlari	244
Xudoyerova O., Muradov I., Meyliev Sh. Bolalarni milliy, ma'naviy va diniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalalari	247
Soatov E.M., Xusenbayev A.G'., Yandashasheva D.K. Yosh sportchilarni jismoniy tayyorlash	249
Saidkulov N.A. Oila tarbiyasida yoshlarning siyosiy madaniyatini rivojlantirish masalalari	251
Abdulazizov A.X. Oila tarbiyasida mutolaa madaniyati.....	255
Muhiddinova D.A. Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'rni va ahamiyati	257
Jabborova O.M. Boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholashda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish	262
Abdullayeva B.P., Nazarova S. Boshlang'ich ta'linda pedagogik texnologiyalarning o'rni va roli	264
Karimova A.M., Xakimova M.O'. Maktabgacha yoshdagisi bolalarni oilaviy an'analar asosida tarbiyalash	266
Musayeva N.Q., Murodullayeva G. Oilada ilk yoshdagisi bolalar nutqini rivojlanirish.....	268

Ermatova G.P. Oilada milliy qadriyatlarlarimiz asosida bolalarda sotsial intellektni shakllantirishning ijtimoiy psixologik asoslari	270
Nasirov I.Z., Zokirov I.I. Oilaviy muhitda bolalarga ijodiy fikrlashni o‘rgatish.....	273
Narzullaeva B.X. Mahalla va xotin-qizlar bilan ishlash va oilada ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo‘yicha mutaxassis faoliyatini takomillashtirish.....	276
Muxsiyeva A. Oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy fazilatlarini tarbiyalash – mamlakat taraqqiyoti omili	278
Xidirova N.O‘. O‘zbek xalqi milliy urf-odat va an’analarida yetim bolaga munosabat masalalari.....	280
Tursunov R.A. Milliy qadriyatlar hamda ma’naviyat ruhida shakllantirilgan oilada ijtimoiy muhit va tarbiya masalasi	283
Toshpo‘latova N.O., Qoriyev A.U. Ta’limda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’limning o‘rni.....	286
Bo‘stonov A.S. O‘quvchi-yoshlar tarbiyasida oila va ijtimoiy muhitning o‘rni	288
Jo‘rayeva I.P. Farzand tarbiyasida sharq mutafakkirlarining ilmiy merosidan foydalanish yo‘llari	291
Mirzahmedov X.A. Yoshlar tarbiyasiga innovatsion yondashuv	293
Турдиева Н.М. Роль и значение национальных ценностей в семейном воспитании	296
G‘iyosov B. Oila institutida ota-onaning farzand tarbiyasiga e’tibori masalasi.....	299
Beknazarova L. O‘zbek xalqining ma’naviy merosi oila ravnaqini ta’minlovchi tarbiya vositasi sifatida	302
Shukurova D. Maktabgacha yoshdagi bolalar milliy tafakkurini shakllantirishda oilaviy tarbiyaning o‘rni	305
Ergasheva S. Oila tarbiyasiga xos sharq mutafakkirlarining qarashlari.....	307
Ernazarov R. Oilaviy munosabatlarda bolalar tarbiyasiga milliy qadriyatlar asosida yondashish.....	309
Abdinazarova N. Oilada bolalarni milliy ruhda tarbiyalash	311
Orifova S.Y. Oiladagi ruhiy muhitning o‘smir tarbiyasiga ta’siri.....	313
Ergashev H.A. Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘rni.....	316
Bekova Sh.J. Oilada bola tarbiyasining psixologik – pedagogik xususiyatlari	318
Abdurasulova F.R., Muxsumova Z.Z. Oila – ma’naviy tarbiya o‘chog‘i	320
Voxidova N.X., Saydazimova M. Oila ma’naviy – axloqiy tarbiya maskani sifatida	322
Ro‘ziyeva G. Oilada maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalash masalalari	334
Xolmatova S.Q., Abdujalilova M.M., Seidova S.M. Boshlang‘ich ta’limda xalqaro baholash dasturlaridagi pisa dasturining vazifalari va imkoniyatlari.....	328

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAHALLA VA OILANI QO'LLAB-QUVVATLASH VAZIRLIGI**

"MAHALLA VA OILA" ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

**OILA INSTITUTINI MUSTAHKAMLASHNING DOLZARB MASALALARI:
MILLIY VA XORIJIIY TAJRIBA**
xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi

**АКТУАЛЬНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ УКРЕПЛЕНИЯ ИНСТИТУТА СЕМЬИ:
НАЦИОНАЛЬНЫЙ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ**
международная научно-практическая конференция

**CURRENT TRENDS IN STRENGTHENING THE FAMILY:
NATIONAL AND INTERNATIONAL EXPERIENCE**
International scientific-practice conference

"Mahalla va oila nashriyoti"

Toshkent – 2021



1940

Nashr uchun mas'ul: **B. Mavlonov**
Muharrir: **U. Yunusov**
Badiiy muharrir: **F. Sobirov**
Dizayner-sahifalovchi: **L. Abdullayev**

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 26.09.2021.

“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 3,0. Adadi 100 nusxa.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoiliy ko‘chasi 1-G uy.

«SANBOOK EXCLUSIVE PRINT» XK bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent, Yangihayot tumani, 5-qurilish hududi, 9-uy.